Tadqiqot UZ

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

№17
30 июнь

conferences.uz

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ
10-ҚИСМ

МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ 17-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-10

MATERIALS OF THE REPUBLICAN 17-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-10

ТОШКЕНТ-2020

УЎК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 17-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 454 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

8.Адабиёт
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси
© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Сатторова Маҳлиё Бурхановна
ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. 20
2. Seytmuratova Svetlana
BASLAWÍSH KLASLARDA KELBETLIK SÓZ SHAQABÍN «KLASTER» USÍLÍ ARQALÍ OQÍTÍW 22
3. Сойилова Гулмира Бурхоновна
МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР ПЕДАГОГИКАСИ ВА УЛАРНИНГ ТАРБИЯСИДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ 24
4. Тешаев Охунжон Комилович, Ризаева Гулноза Хикматулоевна
АКТИВИЗАЦИЯ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ПРИМЕРЕ РАЗДЕЛА МЕХАНИКИ 26
5. Turdıbaeva Gulshiyra
BASLAWÍSH KLASS OQÍWSHÍLARÍNA NAQÍL-MAQALLARDÍ ÚYRETIWDIŃ ÁHMIYETI 29
6. Уразбаева Дилбар Абдуллаевна, Сабирова Каромат Садуллаевна
ОНКОПСИХОЛОГИЯ СОҲАСИ РИВОЖЛАНИШИДА ОЛИБ БОРИЛГАН БАЪЗИ ТАДҚИҚОТЛАР 31
7. С.Р.Ураимов., Г.О.Шахбозова
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ДАСТУРИГА КИРИТИЛГАН ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСЛУБЛАРИ 33
8. Усманова Икболхон Тохиржоновна
ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ДЛЯ УЧИТЕЛЕЙ, ПЕРЕХОДЯЩИХ НА ОНЛАЙН ОБУЧЕНИЕ. 35
9. Ҳафизова Хадича Хафиз қизи Самарқанд вилояти,
Яхшибоева Замира Абдукомиловна
БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ИЖТИМОИЙЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ 38
10. Худоярова Д.Р., Кобилова З.А., Шопулотов Ш. А.
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ КАК ИННОВАЦИОННЫЙ МЕТОД ПРЕПОДАВАНИЯ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ 40
11. Хуррамова Лола
ДАРСЛАРДА КЎРГАЗМАЛИЛИКДАН УНУМЛИ ФОЙДАЛАНИШ 43
12. Эргашев Хуршид
ИМКОНИЯТ ВА МАСЪУЛИЯТ ИШОНАСИ 44
13. Юсупова Дилафруз Камчинбековна
ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ИГР В НАЧАЛЬНОЕ ОБРАХОВАНИЕ. 46
14. Adiba Djumayeva Ilxomjonovna
TA'LIMNING SIFATLI BO'LISHIDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILIYATI VA MAHORATINING AHAMIYATI 49
15. Иномова Дилором Абдулхамитовна
АНАЛИЗ ИГРОВЫХ МЕТОДИК, ПРИМЕНЯЕМЫХ НА УРОКАХ 51
16. Isoqova Zarifa
O'QUVCHI-TALABALARGA MASOFAVIY TA'LIM BERISHDA MOBIL ILOVALARNING O'RNI 53

17. Jakbaraliyeva Nodira
BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY MASALALARNING O‘RNI 55
Yulchiyeva Muhayyo 55
18. Tolipova Ravzaxon
INFORMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA INTERNETDAN OQILONA FOYDALANISHNI O‘RGATISH 57
19. To‘xtasinova Malikaxon No‘monovna, Isakbayeva Gulchexraxon Dadamirzayevna
BOSHLANG‘ICH SINFDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING YO‘NALISHLARI 59
20. Vasiyeva Komila Xakimjonovna, Zokirova Gulbahor Xabibullayevna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ARIFMETIK AMALLARNI OSON HISOBLASH USULLARI HAQIDA 61
21. Юсупова Зубайда Ботиралиевна, Махсудова Дилором Абдупаттаевна
ЎҚУВЧИЛАРГА ЖАҲОН АДАБИЁТИНИ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ 63
22. E.E. Qanaatov
QARQALPAQ XALQÍNÍŃ JAŃADÁRYa DÁWIRINE BAYLANÍSLÍ TARIYXÍY JÍRLARÍ 65
23. Abdimurotova Yulduz Abduazimovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARNING O‘QISH DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH 67
24. Abdullayev Amanbay Alimovich
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O‘TISH METODIKASI 69
25. Abdullayeva Zebiniso Saidanazarovna
SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA JISMONIY RIVOJLANISHNING UYG‘UNLIGI - BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI 71
26. Abdullayeva Shahnoza Maqsudbekovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA VA NUTQNING O‘SISHIDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI 73
27. Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna, Umarova Mohidilxon Ravshanbek qizi
O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA TEXNOLOGIK YONDASHUV 75
28. Abdullayeva Sarvinoz Ibadullayevna
“ODAM ANATOMIYASI VA ANTROPOLOGIYASI” FANIDAN TAYANCH-HARAKATLANISH SISTEMASI (TIZIMLARI) MAVZUSINI YORITISHDA ELEKTRON ATLASLARDAN FOYDALANISHNNG AFZALLIKLARI 76
29. Abdullayeva Mahliyo Ibrohimjonovna
INTERFAOL TA’LIM VA UNING IMKONIYATLARI 78
30. Abdullayeva Shaxlo Batirovna
UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI DARSLARIDA MASHQ, KITOB BILAN ISHLASH, AMALIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI 79
31. Abdullayeva Mo‘tabar Mamanazirovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SO‘Z TARKIBINI O‘RGANISH 81
32. Abdulxapizova Dildora Dadajonovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ERTAK O‘QISH METODIKASI 83
33. Abdumalikova Dilshoda Sherali qizi, Khayitmatova Aziza Hojimurot qizi
THE ROLE OF THE PEDAGOGICAL CLUSTER IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE EDUCATION AND ITS PROSPECTS 84

34. Abduraximova Muxlisa Ma’murovna
BOLALARNI O‘QITISH METODIKASI....86
35. Abdurayimova Zarifa Raxmatillayevna
O‘QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI....87
36. Abdusattarova Hosiyat Rahimovna, Sa’dullayeva Xovvajon Abdusherifovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MIQDORLAR HAQIDA TUSHUNCHA BERISHNING NAZARIY ASOSLARI....89
37. Ablayeva Zamira Teshayevna,Ostonzoda Xosiyat Otabek qizi
“USTOZ - SHOGIRD ” TIZIMI – TA’LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH VOSITASI....91
38. Adamboyeva Dilfuza Rayimbayevna
CHET TILLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI....93
39. Azimova Ra’no Sobirovna, Ahmadjanova Sohibaxon Ismoiljonovna
NEMIS MATEMATIKASINING YORQIN TIMSOLI....95
40. Akbarova Hilola Usmonovna, Raximova Malika Yusufjonovna
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SINFDAN TASHQARI O‘QISHNI TASHKIL ETISH....97
41. Alixanova Sohibaxon
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH....99
42. Aliyeva Gulbahor Rashidhanovna
INFORMATIKA DARSLARIDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIGA NISBATAN KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH....100
43. Allamova Hafiza Madiyorovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL TA’LIM METODLARINING O‘RNI....102
44. Allonova Dilafro‘z, Primova Mashhura
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARS JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR....103
45. Anorboyeva Alomat Baxodirovna
BOSHLANG‘ICH SINFDA IZOHLI O‘QISH JARAYONINI QO‘LLASH....106
46. Aripova Shaxnoza Afzalovna
SAVODGA O‘RGATISH DAVRIDA DIDAKTIK O‘YINLARdan foydalanish yo‘llari....108
47. Aripova Irodaxon Mamirovna, Xusanova Iqboloy Rasulovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH USULLARI....110
48. Artikov Marks Sultonovich
NEMIS TILI FANIDAN O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH, RAG‘BATLANTIRISHDA “SIRLI BAHO” USULIDAN FOYDALANISH....112
49. Ashurova Sarvinoz Fahriddin qizi
PEDAGOGIK TIZIM – INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING ASOSI....113
50. Asqarova Ziyoda Maxkamovna, Ismanova Nafisa Murodjonovna
VIDEOTASVIRDA ODAM QO‘L HARAKATI KOORDINATALARINI ANIQLASH VA KOMPYUTERNI MASOFADAN BOSHQARISH....115
51. Atayeva Roxat Abdullayevna, Bobojonova Dilfuza Allaberganovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TABIATSHUNOSLIK TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI....117
52. Avliyoqulova Muqaddas Nasulloyevna, Hayitov To‘ymurod Vohid o‘g‘li
FALSAFA VA ZAMON....119

53. Axmadaliyeva Zamira Mamadaliyevna
INFORMATIKA DARSLARIDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 121
54. Axmadjonova Ozoda Sadiqjonovna
НОМЛАР – ХАЛҚ ТИЛИНИНГ ЭНГ ҚАДИМГИ ЁДГОРЛИКЛАРИ СИФАТИДА 122
55. Axmedova Aziza Abdulloyevna
THE ROLE OF VIDEO LESSONS IN DISTANCE LEARNING 123
56. Axunova Matlyuba Toxtaxodjayeva
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MILLIY G‘OYA TUSHUNCHASINI SHAKILLANTIRISH 125
57. Aymuratova Gulziyra Taumuratovna
THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE TEACHING METHODS 127
58. Azimova Habiba Eshniyozovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TA’LIM BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI 128
59. Azimova Mohidil Islomjonovna
TARBIYA — INSONNI SHAKLLANTIRISH OMILI 130
60. Azimova Umida Latipovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARNING ROLI 131
61. Azimova Odina Jamoliddinova
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SIFATNI O‘RGANISH TIZIMI. MAVZUNI O‘RGANISHNING VAZIFALARI. SIFATNI O‘RANISH JARAYONIDA LEKSIK-STILISTIK ISHLAR 133
62. Azizova Mavjuda Kamolidinovna
BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. 134
63. Babojanova Gulshoda Raximberganovna, Meyliyeva Muxayyo Tangriberganovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA ONA TILI DARSLARINI O‘RGATISH METODIKASI VA SAMARALI YO‘LLARI 136
64. Babojonova O‘g‘iljon Kalandarovna
SO‘Z TARKIBINI O‘RGANISH METODIKASI 137
65. Bafoyeva Mohigul Jalolovna
O‘YIN TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI. 138
66. Begmanova Xilola Maxsudovna
SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA AUDIO ERTAKLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI 139
67. Begmatova Shoira Rahimjonovna, Ma’murova To‘xtaxon Abdullayevna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ADABIY TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASH 141
68. Bekchanova Mardona Baxtiyorovna
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASH 143
69. Berdiyeva Nilufar Saitnazarovna, Avezova Soxiba Raximovna
HAMKORLIKDA O‘QITISH TA’LIM YONDASHUVLARI 144
70. Berdiyeva Xolbibi
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI O‘QITISH 146
71. Beshimova Laylo Samadovna
FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION METODIKALAR 148

72. Bobajonova Feruza Bekpo‘latovna
BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYARDAN FOYDALANISH METODIKASI 150
73. Boboxolova Gulshan Igamberdiyevna, Bozorova Gulandom Muxammadovna
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH 152
74. Boltaboyeva Shohista Iromjonovna
MUSIQA DARSLARIDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AHAMIYATI 154
75. Boratova Nilufarxon Toshtemirovna, Mirzaabdullayeva Hurriyatxon Abdumannapovna
O‘QUVCHILARNING BILIMI VA FAOLLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH 155
76. Boriyeva Go‘zalxon Sotiboldiyevna, Sultonova Mamlakatxon Sotivoldiyevna
SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH USULLARI 158
77. Ботиров Норқобил Амирович, Усмонов Жавохир Низомитдинович
ПЕДАГОГНИНГ МАҲОРАТИ ВА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ 160
78. Bozorova Muxtaram Jo‘raqulovna
STEAM TEXNOLOGIYASI – KELAJAK TA’LIMI 162
79. Darmonboyeva Dilnoza Sharobiddinovna
BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA OLMOSH MAVZUSINING O‘RGANILISHI. KISHILIK OLMOSHLARI VA ULARNING GRAMMATIK VAZIFALARI 164
80. Davlatboyeva Dilfuza Rustamovna
METAFORA VA UNDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI 166
81. Davlatova Farog‘at
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA MANTIQIY MASALALARDAN FOYDALANISH 167
82. Davronova Gulchehra Axtamovna
MULTIMEDIALI DARSLARNI TA’LIMDAGI O‘RNI. 168
83. Davurova Dilobar, Mamato‘rayeva Ozoda
MAKTABDA AXLOQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISH 169
84. Djakbarova Nargiza Amanovna
INFORMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI MATERIALLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING TURLARI 171
85. Djaliova Karomat Raxmanovna
KASBIY KOMPETENTLIGI SHAKLLANGANLIGINI ANIQLASH 172
86. Djalilova Muqaddas Raxmonovna
KASBIY KOMPETENTLIGI SHAKLLANGANLIGINI BAHOLASH METODLARI 174
87. Djalilova Xurshida Yuldashevna
O‘QISH DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN METOD VA USULLAR 176
88. Djo‘rayeva Iroda Djamolovna
BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARGA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI. 178
89. Djumaqulova Sayohat Djurayevna
SHAXSIYATNI SHAKLLANTIRISHDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING O‘RNI 180
90. Egamova Maftuna Murodovna
VOYAGA YETMAGAN O‘SMIRLAR XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI 182

91. Ergasheva Dilbarxon Abduqaxxarovna
KASBIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK ODOB VA PEDAGOGIK MADANIYATNI YANADA RIVOJLANTIRISH 184
92. Ergasheva Mukarram Meliboyevna, Rahmonberdiyeva Feruza Xabibullayevna
TA'LIM JARAYONIDA AKT 185
93. Ergasheva Sayyora Uktamovna 186
TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA TAYANCH KOMPETENSIYALAR 186
94. Ergasheva Shoira Toshtemirovna, Turayeva Maxfuza Yuldashevna
BOSHLANG'ICH SINF- ONA TILI DARSLARIDA O'YIN USULLARIDAN FOYDALANISH 188
95. Ergasheva Osuda Davlataliyevna, Ergasheva Osuda Davlataliyevna
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA SAVOD O'RGATISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISH 190
96. Erkaboyeva Nodiraxon Adxamjon qizi
O'QISH DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH 192
97. Eshanova Dilnoza Shamuratova
TA'LIM SOHASIDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISHI 194
98. Sadikov Furqatjan Ismoilovich
BOLALARGA BERING DUNYONI 195
99. Shaydullayeva Feruza Israilovna
BOLA TARBIYASIDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH 197
100. Fayzullayeva Dilrabo Rahmonovna
BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINI TASHKIL QILISH 199
101. Fayzullayeva Maftuna Odil qizi
"MUNSHAOT" TARKIBIDAGI IKKI RUBOIY HAQIDA 201
102. Фазилдинова Муслима Қосимжон қизи
ЛИЧНОСТНО- ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ. 203
103. Fozilova Oysha Rahimovna
TA'LIMDA ELEKTRON RESURSLAR 205
104. Ganjayeva Indira Uktamovna
TA'LIMI JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIKA USULLARINI QO'LLASH 206
105. Giyasova Salima Farkhod kyzy
PERFECTION IS THE CHILD OF TIME 208
106. Qutbidinova Husnidaxon Shuhratovna
BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODI - MILLIY TARBIYANING ASOSI. 210
107. Khabibullayeva Rushana
WHY IS CREATIVITY SO IMPORTANT IN HIGHER EDUCATION? 212
108. Xaitmirzayeva Barno Nuruddinova
O'QISH DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH 213
109. Hamdamova Yoqutxon Abdusattarovna, Karimova Sevara Zokirjonovna
TENGSIZLIK ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI 214

110. Hamraqulova Feruza Akbarovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ILMIY-OMMABOP ASARLARNI O‘QISH METODIKASI....216
111. Haydarova Mahbubaxon Ne’matovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ODOB-AXLOQ TUSHUNCHALARI VA MA’NAVIYAT NEGIZINI SHAKILLANTIRISH....217
112. Haydarova Nozigul Bahrom qizi, Teshayeva Mashhura Qo‘ldoshevna
O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDA ERKIN FIKR YURITISHLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI....219
113. Haydarova Yulduzxon Adashevna
O‘QISH DARSLARIDA NUTQ O‘STIRISH....221
114. Haydarova Ra’no Djasurova
UMUMTAL’IM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING YANGICHA USULLARI....222
115. Xusanova Xolidaxon
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI HISOBLASHGA O‘RGATISH“NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....224
116. Ibragimova Gulnoz Bahodirovna
BOLALARDAGI NUTQIY RIVOJLANISHNING BUZILISHLARI....225
117. Ibragimova Ra’no Ubaydullayevna
INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA SINONIMIK FRAZALARNING AHAMIYATI....227
118. Ibragimova Gulxumor G‘anijonovna
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OLMOSH TURKUMIGA....229
119. Ibrohimova Nozimaxon Abdullajonovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MEHNAT DARSLARIDA APPLIKATSIYA ISHLARI ORQALI IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH....231
120. Igamova Yulduz Ilxomovna, Murodova Madina Soliyevna
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSQICHIGA TAYYORLASHDA ULARNING NUTQINI O‘STIRISH MUAMMOLARI....234
121. Imomova Gulbahor Xabibullayevna
TA’LIMNING TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRUVCHI ASPEKTLARI VA O‘QITUVCHI SHAXSI....236
122. Inamova Muqaddas Isoqjonovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARGA SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA NUTQ KO‘NIKMALARINI O‘STIRISH....239
123. Inamova Komilaxon Valiyevna
BOSHLANG‘ICH SINFLAR DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH....241
124. Irg‘oziyeva Matluba Muhammadjonovna
LEARNING IN COLLABORATION IN ENGLISH LESSONS....243
125. Ishanxonova Tilobatxon Muratxonovna
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI....245
126. Ismaylova Gulay Reymovna
INTERACTIVE METHODS OF ACTIVITIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES....246
127. Исмоилова Рано
ОНА ТИЛИМ - МИЛЛАТ ҒУРУРИ....247
128. Israilova Zulxumor Abdikadirovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ODOB-AXLOQ VA TARBIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH....249

129. Isroilova Shoira Turg‘unpo‘latovna
BOSHLANG‘ICH TA’LIM DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 251
130. Jabbarova Dilafruz
BIOLOGIYA VA KIMYO FANINI O‘QITISHDA “REZYUME” INTERFAOL TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. 253
131. Dilnoza Jabboraliyeva
“ONA TILI DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH VA NUTQ O‘STIRISH” 254
132. Jakbarova Oyazim Mutalipovna
YANGI XUSUSIY MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA YANGICHA TA’LIM-TARBIYA! 256
133. Jalilova Lobarxon Yusubaliyevna
SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA GRAMMATIK – ORFOGRAFIK BILIMLARNI AMALIY O‘ZLASHTIRISH 258
134. Jalolova Nasibaxon Orifjonovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARSLARNI QIZIQARLI VA SAMARALI TASHKIL ETISHDA INTEGRATSIYALASHGAN USULLARDAN FOYDALANISH 259
135. Jangirova Shahzoda Abdikodirovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH VA ONA TILI FANLARIDAN UYG‘UNLASHGAN DARSLARNI TASHKIL QILISH 261
136. Jangirova Ozoda Abdiqodirovna
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA MANTIQIY TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI 263
137. Jo‘raeva Umida Yuldashalievna, Mahmudova Dilfuza Mirzaahmedovna
AL’BERT EYNSHTEYNGACHA BO‘LGAN FIZIKADAGI QIYINCHILIKLAR 265
138. Jumanazarova Sayyora Najimovna
UMUMTA’LIM MAKTABLARDA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA METODLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH 267
139. Jumaniyozova Shoira Sotimboyevna
MAKTABDA NEMIS TILI FANINI O‘QITISHDA “QORA QUTI” METODIDAN FOYDALANISH. 268
140. Jumaniyozova Sumbuloy Azadovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRSHNING AHAMIYATI. 269
141. Jumaniyozova Nasiba, Avezmetova Maksuda
MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNING SHAXS SIFATIDA SHAKLLANTIRISHDA SPORTNING AHAMIYATI 270
142. Ozoda Jumanova
ZAMONAVIY TARBIYACHINING MTTDAGI VAZIFALARI VA XALQARO TAJRIBALAR 272
143. Zilola Jumayeva Muhiddin qizi
YOLG‘IZLIK MUAMMOSI VA UNING OQIBATLARI 275
144. Junayeva Dilrabo Boltayevna, Xolmatova Gulchehra Juraqulovna
PEDAGOGIK FAOLIYATDA O‘QITUVCHINING KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH 276
145. Kabulova Rayxan Rajapovna
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING SHAKLLANISH BOSQICHLARI 278
146. Kabulova Sabohat Bahodirovna, Sherjanova Nodira Alisherovna
INTELLEKTUAL SALOHIYATLI BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI 279

147. Kabulova Sabohat
TALABA - YOSHLARNING INTERNET TARMOG‘IDAN FOYDALANISHDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 281
148. Kadirova Nargiza Reymbaevna
MILLIY XAVFSIZLIKGA ETNIK JARAYONLARNING TA’SIRI 283
149. Kamoleddinova Shaxnozaxon Shavkatjonovna, Muminova Mamuraxon Abdujabborovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KASB VA MEHNAT FAOLIYATIGA TAYYORLASH 285
150. Kamolova Mahliyo Dilshodovna
O‘QISH FANIDA “VIDEO TOPISHMOQ” STRATEGIYASI 286
151. Karimova Nasiba Xolmirzayevna
TEXNOLIGIYA FANIDAN QOG‘OZDAN FOYDALANIB NARSA YASASH YO‘LLARI 287
152. Karimova Diyora Ravshanovna
USEFUL TIPS FOR ENGLISH EDUCATORS HOW TO CONDUCT TEACHING PROCESS EFFECTIVELY 288
153. Karimova Mohida Absattarovna
GEOGRAFIYA TA’LIMIDA NOAN’ANAVIY DARSLAR 289
154. Karimova Maqsuda Bahodirovna
SOG‘LOM BOLANI VOYAGA YETKAZISHDA DORIVOR O‘SIMLIKLAR O‘RNI. 290
155. Karimova Nargiza
KOMIL XORAZMIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI 291
156. Karimova Safura Raxmatullayevna
PISA VA PIRLS - O‘QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI BAHOLASH XALQARO DASTURLARI 292
157. Kasimova Xulkar, Karimova Nilufar
MILLIY GINASTIKA TIZIMINING YARATILISHI VA UNING PSIXOLOGIK JIXATLARI 293
158. Kawkaeva Rana Aytbaevna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA ELEMENTLARINI O‘RGANISH 295
159. Kayumova Madina Baxodirovna
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA MATEMATIK BILIMLARNI EGALLASHNING AHAMIYATI 296
160. Kuchkarova Nargisa Rahimjonovna
MASOFAVIY O‘QITISHNING AFZALLIKLARI 298
161. Kuzieva Fotima Mavlonovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI TASHKIL ETISHDA IJOBIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. 300
162. M.T.Rustamova
“USTOZ – SHOGIRD” ILMIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XARAKTERNI ISLOH QILISH 302
163. Madaminova Yarkinoy Saparboyevna, Yakubova Dinara
TEXNOLOGIYA FANINING O‘QUVCHILARNI IJODKORLIKKA YO‘NALTRISHDAGI AHAMIYATI 304
164. Firuza Madayeva Mamirjonovna, Farxod Tajibayev Zaylobiddinovich
KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISHNING INNOVATSION USULLARI 306

165. Madetbaeva Xurliman Saparg‘aliy qızı
KÍSHÍ MEKTEP JASINDAǴI BALALARDIŃ MEKTEPKE MASLASIWINDA ATA-ANALAR HÁM OQITIWSHILARDIŃ XIZMETÍ 308
166. Madrahimova Shoiraxon Mahamadaminovna
SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA YOZUVGA O‘RGATISH 309
167. Мадраимова Мархамат Рахимберrановна, Балтабаева Олеся Эркиновна
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ В ПРИМЕНЕНИИ К ПРЕДМЕТУ ЭКОНОМИКА В СТАРШИХ КЛАССАХ 310
168. Madumarova Nigora Abduqaxxorovna
TARBIYA MASALALARI XUSUSIDA 312
169. Махмудова Сохибахон Хамзаевна
ЎҚУВЧИНИНГ ШАХС СИФАТИДА РИВОЖЛАНИШИДА БАДИИЙ АСАРНИ ИФОДАЛИ ЎҚИШГА ЎРГАТИШНИНГ АҲАМИЯТИ 314
170. Makhsimova Risolat Qosimjon Qizi
THE IMPORTANCE OF PUBLIC RELATIONS (PR) IN MODERN INNOVATIVE EDUCATION: DEVELOPMENT TRENDS OF PR SCIENCE 317
171. Mamadaliyevna Azizaxon
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING “KITOBXONLIKKA” QIZIQISHLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. 319
172. Mamadaliyeva Xurshida Shaydullayevna
BOSHLANG‘ICH SINFLARGA XALQ MAQOLLARINI O‘QITISHNING AHAMIYATI 320
173. Mamatova Maxsuda Ikromjonovna
SAVOD O‘RGATISHDA ANALITIK-SINTETIK TOVUSH METODI 322
174. Mamatqulova Umida Ahmadjonovna
BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSIDA MATNLI MASALALAR YECHISH SAMARADORLIGI 323
175. Mardonova Dilfuza Boboqulovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH 325
176. Matchanova Dilfuza Yaqubovna
PEDAGOGIK MAHORAT VA PEDAGOGIK TIZIMNING TARKIBIY QISMLARI 327
177. Matkarimova Nilufar Boqijon qizi
PANDEMIYA SHAROITIDAGI TA’LIM ISLOHOTLARI 328
178. Matqosimova Omatoy Nabijonovna, Matyoqubova Mashhura Maxammadjonovna
BOSHLAHG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI O‘STIRISHDA MUAMMOLI TA’LIMNING ROLI 331
179. Matyaqubova Maloxat Yuldoshevna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUCHILARIGA ONA TILI VA ADABIYOT FANNINI O‘QITISHDA “DEBATLAR” TEXNOLOGIYASI INTERFAOL USULIDAN FOYDALANISH. 333
180. Maxanbetova Baxitjan Makenovna
BIOLOGIYANI O‘QITISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI 334
181. Mingboyev Azizbek Solijonovich, Shakirov Baxtiyor A’zamjonovich
MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALALAR YECHISHNING AHAMIYATI 335
182. Mirahmedova Marg‘uba Azamjonovna
O‘QISH VA YOZISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK TAVSIFI 337
183. Mirxonova Feruza Fayziyevna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI 338

184. Mirzakarimova Mohidil
MASOFAVIY TA'LIM – BILIM OLISHNING ENG OSON VA QULAY USULIDIR.....339
185. Mirzakarimova Dilfuza Mahamadjanovna
INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....341
186. Mirzakarimova Gulnora Maripjonovna
TARBIYACHINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH.....343
187. Mirzakarimova Munojatxon Maxamadovna
BOSHLANG'ICH SINFLARDA " ATROFIMIZDAGI OLAM" FANINI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISH.....344
188. Mirzamatova Guluzro Ravshanovna
O'ZBEK TILINING TOVUSH TIZIMI VA YOZUVI.....345
189. Mirzarahimova Marg'ubaxon Xoshimjonovna, Karimova Muyassar Mahmudillayevna
BUYUK MATEMATIK OLIMLAR IJODIGA BIR NAZAR.....346
190. Mirzayeva Dilorom Norovna
BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATI MUAMMOLARI.....348
191. Mirzayeva Karimaxon Xakimovna
O'QUVCHILARNING IMLOVIY BILIMNLARINI TAKOMILLASHTIRISH ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....350
192. Mohigul Jumayeva
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI BO'G'IN KO'CHRISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH.....352
193. G'ulmova Moxidil Mamasharifovna
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION G'OYALARDAN FOYDALANISH.....355
194. Mo'ydinova Rahimaxon Umarjonvna
O'LMAS UMARBEKOVNING "QIYOMAT QARZ" DRAMASIDA MILLIYLIK IFODASI.....357
195. Muhammadiyeva Nozimaxon Sayfiddinovna
MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI AQLI ZAIF BOLALAR NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....359
196. Muhayyo Ismoilova
COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSIYALAR.....361
197. Muhiddinova Gulnora
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QISH MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....366

198. Muminova Muborak Belyalovna
BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O'RNI.....367
199. Muqimova Qandolat Bobonazarovna
MATEMATIKA DARSIDA O'QUVCHILARNING FANGA QIZIQISHINI SHAKILLANTIRISH.....369
200. Muqimova Osiyoxon Adahamovna
YUKSAK ODOB-AXLOQLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA TA'LIM MUASSASALARIDA HADIS SABOQLARINI O'RGATISHNING DOLZARBLIGI.....371
201. Muratov Mirtoxir Mirxalil o'g'li, Rizaqulov Umrbek Jo'raboy o'g'li
BIOLOGIYANI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISHNI MODERNIZATSIYALASH.....374

202. Mustafoyeva Dilnoza Hakimovna
HARFLARNING SHAKLINI TO‘G‘RI YO‘ZISHGA O‘RGATISH 376
203. Muxamatova Nulufar Murodullayevna
BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIGA DARS BERISH JARAYONI AKTNING O‘RNI. 378
204. Muzapparova Zarafshon Sagiydullayevna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IMLONI O‘RGATISH METODIKASI....379
205. Nabijanova Feruza, Toshmirzayev Baxtiyor
MAKTAB O‘QUVCHILARIDA STREOMETRIYAGA DOIR MASALALARNI YECHISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH....380
206. Namozova Shoista Norberdiyevna....382
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH 382
207. Narimova Matluba Komilovna
ODOB – MILLAT KO‘RKI....384
208. Masofaviy o‘qitishning afzallik tomonlari, Narziyeva Inobat Zoirovna
BOLALARNI BOBO VA BUVILAR BILAN TARBIYALASHNING SAMARALI JIHATLARI....385
209. Nezomiddinova Donoxon Jamoldinovna 388
TABIATSHUNOSLIKNING TA’LIMIY, TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRUVCHI VAZIFALARI 388
210. Nishonova Muqaddam Abdujabborovna....389
GEOGRAFIYADA MEDIATA’LIM – O‘QUVCHI BILIM IMKONIYATLARINI OSHIRADI 389
211. Niyozmetova Sanobar Berdiyevna, Meyliyeva Muborak Tangriberganovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUCHILARINI MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA ARIFMETIK AMALLARNI HISOBLASHLARGA O‘RGATISH METODLARI. 391
212. Normatova Malika O‘ktamovna
BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATSION YONDASHUV 393
213. Normayeva Habiba Ostovonva
SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA NOAN’ANAVIY O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI....394
214. Norqulova Sohiba Norto‘rayevna
ONA TILIM- DAVLAT TILIM. 396
215. Norqulova Rushana Bobojonovna, Axmedov Ibragim Razzoqovich
MATEMATIKA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA REFLEKSIYANING O‘RNI 398
216. Nurjonova Sanobar Dushamovna
SHARQ XALQLARI MADANIY MEROSIDA EKOLOGIK TARBIYA TALQINI 400
217. Nurmatova Mashhura Tojimahamadovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARGA HIKOYA O‘QITISH METODIKASI....402
218. Nurmatova Zulxumor Maxmudjonovna
BIOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH....403
219. O‘razova Salomat Ramazonovna, Axtamov Suhrob Shavkatovich
O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA TIBBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA FANINING O‘RNI 405

220. Obidova Baxtigul Ro‘zmatjon qizi
ONLINE TA’LIMDA O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY USULLARI 407
221. Oblaqulova Mashhura Farxodovna
RIVOJLANISH MARKAZLARI HAQIDA MA’LUMOT. TIL VA NUQT MARKAZI. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O‘STIRISH MASHG‘ULOTLARI MAZMUNI 409
222. Mukaddaskhon Ogay, Valentina Normuratova
USING VIDEO ACTIVITIES TO DEVELOP YOUNG LEARNERS’ SPEAKING SKILLS 411
223. Olimov Xurshid Avazbekovich
GENETIKA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI DAFTARINING O‘RNI 414
224. Olimova Saida Arolmirza qizi
USING CARD MATERIALS IN TEACHING THE ENGLISH IN THE 1ST GRADES 416
225. Ollaberganova Dinora O‘ktamovna
KIMYO FANINIDAN METALMASLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA “BLITS-SO‘ROV” USULIDAN FOYDALANISH 418
226. Ollamova Dildora Shonazar qizi
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH JARAYONI 419
227. Orolova Nigora Aqrobjonovna
BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI 420
228. Kamola Soyibjonovna O‘rinboyeva
UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA TABIIY FANLAR VA ULARNING O‘QITILISHIDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 421
229. Oripova Nodira Akhtam kyzy
THE MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES 423
230. Oripova Ra’noxon Alidjanovna
BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH 425
231. Ortiqnazarova Muhayyo Otaqulovna, Mahkamova Sayyora
ZAMONAVIY BILIM OLISHNING YANGICHA USULLARI 427
232. Otaboyeva Malohat Masharipovna
BOLALARNING SAVOD O‘RGATISHGA TAYYORGARLIGINI O‘RGANISH 429
233. Otajonova Mukaddas Satimovna
UMUMTA’LIM MAKTABLARDA KIMYO FANINI O‘QITISH METODIKASI 430
234. Parpiyeva Mastura Nematullayevna
TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI APPLIKATSIYA YASASHGA O‘RGATISH. 431
235. Parpiyeva Ma’sumaxon Axmadjanovna, Zokirova Yulduz Maxmudjanovna
O‘QISH MALAKALARINING SIFATLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI 433
236. Polvonova Yulduzxon Saparboyevna
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA «BLENDED LEARNING» TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANGAN HOLDA MATEMATIKA DARSLARIDA QO‘LLASHNING ZAMONAVIY METODIKASI 435

237. Mavluda Qahharova Sattorboyevna
«UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI BOSHLANG‘ICH SINF DARS JARAYONLARIDA PISA TOPSHIRIQLARINI O‘RNI. 437
238. Qalandarova Zebiniso G‘afforovna
MAKING UP SOLUTIONS WHEN TEACHERS HAVE PROBLEMS IN TEACHING YOUNG LEARNERS 439
239. Qambarova Marxabat
UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O‘QITISH....441
240. Qambarova Minura Toxirjonovna
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI YUZAGA KELTIRISH YO‘LLARI 443
241. Qasimova Dilfuza Bog‘bekovna, Yaqubova Maqsuda Saparboyevna
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH....446
242. Qirg‘izova Muyassar To‘lqinovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM –TARBIYA JARAYONI 448
243. Qirg‘izboyeva Shaxnoza Alijonovna
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IQTIDORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH USULLARI....450
244. Qobilova Barno
MASOFAVIY O‘QITISH TIZIMINING BOSHLANG‘ICH SINFLAR HAMDA OLIY TA’LIM TIZIMDA TASHKIL ETISH. 451
245. Qochqorov Abdulla Madaminovich
BUYUK QOMUSIY OLIM AL-XORAZMIYNING DIDAKTIK QARASHLARI....453

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ.

Сатторова Маҳлиё Бурхановна
ЎзМУ Жиззах филиали илмий-тадқиқот ишлари мухандиси
Тўйчиева Нодира Ғулом қизи
Ҳалқаро хамкорлик бўлими услубчиси
Телефон: +998 (99) 5821013
s.mahliyo@umail.uz

Анотация: Тезисда таълим жараёнида қўлланиладиган педагогик технологиялар, интерфаол услублар ва инновацион педагогиканинг нечоғлик зарур эканлиги тўғрисида фикр юритилади.

Калит сўзлар: таълим, педагогик технология, инновация, ахборот технологиялари, таълим назарияси, таълим самарадорлиги.

Ҳозирги кунда республикамизда олий таълим жараёнида интерфаол услублар, педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда таълим самарадорлигини оширишга бўлган эътибор кучаймоқда.

Бу тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури ва «Таълим тўғрисида»ги қонунида, таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилиш, уни ўтмишдан қолган мафкуравий қараш ва сарқитлардан тўла халос этиш, ривожланган демократик давлатлар даражасида, юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб берувчи юқори малакали кадрлар тайёрлаш миллий тизимини яратишдан иборатдир,- дейилган ҳамда таълим тизимини ислоҳ қилиш, давлат ва нодавлат таълим муассасалари ҳамда таълим ва кадрлар тайёрлаш соҳасида рақобат муҳитини шакллантириш негизида таълим тизимини ягона ўқув, илмий ишлаб чиқариш мажмуи сифатида изчил ривожлантиришни таъминлаш каби вазифалар белгилаб қўйилган.

Таълим ёрдамида келажак авлодни ҳаётга тайёрлаш амалга оширилади. Бу жараёнда узлуксиз таълим тизимида педагогика таълим назариясининг предметини ифодалаймиз. Таълим назариясининг предмети бу - ўқитувчи ва ўқувчи фаолияти ўртасидаги алоқадорликдир. Таълим назариясининг вазифалари қуйидагилардан иборат:

- таълим жараёнининг моҳиятини, қонуният ва принципларини тадқиқ қилиш;
- таълим мазмунининг педагогик асосларини аниқлаш;
-ўқувчиларни ўқув-билув фаолиятини фаоллаштириш қонуниятларини тадқиқ қилиш;
- инновацион таълим технологияларини, тизимларини, таълимни ташкил этиш шаклларини ишлаб чиқиш. Ушбу вазифалар таълим назариясининг предметини аниқлашда таъкидлаб ўтилди. Таълим назарияси ўз вазифаларини бажаришда фалсафа, психология, кибернетика фанларини ютуқларидан ҳам фойдаланади.

Инновация (инглизча innovation) - янгилик киритиш, янгилик демакдир.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва талаба фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол услублардан фойдаланилади.

Янги педагогик технология масалаларини ва таълим муаммоларини ўрганаётган баъзи профессор-ўқитувчилар, тадқиқотчилар ва амалиётчиларнинг фикрича, педагогик технология – фақат ахборот технологияси билан боғлиқ ҳамда ўқитиш жараёнида қўлланилиши зарур бўлган ўқитишнинг замонавий техник воситалари, компьютер, проектор ёки бошқа техник воситалардан иборатдир. Бизнинг фикримизча, педагогик технологияларнинг асосий негизи – ўқитувчи ва талабанинг белгиланган мақсаддан кўзланган натижага

ҳамкорликда эришишлари учун танлаган педагогик усулларга боғлиқ. Ўқитиш жараёнида, мақсад бўйича кутилаётган натижага эришишда қўлланиладиган педагогик таълим технологияси, ўқитувчи ва талаба ўртасида ҳамкорлик фаолиятини ташкил қилиб, ҳар иккаласи ижобий натижага эриша олса, жараёнида талабалар мустақил фикрлаб, ижодий ишлаб, изланиб таҳлил этиб, ўзлари хулоса қилсалар, ўзларига, гуруҳга, гуруҳ эса уларга баҳо берса, ўқитувчи эса уларнинг бундай фаолиятлари учун имконият ва шароит яратса, шу билан бир қаторда, уларни бошқарса, ташкилий масалаларида кўмаклашса ва уларни маълум мақсадга йўналтира олса, бунда талаба ўқув жараёнининг асосий қисмига айланади.

Бизнинг фикримизча, ана шу – янги педагогик технологияни қўллаш асосида ўқитиш жараёнининг асоси ҳисобланади. Ҳар бир дарс, мавзу, предметининг ўзига хос технологияси мавжуд. Ўқув жараёнидаги педагогик технология – бу аниқ кетма-кетликдаги яхлит жараён бўлиб, у талабанинг эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан пухта лойиҳалаштирилган ва кафолатланган натижа беришига қаратилган педагогик жараёндир. Педагогик мақсаднинг амалга ошиши ва кафолатланган натижага эришиш ўқитувчи ва талабанинг ҳамкорликдаги фаолияти, улар қўйган мақсад, танлаган мазмун, услуб, шакл, воситага, яъни провард натижада педагогик технологияга боғлиқ. Ўқитувчи ва талабанинг дарс жараёнида мақсаддан эришишида қандай педагогик технологияни танлашлари улар ихтиёрида, чунки ҳар иккала томоннинг асосий мақсади аниқ натижага эришишга қаратиган бўлиб, бунда талабаларнинг билим савияси, гуруҳ характери, шароитга қараб, фойдаланиладиган педагогик технология танланади. Масалан, эришиш учун балки, фильм (ёки тарқатма материал, кўргазмали қуроллар чизма ва плакат, ахборот технологияси, ўқув услубий адабиётлар ва ҳаттоки зарур бўлса табиат бағрида) зарур бўлади. Буларнинг ҳаммаси ўқитувчи ва талабаларга боғлиқ. Шундай экан, ахборот технологияларидан ва янгилик киритиш орқали лойихалаштирилган педагогик технология ва уларнинг педагог мутахассислар қўлланишига оид махсус билимлар, талабаларни билимли ва етук малакага эга бўлишларини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. Олий таълим меъёрий хужжатлар тўплами.– Тошкент: Шарқ нашриёти.2001.-20-бет
2. Инновацион педагогика.Услубий қўлланма. Аликулова М.М.
Тошкент 2012 й
3. Умумий педагогика. Дарслик. Н.Атаева, М.Салаева. Тошкент 2013й.

BASLAWÍSH KLASLARDA KELBETLIK SÓZ SHAQABÍN «KLASTER» USÍLÍ ARQALÍ OQÍTÍW

Seytmuratova Svetlana
Nókis qalası 21-sanlı mekteptiń Baslawısh klass muǵallimi
Telefon: +998(91)3809831
Nokissvetlana@umail.uz

Annotaciya: Baslawısh klass oqıwshılarına sóz shaqapların úyretiwde klaster usılınan paydalanıw metodikası haqqıda aytılǵan.

Gilt sózler: Baslawısh klass, ana tili, interaktiv, kelbetlik sóz shaqabı, tema, shınıǵıw, grammatikalıq birlik, til birlikleri

Jámiyetimizdiń rawajlanıwı – búgingi kún bilimlendiriwiniń aldına úlken wazıypalardı qoymaqta. Onnan kútiletuǵın nátiyje bul jas áwladtıń hár tárepleme jetik insanlar sıpatında qáliplesiwi. Sonlıqtan da Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev O‘zbekstan Respublikasın rawajlandırıw boyınsha Háreketler strategiyasında: «Salamat, ruwxıy hám aqılıy rawajlanǵan, erkin pikirleytuǵın, watanǵa sadıq, ılayıqlı jaslardı tárbiyalaw demokratiyalıq reformalardı tereńlestiriw hám puqaralıq jámiyetti rawajlandırıw procesinde olardıń sotsiallıq iskerligin arttırıw» mashqalası wazıypa sıpatında belgilep berildi [1].

Baslawısh klasslarda kelbetliklerdiń grammatikalıq kategoriyaları boyınsha mısallar shınıǵıwlar quramında berilse de, arnawlı túrde grammatikalıq kategoriya túrinde ótilmeydi. 1 hám 2-klass ana tili sabaqlarında atlıqlar zattıń atamasın bildiretuǵın sózler degen at penen ótilse, feyiller háreketti bildiretuǵın sózler toparında, al kelbetlikler zattıń kelbetin bildiretuǵın sózler sıpatında úyreniledi. Mısalı, 1-klass ana tili sabaǵında 67-bette «Zattıń kelbetin bildiretuǵın sózler» ataması menen berilgen [2.67].

Temanıń anıqlamasında bolsa jaqsı, qızıl, semiz, kók, úlken, mazalı degen sózler zattıń kelbetin, túr-túsin hám dámin bildiredi. Olarǵa qanday sorawı qoyıladı». Bul anıqlamada berilgen hár bir kelbetlikke oqıwshılar ózleri klaster dúziwi múmkin. Mısalı:

Jaqsı – (adam, muǵallim, oqıwshı, minez, kún, mezgil, máwsim, dos).
Semiz – (at, iyt, qoy, jılqı, tawıq, pıshaq, shóje, qozı, eshki, adam).
Kók – (aspan, qaǵaz, qálem, ruchka, por, alma, qawın, pomidor, ǵarbız hám t.b.).
U’lken – (jay, kitap, mashina, jol, almurt, iyt, qoshqar hám t.b.).
Mazalı – (awqat, muzqaymaq, sút, qatıq, nan, chay, kompot, konfeta, qant hám t.b.).

Sabaqlıqta da tek anıqlamalarǵa ǵana emes, al oqıwshılardıń ózleri tárepinen de bir qatar shınıǵıwlardı «Klaster» usılında orınlatıw múmkin. Bul arqalı oqıwshı sabaqlıqtan tek tayar túrindegi mısallardı kóshirip, astın sızıń, soraw qoyıń, tiyisli sózlerdi ózlerińiz qoyıp jazıń sıyaqlı dástúriy túrdegi tapsırmalardan uzaqlasıp, al shınıǵıwlardı ózbetinshe, izleniwsheńlik hám dóretiwshilik penen islesiwge ádetlenedi. Ekinshiden, bul usıl oqıwshılarda oylaw, pikirlew uqıp hám kónlikpesin payda etedi. Sebebi, kelbetlik sózge qaysı sózler úylese aladı, mısalı móldir, tınıq – bul suw, ol móldir, tınıq alma yaki qar túrinde qollanıw – bul stillik jaqtan úylespeydi hám nadurıslıqtı payda etedi.

«Klaster» usılında oqıwshılarǵa baslawısh klass oqıtıwshısı tárepinen dáslep tarmaqlardıń ózi (klaster tarmaqlarına jazılatuǵın sóz) usınılıp, tarmaq orayındaǵı, baylanısıwshı sóz, sol tarmaqlarda kórsetilgen til birliklerиniń bárine teńdey juwap beretuǵın oraydaǵı sózdi tabıw wazıypası da tapsırılıwı múmkin.

Mısalı:

1. Sulıw, biyik, úlken - ?
2. Kelte, uzın, jińishke -?
3. Qońır, kishkene, júnleri buyra -?

Bunda birinshi mısalda tayar túrindegi klaster tarmaqlarına jay sózi tuwra kelse, ekinshi mısaldaǵı kelte, uzın hám jińishke bolıp ósetuǵın – bul qamıs ósimligi ekenin tayar túrindegi sózler arqalı anıqlaydı, úshinshi mısaldaǵı qońır, kishkene hám júnleri buyra – bul úy haywanı qozı ekenligin usı kórsetilgen zattıń kelbetin ańlatatuǵın sózlerge dál juwap bere alıwın oqıwshılar muǵallim tárepinen aldın ala berilgen (jay, qamıs, qozı) sózleri orınlı, ornına qoyıp, onıń sırtqı

kelbetine durıs keliw hám kelmewin ańlap jete aladı.

2-klass ana tili sabaqlarında da kelbetlikler «Zattıń kelbetin bildiretuǵın sózler» degen atama menen 78-79-betlerde berilgen.

163-shınıǵıwda: semiz, qısqa, qara, jaqsı, biyik, kishkene, juwan, keń, úlken, qalıń, sulıw, kók sıyaqlı mısallar berilgen. Bul mısallar oqıwshılarda ekewden yaki úshewden bir topar etip biriktirip, hár toparǵa bir sózden berilip, oǵan klaster dúziw wazıypası tapsırılsa, oqıwshılar bul wazıypanı ashıq etip orınlay aladı hám kelbetin bildiretuǵın sóz qalayınsha klaster usılında beriliwin durıs meńgere aladı.

3-klasta bolsa sóz shaqapları arnawlı temalar túrinde úyreniledi. Mısalı, atlıq, kelbetlik, sanlıq, feyil sóz shaqapları usı atamaları menen ataladı. Sóz shaqapları usı atamaları menen ataladı. Bul klassta kelbetlik sóz shaqabı ádewir quramalasqan kóriniste úyreniledi, yaǵnıy kelbetliktiń qanday? qaysı? sorawlarǵa juwap beriwi, zattıń túr-túsin, sapasın, kólemin ańlatatuǵın sózlerdiń kelbetlik dep atalıwı bir qansha tolıǵıraq mısallar menen keltirilgen [3.72]. Bunda da, mısal retinde berilgen juwan, uqıplı, móldir sózleri – aǵash, bala, suw sózleri menen baylanıstırılǵan. Atap ótilgen atlıq sózlerdiń hár birine tiyisli kelbetlikler biriktirilse, al klasterdi dúze aladı. Mısalı: bala – jaqsı, úlgili, ádepli, aqıllı, shaqqan hám t.b.

Juwmaqlap aytqanda, baslawısh klaslarda kelbetliklerdi oqıtıwda klaster usılı oǵada qolaylı, tiyimli interaktiv usıl bolıp esaplanadı.

Ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 y. 6-son. 70-modda.
2. Qutlımuratov B., Qutlımuratova G. Ana tili. (1-klass ushın sabaqlıq). Nókis. Bilim. 2019. 67-b.
3. Dáwenov E, Uspanova J, Abdijabbarova H. Ana tili. (3-klass ushın sabaqlıq). Nókis. Qaraqalpaqstan. 2019. 72-b.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР ПЕДАГОГИКАСИ ВА УЛАРНИНГ ТАРБИЯСИДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ

Сойилова Гулмира Бурхоновна
Навоий вилояти, Зарафшон шаҳар 20-МТТ тарбиячиси
Тел: +998934333988

Анататция: Ушбу мақолада муаллиф мактабгача ёшдаги болаларни яхши таълим олиши учун зарур бўладиган амаллар ва ота-налар томонидан болалар тарбиясида йўл қўйиладиган камчиликлар хусусида фикр юритади.

Калит сўз: ахбарот асри, сенсор,педагогика, сотсиал, пролетар

XIX асрнинг 2 ярмида инглиз утопик сотсиалисти Р. Оиен биринчи бўлиб болаларга илк ёшидан ижтимоий тарбия бериш ғоясини асослаб берди ва пролетар болалари учун мактабгача ёшдаги болалар муассасасини очди. Ҳудди шу вақтдан бошлаб мактабдгача ёшдаги болалар педагогикаси педагогика фанининг махсус тармоғи сифатида шаклланди ва ривожлана бошланди. Бу асосан ишловчи ишловчи қатлам эгалари учун тарғиб қилинган эди. XX аср бошларида эркин тарбия жараёнида бола шахсиятини ривожлантириш ғояси кенг тарқалди. Мактабгача ёшдаги болалар педагогикаси, педагогик тажриба, суҳбат, хужжатларини ўрганиш, болалар фаолияти маҳсулини тасниф қилиш методлари орқали амалга оширилди. Бу методлар асосида тадқиқотлар мазкур соҳа билан шуғулланувчи тадқиқотчи ва тарбиячилар томонидан олиб борилди. Бу тажриба асосан биринчи навбатда боланинг ривожланиши учун яратиладиган педагогик шарт шароитлар назарда тутилади. Суҳбат жараёни у ёки бу болани, ёки бир гуруҳ болани яхшироқ ўтганиш имконини яратади, таълим тарбия жараёнида йўл қўйилган хатолар аниқланади. Болалар билан суҳбат унинг қизиқишлари, нутқидаги ўзига ҳослиги, атроф муҳит ҳамда кишиларга муносабатини аниқлашда ёрдам беради . Шу сабабдан ҳам мактабгача ёшдаги болалар билан кўп суҳбатлар олиб бориш мақсадга мувофиқ. Бунда сенсор тарбиянинг аҳамияти катта, чунки сенсор тарбиянинг асосий мақсади болалар фаолиятининг хар хил турларини очишга, сенсор қобилятларини тараққий этишидан иборат. Энг аввало бола тарбиясида ибрат энг катта рол ўйнайди. Қачонгина биз ўзимиз ибрат бўла олсаккина тарбия жараёни биз кутганимизданда аъло бўлади. Буюк шарқ олимлари ҳам бу ҳақда кўп ёзишган. Мутафаккирларимиз томонидан “Тарбия инсонга она сути, ота намунаси, аждодлар ўгити орқали сингади” деган фикрлари жуда ўринли факт саналади. “Қуш уясида кўрганини қилади” каби ўнлаб миллий ўгитларимизни тарбия ўчоғи сифатида мисол қилишимиз тумкин. Оилада айрим оналар телифон орқали фарзанди ёнида таниши билан суҳбат жараёнида эътиборсизлик қилиб қайсидир воқиани тўлиб тошиб ҳикоя қиладилар. Бу ҳолатга гувоҳ бўлиб турган болада уйда бўлган гапни бемалол кўчада айтиш мумкин экан деган ҳулоса пайдо бўлади. Ёки оталаримиз ўзлари уйга ширакайф бўлиб келадиларда болани ёнида ичиб чекиб боласига қандай қилиб бу иллатларни қилмасликни уқтириш мумкин . Ахир ўзи яхшигина намуна бўлиб турибдику. Жумладан Н.М. Новиков шундай ёзган эди.”Болаларнинг мурғак қалбига ҳеч бир нарса ибратдек кучли таъсир кўрсата олмайди ва барча ибратлар ичида ота – она ибратидан кучлироқ ва мустаҳкамроқ ўрин оладиган ибрат йўқ ”. Бола учун ибрат кўзгуси оила экан барча ота-оналар ҳам фарзандига яхши намуна бўла оляптиларми? Нима учун охирги йилларда фарзандларнинг ота- оналарга хурматсизлик қилиш ҳолатлари кўп кузатилмоқда? Бугунги ахбарот асри болакайининг эртага қандай инсон бўлиши кўп жиҳатдан болалак деб аталган бу даврнинг қандай ўтгани, унинг онги ва қалбига атроф муҳитдан нималарни олиб киришига боғлиқдир. Болага муносабатда албатта уни ёш даражаси инобатга олиниши зарур. Уй шароитида болани кун тартибини тўғри йўлга қўйиш бу боланинг ривожланиши учун энг тўғри қадамлардан бири ҳисобланади. Бола боғчага борганда қийналмай мослашиб кетишини асосини ҳам таъминлаб беради. Бола ҳаётини ўйин ва ўйинчоқларсиз, эртаклар ва мусиқаларсиз, фантазия ва ижодиётсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Ўйин ва ўйинчоқлар оламида яйраб яшаган боланинг ҳаётини маънавий тўлақонли дейиш мумкин. Болага ўйинчоқ танлаётганида унинг ёши, қизиқиши ва шароити кўзда тутилади.Ота-оналар барча болаларини тенг кўриши, оиладаги бирдамлик ҳисобланиб бу ҳам тарбия жараёни учун ижобий таъсир этади. Биз доимо бола

шахсиятига ҳурмат билан қарашимиз керак. Доимо болани тинглашни, унинг нима учун? Нимага? Ва шу каби саволларини ҳеч қачон жавобсиз қолдирмаслигимиз зарур. Биз болага оилада берадиган тарбиямизнинг пойдеворини тўғри ўрната олсаккина, бола келажакда ўз ўрнини қийналмасдан топа олади. Бу борада оила билан мактабгача таълим ташкилоти ўзаро ҳамкорликда иш олиб бориши мақсадга мувофиқдир. Ахир барчамизнинг ҳам мақсадимиз баркамол авлодни тўғри тарбиялаб, вояга етказиб, ватан учун содиқ ва керакли мутаҳасисларни етказишдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдулла Авлоний “Туркий гулистон ёхуд аҳлоқ” Тошкент 1917 ПДФ
2. А. Зуннунов “Педагогика тарихи” Шарқ 2004 й
3. Р.Мавлонова, О.Тўраева, К.Холиқбердиев “Педагогика” Тошкент Ўқитувчи 2001 й

АКТИВИЗАЦИЯ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ПРИМЕРЕ РАЗДЕЛА МЕХАНИКИ

Тешаев Охунжон Комилович
Учитель физики средней школы
№28 Бухарский область Пешкунский район
Телефон: +998974882529
e-mail: t.oxun@mail.ru
Ризаева Гулноза Хикматулоевна
Учитель физики средней школы №21 город Бухара)
Телефон: +998936202277
e-mail: guli4ka_rizaeva901114@mail.ru

Аннотация: в настоящее время большое значение приобретает поиск наиболее эффективных путей обучения на уроках физики, повышения качества знаний в школе. Без опоры на мыслительную деятельность, без опоры на понимание полноценное усвоение знаний учащимися не возможно. Учащимся рекомендуется изучить самостоятельно-поисковым методом: историю происхождению законов и изучить открытия великих учёных по механике. Вопросы активизации мыслительной деятельности учащихся относится к числу наиболее актуальных проблем современной науки и практики. На этой статьи предоставлено информации о работах Аристотеля и Ньютона, которые ввели большой вклад в раздел механики.

Ключевые слова: мышления, относительность, обучение, эксперимент.

Физика занимает особое место среди изучаемых в школе предметов. Она является примером фундаментального научного мышления. Поэтому знание физики и ее методов исследования необходимо не только для профессиональной подготовки будущих узких специалистов, а является мерой общей культурной и научной подготовки человека, претендующего на любое ответственное положение в современном обществе.

Исследования состояния подготовки учащихся, проводимые в последнее время, показывают, что уровень знаний учащихся по физике невысок. Классическая механика является базовым разделом курса физики, и именно с нее необходимо начинать изучение физики в школе.

Активация мышления учащихся при обучение различных дисциплин имеет огромное значение при обучении. Особенно важно активация мышле-ния учащихся при обучении современного школьного курса физики. Рассмотрим некоторые приемы активизации мышления учащихся на первом этапе обучения – при постановке учебной проблемы. Этот этап, говоря языком математики, является необходимым, но недостаточным для целенаправленного формирования творческих способностей учащихся.

Так с помощью, каких конкретных форм, средств и приемов удается при обучении физике реализовать методы обучения, обеспечивающие усвоение опыта творческой деятельности?

Методы активизации мышления учащихся при решении учебных проблем мы будем проводить, следуя классификации методов, предлагаемой Дидактикой[1]. Эти методы различаются степенью самостоятельной поисковой деятельности учащихся. Проблемное изложение материала «метод является системой осознанных последовательных действий человека, приводящих к достижению результата, соответствующего намеченной цели»

Дидактика указывает: « Суть проблемного изложения в том, что учитель ставит проблему, сам ее решает, но при этом показывает путь решения в его подлинных, но доступных учащимся противоречиях, вскрывает ходы мысли при движении по пути решения». Проблемное изложение материала активизирует мышление учащихся в отличие от информационного, т. е. передачи готовых выводов, которое предполагает объяснительно иллюстративный метод.

При проблемном изложении учащиеся приобщаются к способам поиска знаний, включаются в атмосферу научного поиска и становятся как бы соучастниками научного открытия. Обучение физике открывает большие возможности для такого изложения материала.

При отборе материала для проблемного изложения нужно учитывать его мировоззренческое значение, возможность познакомить учащихся с вопросами методологии научного познания, показать им постепенное проникновение в тайны природы, рождение фундаментальных теорий, роль и значение фундаментальных физических экспериментов[2].

Рассмотрим конкретные примеры. Проследим возможность обращения к методу проблемного изложения материала при изучение некоторых вопросов механики.

В самом начале изучения механики звучит слово «относительность» и вводится понятие системы отсчета. Эти понятия для семиклассников сложны своей абстрактностью и непривычностью. На уроке о механическом движении тел и относительности движения учитель знакомит школьников с эволюцией знания о мире. Учащиеся узнают о взглядах великого древнегреческого ученого Аристотеля, о его системе мира, правильность которой не подвергалась сомнению вплоть до XV в., и гелиоцентрической системе Коперника, поражающей своей величественной простотой[3].

Яркий рассказ об одном из тех исторических моментов, когда скачком менялось представление людей о мире, подъема когда опровергалось то, что казалось само собой разумеющимся, позволят в обстановке эмоционального подъема акцентировать внимание школьников на фундаментальности понятия относительности. Нельзя не отметить и большое воспитательное значение подобного исторического экскурса. Кроме того, включение рассказа о системах мира дает возможность разнообразить задания при закреплении знаний о системах отсчета. Теперь учитель может поставить, например, такой вопрос:

Часто говорят: Земля движется с запада на восток, Солнце – с востока на запад. Относительно, каких тел отсчета совершаются эти движения?

Далее полезно рассказать, как кардинально изменил представления о движении Галилео Галилей. Дальнейший шаг на пути познания законов природы был сделан гениальным английским физиком Исааком Ньютоном[4].

Начать изучение динамики вновь полезно с исторического экскурса. Выше мы предлагали, для постановки учебной проблемы на уроке по изучению первого закона Ньютона можно зачитать цитату из «Механики» Аристотеля: « Движущееся тело останавливается, если сила, его толкающая, прекращает свое действие» - и поставить вопрос: прав ли был Аристотель?

Для ответа на поставленный вопрос учитель может показать опыты по движению, например, тележки при постоянном уменьшении сил сопротивления и подвести учащихся к мысленному эксперименту, в котором силы сопротивления полностью устранены, тогда они придут к пониманию одного из основных законов механики – первого закона Ньютона и тем самым к опровержению взглядов Аристотеля.

Для проблемного изложения материала богатейшие возможности открывает изучение закона всемирного тяготения. Проблемное изложение этого закона позволяет показать учащимся, что появление теории вызывается необходимостью объяснить накопившиеся факты и наблюдения.

Естественно, в рамках учебника трудно показать атмосферу поиска и открытый, трудности и нерешенные проблемы. Это должен рассказать учитель. Покажем, как это можно сделать.

Чтобы показать учащимся, что почва для гениальной гипотезы Ньютона об универсальности силы тяготения была подготовлена развитием науки, нужно описать ситуацию, сложившуюся в XVII в.

Обстановка была такова, основываясь на системе Коперника, Кеплер дал простое и точное описание движения планет, т. е. кинематику Солнечной системы. Но работы Кеплера и других ученых не объясняли причины движения планет с точки зрения действующих сил, т. е. динамику движения. Сами законы Кеплера ждали своего объяснения. К этому вопросу были обращены мысли ученых.

Галилей в работах устранил резкое различие между земными и небесными явлениями. После его работ все больше утверждалось мнение о всеобщности законов, управляющих движением тел, и о том, что эти законы могут применяться как к движению тел на Земле, так и к движению небесных тел. Ученые все чаще ставили вопрос о наличии силы, действующей на планеты со стороны Солнца. Были даже высказаны гипотезы о характере зависимости силы от расстояния планеты от Солнца.

Идея о наличии силы всемирного тяготения витала в воздухе. Но нужен был гений Ньютона, чтобы предположить и доказать, что притяжение между Землей, Солнцем и Марсом имеет одну природу, и найти математического выражение для силы всемирного тяготения.

Значительность проблемы приковывает к ней внимание учеников. Далее учитель ведет изложение материала в соответствии с учебником.

Проблемное изложение закона всемирного тяготения включает школьников в атмосферу научного поиска, способствует формированию у них научного мировоззрения.

Список литературы.

1. Данилова М.А., Скаткина М. Дидактика средней школы.- М., Просвещение, 1986.-12 с.

2. Вверова Н.М. Активация мышления учащихся на уроках физики.- М., Просвещение, 1980.-25 с.

3. Бабанский, Ю.К. Проблемы совершенствования методов обучения на уроке/ Ю.К. Бабанский// Народное образование-1976.- №6.

4. Князева В.В. Активизация познавательной деятельности учащихся общеобразовательной школы.- Т., 1992.-3с.

BASLAWÍSH KLASS OQÍWSHÍLARÍNA NAQÍL-MAQALLARDÍ ÚYRETIWDIŃ ÁHMIYETI

Turdıbaeva Gulshiyra
Nókis rayonlıq 6-sanlı mekteptiń
Baslawısh klass muǵallimi
Telefon: 998(97) 2405114,
Nokisgulchira@umail.uz

Annotaciya: Baslawısh klass oqıwshılarına tálim hám tárbiya beriwde naqıl-maqallardıń ornı haqqında sóz etilgen.

Gilt sózler: Baslawısh klass, ana tili, oqıw, tema, shınıǵıw, naqıl-maqal, leksikalıq birlik, grammatikalıq tallaw.

Bilimlendiriw isi bul - tárbiya menen tıǵız baylanıslı. Sonlıqtan da, Birinshi Prezidentimiz I.A.Karimov ta «Bilimlendiriwdi tárbiyadan, tárbiyanı bilimlendiriwden ajıratıwǵa bolmaydı» degen edi [1.71].

Baslawısh klaslarda arnalǵan ana tili, oqıw, ádepnama sabaqlarında shınıǵıwlar quramında, tekst ishinde, temanı ótip bolıwda bir qatar naqıl-maqallardıń berilgenligin ushıratamız. Naqıl-maqallardı sabaq dawamında da oqıtıwshılarda, geyde ayırım ziyrek oqıwshılar da túrli jaǵdaylarǵa qatnaslı awızsha túrde paydalanıladı. Bunıń baslı sebebi, eger oqıwshı tárepinen onıń ádep-ikramlıq, adamgershilik ólshemlerinde qátelikler, nadurıslıqlar júz berse, onı naqıl-maqallar járdeminde durıs jolǵa baǵdarlaw, jol-joba kórsetiw. Ekinshiden, naqıl-maqallardıń eń áhmiyetli xızmeti – onıń leksikalıq birlik ekenliginde. Yaǵnıy, ana tili sabaqlarında tekst quramında, shınıǵıwlardıń ishinde naqıl-maqallarınan tiline tallaw jumısların alıp barıwda qollanıladı.

Bir qatar baslawısh klass oqıwshıları óz pedagogikalıq sheberliklerinen kelip shıǵıp, oqıwshılarǵa tárbiyalıq mazmundaǵı naqıl-maqallardı hám grammatikalıq tallaw jumısında tayanısh birlik sıpatında, sonday-aq, oqıwshılarǵa onıń mánis-mazmunın tereńirek túsindiriw maqsetinde hár háptede bir naqıldan úlken reńli háripler menen, naǵıslı qaǵazǵa jazdırıp, onı taxtanıń bir shetine ildirip qoyadı. Bul arqalı naqıl-maqaldıń túp-mánisi, mazmunın oqıwshılardıń ańlap jetiwi ushın oǵada áhmiyetli. Mısalı, 2-klass ádepnama sabaqlıǵında «Kim dos» erteginiń mazmunın aytıp beriledi. Oqıwshılar menen – sizlerdiń doslarıńız bar ma? – Dos qanday bolıwı kerek?

- doslıq degende neni túsinesiz?

- sizler en ushın doslasasız? – degen mazmundaǵı sorawlar beriledi. Oqıwshılarǵa «Doslar qanday bolıwı kerek?» - degen soraw berilip, bul soraw taxtanıń ortasına úlken háripler menen jazıladı. Soń usı sorawǵa oqıwshılardıń ózlerinen juwap alınadı: sıylısıqlı; húrmet kórsetiwi; sadıq; tatıw; ádepli; bir sózli; satpawı; aldamawı; tártipli; úlgili hám t.b. sıyaqlı tárepleri menen sorawdı «Klaster» kórinisinde tarmaqlarǵa bólip jazıwı múmkin. Soń oqıwshılardı sanına qaray úsh toparǵa bólip, olarǵa tapsırmalar beriledi. Hár toparǵa tómendegi naqıllardan jazılǵan tarqatpa qaǵaz beriledi. Bul naqıllardıń mazmunın oqıwshılar oylasqan túrde aytıp beriwi kerek.

1- toparǵa: Dos jılatıp aytadı, dushpan kúldirip aytadı.

2- toparǵa: Dos-dostıń aynası. Doslıq- úlken baxıt.

3-toparǵa: Dossız adam- tereksiz japıraq. Toparlarǵa berilgen naqıllar talqılanıp, áhmiyetli táreplerin oqıtıwshı turmıslıq mısallar arqalı túsindirse, naqılǵa sáykes túrde túsinedi. Bunnan soń «Sóz oyının» qollanıwǵa boladı. «Sóz oyını»nda oqıtıwshı tárepinen jasırılǵan naqıl sózdi tabıw kerek. Taxtaǵa jigirmalaǵan hárip qıstırıladı. Olardan on bes háribi qızıl reńde bolıwı kerek. Qızıl reńdegi háriplerdi ajıratıp doslıq mazmunındaǵı naqıl sóz kelip shıǵıwı tiyis. Bunda jasırılǵan háripler: D, j, k, e, ń, s, i, l, l, i, m, e, o, ı, q, ú, sh.

Taxtaǵa «Doslıq-jenilmes kúsh» degen naqıl sóz birdey reńdegi háripler menen jazılıp, aralastırılıp qoyıladı. Baslawısh klass oqıwshıları tapsırmanı kishi toparlarda isleydi hám qaysı topar belgilengen waqıt aralıǵında durıs, anıq tez tapsa, usı háreketine qaray bahalanadı.

Naqıl-maqallar baslawısh klaslarda, ásirese, ana tili sabaqlarında oqıwshılardıń til baylıǵın rawajlandırıwda úlken áhmiyetke iye. Baslawısh klasta til ósiriw sabaqlarında hár túrli jazba hám awızeki túrdegi shınıǵıw jumısları alıp barıladı. Ásirese, baslawısh klaslardıń til baylıǵın rawajlandırıwda eń áhmiyetli jumıslardıń biri jazba túrde alıp barılatuǵın tapsırmalar. Baslawısh

klasta jazba túrdegi jumıstıń túrlerine: 1.Shınıǵıwlar; 2.Diktantlar; 3. Bayan jumısları; 4. Shıǵarma jumısları kiredi.

Olardan kóbinese bayan, shıǵarma jumıs sıyaqlı dóretiwshilik jumıslardı orınlaǵanda oqıwshılar ózleri oqıp tanısqan kórkem shıǵarmalar, qısqa gúrrińler, bolǵan waqıya, erteklik tekstlerden danalıq sózlerdi, turaqlı sóz dizbeklerin, naqıl-maqallar menen tanısıp baradı. Kórkem shıǵarmalar quramında naqıl-maqallar menen tek ǵana tanısıp qoymastan, grammatikalıq qurılısı, tárbiyalıq mazmunına da itibar qaratsa, onıń mazmunına ámel qılsa, demek oqıwshınıń hár tárepleme jetik insan bolıp tárbiyalanıwına óz úlesin qosadı. Baslawısh klass oqıwshılarınıń til baylıǵın rawajlandırıwdaǵı jumıslardan jazba jumısları quramında, olardan dóretiwshilik diktant jumıslarında naqıl-maqallarda epigraflar sıpatında paydalana biliw kónlikpesi – bul baslawısh klass oqıwshısınıń bilim iyelewdegi baslı jetiskenliklerinen bolıp sanaladı.

Juwmaqlap aytqanda, baslawısh klaslarda naqıl-maqallardı úyretiw metodikasında: 1. Oqıwshınıń jas hám jeke ózgeshelikleri esapqa alınadı; 2 Ótilip atırǵan temaǵa sáykesligi; 3. Tálim-tárbiyalıq áhmiyetke iye.

Ádebiyatlar

1, Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. – Toshkent, Ma’naviyat, 208.72-b.

ОНКОПСИХОЛОГИЯ СОҲАСИ РИВОЖЛАНИШИДА ОЛИБ БОРИЛГАН БАЪЗИ ТАДҚИҚОТЛАР

Уразбаева Дилбар Абдуллаевна
УрДУ Психология кафедраси доценти, PhD
Телефон:+998939228516
urazbayeva.dilbar@mail.ru
Сабирова Каромат Садуллаевна
УрДУ Психология кафедраси, ўқитувчи
Телефон: 998914292058

Аннотация. Ушбу мақолада онкопсихология соҳаси ривожланишида олиб борилган баъзи тадқиқотлар назарий таҳлил қилинган

Калит сўзлар. Психология, эмоция, онкология, онкологик бемор, психика, руҳий омиллар

Онкологик касалликларнинг вужудга келиши, кечиши ва касалликдан даволанишда психологик омилларнинг роли муҳимлиги муаммоси XX асрнинг иккинчи ярмидан кейин, аниқроғи 70-80 йиллардан кейинги тадқиқотларда ўз аксини топган.

Онкопсихология соҳаси ривожланишида олиб борилган тадқиқотлар бўйича ёндашувларни “замонавий ёндашувлар” деб атадик ва бунга хориж олимларидан П.Ревиди, Б.Столл, Г.Старшенбаум, Ю.Антропов, Ю.Шевченко, Т.Морис, С.Грир, М.Селигман, М.Балинт, С.Саймонтон, К.Саймонтон, Дж.Холланд, Э.Якубович, А.Бабик, А.Ааронсон, Разави, М.Гил, Булц, Т.Пеармон ва бошқаларни, рус олимларидан А.Гнездилов, В.Герасименко, А.Тхостов, Т.Морилова, Н.Кощуг, Н.Курек, В.Чулкова, Г.Адашинская, О.Ворона, Д.Чугунов, И.Маргошина, А.Кузнецова, Е.Исаева, А.Копытин, Н.Финагентова, Ш.Еганян, Е.Потемкина ва бошқаларнинг тадқиқотларини келтиришимиз мумкин.

Мамлакатимизда тиббиёт соҳасидаги олимлардан С.Фозилова, З.Бекназаров, А.Ходжаев, С.Абдиганиева, Х.Исламова, Н.Нигманова, Д.Набиева ва бошқалар ўсма касалликлари бўйича илмий изланишлар олиб борганлар, лекин мазкур касалликларда психик омилларнинг роли кўрсатилмаганлигини эътироф этишимиз мумкин.

Психология соҳасида турли касалликларда руҳий омилларнинг ролини ўрганган олимлардан тиббиёт соҳасида З. Ибодуллаев, психолог олимлардан В.Каримова, Б.Қодиров, Ғ.Шоумаров, Э.Ғозиев, З.Нишонова, О.Авлаев, М.Карамян, Д.Ильхамовалар саломатликка оид психологик тадқиқотларни амалга оширганлар.

Онкологик жараённинг вужудга келиши ва кечишида индивидуал фарқларнинг таъсири эҳтимолини А.Ревидининг тадқиқотларида кўришимиз мумкин. Унинг фикрича, меланхолия ва депрессия хавфли ўсмаларнинг вужудга келишига таъсир кўрсатади. Муаллифнинг образли изоҳига кўра, сут бези саратони кўпинча депрессия ва айбдорлик ҳисси натижасидаги “пассив ўз жонига қасд қилиш” сифатида намоён бўлади. Эмоциялар ташқи намоён бўлишини тутиб туриш, шунингдек, жинсий инстинктларни босиш, чегаралаш сут бези саратони ривожланишида этиологик омилларга олиб келиши мумкинлигини эътироф этади. А.Ревидининг фикрича, анорексия, уйқусизлик, ўзига ишончсизлик, психик жароҳатлар саратон ривожланишининг 1-15 йил муддат эҳтимолига олиб келиши мумкин. Сут бези саратони кўпинча давомли депрессия ва дисфориядан кейин пайдо бўлади. Бундай беморлар кўпинча фарзандсиз ва жинсий муносабатларда тормозланган ҳисобланади. Унинг фикрича, саратон ҳаётий мақсадларга эришиш умидини йўқотиш натижасида келиб чиқади. Бу жинсий муаммолар, оилавий ҳаёт муаммолари, оналик ва бошқа ижтимоий муаммоларга таалуқли [1;70-б].

Сут бези саратонида эмоционал омиллар ва яшовчанликни баҳолаган ҳолда B.Stollнинг кўрсатишича, агар бемор агрессив томонга йўналса, ўз эмоцияларини эркин намоён қила олса кўпроқ яшайди. Аксинча, бемор апатияга йўналган бўлса, тушкун, ўзини заиф ҳис қилса, вазиятни умидсиз ҳисобласа, унинг умри қисқаради [3].

К.Ахтэ, М.Ваухконен, Р.Виитмаки, Л.Сонкинлар саратон касаллиги ривожланиши, кечиши ва даволанишида психиканинг аҳамиятли ролини кўрсатганлар [2].

Демак, бугунги кунда онкология ва психология интеграцияси натижасида вужудга

келган онкопсихология соҳасини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этиб, бу борада маҳаллий тадқиқотларни олиб бориш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1, Жизель Арру-Ревиди. Истерия / Пер. с фр. Е.А. Ермаковой. - Москва: Астрель, 2006. - 159 с.

2, Ваухконен М.JI. и др. Рак и психика. В 2-х частях / Пер. с англ.- М., 1977. - 279 с.

3, Bahnson C.B. Psychological aspects of canser // Surgical Oncology. - New York, 1984. - №1.- P. 231-253.

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ДАСТУРИГА КИРИТИЛГАН ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСЛУБЛАРИ

Фарғона давлат университети ўқитувчиси
п.ф.б.ф.д (PhD) С.Р.Ураимов.,
магистрант Г.О.Шахбозова
Телефон: +998902770687
uraimov-sanjar@mail.ru

Аннотация:Ушбу мақоладамактабгача таълим муассасалари дастурига киритилган ҳаракатли ўйинлар ҳақида тушунчалар берилган ва амалиётдаги ўрни ёритилган.

Калит сўзлар:ҳаракатли ўйинлар,машқлар, мускул иши, мускул зўриқиши, ҳаракатлар амплитудаси.

Жамиятимиз тарихида ўйинларга жисмоний маданият ёки жисмоний тарбия воситаси сифатида асосий эътибор тарбия жараёнини шаклланиши, унинг мақсади ва вазифаларига аниқлик киритилган даврдан бошланади. Ҳозирги кунга келиб ўйинлар ўзининг аниқ мақсади, вазифалари, уларнинг назарияси, ўқитиш методикаси, тарбия жараёнида қўлланишидек ўзининг қонуниятларига эга. Мактабгача таълим муассасаларида асосан жамоасиз ҳаракатли ўйинлар ўйнатилиши, 5-6ёшдан бошлаб кўпроқ жамоали ўйинлар, турли амплитудага хос бошқа ўйинлар ва эстафеталарни бажартиришнинг аҳамияти катта.

Ўйинларни такрорлаш миқдори. Ҳар бир ўйинни(машқни) такрорлаш миқдори қанча кўп бўлса, унинг нагрузкаси ҳам шунча кўпаяди ва аксинча. Бу ҳаракат активлиги меъёрини ўзгартиришнинг энг оддий усули бўлиб ҳисобланади.

- *ўйинларни(машқларни) бажаришда қатнашадиган мускул гуруҳларининг ҳажми ва миқдори.* Машқларни бажаришда қанчалик кўп мускуллар қатнашса, улар шунчалик йирик, катта бўлса, жисмоний юк ҳам шунча салмоқлидир. Шу нарса нагрузка дозасини белгилашда кетма-кет ишлаш принципидан фойдаланишга имкон беради: дастлаб майда, сўнгра ўрта ва ниҳоят, йирик мускулларни ишлатишга ўрганинг.

Ўйинларни бажариш суръати. Суръат оҳиста, ўртача ва тезкор бўлиши мумкин. Бироқ, тезкор суръат ҳар доим ҳам ўқувчи катта салмоқли нагрузка олаётганини билдиравермайди. Баъзан мускулларни зўриқтирмаслик эвазига ҳам машқни бажариш осон кўчади, унда – кам мускуллар қатнашади. Оҳиста суръат туфайли кўпинча нагрузкани енгиш учун бирон-бир аъзо мускулларидан анчагина куч сарфлаш талаб этилади, бу эса жисмоний нагрузканинг кўпайиб кетишига олиб келади.

Ўйинни бажариш суръатини тезлиги майда ва ўрта мускул гуруҳларини машқни бажаришини қийинлаштиради, бунда йирик мускуллар гуруҳларини тренировка қилдириш анчагина осон. Агар киши маълум ҳаракатларни ўртача суръатда бажаришга одатланган экан, у ҳолда оҳиста ритмлар нерв системасига кучлироқ таъсир кўрсатади.

Масалан, киши секин юрганда одатдагидан ортиқроқ толиқади. Оёқларни жуфтлаб ётган ҳолатдан тез ўтириб олиш оҳиста ўтиришга нисбатан осондир. Чўккалаб ўтирган ҳолатдан оҳиста туриш, тез туришга нисбатан анча қийинроқ. Демак, оҳиста суръатдаги куч талаб қиладиган машқлар одам организмига кўпроқ таъсир кўрсатади: улар мускул толаларининг ривожланишини стимуллайди, юрак мускули, томирлар, нафас аппаратларига актив таъсир қилади.

Ҳаракатлар амплитудаси (оғиши)ни ҳаракатли ўйинларни ўйнашдаги *роли.* Ҳаракатлар амплитудаси ошганда организмга тушадиган умумий нагрузка ҳам кўпаяди. Аммо ундан мустасно ҳолатлар ҳам бор. Масалан, чалқанча ётган жойда оёқларни кўтариб, улар орасини очиб, бирлаштириб тушириш машқини 90 градусда бажариш анча осон. Лекин, шу машқни 45-60 градусда бажариш, яъни ҳаракатлар доирасини 1,5-2 марта кам бўлган ҳолатдаги амплитудада бажариш анча қийинроқ. Бироқ умумий принцип шундай. Куч сифатларини оширадиган тренировкалардаги ҳаракатларни тўла бўлмаган амплитудада бажарган маъқул, бора-бора мускуллар кучи ошгани сари ҳаракатлар амплитудасини ошириш, уларни физиологик имконияти даражасигача етказиш мумкин.

Ўйинларнинг мураккаблигимашқни бажараётган мускул гуруҳларининг миқдори ва турига ҳамда улар фаолиятининг координациясига боғлиқ. Мураккаб ўйинларлар кўпроқ эъ-

тибор талаб этади, яъни каттагина руҳий нагрузка ҳосил қилади. Бу ҳолат тезроқ толиқишга сабаб бўлади. Шунинг учун машғулотларни доимо оддий машқлардан бошлаб, аста-секин мураккаброқ машқларга ўтиш керак. Айниқса, координация ва мувозанатни ривожлан тирадиган машқларни ўзлаштириб, уларнинг заҳирасини бойитиш муҳим аҳамиятга эга. Координация – гавданинг айрим қисмлари ҳаракатларининг уюшганлигидир. Кордината машқлари ҳар доим жисмоний нагрузка интен сивлигини оширади. Бу жиҳатдан қўл, оёқ, баданнинг турли йўналишдаги айланма ҳаракатларни бажариши мураккаб машқлар сирасига киради.

Мускул зўриқишининг даражаси ва характери. Зўриқиш даражаси –ўйинлар пайтида мускуллар намоён қилаётган кучларнинг ифодасидир. Куч намоён қиладиган зўриқиш тана аъзоларининг ҳолати оғирликнинг ўзгариши, турли предметлар билан унинг оғирлаштирилиши, ҳаракат тезлигига қараб ўзгаради. Одатда оддий, енгил машқлар катта куч сарфлашни талаб этмайди. Бироқ кучни ривожлантирувчи машқларни бажариш вақтидаги катта шиддат, шубҳасиз нагрузканинг салмоғини бир неча марта ошириб юборади.

Кучли зўриқишда мускуллар кислород ва озиқ моддалар билан етарлича таъминланмайди, натижада “кислород камомади” тўплана боради, толиқиш кучая бошлайди. Бунда бош мия қобиғида қўзғалиш ўчоғи пайдо бўлиб, у “зўрлик” қила бошлайди ва кўп ўтмай машқ бажаришни давом эттиришнинг иложи бўлмай қолади.

Бош мия қобиғида қўзғалиш ва тормозланиш жараёнлари мутассил тез алмашиб турадиган тезкор мускул қисқариш ҳолатларида одам узоқ вақт фаолият кўрсата олмайди. Бироқ мунтазам тренировкалар шуғулланиш, унга ўзининг имконият доирасини кенгайтиришга ва вақти келиб, фаолиятнинг бир туридан бошқасига тез ўтадиган ишларни муваффақиятли ўзлаштириб олишига қулай имкониятлар очади.

Хуллоса қилиб айтганда, ҳаракатли ўйинларни мактабгача ёшидагилар ўқув дастурига киритилганларини айтарли барчаси нимага асосланиб айнан шу ўйин ўйнатилиши кералиги ҳақидаги саволга жавобсиз ҳолда, ўзиниг илмий, назари, услубий асосисиз танланганлигини аниқладик.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Усмонхўжаев Т.С., “Ўзбек халқ ҳаракатли ўйинлари” Ўқитувчи 2004 йил.
2. Усмонхўжаев Т.С., Исломова С.Т. “Мактабгача таълим муассаларида жисмоний тарбия”, “Илм-Зиё” 2006 й.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ДЛЯ УЧИТЕЛЕЙ, ПЕРЕХОДЯЩИХ НА ОНЛАЙН ОБУЧЕНИЕ.

Усманова Икболхон Тохиржоновна
преподаватель начального образования
средней школы №42 Туракурганского района
Наманганской области (Узбекистан)
e-mail: article.20@mail.ru
телефон: +998913659074

Аннотация. Данная статья об эффективных методах перехода на дистанционное обучения во время пандемии. До появления коронавируса лишь немногие школы ожидали, что преподаватели будут подготовлены - а тем более имеют реальный опыт - обучать студентов дистанционно.

Ключевые слова: эффективность, обучение, преподавание, интернет, онлайн

Коронавирус вызвал массовое закрытие школ на неопределенный срок, не только в Узбекистане, но и во всем мире. Учителя изо всех сил пытаются найти способы поддержать студентов издалека через дистанционное обучение и онлайн-обучение.

Школы и университеты не сталкивались с таким уровнем разрушения в поколениях, но, в отличие от прошлого, у нас есть возможность продолжить образование, даже когда школы закрываются.

Ученики, учителя и семьи - в основе всего, и мы стремимся помочь каждому получить положительный опыт обучения, будь то онлайн или в школе.

В этой неопределенной среде важно, чтобы обучение продолжалось, даже если это не может происходить лично. Я также изо всех сил пыталась достигнуть эффективности преподавания студентов вне класса. В течение нескольких лет я преподавала в школе, где ученики изо всех сил пытались постоянно посещать школу. Чтобы помочь отсутствующим студентам получить доступ к моим урокам, я разработала смешанную, самостоятельно развивающуюся учебную модель, основанную на мастерстве, которая позволила всем моим студентам учиться, находятся ли они в классной комнате или нет.

Благодаря обучению студентов и преподавателей я узнала много нового о том, как эффективно создавать и внедрять цифровое обучение и самостоятельное обучение. Ниже я поделюсь несколькими советами, возможно, которые вы искали для дополнительной поддержки в разработке эффективного дистанционного обучения.

Вот несколько советов, которые помогут вам создать устойчивый и интересный опыт дистанционного обучения для ваших студентов.

1. ПРОСТОТА - КЛЮЧ

Каждый учитель знает, что значит объяснять новые инструкции своим ученикам. Обычно это начинается с прохождения всей группы, за которым следует бесконечный поток вопросов от студентов, чтобы прояснить следующие шаги. В то время как этот процесс может иногда расстраивать, ученики всегда могут положиться друг на друга и учителя в комнате, когда они застряли.

Одна из проблем дистанционного обучения заключается в том, что вы и ваши ученики больше не находитесь в одной комнате, чтобы коллективно решать неправильные представления. Вместо этого большая часть учебного времени неизбежно будет зависеть от задач, требующих высокого уровня самостоятельного управления.

В результате простота является ключевым. Очень важно разработать опыт дистанционного обучения, который имеет очень четкие инструкции и использует только один или два ресурса. Также лучше, когда это возможно, предоставлять такие ресурсы, как чтения, в формате PDF, к которым студенты всегда могут получить доступ.

Имейте в виду, что простые структуры могут все еще требовать тщательной работы: задачи с небольшим количеством инструкций часто приводят к наибольшему количеству мышления высшего порядка, поскольку учащиеся выясняют, что делать в рамках определенных параметров. Дистанционное обучение должно подтолкнуть преподавателей к размышлению о том, как они могут быть более гибкими и более лаконичными в процессе

предоставления новой информации.

2. УСТАНОВИТЬ ЦИФРОВУЮ ДОМАШНЮЮ БАЗУ

В духе простоты жизненно важно иметь базу цифрового дома для ваших учеников. Это может быть предоставленная округом система управления обучением, такая как Canvas или Google Classrooms, или это может быть самодельный классный сайт. Я рекомендую Сайты Google как простую и легко настраиваемую платформу.

У нас в Узбекистане успешно протестирована и внедрена база Kundalik.com.

Вам нужна единая цифровая платформа, которую ваши студенты всегда могут посетить для получения самой свежей и актуальной информации. Может быть соблазнительно прыгать между всеми крутыми приложениями, особенно потому, что многие из них предлагают бесплатные услуги прямо сейчас, но простота и знакомство неоценимы. Студенты должны чувствовать себя комфортно, посещая одно и то же место, чтобы получить доступ к тем же инструментам. Чем дальше вы находитесь от своих учеников, тем важнее развивать стабильность и практиковать нормы.

Кроме того, если посещаемость была проблемой раньше, дистанционное обучение увеличит его. Поэтому студентам нужно место, куда они могут пойти, когда они выпадают из цикла. Заполнение пропусков станет еще сложнее, когда учитель не сможет быстро заниматься индивидуальными или малыми групповыми инструкциями. Ваши студенты должны будут взять под контроль свое собственное обучение. Ваша цель - создать четкую основу, которая позволит им это сделать. Я давала инструкции и настраивала контрольные точки для моих учеников.

3. В приоритете УЧЕНИК.

Эффективность является ключевым фактором при разработке опыта дистанционного обучения. Планирование займет больше времени и потребует высокого уровня внимания к деталям. Вы не сможете исправлять ошибки на лету или внезапно поворачиваться, когда дети отключены.

Чтобы эффективно управлять своим временем и здравомыслием, вам нужно расставить приоритеты для более длинных заданий и заданий, ориентированных на учащихся, которые помогут вам сэкономить время на планировании будущих учебных заведений и отвлечь ваших учеников от компьютера. Сосредоточьтесь на построении долгосрочных проектов, где у студентов есть автономия и четкий набор контрольных точек и сроков, которые необходимо соблюдать. Когда это возможно, предоставьте студентам возможность обсудить то, что они изучают, со своими семьями и включите элемент выбора ученика, чтобы действительно привлечь внимание.

4. ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ПРИЗНАКИ - ИЗМЕНИТЕЛИ ИГРЫ

Больше всего ваши ученики будут скучать по человеческим связям, которые культивируются в вашем классе. Небольшие взаимодействия с ними в коридорах, до и после занятий или во время перерывов в уроках, незаменимы. Хотя может показаться заманчивым сосредоточиться на содержании ваших заданий по дистанционному обучению и учебных видеофильмов, более важно создать структуры для персонализированных точек контакта с вашими учениками.

Вы можете создавать эти точки соприкосновения с помощью любого средства, которое вам нравится: электронной почты, видеосообщений, телефонных звонков, сообщений через вашу систему управления обучением, комментариев к общим документам и т.д. Создайте структуру и придерживайтесь ее. Ваши студенты увидят ваши инвестиции и будут знать, что вы заботитесь о них.

Важно помнить о том, что развивать увлекательный опыт дистанционного обучения сложно. Это требует времени и невероятного количества терпения. Если вы новичок в этом опыте, вы, вероятно, снова почувствуете себя учителем первого курса. Это нормально! Шаг за шагом решайте задачи, держите своих учеников в курсе ваших успехов и оставайтесь позитивными. Вместе мы сосредоточены на том, чтобы дети учились, приспосабливаясь к нашему изменяющемуся миру.

Использованная литература:

1, Вьюшкина, Е. Г. Массовые открытые онлайн-курсы: теория, история, перспективы использования / Известия Саратовского университета. Серия: Философия. Психология.

Педагогика. - 2015. - Том 15. - № 2.

2, Лебедева, М. Б. Массовые открытые онлайн-курсы как тенденция развития образования / М.А. Б. Лебедева // Человек и образование. - 2015. - № 1

3, Махаметова, М. М. Плюсы и минусы онлайн-обучения / М. М. Махаметова // Современная педагогика. - 2017. - № 5

4, Пиневич, Е. В. Дистанционное обучение: проблемы и решения / Е. В. Пиневич // Международный научный журнал. - 2017. - № 6.

5, Смирнова, Ж. В. Дистанционное образование как процесс управления обучением В. Смирнова, Ж. В. Чайкина // Мир науки. - 2017. - Том 5. - № 2.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ИЖТИМОИЙЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Ҳафизова Хадича Хафиз қизи Самарқанд вилояти
Иштихон тумани 21-мактабнинг бошланғич синф ўқитувчиси
Телефон: +99899 311 39 23
Яхшибоева Замира Абдукомиловна
Иштихон тумани 21-мактабнинг бошланғич синф ўқитувчиси
Телефон: +99897 288 02 03

Аннотация: Мақолада таьлим жараёнида бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоийлаштириш жараёнининг педагогик асослари атрофлича ёритилган.

Калит сўзлар: бошланғич синф, таьлим, ижтимоийлаштириш, ўқувчи, ўқитучи, педагогика, восита, метод, саводхонлик, натижа.

Ижтимоийлаштириш-бу шахсни ижтимоий фазилатларини шакллантириш, онгини илмий асослар воситасида коррекциялаш ва уни ижтимоий фаолиятга тайѐрлашдир. Бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоийлаштириш эса бу 6-11 ёшли ўқувчилар онгини дастлабки босқичда шакллантириш ва уларни ижтимоий фаолиятга тайѐрлаш билан белгиланади. Агар мазкур масала илмий асосда ҳал қилинса, ўқувчиларнинг таълим ва тарбия олиши янада кучаяди. Мамлакатимизда бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоийлаштиришнинг асослари кутилган даражада мавжуд. Бу асосларнинг энг асосийлари қуйидагилардан иборат: 1) таълимга оид меъѐрий-ҳуқуқий ҳужжатлар; 2) илмий ғоянинг асосий тушунча ва тамойиллари; 3) илмий ва мумтоз педагогик мерос; 4) илғор педагогик тажрибалар; 5) замонавий педагогик технологиялар ва ҳ.к. Бу асослар бошланғич синф ўқувчиларини кутилган даражада ижтимоийлаштириш имконини беради. Мисол учун, Ўзбекистон Республикаси ―Таълим тўғрисидаги Қонунининг 12-моддасига кўра, Республика бошланғич ўқувчиларнинг таълим олиш учун зарур бўлган саводхонлик, билим олиш ва кўникма асосларини шакллантириш вазифасини бажаради. Бизнинг фикримизча, бу ўринда бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоийлаштиришнинг муҳим меъѐрий асослари ўз ифодасини топган. Негаки саводхонлик- бу ўқувчиларни жамият маданий муҳитига олиб киришдир ва бу уларни ўқиш, ѐзиш ҳамда ҳисобга ўргатиш билан амалга оширилади. Билим олиш- ўқувчиларни ижтимоий онгини шакллантиришдир, бу билан бошланғич синф ўқувчилари ижтимоий фаолиятга тайѐрланади. Кўникма - бу ўқувчиларнинг ижтимоий муносабатини шакллантириш воситасида уларни жамият муҳитига олиб киришдир. Эътибор берилса, айнан Саводхонлик, Билим ва Кўникма бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоийлаштиришнинг муҳим асоси эканлиги маълум бўлади. Ёки, миллий ғоямизнинг асосий тушунча тамойилларини олайлик. Унга кўра, миллий ғоя бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоийлаштиришнинг ғоявий асосидир. Эътибор беринг: 1) Юрт тинчлиги- юртпарварлик ва тинчликпарварлик; 2) Ватан равнақи- ватанпарварлик ва тараққийпарварлик; 3) Халқ фаровонлиги- халқпарварлик ва фаровонлик; 4) Миллатлараро тотувлик- миллатпарварлик ва тотувлик; 5) Динлараро бағрикенглик- соғлом эътиқодлилик ва бағрикенлик; 6) Ижтимоий ҳамкорлик- ижтимоий фаоллик ва ҳамкорлик; 7) Комил инсон- етук шахс бўлиш. Бошланғич синф ўқувчилари онги, ахлоқи ва фаолият кўникмасида ана шу ғоялар, сифатлар ва хусусиятлар шакллантирилиши керак. Бу билан уларни ижтимоийлаштириш кутилган даражада амалга ошади. Бунинг учун мақсадни ва тизимли ѐндашувни шакллантириб олиш мақсадга мувофиқдир. Бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоийлаштириш воситалари кенг кўламлилиги билан эътиборни тортади. Бундай воситаларнинг энг асосийлари қуйидагилардир: 1) дарс жараѐни; 2) маънавий-маърифий тадбирлар; 3) тўгараклар машғулотлари. 36 Дарс жараѐни бошланғич синф ўқувчиларининг ижтимоийлаштиришнинг энг муҳим воситаси ҳисобланади. Бунинг учун ―Ўқиш, ―Она тили, ―Атрофимиздаги олам каби фанларни ўқитиш жараѐнида қуйидагиларга эътибор бериш максадга мувофиқ бўлади: а) воқеалик ва ҳодисаларни ўкувчиларга тушунтириш; б) инсон, жамият ва табиатга нисбатан ўқувчиларнинг муносабатини шакллантириш; в) ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. Буларга эришилса бошланғич синф ўкувчиларининг ижтимоий онги шаклланади ва уларда мустақил ижтимоий муносабат таркиб топади. Маънавий-маърифий

тадбирлар бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоийлаштиришнинг асосий воситаларидан ҳисобланади. Бундай тадбирларни ўтказишда қуйидагиларга диққат қилиш кутилган самарани беради: а) тадбирларнинг қизиқарли ва миллий ғояга асосан ўтказилиши; б) тадбирларни тайёрлашда ўқувчиларни кенг жалб қилиш ва ҳаётий воқеликка асосланиш; в) тадбирларнинг самарадорлигини кузатиб бориш ва янги мавзуларга асосий эътиборни қаратиш. Бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоий муносабатини шакллантиришда маънавий-маърифий тадбирларнинг муҳим ўрин тутишини унутиб бўлмайди. Тўгараклар машғулотлари бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоийлаштиришнинг муҳим воситаларидан биридир. Айни пайтда, бошланғич синфларда тўгарақларни ташкил қилишда қуйидагиларга эътибор бериш керак: а) тўгарақларнинг мақсади ва ижодий хусусиятга эга бўлиши; б) тўгараклар машғулотларида ўқувчиларнинг лаёқатини ўстиришга эътибор бериш; в) тўгараклар машғулотларини таниқли шахслар ва педагоглар иштирокида ўтказиш. Бошланғич синф ўқувчиларини ижтимоий фаоллаштиришнинг муҳим омилларидан эканлигини унутиб бўлмайди. Шундай қилиб, мамлакатимизда бошланғич синф ўқувчиларини кутилган даражада ижтимоийлаштиришнинг реал асослари мавжуд ва булардан оқилона фойдаланишимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1, Ўзбекистон Республикасининг “Таьлим тўғрисида”ги Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон)

2, Хасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Алқаров И., Усмонов Н. Педагогика.– Т.: Ношир, 2011

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ КАК ИННОВАЦИОННЫЙ МЕТОД ПРЕПОДАВАНИЯ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

д.м.н. Худоярова Д.Р.,
Кобилова З.А., Шопулотов Ш. А.студенты
Самаркандский Государственный Медицинский Институт
0007.hp@mail.ru, +998995290096

Аннотация. В мире в котором непрерывно развиваются информационные технологии важно соответсвовать потребностям современной молодежи. Развитие сферы образования должно идти в ногу с возможностями современного мира. В статье представлен анализ современных методов преподавания, изучены аспекты развития современного образования в Узбекистане. Преведены примеры и эффективность геймификации в системе образования. Нами предложена методика преподавания на основе геймификации предмета "Акушерства и гинекологии" для студентов медицинских вузов который возможно модифицировать под другие науки.

Ключевые слова: геймификация, дистанционное обучение, вебинары, интерактивная технология, образование, инновационный метод, ассоциации.

Цель: Улучшить качество преподавания в сфере образования, в частности медицинского образования при использовании геймификации.

Материалы и методы: Материалами для исследования явились все сайты и программы обучения на основе геймификации, оценивание проводилось на основе данных анкетирования проведенного среди студентов Самаркандского государственного медицинского института.

Результаты: В условиях постоянно меняющейся внешней среды, увеличения спроса и требований студентов, в последнее время стал актуальным вопрос инновационного развития образования с помощью новейших технологий.Геймификация- это использование игровых элементов, в частности компьютерных или мобильных, в неигровом контенте для улучшения качества образования и практических навыков. На современном этапе имеется очень мало полноценных геймификаций для обучения, так как это стоит немалых затрат. Но эффективность геймификации было доказано даже с этими малыми примерами в области образования, тогда как в других сферах она активно используется.

Мы проанализировали все игры,которые разработаны для изучения определенных предметов в игровом контенте. Что позволило нам судить о преимуществах данного метода: благодаря тому, что доступ к геймифицированным программам осуществляется через Интернет или другие сети, студенты непривязаны к конкретному месту и времени, могли двигаться по материалу в собственном темпе из любой части земного шара. Так как уроки предоставлены в игровой форме студентов легче было завлечь, кроме того они с удовольствием часами занимались сами того не замечая. Кроме того это позволяет им приобретать знания в более доступной и непринуждённой форме. Они не боялись ошибиться и легко могли работать над ошибками, так как игровой контент мотивирует это сделать, игровая сфера позволила увеличить их сосредоточенность. Мы все знакомы такими геймифицированными программами как «ЗОЖ», «Samsunghealth», «Правильное питание», «Пить воду», «Фитнесс» и т.д., которые имеются во всех смартфонах, и подсчитывают сделанные шаги, выпитую воду, физическую активность, калорийную ценность пищевого рациона и многое другое. С момента использования данных программ полезные привычки в виде соблюдения питьевого режима, режима питания, занятие спортом, активность в течение дня у людей возросло, чем до использования их. Это является так же подтверждением эффективности геймификации.

В обучении геймификация применяется для удержания внимания учащихся. Если преподносить материалы интересно и в игровой форме, то способность к запоминанию у учеников увеличивается. Все знают, что во многом эффективность обучения зависит от того, как преподаватель доносит материал. Форма подачи имеет огромное значение. Геймификация в обучении способна поднять эффективность прохождения учебных программ и снизить затраты на образование без потери качества обучения. Данный процесс можно

использоватьдля совместной работы как студентов внутри группы, так и с преподавателем. В системе для этого предусмотрена масса инструментов: вики, глоссарий, блоги, форумы, практикумы, уровни, наглядные 3д материалы, а также система оценивания с помощью баллов и сертификатов. В качестве вознаграждения студентам за успешную работу начисляются баллы, выдаются в игровой среде сертификаты, при групповом участие возможно выделить достоинство каждого участника «медалями» такими как «самый быстрый ответ», «лучший в группе», «самый лучший в диагностике» и многое другое. Это все, несомненно, является преимуществом данной платформы, что обеспечивает полноценное обучение в любой сфере. Связи с тем, что в геймификации используется аудио, видео, мультипликации, схемы, различные глоссарии и практикумы, одним словом наглядный материал, он помогает всестороннему изучению темы, развитию мышления и способности запоминания при помощи ассоциаций.

По инициативе Президента Республики Узбекистан приняты два важнейших закона, заложивших прочную основу создания стройной системы непрерывного образования современного типа — «Об образовании» и «О Национальной программе по подготовке кадров». В результате их реализации за этот короткий период произошли коренные изменения не только в форме, но и в сущности системы образования страны. На сегодняшний день благодаря последовательному воплощению в жизнь положений указанных законов в республике сформирована Национальная модель подготовки кадров по принципу «личность — государство и общество — непрерывное образование — наука – производство»[2,3,7].

В Узбекистане геймификацию все больше рассматривают как современный формат нематериального стимулирования работы. В этом формате ее задача — стимулировать поведение персонала в том или ином векторе, в зависимости от стоящих перед организацией целей. При этом измеряемыми параметрами здесь могут быть: повышение уровня знаний, воспроизведение идей, увеличение опыта и навыков. Если же говорить о более абстрактных вещах — то здесь речь будет идти о развитии корпоративных ценностей, создании комфортной атмосферы в группе, стимулировании участия студентов в обучении, валонтерстве, наставничестве [2,3,4]

Медицина одна из сложнейших предметов, изучение её требует кропотливой работы, но в век развития инновационных технологий даже этот трудный предмет можно изучать проще и эффективнее. На основе анкетирования студентов СамГосМИ было выяснено, что электронные ресурсы для обучения используют больше 80% студентов, около 50% опрощенных указали, что пользуются только электронными ресурсами, 75% указали, что при изучении предмета текстового материалаим недостаточно. Имеются аналоги геймификации такие как «Стол Пирогова» в котором можно изучать анатомию человека, сравнивать с патологией и даже протестировать свои знания, но они не воплощают в себе все возможности геймификации и имеют такие недостатки как, локализация в одном месте, дороговизна, ограничение времени работы и невозможности работать группами. Имеются такие игры как «Биотопия», «Физикус», «Химикус» в которых воспринимать сложные темы куда проще и нагляднее чем по стандартной методике преподавания. К несчастью по другим дисциплинам, а именно по клиническим предметам для медицинских вузов, не разработаны геймификации ни в одной стране мира. Мы разработали инновационную методику преподавания, в котором будут все элементы геймификации, и главным преимуществом которого будет - доступность для всех желающих учится, в полной мере и сколько времени они захотят.

Выводы: Итак, мы можем сказать что геймификация одна из передовых технологий и отвечает всем потребностям современных студентов. На данном этапекак в нашей стране, так и за рубежом нет геймифицированных предметов по многим дисциплинам, в том числе по дисциплинам медицинских вузов. Мы разработали методику преподавания на основе геймификации предметов медицинских вузов и хотим подать данную идею на патентирование, также активно ищем спонсоров или гранты, чтобы внедрить данную технологию в преподавания медицины одними из первых в мире. И совсем скоро все студенты медики получат возможность получать высокоэффективный метод обучения, не выходя из дома.

Список использованной литературы:

1, Amador F, Martinho AP, Bacelar-Nicolau P, Caeiro S, Oliveira CP (2015) Education for sustainable development in higher education: evaluating coherence between theory and praxis. Assess Eval High Educ 40(6):867–882

2, Каримов И.А. Ўзбекистоннингўзистиқлолватараққиётйўли. –Т.: Ўзбекистон, 1992.

3, Кобилова З.А. Мнемотехника в образовательном процессе в медицинских вузах./ Проблемы биологии и медицины 2018. - №2.1(101). -С. 326

4, Мирзиёев Ш.М.Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириш янги босқичга кўтарамиз. Тошкент: Ўзбекистон 2018.

5, Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Тошкент: Ўзбекистон 2019.

7, Павлов Я. Ю., Кочина С. А. // Новые вызовы для педагогики и качества образования: массовые открытые онлайн курсы, облачные сервисы, мобильные технологии. – Москва, 2014.

ДАРСЛАРДА КЎРГАЗМАЛИЛИКДАН УНУМЛИ ФОЙДАЛАНИШ

Хуррамова Лола
Қашқадарё вилояти Косон туман халқ таълими бўлимига қарашли 96- умумий ўрта таълим мактабининг бошланғич синф ўқитувчиси.
+998 90 440-23-72
lolaxurramova78@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада бошланғич синф ўқитувчиларининг дарс самарадорлигини ошириш ва ўқувчининг дарсга қизиқишини орттириш мақсадида кўргазмалиликдан унумли фоқдаланиш ҳақидаги фикрлар ёритилган.

Калит сўзлар: Фанлараро боғлиқлик, нутқ маданияти билан ишлаш.

Мамлакатимизда таълимнинг узлуксизлиги, баркамол шахсни тирбиялашга йўналтирилганлигидан келиб чиққан ҳолда, умумий ўрта таълимида ўқитиладиган фанларга мазмунининг изчиллигини таъминлаш мақсадида турли хил ўйинли, янги педагогик технологиялардан, дидактик материялардан фойдаланиб келинмоқда.

Бошланғич синфда ўз фикрини оғзаки ва ёзма тарзда тушунарли баён қила олиш, мавзудан келиб чиқиб оддий мантиқан тўғри қўя олиш, ораста тоза кийиниш, ўқувчиларнинг олган билимларини кундалик ҳаётга қўллай олиш, ўз-ўзини бошқариш, жамоа ичида ўзини тутиш, сўз бойлигини шакллантириш ва соғлом турмиш тарзи амал қилишнинг дастлабки кўникмалари шакллантирилади.

Бошланғич таълимнинг асосий вазифаларидан бири ўқувчиларнинг сўз бойлигини бойитишдир.

Бу мақсад барча дарсларда амалга оширилади. Асосан, она тили, одобнома фанида бунга кўпроқ эътибор бериш лозим.

“Эртаклар яхшиликка етаклар” деганларидек, кўпроқ эртак қаҳрамонларини жонлантириш керак. Болажонларга эртак қаҳрамонлари кўринишлари таълим ва тарбия бериш керак.

Технология, тасвирий санъат дарсларидан фойдаланиб, қўшимча тўгараклар мобайнида қаҳрамонларни гавдалантириш ва улардан дарслар давомида фойдаланиб бориш керак. Ўқувчида ўзлари кичик бирга ясаган қаҳрамонларини дарс давомида яхшиликка хизмат қилишлигини кўриб янада қизиқиш уйғотади. “Юз марта эшитгандан, бир марта кўрган афзал” деганларидек, ўтиладиган мавзуни ролларда бажариб ўрганадилар. Кўрган, ўргнаган нарсалари бир умр хотирасида сақланиб қолади. Уларни яхши томонларини ўзларига оладилар, ёмонларига қараб хулосалар чиқаришга, бахс мунозара ўтказишга, ҳаётда қандай қўллаш олишлигига ёрдам беради.

Мен қуйида сизга тавсия этадилар кўргазмаликдан унимли фойдаланиш орқали ўз дарсларимиздаги ютуқларни айтмоқчиман. Ҳар бир дарсда ушбу кўргазмалардан фойдаланиш билан ўқувчиларда зерикиш бўлмайди. Эртак қаҳрамонлари орқали яхши, ёмонни фарқлай оладилар, хотиралар мустаҳкамланади, бир-бирига ҳурмат-иззат туйғулари уйғонади.

Эртак қаҳрамонлари орқали мавзулар батафсил ёритиб борилади. Ўқитувчидан ижодкорлик, ўз устида ишлашда изланишлар, айниқса ўқувчилар билан бадиий адабиётлар мутоалаа қилишлиги жуда зарур. Китоблар билан ошно бўладилар. Китобга ҳурмат уйғонади. Асосийси, миллий одоб-аҳлоқ, ҳикматлар фарзанларимизни ҳалол, пок, меҳнаткаш, илимга интилувчи, катталарни, айниқса ота-оналарни ҳурмат қиладиган маънавий етук қилиб тарбиялайди.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. “Бошланғич таълим жараёнида инноватсион ёндашув” Тошкент “Янги нашр” -2014 йил

2, Муаллиф-Матлуба Шодиева Қашқадарё вилоят педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти “Мактабгача ва бошланғич таълим” кафедраси ўқитувчиси.

ИМКОНИЯТ ВА МАСЪУЛИЯТ ИШОНАСИ

Эргашев Хуршид
Самарқанд вилояти Пайариқ тумани
36-умумтаълим мактаби ўқитувчиси. +99893-726-96-23

Аннотация: Мақолада бугунги кунда таълим тизимидаги ўзгаришлар, таълим-тарбияга янгича ёндошув, таълимдаги ислоҳатларга теран ақл ва тафаккур кучи билан воқеа ва ҳодисаларни баҳолай олиш, масъулият ҳиссини чуқур англаб, лоқайдлик ва бефарқликка қарши тура олиш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: таълим, ислоҳат, педагогик маҳорат, малака, ватанпарварлик, ўқувчи-ёшлар.

Президентимизнинг *“2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид давлат тастури тўғрисида”*ги Фармонида биз – педагог-ўқитувчилар учун бир олам янгиликлар олиб келди.

Фармонда келтирилишича, **[1]** 2020 йил охирига қадар 6 ёшли болаларни мактабга тайёрлаш тизимини жорий этиш, мактабгача таълим билан қамраб олиш даражаси 60 фоизга етказиш, 2020 йил 1 сентябрдан бошлаб алоҳида умумтаълим муассасаларида болаларни мактаб фанларига электрон ўқитиш бўйича ахборот тизимлари қоғоз ҳужжатларни бекор қилган ҳолда тажриба тариқасида жорий этилиши, мактаб ўқитувчиларнинг юкламаси мақбуллаштирилиши - умумий ўрта таълимни сифат жиҳатидан янги даражага кўтариш, ҳар томонлама камол топган авлодни тарбиялаш, кераксиз ортиқча қоғозбозликдан қутулиш, ўқитувчиларни ўз устида янада кўпроқ ишлашлари, бўш вақтларидан унумли фойдаланишга олиб келади.

Шу ўринда таъкидлашим керакки, ўқитувчи-мураббий сифатида ўқувчи-ёшларнинг хатти-ҳаракатлари, билим олишга бўлган қизиқиши, интилиши-ю иштиёқини доимо кузатиб бораман. Улардаги ўзига, келажакка бўлган ишончни кўриб, кўнглим таскин топади. Чунки, ишонч кишининг мақсад сари одимлашида муҳим ролъ ўйнайди.

Айниқса, жорий йилнинг 24 январда Халқаро конгресс марказида муҳтарам Президентимизнинг Олий Мажлис қўшма палаталарига навбатдаги Мурожаатномасида *“педагогик маҳорат ва малака даражасига эга бўлган, ўз ишида аниқ натижаларга эришган ўқитувчиларга юқори маош тўлаш тизимини жорий этамиз”* **[2]** деб алоҳида урғу бериши – биз ўқитувчилардан таълим-тарбияга янгича ёндошув, теран ақл ва тафаккур кучи билан воқеа ва ҳодисаларни баҳолай олиш, масъулият ҳиссини чуқур англаб, лоқайдлик ва бефарқликка қарши тура олишимизни тақоза қилади.

Зеро, фармоннинг ҳар бир сўзи биз кутаётган ўзгаришларнинг улкан бўй-бастидан дарак бериб туради.

Дунёда кечаётган глобаллашув жараёнларининг салбий оқибатлари, янги мафкуравий хавф ва таҳдидлар кўламининг кенгайиб бораётгани мазкур масаланинг аҳамиятини янада оширмоқда.

Бу жараёнда айниқса, педагог-ўқитувчилардан нафақат дарс жараёнида, балки бутун жамоатчилик орасида ватанпарвар, садоқатли авлодни тарбиялашдек алоҳида аҳамият бериш талаб этилмоқда

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ватанпарварликни қуйидагича изоҳлайдилар: “Барчамизга яхши маълумки, ватанпарварлик ҳар бир давлат ҳаетининг маънавий асоси ҳисобланади ва жамиятни ҳар томонлама ривожлантириш борасида энг муҳим сафарбар этувчи куч сифатида намоён бўлади. Шунинг учун ҳам фуқароларимизда бизга мутлақо ёт бўлган зарарли таъсирларга қарши мустаҳкам иммунитетни шакллантириш ва Ватанимиз тақдири учун масъулият туйғусини мустаҳкамлаш бўйича аниқ чора-тадбирларни кўришимиз шарт. Ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш бўйича узлуксиз олиб бориладиган ишлар биз учун долзарб аҳамиятга эгадир”[3].

2018 йил 23 февралда эълон қилинган “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси”да ёшларни миллий ғоя ва Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш, улар-

нинг қалби ва онгига Ватан ҳимояси шарафли ва муқаддас бурч эканини чуқур сингдириш, қадимий тарихимиз ва маданиятимиз, жонажон Ватанимизнинг мустақиллиги ва равнақи йўлида фидокорона курашган миллий қаҳрамонларимиз билан фахрланиш, уларга муносиб бўлиш туйғусини шакллантириш кабилар асосий вазифалар этиб белгиланган.[4]

Хулоса қилиш айтишимиз мумкинку, бугунги кунда ўқувчи-ёшларнинг ақлий-интеллектуал салоҳиятларини янада оширишда қуйидагиларга эътибор қаратишимиз лозим:

- кузатувчанлиги, дарс машғулотларни олиб боришда ҳар бир ўқувчи-ёшнинг фикрларни баён этишини ёрита олиши қўллаб-қувватлашимиз;
- мантиқийлиги, ҳар бир ўқувчи-ёш билан ўзаро суҳбат жараёнида мантиқий фикрлашига, унлардаги ижодкорлик, жумбоқ масалаларга ечимини топишини рағбатлантиришимиз;
- эркин фикр юрита олиш маҳоратини, кузатиш орқали ўз фикрини асослаб беришга ундай олиш, ўз фикрини ҳимоя қила олишига кўмаклашишимиз;
- ўз устида ижодий иш олиб боришга ундай олишлигимиз;
- кундалик янгиликлардан хабардорлиги, теварак-атрофдаги бўлаёган воқеа-жараёнларга мустақил ўз фикрига эга бўлишини шакллантиришимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги фармони.// https://www.prezident.uz/uz/lists/view/3422

2, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаат-номаси.// https://www.prezident.uz/uz/lists/view/3324

3, http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/12949-1

4, https://lex.uz/docs/3571158

ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ИГР В НАЧАЛЬНОЕ ОБРАХОВАНИЕ.

Юсупова Дилафруз Камчинбековна
преподаватель начального образования
средней школы №42 Туракурганского района
Наманганской области (Узбекистан)
e-mail: article.20@mail.ru
телефон: +998913659074

Аннотация. Данная статья исследует педагогическое измерение цифровых образовательных игр с точки зрения начального образования, изучить факторы, влияющие на эффективность игр в процессе обучения, дать ценную информацию разработчикам цифровых образовательных игр и, наконец, изучить убеждения учителей начальной школы о цифровых играх, а также их уверенность в интеграции цифровых образовательных игр в классе.

Ключевые слова: цифровые образовательные игры, цифровое игровое обучение, начальное образование, учитель.

Цифровые развивающие игры создают новую перспективу в образовательной культуре, которая тесно связана с интересами учащихся. Цифровые образовательные игры - это инновация в начальном образовании, которая может улучшить навыки обучения и приобретения детьми. Интеграция цифровых образовательных игр в школьную среду начального образования может эффективно способствовать реформированию системы образования. Учителя дошкольного образования и начального образования могут сыграть решающую роль в поддержке обучения детей на основе цифровых игр. Мнения учителей об использовании цифровых игр важны и часто ограничивают их усилия по интеграции новых технологий в классную комнату. Позитивные взгляды могут помочь учителям легче внедрить цифровые игры в свои методы обучения. Таким образом, без учета мнения и намерений учителей относительно использования цифровых игр в условиях начального образования любые потенциальные инновации в этой области могут оказаться бесполезными.

Несмотря на то, что цифровые игры для молодого поколения представляют собой отличную форму неформальной практики распространения грамотности в области информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), обучение на основе цифровых игр превратилось в неотъемлемую часть дидактического использования ИКТ, особенно в начальном образовании. В настоящее время цифровые игры являются быстро развивающейся областью, главным образом потому, что они считаются самой популярной технологией в сфере детских развлечений. В то же время цифровые игры, если они должным образом разработаны и используются педагогически соответствующим образом, могут использоваться в качестве инструментов обучения для повышения эффективности процесса обучения на всех уровнях образования.

Литература по начальному образованию подчеркивает, что цифровые образовательные игры могут улучшить обучение детей, социальные взаимодействия правильное поведение, решение проблем, мышление высшего порядка, критические способности, память и навыки координации глаз и рук. Кроме того, в начальном образовании цифровые образовательные игры рассматриваются как динамичный инструмент развития познавательных навыков учащихся и повышения их мотивации к обучению. Например, когда ученик завершает задание с помощью специально настроенной цифровой образовательной игры, он лучше разбирается в когнитивных концепциях и может легче охватить ключевые моменты модуля. Кроме того, ученики часто берут на себя ответственность за свой собственный стиль обучения и, следовательно, становятся более самостоятельными в своих действиях и решениях.

Общая цель данной статьи - исследовать педагогические аспекты цифровых образовательных игр в начальном образовании. Эта глава также направлена на изучение факторов, которые влияют на эффективность игр в процессе обучения, и дает ценную информацию разработчикам образовательной политики в отношении ЦИФРОВЫХ ИГР.

Наконец, в конкретной главе рассматриваются взгляды учителей начальных школ на ЦИФРОВЫХ ИГР, а также их уверенность в использовании цифровых образовательных игр в классе. Мнения учителей важны для интеграции ЦИФРОВЫХ ИГР в начальных школах, поскольку положительные мнения имеют решающее значение для влияния на их решения использовать методы ЦИФРОВЫХ ИГР в своем обучении. Таким образом, крайне важно исследовать взгляды и намерения учителей начальной школы относительно интеграции и использования цифровых образовательных игр в их классе. Их взгляды и намерения могут предсказать интеграцию ЦИФРОВЫХ ИГР в начальное образование, в то время как успешная интеграция также будет зависеть от других параметров, таких как соответствующие навыки и обучение. Такое исследование также полезно для разработки программ подготовки учителей начальных классов. Содержание соответствующих модулей может учитывать мнения и намерения учителей и соответствующим образом учитывать их.

Цифровые обучающие игры - это программные приложения, которые сочетают в себе характеристики видеоигр и компьютерных игр. Они нацелены на создание заманчивых учебных процессов, которые успешно соответствуют конкретным целям и результатам обучения. Цифровые образовательные игры также учитывают желание и энтузиазм учащихся к игре, одновременно стимулируя развитие логического мышления и приобретение знаний, умений и навыков. Они могут потенциально стимулировать интерес самых требовательных учеников, ассимилируя их в учебный процесс, выполняя действия, отличающиеся от традиционных дидактических методов, принятых в большинстве школ. Для этого в цифровых образовательных играх используются мультимедийные и интернет-технологии. На этом этапе учащийся имеет возможность понимать сложные условия учебного предмета в своем собственном темпе обучения с помощью интерактивных и привлекательных приложений и заданий. Кроме того, учащимся всех классов предлагается возможность социализации, сотрудничества и творческого самовыражения благодаря их взаимодействию с цифровыми средами и виртуальными мирами.

Цифровые обучающие игры считаются привлекательными из-за их развлекательных функций в сочетании с их приятным окружением, их эстетическим качеством (графика, эффекты, музыка), наличием структурированной структуры, их целями обучения (также представляются как проблемы, требующие решения), и наличие игрового измерения (что также вызывает активное участие учащихся). В качестве подхода к обучению цифровые образовательные игры считаются современными инструментами обучения и современными средствами обучения, выводя образование в новое измерение. При надлежащем использовании в организованной системе обучения (с конкретными целями обучения, соответствующим дизайном развития и оценкой) цифровые образовательные игры могут быть классифицированы как активные учебные среды.

Министерство образования, разработчики образовательной политики и учебных программ, администрация начального образования и учителя сами должны поддерживать интеграцию и использование цифровых образовательных игр в процессах преподавания и обучения. Подготовка учителей о значении цифровых образовательных игр также имеет большое значение. Доверие учителей к цифровым образовательным играм может быть повышено за счет посещения правильно разработанных учебных программ, которые дадут учителям соответствующие навыки для оценки и внедрения соответствующих ЦИФРОВЫХ ИГР в начальном образовании. Параллельно требуется техническая, финансовая и административная поддержка.

Проведение дальнейших исследований необходимо для изучения всех факторов и параметров использования и интеграции цифровых образовательных игр в начальном образовании. Существуют также предложения по проектированию и созданию соответствующих цифровых обучающих игр с использованием современных сценариев и совместимости с ожидаемыми результатами обучения. Это в конечном итоге позволит активному участию всех пользователей-учеников и созданию цифровых учебных сообществ, что сделает обучение более приятным и увлекательным процессом.

Использованная литература:

1. Шабалина О.А. Применение компьютерных игр для обучения разработке программного обеспечения // Открытое образование. 2010.
2. Парыгин Д.С. Модель интеркоммуникационной системы обеспечения потребностей жителей города // Известия Волгоградского государственного технического университета. межвуз. сб. науч. ст. ВолгГТУ. 2013.
3. Шабалина О.А, Воробкалов П.Н., Катаев А.В. 31-подход к разработке компьютерных игр для обучения техническим дисциплинам
4. Серова Л.К. Компьютерные технологии на начальном этапе преподавания РКИ Учебная монография // Под общей ред. С.А. Хаврониной, Т.М. Балыхиной. М.: Российский Университет дружбы народов. 2002.
5. Михайленко Т.М. Игровые технологии как вид педагогических технологий // Педагогика: традиции и инновации: материалы Междунар. науч. конф. (г. Челябинск, октябрь 2011 г.).

TA'LIMNING SIFATLI BO'LISHIDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILIYATI VA MAHORATINING AHAMIYATI

Adiba Djumayeva Ilxomjonovna
Namangan viloyati Pop tuman 10-IDUM ning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi
Telefon: +998(91)1799688
adibadjumayeva81@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchining pedagogik qobiliyatlari, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya orqali ma'naviy yetuk barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi pedagoglar mahoratiga qo'yiladigan talablar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, mahorat, shaxs, talim, tarbiya, iste'dod, bilish, nutq, muomala, diqqat, qiyoslash.

Ta'limda qo'llaniladigan barcha innavatsion pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonini hamda o'quvchilar olayotgan ta'lim va tarbiyani sifatli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi shart. Ta'limning sifatli bo'lishi esa o'qituvchining pedagogik mahoratga egaligiga bog'liq. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Izlanuvchanlik, ijodkorlik hamisha uning hamkori va hamrohi bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Qobiliyat turlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

✓ **Bilish qobiliyati-**fanning tegishli sohalariga oid (matematika, biologiya, adabiyot) qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha kengroq va chuqurroq biladi. Fani sohasidagi kashfiyot va yangiliklarni doim kuzatib boradi, unga nihoyatda qiziqib, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajara oladi.

✓ **Tushuntira olish qobiliyati-**o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda erkin fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani sodda, noaniq narsani aniq va tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi kerak.

✓ **Kuzatuvchanlik qobiliyati-**o'quvchilarning ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsiniva uning vaqtinchalik ruhiy holatini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatidagi ko'z ilg'amaydigan o'zgarishlarni ham tez faxmlab oladi.

✓ **Nutq madaniyati-**nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora, mimika vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq, ravshan ifodalash qibiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhim.

O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tinglayotgan va tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo'lsa ham, uning nutqi doim o'zining ichki kuchi, ishonchi, gapirayotgan narsasiga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi. Uning fikri o'quvchilar uchun aniq, ravon, sodda, tushunarli bo'ladi. O'qituvchi hattoki gapirmasdan turib ham nima demoqchi ekanligini o'quvchilarga yetkaza oladi.

✓ **Tashkilotchilik qobiliyati-**bu ikki xil bo'lib, biri o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchisi, o'z ishini to'g'ri uyushtirish.

O'qituvchi o'z ishini tashkil etishda ishni to'g'ri rejalashtira olishi va nazorat qila olishi nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtni xis qila olish va ishni vaqtiga qarab to'g'ri taqsimlay olish, vazifani belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi. Tajribali o'qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o'zgartira oladi.

✓ **To'g'ri muomala qila olish qobiliyati-**bolalarga yaqin munosabatda bo'la olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali va samimiy o'zaro munosabatlar o'rnata olishni bildiradi.

✓ **Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati-**o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishida, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, o'quvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishida ifodalanadi.

✓ **Diqqatni jamlay olish qobiliyati-**o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari-hajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi, yo'naltirilishi kabilarning taraqqiy etishi bilan

izohlanadi.

O‘qituvchi yuqorida sanab o‘tilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga- aniq maqsadni ko‘zlash, qat’iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi sifatlarga ham ega bo‘lishi kerak.

O‘qituvchining pedagogik mahorati shundaki, innavatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Ayniqsa, dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘ziga faol jalb qilish, ko‘zga tashlangan kamchiliklarni bartaraf etishda ularning ishtirokini ta’minlay olish pedagogik mahoratga bog‘liq. Insonning tafakkuri qanchalik mustaqil bo‘lsa, u shunchalik tashabbuskor bo‘ladi. Odamning fikrlashi qancha erkin bo‘lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo‘ladi.

O‘qtuvchi eng avvalo bolalarga mehr qo‘yishi, ularning har bir yutug‘ini o‘zniki deb bilishi, muvaffaqiyatsizliklar sababini chuqur tahlil qila olib, uni bartaraf etish yo‘llarini topa olishi kerak. Har bir ustoz, murabbiy har bir bola timsolida shaxsni ko‘rishi juda zarur. O‘qituvchi o‘quvchini boshqalarga qiyoslamasligi, o‘zini o‘ziga qiyoslashni o‘rgatishi kerak. “Kecha buni uddalay olmadingmi, bugun albatta uddalaysan”, “O‘tgan galgi ma’lumotlaringga qaraganda bu galgisi ko‘proq ekan” kabi ruhlantirish orqali natijaga erishish mumkin. Pedagogik mahorat deganda, shu jihatlarga ahamiyat qarata oladigan o‘qituvchilarni nazarda tutish kerak.

Adabiyotlar:

1. M. Pardayeva, O. Musurmonqulova, A. Qo‘shmonov “O‘quvchilar ta’lim-tarbiyasidagi muhit: muammo va yechim” Toshkent-2015

2. T. G‘afforova “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” Toshkent, “Tafakkur”, 2011

АНАЛИЗ ИГРОВЫХ МЕТОДИК, ПРИМЕНЯЕМЫХ НА УРОКАХ

Иномова Дилором Абдулхамитовна
Учитель русского языка средней школы № 29
Наманганской области Учкурганского района

Аннотация: *В статье рассматривается методика игр применяемых на уроках в начальных классах.*

Ключевые слова: *анализ, педагог, методика, урок, стиль, игра.*

В число наиболее значимых проблем, которые совместными усилиями пытаются преодолеть современные педагоги начальной школы и учреждений дополнительного образования входят неудовлетворительный уровень психофизического здоровья, интеллектуального развития и эмоционального благополучия детей; утрата ими открытости окружающему миру положительного самоощущения, здорового детского любопытства и творческого потенциала, инициативности; сохранение формальной, «преобладание «безличного» стиля общения взрослых с детьми и др. В совокупности они обусловливают, с одной стороны, необходимость совершенствования уже имеющихся подходов к организации и содержанию учебно-воспитательного процесса в начальном звене, а с другой — целесообразность разработки новых, рационально выстроенных и действенных педагогических технологий.

Одним из возможных средств изменения сложившейся негативной ситуации видится более широкое и осознанное использование педагогами тех ресурсов, которыми обладает детская игра. В жизни младшего школьника она занимает сильные позиции развивающей и развивающейся деятельности, а при условии методически корректного отношения к ней способна стать универсальным средством, обеспечивающим широкий комплекс психолого-педагогических влияний на процессы развития, обучения и воспитания детей.

«Разнообразная» полезность игры известна не одно столетие, однако в современных условиях особый акцент следует сделать на ее роли в формировании познавательной активности и развитии творческих способностей детей, развитии умения самостоятельно добывать знания. Кроме того, игра позволяет младшим школьникам комфортно и наиболее «приятными» способами приспособиться к изменившимся пространственным условиям, большому количеству новых людей — взрослых и сверстников, неизменным условиям (режиму, правилам поведения). Она помогает органично войти в новую социальную ситуацию, естественно и с малыми «затратами» приобрести новый статус — статус ученика, постепенно овладеть умениями и навыками новой деятельности — учения, сохранив и преумножив при этом достижения дошкольного периода развития.

Важен также и вклад игры в становление субъектности младшего школьника. В процессе игры ее участники, находясь в субъектной позиции, исподволь приобретают и совершенствуют умения определять замысел игры и устанавливать ее правила, эффективно регулировать ход и качество игрового взаимодействия, выстраивать адекватные межличностные отношения, возникающие по поводу игры. Все это позволяет в дальнейшем перенести опыт действования в качестве субъекта игровой деятельности и на другие виды деятельности — учение, общение, труд, а саму игру рассматривать в качестве действенного средства социализации детей группы риска. Педагогу необходимо овладеть, с одной стороны, умениями конструировать и реализовывать в практической работе игровые развивающие программы, и с другой — умениями использовать резервы игры, которые заложены в ней самой и в тех ее видах и формах, которые присутствуют в реальной жизни детей.

Таким образом, значение игры невозможно исчерпать и оценить развлекательно-рекреативными возможностями. В том и состоит ее феномен, что, являясь развлечением, отдыхом, она способна перерасти в обучение, в творчество, в терапию, в модель типа человеческих отношений и проявлений в труде.

Понятие «игровые педагогические технологии» включает достаточно обширную группу методов и приемов организации педагогического процесса в форме различных педагогических игр. В отличие от игр вообще, педагогическая игра обладает существенным признаком — четко поставленной целью обучения и соответствующим ей педагогическим результатом, которые могут быть обоснованы, выделены в явном виде и характеризуются

учебно-познавательной направленностью. Игровая форма занятий создается на уроках при помощи игровых приемов и ситуаций, выступающих как средство побуждения, стимулирования к учебной деятельности.

Дидактическая игра является ценным средством воспитания умственной активности детей, она активизирует психические процессы, вызывает у учащихся живой интерес к процессу познания. В ней дети охотно преодолевают значительные трудности, тренируют свои силы, развивают способности и умения. Она помогает сделать любой учебный материал увлекательным, вызывает у учеников глубокое удовлетворение, создает радостное, рабочее настроение, облегчает процесс усвоения знаний.

Игра — школа профессиональной и семейной жизни, школа человеческих отношений. Но от обычной школы она отличается тем, что человек, обучаясь в ходе игры, и не подозревает о том, что чему-то учится. В обычной школе нетрудно указать источник знаний. Это учитель — лицо обучающее. В игре нет легко опознаваемого источника знаний, нет обучаемого лица. Процесс обучения развивается на языке действий, учатся и учат все участники игры в результате активных контактов друг с другом. Игровое обучение ненавязчиво. Игра большей частью добровольна и желанна.

ЛИТЕРАТУРА

1, Кунантаева Д. Проблема определения детского игрового пространства // Воспитание школьника. – 2005. - № 6. – С. 21-23.

2, Гарипов Х. Играя – воспитываем // Учитель. – 2007. - № 3. – С. 72-74.

O‘QUVCHI-TALABALARGA MASOFAVIY TA’LIM BERISHDA MOBIL ILOVALARNING O‘RNI

Isoqova Zarifa,
Namangan viloyati Norin tumani
44-maktab informatika fani o‘qituvchisi.
Telefon: +998934919582

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchi-yoshlarga masofaviy ta’lim berishda kompyuter va mobil qurilmalar uchun yaratilgan ilovalardan oqilona va samarali foydalanish usullari haqida so‘z boradi. Shuningdek, onlayn ilovalardan foydalanishda yoshlarning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasiga ta’siri, uning salbiy oqibatlarini oldini olish haqida tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, internet tarmog‘i, zamonaviy texnologiyalar, mobil qurilma, mobil ilova.

Ma’lumki, bugungi kunda hayotimizni axborot-texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, XXI asr – “Axborot texnologiyalari asri”. Fan-texnika taraqqiyoti zamonamizga kelib, misli ko‘rilmagan ulkan imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Bu texnologiyalarning avvallari hayotimizda uchramagan sifat ko‘rsatkichlariga erishildi. Har qanday yangilik insonlarni, ayniqsa, yoshlarni qiziqtirishi shubhasiz. Shunday ekan, insonlarning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qiluvchi bu qurilmalardan oqilona foydalanish, o‘quvchilarga ularni qo‘llash usullarini o‘rgatish o‘z samarasini beradi. Jamiyatimizdagi ko‘p sohalarda bo‘lgani kabi, ta’lim sohasida ham masofaviy ta’lim o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Masofaviy ta’lim bilan bog‘liq internet tarmog‘ida bir qator vebsaytlar, “Apple” qurilmalari uchun do‘kon bo‘lmish AppStore va android qurilmalari uchun do‘kon bo‘lmish Play Marketga joylangan, smartfonlar uchun maxsus tayyorlangan ilovalar, Telegram, Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Twitter va boshqa shu kabi ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar, sahifalar, guruhlar mavjud. Mana shu qurilmalar yordamida bilim olish foydalanuvchilar uchun tez va samaralidir. Keyingi paytlarda ilm-fanga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi tufayli o‘quvchilarning an’anaviy dars mashg‘ulotlariga jalb qilish biroz mushkulroqdek. Mamlakatimizdagi barcha ta’lim dargohlari bugungi kunda eng so‘nggi rusumdagi moddiy-texnik bazaga ega bo‘lib ulgurdi. Demak, o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishning yangi usullari mobil-ilovalar yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Chunki, ko‘plab bolalar maktab yoshiga kirmaslaridanoq zamonaviy texnologiyalardan boxabar bo‘lib ulg‘aymoqdalar. Shu jarayonda avvalo, o‘quvchilarga texnologiyalardan oqilona foydalanish zarurligini singdirishimiz kerak. Biz o‘quvchiga bermoqchi bo‘lgan bilimni, ongiga singdirmoqchi bo‘lgan mafkurani kompyuter va boshqa texnologiyalar vositasida yetkazishimiz ham manfaatlaridir, ya’ni bu ular uchun qiziqarli. Ijtimoiy tarmoqlar orqali masofaviy ta’lim berish jarayonida “Zoom”, “Moodle” va boshqa shu kabi kompyuter dasturlari va mobil-ilovalarga murojaat qilar ekanmiz, ularning yaxshi taraflariga guvoh bo‘lamiz. Shu bilan birgalikda, masofaviy ta’limning texnik, psixologik va pedagogik kamchiliklarini bilib qo‘yishimiz muhim. Jumladan, ayrim qurilma ekranlarining yetarli darajada katta emasligi, internet tarmog‘ining tez yoki sekin bo‘lishi, quvvatlantirgichning har doim ham mavjud bo‘lmasligi, o‘quvchilar mobil qurilmalardan foydalanayotganda ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar, musiqa tinglash kabi jarayonlarga chalg‘ib qolishlarini nazardan qochirmaslik kerak.

O‘quvchilarga masofaviy ta’lim berishda yuqoridagi kamchiliklarning oldini olish maqsadida ularning qulaylik va qiziqarlilik tomonlarini ommalashtirish kerak. Ya’ni, vaqtni tejash, joy tanlamaslik, adabiyotlarni doimo ko‘tarib yurmaslik, bitta manba asosida mavzularni to‘liq o‘zlashtira olish imkoniyati, murakkab qoidalarni o‘yin tarzida oson o‘rganish ular uchun qiziqarli va samaralidir. Internet tarmog‘ida turli yoshdagi bolalarning yoshiga qarab maxsus saytlar mavjud. Bolalar albatta nazorat ostida axborot olamining sirlaridan xabardor bo‘lib borishlari ularning dunyoqarashini kengaytirib, tafakkurini boyitadi. Bu onlayn dasturlar vositasida bolalar maroqli o‘yinlar orqali yozuv va hisoblash asoslarini o‘zlashtiradilar, modellashtirish va rasm chizishga o‘rganadilar, mustaqil topshiriqlarni bajarishga odatlanib, tevarak olam haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Qiziqarli masalalarni yechish ularda o‘quv faoliyatiga moslashish malakalarini boyitadi. Masofaviy ta’lim olish bilan birgalikda ustozlari tavsiya etgan ko‘plab o‘yinlar ularda iqtisodiyot, matematika, tarix, adabiyotga bo‘lgan qiziqish uyg‘otadi. Ayniqsa,

bugungi kun talabi bo‘lgan chet tillarni o‘rganish uchun asqotadi. Xorijiy tillarni o‘qitishga moslashtirilgan turli xil ilovalar shu yo‘nalishda ta’lim olayotgan o‘qituvchilar va o‘quvchilarga juda qo‘l keladi. Bunday ilovalar yordamida xorijiy tilda yozish, tinglab tushunish, o‘qib tushunish va gapirish ko‘nikmalarini shakllantirish, matnli, foto, audio, video ma’lumotlarni jo‘natish va qabul qilish mumkin. Mobil qurilmalarga mos ravishda mobil ilovalarning ham soni, sifati ortib boraveradi. Mamlakatimizda Innovatsion Texnologiyalar Vazirligining tashkil etilishi ham bugungi kunda ommalashib, o‘z samarasini ko‘rsatayotgan masofaviy ta’limning rivojlanishini qulay, oson va arzon bo‘lishiga shart-sharoitlar yaratilishiga katta hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta’lim olib borish jarayonida mobil ilovalarning o‘quvchi yoshlarga mosini tavsiya etishimiz ularning bilim olishlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har qanday hayotimizga kirib kelayotgan yangiliklar yoshlarimizni xato yo‘llarga kirib qolishlariga emas, ularning ma’naviy olamini, bilimini boyitishga xizmat qilishi zarurdir. Buning uchun biz pedagoglar ota-onalar bilan birgalikda birdek mas’ulmiz. Zero, Vatanimizning kelajakda taraqqiy topishi bugungi kundagi salohiyatli, vatanparvar yoshlar qo‘lidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolova G., Umumta’lim fanlari metodikasi. T.:2016/8-son.
2. Diyanova M., Kuchukbayev F., Xalq ta’limi. T.: 2015/2-son.
3. Suyarova A., Boshlang‘ich ta’lim. T.: 2018/7-son

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY MASALALARNING O‘RNI

Jakbaraliyeva Nodira
Yulchiyeva Muhayyo
Namangan viloyati Norin tumani,
1–maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
Tel: (94) 404-77-72

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang‘ich sinflarda mantiqiy masalalarning ahamiyati keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xotira, mantiqiy tafakkur, yig‘indi, amallar.

Boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi bolaning o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabati, yozma va og‘zaki muloqat madaniyatini shakllantirish, mantiqiy vaijodiy fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqarish va olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olish uchun samarali ta’limiy faoliyatni tashkil etishdan iborat.

Farzandlarimizning yuksak intellektual salohiyatli, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs bo‘lib ulg‘ayishida boshlang‘ich ta’limning o‘rni alohida. Boshlang‘ich ta’lim ta’lim-tarbiyaning keyingi bosqichlariga asosiy poydevor vazifasini o‘tashi, ayniqsa, bu davrdagi bolalarning yoshi, qiziqishlari va psixologiyasi o‘ziga xosligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, mazkur bosqichda tashkil etiladigan darslar bolalar ruhiyatiga mos, qiziqarli hamda turli o‘yinlarga asoslangan tarzda tashkil etilishi shart. O‘qituvchi ta’lim jarayonida bolalarning nafaqat, ma’lum bilim va malakalarini o‘zlashtirib olishi, balki ularda kuzatuvchanlik, idrok, ijodiy tasavvur, diqqat, xotira, tafakkur kabi bilish qobiliyatlarining ilmiy rivojlanishini ham nazarda tutadi. Bu ishlar mantiqiy tafakkur bilan bog‘liq ravishda og‘zaki va yozma matematik nutqni o‘ziga xos aniq, ixcham, sodda va to‘g‘ri bayon qilish kabi zarur sifatlarni rivojlantirishi kerak. Bu o‘rinda mantiqiy masalalarning dars jarayonida qo‘llanishi yaxshi natija beradi. Hozirgi kunda ta’limga juda katta e’tibor berilmoqda. Boshlang‘ich sinf darsliklariga nazar tashlasak, har bir mavzu uchun mantiqiy masalalardan namuna berib borilgan. 3-sinf matematika darsligini olib qarasak, berilgan har bir mantiqiy masalalar o‘quvchining fikrlash doirasini kengayishiga, bir masalani bir necha usullardan foydalaninb yechishga undaydi.

1-masala. Agar Anvarning oyoq kiyimining razmeri berilgan bo‘lsa, uning

yoshi nechchiga teng ekanligini topish sxemasini tuzing va o‘zingizda misol keltiring. Buning uchun biz quyidagi bir necha qadamlarni bajarishimiz kerak:

1) Oyoq kiyimingiz o‘lchamini 5 ga ko‘paytiring;
2) Ko‘paytmaga 13 ni qo‘shing;
3) Yig‘indini 20 ga ko‘paytiring;
4) Ko‘paytmadan tug‘ilgan yilingizni ayiring;
5) Ayirmaga 1760 sonini qo‘shing(izox har yili 1 ga oshib boradi);

So‘ngra hosil bo‘lgan sonni teng o‘rtasidan chiziq tortsangiz o‘ng tomonida yoshingiz, chap tomonida oyoq kiyimingiz o‘lchami hosil bo‘ladi. Tekshirish maqsadida biz quyidagi misolda ko‘rib chiqaylik:

Agar Anvar(u 1989 yilda tug‘ilgan)ning oyoq kiyimi razmeri 42 bo‘lsa uning yoshini toping. Yuqoridagi amallarni bajaramiz:

$42 \cdot 5 = 210$
$210 + 13 = 223$
$223 \cdot 20 = 4460$
$4460 - 1989 = 2471$
$2471 + 1760 = 4231$
$42 \mid 31$

Demak, Anvarning hozirgi yoshi 31, tekshiramiz $2020 - 1989 = 31$.

2-masala. Anvar do‘sti Sobirga aytdi: sen yoshingni 2 ga ko‘paytir so‘ngra 5 ni qo‘sh va natijani 5 ga ko‘paytirib chiqqan sonni menga aytsang, men yoshing nechchida ekanligini

topaman. Savol: Qanday qilib topgan?

Bunda natija oxirgi raqami 5 ni tashlab, qolganidan 2 ni ayirish kifoya. Haqiqatdan ham, yoshni x desak, $(2 \cdot x + 5) \cdot 5 = 10 \cdot x + 25 = 10 \cdot (x + 2) + 5$. Misol uchun yoshini 12 deb olsak, $(12 \cdot 2 + 5) \cdot 5 = 145$. Natijni oxirgi raqami 5 ni tashlab 2 ni ayirsak, $14 - 2 = 12$. Demak, fikrimiz to‘g‘ri ekan.

3-masala. Amaldagi xatolikni topish $2 \cdot 2 = 5$. Guvohi bo‘lganimizdek o‘quvchilar o‘rtasida juda ko‘plab savollar paydo bo‘ladi $2 \cdot 2 = 5$ degan. Ma’lumki bu natija xato lekin, buni o‘quvchilarga amaldagi xato qayerda yuz berganini tushuntira bilish kerak. Ravshanki $4 : 4 = 5 : 5$ demak, $4 \cdot (1 : 1) = 5 \cdot (1 : 1)$ bundan esa tenglikni ikki tomonidan bir hil ifodalarni tashlab $4 = 5,\quad 2 \cdot 2 = 5$ ekanini olish mumkin. Bu yerdagi xato $4 : 4 = 4 \cdot (1 : 1)$ va $5 : 5 = 5 \cdot (1 : 1)$ tengliklarni yozib bo‘lmasligidadir.

Xulosa qilib aytganda, biz pedagoglar o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarni ongli ravishda o‘zlashtirishlari uchun darsga ijodiy yondashish zarurligini unutmasligimiz darkor. Bu esa o‘quvchilarni o‘z fikrlarini aniq, ravon, to‘g‘ri va tushunarli bayon etishi, kuzatuvchanlik, birodarlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarini boyitib borishga yordam bera olsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.A.Mirzaahmedov, 4-sinf uchun matematikadan masalalar to‘plami. T. 2018.
2. Matematikadan 2-4 sinf darsliklari, Toshkent.

INFORMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA INTERNETDAN OQILONA FOYDALANISHNI O‘RGATISH

Tolipova Ravzaxon,
Namangan viloyati Norin tumani
44-maktab informatika fani o‘qituvchisi.
Telefon: +998932463814

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarga internetdan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlarini tushuntirish, undan oqilona va samarali foydalanish usullari haqida so‘z boradi. Shuningdek, internetdan foydalanish yoshlarning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasiga ta’siri, ahloqqa mos bo‘lmagan ma’lumotlarga qarshi madaniyatni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmog‘i, ijobiy axborotlar, salbiy axborotlar, ta’lim, tarbiya.

Bugungi kunda internet tarmog‘i eng ommabop va tezkor axborot tarqatuvchi omil hisoblanib, u XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan hisoblanadi. Bu kashfiyot tufayli butun dunyo bo‘ylab foydalanuvchilar o‘zaro axborot almasha oladilar va millionlab kompyuterlarni yagona tizimga biriktira oladilar.

Bunday imkoniyatlar bugungi globallashuv jarayonida foydalanuvchilarning, ayniqsa, yoshlarning ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Internet tarmog‘ida istalgan mavzulardagi ma’lumotlarni topa olishimiz hech kimga sir emas. Shunday ekan, umumta’lim maktabi o‘quvchilariga informatika fanidan dars berish jarayonida undan oqilona va samarali foydalanish usullarini o‘rgatish hamda ahloqqa zid bo‘lgan ma’lumotlardan saqlanish g‘oyasini singdirib borishimiz zarurdir. Chunki ular yosh nihol kabidir. Har bir sinf turli xil muhitda o‘sgan, turli dunyoqarashga ega bo‘lgan oila farzandlaridan iborat bo‘ladi. Demak, yoshlarning ma’nan yetuk, komil inson bo‘lib tarbiya topishlariga biz pedagoglar birdek mas’ulmiz.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” asarida ushbu jumlalar tilga olingan: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech bir sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”
Bugungi kunda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar zamirida yosh avlodning baxtli kelajagini barpo etish yotadi.

Internetdan, jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning aksariyati yoshlardir. Chunki, o‘qishga bo‘lgan qiziqish, topshiriqlarni tez fursatlarda bajarish zaruriyati ularning global tarmoq bilan uzviy bo‘g‘lanib turishga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Yoshlar tarbiyasini, bilim darajasini oshirishga xizmat qiladigan bir qator internet saytlari mavjud. http://book.uz, http://kitob,uz, http://tezyoz, http://yoshlarmurojaati kabi saytlar yoshlarni yuksak salohiyatli, bilimli, teran fikrlaydigan, izlanuvchan va ijodkor bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Internet tarmog‘idagi saytlarning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham bor bo‘lib, ko‘plab nomaqbul saytlar ba’zi yoshlar orasida ommalashib ketgan. Bular, albatta, ularning ongiga ta’sir qilib, jiddiy xavf tug‘diradi. Mana shunday holatlarning salbiy ta’sirini oldini olish maqsadida kompyuterdan, internetdan oqilona foydalanish kerakligini oilada ota-ona, ta’lim muassasasida pedagoglar uzviy aloqada bo‘lgan holda ish olib borishlari kerak. Ularga kompyuter qarshisida uzoq muddat o‘tirishning sog‘liqqa zarar ekanligini, immunitet va qobiliyatning susayishiga olib kelishi mumkinligini tushuntiriladi. Buning uchun:

Kompyuterda ishlash me’yorini bilishi;

- Internetdan foydalanish maqsadini belgilash;
- Bilim olishga undovchi, ahloqqa ijobiy ta’sir qiluvchi saytlar haqida ma’lumot berish;
- Ahloqqa zid bo‘lgan saytlardan ongli ravishda o‘zi hohlab uzoqlashishlarini tushuntira olishlari kerak.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, yoshlarimizning internetdan foydalanishlarini maqsadli qilib belgilab qo‘yish kerak. Ko‘pincha yosh ota-onalar qanday yo‘l tutmoqda? Avvalo, maktabga kirib-kirmay telefon o‘yinlariga qiziqtiradilar, keyin kompyuterda o‘yin o‘ynashni boshlaydi, bunday sharoitda aqli to‘lishib borayotgan bolakay bemalol

internetdan foydalanish ko‘nikmasini ham egallay oladi. Kichik yoshdan o‘rganib olgan bolalar virtual olam domiga shu qadar berilib ketishi mumkinki, endi uni qat’iy ta’qiqlab kompyuterdan ajratish mushkuldir. Inson ruhiyati, asosan, bolalar ta’qiqlangan narsani ko‘rgisi, “qilma” degan ishni qilgisi keladi. Ularning axborot-texnologiyalariga qiziqishlarini maqsadli yo‘naltirish kerak deganning boisi ham shunda. Ya’ni biz o‘quvchiga bermoqchi bo‘lgan bilimni, ongiga singdirmoqchi bo‘lgan mafkurani kompyuter vositasida yetkazishimiz manfaatlaridir. G‘arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyoti, san’ati umuminsoniy madaniyat namunasi, uning ilg‘or yutuqlari barchaga ma’lum. Bizning jamiyatimizda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraladi. Lekin qo‘shiq, musiqa, kino sohalaridagi ayrim saviyasiz, ahloqsiz kliplar “ommaviy madaniyat” tushunchasi orqali yoshlar ongini egallab olmoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali beriladigan reklamalar va ma’lumotlar ham xalqimiz ma’naviyatiga mos, belgilangan qonuniy talablar asosida bo‘lishi ham yoshlar ma’naviyatiga tahdidning oldini oladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, o‘quvchilarga kompyuter texnologiyalarini o‘rgatish jarayonida undan oqilona foydalanish o‘zining, yaqinlarining, butun jamiyatning yutug‘i ekanligini singdira olishimiz zarur, zero, internet ularning jismonan va ruhan sog‘lom osishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligiga erishishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” – T., 2016.
2. Diyanova M., Kuchukbayev F., Xalq ta’limi. T.: 2015/2-son.
3. Suyarova A., Boshlang‘ich ta’lim. T.: 2018/7-son
4. Farfiyeva K., Umumta’lim fanlari metodikasi. T.:2018/5-son.

BOSHLANG‘ICH SINFDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING YO‘NALISHLARI

To‘xtasinova Malikaxon No‘monovna
Isakbayeva Gulchexraxon Dadamirzayevna
Namangan viloyati Norin tumani,
1–maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
Tel: (97) 254-06-21

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang‘ich sinfda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning yo‘nalishlari haqida fikirlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, nutq.

Prezidentimiz alohida ta‘kidlaganlaridek, «Agar bolalar erkin fikrlashga o‘rganmasa, berilgan ta‘lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatda bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘lida. Mustaqil fikrlash esa kata boylikdir. O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish uchun zamon talablariga javob bera oladigan oliy ma‘lumotli o‘qituvchilarini malakasini oshirish uzluksiz ta‘limning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan bilimlar bilan o‘quvchilarni qurollantirish ko‘p jihatdan ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, ayniqsa, uni integratsiyalashtirilgan ta’limni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtirish, o‘zi va o‘rganuvchilar uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, usul va uslublarni, o‘qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda o‘quv jarayoni samaradorligini integratsiyalashtirilgan ta’lim orqali rivojlantiradi.

Ta‘limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqea hodisalarni bir necha tomondan korishi muhim: mantiqiy va emotsional tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar.

Fanlararo integratsiya – bir necha o‘quv predmetning bir- biriga taalluqli sohalarini ko‘rsatish emas, balki integratsiyalab o‘qitish orqali o‘quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta‘kidlashicha, integratsiya o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi Integratsiyalab o‘qitish o‘quvchi shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobilyatlarni shakllantirish, darslarda faol ishtirokning yuzaga kelishi orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi. Integratsiya asosi etib, bir darsning mazmuni va uni o‘tkazish strukturasi olinadi, uni boyitish uchun boshqa fanlarni ham jalb qilishimiz mumkin. Integratsiya ta’lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog‘likligini ko‘rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir- biriga bog‘liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o‘rgatishi kerak.

Odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san’at, mehnat, jismoniy tarbiya. bu fanlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va bu fanlarning maqsadi axloqiy, estetik tarbiya berishdir. Nutq o‘stirish -harflarii to‘g‘ri talaffuz etish va yozish, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish va yozish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon obrazli o‘qish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks etishi va yozilishi; fikr bayon qilish uchun zarur bo‘lgan ayrim grammatik vositalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish, xalq og‘zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni o‘qib tushuna olish kabi talablarni o‘z ichiga oladi. Deyarli har bir darsniig maqsadi nutq o‘stirishga qaratilgandir. Asosan ona tili va o‘qish, sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilar nutq o‘stirish bilim, ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lsalar, rus tili, matematika, tabiat, odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san’at, mehnat, jismoni tarbiya darslarida uni mustahkamlab, to‘ldirib boradilar. Tabiatshunoslik darsida ya’ni-fanida 4-sinfning tabiatshunoslik darsligida bir qancha O‘zbekistonning geografik o‘rni, o‘rmonlari, hayvonot olami, er osti qazilma boyliklari haqida matnlar berilgan bo‘lib, bolalar bu matnlarni o‘qib, gapirib berish davomida nutq o‘stirish jarayoni ro‘y beradi: masalan, 3-sinfning odobnoma darsida 4-darsning mavzusi «Qarilik donolik» (1 soatlik) berilgan. Bu darsda o‘qituvchi «Qobusnoma» kitobini ko‘rsatib, undan qariyalar haqida, «Qari1ik va yigitlik sifati zikrida» bobi o‘chib beriladi va muhokama etiladi. Xalq maqollaridan misollar keltirib, ahloqiy tarbiya beriladi. O‘qish darsligining deyarli ko‘p mavzulari ahloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4 - sinfning o‘qish

darsligida «Salomlashish odobi» degan mavzu bor. Bunda: Salom-salomatlik ma'nosini ifodalaydi. Agar sendan necha mavridda salomlashish kerak, deb so'rasalar, yetti holatda deb javob bergin. Avvalo yoru do'stlarni, katta-kichiklarni, aka-ukangni ko'rganda salom berishing lozim deb ko'rsatib o'tilgan 4-sinf matematika darsligini ko'rib chiqsak, bunda matematik terminlar orqali, o'lchov birliklari, masalalar, amalni og'zaki bajarish orqali nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki demak fanlararo integratsiya mavjud, ya'ni fanlararo uzviylik bog'liqlik mavjud. Chunki, har bir fanning maqsadi, shuki bolalardagi nutq o'stirish, ahloqiy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiya kabi ijobiy sifatlar barcha fanlarda o'z aksini topgan.

Adabiyotlar:

1. Umarova M, Hamraqulova X, Tojiboyeva R. "O'qish" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. –T: O'qituvchi, 2019.

2. M.Holiqova, SH.Ergasheva "Odobnoma" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. –Toshkent: 2019.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ARIFMETIK AMALLARNI OSON HISOBLASH USULLARI HAQIDA

Vasiyeva Komila Xakimjonovna
Zokirova Gulbahor Xabibullayevna
Namangan viloyati Norin tumani,
4–va 7–maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
Tel: (99) 978-80-40

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang‘ich sinflarda arifmetik amallarni oson hisoblash ussullari ko‘rsatilgan bo‘lib bu o‘quvchilarga qulayliklar tug‘diradi. Ko‘plab murakkab tuyulgan misollarni o‘quvchilar barmoqlari yordamida qulay hisoblashi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Barmog‘, ketma-ket, ko‘paytirish, amallar.

Odatda darsda bir necha didaktik materiallar amalga oshiriladi: yangi materialni o‘tish, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, bilimlarni mustahkamlash, bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish,mustahkam o‘quv malakaiar hosil qilish va hokazo. Matematika darslarining o‘ziga xos tomoni shundaki, bu-o‘quv materialining aniqliligidir. Shuning uchun ko‘rgazmali vositalar, o‘qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o‘quvchilarning faolligi, sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi kabilarga ham bog‘liq. Bir xonali sonlarni qo‘shish va ayrishda sanoq cho‘plardan foydalanishni o‘quvchiga tavsiya etiladi. Sinfxattaxtasi oldida bu o‘quvchi uchun noqulayliklar tug‘diradi.Mana endi o‘quvchining o‘z barmoqlari yordamga keladi.

1-sinfda o‘quvchiga barmoqlar yordamida qo‘shish, hamda ayrishni albatta o‘rgatish lozim. Lekin bu usulni keyinchalik qiyinchiliklari ham kelib chiqadi. Sababi sonlar kattalashgani sayin barmoqlar yetmay qoladi. Ana endi ularga xotirada saqlash tushunchasini kiritiladi. Ikki xonali songa bir xonali sonni qo‘shganda ham barmoqlarda foydalanish mumkinligi ayrim ulgurmovchi o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Bunda ikki xonali son xotirada, ya’ni dilda bo‘lsa unga bir xonali son barmoqlar yordamida qo‘shiladi. Masalan, 18+4 misolini oladigan bo‘lsak, bunda bola xotirasida 18 soni turadi va bolaning to‘rtta barmog‘i ochiladi va 18 sonidan keying sonlar ketma-ket sanala boshlaydi: 19, 20, 21, 22. Nihoyat o‘quvchining barmog‘i tugadi oxirgi aytilgan son esa 22. 18+4 misolining javobi ham 22 ekanligi tushuntiriladi: 18+4=22 Lekin ayrishda bu usul bir muncha qiyinlashadi.Sababi bunda o‘quvchiga oldinga emas,orqaga sanash tavsiya etiladi. Masalan, 14-8 misolida o‘quvchiga 14 soni xotirada tutishi va barmoqlarni 8 tasini ochishini aytiladi. Undan so‘ng o‘quvchiga 14 sonidan keyingi sonlarni ketma-ket sanashi tushuntiriladi: 13, 12, 11, 10, 9, 8, 7, 6 sanoq to‘xtatiladi. Sababi barmoqlarning barchasi yopildi. O‘quvchiga oxirgi barmoqni yopayotganda qaysi sonni aytganligi so‘raladi. 6 soni. Demak, 14-8 misolning javobi ham 6 ga teng ekanligi tushuntiriladi.

Bunday “BARMOQLAR USULI” matematikada ulgurmovchi, ya’ni matematika fanidan hisoblashga qiynaluvchi o‘quvchilar uchun juda qo‘l keladi.

2-sinfning ikkinchi yarim yilligidan boshlab matematika fanidan amallar ketma-ketligi o‘rgatila boshlaydi. Bunda ham o‘sha “BARMOQLAR USULI”dan foydalanish mumkin. O‘ng qo‘l bosh barmog‘ini “Ko‘paytirish”, ko‘rsatkich barmoqni esa “Qo‘shish”, chap qo‘l bosh barmog‘ini “Bo‘lish”, ko‘rsatkich barmoqni esa “Ayrish” deb ataladi.Bosh barmoq doimo barmoqlarning boshi hisoblanishi o‘quvchiga tushuntiriladi. Misollardagi amallar ketma-ketligini bajarishda barmoqlarga qarash tavsiya etiladi.

Amallar tartibida ham ko‘paytirish va bo‘lish birinchi bajariladi:

3+24:6=3+4=7, 72-8*4=72-32=40

O‘quvchi o‘z barmoqlariga qarab amallar tartibini esga oladi va misollarni bajarishda amallar ketme-ketligini amal qiladi. Tabiiyki shu o‘rinda sovol tug‘iladi, agar misolda teng kuchli amallar kelib qolsachi, ya’ni mana bunday:

12+34-15, 6*5:3.

Bunday holatlarda o‘ng va chap barmoqlarning bosh barmoqlari tengligi hamda ko‘rsatkich barmoqlari ham teng bo‘lganligi uchun bunday misollarni ishlashda amallar tartibini ketma-ket holatda, ya’ni chapdan o‘ngga qarab ishlash tavsiya etiladi:

12+34-15=46-15=31, 6*5:3=30:3=10

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki,o‘qituvchi doimo o‘z ustida ishlashi, yangiliklarga

intilishi kerak. Boshlang‘ich matematika kursini o‘qitishda qulay usullar bilan tushintirishi va turli xil usullarni o‘rganishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi sinf o‘quvchilarini har doim kuzatib borishi kerak. Bolaning o‘zi bir olam. Kuzatar ekansiz, o‘quvchining o‘zidan ham turli xil usullarni topishingiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonova N., O‘rinboyeva L. Matematika 2-sinflar uchun darslik. –T.: 2018.
2. Internet saytlari.

ЎҚУВЧИЛАРГА ЖАҲОН АДАБИЁТИНИ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ

Юсупова Зубайда Ботиралиевна
Махсудова Дилором Абдупаттаевна
Наманган вилояти Норин тумани,
4–ва 9–мактаб бошлангич синф ўқитувчилари
Tel: (97) 254-06-21

Аннотация: Бу мақолада бошланғич синфларда жаҳон адабиётини ўқитиш усуллари келтирилган.

Калит сўзлар: Ўқиш, парча, ёзувчи, ўқувчилар, жахон адабиёти.

Маьлумки, бошланғич синфларнинг “Ўқиш” дарсликларида жаҳон адабиёти намуналарини ўргатиш режалаштирилган. Жумладан, амалдаги 4-синфлар “Ўқиш” китобининг 8-бўлимида дунёга машҳур адибларнинг асарларидан намуналар жой олган. Машҳур Даниялик болалар ёзувчиси Ҳанс Кристиан Андерсеннинг “Болалар гурунги”, немис болалар адабиётининг асосчилари ака-ука Гримларнинг “Бир хумча шавла”, турк адиби Фахри Эрдинчнинг “Рустам”, атоқли қирғиз ёзувчиси Чингиз Айтматовнинг “Жимжилоқ”, машҳур инглиз адиби Жонатан Свифтнинг “Гулливернинг саёҳатлари” асаридан парчаларни ўрганиш назарда тутилган. Булардан кўриниб турибдики, жаҳоннинг энг машҳур адиблари ижодини ўргатиш мўлжалланган. Мазкур мавзуларни ўргатиш ўқитувчидан жуда жиддий тайёргарлик кўришни талаб қилади. Биринчидан, шуни таъкидлаш керакки, дарсга тайёрланаётган ҳар қандай муаллим жаҳон адабиётини бойитишга ўзларининг муносиб ҳиссаларини қўшган машҳур адиблар ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақидаги маълумотларни пухта ўрганиб, ўзлаштириб олган бўлишлари зарур. Иккинчидан, ёзувчиларнинг ижодидан дарсликда берилган намуналардан ташқари бошқа асарларидан ҳам хабардор бўлиш фойдадан холи эмас. Учинчидан, мазкур мавзуларга тайёргарлик кўриш вақтида фанлараро алоқага урғу бериш, яъни жуғрофия, тарих фанларига мурожаат қилиш зарур. Масалан, “Дунёнинг сиёсий харитаси”дан унумли фойдаланиш шарт. Ўқувчиларга ушбу ёзувчилар айнан қайси мамлакатда туғилагнини харитадан кўрсатиш болаларнинг қизиқишларини ошириши табиийдир.

Ҳанс Кристиан Андерсеннинг “Болалар гурунги” ҳикоясини ўрганишни бошлашдан олдин жаҳон болалар адабиётининг майдонга келиши ҳақида қисқагина маълумот бериш, жумладан, ўқувчиларга қуйи синфларда ўрганган ўзбек болалар адабиётидан намуналарни эсга олиш мақсадга мувофиқдир. Айнан Андерсен Европада болалар адабиётининг юзага келиши ва ривожланишига улкан ҳисса қўшганлигини айтиб, ҳозир бутун дунёда китобхонлар унинг асарларини севиб ўқишини алоҳида таъкидлаш зарур. Аслида болалар Андерсен эртакларидан маълум маънода хабардор бўлиб ўлгуришган ҳам. Яъни унинг асарлари мультфильм сифатида экранлаштирилгани учун ёш томошабинлар орасида оммалашганлиги табиий.

Ёзувчининг “Болалар гурунги” ҳикояси жуда катта тарбиявий аҳамиятга эгалигини ҳисобга олган ҳолда ҳаётга боғлаш лозим. Айнан бошланғич синфларда болаларда моҳиятини тушуниб-тушунмай ота-оналари мавқеидан ғурурланиш ҳисслари пайдо бўлади. Шу салбий хислатнинг шаклланмай туриб олдини олишда мазкур ҳикоянинг таҳлили муҳим аҳамиятга эга.

Немис адиблари ака-ука Гримларнинг “Бир хумча шавла” асарини ўзбек ўқувчиларга маълум бўлган машҳур “Ур, тўқмоқ” эртагида Лайлаквойнинг чолга берган иккинчи ҳадяси – “Қайнар хумча”га қиёслаб ўрганиш кўзланган мақсадга эришишда энг тўғри омил вазифасини бажаради.

Машҳур инглиз адиби Жонатан Сивфтнинг “Гулливернинг саёҳатлари” асаридан бехабар ўқувчини учратиш амри маҳол, чунки бу асар дунёдаги кўплаб тилларга ўгирилганлиги, бир неча марта экранлаштирилганлиги туфайли жуда машҳур бўлиб кетган. “Гулливернинг саёҳатлари” асари ўзбек тилига таржима қилиган ва бир неча марта нашр қилинган. Асарнинг болалар учун мўлжалланган нашрлари ҳам кўп минг нусхаларда чоп этилган. Ушбу мавзуга оид машғулотда, албатта, асар нашрларини намойиш қилиш дарс самарадорлигини оширади.

Бундай машғулотларни бир сўз билан айтганда, “Адабий саёҳат” дарслари деб номлаш

тўғри бўлади. Шундай ном билан ташкил этилса, ўқувчиларнинг дунё мамлакатлари, халқлари, уларнинг адабиёти ҳақидаги билим ва кўникмалари шаклланади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, жаҳон адабиёти намуналарини ўрганишга оид машғулотларни юксак савияда ташкил этиш ва уларда ноанъанавий дарс усулларидан фойдаланиб, янги педагогик технологияларни қўллаш ҳам таълимий, ҳам тарбиявий аҳамият касб этиши муқаррар. Шундай усуллар ёш ўқувчиларнинг бадиий китобларни, жумладан, жаҳон адабиёти намуналарини ўқишга бўлган қизиқишларини ўстиришда самарали восита ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Matchonov S. va boshqalar. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4- sinflari uchun darslik, – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017.
2. Svift, Jonatan. Gulliverning sayohatlari. – Toshkent: Vektor-Press, 2009.

QARQALPAQ XALQÍNÍŃ JAŃADÁRYA DÁWIRINE BAYLANÍSLÍ TARIYXÍY JÍRLARÍ

(Tawelibay qaraqalpaqları materialları mısalında)

E.E. Qanaatov,
Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı,
Nókis qalası, Qaraqalpaqstan Respublikası
awada@mail.ru, +998913943665

ANNOTATSIYA: Maqolada Tauyelibay qoraqalpoqlari orasida saqlangan tarixiy qo‘shiqlar haqida so‘z boradi. Tarixdan darak beruvchi bu kabi she’riy namunalar asosan termishlar (bolalarga bag‘ishlangan qisqa jirlar) turida uchrashadi. Bu qo‘shiqlarning aksariyatida qoraqalpoqlarning XVII-XVIII asrlarda Sirdaryoning ulkan bir irmog‘i bo‘lgan Janadaryo bo‘yida yashagan davri to‘g‘risida ma’lumotlar beradigan vaqtlar va voqealar yodga olinadi.

АННОТАЦИЯ: В статье рассказывается об исторических песнях, сохранившихся у тауелибайских каракалпаков. Такие поэтические примеры, дающие информации из истории в основном встречаются в форме термишов (короткие стихотворения, посвященные детям). Многие из этих песен напоминают времена и события, которые дают информацию о периоде, когда каракалпаки жили на берегах Джанадарьи, огромного притока Сырдарьи в XVII-XVIII веках.

ABSRTRACT: The article tells about the historical songs preserved by the Tauelibai Karakalpaks. Such poetic examples that provide information from history are mainly found in the form of termish (short poems dedicated to children). Many of these songs resemble the times and events that provide information about the period when the Karakalpaks lived on the banks of the Janadarya, a huge tributary of the Syr Darya in the XVII-XVIII centuries.

Kalit so‘zlar: Tarixiy ong, Tauyelibay qoraqalpoqlari, Janadaryo, xalq she’riyati, termishler.

Ключевые слова: *Историческое сознание, тауелибайские каракалпаки, Джанадарья, народная поэзия, термишы.*

Key words: *Historical consciousness, Tauelibai Karakalpaks, Janadarya, folk poetry, termishes.*

Qaraqalpaq xalqı – Oraylıq Aziyadağı áyyemgi etnoslardıń biri sıpatında qanshama tariyxıy jollardı basıp ótti, qansha tariyxıy dáwirlerdi izde qaldırdı. Biraq olardıń barlığı da xalıq awzeki dóretpelerinde saqlanıp qalmağan. Tariyxıy jırlar, sonıń ishinde tolǵawlar Noǵaylı ordası ıdırap, xalıq Edil-Jayıq boyınan kóshkennen baslap kóplep dórey baslağan. Onıń arǵı jağındağı dáwirlerge tiyisli jır úlgileri sanawlı ǵana, olar tiykarınan balalarǵa arnalǵan qısqa aytımlarda ǵana saqlanıp qalǵan.

Tariyxıy Túrkistan úlkesine qaray kóshken qaraqalpaqlar Sırdáryanıń boyına, onıń bir arnası Jańadárya átirapına, Ullıtaw dalalarına qonıslasadı. Lekin, qazaq feodallarınıń, Qoqan hám Xiywa xanlıqlarınıń qayta-qayta topılısları bul jerden de xalıqtıń kóshiwine sebepshi boladı. XVIII ásir aqırı XIX ásir baslarında bul jerden biraz qaraqalpaqlar Arqa Buxara aymaǵındağı tariyxıy mákanlarına kóshedi. Bul aymaqtaǵı diaspora wákilleri «Tawelibay qaraqalpaqları» dep ataladı. Tawelibay qaraqalpaqlardıń tariyxın, etnografiyasın hám awızeki dóretpeleri boyınsha birqansha materiallar járiyalağan S.Ámirlan (Qanaatov) olardı «Ortanǵı qaraqalpaqlar» yamasa «Orta qaraqalpaqlar» dep ataydı. Izertlewshi ózinıń «Tawelibay tariyxınan tam-tum sır» atlı kitabında: «Tawelibay» – Buxar ámirliginde jasawshı hám onnan ǵárezsiz jasaǵan Orta qaraqalpaqlardıń watanı sanaladı» degen pikirdi bildiredi [1, 14-15 b.].

Mine, usı Tawelibay qaraqalpaqları arasında tariyxıy dáreklik áhmiyetke iye xalıq poeziyası úlgileri házirge shekem saqlanǵan. Bul materiallar qaraqalpaqlardıń usı bóleklerinıń hárqıylı dáwirlerdegi jasaw ornı, jasaw turmısı hám zaman nápesinen dárek beredi. Bunday poeziyalıq úlgiler ilimge qaraqalpaqlar tariyxı boyınsha tıń maǵlıwmatlardı beretuǵınlıǵı sózsiz. Olardıń

ishinde qaraqalpaqlardıń altın dáwiri – Jańadárya alabında jasaǵanlıǵı haqqındaǵı jır úlgileri de ushırasadı. Máselen:

Jańadárya jay qaldı,
Quwan degen say qaldı,
Ballarımnıń azıǵı,
Mallarımnıń qazıǵı,
Jiyde menen tal qaldı… [2, 12 b.]. Xalıq poeziyasında «termishler» dep atalatuǵın bunday dúrkimlerde xalıqtıń ertedegi tariyxıy mákanı – Jańadáryanı ańsawın, tuwılǵan jerge bolǵan saǵınısh sezimlerin kóriwge boladı. Sonday-aq, onda sol aymaqta jasaǵan qaraqalpaqlardıń sharwashılıq penen qatar, diyqanshılıq penen de shuǵıllanǵanlıǵın ańlaymız.

1820-1821-jılı Orenburgten Buxaraǵa ekspediciya júrgizgen orıs oficeri E.Meyendorf Jańadárya boyında jasaǵan qaraqalpaqlar haqqında: «1740-jılı qaraqalpaqlar Orısiyat hákimiyatınan, sonday-aq xiywalılar menen buxarlılardan soraǵan kómegi qurı dalaǵa ketkennen keyin, olar 1807-jılı Jańadárya boyındaǵı ózleriniń ónimdar atızların taslap ketti…» dep maǵlıwmat beredi [3, 45 b.].

Jańadárya Sırdáryadan saǵa alıp 1819-jılǵa shekem mıń jıllar dawamında Qaraqalpaqstan territoriyasındaǵı Aral teńizine quyıp turǵan. 1816-jıllarda Jańadáryanıń suwı mol bolǵan hám dárya jaǵasındaǵı xalıq eginshilik penen shuǵıllanıp kelgen. Jańadárya boyında suwǵarmalı eginshilik b.e.sh. I ácirden-aq baslanǵan [4, 5-7 bb.].

Tawelibay qaraqalpaqlarınıń Jańadárya boyınan kóshiwine bir jaǵınan dáryada suwdıń tartılıp ketiwi sebepshi bolsa, ekinshi tárepten Xiywa xanlıǵı húkimdarlarınıń tınımsız atlanısları hám qazaq feodalları menen kelispewshilikler sebepshi boladı. Tariyxıy poeziya úlgileriniń dóreliwine de usınday waqıyalar tiykar bolǵan.

Jańadárya boyında jasaǵan qaraqalpaqlar uzaq jıllar dawamında Ámiwdáryanıń quyar jerine, ata-babalar tilinde «Qańǵaylı» yamasa «Sozaq soramı» dep atalǵan Qubla Aral boylarına – tariyxıy Úrgenish jurtına, sonday-aq Qarshı dalaları menen Tawelibay úlkesine bólinip-bólinip kóshti.

Tawelibay qaraqalpaqları arasınan jıynalǵan tariyxıy poeziya úlgileri arasında balalar folklorınıń jedelli janrı sanalǵan termishler kóbirek saqlanǵan. Termishler – jasúlken kisilerdiń aqlıǵın aldına alıp otırǵızıp, jıraw jolı menen tolǵaytuǵın jır úlgisi [5, 145 b.]. Bunda pútin-baslı waqıyalar joq, biraq balalardı tuwǵan jerge súyispenshilik ruwxında tárbiyalawǵa, olardıń boyında batırlıq sezimlerin qáliplestiriwge bolǵan ideyalar sáwlelendiriledi.

Tawelibay qaraqalpaqları arasında aytılatuǵın tariyxıy poeziya úlgilerin ele de jıynaw máselesi – óz sheshimin kútip turǵan áhmiyetli wazıypalardan sanaladı.

DEREKLER:

1. Қанаатов (Әмирлан С. Е.). Таўелибай тарийхынан там-тум сыр. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1993. – 100 б.

2. Izertlewshiniń dala jazıwları – 2011. Informant: Egembergen Sıdıqov. 1947 j.t., milleti qaraqalpaq (qıtay-qayshılı-kórpe-kórik). Mánzil: Tawelibay úlkesi, Zárepshan qalası, Jańa Zárepshan mákanı, 1-oram (kvartal), 14-jay.

3. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1975. – 180 с.

4. Ерболатов Н. Н., Айдаров О. Т. Жаңадария өзенінің тарихы мен географиялық жағдайы // Молодой учёный, – Алматы, 2014. – № 20.1. 74 б.

5. Балалар фольклоры / Қарақалпақ фольклоры. 99-том. – Нөкис, 2015. – 544 б.

BOSHLANG‘ICH SINFLARNING O‘QISH DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdimurotova Yulduz Abduazimovna
Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani
32-umumta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
tel: 91-952-96-89
e-mail:yulduz@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida innovatsion texnologiyalarning o‘rni va innovatsion texnologiyalardan foydalanishda ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillar haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘qish darsi, innovatsion texnologiya, ta’lim samaradorligi

Zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish ta’limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O‘zbekistonimizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishni yangi Davlat ta’lim standartlari asosida tashkil etishga qaratilgan. Hozirgi kunda o‘qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’lim jarayonida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning pedagogik fikrlashida o‘rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jaryonida qo‘llashga oid tavsiyalar o‘qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan: o‘quvchilarni boshqalar fikrini eshitishi, tushunishi, hurmat qilishi, o‘zgalar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish. O‘zining va boshqalarning “men”ligini sezish, his qilish, o‘zini boshqarish, fikrini aniq, lo‘nda va puxta bayon eta olish, ishlatishga qaratilgan interfaol o‘qitish usullari tez suratlar bilan rivojlanib ijobiy samara bermoqda. O‘qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar o‘quvchilar o‘rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib o‘quvchilarni harakatchanlikka boshlab ruhlantirdi, natijada o‘quvchilar hamkorliik o‘rgana boshladi. Har qanday interfaol metod to‘g‘ri va maqsadli qo‘llanilganda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya ta’lim tizimining rastional yo‘llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo‘lib, unda o‘qituvchi asosiy mas’ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o‘quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda etkazib berishidan iborat. O‘quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe’l-atvori har xil bo‘lishiga qaramay o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatish lozim. Bunda o‘quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo‘lib, o‘qish, mutolaa qilish, chizma chizishni tushunib, bir-birlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lib, oldilariga qo‘yilgan muammolarni yechishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangilanishlar o‘quvchilarga yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda yoshlarimizni o‘ziga va boshqa insonlarga jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o‘zgarishning vatanparvarlik g‘oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko‘zda tutadi. Pedagogga qo‘yiladigan zamon talablari mazmunli amalga oshirish uchun har bir o‘qituvchi yangicha fikrlashi, tafakkurini o‘stirishi, pedagogik texnologiyalari mustaqil o‘rganishi, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqur bilib olishi kerak.

Yangi pedagogik texnologiya darslarning an’anviy darslardan farqi shuki, bu darsda o‘quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o‘z fikrini yorqin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratilidi? O‘quvchiga hech qanday taziyiq o‘tkazmasdan,uni shaxsiyatiga tegmasdan, savollar berish orqali do‘stona munosabatdagi o‘quv muhiti yaratiladi. O‘quvchini ishlatish deganda, bir necha o‘quvchiga mavzularni bo‘lib berish orqali dars o‘tish emas balki, hamma o‘quvchilarni birgalikda ishlatilishni tushunamiz. O‘quvchilarni birgalikda ishlatish uchun o‘quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanamiz. Har bir dars bolaning qobiliyatining uchqunlarini alangalata boradigan kichik ixtiroday o‘tishi zarur. Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o‘zini ko‘rsata olish, nimalarga qodirligini isbotlay olish juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyat yaratish zarur. Sinfingizda “maqtanchoqlar kuni”ni e’lon qiling. Unda har bir bola o‘z ijodiy ko‘nikmalarini va yutuqlarini oladi. Tavsiya etilgan ish uslublarini amaliyotda qo‘llagan ota-onalar va bolalar ularning foydali tomonlarini sinfdan

tashqari o‘tkazilgan tadbirlar va ota-onalar majlislarida o‘z tasdig‘ini topishga yordam beradi. 1-sinflardagi mashg‘ulotlarni tasavvur yordamida sirli bilimlar mamlakatiga tugamas sayohat tarzidada tashkil qilish mumkin. O‘quvchilar dastlabki xayolot usullarini o‘rganiladi va ertaklar yuzaga keladi. O‘quv yilining oxiriga kelib o‘quvchilar mustaqil ravishda hikoya va ertak tuzish usullarini etarli darajada o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak hamda tizimlarning ichki tuzilishi bilan tanishib ularning bo‘linmalari va nima uchun xizmat qilishini o‘rganish uchun dastlabki qadamlarni qo‘yilishi kerak. 2-sinfda o‘quvchilar dars mavzusi bilan bog‘liq tayanch so‘z va tushunchalar asosida kichik o‘quv hikoya, voqea, ertaklarni tuza oladigan bo‘lishlari kerak. Bu davrda bolalar mustaqil ravishda tizimlarni topish ularning qanday bo‘limlardan tuzilganini qaanday xususiyatlarga va belgilarga ega ekanligini nima uchun xizmat qiladi va boshqa tizimlar orasidagi bog‘liqligini anglab etishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi «Nasaf», 2000-yil
2. Rozikov O., Og‘aev S., Maxmudov A, Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. –Toshkent «O‘qituvchi» 1999-yil
3. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. – «Xalq ta’limi», 1999-yil
4. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003-yil
30. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A, Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000-yil

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O‘TISH METODIKASI

Abdullayev Amanbay Alimovich
Xorazm viloyati Gurlan tumani
4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan jismoniy tarbiya darsini tashkil etish bo‘yicha fikr yuritilgan bo‘lib, unda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlarga alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom avlod, jismoniy tayyorgarlik, tarbiyada pedagogik jarayon, metodikalar.

Biz sog‘lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak Sog‘lom kishi deganda faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki sharqona axloq odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida kamol topgan insonni tushinamiz. Ko‘rinib turibdiki yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy tarbiya oldiga kata masuliyatli vazifalar qo‘yiliyapdi. Kelajakda barkamol avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga milliylashtirish, bunda xalqimizning unitib borayotgan xalq milliy o‘yinlari, ularni to‘plash, hayotga, maktabga tadbiq etish yo‘llari va usullarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Biz tanlagan mavzuning dolzarbligi anashunda ko‘rinadi. Barkamol avlodni tar biyalashda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, uning o‘rni kabi muammolar, ularning inson jismoniy tarbiyasidagi o‘rni, o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi ilmiy adabiyotlarni yoshlar ongiga boshlang‘ich sinflardanoq o‘rgatib borish talab etiladi. Ammo sog‘lom avlod tarbiyasini keng jamoatchilikning ishtirokisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Mustaxasislarning takidlashicha kelajak avlodning sog‘lom bo‘lishi 50 foiz turmush tarzida, 15-20 foiz saqlash va tashkil sharoitlari, shuni va shu singari omillarga bog‘liq ekan. O‘quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida tezda uyushtirish turlim harakatlari bajarish o‘rgatish uchun ularni harbiy qismlarda qo‘llagniladigan harakatlarga, mashqlar va terminallarga odatlantirish lozim. «Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayoni biz pedagoglardan maktabda ishlash uchun jismoniy tarbilning asosi nimalardan iboratligi, uning mazmuni, tashkil qilinishini, bolalarni harakatga o‘rgatish metodikasini bilishni talab qiladi». Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayonining maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi. Birinchi sinf bolalar tezda bittadan saflanishi, ketma-ket saflanishini, oyoq uchi to‘g‘ri tutib turishini, buyruq harakatni boshlash va tugatishga o‘rgatish va qayta saflanishini bilishlari zarur. O‘quvchi o‘qituvchilarga “qadamlab “buyrug‘ini berganda gavda og‘irligi o‘ng tomondagi oyoqni bo‘shashtirishni “Boshlang” buyrug‘i berilganda esa harakatni o‘ng oyoq bilan boshlash kerakligini tushuntiradi. Buyruq bo‘yicha o‘ng tomondan birinchi bo‘lib turgan o‘quvchidan barcha boshqa bolalar qo‘llarini balandga yonga uzatib, qo‘l uchlari ikki tomonga turgan o‘quvchilarning qo‘llari belda yonga turiladi. O‘rtaga turgandan boshlab mayda qadamlar jumlasi ikki, uch, to‘rt qatorlik safda o‘rganilgani maqul. Daslab “olti-uch-joyda” keyin to‘qqiz-olti-uch –joyda buyrug‘iga binoan qo‘llaniladi. 1-sinfda tahminiy harakatlarni ko‘proq qo‘llash zarur. Yurishda o‘rganishda oyoq uchida, egilib katta qadam tashlab sonlarni balant qaytarib qomatlar oyoqlarni chalishtirish, oyoq uchlarini tashqariga va ichkariga burib yurish tavsiya etiladi. O‘qituvchi bolalarga yurishni o‘rgatar ekan, gavdani holatiga, oyoqlarni qaytishi va qo‘ll arning harakatiga katta e’tibor beradi. Safda yurishda o‘rgatishda me’yor bilan yurishning ahamiyati katta. Shu natijada intilish kerakki, bolalar belgilangan sur’atda sur’atni o‘zgartirib bemalol yura olsinlar. Buning uchun alohida yoki umumiy hisob olib borish yoki tayoqcha bilan polni do‘kkilatish, mumkin jo‘rli qo‘shiqdan foydalanish tavsiya etiladi. Yurish paytidagi nagruzkani qo‘llarining qo‘shimcha harakatlari bilan hamda o‘qituvchi har bir sinf dasturini muvofiq qo‘llaydi.

Jismoniy tarbiyada pedagogik jarayonning natijalari jismoniy tarbiya darslarida olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarning sifatiga bog‘lik. Bunga har bir dars zamiridagi qator vazifalarni hal etish bilan erishiladi. Jismoniy tarbiya darslari ta’lim berish (o‘qitish), tarbiyalash va sog‘lomlashtirishdek jismoniy tarbiya jarayonining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, har bir dars uchun aniq «Tanishtirish», «O‘zlashtirish», «Mustahkamlash», «Takomillashtirish»dek mazmunga ega bo‘lgan xususiy vazifalarni qo‘yish va uni hal qilishni nazarda tutadi. Ta’lim berish

vazifalari bolalarni jismoniy tarbiya dasturda tavsiya qilingan mashqlarni bajarishga, o‘rganilgan mashqlarni mustahkamlash va takomillashtirishga, shuningdek, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga hamda o‘rganilgan mashqlarni turli sharoitda amaliyotda ko‘llashga o‘rgatishga yo‘naltiriladi. Ta’lim vazifalarini izchil ravishda bajarish jismoniy tarbiya dasturidagi butun o‘quv materiallarini izchil va mustahkam o‘rganishga olib keladi.

Sog‘lom turmush tarzi inson madaniy, jismoniy rivojlanishi, mehnat unumdorligi va ijodiy faoliyatini oshirishni o‘z ichiga oladi. Sog‘lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari-samarali ish faoliyati, shaxsiy gigiena, zararli odatlardan voz kechish, belgilangan bir vaqtda to‘g‘ri ovqatlanish, jismonan chiniqish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanib turishdan iborat. Yoshlar, o‘quvchilar sog‘lom turmush tarzining shakllanishi har tomonlama garmonik yetuk, faol shaxsni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atoyev A.K. «Farzandingiz barkamol bo‘lsin» T.: Ibn Sino. 1990-yil.
2. Usmonxo‘jayev T.S. «Jismoniy tarbiyani yaxshilash yo‘llari» «Boshlangich ta’lim» 1992-yil.

SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA JISMONIY RIVOJLANISHNING UYG‘UNLIGI - BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI

Abdullayeva Zebiniso Saidanazarovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 13-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktabi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi
Tel:+998936618531 Email :Zebinoiso1983@inbox.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzi afzalliklari hamda bolalarni barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy madaniyatning o‘rni katta ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bolalarning ham jismoniy ham aqlan yetuk shaxs sifatida shakllanishi borasida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘z: barkamol avlod, jismoniy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi

Bugungi kunda Respublikamizda oila turmush tarzini o‘rganish, oilada sog‘lom turmush tarzini yaratish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifa va muammolar oilaning sog‘lom bo‘lishi, ma’naviy va modiy farovonligini oshirishi, farzandlar tarbiyasining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Sababi, faol yaratuvchanlikka asoslangan turmush tarzi jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy faollik, oliy darajadagi fuqarolik sifati, aqliy, ma’naviy vajismonan sog‘lom, mehnatda, o‘zaro munosabatda, muloqotda yuksak madaniyatlilik, albiy hodisalarga murosasizlik bilan qarash, ularga qarshi kurashish, tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish, atrofdagilarga mehr-oqibatda bo‘lish kabi sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi.

Darhaqiqat, oilada turmush tarzini sog‘lomligi kishilarni jamiyatda egallab turgan sotsial statuslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki turmush tarzi kishilarning ma’naviy dunyosi bilan ham uzviy bog‘liqdir va ularning fikrlash tuyg‘usi borasida ham muhim o‘rin tutadi. Kishilarning turmush tarziga mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar ma’lum darajada sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kundalik hayot faoliyatida ularning axloqiy-estetik qarashlari, xulqi, muomalasi, hayotiy turmush tasavvurlari, ularning ichki dunyosiga, e’tiqodiga singib ketadi va turmush tarziga, fikrlash tarziga aylanadi. Turmush tarzining eng muhim ijtimoiy tomoni jamiyat a’zolarining ijtimoiy mehnati, o‘zaro munosabatlar, oila, kundalik turmushidagi faolligi, kishilarning jismoniy va ma’naviy imkoniyatlarini atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhit bilan qay tarzda namoyon bo‘lishidadir.

Bundan tashqari oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali jamiyatimiz a’zolarini, ayniqsa, yoshlarni milliy vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalariga, shu bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi o‘tish davrida yoshlarni uzoq tarixga ega bo‘lgan madaniyatimizni yuksaltirishda ham oiladagi sog‘lom turmush tarzi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Mana shularni inobatga olgan holda hukumatimiz tomonidan oilalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni takomillashtirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Chunki kishilarning turmushi jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy-madaniy jihatlarini o‘zida aks ettiradi va bu oiladagi sog‘lom muhitni belgilaydi. “Sog‘lom tanda sog‘ aql” degan xlqimizning ulug‘ bir naqli bor. Har bir odam sog‘lom bo‘lsagina yaxshi mehnat qilishi, ilhom bilan ijod qalamini tebrata olishi, yegan luqmasi taniga singishi, tiniqib, uxlay olishini bilsa-da, o‘sha sog‘ holatni saqlash, ham vujudga, ham aqlga, ham ruhga o‘z vaqtida madad berib turish kerakligini, bu faqat o‘zimizning manfaatimizga aloqadorligini ba’zan unitib ham qo‘yamiz.

Oilada ota-onaga ko‘p narsa bog‘liq. Ular oiladagi barcha hodisalarning balogardonlari sifatida eng avvalo o‘z sog‘liqlariga o‘zlari mas’ul ekanliklarini unutmasalar, uni saqlashda barcha ehtiyoj choralarini o‘z vaqtida ko‘rgani holda oilaviy hayotga to‘g‘ri munosabatni shakllantira olsalar, murod-maqsadlariga albatta erishadilar. Sog‘lom odam, u otami, yoki onami, turmush va ro‘zg‘ordagi barcha past-balanliklar, turli vaziyatlar, kerak bo‘lsa, qiyinchiliklarga tez moslashib, ulardan oqilona chiqish yo‘llarini bilishi kerak. Oddiy oila muhitida bir narsadan toliqqanda yoki asab buzilganda, dardimizni aytadigan hamdard, yaqin kishimiz bo‘lgani ma’qul. Ana shunday hayotiy falsafa va yo‘nalish bilan yashagan inson albatta, baxtli va sog‘-salomat bo‘ladi. Muhimi, bunday hayotiy mo‘ljallar, jismoniy va ruhiy tetiklik, bardamlik u tarbiyalayotgan bolalarning baxti va kelajakka intilishiga ishonchli zamin bo‘ladi. Ana shunday ota-ona tarbiyalagan

farzandlarga ortiqcha o‘gitlar, tarbiyaviy tazyiqlar darkor emasligini ta’kidlash kerak. Chunki inson aqlini, uning tafakkurini peshlaydigan, tanini sog‘, vujudini go‘zal qiladigan ma’naviy ozuqani oilasida olgan farzandning o‘z baxti va kamoli yo‘lidan og‘ib ketishiga ishonish qiyin. Ham jismonan, ham ma’nanva ruhan sog‘lom odam turli g‘alamislarning kirdikorlariga uchmay o‘z yurti, Vatani va xalqi manfaati yo‘lida halol mehnat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, sog‘lom turmush tarzini kundalik hayot kechirishning asosiy mezoniga aylantirishga bog‘liq tushuncha va tasavvurlar oiladan boshlanadi. Bu g‘oyalarning xalqimiz qon-qoniga singib ketganligi eng avvalo oilalarda saqlanib kelayotgan ijobiy an’analarda, ota-onadan farzandlarga singdiriladigan o‘gitlarda, qarindosh urug‘chilik aloqalaridagi mehmonavozlik va ushbu jarayonda orastalik va ozodalik tamoyillariga rioya etilishlarida, mahalla-ko‘yda rioya etiladigan tartib-qoidalar, xususan, ko‘chani, har bir xonadonni ozoda va sarishta saqlash odatlariga tayangan qo‘ni-qo‘shnichilik muomalalarida o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1, Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T-5. T., «O‘zbekiston »,
2, Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”
3, Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA VA NUTQNING O‘SISHIDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

Abdullayeva Shahnoza Maqsudbekovna
218 - umumiy o‘rta ta’lim maktabining inliz tili o‘qituvchisi
Toshkent shahri Mirobod tumani

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ingliz tili darslariga qiziqtiradigan dars ko‘rinishi va o‘yinlari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, bu dars ko‘rinishida ingliz tilini og‘zaki nutqda yaxshilash, turli darslarda metodlarni ularga moslashtirish yordamida o‘quvchilarni ham faol bo‘lishiga va aqliy o‘sishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: “Metod”, “Mahorat”, “Raise your hands”, ” Hummer-hummer “, “Day and Night”, “Metodik izlanish ”.

Maktabga tahsil olgani chiqqan ilk maktab yoshidagi ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali o‘yinqaroq, hamma narsaga qiziquvchan bo‘lishadi. Ular o‘qituvchilarning 40-45 daqiqalik darsi davomida bir joyda o‘tirishga moslashmagan bo‘lishadi. Bundan kelib chiqadiki ularni bilim olishga, o‘qituvchini yaxshi ko‘rib qolishiga, o‘qituvchi tomonidan beriladigan qiziqarli ma’lumotlarni qiziqib tushunishida biz o‘qituvchilarni metodik bilimlarimiz yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili darslari doimo salomlashishdan boshlanadi, lekin keyingi mashg‘ulotlar, dars jarayoni har o‘qituvchida har hil shakllantirilsa bo‘ladi. Ingliz tilida salomlashib, so‘ng darsni boshlamasdan oldin mavzuga doir qo‘shiq qo‘yib berib, ularga o‘tilajak mavzuga doir rangli rasmlardan ko‘rgazmalar ko‘rsatib, ularni fikrini so‘rab, o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasini aytib bolada darsga nisbatan tushuncha hosil qilish ham katta yordam beradi. Lekin bu o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq, darsni shunchaki salomlashishdan boshlab, doimo bir hil holatda dars o‘tish ham o‘quvchini zerikishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ta’lim berayotgan shaxs qanchalik usta, mahoratli bo‘lsa, turli interfaol metodlardan foydalanib dars o‘tsa, shundagina ta’limda o‘sish va samara bo‘ladi.

Masalan ingliz tilida 1- 2- sinflarda “Fairy world” (Sehrli olam) mavzusi berilgan. Bu mavzuni ertaklar, multfilm qahramonlari haqidagi juda qiziqarli mavzuki lekin uni shunchaki gapirib, o‘tib ketmasdan, o‘qituvchi har hil rasmlardan ertak qahramolari obrazini shakllantirib, ularni, inglizcha so‘zlatib, oddiy yumshoq o‘yinchoqlaridan foydalanib o‘tsa, bolalarni saxna ko‘rinishi ishtirokchisiga aylantirib, ularni o‘zi hohlagan qahramonni gavdalantirib, uni ismini aytib,o‘zini tanishtirishni o‘rgatsa, shuni o‘zida bola qancha inglizcha so‘zni yod oladi va bu o‘quvchini darsga yanayam qiziqishini orttirishi mumkin. Bundan tashqari har qanday mavzularda qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yinlar bor. ”Raise your hands” o‘yini bu qo‘llaringizni ko‘taring o‘yini o‘tilgan mavzuni takrorlashda yordam beradi. Bu o‘yinni ham shu sehrli bolam mavzusiga bog‘lab o‘tish mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘qituvchi gapini tasdiqlashi yoki inkor etishi kerak,o‘yin tarjimasi qo‘llaringni ko‘tar deb nomlanadi. Masalan, ingliz tilida good girl- yaxshi qiz, lazy gilr- dangasa qiz degandir. Qimmar is good girl desa bolalar shu gap to‘g‘ri bo‘lsa qo‘llarini ko‘tarishadi agar noto‘g‘ri bo‘lsa ko‘tarishmaydi partani taqillatishadi. 1-sinfda mevalar va sabzavotlar mavzusi bor, bu mavzuni ham shunchaki video yoki qo‘shiq eshitib o‘tkazmasdan, plastelin yordamida mevalar va sabzavotlar yasab, ularni bola o‘zi nomini aytib berishi yoki mevalarni ko‘z boylangan holda tatib ko‘rib, ularni nomini topishga harakat qilishi katta yordam beradi hamda dars juda qiziq bo‘ladi. “Hummer-Hummer” 2 ta o‘quvchi ishtirokida o‘ynaladi, bu o‘yinida o‘yinchoq bolg‘achar bolalarda beriladi. Partaga turli mavzularda o‘tilgan buyumlar, yasama meva yoki sabzavotlar, o‘quv qurollari yoyib qo‘yiladi. Bolalar o‘qituvchi inglizchada aytgan narsani bolg‘acha bilan urishadi,tezlik bilan topgan bola o‘yinda g‘olib bo‘ladi. Bu bolalarga ham quvonch beradi, ham ularni hotirasini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari o‘yinlar juda ham ko‘p, masalan : odd one odd, apple an apple, clap your hands, chaindrill yoki Tennis o‘yinlari. Bularni barini bemalol maktabda bolalar bilan o‘ynash ularni darsga bog‘lagan holda darsni yana ham qiziqarli qilish mumkin. “Day and Night “ metodida esa magnit doskaga rasmlar ilinib,bolalarga night deyiladi bolalar partaga boshini qo‘yib,o‘qituvchi day deyishi bilan boshlarini ko‘tarishadi va qaysi rasm yo‘qligini, u sabzavotmi mevami nomini aytishltari kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bolajonlarga nafaqat o‘z tilimizda balki ingliz tilida ham

ta’lim- tarbiya berishdek mashaqqatli kasbimizda faqat va faqat o‘z ustimizda ishlashimiz, kitob o‘qib izlanishimiz, turli ta’lim berish metodlarini almashishimiz, ustoz o‘qituvchilarning darsini kuzatishimiz kerak. Kasbimiz faqatgina o‘qitishni emas, bolalar yuragidan joy olib,ularga mehrni ham, ta’limni ham, tarbiyani ham chiroyli, qiziqarli va noananviy usulda bersak qisman bo‘lsada maqsadga yetgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ingliz tilida o‘yinlar to‘plami, ilmiy- metodik nashr.
2. Internet manbalari.

O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna
Namangan davlat universiteti doktoranti
Umarova Mohidilxon Ravshanbek qizi
Qo‘qon shahar 22-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda umumta’lim maktablarida o‘qituvchilarning fan asoslarini ‘qitishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, nazariy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning puxta, chuqur o‘zlashtirishda texnologik yondashuvlardan foydalanish ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, innovatsiya, zamonaviy yondashuv, kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka.

Bugungi kuda ta’lim jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, tayyorgarlikning zamonaviy tizimlardan foydalangan holda ta’lim oluvchilarni o‘qitishni jadallashtirish sanaladi. O‘qituvchilarning fan asoslarini o‘qitishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning puxta o‘zlashtirilishining kafolati bo‘la oladi.

Zamonaviy darslarga qo‘yilayotgan yuksak talablar o‘qituvchini har bir darsga juda puxta o‘ylab tayyorlanishga majbur qiladi. Har bir darsga puxta tayyorlanishning sababi, DTS doirasida bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi ortayotganligi o‘qitish shart-sharoitlarining ham o‘zgarayotganligi, o‘quv adabiyotlarining yangi avlodi yaratilayotganligi, o‘quv rejalari, dasturlariga tuzatishlar kiritilayotganligi, o‘qitishning shakl va metodlarining takomillashtirishning talab qiladigan yangi vazifalar qo‘yayotganligidadir. Ammo o‘qituvchining har bir alohida darsga tayyorlanishi unung o‘z o‘quv ishiga tayyorlanish tizimining bir qismi xolos.

O‘quvchi oldiga qo‘yilgan bilishga doir aqliy vazifaning aniqligi, ma’lum bir kategoriyalarda ifodalanganligi kabi jarayonlar bilish jarayonining taksonomiyasi bo‘lib u o‘qituvchidan:

Aniq o‘quvchichilarga eslash yoki esga tushirishda nimalarga e’tiborni qaratish,qanday fakt ma’lumotlardan foydalanishlari uchun ko‘rsatmalar berib borishi;

O‘quv maqsadini ajratish va unga aniqlik kiritish, tartibga solishni, birinchi bo‘lib xal etiladigan asosiy vazifani, belgilashni hamda istiqbolli kelajakda xal etiladigan maqsadlarni tartibga solishni;

O‘quvchilarning egallagan ko‘nikma va malakalarini xajmi, miqdorini tekshirish uchun zarur bo‘lgan etalonlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki bilish va o‘zlashtirishda xotiraning tutgan o‘rni juda katta ahamiyatga ega. Taniqli amerikalik psixolog Karl Sishorning aytishicha esda qoldirishning tabiiy qoidalarini buzganligi uchun ham odamlarning ko‘pchiligi o‘zlarining tug‘ma tabiiy xotiralaridan 10% gina hayotlari davomida foydalanadilar.

Darsning tuzilishi dastur materiallarini belgilangan vazifa asosida izchil o‘rganishni yo‘lga qo‘yadi. Dars uchun rejalashtirilgan vazifalarni hal qilishda qo‘llaniladigan ta’limning uslubyotiga aniqlik kiritish va uni qo‘llash uchun darsning qismlari yoki ularni ayrim bo‘laklaridan qanday foyhalanish lozimligini belgilaydi.Yuqoridagi aytilgan xulosalar barcha pedagoglar uchun foydali deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kamoldinov M, Vaxobjanov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent. Talqin. 2010y.128 bet.
2. Jumayeva N. O‘quvchilarning faolligini oshirishda ta’limning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xalq Ta’limi.2008 yil. 6-son.43-bet.
3. http: www.ziyo.net.uz.

"ODAM ANATOMIYASI VA ANTROPOLOGIYASI" FANIDAN TAYANCH-HARAKATLANISH SISTEMASI (TIZIMLARI) MAVZUSINI YORITISHDA ELEKTRON ATLASLARDAN FOYDALANISHNNG AFZALLIKLARI

Abdullayeva Sarvinoz Ibadullayevna
Urganch Davlat Universiteti,
"Biologiya" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi
sarvinoz_2238@inbox.ru
+998914276967

Annotatsiya. OTM larda tahsil olayotgan Biologiya yo'nalishi talabalariga "Odam anatomiyasi va antropologiyasi" fanidan Tayanch-harakatlanish sistemasi (tizimlari) mavzusini yoritishda foydalaniladigan elektron atlaslar va dasturlar (.exe va .apk) bilan talabalarni tanishtirish bu orqali esa ta'lim jarayonini tushunarligini va qiziqarligini ta'minlash. Ushbu maqolada sizga ba'zi dastur va elektron atlaslar haqida ma'lumot beramiz.

Kalit so'z. Elektron atlas, dastur, tayanch-harakatlanish sistemasi, talabalar

Keng ko'lamli ochiq onlayn kurs (MOOC) – bu turli xil fanlarni o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi bepul onlyan o'quv kursi bo'lib, undan kompyuter va Internetga ega bo'lgan barcha foydalana oladi. MOOCning maqsadi butun dunyo bo'ylab ta'lim oluvchilarni murabbiylar va bir-birlari bilan o'zaro bog'lashga qaratilgan.

Britaniya Kengashining MOOC kurslari FutureLearn deb nomlangan, masofadan turib ta'lim berish va Internet orqali o'qitish bo'yicha 40 yildan ziyod tajribaga ega bo'lgan Open University (Ochiq Universitet)ga tegishli, Buyuk Britaniyaning ijtimoiy ta'lim platformasidan joy olgan.

Hozirgi pandemiya ko'rinishida tarqalgan epidemiologik vaziyatda talabalar va o'quvchilarning ta'lim olish jarayonining uzliksizligini ta'minlash maqsadida barcha ta'lim muassasalari (maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalari) masofaviy tarzda o'z faoliyatlarini yuritishmoqdalar. Bunda Moodle va MOOC kurslarining tashkil qilinishi ta'lim jarayonida katta siljish bo'ldi desak mubog'ala bo'lmaydi.

Biologiya 5140100-yo'nalishi talabalariga "Odam anatomiyasi va antropologiyasi" fanidan Tayanch-harakatlanish sistemasi (tizimlari) mavzusini yoritishda elektron atlaslardan foydalanish talabalarga mavzuni o'zlashtirishga katta yordam beradi. Bu esa bilim olish jarayonining qiziqarli o'tishini va eng asosiysi tushunarliligini ta'minlaydi. Hozirda Windows tizimi uchun mo'ljallangan bir qancha elektron atlaslar mavjud bo'lib, ular tuzilishi va ishlash prinsipi asosida farqlanadi. "Odam anatomiyasi va antropologiyasi" fanidan Tayanch-harakatlanish sistemasi (tizimlari) mavzusini tushuntirishda quyidagi maxsus dasturlardan foydalanishimiz mumkin:

- ✓ Launch Human Anatomy Atlas SP (1-rasm)
- ✓ BoneLab (2-rasm)
- ✓ Launch Skeleton Premium 2 (3-rasm)
- ✓ Launch Muscle Premium (4-rasm)

Yuqoridagi dasturlarni ishlatishning afzalliklari shundan iboratki, bu dasturlar asosida ularda keltirilgan tasvirlarni uch o'lchamni ko'rishimiz va o'rganishimiz mumkin. Bu texnologiya mahsuli talabalarga mavzuni nafaqat mashg'ulot davomida, balki mashg'ulotdan keyin uy sharoitida ham o'rganish imkoniyatini yaratadi. Hozirgi ilg'or innovatsion davrida yuqori texnologiyalar imkoniyatlaridan iloji boricha foydalanish zamon talabidir. Shularni hisobga olgan holda nafaqat pedagogik kadr tayyorlovchi OTM larda, balki tibbiy kadrlar yetishtiruvchi oliygoh va tibbiyotga yo'naltirilgan kasb-hunar kollejlarida ham bu dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.

Yuqorida keltirilgan (Launch Human Anatomy Atlas SP, BoneLab, Launch Muscle va Launch Skeleton Premium) dastur imkoniyatlaridan foydalanishda quyidagi afzalliklarga ega bo'lamiz:

1. Dasturdan foydalanish oson bo'lib, uni hech qanday maxsus ko'rsatmalarsiz ham talabalar bemalol foydalana olishadi.
2. Internet tarmog'idan qidirish va yuklab olish jarayonida hech qanday to'siqlar uchramasligi ya'ni dasturni yuklash jarayonida pul o'tkazma yoki to'lov talab etilmasligi.
3. Dasturni o'rnatib, foydalanish jarayonida talabalar lotin tilini ya'ni mavzuda berilgan obyektlarning nomlari asosan ilmiy tilda berilgani uchun ham talabalar lotin tilini tez va mukam-

mal o‘rganishadi.

4. Dastur ishlab chiqaruvchilari mahsulotini ko‘p hollarda ingliz tilida yaratishadi va foydalanuvchi dasturni ishlatishi uchun bu til bilan yaqindan ta’nish bo‘lishi lozim.

5. **Human Anatomy Atlas, Launch Muscle** va **Launch Skeleton Premium 2** dasturlari orqali talaba o‘z bilimini sinab ko‘rishi mumkin. Buning uchun foydalanuvchi dasturni ishga tushirganidan so‘ng **QUIZZES** yoki **QUIZ** punktini tanlash orqali amalga oshiradi. (5-a,b,d rasm)

1-rasm. *Human Anatomy Atlas dasturining ko‘rinishi*



2-rasm. BoneLab dasturining ko‘rinishi



3-rasm. Launch Skeleton Premium 2 dasturining ko‘rinishi

4-rasm. Launch Muscle Premium dasturining ko‘rinishi

Yuqorida keltirib o‘tilgan dasturlarni ishlatish orqali bizlar talabalarda informatika sohasiga bo‘lgan qiziqishni shakllantiramiz. Bu orqali esa talabalar dars mashg‘ulotlarida foydalanish imkoniyatini yaratib beruvchi boshqa dasturlarni o‘zlari mustaqil holda izlashiga va mavzuni amaliy jihatdan o‘zlashtirishiga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. N.N. Azizxojayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. — T.: 2003, TDPU.

2. Tolipova J.O., G‘ofiirov A.T. Biologiyani o‘qitish metodikasi. - T .: Sharq. 2004,231-b.

3. G‘ofurov A.T., Tolipova J. Umumiy biologiyani o ‘qitishning norasmiy usul va shakllari. - T., 1990.

INTERFAOL TA'LIM VA UNING IMKONIYATLARI

Abdullayeva Mahliyo Ibrohimjonovna
Namangan viloyati Norin tumani 27-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqolamda boshlang'ich sinf darslarida interfaol ta'lim va uning imkoniyatlari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol,o'qituvchi,o'quvchi,ta'lim.

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashki etishdir. Xo'sh, interfaol metodning o'zi nima? U qanday didaktik xususiyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq, qo'llanishi qanday natija beradi?

Interfaol tushunchasi ingliz tilida "inter"- o'zaro, ikki taraflama, "act"- harakat qilmoq, ish ko'rmoq ma'nolarini anglatadi. Interfaol ta'limi- o'quv jarayonida ishtarokchilarning bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'limdir.

Interfaollik esa avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Ma'lumki, ta'lim sohasida an'anaviy ta'lim, asosan, ma'ruza va savol-javobga asoslangan edi.

Eski an'anaviy ta'limda, tabiiyki, suhbat asosini axborot tashkil etgan. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining nazariy bilimi va nazariyasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarini og'zaki tarzda o'quvchiarga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish oqituvchigagina xos bo'lib, o'quvchilar bu vaziyatda faqat tinglovchi bo'lib qolaveradi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, ruxsat etilgandagina so'zlashdan iborat edi.

Shu boisdan, bugungi kunda ta'limda interfaol usulining imkoniyatlari oldingi an'anaviy ta'lim erkinliglaridan kengroq ekanligi ravshanlashmoqda. Interfaol ta'limda o'quvchi manbani o'zi o'qiganida 10 foizini, eshitganida 20 foizini, sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 foizini, voqea jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotni eshitganida 50 foizini olar ekan. Agar o'sha ma'lumotlarni o'zi uzatganida (so'zlashganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 foiz, o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot) larini o'z faoliyatida tadbiq etganida 90 foiz malumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interfaol ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra, muloqatning "o'quvchi-axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida bilim, ko'nika, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

Mazkur tizimning afzalliklari quyidagi jihatlar bilan izohlanadi:

-Interfaol ta'limning oldingi an'anaviy ta'lim berish usulidan metodik, ilmiy hamda uslubiy jihatdan farqlanishi;

-Ta'lim oluvchiga o'z bilimini doimiy mustahkamlash va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatining yaratilganligidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'qituvchi har bir darsni qiziqarli, interfaol metodlardan foydalanib darslarini tashkil qilsa o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1, Boshlang'ich talim jurnali
2, Ijtimoiy tarmoqlar

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI DARSLARIDA MASHQ, KITOB BILAN ISHLASH, AMALIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Abdullayeva Shaxlo Batirovna
Xorazm viloyati. Xiva tumani.
6-son maktabda biologiya fani o‘qituvchisi
Telefon: +998(91)2761236

Annotatsiya: *Maqola dars mash’gulotlarida nazariy ma’lumotlarni, amaliy natijalarni o‘quvchilarda ko‘rsata olishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *mashq metodi, kitob bilan ishlash metodi, amaliy metodlar*

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ta’limga doir yangi islohotlar o‘tgan davrga qiyoslaganda ancha farq qiladi. Mazkur yangi natijalarning o‘zagida bevosita davlatimiz rahbari va xalq ta’limi vazirligi tomonidan soxa tarmog‘iga yangi innovatsion taraqqiyot dasturlarini kiritilishi o‘laroq yuzaga kelmoqda. O‘sib kelayotgan bugungi yosh avlodga sifatli ta’lim berish ertangimiz egalarining ertaga yuksak marralarga erishishiga zamin yaratadi. Bevosita aytadigan bo‘lsak, bu o‘rinda maktab ta’lim tizimining alohida o‘rni bor . Chunki donishmandlarimiz aytganidek “Yoshlikda olingan bilim-toshga o‘yilgan naqshdir” degan iboralari bu ta’lim soxasi uchun juda o‘rinli aytilgan.

Albatta shunday ekan bugungi zamonaviy maktablar ta’limida dars mashg‘ulotlarini avvalgidek bir xil tarzda tashkil qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun bugun biz dars jarayonlarini har kungidan ham qiziqarliroq bo‘lishini, o‘quvchi unda o‘z ustida mustaqil ishlay olish qobiliyatini yaxshilab olishi uchun bir nechta metodlardan foydalanishni tafsiya qilgan bo‘lar edik. Mazkur metodlar orqali o‘qituvchi bo‘lmish kasbdoshlarimiz o‘zlari uchun darslarini yangicha tarzda tashkil qilishlari mumkin. Ular quyidagicha:

Mashq metodi

Bu usulning asosiy funksiyalari- o‘rgatuvchi va rivojlantiruvchi.

Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, u ko‘nikma va malakalarning samarali shakllanishini ta’minlaydi, kamchiligi-motivatsion funksiyani sust bajarishidadir.Mashqlarning quyidagi turlari mavjud;

- maxsus;
- sharhlangan;
- yozma;
- og‘zaki;
- labaratoriya-amaliy

Sharhlangan mashqlar. O‘quv jarayonini faollashtirishga, o‘quv vazifalarining ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi.Ularning mohiyati shundan iboratki, bunda o‘quvchilar bajarayotgan ishlar sharhlanadi, natijada ular o‘zlashtiriladi va tushunib yetadi. Avval, bunga eng yaxshi o‘quvchilar jalb etiladi, keyin esa materialni tushuntirishda butun guruh ishtirok etadi. **Og‘zaki mashqlar.** Ta’lim oluvchilarning nutq madaniyati va mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettirish, ularning bilish imkoniyatlari bilan bog‘liq.

Yozma mashqlar. Ularning asosiy vazifasi-kerakli ko‘nikma va malakalarni shakillantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat. Shuning uchun ular yetarli miqdorda va har xil bo‘lishi kerak.

Grafik mashqlar. Matematika, fizika, chizmachilik, geografiya, rasm darslarida ishlab chiqarishni o‘rganish jarayonida ishlatiladi.

Labaratoriya-amaliy mashqlar. Mehnat qurollari, labaratoriya asbob-uskunalaridan (jihozlar, o‘lchov apparatlari) foydalanish malakalarini egallashga imkon beradi, konstruktorlik-texnik mahoratni rivojlantiriladi.

Kitob bilan ishlash metodi

Kitob bilan ishlash usuli ko‘pgina funksiyalarni, tarbiyalash, rivojlantirish, asoslash. U o‘quvchilar tomonidan:

- O‘quv mashg‘ulotida o‘qituvchi rahbarligi ostida;
- Uyda, mustaqil ravishda bajarilishi kerak;

Uyda kitob bilan ishlash vazifasini o‘quvchilar oldiga qo‘yishdan avval, ular kitob bilan ishlash

usullarini ishlata bilishiga ishonch hosil qilish kerak:

- Uning tuzulishi bilan tanishish;
- Ko‘z yugurtirib chiqish;
- Alohida boblarni o‘qish;
- Savollarga javob qidirish;
- Materiallarni o‘rganish;
- Referat yozish;
- Qisqacha bayon tuzish;
- Vazifa va mashqlarni yechish;
- Test sinovlarini bajarish;
- Materialni xotirada saqlab qolish.

Amaliy metodlar

Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va tajriba ishlari asosida o‘quv materialini egallash ko‘rinishlari ta’limning amaliy metodlari jumlasiga kiradi. Ana shu metodlar yordamida amaliy ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. **Bunda** ko‘nikmani shakillantirish jarayoni o‘quv faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ko‘nikmani egallashning muvaf- faqiyati uni shakillantirish sharoitiga bog‘liq.

Birinchi shart-ko‘nikma nima maqsadda shakillantirilishini anglashdir. Har qanday ko‘nikma avtomatlashgan darajaga yetkazilgan harakatlar tizimidir. Agar o‘quvchi o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda ularning ahamiyatini tushunmasa, bu harakatlarni shakllantirish qiyin bo‘ladi. **Masalan,** o‘quvchi tikuv mashinasi kiyimining qaysi qismlarini tikishga mo‘ljallanganligini va buning uchun kiyim materialiga mos ip va ignalar tanlash tartibini bilmasa, shu ishlarini bajarishdagi harakatlarni shakillantirishi qiyin bo‘ladi.

Ikkinchi shart-mashqlar muntazam bo‘lishi kerak. Odatda, ko‘nikmalarni egallashdagi, o‘quv mashqlari tizimini tashkil etish va amalga oshirishdagi kamchiliklar (mashqlarni bajarish uchun kerakli vositalar bilan ta’minlanmaganlik v.b) sabab bo‘ladi.

Uchinchi shart-amaliy harakatlar anglangan holda bajarilishi zarur. O‘quvchilar harakatlarining muayyan fikriy rejasiga asoslanishlari, ish jarayonlarining izchilligini yaxshi tushunishlari, ulami tushunmasdan takrorlamasliklari va yodlab olmasliklariga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

To‘rtinchi shart-dastlabki amaliy harakatlar va jarayonlarga puxta tayyorlanish. Ular ongli ravishda reja asosida bajarilsa, ko‘nikma tezroq va muvaffaqiyatliroq shakillanadi. Buning uchun esa o‘quvchilar nazariy bilimlarni yaxshi egallashlari lozim.

Beshinchi shart-mashqlarni mustaqil bajarish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish. O‘quvchi ko‘nikmani mustaqil bajara boshlaganida, u o‘z harakatlarini nazorat qiladi. O‘qituvchi o‘quvchiga o‘zini-o‘zi nazorat qilish usullarini o‘rgatishi zarur. **Masalan,** o‘quvchi kiyimining birorta detaliga bezak berish jarayonini amaliy o‘rgangandan keyin, uyda o‘zi mustaqil ravishda bajarishga va baho berishga o‘rganadi.

Oltinchi shart-bajarilgan mashqlar, amaliy ishlarni tahlil qilish va baholash. O‘quv ko‘nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy jihatlar bo‘ladi, o‘quvchilarning ko‘pchiligi deyarli bir xil xatolarga yo‘l qo‘yadilar. **Lekin** sinfda bu kamchiliklarni emas, balki yaxshi ishlarni namoyish qilish kerak, chunki ijobiy namunalar asosida o‘qitish afzalroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. www.ziyonet.uz
2. R.Yo‘ldoshev,R.Xusainova,U.Bobojonova –“Ta’limning interfaol metodlari”.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SO‘Z TARKIBINI O‘RGANISH

Abdullayeva Mo‘tabar Mamanazirovna
Namangan shahar 61-boshlang‘ich maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida so‘z tarkibini o‘rganish va uning ta’limiy ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: morfemika, shakl yasovchi qo‘shimchalar, sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar, egalik shakllari, kelishik shakllari.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning markazida grammatik nazariya emas, balki nutqiy ko‘nikma va orfografik malaka hosil qilish turadi. Unda bolalar til materiallarini tahlil qilishga, asosiylarni ajratishga o‘rgatiladi. O‘quvchilarda bunday malakalarni hosil qilishda, ularning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda “Fonetika, grammatika, imlo va nutq o‘stirish” dasturiga ko‘ra o‘rganiladigan “Morfemika” bo‘limi tarkibiga kiruvchi “Qo‘shimchalar va ularning turlari” mavzusining alohida o‘rni bor. Bu bo‘limda o‘quvchilar so‘zni ma’noli qismlarga bo‘lish, ularning mazmun-mohiyati bilan tanishish, asos va qo‘shimchalarning xususiyatlarini aniqlash hamda shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarga ajratish, qo‘shimchalar va ularning turlari bilan tanishish, gap va birikmalar hosil qilishda qo‘shimchalarning ahamiyati, qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llay olish natijasida nutqiy g‘alizlikka yo‘l qo‘ymaslik, qo‘shimchalarning qanday vazifa bajarishini aniqlash kabi bir qator yangi bilimlarni egallaydilar. Darsning ta’limiy maqsadi shundan iboratki, o‘quvchilarga tilda mavjud so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratish ko‘nikmalarini o‘rgatish.

Morfemika – so‘zning ma’noli qismlari haqidagi ta’limot. So‘zning ma’noli qismlari morfemalar deyiladi. Masalan, ishchilarimiz so‘zi ish-, -chi, -lar, -imiz qismlaridan iborat. Demak, morfema so‘zning bo‘linmas eng kichik ma’noli qismidir. Morfemika bo‘limida asosan qo‘shimchalar o‘rganiladi. Qo‘shimchalar vazifasiga ko‘ra 2 turli bo‘ladi:

1.So‘z yasovchi qo‘shimchalar;

2. Shakl yasovchi qo‘shimchalar.

Shakl yasovchi qo‘shimchalar asosiy xususiyatlariga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1) sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar (munosabat shakllari);

2) shakl (lug‘aviy shakl) yasovchi qo‘shimchalar.

Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar ma’lum so‘z turkumidagi biror grammatik kategoriyaga xos shakl yasaydi. Masalan, otlardagi egalik va kelishik shaklini yasovchi qo‘shimchalar, fe’lning mayl, zamon, shaxs-son shaklini yasovchi affikslar sintaktik munosabat hosil qiluvchilar sanaladi.

Kelishik qo‘shimchalari – turlovchi qo‘shimchalar deyiladi, ot va otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, ularni boshqa so‘zlar bilan bog‘laydi. O‘zbek tilida quyidagi kelishiklar bor:

1. Bosh kelishik – kim? nima? qayer? Ona, kitob, qishloq.
2. Qaratqich kelishigi- kimning? nimaning? qayerning? Onaning, kitobning, maktabning.
3. Tushum kelishigi-kimni? nimani? qaerni? Onamni, kitobni, qishloqni.
4. Jo‘nalish kelishigi-kimga? nimaga? qaerga? Onamga, kitobga, qishloqqa.
5. O‘rin payt kelishigi- kimda? nimada? qaerda? Onamda, kitobda, qishloqda.
6. Chiqish kelishigi-kimdan? nimadan? qaerdan? Onamdan, kitobdan, qishloqdan.

Egalik qo‘shimchalari – otlarga qo‘shilib narsa buyumlarning 3 shaxsdan biriga tegishli, qarashli ekanini bildiradi.

I. shaxs so‘zlovchi (*men, biz);*
II. shaxs tinglovchi *(sen, siz);*
III. shaxs o‘zga kishi *(u, ular);*
Qo‘shimchalari esa quyidagilar:

I shaxs -m, -im	-miz, -imiz
II shaxs -ng, -ing	-ngiz, ingiz
III shaxs -i, -si	-lari

Egalik qo‘shimchalari ham shaxsni bildiradi. Shuningdek, sonni ham bildiradi. Birlik
Ko‘plik. *I. shaxs – kitobim, onam.*
kitobimiz, onamiz.II. shaxs – kitobing, onang.

kitobingiz, onangiz.III.shaxs – kitobi, onasi.
kitoblari, onasi.

Boshlang‘ich sinf bolalariga egalik hamda kelishik qo‘shimchalarini o‘rgatish uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Xususan, “B, B, B” metodi hamda klaster uslubidan. “B, B, B” metodi bu dars avvalida “Bilmasdim, bilmoqchiman va bilib oldim” chizmasini chizish va dars davomida olingan bilimlarni umumlashtirish orqali dars so‘nggida chizmani to‘ldirish metodidir. Klaster uslubi esa o‘quvchilarni kichik ichki guruhlarga bo‘lish orqali sinfdagi barcha o‘quvchilarni diqqat-e’tiborini darsga qaratish hisoblanadi. Albatta, turli xil metodlardan, har xil o‘yinlardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish dars sifatini oshirish bilan bir qatorda, olingan bilim va ko‘nikmalarning o‘quvchilar ongida uzoq muddat saqlani qolishini ta’minlovchi unsurlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, klasterdan foydalanish “Qo‘shimchalar va ularning turlari” mavzusini o‘rganish uchun juda qo‘l keladi. Negaki, sinfda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linganda har bir guruhga qo‘shimchalarning biror turi beriladi va o‘quvchilar ular ishtirokida gaplar tuzadilar. Bu esa o‘rganilishi kerak bo‘lgan bilimlarning barchasini dars jarayoniga qamrab olish imkonini beradi.

Xulosa, umumta’lim maktablarining ona tili darslarida asos va qo‘shimchalarga oid bilimlarning o‘qitilishi o‘quvchilarga so‘zlardan foydalanish davomida asos va qo‘shimchalardan o‘rinli va unumli foydalana olish malakalarini rivojlantirib borish barobarida, ularning og‘zaki va yozma nutqining o‘sishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдураҳмонов Ш.,Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ERTAK O‘QISH METODIKASI

Abdulxapizova Dildora Dadajonovna
Andijon viloyati Shahrixon tumani
23-son umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998943801235

Annotatsiya: Ushbu maqola ertaklar haqida va boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ertak o‘qishning foydali jihatlari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon, rahmdil, sahiy, adolatli, yovuz, baxil, ochko‘z.

Xalq og‘zaki ijodida ertak janirining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirligi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko‘pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo‘shilib ketadi.

Ertakning o‘tkir, maroqli sujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so‘z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilning ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, sahiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z kishilar timsoli bo‘ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o‘quvchilar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya’ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bo‘lishini istaydi. Masalan, “Halollik” ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag‘allarga yordam ko‘rsatish, o‘z mehnati bilan hayot kechirish bo‘lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lsa, “Hiylagarning jazosi” ertagida (4-sinf) soddadilning to‘g‘riligi hiylagarning makri ustidan g‘olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g‘oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to‘g‘riso‘zlikning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g‘alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-xarakatini muhokama qilib, baholash ko‘nikmasini o‘stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g‘alaba qozonishiga ishonch uyg‘otadi. O‘quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida “Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)”, Nima uchun?”, “…nima uchun jazolandi? (yoki rag‘batlantirildi?)”, “Nima uchun ertakdagi ba’zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba’zilaridan yuz o‘giradi?)” kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar.

Boshlang‘ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko‘proq o‘qitiladi. “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” (Anvar Obidjon), “Ko‘zacha bilan tulki” kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o‘qitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o‘qish, savollarga javob berish, o‘quvchilarning o‘zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarnining odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma’lumki, kichik yoshdagi o‘quvchilar ertakdagi hayvonlarga gapirmasligini, tulki va turna bir- birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. U. Masharipova O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.
2. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
3. www.uzedu.uz

THE ROLE OF THE PEDAGOGICAL CLUSTER IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE EDUCATION AND ITS PROSPECTS

Abdumalikova Dilshoda Sherali qizi
Student of Chirchik State Pedagogical Institute
Phone: +998949254480
Khayitmatova Aziza Hojimurot qizi
Student of Chirchik State Pedagogical Institute
Phone: +998903365934

Annotation: The lack of coordination of pedagogical education, future planning, communication and integration between the stages of education, the fragmentation of the activities of educational entities have led to a shortage of qualified teachers in the region and a decline in the quality of education. Therefore, the Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region has identified a new model of improving the innovative cluster of pedagogical education in the region as its priority strategic direction. The following article describes the model of the pedagogical cluster.

Keywords: pedagogical education cluster, innovative education, science, experience and development, educational process, “Strategy of action”

Аннотация: Отсутствие координации между педагогическим образованием, будущим планированием, коммуникацией и интеграцией между ступенями образования, раздробленность деятельности образовательных учреждений привели к нехватке квалифицированных учителей в регионе и снижению качества образования. Таким образом, Чирчикский государственный педагогический институт Ташкентской области определил новую модель совершенствования инновационного кластера педагогического образования в регионе в качестве приоритетного стратегического направления.В следующей статье описывается модель педагогического кластера.

Ключевые слова: кластер педагогического образования, инновационное образование, наука, опыт и развитие, образовательный процесс, «Стратегия действий»

Today, the transition to a knowledge-based innovative economy is one of the most important priorities in the development of our country. «Innovation is the future. President Shavkat Mirziyoev pays great attention to reforming the education system, improving the quality of training, applying the experience of developed countries to the system. Presidential Decree «On measures to further improve the activities of secondary special, vocational education institutions» (March 14, 2017), «On measures to further develop the system of higher education» ”(April 20, 2017),“ On further improvement of the postgraduate education system ”(March 22, 2017),“ Improving the activities of the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan (August 8, 2017), «On the organization of the Ministry of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan» (September 30, 2017). These decisions cover all parts of the system of continuing education. The Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021 also focuses on radical improvement of education. All of these documents contain integral aspects related to the introduction of innovations in the field, the support of creative approaches, the strengthening of integration between types of education. In this regard, the results of the study and analysis of shortcomings in the education system of Tashkent region show that the coordination of pedagogical education, future planning, the lack of communication and integration between the stages of education, the fragmentation of the activities of educational entities has led to a shortage of qualified teachers in the region and a decline in the quality of education. Therefore, the Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region has identified a new model for improving the innovative cluster of pedagogical education in the region as its priority strategic direction, and on this basis is working in the system. So what is a pedagogical education cluster? Why do you need it. It is natural to ask. It is a mechanism that ensures the integration of separate subjects, technologies and human resources in equal contact with each other in order to meet the needs of a particular geographical area for competitive teaching staff. Given the high social significance of pedagogical education in the development of society, the introduction of modern requirements in the field, ensuring the continuity between science and education requires the transition of continuous pedagogical education to a cluster development system.

The cluster of pedagogical education is a whole of all types of education in the system of continuing education, research institutes and centers, bases of practice, scientific and scientific-methodical structures, and allows their joint activity raises pedagogical education to a new level.

The cluster system integrates the creation of textbooks, increasing the scientific potential of teachers, education and upbringing. At the same time, these general areas are the management and organization of education, types of education, and areas privatization in the use of teaching methods and tools, ensuring continuity and integration. In the address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis on the most important priorities for 2019, science and education, education and it is no coincidence that emphasis is placed on the relationship between education, training, and socio-economic life. Since the center of the education system is human capital, its proper distribution, rational use and targeted use, the system of pre-school, general secondary and higher education is open to all stakeholders in society, education. One of the important tasks before us is to organize the process in accordance with the requirements of today as a whole with all the subjects of the process and to achieve full continuity of education. The advantages of the introduction of this cluster system in the field of pedagogical education are based on the principles of relevance, membership, consistency, modernity, purposefulness of the innovative cluster of pedagogical education. Institutions engaged in educational, research, innovation and design activities, scientific and scientific-methodical structures, centers, research institutes, preschool, general secondary, secondary special, which serve as a training and experimental base, higher and additional education platforms, institutions for retraining and advanced training of pedagogical staff, pedagogical communities, initiative groups, public associations, governmental and non-governmental organizations, foreign higher education institutions and research centers participate as subjects of the cluster system .Pedagogical cluster provides an integral and continuous connection between them. Orientation of the most talented students to pedagogy, training them on the basis of internships with innovative experience, taking into account the needs of practice and stakeholders, shortening the period of acquisition of professional skills of young professionals, the new generation in pedagogical education creation of a set of educational, methodical, scientific literature, tools and didactic materials, search for forms and types of education, science and pedagogical practice, application in education, pre-school, secondary education and The goals and objectives of the pedagogical cluster are to create opportunities for rapid feedback from the higher education institution and other applicants. Currently, the innovative cluster of pedagogical education has been identified as the main research area of the institute, and more than thirty professors and teachers are conducting research in this area.

References:

1. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the Oliy Majlis http://uza.uz/oz/documents/22-12-2017

2. Mirziyoyev Sh.M. Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021 T: 2017

3. The voice of youth g. “Pedagogical education” T: 2019.01.06. № 44 son

4. http: //cspi.uz site

BOLALARNI O‘QITISH METODIKASI

Abduraximova Muxlisa Ma’murovna
Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahar
5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel 91 656 48 03

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish metodologiyasi haqida gap boradi. Bunda bolani qay uslubda o‘qitish samaraliroq ekanligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: metod, bilish, psixolagik holat, qiziqish

Metod aslida yunoncha,***„metodos“*** so‘zidan olingan bo‘lib, ***„bilish va tadqiqot yo‘li“, „nazariya“, „ta’limot“*** kabi ma’nolami bildiradi

1) Metodika ***(yurt, „methodike”)*** biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi yoki o‘qitish usullari haqidagi ta’limot;

2) Ta’lim berish metodlari, yo‘llari va vositalari haqidagi fandir.

Har bir fanni o‘qitishning o‘z metodi yani, uslubi bo‘ladi. Metodikani yaxshilash orqali bolalarni bilim olishlarini samaradorligini oshirish mumkin. Chunki o‘qitish jarayonida qanchalik qulay bo‘lgan usullardan foydalanilsa o‘quvchi shunchalik fanga qiziqadi. Qiziqishni oshirish orqali bilim berish samaradorligini oshirish metodikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarni ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsga qiziqtirish muhim omil hisoblanadi. Chunki endi o‘qish va yozishni o‘rganayotgan bolaga har qanaqa usulda dars o‘tib bo‘lmaydi. Avvalambor, bola avval darsga qiziqtirilib so‘ngra asosiy bilimlar beriladi. Bilim berishda ham bolaga qulay bo‘lgan usullar orqali dars o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hozir biz boshlang‘ich sinflarda o‘qish va ona tili o‘qitish metodikasi bilan tanishib chiqamiz. Bu ikki fan boshlang‘ich ta’limdagi asosiy o‘rgatiladigan fanlar sirasiga kiradi. Birinchi navbatta ona tilini o‘qitish metodikasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak: shu o‘rinda mashxur rus pedagogi K.D.Ushinskiy fikrlarini keltirish o‘rinli bo‘lar edi.

K.D.Ushinskiy boshlang‘ich maktab o‘quv fanlari tizimida ona tilini katta ahamiyatga ega bo‘lib uni markaziy va yetakchi fan hisoblaydi. “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, yigirma yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilini ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir”, – deydi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rganishga katta ahamiyat beriladi. Darhaqiqat bu juda tog‘ri fikr edi. Bu fikr nafaqat o‘z zamonasi uchun balki hozirgi zamon uchun ham mos keladigan fikr desak xato bo‘lmaydi. Darhaqiqat boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fani quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1) **Savod o‘rgatish metodikasi**, ya’ni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish. Bolalarga savod o‘rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi.

2) **0‘qish metodikasi.** Boshlang‘ich sinflarda o‘qish predmetining vazifasi bolalarni to ‘g ‘ri, tez (me’yorida), ongli va ifodali o‘qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

3) **Grammatika, fonetika, so‘z yasalishini o‘rganish metodikasi**. Bu bo‘lim elementar to‘g‘ri yozuvga va husnixatga o‘rgatishni, grammatik tushunchalar, boshlang‘ich imlo malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

4) **Nutq o‘stirish metodikasi.** Bu bo‘lim boshlang‘ich sinflarda alohida o‘rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o‘quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o‘ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Bu metodlarni har bir o‘qitish jarayonida muhim hisoblanadi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga katta mas’uliyat yuklaydi.chunki yosh bolalar bilan ishlashda o‘qituvchi bolaning psixologiyasi va o‘zlashtirishini tog‘ri baholay olishi kerak ushbu metodlarni qo‘llash jarayonida esa albatta bolani qabul qilishini hisobga olishi shart. Bu esa o‘qituvchidan yuksak malaka va kuchli bilim talab qiladi.

Shu o‘rinda, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi birinchi o‘rinda kuchli psixolog bo‘lishi talab etiladi chunki u har bir o‘quvchining ruhiy holati, uning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda bolani to‘g‘ri yo‘naltira olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish.- Toshkent,1960.
2. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda nutq o‘stirish. - Toshkent, «O‘qituvchi», 1980.

O‘QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Abdurayimova Zarifa Raxmatillayevna,
Navoiy viloyat Zarafshon shahar 2-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchining pedagogik va kasbiy tayyorgarligida bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishi hamda pedagogik mahoratini takomillashtirish shartlari yotirilgan.*

Kalit so‘zlari: *pedagogik mahorat, o‘qituvchi, o‘quvchi, dars, muomala.*

Har bir davlat va jamiyat taraqqiyoti hamda uning istiqboli shu davlat, shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning aqliy saviyasi bilan belgilanadi. Bu borada jamiyatimiz psixologiya fani zimmasiga murakkab nazariy va amaliy vazifalarni yuklamoqda. Shuning uchun psixologik nazariyani jadal rivojlantirish, pedagoglarning psixologik ishlarga e’tiborli bo‘lishi va yoshlarning barcha hayot faoliyatidagi psixik jarayonlarni o‘rganish, hamda ularni boshqarish hozirgi zamon talabidir. Ma’lumki, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni tatbiq etishga qiziqish keng tus olib bormoqda. Boisi shundaki, bunday metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligini va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi.

«Innovatsiya» tushunchasi tadqiqotlarda «yangilik yaratish» tushunchasi sifatida ko‘rib chiqiladi, «innovatsion jarayon» tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o‘zlashtirish hamda ta’lim muassasasi amaliyotida samarali qo‘llash jarayoni sifatida ifodalanadi. Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Interfaol mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlash va tayyorgarlik ko‘rish zarur.

Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun o‘quvchilarning tayyorgarliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bular mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg‘ulotlarda vaqtdan unumli foydalanish zarur hisoblanadi. Buning uchun kerakli vositalarni to‘g‘ri tanlash, tayyorlash hamda mashg‘ulot o‘tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo‘lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an’anaviy ta’lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini hisobga olish zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo‘llash mashg‘ulotlarida hamda o‘quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda muvofiq bo‘lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘g‘ri tanlash nazarda tutiladi.

Ta’lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o‘qituvchi, ham o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo‘ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bular o‘qituvchi va o‘quvchilarga bog‘liq. Shu bilan bir qatorda, o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o‘quvchi-talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o‘quvchi – talabani ta’limning markaziga olib chiqish kerak. To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali o‘tishini, shaxs shakllanishini ta’minlaydi.

Interfaol mashg‘ulotlarning usullari ko‘p bo‘lib, bular hammasi ham shaxs shakllanishiga bir xilda ta’sir ko‘rsatmaydi, demak, o‘qituvchi o‘quvchi shaxsida har bir psixik jarayonlarni va

xususiyatlarni shakllantirish uchun interfaol metodlarni to‘g‘ri tanlay olish lozim.

Interfaol usullarda muammoli, hayotiy vaziyatlardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Bahsli, muammoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog‘liq bo‘lib qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning aqliy kuchini zo‘riqtiradi, vaziyatni oydinlashtirish uchun yo‘llar qidira boshlaydi. Qiyinchiliklar bilan to‘qnashadi. Odam muammo bilan yuzma-yuz (to‘qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O‘zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlaydi, saviyasiga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning asosiy shakllanish va rivojlanish davri ta’lim sohasiga bog‘liq holda kechar ekan. Demak, ta’lim-tarbiya sohasida ularni psixologik jihatdan shakllantiruvchi omillarga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Avlaev O., Juraeva S.N., Mirzaeva S.R. Ta’lim metodlari.– T. «Navro‘z». 2017.
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotgajoriy qilish – T.: «Fan va texnika», 2008.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MIQDORLAR HAQIDA TUSHUNCHA BERISHNING NAZARIY ASOSLARI

Abdusattarova Hosiyat Rahimovna
Sa’dullayeva Xovvajon Abdusherifovna
Xorazm viloyati Xiva tumani 6-son umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
Tel: +998994257642

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang‘ich sinf matematika kursida o‘quvchilariga miqdorlar bilan tanishtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: asosiy miqdorlar, hosilaviy miqdorlar, kattalik, taqqoslash.

Jamiyatda o‘qituvchi, birinchidan, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ularga har tomonlama bilim berishdan iborat bo‘lgan faxrli hamda ma’sul vazifalarni bajaradi. O‘quvchilar har tomonlama bilimli bo‘lishlarini zamon taraqqiyoti talab qilmoqda, yani har tomonlama sog‘lom, yetuk insonlar jamiyat uchun kerak bo‘lmoqda.

Boshlang‘ich sinflarning dasturida matematik material bilan uzviy bog‘liqlikda turli kattaliklarni ham o‘rganish nazarda tutilgan. Kattaliklarsiz tabiatni, borliq olamni o‘rganish mumkin emas. Miqdorlarda turli obyektlarning, borliq dunyoning xossalari aks etgan. Matematikada kattaliklar miqdorlar deb ham ataladi. Miqdor bu narsa yoki hodisaning biror xossasi bo‘lib, uni boshqa narsa yoki hodisaning shu xossasi bilan taqqoslash va ulardan qaysi biri shu xossaga ko‘proq darajada ega ekanligini aniqlash mumkin. Miqdorlarni o‘z navbatida kattalik tushunchasi bilan ham atashimiz mumkin.

Miqdorlarni bevosita taqqoslash bilan ularning tengligi yoki teng emasligini aniqlashimiz mumkin. Tekshirishda aniqroq natijaga ega bo‘lish uchun, masalan, bir jismning hajmi ikkinchi jism hajmidan qancha katta (kichik) ekanligini bilish uchun kattaliklarni o‘lchash zarur. O‘lchash berilgan miqdorni birlik sifatida olingan shu turdagi boshqa kattalik bilan taqqoslashdan iborat. Taqqoslash jarayoni qaralayotgan kattaliklarning turiga bog‘liq. Ammo bu jarayon qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘lchash natijasida kattalik tanlab olingan birlik bo‘yicha ma’lum sonli qiymat qabul qiladi. Miqdor (kattalik) tushunchasi murakkab tushuncha bo‘lib, o‘quvchilarning maktabda butun o‘qish davrida shakllantiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda uzunlik, jismning massasi va hajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinflarda bu miqdorlarni asosiy miqdorlar deyiladi. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ba’zi hosilaviy miqdorlar (tekis harakat tezligi va boshqalar) bilan ham tanishadilar. Hosilaviy miqdorlarni o‘rganishda ularni o‘lchash masalasi o‘rganilmaydi.

Miqdorlar, xuddi raqamlar kabi boshlang‘ich sinflarda matematika mashg‘ulotlarinig asosiy tushunchasi bo‘lib, bolalarda miqdor haqida predmetlar va voqeilikka aloqador va o‘lchov bilan bog‘liq sifat tasavvur uchun foydalaniladi.

O‘quvchilar miqdorlar haqidagi olgan bilimlarini hayotga qo‘llay olish malakasini to‘g‘ri shakllantirish, ularni miqdorlar haqidagi olgan bilimlarining natijasi deb qarash mumkin.

O‘quvchilarda miqdorlar haqidagi tasavvurlarni to‘g‘ri va puxta shakllantirishda ko‘rgazmalilikning turli vositalari, ya’ni geometrik figuralar modellari, har xil chizmachilik va o‘lchash asboblaridan keng foydalanish kerak bo‘ladi. Asosiy miqdorlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

–sinflar bo‘yicha o‘rganiladigan miqdorlar va ularning o‘lcham birliklari bilan tanishish va uni bilish;

–miqdorlar haqida tushunchalar, tasavvurlarni shakllantirishda umumiy yondashishni bilishi kerak;

– uzunlik, massa (og‘irlik), hajm, vaqt va maydonlarni o‘rganishda o‘quvchilarda miqdolar haqida tasavvurni shakllantirish uchun umumiy yondoshuvni qo‘llay ola bilishi;

– maqsad sari yo‘naltirilgan amaliy ishlarni tashkil eta bilish;

– miqdorlarni o‘rganishda turli xil vositalardan foydalana olishi;

– o‘quvchilarda o‘lchash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishni amalda qo‘llay olishi lozim.

Asosiy miqdorlar ustida o‘lchash ishlari bevosita sinfda o‘tkaziladi.

Hosilaviy miqdorlar ustida sinfda o‘lchash masalasi o‘rganilmaydi, balki ularga oid har xil ko‘rsatmalar 3-sinf darsliklarida jadval va o‘rganuvchi jadvallar yordamida beriladi.

Boshlang‘ich sinflarda u yoki bu miqdor haqida tasavvurni shakllantirish va ularni o‘lchash usullari o‘ziga xoslikka ega bo‘lsa ham, har bir miqdorni o‘rganishda umumiy bosqichlarni alohida ta’kidlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni asosiy miqdorlar bilan tanishtirish matematika kursining asosini tashkil etadi. 1-4 sinf matematika kursida miqdorlar ikki bosqichga bo‘lib o‘rganiladi.

1. Asosiy miqdorlar: uzunlik, jismning massasi va hajmi, vaqt, figuranig yuzi kabi miqdorlar asosiy miqdorlar deyiladi.

2. Hosilaviy miqdorlar: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ba’zi hosilaviy miqdorlar (tekis harakat tezligi),vaqt, masofa tezligi (harakatga doir masalalar).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga miqdorlarni o‘rganishda quyidagi tushunchalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir: Bolalarda mavjud miqdorlar haqidagi tushunchalarni aniqlash; bir xil nomli miqdorlarni solishtira olish (chamalab ko‘rish, solishtirish, taqqoslash, o‘lchash va boshqa xil usullar bilan); mazkur miqdorlarning o‘lchov birliklari va o‘lchov asboblari bilan tanishtirish; o‘quvchilarda o‘lchash ko‘nikmalarini hosil qilish; bir xil nomdagi miqdorlarni qo‘shish va ayirish (malaka va topshiriqlarni bajara olish); miqdorlarning yangi o‘lchov birliklari bilan tanishtirish, bir nomdagi o‘lchov birliklarni boshqa o‘lchov birliklariga almashtirish. Ikki bir xil nomli o‘lchov birliklarini bitta ikki nomli o‘lchov birligiga aylantirish va aksincha; ikki, uch nomli miqdorlarni qo‘shish va ayrish; miqdorlarni songa ko‘paytirish va bo‘lish; miqdorlar ustida arifmetik amallarni bajara olish malakasini shakllantirish; turli miqdorlar haqida tasavvurlarni shakllantirish maqsadida, turli amaliy misol, malaka va topshiriqlarni bajara olish va ularni namoyish eta olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumayev E.E. Boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi.
2. Bikbayeva N. U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi

"USTOZ - SHOGIRD " TIZIMI – TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH VOSITASI

Ablayeva Zamira Teshayevna,
Navoiy shahar 1-Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtiligan maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi.
Ostonzoda Xosiyat Otabek qizi
Navoiy Davlat pedagogika instituti Chet tillar fakulteti, Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi

Hozirgi kunda jamiyatimiz shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda ta'lim sifatiga raqobatbardosh va progressiv bo'lgan yuqori talablar qo'yilyapti. Bunday ijtimoiy talablarni faqat yuqori malakali mutaxassislargina amalga oshirishi mumkin. Yosh mutaxassislarning bunday talablarga mos kelishi esa har doimgidek muammo asosiy bo'lib kelmoqda[1].

Bugungi kunda mentoring(ingliz tilidan mentoring – murabbiylik) tizimlari va shunga o'xshash usullar turli o'quv muassasalarida faol qo'llanilmoqda. Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida **tyutoring** shakli (ingliz tilidan - tutor, ustoz) - o'qituvchilar tarkibidan ustozlarni jalb qilish va **bading** shakli(ingliz tilidan - buddy, oshna) - yuqori bosqich talabalarni yangi o'quv muhitiga yanada samarali jalb qilish uchun qo'llanilmoqda. Professional ta'limda **kouching** (ingliz tilidan – coach, murabbiy) shakli, asosan, ijtimoiy va madaniy sohalarda keng namoyon bo'lib, o'z ustida ishlash va o'zini-o'zi rivojlantirishga qaratilgan jarayondir.Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ham "Ustoz-shogird" tizimi yosh mutaxassislarga uslubiy yordam ko'rsatish tizimi sifatida juda keng tarqalgan.

Mentoring bu keng ma'noda, turli darajadagi tajribaga ega bo'lgan odamlar o'rtasidagi munosabatlarning uyushgan turi sifatida belgilanadi va kouching(murabbiylik) hamda o'qituvchilik faoliyatini uyg'unlashtiradi[2]. Mentoringning ushbu sifatlari yosh va tajribasiz o'qituvchilarni ish jarayoniga moslashishtirish hamda muassasaning kadrlar zahirasini rivojlantirishga yordam beradi.

Mentor uchun – bu murabbiylik va kouching sohasidagi bilim, tajriba va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun imkoniyatdir; yangi yondashuvlardan foydalangan holda fikr-mulohazalarni olish ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniyati; o'qituvchilar duch keladigan muammolarni tushunish darajasini oshirish uchun imkoniyatdir. Ta'lim muassasalari uchun esa – bu uning obro'sini oshirish, hamda ta'lim standartlari va davlat siyosatiga muvofiq ravishda o'quv ehtiyojlarini aniqlash uchun imkoniyat beradi; professor-o'qituvchilar tarkibini takomillashtirish va rivojlantirishning kuchli tomonlarini chuqur tushunishni ta'minlaydi.

Albatta, mentoring bir martalik hodisa sifatida emas, balki muayyan ravishda olib borilsa, samarali natija beradi. Bunda quyidagi siklik modelni taklif etamiz:

1. Ustoz va shogird o'rtasida kichik suhbatlar
2. Darsga tayyorgarlik bosqichidagi maslahat: darsning bosqichlarini kuzatib, yosh pedagog oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni muhokama qilish.
3. Darsni kuzatish va amaliy materiallarni to'plash, keyingi batafsil tahlil uchun darsni videotasvirga tushirish
4. Videoni va dars rejasini o'rganish orqali o'tilgan darsni batafsil tahlil qilish. Oldindan kelishilgan mezonlarni muhokama qilish. Xatolarni tahlil qilish.

O'zaro darslarga qatnashish, mentorning tajribasini shogirdning amaliyotida qo'llash. Sikl tugashi bilan bajarilgan ishlarni sifatli baholash avval ustoz tomonidan, so'ngra muassasa rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi. Agar kerak bo'lsa, yosh mutaxassis mo'ljallagan o'quv maqsadiga erishgunga qadar sikl takrorlanaveradi.

Yosh mutaxassislar bilan ishlash usullarini o'rganib chiqib, tajribali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish shakllariga e'tibor qaratamiz. Samarali shakllardan biri bu uslubiy korreksiya kunlarini tashkil etishdir. Ta'lim muassasasi doirasida bunday yordamni o'qituvchilar,

[1] S.A.Vdovina,Ta'lim sifati pedagogik muammo/S.A.Vdovina, Ye.A.Vdovina/Ilmiy jurnal. Yosh olim. – 2015. №23 (103). – C. 940

[2] I.A.Esaulova//Kadrlar tayyorlash va rivojlantirish amaliyotida mentorlikning yangi modellari/"Biznes strategiysi"// Ilmiy jurnal. №6/2017 yil.

uslubiy birlashma a'zolari bo'lgan ijodiy yoki muammoli guruh pedagoglari ko'rsatishi mumkin. Uslubiy tuzatish kunlarining maqsadi ularni tashkil qilish va o'tkazish orqali uslubiy faoliyat sub'ektlariga kasbiy mahoratini oshirish uchun sharoit yaratishdir.

Amaliy yordam jarayonida nafaqat me'yoriy-huquqiy bazani, test sinovlari natijalari, talabalar va o'qituvchilarni javoblari natijalarini, balki bevosita kuzatuvlar natijalarini ham tahlil qilish kerak[1].

Albatta, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayoni har tomonlama katta kuch talab qiladi. Uzoq muddatli natijaga erishish uchun "Ustoz-shogird" tizimini batafsil o'ylab ko'rish, hamda tomonlar aniq va kelishilgan maqsadga ega bo'lishlari kerak. Kompetentli ustoz o'z shogirdlariga dars bermaydi, balki ularni yo'naltiradi va ilhomlantiradi, ularni o'z ishi va o'quvchilar bilan bog'liq ishiga nisbatan fikrlash va tadqiqotlar qilishga undaydi. Shubhasiz, "Ustoz-shogird" tizimi ishtirokchilari quyidagi vositalarga muhtoj: video tasvir olish imkoniyati, konkret pedagoglar uchun o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish, ishlash mezonlarini ishlab chiqish, kelajakda "Ustoz-shogird" tizimining sifatini rivojlantirish tuzilmasi va vositalarini aniqlashdan iborat. Maksimal samaraga erishish uchun ta'lim muassasasi rahbarlari "Ustoz-shogird" tizimini qo'llab-quvvatlash va yetarli resurslarga muhtojligini tushunishlari kerak; ular ta'lim muassasasining talabiga va pedagogning individual ehtiyojlariga mos keladigan yondashuvni ishlab chiqishlari lozim.

Xulosa shundan iboratki, biz taklif qilayotgan "Ustoz-shogird" tizimi tezkor yechimni talab qilmaydi. Buning o'rniga, ushbu tizim inqilobiy yo'l bilan emas, balki evolyutsiya orqali o'zgartirish vositasini taqdim etadi.

ADABIYOTLAR VA MANBAALAR

1. S.A.Vdovina,Ta'lim sifati pedagogik muammo/S.A.Vdovina, Ye.A.Vdovina/Ilmiy jurnal. Yosh olim. – 2015. №23 (103). – C. 940

2. I.A.Esaulova//Kadrlar tayyorlash va rivojlantirish amaliyotida mentorlikning yangi modellari/"Biznes strategiysi"// Ilmiy jurnal. №6/2017 yil.

3. Bulaxova Z.N. Metodik ish sirlari, yoki Metodistga yordam : uslubiy qo'llanma/Bulaxova Z.N. – Minsk, 2017. – 45-b.

1 Bulaxova Z.N. Metodik ish sirlari, yoki Metodistga yordam : uslubiy qo'llanma/Bulaxova Z.N. – Minsk, 2017. – 45-b.

CHET TILLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Adamboyeva Dilfuza Rayimbayevna
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
9-maktabning ingliz fani o‘qituvchisi
Tel nomer:+998977928107

Annotatsiya: Ushbu maqolaning asosiy mazmun-mohiyati quyidagicha, chet tili darslarida zamonaviy pedagogik texnalogiyadan samarali foydalanish usullari, yangi metodik qo‘llanmalarni dars jarayonida unumli foydalanish,mustaqil ichlanuvchanlik,tezkorlik va kreativlik kabi jihatlar orqali sifatli ta’lim jarayonini ta’minlash mumkinligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiya, chet tilini o‘qitish metodikasi, media-texnologiya.

Bugun yuksalish davri kelganligi hammamizga ayon. Biz yetib bormagan, isloh qilinmagan sohalar kamchilikni tashkil qilmoqda. Jumladan, ta’lim sohasida ham ko‘pgina o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarni chet tillari bo‘yicha bilimlarini oshirish bo‘yicha so‘nggi yillarda talaygina shart-sharoitlar yaratildi. Bu yo‘nalishga qaratilgan e’tiborni 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875 sonli qarorning qabul qilinishidan ham bilish mumkin. Ushbu qarorda umumta’lim maktablarining 5 — 9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo‘yicha multimedia darsliklari, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha elektron resurslar tayyorlangani, umumta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko‘proq lingafon kabinetlari jihozlangani ham aytib o‘tilgan. Shu bilan birga, chet tillarni o‘rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg‘or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to‘liq javob bermayapti. Ta’lim asosan an’anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi,deb aytib o‘tiladi qonunda.Bugungi kunda har bitta pedagog sifatli ta’lim jarayoni jadal sur’atlarda rivojlanishi uchun mas’uldirlar. Ya’ni, oldingidek darsga kirib, mavzuni tushuntirib, topshiriq berib, darsni yakunlaydigan davrlar o‘tdi. O‘quvchilardan bilim qanday talab qilinsa, ta’lim berish ham o‘qituvchilardan ikki hissa o‘rtig‘i bilan so‘raladigan bo‘ldi. Jamiyat maydonining odatiy muloqot vositasiga aylanib qolgan ingliz tilini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlarga rivojlanish uchun yo‘l olgan har bir inson uchun chet tilini bilishi zarur. Umumta’lim maktablarida chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali, o‘quvchida ko‘nikma shakllantirish va darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Darsliklarda qo‘shimcha sifatida jahonning nufuzli universitetlarida tahsil olish uchun chet tilini o‘rganish naqadar muhimligi keltirib o‘tilsa, vaholangki, har bitta bola bunga beixtiyor qiziqish bildiradi. O‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdanoq darsdan tarqari mashg‘ulotlar bilan band qilish,qo‘shimcha repititor mashg‘ulotlariga jalb qilish orqali olayotgan bilimini yanada mustahkamlash mumkin. Dars jarayonida videorolik va taqdimotlar bilan cheklanibgina qolmasdan, respublikamizning chet tili bo‘yicha yetuk mutaxassislari,iqtidorli talabalar yoki o‘quvchilarning o‘z tengdoshlari bilan ingliz tilida onlayn muloqot qilishlari, fikr almashishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berilishi lozim.Umumta’lim maktablarida chet tilini o‘qitish metodikasi o‘z predmetiga ega. Metodika predmetining tashkiliy qismlarini quyida ko‘rish mumkin:

- Chet tili o‘qitish jarayoni
- Chet tili materialini o‘zlashtirish
- Nutq malaka ko‘nikmalarini hisol qilish va shakllantirish
- Chet tili materialini kiritish,tushuntirish.
- Shu materialni qo‘llay olish
- O‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tili orqali tarbiyalash.

Yosh avlod o‘zini qurshab turgan atrof-muhitdagi so‘zlashuvdagi tillarni o‘rgana oladi. Chet tilini mustahkam poydevori ham aynan bolaning yoshlik paytida o‘rgangan bilimlaridir. Umumta’lim maktablarida chet tili darslari til o‘rganish uchun kamlik qiladi. Ingliz tilini

mukammal o‘rganish yoki ma’lum bir qismini butkul o‘zlashtirish uchun kuniga kamida 4-5 soat ingliz tilda muloqot va darslar, o‘zaro suhbatlar, listening(tinglab tushunish)lar tashkil qilinishi lozim. Sababi, o‘quvchi bu tildan faqat dars jarayonida foydalanadi. Qolgan vaqtida bu tildan foydalanish ehtimoli kam. Chet tilini o‘rgatishda yagona manba faqat darsliklar bo‘lib qolmasligi lozim. Tan olish kerakki, respublikamizda 80% ga yaqin pedagoglar dars jarayonida beradigan ma’lumotlarini darsliklardan oladi. Shuni unutmaslik kerakki, o‘quvchiga har kuni yangilik taqdim qilsangiz u ham shunday javob qaytaradi,yangi narsalarni o‘rganishga o‘zida moyillikni yaratadi. Statistikaga yuzlanadigan bo‘lsak,dunyodagi so‘zga eng boy tillar bu arab va ingliz tillaridir. Inglizlarning hisobida ikki yarim milliondan ortiq so‘z mavjud. Xitoyda ham aholining ko‘pchilik qismi ingliz tilida so‘zlashadi. Yer yuzi bo‘yicha 400 milliondan ortiq odamlar ingliz tilida muloqot qilishadi. Bu statistikalarni keltirishimizdan maqsad, o‘quvchiga ingliz tilini o‘rgatishda, uni yetishish qiyin bo‘lgan nuqta yoki bir mo‘jiza sifatida o‘rganish o‘rgatishga hojat yo‘q. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875 sonli qarori

2. I.Yoqubov,I.Xoshimov “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” kitobi.

NEMIS MATEMATIKASINING YORQIN TIMSOLI

Ahmadjanova Sohibaxon Ismoiljonovna
Matematika fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani
18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998913526840
Azimova Ra’no Sobirovna
Matematika fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani
18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998975732473

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fani rivoji tarixida unutilmas iz qoldirgan buyuk nemis olimi Karl Fridrix Gauss to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek olimning ijodoy faoliyati ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: algebra, tenglama, yechim, taqqoslash, tavsiflash, simvolika.

Bugungi kunga qadar nemis matematikasining yorqin timsoli sifatida Karl Fridrix Gauss hisoblanadi. Karl 1777 yilning 30 aprelida Germaniyaning Braunshveyg shahrida tavallud topadi. Karlning bobosi dehqon edi, otasi esa shaharda suv ta’minoti bo‘limida ishlar edi. Yosh Karlning aqliy rivojlanishiga uning jonli tafakkurini rag‘batlantiradigan tog‘asi Fridrix ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Karl Fridrix Gaussning matematik qobiliyati juda erta namoyon bo‘ladi. Keyinchalik u, dastlab sanashni, so‘ngra esa gapirishni o‘rganganini aytadi. Otasi shahar ma’muriyatining topshirig‘iga ko‘ra ko‘pincha turli arifmetik hisoblashlarni bajarar edi. Bir kuni Karlning otasi Gerxard Gauss ovoz chiqarib qandaydir hisoblashlarni qilayotgan edi. Hali hisob-kitob oxiriga yetmasdan turib, uch yoshli Karlning “Ota, qilayotgan hisob-kitobingiz xato, bunday bo‘lishi kerak” degan so‘zlarini eshitib hayron bo‘lib qoladi. Karl otasi hisobotining natijasini aytgan edi. Otasi tekshirib ko‘rganda Karl aytgan son haqiqatdan ham to‘g‘ri bo‘lib chiqadi.

Otasi uning o‘qishiga qarshi edi, biroq, Karlning onasi Doroteyaning qat’iyligi tufayli u o‘z fikrini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. Karl yetti yoshidan boshlab maktabga qatnay boshladi, u yerda matematika uchinchi sinfdan boshlab o‘qitilar edi. Maktabda Karldagi matematik qobiliyat tezda seziladi. Sinfda yuzga yaqin o‘quvchi bor edi. Kunlardan bir kun o‘qituvchi to‘polonga berilib ketgan bolalarni nima bilandir mashg‘ul qilish maqsadida ularga quyidagi 100 ta sonning yig‘indisini topishni buyuradi: 81297+81495+81693+....10899, bu sonlar (qo‘shiluvchilar)ning har biri oldingisidan 198 ta ortiq edi. Bolalar misolni ishlay olmasligini bilgan o‘qituvchi boshqa ishlar bilan shug‘ullana boshladi. Haqiqatdan bolalar bir necha soat misolni ishlashga harakat qildilar lekin, Karl Gaussdan boshqa hech kim to‘g‘ri javobni chiqara olmadi. O‘qituvchi topshiriqni yozib bo‘lishi bilanoq Karl o‘zining grifel’ taxtachasini o‘qituvchining stoliga qo‘ydi. Lol qolgan o‘qituvchi endi Karl Gaussni o‘qita olmasligini, unga hech qanday topshiriq bera olmasligini aytdi. Karl bilan o‘qituvchining yordamchisi Bartel’s alohida shug‘ullana boshladi. Karl Gauss Batrel’s bilan birga juda ko‘plab matematik kitoblarni o‘qib o‘zlashtirdi. Bartel’sning iltimosiga ko‘ra Braunshveyg gersogi Karlning o‘qishni davom ettirish uchun moddiy imkoniyat yaratib berdi. Unga Braunshveyg gersogining Karl doktorlik dissertatsiyasini yoqlagunga qadar stipendiyasi ajratildi.

1975 yilda Karl Gauss gimnaziyani tugatdi va Gittingen universitetiga o‘qishga kirdi. U mustaqil ravishda N’yuton, Lagranj, Eyler kabi mashhur matematiklarning asarlarini sinchiklab o‘rgandi. Karl talabalik davridayoq bir necha kashfiyotlarni amalga oshirdi. U 1796 yilda sirkul’ va chizg‘ich yordamida muntazam 17 burchakni yasash mumkinligi isbotladi. Karl Gaussgacha 3, 4, 5, 15 burchaklarni, shuningdek ularning tomonlarini ikkilantirish yo‘li bilan hosil qilinadigan ko‘pburchaklarni yasash usullari ma’lum edi. Shu yil u ikki hadli $x^n - 1 = 0$ tenglamani kvadrat radikallarda yechish mumkin bo‘lgan hollarni va mos holda, aylanani tegishli sondagi teng bo‘laklarga sirkul’ va chizg‘ich yordamida bo‘lishning mumkin bo‘lgan hollarini kashf qildi. Biz hozir bu tenglamani birlik aylana va aylananing uni n ga teng bo‘lakka bo‘lishdan hosil bo‘lgan nuqtalarning koordinatalarini kompleks tekislikda yozish yordamida osongina yechamiz. O‘sha

davrda bunday usul yo‘q edi, shuning uchun Karl Gauss kashfiyoti shov-shuvga sabab bo‘lgan.

Bundan oldinroq Karl Gauss binom darajasini ko‘rsatkichning istalgan ratsional qiymatlarda yig‘indiga yoyish formulasini keltirib chiqardi. 1797 yilda Gauss algebraning har qanday koeffitsientli algebrik tenglamaning haqiqiy yoki mavhum ildiziga ega bo‘lishi haqidagi asosiy teoremasining va unga ekvivalent bo‘lgan va ikkinchi darajali haqiqiy ko‘paytuvchilarga yoyilishi mumkinligi haqidagi tasdiqning, aslini olganda, daslabki va aniq isbotini berdi.

Uning yana bir kashfiyoti oddiy kasrni davriy kasrga aylantirishda davrdagi raqamlar soni masalasini tekshirar ekan sonlar nazariyasi apparatining juda muhim masalalari – taqqoslash nazariyasini ishlab chiqdi va uning qoidalari hamda muhim tadbiqlarini yanada rivojlantirdi.

Bundan tashqari Karl Gauss sirtlar geometriyasining berilgan nuqtadagi to‘liq egrilik to‘g‘risidagi asosiy teoremasini kashf etdi va isbotladi. Sirtning berilgan nuqtasidagi to‘liq egriligi hozirda Gauss egriligi deyiladi.

Karl Gauss o‘ta hushchaqchaq odam edi. U adabiyot va ekonomikaga juda ham qiziqar edi. Biroq, uning xarakteridagi ajralib turadigan hususiyati o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishish yo‘lidagi qat’iylik va sabot edi. Biror ishga qo‘l urgan Karl Gauss chekinishni hayoliga ham keltirmagan. Oldidagi qiyinchiliklarni hal etishning ko‘plab yo‘llarini qidirib topar edi. Maqsadiga yetgandan so‘ng esa ishidan rohatlanib yurardi.

Gauss bir o‘zi ishlashni yoqtirar edi. Shuning uchun uning shogirdlari bo‘lmagan. U hech kim bilan o‘z fikr-mulohazalarini o‘rtoqlashmas edi. Hamma ishni bir o‘zi mustaqil oxiriga etkazardi.

1824 yilda Karl Gauss Peterburg fanlar akademiyasining xorijdagi a’zosi etib saylanadi va umrining qolgan davrida akademiya bilan muntazam ilmiy aloqada bo‘lib turadi. 63 yoshida u rus tilini to‘la o‘rganadi va Peterburg akademiyasi bilan barcha ilmiy aloqalarni rus tilida olib boradi. Gauss A.S.Pushkin va boshqa rus adabiyotining yirik nomoyondalari asarlarini o‘qishni yoqtirar edi.

Karl Fridrix Gauss 1855 yilda 78 yoshida vafot etdi. Uni hayotligidayoq matematiklar qiroli deb atashar edi. Karl Gaussning asarlari bizning davrimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyot:

1. S.Petrakov. “Matematika to‘garaklari”. Toshkent. 1991 yil. 88-90 betlar.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SINFDAN TASHQARI O‘QISHNI TASHKIL ETISH

Akbarova Hilola Usmonovna
Raximova Malika Yusufjonovna
Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani
16-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
Telefon: +998993235250; +998993228911

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirish va bu orqali ular juda katta ma’naviy ozuqa olishi haqidagi fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, sinfdan tashqari o‘qish, interaktiv metodlar, kitob, mustaqil o‘qish, fikrlash, munosabat.

Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Sh.M.Mirziyoyev

Bugun jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan jamiyatimizda komil insonni tarbiyalash ularni har tomonlama yetuk, ilmli, kasb-hunarli bo‘lishlariga e’tibor qaratish juda muhim vazifalardan biridir. Buyuk allomalarimiz o‘zlarining asarlarida ta’limning ko‘rsatmalilik izchilligini asoslab berganlar.

O‘quvchilarga ta’lim berganda ularni zeriktirib qo‘ymaslik uchun o‘rganiladigan fanlarni almashtirib turish kerak, o‘quvchi fandan-fanga o‘tib tursa turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi. Birini ko‘rib ulgurmay boshqasi boshlanadi va u har bir narsada o‘ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularga qiziqadi va o‘qishni istaydi. Bir xil narsaning bayoni bolani charchatadi va xotirasida hech narsani saqlay olmaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida zamon bilan birga yoshlarimizning ongi, fikrashi, dunyoqarashi ham ilgarilab bormoqda, shu bilan birga ularning internet aloqasiga bo‘lgan qiziqishlari, qo‘l telefoniga mukkasidan ketishlari, kompyuter o‘yinlariga bog‘lanib qolishlariga e’tiborsiz bo‘lmaslik kerak. Bu vositalar orqali bolalarning ta’lim tarbiyasi, odob–axloqi ko‘ngildagidek bo‘lmaydi albatta. Chunki ular bu narsalardan hech qanday samarasiz, bemaqsad foydalanadilar. Ayrim bolalar ana shu elektron qurilmalardan faqatgina o‘yin o‘ynash maqsadida bo‘ladilar. Ularni to‘g‘ri yo‘lga solish vatanga sadoqatli, mustaqil fikrga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalash bizning vazifamizdir. Ularning hayotlarida kitob deb nomlangan ziyo borligiga ishontirish, u bilan sirdosh do‘st bo‘lishga chorlash o‘qituvchilarning vazifasidir. O‘quvchilar bilan darsdan tashqari to‘garaklar olib borish, xar hil qiziqarli o‘yinlarni o‘tkazish, sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil qilish yaxshi natijalar beradi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari boshlang‘ich sinflarda har bir bo‘limdan keyin o‘quv rejaga kiritilgan. Bu darslarni tashkil etish, o‘quvchini qiziqtira olish har bir pedagogning mahoratiga bog‘liq. Masalan sinfdan tashqari o‘qish darslarida maktab kutubxonasiga olib borish mumkin, bunda o‘quvchilar kutubxona hayoti bilan turli kitoblar jamlanmasi bilan tanishadilar va dunyo va jahon adabiyoti namoyondalarining mashhur asarlarini olib mutolaa qiladilar. Har bir o‘quvchi kutubxona qoidalarini, undan foydalanish, bir biriga xalaqit bermasdan o‘qish ko‘nikmalarini hosil qiladilar. O‘qigan ertak va hikoyalarini bir biriga va ota onalariga so‘zlab beradilar, kitoblardagi asarlardan ta’sirlanadilar, ma’naviy ozuqa oladilar. Uyda ertak qahramonlarining rasmini chizishadi ularni salbiy va ijobiy qahramonlarga ajratishadi. Ular salbiy qahramonlarni yomon ko‘radilar, harakatlarini qoralaydilar, ijobiy qahramonlarga ergashadilar, ularning qilgan ishlaridan xursand bo‘ladilar.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilarga ijodkorlarning hayoti va ijodini o‘rganib kelish ular yozgan hikoya qissalardan parchalar yodlab kelish topshirish mumkin. Masalan O‘tkir Hoshimovning “Chana” hikoyasi 3-sinf darsligida uchratishimiz mumkin. Mana shu mavzuni o‘tayotgan vaqtda bolalarga sinfdan tashqari o‘qishga tayyorlash maqsadida yozuvchining hayotini o‘rganish yoki “Tush” hikoyasini topshirsangiz o‘quvchi izlanadi, kitob topib yozuvchi hayoti bilan tanishadi. Notanish matnni o‘qib uning mazmunini so‘zlab berishga tayyorlanadi. Undan tashqari o‘quvchining og‘zaki nutq malakasi, lug‘at boyligi oshadi. Qayta hikoya qilib berish qobilyati rivojlanadi. O‘qish texnikasi va tezligi sezilarli darajada o‘zgaradi. Yozuvchi haqida

bilim ko‘nikma malakaga ega bo‘ladi. Yana har bir o‘quvchi o‘zi o‘qigan ertak va hikoyalarini yanada boyitish va mazmunini yoritish uchun o‘zi harakat qila boshlaydi va mos maqollar va hikmatli so‘zlarni o‘zi qidiradi va yodlaydi. Sinfdan tashqari o‘qishda o‘quvchilarning xotirasini sinash maqsadida xar hil interaktiv metodlarni qo‘llash mumkin, bunda o‘quvchilar bu metodlar yordamida o‘qigan hikoya, ertaklarining qahramonlarini, ularning yaxshi va yomon fazilatlarini bayon etishlari mumkin.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida 3-4-sinf o‘quvchilariga mustaqil mashq ham topshirish mumkin. Ularga “Vatan”, ”Ona”, ”Oila”, ”Yaxshilik” va boshqa mavzular nomi berilib hikoya, ertak yozishlari topshiriladi. Bunday usul orqali ularning yozma malaklari rivojlanadi. Fikrlash qobilyatlari kengayadi, mustaqil bilim olishga harakat qilishadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarini boshqa fanlarga ham bog‘lab o‘tish ham mumkin. Ta’til davrida o‘quvchilarga yangi kitoblarning nomlarini aytish mumkin, bunda ular shu kitoblarni olib o‘qib o‘zlariga ma’naviy ozuqa olishlari, fikrlashlarini o‘stirishlari mumkin. O‘qigan kitoblaridagi hikoya va ertaklarni yoki o‘zi yozgan ertak yoki hikoyani tengdoshlariga yoddan aytib beradi va bu orqali o‘zini tuta bilishni, hayajonlanmaslikni o‘rganadilar. Biz bolalarimizni komil inson, vatanparvar, odobli, mustaqil fikrga ega bo‘lishi uchun kitob bilan do‘stlashtirishni unutmasligimiz kerak, shundagina biz buyuk yurt tuzish uchun mustahkam asos qo‘ygan bo‘lamiz.

Foydalangan adabioyotlar ro‘yxati

1. N.M.Bekniyozov O‘qituvchi nimalarni bilishi kerak?
2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining metodik guruhlarini o‘qitish uchun seminar modullari.
3. www.uzedu.uz

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Alixanova Sohibaxon
Namangan shahar 9- umumiy o‘rta ta’lim
maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: 943091444

Annotatsiya: Inson kamolotidagi asosiy bosqichlardan biri bu boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi. Ayni mana shu davrda o‘quvchilar o‘zlaridagi ilk ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Shuning uchun boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilaridan yangi innovatsion metodlardan foydalanishni, eski usulning samarali jihatlarini olib, yangilarini kashf qilishni talab qiladi. Bu maqola ona tili fanini boshlang‘ich ta’limda tutgan o‘rni haqida.

Kalit so‘zlar: Didaktik o‘yinlar, imlo, so‘z boyligini oshirish,”Estafeta”

Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida olib borilayotgan ta’lim –tarbiya jarayonlari, u bulan bog‘liq o‘zgarishlar ta’lim tizimini isloh qilish, milliy ruh va an’analar bilan sug‘orish, samarali usullarni saqlab qolgan holda yangi metodlarni kashf qilish va amaliyotda qo‘llash kerakligini ko‘rsatmoqda.

Didaktik o‘yinlarga, asosan, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi vosita sifatida qaraladi. O‘yin shaklda beriladigan topshiriqlar bolalarning diqqatini jalb qiladi, qiziqtiradi, bolalar o‘zlarini qiynamay mashqlarni bajaradilar. Bola o‘yinda ishtirok etish jarayonida bilim oladi, malaka va ko‘nikma hosil qiladi. Didaktik o‘yinlarda bolaning tashabbuskorligi ortib, kichik yutug‘idan ham motivatsiya oladi.

O‘yinni tanlashda,avvalo, uning g‘oyaviy mazmuniga,ma’naviy va axloqiy qimmatiga e’tibor qaratish lozim.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi negizida o‘quvchilarni xatosiz, chiroyli yozuvga yo‘naltirish, barkamol va vatanparvar shaxs bo‘lib yetishishlari uchun ona tilini mukammal o‘rgatish, tasavvur olami kengligi, go‘zallikni ko‘ra olish va so‘z boyligini oshirish asosiy maqsad qilinadi.

Ona tili metodikalarida so‘z o‘yinlarining ko‘proq berilishi tavsiya etiladi. Chunki so‘z o‘yinlariga bola juda qiziqish bilan yondashadi. So‘z o‘yinida kattaroq so‘zni xattaxtaga yozib qo‘ysak, o‘quvchilar harflardan boshqa so‘zlar hosil qiladilar. Ya’ni bitta so‘zdan 20-30 tagacha so‘z hosil qilishlari mumkin. Bu jarayon o‘z-o‘zidan o‘quvchilarning so‘z boyliklarini oshishiga yordam beradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini kengaytirish uchun ko‘proq rasmli ko‘rgazmalardan foydalanishi maqsadga muvofiq. O‘quvchining husnixat bilan yozishi, daftarni toza tutishi, harf elementlariga e’tibor qaratishi,so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay olishi aynan birinchi o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. O‘quvchilar tinish belgilarini o‘rgana borgan sari imloviy savodxonligi ham oshib boradi, So‘zlarni satrdan- satrga to‘g‘ri ko‘chira oladilar. Imloviy savodxonlikka e’tibor qaratgan o‘quvchi, albatta, og‘zaki nutqqa ham ahamiyat beradi. Nutqi ravon, tekis,ifodali bo‘lib boradi.

“Estafeta”o‘yini

Bolalar ikki guruhga bo‘linib doska oldiga qator turib oladilar. Berilgan bayroqcha esa guruh o‘quvchilarida bitta –bitta aylanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi mavzuga mos og‘zaki yoki yozma biror topshiriq berishi mumkin. Bayroqi birinchi bo‘lib aylangan guruh g‘olib bo‘ladi. Bundan tashqari qish faslidagi darslarda “Qorbo‘ron”, bahor faslida” Gullar sayli”,kuz faslda “Sinfni barglardan tozalaymiz” kabi metodlardan ham foydalanish mumkin.

Bu kabi metodlar ta’lim sifatini yaxshilab,dars samaradorligini ko‘taradi. Zamonaviy pedagog o‘z faoliyatida bu kabi darslarga urg‘u qaratsa,sog‘lom, zamonaviy bilimga ega, har qanday sharoitga tez moslasha oladigan avlodni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q. va b. Savod o‘rgatish metodikasi.-Toshkent, O‘qituvchi, 1996

INFORMATIKA DARSLARIDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIGA NISBATAN KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Aliyeva Gulbahor Rashidhanovna
Namangan shahar 7- maktab Informatika fani o‘qituvchisi
+998913687284
guli.aliyeva.uz@gmail.com

Annotatsiya: maqolada informatika darslarini samaradorligini oshirish yo‘llari va kompetentsiya orqali amalga oshirish, kompetentsiya o‘zi nima kabi tushunchalar ifodalangan.

Kalit so‘zlar: informatika, kompetentsiya, rivojlanish, axborot, kommunikatsiya.

Ta’lim jarayonini axborotlashtirish masalasi XX asrning 90-yillaridan e’tiboran dolzarb masalalar sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Shu davrdan boshlab ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha juda ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim muassasalari ham zamonaviy kompyuter sinflari bilan jihozlanib, o‘quv predmetlaridan elektron o‘quv resurslari yaratildi va ulardan ta’lim jarayonida foydalanib kelinmoqda.

Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko‘rinib turibdiki, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda zarur bilim va malakalarni hosil qilish yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahmiyatga egadir. Mashg‘ulotlarga oid didaktik, ko‘rgazmalar, multimediya, kompyuter vositalari va inovattsion texnologiyalardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni olib borish bu borada kutilgan natijani beradi. Kompetentsiya - olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarning majmuasi. “Kompetentsiya” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “o‘z kasbiga yaroqli, loyiq” degan ma’noni bildiradi. O‘qituvchi kompetensiyasi – uning bilim, ko‘nikma va malakasi, dunyoqarashi va shahsiy sifatlarining namoyon bo‘lishidir. Kompetentlik- olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarning majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasi. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan talim modelining markazida o‘quvchi turadi. Har bir qadam, har bir maqsad o‘quvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanadi. Kommunikattsiya vositalari inqilobi, axborotning toshqindek ortib borishi va dunyodagi o‘zgarishlar bizning yashash, tafakkur qilish va muloqot tarzini o‘zgartiradi. Demak, zamonaviy ta’lim oldida yoshlarni umuman yangi shart – sharoitlarda yashashga o‘rgatish vazifasi turibdi. Etibor bergan bo‘lsangiz, ko‘pchilik olim va pedagog – novatorlar annaviy o‘qitish shakl va usullari hayotni zamonaviy talablariga mos kelmasligini anglab etgan holda XX asrning ikkinchi yarmida muqobil usullarni izlanishni boshlashdi va natijada interfaol o‘qitish yondashuvi yuzaga keldi.

Kompetentsiya shaxsning murakab ta’limiy strukturasi bo‘lib, u o‘zida shaxsning sensor, subsensor va ekstrasensor, sensomotor, ideo dinamik (ideomotor, ideosensor, ideoemotiv, ideokognitiv) inttellektual, irodaviy, kreativ, emotsional sifatlarini o‘zida jamlaganki, ular faoliyatdan ko‘zlangan maqsadga uning o‘zgarib boruvchi sharoitida amalga oshuvini ta’minlaydi. Shunday qilib kompetentsiya shaxsning yuksak sifatiy xislati bo‘lib, uning shakllanishi ta’limning hal qiluvchi oqibat, natijasi hisoblanadi. Kompetentsiya so‘zi ko‘zlangan natijalarga erishish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish qobiliyatini namoyish eta olishni bildiradi. Ta’limiy kompetentsiyalar tayanch (umumiy) va maxsus (fanga oid) kompetentsiyalarga bo‘linadi. Tayanch kompetentsiyalar kommunikativ kompetentsiya, axborot bilan ishlash kompetentsiyasi, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi, umummadaniy kompetentsiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasidir.

Informatika fanining asosiy tushunchasi bo‘lgan axborot tushunchasini bilish, axborot olish, axborot berish, axborot turlarini bilish, axborot manbalarini bilish, axborotlarni saralash, axborotni tasvirlash, axborotni kodlash, axborotli modellashtirish, axborotni qayta ishlash vositalari, ta’limiy axborot resurslari, Internet, Internetdan ma’lumotlarni olish usullari, axborot bilan ishlashda odob-axloq qoidalari, multimedia texnologiyalari, hujjat yaratish, elektron pochta orqali muloqot qila olish va kompyuter viruslaridan axborotni himoya eta olish layoqatini hosil qilish kabilardan iborat. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga nisbatan kompetentlilik insonlar uchun muhim kompetentsiya hisoblanib, u kompyuter, telekommunikatsiya vositalari

va Internet imkoniyatlaridan foydalangan holda turli muammo va masalalarni hal etishda namoyon bo‘ladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga nisbatan kompetentlilik deganda, ta’lim oluvchilarning axborotlashgan jamiyatda o‘z o‘rnini munosib egallash va muvaffaqiyatli mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun axborotga ega bo‘lish, uni izlash, qayta ishlash, baholash, yaratish va uzatishni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olish qobiliyati va layoqati tushuniladi. Ta’lim oluvchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga nisbatan kompetentlilikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi ta’lim muassasalarida informatika faniga oid kompetentsiyalarni hamda foydalanuvchilik kompetentsiyalarni, ya’ni hamkorlik qilish, muloqotni amalga oshirish, bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amaliyotda qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari Informatika ta’limi jarayonida axborot hosil qilish va uning ustida turli amallar bajarish bo‘yicha kompetentsiyalar shakllantiriladi. Masalan: Toshkent shahri haqida ma’lumotlarni Internet foydalanuvchilariga taqdim etish uchun darslik va boshqa bosma adabiyotlardagi ma’lumotlarni skaner qurilmasi yordamida kompyuter xotirasiga o‘tkazish va internet resurslari bazasiga joylashtirish talab etiladi. Bu jarayonda ma’lumotlarni kompyuter xotirasida saqlash, ma’lumotlarni elektron axborot resurs sifatida joylashtirish, ma’lumotning mazmuni yoki tayyorlangan dasturiy ta’minotdan foydalanishga bo‘lgan kompetentsiyalar shakllantiriladi. Informatika darslarida Internet yoki boshqa elektron axborot manbalaridan olingan axborotlarni yoki uning kerakli qismlarini videoproektor orqali ekranga, faks-modem yoki Internet tarmog‘i orqali boshqa qabul qilish vositasiga uzata olish, bunda elektron pochta, faks, videokoferentsiya o‘tkazish dasturlari imkoniyatlaridan foydalana olish hamda bu jarayonda huquqiy va ahloqiy me’yorlarni bilish, dastur va ma’lumotlarga xos mualliflik huquqlarini bilish kabi kompetentsiyalar shakllantiriladi. Shuningdek, Informatika darslarida o‘tkazilan amaliy mashg‘ulot orqali ta’lim oluvchilarda axborotlarni elektron vositalarda uzatish kompetentsiyasi, bundan tashqari kommunikativ kompetentsiya, axborotlarni yig‘ish kompetentsiyasi, shuningdek xuquqshunoslik faniga oid bo‘lgan huquqiy madaniyatga ega bo‘lish kompetentsiyalari shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganimizda, yuqorida keltirilgan kompetentsiyalarning shakllantirilganligini aniqlashda savol-javob, axborotni izlash, qayta ishlash va uzatish, didaktik materiallar asosida test topshiriqlari, jadvallar bilan ishlash, o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilib o‘z-o‘zini baholash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulomov S. S va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. T.- Sharq- 2000.
2. Abduqodirov A. A, Hayitov A. G‘, Shodiev R. R. Axborot texnologiyalari. T.- O‘qituvchi-2002.
3. B.Boltayev va boshqalar. 5-sinf uchun Informatika darsligi. T.: 2008. 72 b.
4. B.Boltayev va boshqalar. 6-sinf uchun Informatika darsligi. T.: 2013. 72 b.
5. B.Boltayev va boshqalar. 7-sinf uchun Informatika darsligi. T.: 2009. 72 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL TA’LIM METODLARINING O‘RNI

Allamova Hafiza Madiyorovna
Xorazm viloyati,Gurlan tumanidagi
8-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,
Telefon:+998949180105

Annotatsiya: Yosh avlodni tarbiyalashda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning afzalligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, Interfaol metodlar, Ijodiy ish.

Hayotimizni yirik bir kitobga qiyoslasak har bir kunimiz esa uning bir varag‘i hisoblanadi. Shunday ekan o‘sha har bir kunimizni ezgu va foydali ishlar bilan to‘ldirib borishimiz lozim. Buning uchun bizning ertangi kunimiz egalari bo‘lgan yosh avlodning ta’lim tarbiya jarayoniga katta e’tibor aratishimiz darkor. Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim olish jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishimiz lozim. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay,qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Barchamizga ma’lumki bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchining o‘quv va ijodi faolliklarini oshiruvchi ta’lim tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘langan bo‘lib bu tajriba asosida “Interfaol metod “lar tashkil etilmoqda. Shu kabi metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘quv bilish faolligini oshirish ularni kichik guruh va jamaoda ishlash o‘rganilgan mavzu muommolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil erkin ifodalash o‘z fikrlarini himoya qilish dalillar bilan asoslash,tengdoshlarini tinglay olish g‘oyalarini yanada boyitish bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan muntazam ehg muhim, eng maqbil yechimini tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga ega ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qutuvchilar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli,maqsadli va samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchida muloqatga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish,mantiqiy fikrlash mavjud g‘oyalarni sintezlash,tahlil qilish,turli qarashlar orasidan mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Aynan bolani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad ham mana shu.Faraz qiling maktabga endi qadam qo‘ygan bola hamma narsa begona. Hattoki bir partada yonma- yon o‘tirgan bolani ham birinchi ko‘rib turishi.Bunday vaziyatda o‘qituvchidan pedagogik mahorat talab etiladi.

Bunday vaziyatda o‘qituvchi bolani maktabga,sinfiga va albatta do‘stlariga o‘rgatish uchun interfaol metodlardan foydalanish ayni muddao.

Avval o‘quvchilar bir-biri bilan yaqindan tanishib olishlari uchun “Davra suhbati” metodidan foydalaniladi. Bunda o‘quvchilar aylana stol atrofida o‘tirib, o‘zlarining ism familiyasi va qiziqishlari to‘g‘risida o‘rtoqlashishadi.Keyingi bosqichda “Aqliy hujum”metodidan foydalaniladi. Bu metod orqali o‘quvchilarning bilim darajasi,darsga bo‘lgan qiziqishlari aniqlanadi. Shu tarzda sekinlik bilan interfaol metodlarning saviyasi ko‘tarilib boradi. Qarabsizki, darslar oddiy darslardan farqli ya’ni bir-biridan qiziqarli davom qiladi.Bu albatta o‘qituvchining yutug‘i hisoblanadi. Shu o‘rinda shuni aytib o‘tish joizki “Ijodiy ish”metodidan foydalanish barcha sinflarga tavsiya qilinadi. Chunki bu metod bolaning mustaqil fikrlash, o‘z fikrini bemalol bayon qila olish imkonini beradi. Interfaol metodlarning qanchadan qancha turlari mavjud bo‘lib,bularning maqsadi bitta :farzandlarimizni aqlli, bilimli, har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash. Qolaversa, o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini topish yo‘lida faollik ko‘rsatishga,ularda yetakchilik,sardorlik sifatlari, jamoada ishlash ko‘nikmalarini, o‘zgalar fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyalarini himoyalash fikrini isbotlay bilish, asoslash kabi hislatlarini shakllantiradi. Farzandlarimizning bunday tarbiyalanishi o‘z navbatida ertanggi kunimiz ishonchli qo‘llarda ekanligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.”O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”Toshkent-2015.

2. 2-sinf o‘quvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma.

3.”Sharq nashriyoti”Toshkent-2015

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARS JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Allonova Dilafro‘z va Primova Mashhura
Navbahor tumani 1- maktab o‘qituvchilari
Telefon +998907328978
+998930879985
ft.19999@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil fikrlaydigan komil shaxslarga ta’lim va tarbiya berib, kamol toptirish maqsad qilib olingan. O‘yin faoliyati orqali shaxsning o‘qishga, mehnatga bo‘lgan qiziqishi ortadi; shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratadi;hayotda va didaktik mashq jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga va mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalarini tarkib topishiga yordam beradi; shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi; Insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga e’tibor qaratiladi;o‘yin ishtirokchilarida ommaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bu jarayonlar orqali boshlang‘ich sinf bolalarining dunyoqarashi, fikri va nutqi rivojlantirib boriladi.

Kalit so‘zlar: Interfaol usullarni, innovasion pedagogik texnologiyalarni kiritish va ulardan mohirona foydalanish

Innovasion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi qanday? -Innovasion texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni asosan o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini mustaqil ta’lim asosida o‘qitish ta’lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanishini ta’kidlamoqchiman. Mustaqil bilim egallashda amal qilinadigan qonun-qoidalarga aniqlik kiritish lozim bo‘ladi. Umumdidaktik pirinsiplar qatorida mustaqil ta’lim tamoyillarini quyidagicha talqin etmoqchiman:

- bilimlarni o‘zlashtirishda individual va jamoaviy yondashuv;
- oddiydan murakkablik darajasiga borish;
- o‘quvchilar nutqining ifodaliligini oshirib borish;
- o‘quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashi,og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishi;- mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili bo‘yicha bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, hayotga ongli munosabatni shakllantirish, ta’limning tarbiyaviy tamoyilini kuchaytirish, qiziqishini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish aynan mustaqil ta’lim asosida amalga oshirilishini hisobga olsak, bunday ishlar o‘z shakli va mazmuniga ko‘ra xilma-xil bo‘lishi, bevosita asosiy darslarning davomi hisoblanishi barchaga ma’lumdir. Shu bilan birga mustaqil ta’limda amalga oshirish qiyin bo‘lgan vazifalarni hal qilishga keng yo‘l ochiladi. Jumladan: Ona tili fanini o‘qitishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zbek adabiy tili me’yorlari darajasida og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, imlo va uslubiy jihatdan savodxon qilish, ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini qanday rivojlantira olaman?- Ushbu jarayonda yozma nutq ko‘nikmasini shaklantirishdagi bir qadar murakkab jarayonlarda : yozma nutqlarini quyidagicha: savodxonlik, ijodiylik, fikrni aniq bayon eta olish, qiziqarlilik va tushunarlilik kabi asosiy yo‘nalishlar vositasida o‘lcham olish; savodxonlikda so‘z va tinish belgisini to‘g‘ri yozish tushunilsa, yozma nutqda so‘zni ko‘rish va ko‘chirish, uning talaffuzi va eshitilishi orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlay olishni nazarda tutaman.

Imlo savodxonligini tarkib toptirishda aytib turish orqali yozdirish ham samarali uslub deb hisoblayman. Bu usul so‘zning to‘g‘ri talaffuzi va imlosini eslab qolishga yordam beradi. So‘zning to‘g‘ri yozilishini eslab qolish usuli orqali ham imlo savodxonligi rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limining muhim vazifalaridan yana biri, bu o‘quvchilarda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishdir. O‘quvchilarda og‘zaki nutq inson faoliyatining barcha jabhalarida zarur jihat ekanlini oddiy va sodda usullarda tushuntirishga harakat qilaman. Maktabga ilk bor qadam qo‘ygan o‘quvchim qarshisida yangi, jozibali o‘zga bir dunyo paydo bo‘ladi. Bola maktabda mo‘jizakor olam yangiliklari bilan tanishadi, hayot haqidagi his-tuyg‘ularini boyitadi, iroda va xarakterni tarbiyalaydi, o‘rtoqlari, katta yoshdagilar bilan muloqotda bo‘lishga

o‘rganadi. Xo‘sh men pedagog sifatida bu jarayonda qanday yo‘l tutmog‘im lozim?

Har bir pedagog insonni borliqning bir bo‘lagi sifatida undagi har bir voqelikka o‘ziga xos mulohaza bilan yondashsa, ko‘rgan, eshitgan voqealarini ziyraklik bilan mulohaza qilsa, o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lsa, ijodiy fikrlasa, uning tafakkuri qarashlarida yangilik, samara bo‘lishini tezda anglab olishi muqarrar deb o‘ylayman. O‘sib kelayotgan yosh avlodning mustaqil fikr yuritishi, aqliy va ijodiy faolikka undash, erkin fikr, kasbiy mas’uliyat elementlarini his qilishga qaratilgan jarayon ekanligini chuqur anglagan holda ish tutaman.

Bu jarayonlarda mustaqil ta’lim albatta yangi pedagogik texnologiyalarga tayanib ish tutadi. Undan foydalanish ham o‘quvchilarda fanlarni o‘zlashtirish sifatini oshirishda bir qancha muammolar yechimlarini izlab topishda qo‘l keladi. Xo‘sh bu jarayonlar qanday ko‘zga tashlanmoqda? Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayonida oqilona qo‘llay olish, ta’limning yangi va samarali usullarini izlash, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy va mohirona foydalana olish lozimdir.

Bizga pedagogik texnologiyalardan interfaol usullarni qo‘llash yaxshi samara bermoqda. Interfaol usulida men o‘quvchilarimning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olib turaman. Jumladan bir qancha uslublarni sanab o‘tmoqchiman:

“Kim biladi?” o‘yinida o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh a’zolari “O‘qish” fanidan 3-sinf darsligidan biror ajdodlarimiz haqida ma’lumot o‘qishadi. Ikkinchi guruh a’zolari esa tanlangan adib, alloma yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a’zolari o‘tilgan, o‘rganilgan biror alloma yoki tarixiy shaxs haqida ma’lumot o‘qishadi. Birinchi guruhdagilar esa alloma yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Har bir to‘g‘ri javob uchun yutuqli rag‘bat kartochkalar berishadi Didaktik mashq shu tarzda davom etadi. Ushbu didaktik mashq o‘quvchilarda fanga yoki o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Tarixga bo‘lgan dastlabki ijodiy yondashuvni o‘stiradi, mantiqiy fikrlash malakalarini oshiradi. Darslar jarayonlarida interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qila olishga, xulosalar chiqarishga, o‘z fikrini bayon qila olishga, uni asoslagan holda himoya qila bilishga, sog‘lom muloqot,bahs-munozara olib borish ko‘nikmalarini shakllantira olishga, ular dunyoqarashlarini rivojlantirib borishga harakat qilib boraman.

Ish faoliyatimda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish qanday samara bermoqda?-degan savolga men: dars jarayonlarida ilg‘or texnologiyalardan foydalanishim mavzularning rang-barang, qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelmoqda va shu bilan birga o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratmoqda deb baralla javob bera olaman.

Umumlashtiruvchi darslarda o‘quvchilarim bo‘limdagi o‘qigan ertaklaridan qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek asardagi qahramonlar, ularning xulq-atvori haqida o‘z fikrlarini bayon qilishga harakat qildira boshlayman. Demak men bu o‘rinda qanday yo‘l tutmog‘im lozim? –Jumladan, mening vazifam asarni o‘quvchilar bilan birga tahlil qilib, ular nutqini qahramonlarning axloqiy sifatlarini ko‘rsatuvchi so‘zlar bilan boyita borishdan iborat deb hisoblayman. Bu esa o‘quvchilarda adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yorita olishlarida yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi. Bunda menga dars jarayonida qo‘llab kelayotgan hozirgi zamon ped texnologiyalardan biri bo‘lgan “Fikrni davom ettir” metodi qo‘l kelmoqda. “Fikrni davom ettir” sxemasida “Nima uchun” savoli ilgari suriladi: “Fikrni davom ettirish” qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda fikrlarini ifodalaydilar. Fikrni davom ettiring, keyinchi? so‘rog‘ini beradilar. Raqib guruh chizma orqali javob yozib, izohlaydilar.Bu jarayon muammoning dastlabki sababi, jumboq shaxsi aniqlanmaguncha davom etadi. “Fikrni davom ettir” sxemasi muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiridir. Tizimli ijodiy tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Bundan kutilayotgan natija: o‘quvchilar kichik guruhlarda birlashadilar, fikrlarini taqqoslaydilar, o‘zlarining chizmalarini to‘ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. Mashq so‘ngida ish natijalarining taqdimotini qiladilar.

Bu metod-o‘quvchilarimni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda guruhlashga o‘rgatmoqda.

Mazkur texnologiyani umumlashtiruvchi darslarda qo‘llashda chizma shakllardan foydalanish o‘quvchilarga bir qancha yengilliklar yaratmoqda. Masalan: 3- sinfda “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limi o‘tib bo‘lingach, uyushtiriladigan umumlashtiruvchi darsda o‘quvchilarga, birinchi navbatda o‘rganilgan ertaklar nomini eslash va ulardagi qahramonlarning har birining xususiyatlarini aniq, ravshan tahlil qilib, o‘zlarining erkin fikrlashlari va dunyoqarashlarini og‘zaki bayon eta olishlariga imkon yaratib beradi. Bundan tashqari o‘tiladigan har bir darsimizning

o‘z mavzusi, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyalari mavjuddir. Umumiy o‘quv jarayonimizdagi pedagogik texnologiyalar bu- aniq ketma – ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u har bir o‘quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayon bo‘lishi lozimdir. Hozirgi zamon fan va axborot texnologiyalarining uzluksiz rivojlanib borishi natijasida bizning ta’lim-tarbiya tizimimizda ham zamonaviy ta’lim texnologiyalarini loyihalash va uni pedagogik amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda deb o‘ylayman. Pedagogik jarayonimizdagi har bir interfaol metodlar–o‘sib kelayotgan har bir o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti va o‘zaro ta’siri natijasida dars jarayonini amalga oshiruvchi usullar yig‘indisidir. Interfaol metodlar orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrlarini yozma yoki og‘zaki bayon etishga chorlab kelmoqda.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda, ilmiy texnik taraqqiyot har sohada shuningdek, ta’lim-tarbiya sohasiga ham yangi-yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu sababli “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o‘quv tarbiyaviy jarayonlarni ilg‘or pedagogik texnalogiyalar bilan ta’minlash zarurligi ta’kidlanadi. Maqsadlarni amalga oshirish uchun ta’limning yangi-yangi modellari yaratilmoqda.

Hozirgi shiddat bilan o‘zgarib, rivojlanib borayotgan davrda ta’lim tizimida turli xil interfaol uslublar – o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatida sodir bo‘lmoqda. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanishning bosh maqsadi shundan deb hisoblaymanki, biz pedagoglar uchun ta’lim jarayonida qulay sharoit va vaziyatlarni yaratishimiz orqali o‘quvchilarning ijodiy, faol, erkin fikrlashi uchun muhim sharoit va vaziyatlar yarata olishimizdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zamonaviy dars. Ilmiy-metodik to‘plam. A.Avloniy nomidagi XTXTMOMI.- T.,2007 y.
2. Boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini oshirish: muammolar va yechimlar Respublika ilmiy – amaliy konfrensiya materiallari Toshkent - 2014
3. 3.“Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari” mavzusidagi seminar-trening materiallari.- T.2002 y.
4. Ishmuhamedov R. Abduqodirov A. Pardayev A. Ta’limda innovasion texnologiyalar./ (Ta’lim muassasalari pedagog – o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiya). T.: Iste’dod, 2008. – 180 b.
5. Boshlang‘ich ta’lim jurnali 2014- yil 5 – soni 4 - bet

BOSHLANG‘ICH SINFDA IZOHLI O‘QISH JARAYONINI QO‘LLASH

Anorboyeva Alomat Baxodirovna
Namangan viloyati Pop tumani 53-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
tel: 99-007-22-86
e-mail:alomat@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qishni tashkil etish, o‘quvchilarga izohli o‘qish medodikasini qo‘llash orqali natijali t’limga erishish bo‘yicha tavsiyalar berilgan

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘qitish usullari, izohli o‘qish

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta‘lim sohasida ham bir qator o‘zgarishlar qilinishini taqoza etmoqda. Hozirgi kunda ta‘lim sohasida erishilgan yutuqlami saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta‘limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o‘quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ularda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o‘tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo‘yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin. Boshlang‘ich ta’limda ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ulardan o‘rinli foydalanish - ta’lim samarasini ta’minlashga yordam beradi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o‘rta ta‘limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta’kidlangan.Boshlamg‘ich ta’limda pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. O‘qitish metodi deganda ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O‘qitish usullari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday bo‘lishini, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Boshlang‘ich sinfda o‘qitish usullari har ikkala faoliyatning:

a) o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish;

b) o‘quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish faoliyatida qo‘llanadigan yo‘llarni o‘z ichiga oladi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o‘qishga o‘rgatish yo‘l-yo‘riqlarini o‘qish metodikasi ishlab chiqadi. Boshlang‘ich singda o‘qish metodikasi kichik yoshdagi o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. O‘qish darsining samaradorligi ko‘p jihatdan ta‘lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Binobarin, fanning o‘zi kabi o‘qish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo‘ladi. Masalan, eski maktablarda o‘qish quruq yod olish metodi asosida o‘rgatilgan bo‘lsa, hozir izchil o‘qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so‘zlarga izoh berishga, ma’nosini tushuntirishga, o‘qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o‘qishning ongli bo‘lishiga e’tibor berilmagan. Ularda ko‘proq to‘g‘ri talaffuz, qiroat bilan o‘qish, ifodali o‘qish nazarda tutilgan. Hozir maktablarda boshlang‘ich sinflarda o‘qish izohli o‘qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug‘iladi: izohli o‘qish nima? Izohli o‘qishga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o‘qishda o‘quvchilarni - ongli, tushunib, o‘ylab o‘qishga o‘rgatishni alohida ta’kidlaydi va uni - Izohli o‘qish‖ deb nomlaydi. Izohli o‘qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o‘qish o‘quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o‘quvchilarga o‘qish jarayonida ham badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bo‘g‘liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar. Proffessor Asqar Zunnunov o‘qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o‘quvchilarning oldin bilimlarni o‘zlashtirishiga, so‘ng yod olishlariga e’tibor berilishi ta’lim jarayonida izohli o‘qish deb nomlanganini ta’kidlaydi. Demak, izohli o‘qish deb o‘ylashga, his qilishga, asarni to‘liq idrok qilishga, o‘qilganning mazmunini o‘zlashtirishga olib keladigan o‘qishga aytiladi. Izohli o‘qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g‘oyani anglashni ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinfda *Izohli o‘qish* quyidagi tamoyillarga to‘liq amal qilingandagina muvofaqqiyatli bo‘ladi:

- o‘qishni hayot bilan bog‘liq holda tashkil etish;
- o‘qishning ongli va ta’sirchan bo‘lishi uchun o‘quvchilarning taassurotlarga asoslanish;
- o‘qishni ko‘rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o‘quvchining ifodali o‘qishi tarzida olib borish.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida asosan she‘rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o‘qib o‘rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o‘ziga xos shakl, uslub va mazmunda

yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o‘ziga xos usulda o‘qib o‘rganish taqazo qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishonaliev U. Ta’lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. – «Xalq ta’limi», 1999-yil
2. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.-T. 1999-yil
3. Nazarova T.S. Pedagogicheskaya texnologiya: noviy etap evolyusii.-T. 1999
4. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000-yil
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Karshi «Nasaf», 2000-yil

SAVODGA O‘RGATISH DAVRIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Aripova Shaxnoza Afzalovna
Sirdaryo viloyat Sirdaryo tuman 27-umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: 90 107 72 31

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini, so‘z boyligini oshirish va nutq ravonligini ta’minlashga qaratilgan usullar haqida, hamda savod o‘rgatishda didaktik o‘yinlardanfoydalanish yo‘llari haqida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar. *Boshlang‘ich ta’lim, dars jarayoni, ta’lim texnologiyalari, jumboqli topishmoqlar.*

Umumta’lim maktablari o‘quvchilari aqliy salohiyatinig o‘sib borishi, ularning ta’lim mazmuniga chuqurroq kirib borishga intilishi o‘qituvchilardan o‘z ustida tinimsiz izlanishlarini, bugungi kun nafasi bilan yashashlari hamda ta’lim sohasidagi eng so‘ngi yangiliklardan boxabar bo‘lib borishlarini talab etadi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida o‘z o‘quvchilarini ta’lim jarayonida ijodiy yondashuv asosida qarashlarini tashkil qilishi, ularda mustaqil ishlash ko‘nikma malakasini rivojlantirib darslarda turli xil didaktik o‘yinlardan foydalanib o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib borishlari kerak.

Savodga o‘rgatish darslari tayyorgarlik va asosiy davrni o‘z ichiga qamrab olib, mazkur bosqichda o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta’limiy-tarbiyaviy ishlar turli-tumandir. Xususan, bu davrda: matn, og‘zaki va yozma matn haqida, gap, matnning gaplardan tuzilishi, so‘z, gaplarning so‘zlardan tashkil topishi, ya’ni matn tuzish va uni bo‘laklarga bo‘lib matn tarkibini tashkil qiluvchi qismlarni idrok etishga o‘rgatish, bo‘g‘in, tovush, harf haqida ma’lumot berish, unli tovushlar va undosh tovushlar haqida ma’lumot berish, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajralishini o‘rgatish, alifbedagi rasmlar, o‘qituvchi yoki o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan suratlar asosida matn tuzdirish, o‘quvchilar bilgan she’r, hikoya, ertak, maqol, tez aytish va boshqalarni yoddan ayttirish, ularga yangi she’r, hikoya, ertak, maqol, topishmoq kabilarni o‘rgatib borish, alifbe darsligidagi so‘zlar, uning ma’nolari ustida ishlash, tanish so‘zlar asosida o‘quvchilarni gap tuzishga o‘rgatish, harf va tovush orasidagi mutanosiblik va farqni tushuntirish ishlari olib boriladi.

Darslikda jumboqli topshiriq va krossvordlar berilgan. Jumboqli topshiriqlarni yechishda o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasining imkoniyatlarini hisobga olishi, ba’zi topshiriqlarni yechish ga bolalarni oldindan tayyorlashi, ya’ni jumboqli topshiriqni kattalashtirilgan nusxasini ko‘rsatib, undagi ba’zi o‘rinlarni izohlashi maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi darslik materiallari bilan cheklanib qolmay, ushbu so‘zlar mazmunini to‘liq izohlashda turli mazmunli rasmlardan ijodiy foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Misol uchun T va M harflarini o‘tish jarayonida o‘quvchilarga har xil rasmlar tarqtilib shulardan qaysilari ushbu harflar bilan boshlanadi shularni harflar atrofiga joylashtiring degan vazifalarni berishimiz mumkin, bunda o‘quvchilar filkrlash doirasi yetguncha bu vazifalarni bajarishi mumkin.

Ushbu rasmlar berilgan bo‘lsin, bunda o‘quvchilar o‘tilgan harflar yoniga tegishli rasmlarni olib borib qo‘yishadi.



Yoki



kabi joylashtirib chiqishadi. Bu mashqni har dars oxirida darsni mustahkamlash uchun yoki yangi darsni boshlashdan oldin o‘tilgan darsni mustahkamlash uchun foydalanib borsak maqsadga muvofiq bo‘lardi deb o‘ylayman. Chunki maktabga kelgan bolalarimiz o‘yinqaroq, ularda xali ko‘p o‘tirish shakllanmagan shuning uchun darslarimizda oyin shakllarini ko‘proq ishlantsak menimcha yaxshui natija beradi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki didaktik o‘yinli darslar yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko‘rish va baholash jarayonida qo‘llanilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o‘yinlarga tayyorlashi, ular muvaffaqiyatli chiqqanidan so‘ng ommaviy o‘yin darslarini o‘tkazishi kerak. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yin darslarda ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan bo‘lishlari zarur.

Foydalangan adabiyotlar

1. R.Safarova, M.Inoyatova. Alifbe darsligi. T.Manaviyat-2018 yil
2. I. Safarova R., II. G‘ulomov. Savod o‘rgatish darslari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. -T: Tafakkur, 2012
3. Internet materiallari: http://go.mail.ru/search?. “Ta’lim texnologiyalari”

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH USULLARI

Aripova Irodaxon Mamirovna
Marg‘ilon shahar 29-maktab o‘qituvchisi
Tel:+998916505910
Xusanova Iqboloy Rasulovna
Marg‘ilon shahar 29-maktab o‘qituvchisi
Tel:+998916755741

Annotatsiya: Bu ma’ruzada o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda o‘qish darslarida foydalaniladigan turli metodlar, didaktik o‘yinlar, ilg‘or pedtexnologiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar:pedagogik texnologiyalar, didaktik o‘yinlar, predmetli o‘yinlar, PISA, TIMSS, PIRLS

O‘qish inson hayotida muhim o‘ringa ega. 1-sinfga kelgan bolani o‘qishga o‘rgatish harflarni o‘rganishdan boshlanadi. Mana shu davrdayoq o‘qituvchi har bir bolani umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisobga olgan holda o‘qishga qiziqtirib olishi zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yoshlarning chuqur bilim olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqdalar. Ayniqsa, maktabgacha ta’limga barcha bolalarni qamrab olish, bog‘cha davridan ularni bilim olishga, to‘g‘ri fikrlashga, chet tillarini o‘rganishga qiziqtirishni dolzarb masalalardan biri deb hisoblaydilar. Shularni inobatga olgan holda ish olib borayotgan maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlang‘ich sinfga kelayotgan bolalar boshqa bolalardan o‘z fikrini erkin bayon qilishi, savollarga javob berishda qiynalmasligi, so‘z boyligining ko‘pligi bilan ajralib turadi.

O‘quvchini fikrlashga o‘rgatishda o‘qish fanining alohida o‘rni bor. O‘quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, didaktik o‘yinlar asosida o‘qitish o‘qishga o‘yin tusini beradi. Bola o‘ynab charchamaganidek, o‘qib charchaganini sezmaydi. O‘quvchining har bir o‘qilgan hikoya, matn, ertak yoki she’rlarga o‘z munosabatini bildirishi, fikrini ayta olishi o‘qituvchining yutug‘idir. Sinfda shunday o‘quvchilar ko‘p bo‘lishi uchun o‘qituvchi tajribali bo‘lishi bilan birga zamon bilan hamnafas ishlaydigan bo‘lishi ham kerak. Chunki bugungi kun bolasini oddiy, sodda narsalar, metodlar bilan qiziqtirib bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda o‘qish samaradorligini oshirishda qo‘llanadigan metod va usullar haqida aytib o‘tsak.

O‘qish darslarida turli janrdagi asarlarni o‘rganishda o‘quvchilarning badiiy asarni chuqur o‘zlashtirishlarini, asarni tahlil qila olishlarini ta’minlashi kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e’tibor qaratiladi. O‘qish darslarida izohli o‘qish, ijodiy o‘qish, yarim izlanishli, reproduktiv metodlardan foydalanish mumkin.

Izohli o‘qish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshi va saviyasiga mos bo‘lgan, ularning asta-sekin o‘sishini ta’minlaydigan metod ekanligi uzoq yillik tajribalarda sinalgan.

Izohli o‘qish ongli, tushunib, o‘ylab o‘qishga o‘rgatadi, u o‘qilayotgan asar matni ustida o‘ylashga majbur qiladi, yozuvchi ifoda etayotgan voqea-hodisalarni his etishni, asar mazmunini o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Izohli o‘qish o‘quvchiga bilim berishdan tashqari ularni tarbiyalaydi, o‘qish malakasini takomillashtiradi. Izohli o‘qish tarixiy mavzudagi asarlarni o‘rganishda, asardagi badiiy til vositalarining vazifalari va ma’nolarini ochishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatishda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir.

O‘yinsiz aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. O‘yin o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadigan uchqundir.

O‘yin- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar-o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan usul. Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o‘yinning hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. O‘yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq bosqichiga o‘tish uchun muhim zamin yaratadi.

Chex pedagogi Y. A. Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta’kidlab, aynan oyin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o‘yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini

kengaytirishi, nutqini o‘stirishini ta’kidlaydi. Shunindek, tengdoshlari bilan birgalikdagi o‘yin uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi.

O‘qish darslarida quyidagi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin:

1) so‘zlar vositasida o‘ynaladigan og‘zaki o‘yinlar - zanjir, noto‘g‘ri jumla, bo‘lishi mumkin emas, tez aytish, topishmoqlar, aytishuvlar;

2) predmetli o‘yinlar – xalq didaktik o‘yinchoqlari, turli tabiiy mozaika materiallari yordamida o‘ynaladigan o‘yinlar;

3) stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar – o‘xshash suratlar, loto, domino, kesma suratlar, taxlama kubiklar.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to‘g‘ri va samarali metodidir. Bugun boshlang‘ich sinf o‘qish darsliklarida har mavzu oxirida topishmoq, hikmatli so‘zlar, tez aytishlar berilgan. Maqol, hikmatli so‘zlar mazmuni haqida o‘quvchi o‘z fikrini aytishiga yo‘l ochib berish kerak. Bu borada pedagoglar hushyor bo‘lishlari talab etiladi. O‘quvchi fikrini oxirigacha tinglash lozim, garchi bola noto‘g‘ri fikr aytayotgan bo‘lsa-da.O‘qituvchi mohirlik bilan uning fikrini to‘g‘rilashi, o‘quvchini yo‘naltirishi lozim.

Dars jarayonida asar matnini tahlil qilishga e’tiborni kuchaytirish, asar tahlilini o‘qish bilan bog‘liq holda uyushtirish, tahlilda savollarning aniq, tushunarli va izchil bo‘lishiga e’tibor beriladi. O‘quvchilardan to‘g‘ri javob olingandagina o‘qishni ongli deyish mumkin.

O‘quvchini fikrlashga o‘rgatish asar qahramonlarining hatti – harakatini tahlil qilish, ularga tavsif berish orqali ham amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X. G‘ulomova boshqalar. “O‘qish darslari”. “Tafakkur” nashriyoti 2011.

2. T. G‘afforova. “ Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedtexnologiyalar”. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent – 2011.

NEMIS TILI FANIDAN O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH, RAG‘BATLANTIRISHDA “SIRLI BAHO” USULIDAN FOYDALANISH

Artikov Marks Sultonovich
Xiva tumanidagi 6-son maktabning
nemis tili fani o‘qituvchisi

***Annotatsiya*:** Nemis tilini o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, dars o‘tish jarayonida aynan dars mavzusiga mos interfaol metodlarni qo‘llay olish va yangi interfaol metodlarni ta’lim tizimiga joriy etishdan iborat.

Kalit so‘z: Pedagogik, texnologiya, interfaol, metod, ta’lim, tarbiya, o‘quv.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash vazifasi ham bevosita o‘qituvchidan ijodkor faoliyatni, qolaversa, ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan soha bilimlarini talab etadi. Modamiki, texnologiya mavjud ekan, uni ta’lim-tarbiyaga singdirish shart ekan, bu jarayon qaerda kechishi mumkin, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Nemis tili fanidan o‘quvchilar bilimini baholash, rag‘batlantirishda “sirli baho” usulidan foydalanish Nemis tili fanidan darslarda o‘quvchilar bilimini baholash, rag‘batlantirish mezonlarini har bir o‘qituvchi bilishi kerak.

Butun dars davomida faol o‘quvchilar berilgan barcha mashiqlarni to‘g‘ri va tez ishlab boradilar. Sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar esa, aksincha bir -ikkita mashiqlarni to‘g‘ri ishlay oladilar-u, shu to‘g‘ri ishlangan mashiqlari uchun namunali baho olishni istaydilar.

Bu vaqtda o‘qituvchi o‘quvchilar bilimini baholashga qiynaladi. Chunki kam mashiqlarni ishlasada, bu o‘quvchilar ham mashiqlarni to‘g‘ri ishlagan bo‘ladi. Quyidagi metodni qo‘llash orqali bu muammoni bartaraf etish va o‘quvchilarning darsga qiziqishini yanada oshirish mumkin.

O‘qituvchi nemis tili darsi mavzusini e’lon qiladi. Mavzu yuzasidan kerakli nemischa yangi so‘zlar va ularning ifodalari haqida batafsil ma’lumot beradi.

Shundan so‘ng mashiqlarni yechish boshlanadi. 1- mashiqning sharti e’lon qilinadi. Masalani to‘g‘ri va tez ishlagan o‘quvchilar daftariga o‘qituvchi baho emas, balki “N” harfli belgini qo‘yadi. Keyin 2-mashiqni ishlashga kirishadilar. Bu mashiq uchun “A” harfi bilan belgi qo‘yiladi. 3-mashiq uchun “M” harfi va h.k. Shu tariqa keyingi mashiqlar ishlanadi.

Agar bitta o‘quvchi dars davomida berilgan hamma mashiqlarni to‘g‘ri va tez ishlasa, (bu darsda 8 ta mashiq) ketma-ket ball o‘rniga “namunali” so‘zini hosil qiluvchi harfli belgilar qo‘yib boriladi. Dars yakunida “NAMUNALI” so‘zining barcha harflarini (hech bo‘lmaganda 7 tasini) to‘plagan o‘quvchilarga “Nemis tili fanidan namunali o‘quvchi” deb yozilgan rag‘bat kartochkasi beriladi va “5” baho bilan baholanadi.

Dars davomida “NAMUNA” harflarini to‘play olgan o‘quvchilarga “Nemis tili darsida yaxshi qatnashchi” kartochkasi beriladi va “4” baho bilan baholanadilar.70

Dars davomida 5 tagacha mashiq ishlay olgan o‘quvchilarga “Nemis tili qiziqarli fan. O‘z ustingizda ishlang.” Kartochkasi beriladi va bu o‘quvchilar “3” baho bilan baholanadilar.

Bu metodni qo‘llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. O‘quvchilar sirli harflarini yig‘ishga qiziqib, masalani tezroq yechishga intiladilar, o‘z ishlari natijasi bilan qiziqadilar.

2. Hatto “3” baho olgan o‘quvchi ham bu bahodan norozi bo‘lmaydi, aksincha, nima uchun past baho olganligini tushunadi va o‘z ustida ishlashni boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Zaripova R.A. “Chet tillar o‟qitish metodikasidan qo‟llanma”, Toshkent “O‟qituvchi” 1986 y.

2. Shatilov S.F. “Методика обучения немецкому языку в средней школе”, Л. Просвещение 1977.

3. “Pedagogik fanlari o‟qitishning mazmuni va metodi”. Ilmiy tekshirish Instituti. “O‟rta maktablarda chet tili o‟qitish kursi” Professor Setlin V.S. tahriri ostida. Toshkent “O‟qituvchi” 1978 y.

PEDAGOGIK TIZIM – INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING ASOSI

Ashurova Sarvinoz Fahriddin qizi
Termiz davlat universiteti
magistri
tel:(93) 799 95 03

Annotatsiya: Maqolada pedagogik tizim jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilash, dars jarayonini yuqori saviyada tashkil etishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, pedagogik dastur, pedagogik prognos, komponent.

Bugungi kunda jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot extiyojlari va imkoniyatlarining kengayishi, turli-tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, innovatsion pedagogik texnologiya fani pedagogik prognostikaning yangi shakl, vosita va metodlaridan foydalanish mexanizmini yaratishni o'z zimmasiga olmog'i talab etiladi.Bugungi davrda turli tipdagi ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta'limning o'rni va darajasini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlarda pedagogik prognostikaning imkoniyatlardan keng foydalanishni taqozo etadi. Shundagina ta'lim jarayonining natijalari fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod, hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida rivojlanishga xizmat qiladi.

Pedagogik tajriba-sinov esa amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining samaradorlik darajasini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanishda pedagogik prognostika o'zining aniq belgilab olingan maqsad va vazifalari, obekti va predmeti, taqiq etayotgan muammolarning mantiqiy asoslari, rivojlanish qonuniyatlari, o'zining tayanch metodologiyasiga ega bo'lgan pedagogika fanining muhim tarmog'i sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik prognostika o'quvchi shaxsning yosh xususiyatlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda ta'lim texnalogiyalarini tanlaydi. Tanlab olingan muayan ta'lim texnalogiyalari doirasida o'quvchi-talabalarga turli darajadagi tushinchalarni hamda mujassamlashgan bilimlarni taqdim etish yo'llarini, shakl va vositalarni taklif qiladi.

Ta'lim jarayonida tatbiq qilinadigan har qanday texnalogiya, uning komponentlari xoh ta'lim mazmuni, xoh ta'lim dasturi yoki darslik, xoh o'qtuvchi faoliyati orqali o'tishidan qat'iy nazar, o'quvchining jonli tarzdagi erkin va ijodiy faoliyatini jadal rivojlantirishga xizmat qilishiga erishish talab qilinadi.

Innovatsion pedagogik texnalogiyalar pedagogik amaliyotning o'quvchi yoki talaba shaxsga qonunlar majmuini, tabiat va jamiyat hodisalarini, kishilik madaniyati va axloq – odobini, muayan fan asoslariga tanituvchi shakli sifatida namoyon bo'lishi lozim. Pedagogik texnalogiyalarning mohiyati shundaki, har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning extiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularni ijobiy hislat va fazilatlarini shakllantirish, rivojlantirish sanaladi.

Ta'lim texnologiyalari doimo axborotli bo'lgan, chunki ular ko'p xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga yetkazish bilan bog'liq. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiya-lari tubdan o'zgaradi. Kompyuterli texnologiyalar dasturli o'qitish g'oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog'liq ta'limning hali tadqiq qilinmagan yangi texnologik variantlarni ochadi. Ayniqsa, kompyuterli texnologiya mazmuni bir qancha shakllantirilgan modelni qo'llashga asoslangan bo'lib, bu model kompyuter xotirasiga yozib qo'yilgan pedagogik dasturli vositalar va telekommunikatsiya tarmog'ining imkoniyatlari orqali namoyon bo'ladi. Axborot texnologiyalardan faqat o'quv jarayonida emas, balki uzluksiz faoliyat yuritayotgan o'qtuvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan ta'minlaydigan axborot ishida, ta'lim tizimini boshqarishda va kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimida ham foydalanish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta'minlashga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo'nalish bo'lmoqda.

Keyingi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta'lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakillari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi va bermoqda. Demak, ta'lim jarayonida pedagogik texnalogiyalardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshiribgina qolmay, balki ulkan moliya zaxiralarini tejashga imkon beradi hamda xavfsiz, ekologik toza muhitni yaratadi. Axborot texnalogiyalarni joriy

etilishi ta’lim, ishlab chiqarish, boshqa davlat muassasalarining umumiy yondashuvini talab qiladi.

Shunday qilib, ta’lim jarayoniga innovatsion axborot texnologiyalarning joriy etilishi quydagilarga olib keladi:

- ta’lim jarayonini, o‘quvchi va talabaning aniq tayyorgarlik darajasini, qobilyat-larini, yangi materialni o‘zlashtirish su’ratini, qiziqish va mayillarini hisobga olib ko‘proq individual ravishda yordam berish;
- o‘quvchi va talabaning bilish faoliyatini kuchaytirish, uning o‘z-o‘zini takomillashtirish,ta’lim va kasbga qiziqishi hamda intilishini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- ta’lim jarayoning moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va metodlarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;
- ta’lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnologik vositalarini joriy etish yo‘li bilan takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidahmedov.N. Yangi pedagogik texnalogiyalar. Toshkent :Moliya, 2003.
2. Поульсен, Серен. Введение в современную меодику преподавания. Пер. с датск. яз.- Бишкек Кесип 2007
3. Mahmudov Yusuf, Qosimov Asroriddin, “Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishning metodik-didaktik asoslari” Toshkent “Yangi nashr” 2018.
4. Беспалько В.П. Педагоика и прогрессивные технологии обучения.- М. : Изд-во Института проффессионального образования России, 1995.

VIDEOTASVIRDA ODAM QO‘L HARAKATI KOORDINATALARINI ANIQLASH VA KOMPYUTERNI MASOFADAN BOSHQARISH

Namangan viloyat Norin tuman XTB ga qarashli
42-sonli maktab informatika fani o‘qituvchisi
Asqarova Ziyoda Maxkamovna
998973759873
asqarovaziyoda7@gmail.com
Namangan viloyati Norin tumani XTB ga qarashli
25-sonli maktab informatika fani o‘qituvchisi
Ismanova Nafisa Murodjonovna
+998936770769
nafissa87@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada ketma-ket tasvirlarda rangli markerni kuzatish algoritmini qurish qaraladi va web-kamera orqali olinayotgan videotasvirda odam qo‘l harakatini tahlil qilish asosida masofadan sichqoncha vazifasini bajarishni avtomatlashtirish tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tayanch iboralar: videotasvir, harakatdagi ob’ekt, segmentlash, gistogrammali taqqoslash, kontur.

Inson qo‘l yoki barmoqlari harakati bilan o‘z fikrlarini bayon qilishda bilib bilmay qo‘shimcha izoxlar ko‘rsatishga harakat qiladi. Shuning uchun qo‘l (kaft, barmoqlar) harakatidan kompyuter foydalanuvchilari interfeysiga kommunikatsion texnika sifatida samarali foydalanish turli sohalar o‘z o‘rnini topishi mumkin. Qo‘l yoki barmoqlar harakati haqidagi vizual axborotlardan inson va kompyuter munosabatlari tizimi (HCI)ni yaratishda qiziqarli usullarni tadqiq qilish mumkin. Maqolada web-kamera orqali olinayotgan videotasvirda qo‘l barmoqlari harakatini real vaqtda ajratish va koordinatalarini aniqlash hamda sichqoncha kursorini boshqarish algoritmi va dasturini ishlab chiqish qaralgan. Zamonaviy universal texnologiya tasvirlarga ishlov berishda ularning vizual primitivlari (rang xarakteristikalari, shakllari, teksturalari, video uchun esa yangi sahna, harakat parametrlari va ob’ektlari) to‘plami va primitiv qiymatlari bo‘yicha tasvir o‘xshashligining miqdoriy baholarini aniqlash bilan bog‘liq. Vizual primitiv– raqamlangan vizual ma’lumotlar bo‘yicha avtomatik hisoblanadigan tasvir tavsiflari bo‘lib, ularni samarali indekslash va tasvirning vizual xususiyatlarini qo‘llash bilan so‘rovlarni qayta ishlash imkoniyatini beradi.

Kuzatuvdagi tasvirning t vaqtdagi I nusxasini t_0 vaqtdagi I_0 tasvirining vizual primitivlari bilan solishtirish qulay. Tasvir o‘xshashliklarini hisoblashda ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimini qo‘llab, uning mos so‘rovlari orqali jarayonni amalga oshirish mumkin. So‘rovlar taklif etilayotgan tizimda primitivlar to‘plami ifodasi bo‘lishi mumkin. Bunda tizim t_k vaqtdagi I_k (k=1,2,3,….) nusxasining t_0 vaqtdagi I_0 tasvirga vizual o‘xshashliklarini taqqoslab farqlarini hisoblaydi. Avvalo, tizim farqlarni aniqlashda alohida vizual primtivlar qiymatlarini taqqoslaydi va farq darajalarini aniqlaydi. Raqamli tasvrilarni vizual primitivlari asosida taqqoslash etarlicha samarali va universal yondashuvni amalga oshiradi.

Videoma’lumotning katta xajmini inobatga olgan holda undan raqamli tasvirni olishda har bir kadr bir butunlikda indekslanmasdan uni mantiqiy ketma-ketlikdagi alohida qismlar– videofragmentlar holida indekslanadi. Masalani formallashtirishda quyidagicha yo‘l tutish mumkin: qabul qilishda tartiblangan kadrlar to‘plami uzatiladi, ularning ketma-ketlik raqamlari beriladi hamda vaqt birliklari yozib boriladi. Kadrlardan esa raqamli tasvirlar olinib ular ham vaqt bo‘yicha indekslanadi.

Harakatdagi obektni aniqlashda qo‘shni kadrlarning rang gistogrammalarini taqqoslashga asoslangan algoritmni qo‘llash mumkin. Tizim navbatdagi kadrning rang gistogrammasini hisoblaydi va oldingisi bilan taqqoslaydi. Gistogrammalarni qurish va taqqoslash statik tasvirlar bilan birday ishlashni amalga oshiradi. Gistogrammalarni “tekislash”ning qo‘shimcha imkoniyatlari borki, ranglar to‘plamini yorug‘ligi bo‘yicha bo‘lishni qo‘llash mumkin bo‘ladi. Uning mazmuni va maqsadi gistogrammalarni ma‘lum bir ko‘rinishga keltirib olishdir.

Gistogrammalar qurilgandan so‘ng uning medianasi aniqlanadi, so‘ngra gistogrammadagi barcha nuqtalar Original gistogramma ma‘lum nuqtaga almashtiriladi. Bu tartibdagi avtomatik qayta ishlash jarayonini quyidagicha izohlash mumkin: tasvirning ko‘plab real (ayniqsa, oq-

qora va/yoki sifatsiz) nusxalarida amalda birday qo‘shni tasvirlar uchraydi; ular faqat o‘rtacha yoritilganlikdagi yorug‘ligi bilan farqlanadi. Shuning uchun boshlang‘ich gistogrammali tekislash algoritmi qaralayotgan masalalar sinfiga qo‘llanilishi katta va kerakli samaraga erishishga imkon beradi. Kontur – obekt chegarasi bo‘lib, o‘zida yopiq ketma-ketlikdagi (x_s,y_s), $0 \le s \le N$ nuqtalarni ifodalaydi va bundan $(x_s+_N,y_s+N)=(x_s,y_s)$ ni hisoblash qulay. Konturni aniqlash masalasi tasvir teksturasini xarakterlovchi parametrlarni o‘zgarishi yoki ranglar yorug‘ligining keskin o‘zgarishi bo‘yicha lokallashtirish bilan bog‘liq. Tasvirdagi obekt konturlarini hosil qilish quyidagicha amalga oshiriladi: rangli tasvir oq-qora kulrang tasvirga o‘tkaziladi va tekislanadi.

Shunday qilib, ajratilgan obekt uchun indeks uning shakli qanday joylashganligi, o‘lchamlari, shakllarni o‘lchash, o‘rtacha rang kabi harakteristikalari bilan aniqlanadi va kiritiladi. Sahnada harakatni payqash uchun videotasvirdagi ajratilgan soha to‘g‘ri to‘rtburchak bilan qamrab olinadi. Ushbu sohada shakl xarakteristikalari tekshiriladi. O‘zgarishlar uchun ma’lum etalonlar kiritilib o‘zgarishlar darajasi aniqlanadi. Real vaqtda qo‘l barmoqlari harakati haqidagi axborotlarni hosil qilish va ulardan foydalanishda quyidagi qadamlarni belgilab olamiz:

- Videotasvirda odamning harakatdagi qo‘l tasvirini ajratish;
- Qo‘l barmoqlari uchlarini va uning koordinatalarini aniqlash;
- Harakat koordinatalarini Sichqoncha manipulyatoriga uzatish.

Algoritmni engillashtirish uchun qulay sharoitni yaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun barmoqlarga rangli materialli qoplamalar taqishni taklif qilaman. Yani foydalanuvchi ust kiyimi rangidan farqli ravishda ko‘rsatish barmog‘i va boshqa faol barmoqlarga bir-biridan keskin farq qiluvchi rangli qoplamalar kiygiziladi yoki rangli markerdan foydalanish mumkin. Kompyuter foydalanuvchisi qo‘llanilish sohalariga mos tanlangan (fokus masofasi nuqtayi nazaridan) videokamera ro‘parasida qo‘l harakati videoma’lumotini qayta ishlashda quyidagicha yondashuvlarni olib boramiz:

1. Video ma’lumotdan ketma-ket tasvirlarni hosil qilish;
2. Ketma-ket tasvirlarni taqqoslash orqali harakatdagi obektni aniqlash;
3. Harakatdagi ob’ektni (rangli barmoqlarni) identifikatsiyalash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, real vaqtda videotasvirga raqamli ishlov berish va qaror qabul qilishda qo‘llaniladigan algoritmlarni hisoblash xajmi va samaradorligi bo‘yicha optimalini tanlashdan tashqari web-kamera parametrlariga katta bog‘liq bo‘ladi. Videotasvirda qo‘l xarakatini tahlil qilish kompyuterli ko‘rig tizimlarining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi, bu masalani amaliy masalaning maqsadiga ko‘ra qo‘l barmoqlaridgi rangli niqoblarni yoki rangli markerni kuzatish orqali soddalalashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Павлидис Т. Алгоритмы машинной графики и обработки изображений. -М.: Радио и свуаз, 1986.

2. С.С.Содиков, М.Н.Маликов, Тасвирларга сонли ишлов бериш асослари, Т., 1994 й.

3. Журавел И.М. «Краткий курс теории обработки изображений». http://matlab.exponenta.ru/imageprocess/book2/index.php

4. Мамарауфов О.А. Видеомаълумотда харакатдаги об’ектлар модели ва уларни аниқлаш алгоритми. // ТАТУ хабарлари. Тошкент. 2/2012.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TABIATSHUNOSLIK TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Atayeva Roxat Abdullayevna
Xiva tumani 15-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (90) 648 58 90
roxat.atayeva75@inbox.uz
Bobojonova Dilfuza Allaberganovna
Xiva tumani 15-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (91) 431 02 61
dilfuzaxon_8585@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiatshunoslik tushunchalarining klassifikatsiyasi, tushunchalarini shakllantirish bosqichlari, umumiy, geografik va biologik tushunchalar hamda tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tabiatshunoslik tushunchalar, klassifikatsiya, umumiy tushunchalar, geografik tushunchalar, biologik tushunchalar, ekskursiya, sintez, tahlil, taqqoslash, mavxumlashtirish, konktetlashtirish, umumlashtirish yakka tushinchalar.

Boshlang‘ich sinflarda tabiat to‘g‘risidagi bilimlar tarkibiga jonsiz tabiat jismlari va hodisalari, o‘simlik va hayvonlar, odam tanasining tuzilishi va salomatlikni muxofaza qilish, yilning fasllarida qishloq xo‘jalik mehnati to‘g‘risida tasavvur va tushunchalar, oddiy jo‘g‘rofik tasavvur hamda tushunchalar kiradi.

Atrofiolam bilan dastlabki tanishish ularning sezgi organlarining qabul qilishiga asoslanadi. Olamni bilib olishning birinchi bisqichi-bolalarning barcha yangilarni qarab chiqishga iloji bo‘lsa ushlab ko‘rishga qaratilgan tug‘ma intilishdir. Shunga ko‘ra dastlabki tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirishga o‘quvchiga o‘rganish ob’yekti bilan bevosita muloqotda bo‘lish imkoniyatini berishi kerak.

Ekskursiyalarda, kuzatishlar vaqtida o‘quvchilar kundalik xayotning narsalarini qabul qilib, ulargi o‘xshashlik va tafovut belgilarini topadilar. Ularda oddiy tushunchalar shakllanadi. Fikrlash jarayonida bolalarda aniq fikrlar vujudga keladi. Fikr bevosita qabul qilish va tasavvurlar asosida shakllanadi. Fikrlash faoliyati jarayonida bolalarda atrof olam to‘g‘risida tushunchalar shakllanadi. Tushuncha ochib beriladigan fikrlar yig‘indisi uning mazmunini tashkil qiladi. Tabiat jismlari yoki ob’yektlarining birortasi to‘g‘risida bolalar qanchalik ko‘proq fikr aytsalar, tushunchalar mazmun jihatdan chuqurroq bo‘ladi. Tabiatshunoslikni o‘rganishda bolalar oladigan tushunchalar jo‘g‘rofiy (umumiy, aloxida va yig‘ma) va biologik (tur va avlod) tushunchalariga bo‘linadi.

Tabiatshunoslik tushunchalari-bu umumiy muhim belgilari bilan birlashtirilgan ob’yektlar, hodisalar, jismlarining butun guruhi to‘g‘risidagi umumlashtirilgan bilimlardir.

Tushunchalar tasavvurlardan farqlidir. Tasavvur- sezgi organlar faoliyatining, hotiraning yoki tasavvur qilish mahsulidir. Tushuncha – tafakkur mahsuloti hisoblanadi. Tushunchalar qabul qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga keladi.n Tushuncha butun narsalar sinfiga taaluqli umumlashgan mazmunni aks ettiradi. Tasavvurlar tushunchalarning sezgili asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar o‘rtasida keskin chegara yo‘q. Tasavvurlar mazmunning boyib borishi, ularda narsalarning muhim xossalarini tobora ko‘proq aks ettirib borishi bilan umumlashadi va tushunchalarga aylanadi.

Tabiatshunoslikni o‘rganishda bolalar Toshkent, Sirdaryo, Tyan-Shan tog‘lari kabi yagona tushunchalar; tog‘lar, daryolar, shaharlar kabi umumiy tushunchalar; archa, qarag‘ay, terak, namatak, jasmin, oq quyon, kulrang quyon kabi tur tushunchalari; daraxt, buta, quyonlar va boshqa avlod tushunchalari bilan uchrashadilar. Tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida jo‘g‘rofiy tushunchalarini biologik tushunchalar bilan bog‘lanishiga e’tibor bermoq zarur.

Maktabda o‘qishning birinchi yilida bolalar atrof olam bilan tanishish o‘quv kitobidan ertak va xikoyalarni o‘qish, tabiatdagi kuzatishlar asosida o‘simlik va hayvon organizmlari to‘g‘risida umumiy oddiy tabiatshunoslik tushunchalarini oladilar. Kelgusi sinflarda ular tajribalar o‘tkazishda, kuzatishlar, ekskursiyalar, amaliy ishlar vaqtida tabiat to‘g‘risidagi konkret tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Umumiy tushunchalarni shakllantirishda o‘qituvchi: ob’yektlarni maqsadga yo‘nalgan holda

qabul qilib olishlinishni tashkil qilishi;tabiat jismlari va hodisalari to‘g‘risida har bir yangi tushunchani tahlil qilishi va barcha narsalarda, ilgari o‘zlashtirilganlarda takrorlanadigan muhim belgilarni ajratishi; ikkinchi darajali uncha muhim bo‘lmagan barcha belgilarni mavhumlashtirish, buning uchun uncha muhim bo‘lmagan turlanadigan belgili, lekin muhim belgilarini saqlagan (lola va binafsha, boychechak va lola) narsalardan foydalanish lozim.

Tabiatshunoslik tushunchalarni shakllantirishda har xil operatsiyalar: sintez, tahlil, taqqoslash, mavxumlashtirish, konktetlashtirish, umumlashtirishdan foydalanishga alohida ahamiyat berilish kerak.

Yakka tushunchalar – bu yoki boshqa narsalarga, hodisalariga xos bo‘lgan yakka belgilardir. Agar umumiy tushunchalar atamalar bilan mustaxkamlansa, yakka tushuncha nomlar yoki shaxsiy ism bilan ifodalanadi, chunki uning nomida boshqa ob’yekt bo‘lmaydi. Yakka tushunchalarini shakllantira borib, umumiy tushunchani ochishga alohida e’tibor berish lozim.

Tabiatshunoslik darslarida yakka tushunchalardan tashqari yig‘ma tushunchalar ham shakllanadi. Ular umumiy belgilarga ega bo‘lgan yakka tushunchalardat tarkib topadi. Yig‘ma tushunchalarga kiradigan har bir yakka tushuncha o‘zining individual hususiyatini saqlaydi. Tabiatshunoslik tushunchalari bevosita qabul qilish- kuzatishlarga asoslanib, o‘rganilayotgan narsa yoki hodisa to‘g‘risida aniq va ravshan tasavvur hosil qilingan sharoitda to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Tushunchani birlamchi tarzda hosil bo‘lishida ob’yektlar va kurgazma materialning har xil turlari katta ahamiyatga egadir.

O‘quvchilar tafakkurini rivojlantirmasdan, ularni fikrlash ishiga jalb qilmasdan turib tushunchalarning o‘zlashtirilishiga erishish mumkin emas. Tabiatshunoslik tushunchalarni o‘zlashtirishda predmetlararo bog‘lanishlar (musiqa, o‘qish, matematika, ona tili, mehnat, rasm) katta ahamiyatga ega.

Predmetlararo aloqalardan muntazam ravishda foydalanish bolalarning ilgari olingan bilimlarni qo‘llanishiga, o‘quv faoliyatning barcha turlaridan mantiqiy bog‘lanish o‘rnatishga o‘rgatadi.

O‘qituvchi tushunchalar tarkibini bilib, ularni tashkil qiluvchi elementlari bo‘yicha o‘quvchilar bilimini ob’yektiv baholashi mumkin. Tushunchalarni o‘zlashtirishning qadrini bilish o‘qituvchiga o‘qitishning borishini fahmlashga, bilimni o‘zlashtirish jarayoniga to‘g‘ri rahbarlik qilishga yordam beradi. Tushunchalarni ajratib o‘qituvchi tegishli metodik uslublarni tanlaydi va qo‘llanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.Nuritddinova “Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi” T., 2005 yil.

2. V.M. Pakulova, V.I.Kuznetsova. “Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi”. – M., Prosveщenie, 1990.

3. Petrosova R.A., Golov V.P., Sivoglazov V.I. Metodika obucheniya yestestvoznaniyu i ekologicheskoe vospitanie v nachalnoy shkole. – M., 1999.

FALSAFA VA ZAMON

Avliyoqulova Muqaddas Nasulloyevna
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani
17- umumiy o‘rta ta’lim maktabi fransuz tili fani o‘qituvchisi
Telefon :+998906140816
mavliyoqulova0816@mail.ru
Hayitov To‘ymurod Vohid o‘g‘li
SamDU Psixologiya va Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi
Telefon:+998936658868 toymurodxayitov@gmail.com

Anotatsiya : Falsafa olamning mohiyatini bilish, insonning olamdagi o‘rnini, rolini belgilashda san’at va dinning tarkibiy qismi emas, balki mustaqil madaniy hodisa, ijtimoiy ongning alohida bir shakli sifatida rivojlanadi. Zamonlar o‘tishi bilan odamzod baribir falsafaga ehtiyoj sezgan va u insonning ma’naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.

Kalit so‘zlar: paradigmal yangilanish, dialektik va sinergetik tafakkur, geologik omil, falsafiy tafakkur, plyuralizm g‘oyasi, demokratik tamoyil,funksional o‘zgarishlar;

Insoniyat XXI asrga tub ijtimoiy, madaniy va intellektual o‘zgarishlar bilan kirib keldi. Hozirgi zamon fanlar tizimida jiddiy paradigmal yangilanishlar sodir bo‘lmoqda. Buning namoyon bo‘lishini falsafa, tabiatshunoslik, texnikashunoslik, sotsiologiya, tarix va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning predmeti, sturukturasi va funksional o‘zgarishlarida ko‘rish mumkin.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, milliy falsafamizning shakllanishi va rivojlanishida katta ijodiy imkoniyatlar va taraqqiyot istiqboli vujudga keldi. Xususan, yangi ilmiy, falsafiy dialektik va sinergetik tafakkur tarzini shakllantirish, betakror ma’naviy qadriyatlarimiz va zamonaviy fan yutuqlari mushtarakligiga erishish, eng yangi ilmiy va falsafiy yo‘nalishlarni rivojlantirish, ularga metafalsafiy talqin berish falsafamiz oldida turgan dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Bugungi kunda istiqlol tufayli falsafaga, falsafiy ta’limotlar tarixiga xolis ilmiy yondashish imkoni ochildi.Tarixni bilish, undan to‘g‘ri va xolis xulosalar chiqara olish inson ma’naviy kamoloti uchun nihoyatda muhim. Zero, o‘tmishni bilmasdan turib, kelajakni to‘g‘ri tasavvur etish mumkin emas. Gap falsafa tarixi haqida borar ekan, bu haqiqat yanada katta ahamiyat kasb etadi. Birinchi prezidentimiz I.Karimov haqli ravishda ta’kidlagani kabi:”Aslida tarix va falsafa mantiqiy ravishda bir-birini taqazo etadigan, kerak bo‘lsa, to‘ldiradigan, taraqqiyot jarayonlari haqida yaxlit tasavvur beradigan, oq-qorani farqlashda asos bo‘ladigan fanlardir. Biroq bizda haligacha falsafa bo‘yicha talab darajasidagi darsliklar, “Jahon falsafasi”, “Sharq falsafasi” kabi zarur kitoblar yaratilmayotganini qanday izohlash mumkin?...”

Juda ko‘plab tadqiqotchilar yakdillik bilan e’tirof qilganidek, insoniyat madanyatining tarkibiy qismi sifatida yaxlit falsafaning vujudga kelishi qadimgi yunon mutafakkirlari buyuk daxosining maxsulidir. Falsafa olamning mohiyatini bilish, insonning olamdagi o‘rnini, rolini belgilashda san’at va dinning tarkibiy qismi emas, balki mustaqil madaniy hodisa, ijtimoiy ongning alohida bir shakli sifatida rivojlanadi.

Rus tabiatshunosi V.A.Vernadskiyning ta’limotiga ko‘ra, geologik omil sifatida tabiatdagi taraqqiyotni tezlashtirish insonning aql-zakovati va axloqiga bog‘liqdir.

XIX asr oxirida G‘arb falsafasida ko‘plab an’anaviy masalalar yangicha taxlil qilina boshlanadi. Shu vaqtgacha falsafada kam e’tibor berilgan munozara maydoniga olib chiqildi. XIX asrning o‘rtalaridan boshlab noan’anaviy yo‘nalishdagi bir qancha falsafiy oqimlar yuzaga keldi. Bu oqimlar hayot mazmuni, inson va uning mohiyati, yashashning ma’nosi, falsafiy tafakkurning o‘ziga xosligi, falsafada yangi uslublar kabi muammolarga alohida e’tabor bera boshladilar. XX asr falsafasida erkinlik, demokratik tamoyillar, plyuralizm g‘oyalari turli ilmiy qarashlar bilan boyitilganini ko‘rish mumkin.

Zamonlar o‘tishi bilan odamzod baribir falsafaga ehtiyoj sezgan va u insonning ma’naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.

Bu jihatdan quyidagi rivoyat ibratlidir. Milioddan oldingi birinchi asrda yashab o‘tgan buyuk faylasuf Lukretsiyning shogirdlaridan biri unga qarab:”Ustoz, fanning boshqa sohalariga oid ilmlar juda ko‘payib ketdi. Endi falsafani o‘rganishning hojati bormikan?”-debdi. Shunda ulug‘ faylasuf bamaylixotir gap boshlab: “Falsafani Suqrot, Aflotun, Arastu kabi buyuk allomalar yaratgan.

Lekin endilikda insoniyatning ana shunday buyuk mutafakkirlari yaratgan bu fanni o‘rganmaslik har qaysi nodonning ham qo‘lidan keladigan ish bo‘lib qoldi”,-degan ekan.

So‘ngi yuz yil ichida falsafa zamonaviy tadqiqotlar orasida faollashib,tabiiy fanlardan ko‘proq farqlana boshladi. Ushbu davrga oid aksar falsafiy fikrlar tabiiy fanlar nazariyalari va insoniyat g‘oyalari,sog‘lom fikrlash orasidagi munosabatlarni izohlaydi. Keyingi zamonaviy falsafa hozirgi zamon falsafa ko‘tarilishi bilan tugadi,degan gap bahslidir. Zero bugungi kunda ham XIX asr falsafasi shug‘ullangan ba’zi muammolar hozirgi zamon falsafasida dolzarbligini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Sultanova SamDUning falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi(PhD) “Borliq va rivojlanish falsafasi” Samarqand-2019.

2. I.Karimov “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz”. T-“O‘qituvchi” nashriyoti- 2000

3. Q.Nazarov Falsafa fanlari doktori “G‘arb falsafasi” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2004

INFORMATIKA DARSLARIDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Axmadaliyeva Zamira Mamadaliyevna
Namangan viloyati Uychi tumanidagi
7- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi informatika fani o‘qituvchisi
+998974660141
axmadaliyeva@mail.ru

Annotatsiya: maqola informatika darslarininig o‘qitish texnologiyalari va ta’lim sifatini oshirishga yordam beradigan informatik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish haqida.

Kalit so‘zlar: informatika, texnologiya, o‘yin, ijtimoiy tajriba, pedagogika.

Informatika darslarida o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning bir necha samarali jihatlarini olimlar ta’kidlab o‘tishgan. Ya’ni ular mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan bir deya fikrlar bildirishgan. Psixologlarning aytishicha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, xayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga yondashadi. O‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqish, hayotga bo‘lgan muhabbat ortadi, mustaqil shaxs sifatida o‘z fikrlarini bemalol izohlab berishiga katta yordam berib qolmasdan, ta’lim jarayonida dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Informatika darslarida o‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosiy talablarni faollashtirivchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Informatika darslarida o‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘naltirilgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajaraishga bag‘ishlangan bo‘ladi, ular o‘z navbatida quyidagi parametrlarni qamrab oladi: Kommunikativlik; O‘z imkoniyatlarini amalga oshirish; Ijtimoiylashuv;

- Dars samaradorligi;
- Fanga qiziqish.

Informatika darslarida pedagogik quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin:

- Didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;
- O‘quv materiallaridan o‘yin sifatida foydalanish;
- O‘quv faoliyatini o‘yin qoidalariga bo‘ysunishi;
- O‘quv jarayonida didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsuri kiritiladi.

O‘yin texnologiyalarini darslarda qo‘llanilishining afzallik jihatlari shuki, o‘quvchi yoshlarda, avvalambor, har bir qo‘yilgan mavzuni chuqur tahlil etib keyin davom ettitishni shakllantiradi. Mantiqiy fikrlash orqali aqlini charxlaydi. O‘yin teznologiyalarining oliy va o‘rta maktab amaliyotida keng e’tibor beriladi. Misol uchun, tadbirkorlik o‘yinlari nazaraiyasi bilan bevosita bog‘langan holda amalga oshiriladi. O‘yin texnologiyalarini darslarga qo‘llashning yana bir necha afzallik taraflari mavjud bo‘lib, bunda o‘quvchilarning berilayotgan axborotlarni qanday ko‘rinishda anglab olishlarini kuzatish mumkin. Hozirgi paytda maktablarda informatika fanini bir necha qismlarga ajratgan holda o‘rgatilmoqda. Buning asosiy sababi, birinchidan, bu fan o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi bo‘lsa, ikkinchidan, bu fan boshqa fanlarga qaraganda ancha yosh fan hisoblanadi. Bundagi jarayonlar tez- tez o‘zgaruvchanligi bois, bu jarayonga juda sergaklik bilan yondashish talab etiladi.

Mavzuni yoritish davomida, informatika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta’lim jarayonlarida turli didaktik o‘yinli texnologiyalardan foydalanish maktab o‘quvchilarini dars davomida toliqib qolmaslikka, yangi mavzularni xotirada yaxshi saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. W.W.W. Ziyonet.uz

НОМЛАР – ХАЛҚ ТИЛИНИНГ ЭНГ ҚАДИМГИ ЁДГОРЛИКЛАРИ СИФАТИДА

Namangan viloyati Chust tuman
4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani
o‘qituvchisi Axmadjonova Ozoda Sadiqjonovna.Telefon:941520378

Аннотация: Ушбу мақолада номлар яъни киши исмлари ва уларнинг пайдо бўлиш тарихи ҳақида фикр боради.Исмларринг қўйилишига сабаб, қайси тарихий шахсга боғланиши ҳақида мулоҳаза юритилган

Калит сўзлар: ном, тарих, атоқли от, истило, тасаввур, илоҳий, исм.

Тилимиздаги жуда кўп номлар халқимизнинг улкан маданий ҳамда маънавий бойлигидир. Ҳар бир халқнинг кўҳна тарихи бўлгани каби атоқли отларнинг ҳам турли даврларда, хилма-хил шароитлар асосида вужудга келган ва ривожланиб борадиган тарихи бордир. Маълумки, ном қўйиш (аташ) бирор предмат ёки ҳодисани ўзгалардан фарқлаш, ажратиш эҳтиёжи туфайли пайдо бўлган. Тилимизда вужудга келган атоқли отлар (исмлар, жой номлари, уруғ, қабила, халқ номлари, тоғу дарёлар номлари ва бошқалар) луғат таркибининг катта бир қисмини ташкил қилади. Чунки улар таъкидланган эҳтиёжнинг маҳсулидир.

Араб истилосига қадар қўйилган номларда кўпроқ ботирлик, жасурлик рамзи бўлган тушунчалар ифодаланган. Уларда қаҳрамонлик, абжирлик тушунчалари, турли илоҳийлаштирилган тасаввурлар акс этган: Ойкун (Ойдин кун), Ойариғ (нурли ой), Ойқанот (ой қаноти), Кучбарс, Алп ая, Алп Эр Тунга, Бўри, Чуғлан ва б.

Ҳозирги ўзбек тилида Аллоҳнинг гўзал номлари заминида ясалган кўпгина исмлар мавжуд ва улар ўзбек кишиларининг атоқли отларидир: ал-Раҳмон (ўта меҳрибон), ал-Воҳид (ягона, бир), ал-Қодир (қудратли), ар-Раззоқ (барча тирик мавжудот ризқини етказиб берувчи), ал-Азиз (иззат ва қудрат соҳиби) ва ҳ.к.

Халқимизда Оллоҳнинг номлари негизида ҳосил қилинган исмлар катта кўпчиликни ташкил қилади. Улар, асосан, таркибида абд (қул): Абдулла, Абдуқодир, Абдираззоқ; -уллоҳ, -аллоҳ, форсча ғулом (қул) каби компонентларни сақлаган.

Диний руҳдаги ўзбекча исмларнинг иккинчи манбаи бу пайғамбарларнинг номларидир. Маълумки, тарихий манбаларда ёзилишича, жуда кўплаб пайғамбарлар ўтган. Айрим диний манбаларда уларнинг сони 24 минг деб тилга олинади.

“Қуръони Карим”да 25та пайғамбарнинг номи аниқ кўрсатилган: Одам, Идрис, Нуҳ, Ҳуд, Солиҳ, Иброҳим, Исмоил, Исъҳоқ, Яъқуб, Юсуф, Лут, Аюб, Зулкафл, Юнус, Мусо, Ҳорун, Шуайб, Илёс, ал-Ясаъ, Довуд, Сулаймон, Закарийё, Яҳё, Исо ва Муҳаммад.

Юқорида сўз юритганимиз - ономастик бирликларнинг антропонимлар деб юритилувчи киши исмларини кузатишнинг ўзиёқ тилимиздаги бу элементлар халқ тарихи, маданияти, ҳаёт тарзи билан қанчалик зич боғланганини яққол кўрсатиб турибди. Дарҳақиқат, инсон тилининг жуда кўплаб қирралари мавжудки, улар ҳали тўлиқ таҳлил қилинмаган. Халқ тарихини ўрганишда бой материал бериши мумкин бўлган бу хилқат халқнинг маданий-тарихий тараққиёти маҳсулидир. Олмон тилшуноси Якоб Гримм ҳали XVIII асрдаёқ тарихни ўрганишда тилни археология ва антропологиянинг далилларидан юқори қўяди. Унинг ёзишича, халқлар ҳақида суяклар, қуроллар ва мозорларга қараганда жонлироқ бўлган гувоҳ бор. Бу – уларнинг тилидир. Тил – инсон руҳининг нафасидир.16

Шундай қилиб, атоқли отлар халқ тилининг энг қадимги ёдгорликлари бўлиб, халқ тарихи ва унинг ривожланиш босқичлари ҳақида бой маълумот берувчи дурдоналардир. Шунинг учун ҳам уларни номоддий маданий бойликларимиз сирасига киритганмиз. Улар маънавий бойлик бўлиши билан бирга муҳим тарбиявий воситадир.

Адабиётлар:

1. Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис, IV. – Тошкент, 1992. –Б.197.
2. Немис тили тарихи. – Тошкент, 1848. –Б. 61.

THE ROLE OF VIDEO LESSONS IN DISTANCE LEARNING

Axmedova Aziza Abdulloyevna
teacher of ESP for Natural Sciences Department
Bukhara State University
Email: axmedovaaziza01@gmail.com
Teacher of Bukhara region school № 25 Ruziyeva Farog'at
Email: farog'at 75@gmail.com
Telefon: +99890 612 51 51

Annotation: The video classes are one of the main teaching resources in the distance education. Effective tool, use video classes in distance learning is a clear and dynamic way to teach, and usually very pleasing to students. Video classes consist in video recording of educational content.

Annotatsiya: Video darslari masofaviy ta'limning asosiy o'quv materiallaridan biridir. Samarali vosita, masofaviy o'qishda video darslardan foydalanish tushunarli va dinamik o'rganish usuli bo'lib, qoida tariqasida talabalar uchun juda yoqadi. Dars videolari - bu ta'limga oid video.

Key words: video, learning style, richness, teaching methods, instructor, subtitles, learning outcomes, audience, knowledge, range of subjects, quality, effective learning.

Kalit so'zlar: video, o'quv uslubi, boylik, o'qitish usullari, o'qituvchi, subtitrlar, o'quv natijalari, auditoriya, bilim, mavzular doirasi, sifati, samarali ta'lim.

In many parts of the world, video is widely used as a tool to promote teacher learning in initial teacher education and professional development . Video is a unique medium that captures the complexity and richness of classroom interactions, allowing teachers to engage in finegrained analyses of their classroom practices .

Videos capture an audience's attention immediately. Sometimes beginning a presentation with a video is exactly what an audience needs to "wake up" and pay attention to what the presenter has to say. Videos appeal to all levels of learners and learning style.Videos can bring the outside world to students, introducing different cultures, new places and ideas. They provide a great way to integrate new content and language learning at the same time – giving students the opportunity to learn about a whole range of subjects and ideas, at the same time as learning English.

What are the advantages of teaching methods?

- Promotes adult learning.
- Encourages learners to solve problems, connect, prioritise, and incorporate conceptual knowledge.
- Affects the development of attitudes and values.
- Promotes social and intellectual experience.
- Develops oral presentation skills.

There is a proverb "It is better to trust the eyes rather than the ears". We can connect this proverb with the question. I think video create more clarity in understanding the concept. Students will have more interest in listening the class. Some times we will forget a story that we read, but there is a rare chance to forget the film that we saw. So i think, the media education can create this same impact on student. Teachers can easily demonstrate the things though the video so teachers can save half of their energy. Some times, one simple video is enough to explain a big thing. I think there are only few disadvantages,

It is some times more time consuming and little costly.

Role of teacher will change from instructor to facilitator

- People are used to getting content quickly, so a video that is 60 to 90 seconds long is more effective than a wall of text.
- Videos are memorable and visually attractive which makes them great for marketing purposes. ...
- Video makes complex things clearer and less frightening for the audience.
- Video is emotional.

The visual and auditory nature of videos appeals to a wide audience and allows each user to process information in a way that's natural to them. The use of videos in teaching and learning serves to not only benefit students, but also teachers and their affiliated institutions.

Video production requires certain knowledge and skill. If you are not confident in doing alone and have condition to pay a professional help, better, otherwise, study and make attempts until achieve a satisfactory result. To help, check out some tips on how to produce good video classes in distance learning:

One of the advantages that online courses and video classes in distance learning offer is the possibility of being fully inclusive. In addition to not require that the student move, using subtitles, audio and images, it is possible to meet people with limitations and different abilities. Well produced, a video classes in distance learning has great appeal and can be the difference that makes the student chooses your online course. Along with video classes offer materials that complement what the student has seen in the videos.

The use of video classes in distance learning, offers many benefits for the student and contribute to an effective learning. In addition, video is a trend and will continue for years to come, along with other resources such as the micro learning, storytelling and games.

The segment of online education recognizes the great advantage of using video classes in distance learning, indicating as a method of interactive learning and a trend that should not be overlooked by those who produce online courses.

The list of used literature:

1. https://www.distance.learning-college-guide.com/index.html
2. http.//distance learning college guide .com /index html
3. Designing a High-Quality Online Course (added 19-May-2020) The information on this page provides local educational agencies with research-based guidance that can support developing and delivering high-quality distance learning.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MILLIY G‘OYA TUSHUNCHASINI SHAKILLANTIRISH

Namangan viloyati Chust tumani XTB ga qarashli
9- sonli maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Axunova Matlyuba Toxtaxodjayeva

Annotatsiya: Insoniyatning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o‘zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo‘lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg‘otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o‘tishda o‘ziga qo‘shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo‘lgan milliy g‘oyani tayanch va suyanch deb biladi.

Kalit so‘zlar: Shukronalik tuyg‘usini, mustaqillik, el-u yurt, mustaqil xalqmiz farzandlari, boshlang‘ich sinf,

Inson uy qurishdan oldin uning rejasini chizib oladi. Yo‘qsa, ishni nimadan boshlab, nimadan tugatishni, qanday va qancha mablag‘, material sarflashni bilmasdan boshi qotadi. Mustaqillikka erishib, yangi jamiyat qurmoqchi bo‘lgan xalq ham o‘zining asosiy maqsadlarini aniq belgilab oladi. Bu maqsadlar uning milliy g‘oyasida aks etadi.

Bir haqiqatni doimo yodda tutingki, bugun biz bahramand bo‘lib yashayotgan mustaqil hayot ota-bobolarimiz uchun asrlar davomida ezgu orzu, buyuk g‘oya bo‘lib kelgan. Ajdodlarimizning ana shu yo‘lda uzoq

vaqt mobaynida olib borgan mashaqqatli kurashlari, og‘ir mehnatlari tufayli biz hozirgi erkin va ozod kunlarga erishdik. Xalqimiz mustaqillik yillarida moddiy va ma’naviy tomondan dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasdan yashash, rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallash uchun intilayotgan ekan, bu yo‘lda biz el-u yurtimizga tayanch bo‘lishimiz muqaddas farzandlik burchimizdir. Ayniqsa boshlang‘ich ta’limda bu g‘oyalarni shakillantirishimiz kerak.

Milliy g‘oyamizda mujassam bo‘lgan ezgu orzu-intilishlar asrlar davomida xalqimizning qalbida yashab, uning amaliy ishlarida ma’lum darajada aks etib kelgan. Lekin ularni to‘liq ro‘yobga chiqarish, xalqimiz, uning fidoyi farzandlari qanchalik harakat qilmasin, yetarli tarixiy sharoit bo‘lmagani tufayli oxiriga yetmasdan qolavergan.

Masalan, XX asr boshlarida yurtimizda katta ma’rifiy ishlarni amalga

oshirgan jadidlar ilm-ma’rifat tarqatish, yangicha usuldagi maktablar, kutubxonalar, teatrlar ochish, gazeta-jurnallar tashkil etish orqali Vatanimizni ravnaq toptirish, xalqimiz hayotini obod va farovon qilishga

intilgan edilar. Ammo yuqorida zikr etilgan tarixiy sharoit – mustaqillikning yo‘qligi sababli ularning harakatlari oxiriga yetmadi.

Endi biz mustaqil xalqmiz farzandlarimiz ozod . Ularga hamma sharoitlar mujassam. Endigina maktabga qadam qo‘ygan o‘quvchi yoshlar ongiga milliy qadiryatlarimizni singdirishimiz kerak. Buni esa boshlangich ta’limdan boshlash maqsadga muofiqdir.Xo‘sh unda biz o‘qituvchilar nimalarga e’tibor berishimiz kerak;

1. Bolalarni ilk maktab qadamidan boshlab tog‘ri fikrlashga o‘rgatish
2. Ularni har tomonlama tarbiyalash
3. Oilada o‘zini qay tarzda tutishini yaqin insonlaridan so‘rab bilish
4. Ularga turli tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazib berish
5. Shukronalik tuyg‘usini shakillantirish
6. Eng asosiysi o‘z fikrini qurqmasdan aytishga o‘rgatish

Bu qamrovli ishlarni har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z zimmalariga olishi, shu asnoda har bir o‘quvchi yosh bilan ishlashi zarur. Shundagina biz boshlagich ta’lim o‘quvchilari ongini tubdan o‘zgartirib, ular ongiga miliy g‘oya tushunchalarini singdirgan bo‘lamiz.Chunki, milliy g‘oyamizni yaratishdan maqsad – yurtdoshlarimiz, avvalo, siz kabi yoshlarni ona Vatanimizni chin dildan sevib, uning taqdiri va kelajagi uchun kuyunib, o‘zining kimligi, qanday ulug‘ xalqning farzandlari ekanini anglab, g‘urur bilan yashaydigan insonlar etib tarbiyalashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma’naviyat» nashriyoti,
2. 1. AzizxoʻjaevaN.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. 2003
3. Shavkat Mirziyoyev//. Xarakatlar strategiyasi- Adolat nashriyoti// 112-bet. 2017
4. Хуршид Тўхтаев, Шерзод Бобоёров//Абу Али Ибн Сино ёшлар талълим -тарбияси туғрисида//2019.
5. Ogʻayev S. Ilgʻor pedagogik texnologiyalar-hayotiy ehtiyoj. “Xalq ta’limi” jurnali, 2001

THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE TEACHING METHODS

Aymuratova Gulziyra Taumuratovna
Qoraqolpog'iston Respublikasi
Qanlikol tumani 4-son maktabining ingliz tili
fan o'qituvchisi Telefon: 998907368311 gulziy1875@gmail.com.

Annotation: *This article is about the importance of interactive teaching methods of English. Such methods and technologies brighten and quicken the reaction of the students to act. The variety of delivering of lessons encourages the students to reveal their abilities, which were hidden before.*

Key words: *language teaching methods, communicative language teaching, direct method, interactive, natural app*

A teaching method is formed in the teaching process through the interaction between the teacher and learner. Within the existing learning conditions, the learning process is considered as an interaction between the teacher and student, aiming to transfer common knowledge, skills, and values to the student.

An interactive approach involves interaction in dialogue mode ("inter" - reciprocally, "act" – do, perform). In other words, an interactive teaching method is a form of learning and communicative activity in which students are involved in the learning process and reflect on what they know and what they are thinking.

Unlike a traditional teaching method oriented on the teacher whose main function is to assist learners and facilitate, interactive learning focuses on students 'needs, abilities, interests.

Interactive method

Among widely spread and popular interactive approaches, we can single out the following:

1. Creative tasks;
2. Games (role-plays, imitations, business and development games);
3. Use of human resources (excursions, inviting experts);
4. Social Projects;
5. Use of new material (interactive lectures, video-audio materials, student in the role of a «teacher», Socratic dialogue, asking questions);
6. Solving tasks (associative maps, brain storming, case analysis).

Practice proves that using the above-mentioned interactive methods helps to achieve the results of modern education. They help learning process to be conducted in such a way that all students are equally involved in the cognitive process, each individual contributes to the teaching process, students exchange information and ideas.

Interactive brainstorming is typically performed in group sessions. The process is useful for generating creative thoughts and ideas. Brainstorming helps students learn to pull together. Types of interactive brainstorming include: - Structured and unstructured; - Nominal group relationships; - Online interaction such as chat, forums and email; - Team-idea mapping; - Group passing; - Individual brainstorming. The main thing about them is to create favourable conditions to use them skillfully during the lesson because they make any lesson more interesting and fruitful. These technologies have been developed and perfected during the years that is why they can be used in all types of lesson.

As a conclusion Interactive methods in multicultural education allow students to have not only knowledge and compassion for others but also be able to make rational decisions in any situation in order to develop the most acceptable models of thinking, action, and communication.

References:

1. Richards Jack C., Theodore S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge UK, 2001.
2. http://www.studymode.com/essays/Interactive-Methods-Of-Teaching-English-Through-215214.html
3. Kevin Yee. Language Teaching Methods, 2000.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TA’LIM BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

Azimova Habiba Eshniyozovna,
Navoiy viloyat Zarafshon shahar 2-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, bosqichma bosqich amalga oshiriladi.Darslarda ko‘proq o‘quvchilarni diqqatini jalb qilish uchun innovatsion pedagogic usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.Bu kabi o‘qitish texnologiyalari bolalarning o‘z “men”ini shakllantirishga fanga bo‘lgan qiziqishini ortib borishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion usullar, pedagogik faoliyat, o‘qitish texnologiyasi, AKT.

Bizga ma’lumki barcha davrlarda yosh avlodga ta’lim- tarbiya berishga dolzarb masala sifatida qaralgan. Yoshi ulug‘lar bejizga “yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir ” deb aytishmagan. Bolalarni jamiyatga foyda keltiradigan yetuk inson qilib tarbiyalash uchun, voyaga yetgach o‘z yo‘llarini to‘g‘ri topa bilishlari uchun boshlang‘ich sinfdagi ta’lim – tarbiyaning o‘rni muhim jarayonlardan biridir.O‘quvchilar boshlang‘ich sinfda boshqa sinflarga qaraganda ma’lumotlarni yaxshiroq qabul qilishi psixologiya fanida ham isbotlangan. Lekin, shu bilan birga boshlang‘ich sinflarning fikrlari tarqoq va juda bo‘linuvchanligini ularning bir narsadan tez zerikib yoki chachab qolishlarini hisobga olgan holda, darslarni innovatsion usullardan foydalanib qiziqarli tashkil qilish bolada fanga bo‘lgan ishtiyoqni yanada oshirishga xizmat qiladi. Yangi kirib kelayotgan texnologiyalardan foydalanmasliknafaqat yosh o‘rganuvchilarni darsdan zeriktiradi, balki ta’lim samaradorligini ham pasaytiradi. Bugungi tobora rivojlanib va zamonaviylashib borayotgan dunyoda o‘qituvchilarning o‘z kasbiga puxta yondoshgan holda darslarni tashkil etishi talab darajasiga ko‘tarilgan. Ustozlar o‘z ustilarida ishlab, pedagogic hamda o‘z fanlariga oid bilimlarni doimiy oshirib borishlari, ta’lim sohasidagi yangiliklarni o‘rganib borishlari juda muhimdir. Dars jarayonlarini real hayotdagi voqealar bilan bog‘lab, innovatsion texnologiyalardan foydalanib tashkil qilinishi sifatli va samarali ta’limga asos bo‘la oladi.

Innovatsion texnologiya birikmasini o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, innovatsiya- inglizcha so‘z bo‘lib, yangilik kirirtish, yangilik degan ma’noni bildiradi. Texnologiya- yunoncha “texnos” san’at, mahorat va “logos” fan ma’nosini anglatadi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, innovatsion texnologiya – ta’lim – tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashishdir. Innovatsion usullardan o‘z o‘rnida va to‘g‘ri foydalanish uchun o‘qituvchilardan quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi:

- AKT bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishlari;
- Yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha xorijiy tajribalardan xabardor bo‘lishlari;
- Ta’lim jarayonini tashkil etishda didaktik o‘yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati,dars jarayonida harakatli o‘yinlardan unumli foydalana bilish ko‘nikmasi;
- Darslarni internet tarmog‘iga bog‘lab o‘ta bilishlari;
- O‘z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid ma’lumotlarni doimiy kuzatib borishi;

Dars Jarayonida barcha o‘quvchilarni bir vaqtda darsga qiziqtirish uchun turli interfaol usullardan foydalanamiz. Atrofdagi olam va o‘zini anglashdagi kichik yutuqlar ham butun o‘quv faoliyatini g‘zroyib va maftunkor qiladi. O‘quvchi yoshlarga bilim berishda, darslarni samarali tashkil qilishda quyidagi innovatsion pedagogik usullar foydalidir:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘zini sinfdoshlari oldida erkin tuta olish va ko‘rsata olish juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun sinfda maqtanchoqlar kunini tashkil etish foydali usul. Bundan tashqari, dars mavzusiga bog‘lab bolalar bilan birgalikda kichik hikoyalar va ertaklar tuzish ularning fikrlash qobilyatini shakllantiradi va dunyoqarashining o‘sishiga yordam beradi. O‘quvchilarni muammolai vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topishga ko‘mak beradigan, hamda, guruh bo‘lib ishlashga o‘rgatadigan interfaol usullardan yana biri bu- “Tez yordam” metodi. Buning uchun mavzuga mos bo‘lgan biror bir surat yoki hikmatli so‘zlar turli bo‘laklarga bo‘linib o‘quvchilarga tarqatiladi. Har bir o‘quvchining konvertida bir yetishmaydigan qism bo‘lib uni do‘stlarining konvertlaridan foydalangan holda to‘ldirishi kerak bo‘ladi.

“Baliq skeleti ” texnologiyasi- Ushbu usul baliq model chizmasi yordamida namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismlariga, ya’ni baliq skeletining suyakchalariga muammoning yechimi yozib boriladi. Bu metod juda keng qamrovli bo‘lib, uni deyarli barcha fanlar uchun qo‘llasa bo‘ladi.

Venn diagrammasi- ushbu texnologiya o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishlash, o‘rganilgan mavzuni yodida saqlash, so‘zlab berish va dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa o‘rnida muhtaram Prezidentimizning ushbu so‘zlarini keltirgan holda fikrlarimni tugatmoqchiman: “Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarimizga bog‘liq.”Shunday ekan, biz o‘qituvchilar bu ishonchni oqlashimiz uchun tinimsiz o‘z ustimizda ishlashimiz, darslarni tashkil qilish jarayonida yangi pedagogic texnologiyalardan foydalana olishimiz kerak.

TARBIYA — INSONNI SHAKLLANTIRISH OMILI

Azimova Mohidil Islomjonovna,
Namangan viloyati, Kosonsoy tumani 16-maktab rus tili fani o‘qituvchisi
Telefon: +998945045460
mohidilsalomova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyaning nimalardan iborat ekanligini, insonni qanday mavjudot ekanligini anglatuvchi ma’lumotlar berilgan. Tarbiyani shakllantirishda nimalarga e’tibor berish kerak ekanligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, ong, munosabat, qobiliyat, shaxs, bilim.

Bola tug‘ilishi bilan unga ism qo‘yiladi, lekin uni tarbiyalash ancha avval boshlanishi kerak. Bola ona qornidaligidayoq uni tarbiyalash unga mehr berish lozim bo‘ladi. Tarbiya insonni ong orqali hosil qilinadigan o‘zgacha fazilati deyish mumkin.

Tarbiya shaxsni shakllantirish omillaridan biridir. U shundan iboratki, kishilar turli vositalar bilan ma’lum bir maqsadga o‘z tarbiyalanuvchilarida ma’lum holatni hosil qilish va rivojlantirishni hoxlaydi. Tarbiya shaxsni shakllantirishning boshqa omillaridan sifat jihatdan shu bilan farq qiladiki, tarbiyachi o‘z oldiga ongli suratda ma’lum bir maqsad qo‘yadi va shu maqsadiga erishishi uchun intilib, uni amalga oshirish vositalarini topadi. Shunday qilib, tarbiya shaxsning muayyan yo‘nalishida shakllantirish maqsadi bilan turli odamlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Mashhur pedagog K.D.Ushinskiy “Tarbiya san’ati shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba’zilarga esa juda oson ish bo‘lib tuyuladi – odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo‘lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo‘lib ko‘rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishni e’tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug‘ma qobiliyat va malaka ya’ni ko‘nikma kerak deb o‘ylaydilar: lekin juda kam odam sabr-toqat tug‘ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilishadi” – deb juda o‘rinli ta’rif bergan edi. Haqiqatan ham tarbiya jarayoni sabr-toqat, ba’zilar tug‘ma qobiliyat, ko‘nikma va malakadan tashqari maxsus bilimlar kerakligini ko‘pchilik bilishmaydi. Buning uchun oliygohda ana shu maxsus bilimlarni egalash nihoyatda muhimdir.“Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa tarbiyadir” – degan Demokrit.

Tarbiyaning negizini tashkil etadigan qonuniyatlarni bilish bugungi kunda odamlar bilan (yashaydigan) ishlaydigan har qanday mutaxassisning ishchanlik malakasini bildiradigan belgilaridan bo‘lib qolmoqda.

Tarbiya hamma narsa tarbiyachining shaxsiga asoslanishi kerak.“Shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga faqat shaxs ta’sir ko‘rsata oladi, xarakterni faqat xarakter vositasi bilan vujudga keltirish mumkin” – degan edi Ushinskiy. Haqiqatni ham odam odamga qo‘ygan maqsad asosida o‘quvchilarga, yoshlarga o‘z xarakteri bilan, xarakterni shakllantiradi.

Shunday qilib, inson haqidagi fanlar tizimida pedagogikaning tutgan o‘rni shu bilan belgilanadiki, u shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, tarbiyalash, ma’lumotli qilish va o‘qitish qonuniyatlarini tadbiq qiladigan fan deb ta’riflash to‘g‘ri bo‘ladi.Yuqorida asoslangan pedagogika fanining asosiy kategoriyalari o‘zaro uzviy bog‘liq holda olib borilib barkamol insonni shakllantiradi. Demak, tarbiya jarayoni umuminsoniy milliy va har bir shaxsnining o‘ziga xos qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy jarayonlardir deb xulosa chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R, To‘rayeva O., Pedagogika. T: «O‘qituvchi», 2001 y.
2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2000 y.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARNING ROLI

Buxoro shahar 20-son umumta’lim maktabining 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Azimova Umida Latipovna
Telefon: +998(93) 960 00 45 umida9600045@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ulardagi mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish, ayrim o‘quvchilardagi yashirin qobiliyatlarni kashf etish va yuzaga chiqarishda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarning ahamiyati yoritib berilgan .

Kalit so‘zlar: qobiliyat, iqtidor, iste’dod, innovatsion texnologiya, interfaol metodlar, “Tengingni top”, “Dunyoni qutqar”, “Sehrli pillapoyalar”, “Mening davomchim”, texnologiyalar asri, komil inson.

Har bir davlatning rivojlanishi, taraqqiy etib dunyoga yuz tutishi shu mamalakatning yoshlari iqtidoriga bog‘liqdir. Chunki, bilimli, har tomonlama yetuk va iqtidorli yoshlar kelajagimiz garovidir. Bunday iqtidorli, har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalash esa zamonaviy pedagogikamizning oldiga qo‘ygan eng ulkan maqsaddir.

Dunyoga kelgan har bir bola muayyan bir yo‘nalishdagi qobiliyatga ega bo‘ladi. Ba’zi bolalarning qobiliyati uning harakatida, faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Lekin, shunday o‘quvchilar borki, yashirin iqtidor sohibi bo‘lishadi. O‘z ustida doimiy ishlaydigan mohir pedagog esa ana shunday o‘quvchilarning yashirin qobiliyatlarini ko‘ra olishi, his qilishi lozim va ularning iqtidorlarini yuzaga chiqarish uchun doimiy harakatda va izlanishda bo‘lishi lozim.

Darslarni innovatsion metod va interfaol usullar bilan qurollangan holda tashkil qilish o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim tizimi va yaratilayotgan o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari ham o‘quvchilarning iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan.

Ta’lim- tarbiya jarayonida o‘quv mashg‘ulotlarining doimiy ravishda bir xilda takrorlanishi o‘quvchilarda loqaydlik, bilim olishga nisbatan mas’uliyatsizlik kayfiyatini hosil qiladi, iqtidorli o‘quvchilarda esa fanga bo‘lgan qiziqishlarini so‘ndiradi. Bunday holatlarning oldini olishning eng samarali yo‘llari ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni izchil va maqsadga muvofiq ravishda tatbiq etishdir.

O‘quvchilarning iqtidori, iste’dodi va qobiliyatini ularning qiziqishlariga qarab aniqlash mumkin. Mahoratli o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida ulardagi qobiliyatlarni rivojlantirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirmog‘i lozim.

- Har bir darsni qiziqarli, tushunarli, AKT vositalari bilan boyitgan holda mazmunli qilib tashkil qilish.
- O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib, iqtidorlarini rivojlantirib borishi.
- O‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanishi.
- Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashni izchil ravishda bosqichma- bosqich amalga oshirib borishi lozim.

O‘quvchilardagi mavjud iqtidorni kashf etish va uni rivojlantirish uchun ta’lim- tarbiya jarayonida darslarni ko‘rgazmali, ko‘rsatmali, multimediali va albatta innovatsion metodlarga asoslanib tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Mana shu maqsadni ilgari surgan holda, ta’lim jarayoniga ijodiy yondoshib, o‘zimning “Tengingni top”, “Dunyoni qutqar”, “Sehrli pillapoyalar”, “Mening davomchim” va h.k. kabi usullardan keng foydalanaman. Chunki, har bir o‘quvchining nimagadir iqtidori bo‘ladi. Ayrim o‘quvchilarning yozma nutqi, boshqalarining og‘zaki nutqi, kimningdir hisoblash malakasi, yana kimningdir tafakkur ko‘lamining keng bo‘lishi, ayrim o‘quvchilarning esa rasm chizish qobiliyati, ayrimlarning esa yaratuvchanlik qobiliyati, ijod qilishga qaratilgan iqtidori va qiziqishi kuchli bo‘ladi.

O‘quvchilarda mana shunga o‘xshagan qobiliyatlarni yuzaga chiqarishda xizmat qiladigan “Mening davomchim” metodining mazmun- mohiyatini ochib bermoqchiman. Bu metoddan kichik guruhlarda ishlash anchagina qo‘l keladi. Masalan, o‘qish darsida yangi mavzuni tushuntirgandan so‘ng darsning mustahkamlash bosqichida ushbu metoddan foydalanish yaxshi

samara beradi. Misol uchun 4- sinf o‘qish darsligida berilgan Qudrat Hikmatning “Qish to‘zg‘itar momiq par” she’ri bilan o‘quvchilarni tanishtirgandan so‘ng bu metodga murojaat qilamiz. Bunda guruhdagi har bir o‘quvchi bir- birining ishini davom ettirmog‘i kerak bo‘ladi. Guruhdagi birinchi o‘quvchi qish fasli haqida ijodiy ish yozadi, ikkinchi o‘quvchi og‘zaki matn tuzadi, uchinchi o‘quvchi qo‘lidan kelganicha qofiyalarni kelishtira olmasa ham she’r ijod qilishga harakat qiladi, to‘rtinchi o‘quvchi qish manzarasini ifodalovchi rasm chizadi, beshinchi o‘quvchi applikatsiya usulida rangli qog‘oz, yelim, qaychidan foydalangan holda manzara hosil qilsa, oltinchi o‘quvchi esa plastlindan foydalanib mavzuga oid narsalarni yasab ijod qiladi. Bu metod orqali sinfning barcha kichik guruhidagi o‘quvchilarning barchasi topshiriqlarni bajarishga jalb etiladi va har bir o‘quvchi topshiriqlarga ijodiy yondoshadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning iqtidorini, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratib beradi.

O‘quvchilardagi mana shunga o‘xshash qobiliyatlarni rivojlantirish, ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttirish, hayotga shaxdam qadamlar tashlashiga turtki bo‘lish albatta biz pedagoglar zimmamizga yuklatilgan vazifadir. Bu mas’uliyat har qachongidan ham yuksak va sharaflidir. Bu mas’uliyat yurt kelajagi bo‘lgan yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash va kamol toptirish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘qish kitobi 4- sinf. TOSHKENT “YANGIYUL POLIGRAPH SERVISE” 2019.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahurat.- T.2003.TDPU
3. www Ziyonet.uz.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SIFATNI O‘RGANISH TIZIMI. MAVZUNI O‘RGANISHNING VAZIFALARI. SIFATNI O‘RANISH JARAYONIDA LEKSIK-STILISTIK ISHLAR.

Azimova Odina Jamoliddinova
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
28-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel:+998990556509

Annatatsiya: Ushbu maqolamda ona tili darslarida so‘z turkumlatini o‘rgatilishi. Bunda sifat so‘z turkuminig o‘rgatish usullsri va tushuntirish yo‘llari haqida yozilgan

Kalit so‘zlar: Sifat, bilim, ko‘nikma, malaka, suhbat metodi va boshqa so‘zlar.

Sifatni o‘rgatish tizimi materialni leksik va grammmatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashib boradi. O‘quvchilar birinchi va ikkinchi sinfda sifatning leksik ma’nosini kuzatadilar, sifatga Qanday? Qanaqa? so‘rog‘ini berishga o‘rganadilar: Uchinchi sinfda sifat so‘z turkumi sifatida o‘rganiladi; To‘rtinchi sinfda ilgari o‘rganilganlarni takrorlanib, Grammatik materialga bog‘liq holda qip-qizil, yam-yashil kabi orttirma darajadagi so‘zlarning yozilishini o‘rgatiladi. Ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma’lum bo‘lgan sifatlarning ma’nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o‘rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat shaxs va narsaning belgisini bildiradi. Sifatning leksik ma’nosi uni ot bilan bog‘liq holda o‘rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun birinchi sinfdanoq o‘quvchilar e’tibori sifatning otga bog‘lanishini aniqlashga qaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda “ Sifat ” mavzusi quyidagi izchillikda o‘rganiladi:

1) Sifat bilan dastlabki tanishtirish (I, II sinf) ;
2) sifat haqida tusuncha berish (III sinf)
3) Shu grammatik mavzu bilan bog‘liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o‘zlashtirish (IV).

Birinchi bosqich.

Sifat bilan dastlabki tanishtirish sifatning leksik ma’nosi va so‘roqlari ustida kuzatish o‘tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo‘lib, uning rangi, mazasi, shakli, xil xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma’nolarini aniqlash talab etiladi. O‘quvchi predmetni yoki uning rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. O‘qituvchi atrofimizni o‘rab olgan predmetlaring o‘z belgilari borligini, ular bir-birlaridan shu belgilari bilan farqlanishini yana bir ikki misol bilan tushuntiradi.

2-bosqich.

Bu bosqichda asosan 2 vazifa; Sifat tushunchasini shakllantirish va o‘quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrini aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish hal qilinadi.

Uchunchi bosqich.

Bu bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og‘zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish bilan bog‘liq holda –roq qo‘shimchsi bilan qo‘llangan sifatlarni va ko‘m-ko‘k, yam-yashil kabi sifatlarni to‘g‘ri yozish malakasi shakllantiriladi. Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilaniladiva o‘quvchilar nutqini o‘stirishga qaratiladi

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘rgatishda bosqichma-bosqich o‘rgatilsa o‘quvchi sifat so‘z turkumini tushunishda qiynalmaydi va yaxshi natija beradi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili darsliklari 1-2-3-4-sinflar Ona tili o‘qitish metodikasi Qosimova N

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.

Azizova Mavjuda Kamolidinovna.
Namangan viloyati Namangan shahar
19-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.
Tel:+998931796600

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematika fanini o‘qitish va o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: matematik masalalar, ko‘nikma, malaka, arifmetik amallar, sahnalashtirilgan masalalar, ko‘rgazmali masalalar.

Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lganligi sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e’tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ma’suliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi ma’suliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Hozirgi paytda maktablarda boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo‘yicha bilimlar berish bilan birga ularga o‘rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo‘lishini ta‘minlash, ularni qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo‘llashlari uchun zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish boshlang‘ich matematik ta‘limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. Shu nuqtai nazardan o‘quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to‘plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo‘llashga o‘rgatish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta‘lim mazmuni va o‘rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o‘zaro aloqadorlikda va o‘quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo‘shgan holda o‘qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash o‘qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta‘limda matematika o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham o‘quvchilar intellektual tafakkurini shakllantirish asosida o‘quvchilar qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi. Demak, boshlang‘ich sinflarda arifmetik amallar tushunchasini mohiyatini va hisoblash usullarini yetkazish uslubiyotini ishlab chiqish o‘z ichiga o‘quvchilarda umuman boshlang‘ich matematika asosiy tushunchalarni shakllantirish va ularni amalda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda turli masalalarning o‘rni katta. Men quyida ana shunday masalalarning ayrim turlariga to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Sahnalashtirilgan masalalar. Sahnalashtirilgan masalalarga katta e‘tibor beriladi. Bu masalalarda bolalarning kuzatgan, ko‘pincha o‘zlari bevosita bajargan harakatlari aks ettiriladi. Bu yerda savolga javob berish emas, balki bu berilgan sonlar ko‘rgazmali asosida ko‘rinib turishi muhimdir. Birinchi sinf bolalari ko‘pincha masalani yechishni bilmaydilar, chunki ular u yoki bu harakatni ifodalovchi (sarf qildi, bo‘lishib oldi, sovg‘a qildi va hakozo) so‘zlarning ma‘nosini tushunmaydilar. Shuning uchun maktabda, tayyorlov guruhida u yoki bu harakatni ifoda etuvchi so‘zlarni mazmunini ochib berishga alohida e‘tibor berish kerak. Shu maqsadda masala asosiga qanday amaliy harakatlarni kiritish zarurligini hisobga olish kerak. Bunda qarama-qarshi harakatni: keldi-ketdi, yaqin kelishdi-uzoqlashdilar, oldi-berishdi, ko‘tarishdi-tushirishdi, olib kelishdi- olib ketishdi, uchib ketishdi nazarda tutuvchi yig‘indi va qoldiqni topishga oid masalalarni taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Ko‘rgazmali masalalar. Dastlab bolalarga mavzu mazmuni to‘g‘risida gapiriladi, hamda berilgan sonlar tasvirlangan rasmlar ko‘rsatiladi. Rasm bo‘yicha birinchi masalani o‘qituvchining o‘zi tuzadi. U bolalarni rasmlarni ko‘rib chiqishiga, berilgan sonlarni hamda miqdoriy munosabatlarning o‘zgarishiga olib kelgan hayotiy harakatlarni ajratib olishga o‘rgatadi.

Masalan, rasmda 5 ta shar ushlagan bola tasvirlangan, u 1 ta sharni qizchaga bermoqda. Rasmni kuzatayotib o‘qituvchi: Bu yerda nima tasvirlangan? Bola nima ushlab turibdi? Unda nechta shar bor? U nima qilmoqda? Biz nimani bilamiz? Masalani shartini tuzing. Nima haqida so‘rash mumkin? deb so‘raydi. O‘qituvchi berilgan sonlarni o‘zgartirib, bolalarni ayni bir mavzuda har xil mazmundagi yig‘indi va qoldiqni topishga oid masalalarni o‘ylab topishga, hikoya qilishga o‘rgatishda foydalanadigan hohlagan mazmundagi rasm asosida masala tuzishga undaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar tushunchasiga doir qiziqarli masalalar va ko‘rgazmalilik, predmetlar vositasida, nazariy mantiqiy savollardan foydalanish na faqat o‘quvchilarning arifmetik amallar chuqur o‘rganishga, ularda mantiqiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda asosiy boshlang‘ich matematik tushunchalarning nutqda o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi va ularni bosqichma-bosqich tafakkur usullari mohiyatini tushunishlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Jumaev M.E, Tadjieva Z.G. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent. Fan va texnologiya. 2005 y

2. Jumaev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi Toshkent. Ilm Ziyo.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA ONA TILI DARSLARINI O‘RGATISH METODIKASI VA SAMARALI YO‘LLARI

Babojanova Gulshoda Raximberganovna
Xiva tumanidagi 6-son maktab
Meyliyeva Muxayyo Tangriberganovna
Xiva tumanidagi 32-son maktabning
boshlangich sinf o‘qituvchilari

Annatotsiya: O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish hamda oliy o‘quv yurtida ta‘lim olishi mobaynida uni kasbiy va shaxsiy rivojlanishtirish shakl va metodlarini rivojlantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi.

Kalit so‘z. Pedagog, kasbiy, fe‘l, so‘z turkumi, grammatik, suhbat, og‘zaki.

Pedagoglarni tayyorlashda, ularni kasbiy shakllantirishda maxsus fanlarning o‘quv-uslubiy majmuasini yaratish, o‘qitishning yangi metod va shakllarini tadbiq etish zarur.

Fe‘l - mavzusini o‘rganishda asosiy vazifalar: so‘z turkumi sifatida fe‘l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o‘quvchilar nutqini fe‘llar bilan boyitish hamda og‘zaki va yozma nutqda fe‘ldan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog‘liq holda ayrim imloviy qoidalarni o‘zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bog‘liq holda hal etiladi.

2-3-sinflarda fe’lni o‘rganish. Bu bosqichning asosiy vazifasi Fe‘l -so‘z turkumi degan tushunchani shakllantirish, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarning ma‘nosi va shakliga qarab farqlash ko‘nikmasini hosil qilish, bo‘lishsizlik qo‘shimchasi (-ma) ning talaffuzi va imlosini o‘rgatish hisoblanadi.

Fe‘lning harakat bildirishi yuzasidan o‘quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya‘ni o‘quvchilarning o‘zlari bajarayotgan ish-harakatni aytishni so‘raydi, suhbat o‘tkazadi. Suhbatda “O‘qituvchi nima qildi? O‘quvchilar nima qildilar? Hozir o‘qituvchi nima qilyapti? O‘quvchilar nima qilyaptilar? Endi o‘quvchilar nima qiladilar? O‘qituvchi nima qiladi?” kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida fe‘llarni so‘rog‘i bilan yozib bo-radilar. Masalan, nima qildi? - so‘zladi, tushuntirdi; nima qildilar? - tingladilar, yozdilar; nima qilyapti? - tushuntirayapti, so‘rayapti, tinglayapti; nima qilyaptilar? - javob berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; nima qiladi? - tekshiradi, ko‘radi; nima qiladilar? ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar.

Suhbatdagi yoki o‘quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo‘lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? kabi so‘roqlarga javob bo‘lib, predmet harakatini bildirgan so‘zlar fe’l deyiladi. Fe‘l gapda kesim vazifasida keladi.

Mavzu yuzasidan o‘quvchilarda ko‘nikma hosil qilish uchun so‘roq berib fe‘lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe‘lni tanlab qo‘yish, aralash berilgan so‘zlardan, shuningdek, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Dasturga ko‘ra 3-sinfda bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar o‘rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat uchun “O‘qish darsida kimlar o‘qidi? Shokir ham o‘qidimi? Kim so‘zladi? Alisher so‘zladimi? Barno kutubxonaga boradimi? Abdulla-chi?, U qachon bormoqchi? Hozir kim tushuntirayapti? Hozir Tohir gapiryaptimi?” kabi savollardan ham foydalaniladi. O‘quvchilar so‘roq berib fe‘llarni topadilar, ma‘nosini qiyoslaydilar va o‘qituvchi rahbarligida tushuntiradilar. Xulosa chiqariladi: fe‘l harakatning yuzaga chiqqanini, ya‘ni bajarilganligini (o‘qidi, so‘zladi), hozir bajarilayotganini (tushuntiryapti), endi bajarilishini (boradi, o ‘qiydi) bildiradi. Bu fe‘llar bo‘lishli fe’llar deyiladi. Ayrim fe‘llar harakatning bajarilmaganligini (o‘qimadi, so‘zlamadi), hozir bajarilmayotganini (o‘qimayapti), keyin ham bajarilmasligini (bormaydi) bildiradi. Bunday fe‘llar bo‘lishsiz fe’llar deyiladi.

O‘quvchilarda bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarni ma‘nolariga qarab farqlash ko‘nikmasini o‘stirish uchun bo‘lishli fe‘ldan bo‘lishsiz fe‘l hosil qilish, bo‘lishsiz fe‘llarning talaffuzi va yozilishini qiyoslash, bo‘lishsiz fe‘llar bilan gaplar tuzish mashqlaridan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: «O‘qituvchi», 1995.
2. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: «Nosir», 2009.

SO‘Z TARKIBINI O‘RGANISH METODIKASI

Babojonova O‘g‘iljon Kalandarovna
Xorazm viloyati Xiva tumani
6-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998907256645

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslarida so‘z tarkibini o‘rganish bosqichlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z tarkibini o‘rganilish bosqichlari, o‘zak, o‘zakdosh, morfemik.

Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida so‘z tarkibi 4 bosqichda o‘rganiladi:

Birinchi bosqich – so‘z yasalishini o‘rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi – o‘quvchilarni bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’no va tuzilishiga ko‘ra bog‘lanishini tushinishga tayyorlash.

Ikkinchi bosqich – bir xil o‘zakli so‘zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o‘quv vazifasi – so‘zlarning ma’noli qismlari sifatida o‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar bilan tanishtirish, “o‘zakdosh so‘zlar” tushunchasini shakllantirish, bir xil o‘zakli so‘zlarda o‘zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi. Bir xil o‘zakli so‘zlar bilan tanishish jarayonida o‘quvchilarda so‘zning ma’noli qismi bo‘lgan morfemalar haqida boshlang‘ich tasavvur hosil bo‘ladi.

Uchinchi bosqich-o‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o‘rganish metodikasi. Bu bosqich o‘quv vazifasiga “o‘zak”, “so‘z yasovchi qo‘shimcha”, “shakl yasovchi qo‘shimcha” tushunchalarini shakllantirish, so‘zning leksik ma’nosi bilan morfemik tarkibi o‘rtasidagi bog‘lanish haqidagi tasavvurlarni o‘stirish, o‘zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so‘zlarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so‘z yasovchi qo‘shimchasi bor so‘zlarni ongli ishlatish ko‘nikmasini o‘stirish kiradi.
O‘zakni o‘rganishning xususiyatlari. “O‘zak” tushunchasini shakllantirishda o‘quvchilar o‘zak o‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi ekani va u barcha bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’nosidagi umumiylikni o‘z ichiga olishi bilan tanishtiriladi. O‘zakdosh so‘zlarni tahlil qilish bilan o‘quvchilar so‘zning qaysi qismi shu so‘zlardan o‘zakdosh so‘zlar hosil qilayotganini tushuntirishga, qaysi qismi har xil ma’noli so‘zlar hosil qilayotganini tushuntirishga o‘rgatiladi. Bunday vazifalarni to‘g‘ri bajarish natijasida o‘quvchilar o‘zak va so‘z yasovchi qo‘shimchalarning so‘zning leksik ma’nosini hosil qilishdagi rolini tushunadilar, o‘zak, o‘zakdosh so‘zlarga asos bo‘ladigan qism ekanini bilib oladilar.

To‘rtinchi bosqich – so‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi ustida ishlash (3-4-sinflar). So‘zning morfemik tarkibini o‘rganish tizimida bu bosqichning maqsadi so‘z yasovchi qo‘shimchaning so‘z yasashdagi ahamiyati va shakl asovchi qo‘shimchaning so‘z shaklini o‘zgartirishdagi amaliyoti haqidagi bilimni chuqurlashtirish; o‘quvchilarni ot, sifat, fe’llarning yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi.

O‘quvchilarni so‘z yasatish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o‘qituvchi ularga muayyan bir yangi so‘z qaysi so‘zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Bunday topshiriqlarda tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning leksik ma’nosi bilan morfemik tarkibining o‘zaro bog‘liqligiga ba biror so‘z turkumiga harakterli bo‘lgan so‘z yasalishi usulida asoslanadi. Bunday topshiriq turlaridan namunalar: o‘zakdosh so‘zlari bo‘lgan matnni leksik, so‘z yasalishi tomonidan tahlil qilish; leksik ma’nosi keng tushuntirilgan so‘zni o‘zakdosh so‘z bilan almashtirish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda so‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasalishini o‘rgatish o‘quvchilarning har bir so‘zga ongli munosabatda bo‘lishlarini ta’minlaydi, so‘z tarkibi va uning yasalishi haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
2. U. Masharipova O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.

O‘YIN TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI.

Bafoyeva Mohigul Jalolovna,
Qiziltepa tumani 41-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon:+998(90)7308700
uktam.bozorov.1987@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘yin texnologiyasining konseptual asoslari nimalardan iborat ekanligi haqida yozilgan. O‘yin texnologiyalari darslarga qiziqishni oshirish, o‘quvchilarni darsga jalb qilish uchun ishlatiladi.

Kalit so‘zlar: idrok, o‘yin modeli, psixogen, didaktik mashq, diqqat, shaxsning erkinligi.

Hozirgi vaqtda boshlang‘ich ta’limning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va rivojlantirib borish katta ahamiyat kasb etmoqda. Buni yurtimizda ta’limga berilayotgan e’tibordan ham bilishimiz mumkin.

Boshlang‘ich maktab yoshida, idrokning ravshanligi va tezkorligi, rasmlarga kirishning qulayligi xarakterlidir. Bolalar har qanday faoliyatda, ayniqsa o‘yinda osongina ishtirok etadilar, o‘zlarini guruh o‘yinlarida tashkil qiladilar, narsalar bilan o‘ynashda davom etadilar, o‘yinchoqlar, simulyatsiya qilinmaydigan o‘yinlar paydo bo‘ladi.

O‘yin texnologiyalari darslarga qiziqishni oshirish, o‘quvchilarni darsga jalb qilish uchun ishlatiladi. O‘yinlar darsning barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. Har qanday o‘yinning muvaffaqiyati uni to‘g‘ri tashkil etish va unga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq.

O‘yin texnologiyasining konseptual asoslari:

• O‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini o‘zi ifoda etish, o‘zini o‘zi tasdiqlash, o‘zini o‘zi belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi anglashga bo‘lgan asosiy ehtiyojlariga asoslanadi.

• O‘yin - psixogen xatti-harakatlarning shakli, ya’ni ichki, immanent shaxsiyat.

• O‘yin - bolaning «ichki ijtimoiylashuvi» makoni, ijtimoiy munosabatlarni assimilyatsiya qilish vositasi.

• O‘yin - bu «amalga oshirib bo‘lmaydigan manfaatlarning xayoliy amalga oshirilishi» tasavvuridagi shaxsning erkinligi.

• O‘yinga qo‘shilish qobiliyati insonning yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshda o‘yin o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

O‘quv jarayonining o‘yin modelida muammoli vaziyatni yaratish o‘yin vaziyatini kiritish orqali ro‘y beradi: muammoli vaziyat ishtirokchilar tomonidan uning o‘yin timsolida amalga oshiriladi, faoliyatning asosi o‘yin modellashtirish, talabalar faoliyatining bir qismi shartli o‘yin rejasida amalga oshiriladi.

Yigitlar o‘yin qoidalariga muvofiq harakat qilishadi. O‘yin muhiti, shuningdek, o‘qituvchining pozitsiyasini o‘zgartiradi, bu esa umumiy harakatdagi tashkilotchi, yordamchi va sherikning roli o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.O‘yin natijalari qo‘shaloq rejada - o‘yin shaklida va o‘quv-kognitiv natija sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘yin bolani jalb qiladi, o‘yin bolani fikrlashga undaydi, mustaqil ravishda yoki sinfdoshlar bilan muloqotda olingan va boshqariladigan bilimlarni o‘z ixtiyori bilan o‘rganadi. Bundan tashqari, o‘yin texnologiyasida barcha o‘quvchilar darsda faol qatnashadi va ta’limning turli bo‘g‘inlarida o‘zini oqlab kelayotgan texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Завьялова О.А. Воспитание ценностных основ информационной культуры младших школьников. - Журнал «Начальная школа» №11, 2011.

2. Папшева Л.В. Технологическая культура учителя начальных классов. - Журнал «Начальная школа» №10, 2009.

SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA AUDIO ERTAKLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Chirchiq shahar 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Begmanova Xilola Maxsudovna
+99899 855-79-83

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda o‘qish dasrlarida “Sinfdan tashqari oqish” darslarida ertak janrining audio ertak turidan foydalanish kerakliligi haqida bir qancha taklif-mulohazalar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Sinfdan tashqari o‘qish, dars jarayoni,ertak,janr, audio ertak, o‘qituvchi, o‘quvchi, hikoya.

Har bir xalqning, millatning ertangi kuni o‘sib kelayotgan yosh avlodning bugun qanday ta’lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib yetishishlariga bog‘liq. Bunday ma’suliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o‘qituvchisi, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan o‘z kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar mohiyatini anglash va ulardan o‘z darslarida unumli foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy o‘qituvchi ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan, ularni tahlil qilish va amaliyotga joriy eta olishi lozim.

Yangiliklarni ta’lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi boshlang‘ch sinf o‘qituvchisining asosiy vazifasidir . Demak, har bir o‘qituvchi izlanishi, bugungi kun talablari asosida o‘zini o‘zi tarbiyalashi, o‘z ustida tinmay ishlashi, zamonaviy pedagogik va axborot-komunikatsiya texnologiyalarini puxta o‘zlashtirishi va ta’lim jarayonida qo‘llay olishi kerak.

Biz texnika asrida yashayapmiz. Bugungi kun bolalari nafaqat oynai jahon orqali turli yangiliklardan xabardordir balki mobol telefon, internet,kompyuter olami bilan hamohang bo‘lib o‘smoqda. Fikrlash doirasi ancha keng. Shu sabab ular tarbiyasida boshqacha usullar talab etiladi.

Shu talablar o‘qitish vositalarini yanada faollashtirishni, rivojlantirishni yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amalyotda qo‘llashni talab etadi.

Maktablarda 1959 yildan boshlab maxsus STO‘ darslari tashkil etilgan. Bunday darslar 1-2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada 1 marta o‘tkazilib kelindi. Hozirgi dasturga ko‘ra, bunday darslar 1-4-sinflarda 2 haftada bir marta o‘tkaziladi.

Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish talab etiladi. O‘quvchilarda kitobga havas uyg‘otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir.

Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so‘z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z obrazlar bo‘ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o‘quvchilar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya’ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo‘lishini istaydilar.

Ertakka qiziqmaydigan, ularda aks etgan g‘aroib ajoyib va sehli olamga maftun bo‘lmagan bolani topib bo‘lmasa kerak . Ertak o‘zining jozibali kuchi bolani jalb etadi, uning vatan va xalqqa sadoqatli dovyurak, mehnatsevar, kattalarni hurmat qiladigan, kichiklarga mehribon halol va pok vijdonli inson bo‘lib shakllanishida g‘oyat muhim tarbiyaviy rol o‘ynaydi. Shuning uchun dunyodagi barcha xalqlar asrlar davomida ertak aytib keladi. O‘zbek halqi ham bolalar ruhiga mos ular tarbiyasida muhim rol o‘ynaydigan ertaklarni ko‘p yaratgan.

Ertak bolaning so‘z boyligini kengaytirishga, shuningdek mantiqiy mantiqiy nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘zining maftunkor sehri, tuganmas shukuhi, dilni rom etuvchi jozibasi bilan hamisha qanotlanib turuvchi xalq ertaklari inson xayolotining mevasidir. Kishilar o‘z qismatining chigalliklarini yechishdan ojiz qolgan chog‘larda, ertak uni nurli qanotlarida umidli manzillarga

ko‘tarib o‘tgan. Bashariyat hali zulmat qo‘ynida najot yo‘llarini qidirib, asrlar mobaynida kimsasiz taqdir so‘qmoqlarida tentirab yurgan onlarda ertaklar uni xayolot qanotida ziyobaxsh sohillarga eltgan. Bir so‘z bilan aytganda, ertak insoniyatning beg‘ubor bolaligi yetishtirgan samaradir. Binobarin, uning ta’rif-u tavsifiga til ojiz, qalam — behol.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida “Ertak ”janrining audio ertak turidan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Audio ertaklar odatda yaxshi musiqa bilan birga boshlanadi. Bola qo‘shiqlarni eslaydi, ritmni tinglashni o‘rganadi. Musiqa ohangi voqea epizodlariga yaqinlashadi: dahshatli, bezovta qiluvchi, kulgili. Bolalar buni sezishadi va eslashadi. Bunda o‘quvchilarning musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqish ham ortadi. Ya’ni har tomonlama rivojlanish mavjud.

Audio ertak - bu nafaqat o‘qituvchilarga, ota-onalarga yaxshi yordam, bolaning uydagi bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tqazishga va foydali dam olishiga yordam beradi.

Farzandlarimiz ertak aytib berishingizni so‘raydi bunda yosh ota –onalarda ma’lumot va tajriba kamlik qiladi. Audio ertaklar yosh ota-onalarga ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda “Sinfdan tashqari o‘qish” darslarida o‘qituvchilar ertaklarni o‘qib berish orqali insoniyatning ahloq-odob, avlod-ajdodlarga hurmat,olamni bilish, tabiatni asrab-avaylash va boshqa sohalarda erishgan eng yaxshi yutuqlarni ana shu qahramonlar obrazi orqali yosh avlod ongiga yetkazishga intiladilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarga ertakni o‘qib beradi. Ertaklar bola rivojlanishining muhim qismidir. Ular tasavvur, xayolotni rivojlantiradilar. Birinchi hayotiy tajriba ulardan olinadi . Hozirgi kunda ma’lumotlarni taqdim etishning ko‘plab usullari mavjud - multfilmlar, kompyuter o‘yinlari, kitoblar va shu qatorda audio ertaklarning ham o‘rni beqiyosdir.

Audio ertaklarni tinglab, bolalar dunyoni bilishadi, muayyan vaziyatlarda o‘zini tutishni o‘rganadilar, yaxshi va yomonni taniy boshlaydilar.

Audio ertaklarda bo‘lgan voqealarni idrok etish o‘quvchilarga o‘qish jarayonida foydali bo‘ladi. O‘quvchilarda audio ertaklarni tinglash orqali siz ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishiga bebaho hissa qo‘shgan bolasiz.

Audio ertaklar o‘quvchilarga so‘z boyligini kengaytirish va nutqni intonatsiyalar bilan boyitishga imkon beradi.

Ular o‘z taassurotlari va his-tuyg‘ularini rasmlarda, badiiy ifoda qilishning turli vositalaridan foydalanib aks ettirishni, his-tuyg‘ularini harakat, yuz ifodalari va imo-ishoralarda etkazishni o‘rgandilar. Har bir bola diqqat markazida edi, boshqa bolalar uni tinglashdi, savollar berishdi va uning javoblarini qiziqish bilan kutishdi.

O‘quvchilarning ijodiy nutq qobiliyati sezilarli darajada oshdi. O‘quvchilar iboralar yordamida nutqiy nutqni tuzishni o‘rgandilar. O‘quvchilar ertak va san’atga bo‘lgan qiziqishi va muhabbatlari ortdi. Kundalik hayotda o‘quvchilarning ijodiy faolligi oshdi, har bir o‘quvchi o‘zini ifoda etish uchun yo‘l topdi.

Bu darslar biz o‘qituvchilarga, o‘quvchining ichki dunyosini tushunishga, har bir kishining yangi ajoyib fazilatlarini kashf etishga, uning tashvish va qayg‘ularini anglashga, shaxsiyatini ochib berishga yordam berdi. Farzandlarimizning ulkan ijodiy salohiyati bor va aynan shu darslar bizga har bir bolada namoyon bo‘lishiga yordam berdi.

Ayniqsa o‘quvchilar audio ertaklarni mashhur aktyorlar tomonidan yozilgan audio ertaklar to‘g‘ri intonatsiyani, chiroyli va ifodali gapirishni o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy o‘qituvch dars jarayonida boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qish darslarida audio ertaklardan unumli foydalansa o‘quvchning eshitish qobiliyati shakllanadi, so‘z boyligi ortadi, qanday o‘qish kerakligini, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganadi, tasaavvuri kengayib, kitobga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Audio ertaklarni rus va ingliz tillarda tinglash esa, o‘quvchilarga tillarni o‘rganishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A. Karomov. Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori T.: O‘zbekiston 1997.

2. K.Qosimova, S.Matjonov . X. G‘ulomova, Sh .Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi.-T.: “NOSHIR”,-2009

3. Z. Ibrohimova . Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari T.: “O‘qituvchi”1994

4. S.G‘oziyeva va boshqalar . Badiiy terma kitob.T. :”O‘qituvchi,” 1996.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ADABIY TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASH

Begmatova Shoira Rahimjonovna
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998972301473
Ma’murova To‘xtaxon Abdullayevna
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998993982697

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida dars mobaynida uchraydigan adabiy tushunchalar ustida ishlash tog‘risida so‘z boradi. Shuningdek adabiy tushunchalarni tahlil etish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, estetika, nutq, kitob, ertak, ko‘nikma.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar ertak, hikoya, masal, she’r, maqol, topishmoq, ilmiy-ommabop asarlar va dostonlardan parchalar o‘qish orqali ularda ifodalangan voqea-hodisalar, obrazlar va ularning xulq-atvori bilan tanishadilar. O‘qigan asarlariga baho berishni o‘rganadilar. Ularda asarning tili, uslubi, yozuvchi qo‘llagan tasvir va ifoda vositalari haqida dastlabki adabiy tushunchalar shakllana boshlaydi.

O‘quvchilar asar mazmunini o‘zlashtirish bilan birga unda bayon etilgan asosiy fikrni aniqlab olishga, fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanishni belgilashga o‘rganadilar. Badiiy asarni o‘qish bilan bolalarda o‘zlarini o‘rab turgan muhit, Vatan va uning tabiati, kishilar mehnati haqida ham tasavvur hosil bo‘ladi.

O‘qish darslari o‘quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o‘qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi. O‘quvchilar adabiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g‘oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

O‘quvchilarning nutqini o‘stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar adabiy tushunchalarni o‘rganish natijasida badiiy adabiyot san’atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Asar tahlilida o‘quvchilarning hayotiy taassurotlari va asarni o‘rganish natijasida ularda paydo bo‘lgan estetik his-tuyg‘ular hisobga olinadi. Aks holda, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi susaya boradi. Maktabda bolalar adabiyotini o‘qitishda aniq ma’lumotlarga, badiiy asarni o‘rganish natijasida o‘quvchilarda tug‘iladigan his-tuyg‘ularga suyanib ish ko‘riladi. Bu esa o‘quvchilarda asar muallifi, obraz, g‘oya, adabiy tur, syujet kabi adabiy tushunchalarni elementar tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda asar tahlilida badiiy til vositalari - sifatlash, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a va adabiy janr turlari - ertak, hikoya, masal, she’r, doston, maqol, topishmoq kabilar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asarda g‘oyaviy mazmun obrazlar orqali ifodalanadi. Obrazlar esa so‘zlar yordamida yaratiladi. So‘z adabiyotda badiiy obrazni yaratish qurolidir. Asarning badiiy ifodaliligi yozuvchining undan qay darajada foydalanganligiga bog‘liq.

Asarda tasvirlangan hayotiy voqea-hodisalarni obrazli aks ettirishda badiiy til asosiy vositadir. Shuning uchun ham badiiy asar yuzasidan olib boriladigan kuzatish ishlari har bir obrazni, umuman badiiy asar mazmunini ochishda katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda o‘z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o‘qish ko‘nikmasi o‘stiriladi, asar g‘oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o‘quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkir syujetliligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o‘qib bo‘lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

2-sinf “O‘qish kitobi” da keltirilgan **“Karnaychi shoh”** ertagida “yov qora bulutday yopirilib kelayotgan ekan”, **“Kuychi terak”** ertagida “Terakning shoxlari xuddi surnay chalgandek ovoz

chiqarib, yaproqlari esa shildirab raqsga tushar ekan", "To‘rg‘aylar qo‘shiq aytib, ularga jo‘r bolar ekanlar", "Oh, deb nola qilibdi terak", "Ustunlarning nag‘malariga jo‘r bolib, sho‘x- shox kuy chalibdi" kabi badiiy vositalar yordamida tasvirlangan manzaralar juda ko‘p.

2-sinf "O‘qish kitobi" da yana keltirilgan **"Kumush qish"** bo‘limida "Qish" matni berilgan. Ushbu matnda ham ko‘plab jonlantirishlar qo‘llangan. Masalan: "hamma yoqda sovuq izgirin kezadi", "ingrar og‘riq kabi qari tol, oynalarni bezar qish-gulkor", "Daraxt kurtaklari rohatlanib uxlamoqda', "hozir urug‘lar tinch uyquda" kabi. Matn tahlilida "Matnning birinchi qismini o‘qing. Unda qaysi so‘z o‘z ma'nosidan boshqa ma'noda qo‘llangan?" yoki "Matnning ikkinchi qismida jonsiz narsalar jonlidek tasvirlangan o'rinlarni topib o'qing. Boshqa ma'noda qo‘llangan so‘zlarni o‘z ma'nosida qo‘llab gap tuzing. Bu so‘zlar qanday ma'noda qo‘llanganda ta'sirchan bo‘ladi?" kabi savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Maqol janrida ham ko‘chma ma'noli so‘zlar kop qollanadi. Masalan: *"*Yurt boshiga ish tushsa, yigit hozir" maqolida **boshisa** so‘zi metafora yo‘li bilan ma'nosi ko‘chgan, o‘quvchilarga uning ma'nosi qanday usul bilan ko‘chganligi aytilmaydi, faqat boshqa ma'noda qo‘llanganligi o‘z ma'nosi bilan taqqoslangan holda o‘quvchilarga o‘rgatiladi.

Tarixiy asarlarda ham ta'sirchan, tasviriy-bo‘yoqdor so‘zlar ko‘p uchraydi. Jumladan, **"Bobur va kabutar"** asarida hazrat. a'yonlar. oliv hazrat so‘zlari qo‘llangan. Asar matnida qadimiy davr bilan bog‘liq qo‘shimchalarning qo‘llanilishi ham asarga joziba bag‘ishlaydi. Masalan: **"Kabutar ne deydir?"** kabi. Mazkur asarda ikkinchi shaxs qo‘shimchasi o‘rnida hurmat ma'nosidagi uchinchi shaxs qo‘shimchasi qo‘llangan: Xatda: "Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo‘l urib bersalar". Shu o‘rindagi "qo‘l urib bersalar" birikmasi ibora hisoblanadi. Iboralar doim ko‘chma ma'no ifodalab, nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Boshlang‘ich ta'limning takomillashtirilgan o‘quv dasturi. Boshlang‘ich ta'lim. 2006 yil, 5- son

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH

Bekchanova Mardona Baxtiyorovna
Xorazm viloyati Urganch shahar
4-son umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon raqam: +998914237888

Annotatsiya: Bu maqolada pedagogik texnologiya va uni ta'lim jarayonida qo'llashning maqsad va vazifalari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, pedagogik tizim, ta'lim jarayoni.

Bugungi kunda pedagogik texnologiya tushunchasi o'qituvchilar ommasining ijodiy faoliyatining mahsulidir. Faqat pedagogik texnologiya tushunchasini to'liq ishlab chiqib, uning ilmiy mohiyatini fahmlab o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish lozim.

Pedagogik texnologiya izchil va ketma-ket amaliy faoliyatda, ta'lim tarbiya

jarayonida avvalgi rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirishdir. Har qanday ta'lim-tarbiya jarayoni ma'lum pedagogik tizimda amalga oshadi.

Pedagogik texnologiya ma'lum loyihani pedagogik tizimda amaliyotga qo'llashdir. Pedagogik tizim deganda biz bir-biriga bog'liq vosita, uslub va jarayonlarning inson shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishini tushunamiz.

Pedagogik tizimda 2 ta narsa muhimdir. Bu-uning maqsad va vazifasi hamda bu maqsad va vazifani amalga oshirish texnologiyasi. Agar biz pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonida, ya'ni didaktik tizim misolida ko'radigan bo'lsak, didaktik tizimda maqsad muhim bo'lib, unga erishish ma'lum sharoit va o'quvchi

faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Har qanday didaktik vazifa unga mos texnologiyani amalga oshirish shakli, jarayoni va o'qituvchi mahoratining yaxlitligi oqibatida amalga oshiriladi.

Biz nega bugun pedagogik texnologiya to'g'risida fikr yuritmoqdamiz?

Birinchidan, pedagogik texnologiya yordamida ta'lim jarayonidagi xato-kamchiliklar, mavhumliklarning oldini olish va avvaldan ta'lim jarayonini loyihalashtirib, uni birin-ketin voqelikka aylantirish asosida takomillashtirish masalasi yechilishi kerak.

Ikkinchidan, uzoq vaqtdan beri qo'llanilib kelinayotgan har bir darsni oddiy uslubiy jihatga ko'ra ishlab chiqish o'rniga pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yaxlit yondashib, uni avvaldan loyihalashtirish o'quvchi bilish faoliyatining tuzilishi va mazmunini belgilashga asos bo'ladi. Bu, ayniqsa, hozirgi yangi pedagogik axborot vositalari, dasturlashgan ta'lim, pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish maktablarimizga kirib kelayotgan sharoitda muhimdir.

Uchinchidan, pedagogik texnologiyaning muhim xususiyati maqsad qo'ya bilishidir. Avvallari bu masala ta'lim jarayonida uncha muhim emas edi. Hozir ta'lim jarayonini texnologiya darajasiga ko'tarishda taxminiy, bo'lar-bo'lmas natijadan ko'ra aniq maqsad qo'yish muhimdir. Bu masala ikki jihatdan zarurdir, diagnostik maqsad qo'yib o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishini to'g'ri nazorat qilish va o'quvchi shaxsining rivojlanishini ta'minlashdir.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya pedagogik tizimni loyihalashtirish sifatida ta'lim jarayonining yaxlitligini uning maqsad, vazifasi, amalga oshirish shakllarini, uslublarini hamda o'quvchilar faoliyatini boshqarish bilimining nazorati va tekshirishning uzviyligini ta'minlaydi. Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiya sifatida qarash undagi formalizm, ayrim eskirgan shakl va uslublarga sajda qilmaslikka, yangilikka, ijodga intilishga zamin hozirlaydi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya — ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunli amalga oshirish texnikasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari.
2. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya.
3. www.uzedu.uz

HAMKORLIKDA O‘QITISH TA’LIM YONDASHUVLARI

Berdiyeva Nilufar Saitnazarovna
Urganch tumani 27-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (91) 437 98 36
nilufar.saitnazarovna77@inbox.uz
Avezova Soxiba Raximovna
Urganch tumani 27-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (93) 466 65 68
soxibaxon9090@gmail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada hamkorlikda o‘qitish texnologiyasini qo‘llanilishi va tizimli yondashuvi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, demokratlilik, sub’ektiv munosabatlar, tizimli yondoshuv, ta’lim texnologiyasi.

O‘tgan asrning 80-yillari ta’lim jarayoniga ko‘plab innovatsiyalarni kirib kelishiga asos bo‘lgan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasini amerikalik pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular bir qancha maktab namoyondalari ilg‘or tajribalarini umumlashtirib, tadqiq qilganlar.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish demokratlilik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi sub’ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Mazkur pedagogik texnologiya yangicha pedagogik tafakkur, taraqqiyparvar g‘oyalar manbai sifatida ko‘plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar tarkibiga kiradi.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi faqat birgalikda biror ish bajarish emas, balki birgalikda o‘qishdan iborat.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining tasnifiy tavsifi:

- qo‘llanish darajasiga ko‘ra umumpedagogik;
- falsafiy asosiga ko‘ra-insonparvar;
- rivojlantirish omiliga ko‘ra majmuaviy: bio-, sotsio-, psixogenn;
- o‘zlashtirish asosiga ko‘ra assotsiativ, reflektor,bosqichma-bosqich;
- mazmuniga ko‘ra o‘rgatuvchi, tarbiyaviy, insonparvar, umumta’limiy, dunyoviy;
- boshqaruv turiga ko‘ra kichik guruhlar sistemasi;
- tashkiliy shakliga ko‘ra akademik, yakka, guruhda,tabaqalashtirilgan;
- bolaga yondoshuviga ko‘rashaxsiy-insonparvar, sub’ekt-sub’ekt;
- boshqaruvchi metodga ko‘ra muammoli-tadqiqiy, ijodiy, munozarali, o‘yinli;
- o‘rganuvchilar darajasiga ko‘ra ommaviy. Hamkorlikda pedagogikasiga yo‘naltirilgan;
- talab pedagogikasidan munosabatlar pedagogikasiga o‘tish;
- ta’lim va tarbiya birligi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy g‘oyasi o‘quvchilarni turli o‘quv vaziyatlarida hamkorlikda faol harakatlariga shart-sharoitlar yaratishdir. O‘quvchilarning o‘quv materiallarnin o‘zlashtirish imkoniyatlari turlicha: ayrimlari o‘qituvchining tushuntirishlarini tez ilg‘ab oladi, ayrimlariga qo‘shimcha vaqt va tushuntirish ishlari zarur. Bunday o‘quvchilar o‘quv mashg‘ulotlari davomida passiv bo‘ladilar. Agar o‘quvchilarni 4-5 nafardan kichik guruhlarga ajratib, ishtirokchilarining har biri vazifasi aniq ko‘rsatib o‘tilsa, bunday vaziyatda har bir o‘quvchi o‘ziga yuklatilgan vazifa hamda guruh vazifasiga mas’uliyat sezadi. Bunda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ilg‘or o‘quvchilardan yordam so‘raydilar. Hamkorlikda kelib chiqadigan muammolar hal etiladi. Tajribadan ma’lumki, birgalikda o‘qish na faqat qiziqarli va oson, balki samarali hamdir.

Hamkorlikda o‘qitish turli variantlari mavjud bo‘lib, ular uchun umumiy bo‘lgan tamoyillar quyidagilar:

- guruhlar o‘qituvchi tomonidan mashg‘ulotdan oldin, o‘quvchilarning psixologik moslashuvchanligi e’tiborga olinib tashkil etiladi. Har bir guruhda «kuchli», «o‘rtacha»,»kuchsiz» va albatta qizlar va o‘g‘il bolalar bo‘lishi kerak;
- guruhga bitta topshiriq beriladi va uning bajarilishida guruh a’zolarining har biri vazifasi o‘qituvchi yordamida aniqlanadi;

- har bir o‘quvchi bajargan ish emas, guruh ishi baholanadi;
- guruhning qaysi ishtirokchisi guruh topshirig‘i yuzasidan javob
- berishini o‘qituvchi aniqlaydi. Ayrim hollarda «kuchsiz» o‘quvchi tanlanishi ham mumkin, chunki har bir topshiriqning maqsadi uni bajarilishida emas, balki har bir o‘quvchi tomonidan uning o‘zlashtirilishida.

Hamkorlikda o‘qitishning texnologik jarayoni quyidagi elementlardan tashkil topgan:
- o‘quv-biluv masalasini qo‘yish (muammoli vaziyat);
- o‘quv maqsadlariga mos o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish;
- didaktik materiallarni tarqatish;
- guruhlardagi ishlarni rejalashtirish;
- topshiriqlarni individual bajarish, natijalarni muhokama qilish;
- guruhning umumiy topshirig‘ini muhokama qilish (eslatmalar, to‘ldirishlar, aniqlik kiritish);

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligini o‘zida mujassam etmog‘i lozim.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quvjarayoniga qo‘llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari T.: 2006.
3. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI O‘QITISH

Berdiyeva Xolbibi
Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani
36-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
TEL 99 584 28 51

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematik masalalarni yechish, matematika fanini o‘rgatish va matematik qobilyatni oshirish haqida fikr yurtiladi.

Kalit so‘zlar: masala, matematika, sxema, chizma, jadval

Bugun mamlakatimizda matematika fanini o‘qitishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, boshlang‘ich sinfdan o‘quvchilarni matematikaga qiziqtirish bugungi kun talabi hisoblanadi. O‘quvchilarninig matematik fikrlashini oshirish matematik masalalarni yechishga o‘rgatish ham, o‘qtuvchi oldidagi katta ma’suliyat hisoblanadi.

Masala ustida ishlash uning mazmunini o‘zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o‘quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o‘qib chiqishlari ham kerak. Agar masala sharti bosh qotiradigan bo‘lsa o‘quvchilarga masala mazmunini mustaqil o‘ylab ko‘rishlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Masala matni ustida ishlaganda o‘quvchilarning diqqat e‘tiborini avvalo masala matnidagi har bir so‘z va har bir son mazmuniga qaratish lozim, masalada tasvirlanayotgan manzarani joyni tasavvur qilishiga yordam berish kerak, masala matn ustida og‘zaki ishlagandan keyin masala mazmuni matematik atamalar tiliga o‘tkazish va uning matematik tuzilishini qisqa yozuv (sxema, chizma, jadval) shakllarida ifodalash kerak.

O‘quvchilarda ikkinchi sinfda birinchi sinfdagi kabi yangi masalalar bilan tanishtirishda yoki murakkab masalarni yechishda to‘la pridmet ko‘rsatmalikda sekin -asta to‘liq bo‘lmagan ko‘rsatmalikka o‘tiladi. Masala sharti murakkab berilganlar orasidagi bog‘lanishlarni tahlil qilish qiyin bo‘lganda shunigdek yangi tipdagi masalalarni yechishda qisqa yozishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sodda masalani yechishda amal tanlash masalasiga to‘xtalib o‘tamiz. Bu malaka 1-sinfda shakllantirib boriladi, o‘quvchilarning 2-yilda shakllantirish yana davom ettiriladi. Sodda masalalarni arifmetik, arifmetik ham algebrik usul bilan yechish mumkin. Sodda masala arifmetik usul bilan echilganda ifoda tuzib uning qiymati topiladi. Masalan: Ahmad bir kuni kitobning 15 betini o‘qidi, 2-kuni esa birinchi kuniga qaraganda ikki marta ko‘p o‘qidi. Ahmad ikkinchi kuni kitobning necha betini o‘qidi. Masalani yechilishini bunday yozish mumkin: 15-2=30 (bet). Javob: Ahmad ikkinchi kuni 30 bet kitob o‘qigan. Masala yechimini tekshirish to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlashdan iboratdir. Boshlang‘ich sinflarda tekshirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi. Masalalarning shartlari bilan topilgan javoblar orasida moslik o‘rnatish. Bu usul bilan o‘quvchilarni birinchi sinfdan boshlab tanishtiriladi, shu usul 2-sinfda davom ettiriladi. Masalan: Vali 12 ta baliq Ahmad esa unga qaraganda 2 marta kam baliq tutdi: ikkalasi birgalikda qancha baliq tutishgan. Yechish: 12+12:2=12+6=18 ta (baliq). Tekshirish: masalaning shartiga ko‘ra Vali Ahmadga qaraganda 2 marta ko‘p baliq tutgan. 18-12=6 ta 2. 12:6=2 ta. Masalaning o‘zi bilan va uning tarkibiy elementlari bilan bolalarni tanishtirish o‘qitish jarayonidagi navbatdagi eng muhim va juda javobgarlik bosqichidir. Bu ishni predmet ko‘rsatmaslikdan foydalanib boshlash kerak. O‘qituvchi son ma‘lumotlarni va amallarni ko‘rsatadi ammo natijani ko‘rsatmaydi, o‘quvchilardan yashirishi juda muhimdir. Masalan: Akasi Erkinga oldin 6 ta daftar sovg‘a qildi, keyin yana 2 ta daftar sovg‘a qildi. Erkinga akasi qancha daftar sovg‘a qilgan. Yechish: 6+2=8 ta (daftar). Javob: akasi erkinga 8 ta daftar sovg‘a qilgan. Sonni bir necha birlik ortirish va kamaytirishga doir masalalar yig‘indi va qoldiqni topishga doir masalalarda kengroq kiritiladi. Bu holdagi sodda masalalarni qarashga tayyorgarlik ularni kiritishdan oldin boshlanadi. Bu ish ushbu munosabatlarni o‘rnatishdan iborat. Agar predmetlarni berilgan gruppasiga bir yoki bir nechta predmet qo‘shilsa bu dastlabki predmetlar sonini orttiradi, agar ayirilsa bu dastlabki predmetlar sonini kamaytiradi. Bu munosabatlar bir xil ko‘rsatma materiallar yordamida o‘rgatiladi. Didaktik materiallar bilan ish ko‘riladi, bolalar ushbu ko‘rinishdagi amaliy mashqlarni bajarishadi:

Matematik mantiqiy masalalar o‘quvchilar dunyoqarashini ham kengaytirib hayotiy ko‘nikmalarini oshirib boradi.

Mantiqiy masalalar:

1. Sinfda 32 ta o‘quvchi o‘qiydi, ulardan 24 tasi rus tilini biladi, 16 tasi ingliz tilini biladi. Nechtasi har ikki tilni biladi?

Javob : 8 tasi

2. Ikkita bodringni 12 bo‘lakka bo‘lish uchun, pichoq bilan ularni necha marta kesish mumkin?

Javob: 10 marta

3. Bir alpinist 3000 metrli tog‘ga chiqish uchun kunduzi 300 metr yuqoriga, kechasi 200 metr pastga harakat qilsa, necha kunda tog‘ning tepasiga chiqadi?

Javob:28 kunda

Mantiqiy masalalar yosh, hatto sinf tanlamaydi. Ular keng auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lib kichik yoshdagi bolalardan boshlasak, yuqori sinflarda algebraning murakkab masalalarida qiynalmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimjon Qosimov “Aqlga quvvat birliklar”-T.,”Yangi asr avlodi”2014

FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION METODIKALAR

Beshimova Laylo Samadovna
Buxoro viloyati Buxoro shahar 35-umumiy
o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: (+91) 444 11 10
Elektron pochta: boburnekov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda fanlarni o‘qitishda innovatsion metodikalardan samarali foydalanib, o‘quvchilarning o‘qish, matematika, ona tili va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashning milliy tizimini yaratish masalalari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion metodikalar, xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS dasturlari, xalqaro tadqiqotlar.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 – yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amaiga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq.

Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash,ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish,shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish,tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishishga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Shuningdek, konsepsiya doirasida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etishi nazarda tutilgan.

2021-yilda o‘tkaziladigan tadqiqotda o‘quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o‘rinlidir. Raqamli formatga o‘tish bilan birgalikda, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o‘qishni kompyuterda baholash kabi o‘zgarishlar ham ko‘zda tutilgan.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi, Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Xalqaro innovatsion metodikalarga o‘quvchilarni shu paytdan tayyorlab borishimiz darkor. Kompetensiyaviy yondashuv an’anaviy darslardan keskin farq qiladigan, innovatsion va axborot

texnologiyalari keng qo‘llanadigan mashg‘ulotlar tashkil etishni talab etadi. Rang-barang metodlardan foydalanish, ta’limga noan’anaviy yondashuv pedagogning kutilgan maqsadga erishishni ta’minlab, o‘quvchining darsda egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik faoliyatida qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti: www.tdi.uz.
2. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti: www.markaz.tdi.uz.
3. “Umumta’lim fanlari metodikasi” jurnali – 2016. – 25b
4. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali – 2017. – 19b

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Bobajonova Feruza Bekpo‘latovna
Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanidagi
7-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon :+99893-751-31-33 Feruza_2223@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich matematika ta’limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘quvchilarning o‘quv faolliklarini rivojlantirish hamda jamoada ishlash ko‘nikmasini oshirish haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar:texnologiya, pedagogik texnologiya, matematik komponent, faollik.

Bugungi kunda maktab ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning turli zamonaviy usullari joriy qilinmoqda. Shunday ekan, matematika fani yangicha yondashuvni, uning metodikasini chuqur tahlil qilishni va o‘qitishga milliy g‘oya tushunchalarini singdirgan holda olib borishni talab etadi .

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyarni o‘quv jarayonida qo‘llash kundan – kunga kuchayib bormoqda. Chunki pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarni kuchli bilimli, yetuk malakali komil inson bo‘lishini ta’minlaydi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi – o‘qituvchi va o‘quvchilarning belgilangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishlaridan iborat.Yangi pedagogik jarayonda ozroq kuch sarflab,ko‘proq natijaga erishish imkoni yaratiladi.

Matematikani o‘qitishda qanday texnologiyalarni qo‘llamaylik,asosiy maqsadimiz quyidagilardan iborat:

-o‘quvchilarda matematikani o‘rganishga qiziqishini oshirish ;

- o‘quvchilarni aniq materiallarni tushinishga yo‘naltirish ;

- o‘quvchilarning dunyoqarashini va bilim salohiyatini kengaytirish .

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning asosiy maqsadi –o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, ularni matematik belgilar hisoblash, o‘lchash, yasash, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Darsni tashkil qilish texnologiyasi quyidagicha :

- Sinfdagi o‘quvchilar ikkita yoki uchta guruhga ajratiladi.
- Har bir guruhga ishlab chiqilgan topshiriqlar tarqatiladi .

Topshiriqni yechish uchun ko‘pi bilan 5-8 daqiqa vaqt beriladi . Topshiriqni birinchi bo‘lib bajargan guruh vakili barcha o‘quvchilar oldida sinf taxtasida o‘z javoblarini asoslab beradi . Agar javob noto‘g‘ri bo‘lsa, u holda ikkinchi, uchinchi guruh javoblari tinglanadi. Agar barcha guruhlarning ham javoblari noto‘g‘ri bo‘lsa o‘qituvchi dars yakunida to‘g‘ri javobni e’lon qiladi va yechish usullarini o‘rgatadi . Boshqa topshiriqlar ham shu tarzda amalga oshiriladi .

Ikkita guruh uchun topshiriqlar namunasini keltiramiz .

1-topshiriq

Matematik amalning nomini toping.

1	**I**	8:8=
2	**A**	16:4=
3	**O‘**	4+5=
4	**P**	74-58=
5	**K**	14+11=
6	**Y**	49-13=
7	**R**	87-38=
8	**T**	24+40=
9	**SH**	100-19=
10	**I**	34+64=

25	9	16	4	36	64	1	49	100	81
K	O‘	P	A	Y	T	I	R	I	SH

Izoh: Ushbu topshiriqni bajarishda matematik amalni topishga oid kalit so‘zni toppish barobarida, bo‘linma, ayirma va yig‘indini toppish orqali berilgan tartib sonlarning o‘zaro ko‘paytmasi ya’ni “kvadrat” tushunchasini o‘zlashtirib olishlari mumkin . Masalan, kalit so‘zning birinchi harfi “K” bo‘lib uning qatoridagi sonlar yig‘indisi 14+11=25 tarzida . Bu yerda ushbunatija 5-tartibda turibdi 5×5=25 ga teng ekanini ko‘rish mumkin.

2-topshiriq.

Masalani yechimini toping :

Idishga 15 ta bir xil sig‘imli banka bilan suv solindi.Har bir bankaga esa 15ta bir xil sig‘imli stakan bilan suv solindi.Agar 5 ta stakandagi suv 1 litr bo‘lsa, idishga jami necha litr suv solingan?

1	**I**	37×3=
2	**B**	37×6=
3	**R**	37×9=
4	**Q**	37×12=
5	**SH**	37×15=
6	**E**	37×18=
7	**Q**	37×21=

444	111	333	777	222	666	555
Q	I	R	Q	B	E	SH

Izoh: Ushbu keltirilgan misolda birinchi ko‘paytuvchi 37 ga teng bo‘lib ikkinchi ko‘paytuvchilar 3 taga ortib brogan va yig‘indilar uch xonali son bo‘lib u ham bir xil sonlardan iborat. Kalit so‘zda esa masalaning javobi “Qirqbesh” jumlasi hosil bo‘lgan.

3-topshiriq :

Chizmada nechta to‘rtburchak bor?

1	**Q**	8×2+4=
2	**Q**	6+4×3=
3	**T**	16:4+5=
4	**Z**	20-5+15=
5	**O‘**	10:2+5=
6	**I**	10+2×9=

9	10	18	20	28	30

Izoh : To‘rtburchakning sonlarini to‘g‘ri hisoblash orqali topiladi. Jadvalda berilgan misollardagi amal ishoralarini to‘g‘ri tartibda bajargan holda kalit so‘zi topiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki bunga o‘xshagan texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. .Jumayev M.E.,Tojiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi-T: Fan va texnologiya,2005

2. Bikboyeva N.U. Matematika / 4-sinf uchun darslik .- T.:”O‘qituvchi”, 2017.

3. S.Burxonov, Q.Norqulova Matematiak /3-sinf uchun darslik.-T.:”Sharq”,2019.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Boboxolova Gulshan Igamberdiyevna
Navoiy viloyati Navoiy shahar 21-DMTT mudirasi
Telefon: +998907300072
Bozorova Gulandom Muxammadovna
Navoiy viloyati Navoiy shahar 21-DMTT tarbiyachisi
Telefon: +998942238346

Farzandlarimizning maktabga qanday o‘qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko‘p jixatdan maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiyaga bog‘liqdir.
Sh.M.Mirziyoev

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy va vatanparvarlik bilan tarbiyalash masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zi: Milliy g‘oya, milliy ong, qadriyat, qadr.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning birinchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Yosh avlodni har tomlama kamol topgan, yetuk, jismonan sog‘lom baquvvat qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan kelajagimiz bo‘lmish bolajonlarimizning ilk yoshidan boshlab ularning o‘sishi va tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanish, ta’lim-tarbiya usuli va vositalaridan unumli foydalanish joizdir.

Jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar ta’lim isloxatlari rivojlanayotgan bir davrda maktabgacha yoshdagi bolalarda Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bolalarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda milliy tuyg‘ularni shakllantirish, ularga ma’naviy-madaniy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishning asosiy me’zonlari sifatida qo‘yidagilarni aytish mumkin.

Bolani yoshligidan tashqi dunyoni xotira, tafakkur, xayot, tasavvur kabi ruhiy jarayonlar yordamida bilib olishga keng yo‘l ochib berish lozim. Ma’naviy-madaniy hayotimizni yangi ma’no-mazmun bilan boyitish, milliy qadriyatlirmizni tiklash, asl tomirlarimizga qaytish yo‘lida amalga oshirayotgan xayrli va ezgu ishlarimiz o‘zligimizni anglash va buyuk maqsadlarimizga erishishda mustahkam poydevor bo‘lmoqda. Bu borada sog‘lom avlodni tarbiyalash, kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturlarni amalga oshirish, farzandlarimizni dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan, yetuk va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish yo‘lida qo‘ygan qadamlarimiz barchamizni quvontiradi.

“Kadr tayyorlash milliy dasturi”da kadarlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari ko‘rsatib berilgan. Uchinchi bandida milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi, Vatanparvarlik, o‘z vatani uchun g‘urur tuyg‘usini shakllanayotganligi, boy milliy-madaniy va tarixiy an’analarga, xalqimizning intelektual merosiga xurmatni qaror toptirish lozimligi aloxida ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida maktabgacha ta’lim sohasini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta’lim soaxasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta’lim muassasalarining bolalar savodxonligini shakllantirishda o‘rni hamda Respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash Davlat siyosatining asosiy ustivor yo‘nalishi ekanligi ta’kidlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga, bolalar ongiga Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, ularning qalbida sevish va faxrlanish, g‘ururlanish tuyg‘usini uyg‘ota borish milliy g‘oya, xalqimizning milliy qadriyatlari, urf odatlari, tili va diniga asoslanishi kerak. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga bolalarni xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish, Vatan tuyg‘ularini ona allasi, bobolar o‘gitlari, oila tarbiyasi bilan singdirish. Buyuk siymolar bilan tanishtirish davomida bolalarga ota-bobolarni tanishtirish, ulardan qolgan meroslardan baxramand bo‘lishga undash, bolalarga Vatan tuyg‘usini ota-bobolarimizning ibrati bilan singdirish hamda Vatani, xalqi uchun

kurashgan millatimiz fidoyilari bilan tanishtirish davomida Vatanparvarlik tuyg‘usini millatimiz fidoiylari ibrati bilan singdirish lozimdir. Toki bizning bolalarimiz xuddi bobolarimizdek vatanparvar bo‘lishni niyat qilishsin. Maktabgacha yoshdagi bolalarni odob durdonalarini singdirib borish, ularni e’tiqodli, har tomonlama kamol topgan milliy qadriyatlarni va axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalash muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda, ota-ona va tarbiyachi eng kichik yoshdan boshlab bolalarga ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirishiga e’tibor qaratishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning odob-axloqli bo‘lishi, ilk yoshdan boshlab uyda, ko‘chada, bog‘chada, mehmonga borganda o‘zini tutish qoidalari, muomila madaniyatini singdirib borish lozim. Bolalarda milliy dunyoqarashi shakllantirishda turli omillar turlicha ta’sir etadi. Bu omillar ichida eng asosiysi oila hisoblanadi, chunki bolada tasavvur, tushunchalarning shakllanish jarayoni aynan oilada boshlanadi. Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodni barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun u xalq, vatan tarixini, ta’lim sohasidagi ajdodlar tajribasidan xabardor bo‘lishi kerak. Milliy dunyoqarash, Vatanparvarlikni yosh avlodlar qalbi va ongiga singdirishda maktabgacha ta’lim tashkilotining va oilaning o‘rni kattadir.

Shunday ekan maktabgacha ta’lim tashkilotining har bir xodimi sergak tortishi kerak. Bugungi kunda har bir bolaning diliga, ko‘ngliga yo‘l topib, ularning muxabbatiga, ishonchiga sazovor bo‘la olsagina ertaga bu farzandlar O‘ZBEKISTONNING KELAJAGI, VATANIMIZNING QALQONLARI bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori” T. “Sharq” 1997 yil
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T. O‘zbekiston 1997 yil
3. O‘zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. Toshkent 2018 yil

MUSIQA DARSLARIDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AHAMIYATI

Boltaboyeva Shohista Iromjonovna
Namangan viloyati Uychi tumani 42-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining musiqa fani o‘qituvchisi
+998974660141
boltaboyeva@mail.ru

Annotatsiya: musiqa darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, o‘qituvchilarni innovatsion ta’lim faoliyatiga tayyorlash borasidagi fikr- mulohazalar ifodalangan.

Kalit so‘zlar: musiqa, innovatsion ta’lim, an’ anaviy ta’lim, texnologiya.

O‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishda ta’limga interfaol usullarni, innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritish va ulardan mohirona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyot bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, rivojlantiruvchi ta’limda esa, muvofiq bilimlarni o‘quvchilarning o‘zlari o‘rganishi, tahlil qila olishi, xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishiga yo‘naltirilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchining pedagogik texnologiyalarni qo‘llashida ularni mazmunli va samarali tashkil etishga oid bilimlardan yaxshi xabardor bo‘lishi qo‘llanilgan texnologiyalarni dars samaradorligiga ijobiy ta’siri va natijalarni tahlil qilish, baholay olish, tegishli xulosalar chiqara olishi, o‘z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo‘lishi, o‘zgalar nazari bilan baholash o‘z bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash o‘quvchilarni darsda faol ishtirokini ta’minlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, interfaol texnologiyalardan barcha fan o‘qituvchilari, shu jumladan musiqa o‘qituvchilari yaxshi xabardor bo‘lishi darkor. Musiqa o‘qituvchisi faoliyatidagi asosiy jarayonlarni quyudagicha belgilashimiz lozim:

- So‘zlash- kuylash, tinglash uchun tanlangan asar haqida mualliflarni, g‘oyaviy badiiy, mazmuni haqida hikoya, tushuncha – asarni shakli, tuzilishi, janri, ijrochilik uslublarini tushuntirish, vokal yoki xor mashqlar;
- Ko‘rsatish- tushuntirish, uqtirish, nazariy, tarixiy ma’lumotlar asosida ma’ruza yoki suxbat, asarnu tinglash, tahlil qilish, asarning murakkab joylarini mashq qilish;
- Mashq- ijro etib ko‘rsatish, nota yozuvi bo‘yicha nazariy tushunchalarni sharhlab amaliy ijrochilik bilan bog‘lab ko‘rsatish, xor bo‘lib kuylashda dirijorlik qilish, asarni o‘rganish, kuylash, misol va masalalar yechish.

Yuqoridagi jarayonlar pedagogik texnologiyalar o‘zagini tashkil etadi. Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari bo‘lgan ushbu so‘zlash,ko‘rsatish va mashqlar bajarishni texnologik jarayonning uch tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish mumkin. Masalan, musiqa tinglash faoliyatida kuyning tonalligini o‘lchovi, tepmini, xarakteri, janrini aniqlash musiqa savodxonligi faoliyatida interval va akordlarni aniqlash, intervallarni tuzish, dinamik tuslarni aniqlash, jo‘rsiz kuylash va boshqalar shular tarkibiga kiradi. Musiqa san’atiga muhabbat, qiziqish, darsni emotsional ko‘tarinki ruhda o‘tkazish, o‘zida artistlik, rejissyorlik, dramaturglik mahoratlariji rivojlantirib borish, bolalarni sevish, ulardagi musiqiy qobiliyat va qiziqishlarni e’tiborga olish ularni ro‘yobga chiqarishga intilish, yaxshi xonandalik, cholg‘uchilik mahoratiga ega bo‘lishlik o‘qituvchu faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Chunki, o‘qituvchining ta’kidlab o‘tilgan xususiyatlarning o‘zi ham darsda o‘quvchilar uchun texnologik ibrat vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganimizda, musiqa o‘qituvchisi o‘quv tarbiya ishlarini baravariga olib borishi, o‘quvchilarni musiqa san’ati orqali tarbiyalashda o‘qituvchining qanday metod va texnologiyalardan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova G. Musiqa o‘qitish metodikasi.TDPU,2004.

O‘QUVCHILARNING BILIMI VA FAOLLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Boratova Nilufarxon Toshtemirovna
Mirzaabdullayeva Hurriyatxon Abdumannapovna
Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani 28-umumiy o‘rta talim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari.
Телефон: +998(93) 259 50 28
Maktab_28@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim samaradorligini va darslarda faolligini oshirishda turli didaktik o‘yinlarning ahamiyati, ulardan foydalanishning samarali usullari keltirilgan. Didaktik o‘yinlar vositasida o‘quvchilarda bilimga qiziqishini uyg‘otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to‘g‘ri va samarali metodidir, ular orqali o‘quvchilarda darsga va bilim olishga yanada qiziqish orttirish mumkin.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, o‘yin mantig‘i, o‘yinning harakati, o‘yin qoidasi, bilishga qiziqish, “So‘z o‘yini”, “Zanjir” o‘yini, “Tez javob” o‘yini

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellectual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Sh. M. Mirziyoyev.

Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Darslar jarayonida mavzularni qiziqarli tashkil etishda barcha turdagi metodlardan foydalanish ijobiy samara beradi, albatta. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarning darsga faolligini oshirish maqsadida didaktik o‘yinlardan foydalanishning ijobiy jihatlari ko‘p.

O‘yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusidan o‘quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O‘yin orqali bolalar borliqni o‘rganadi.

Didaktik o‘yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat’iyligidir. Didaktik o‘yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: O‘yin mantig‘i, o‘yinning harakati, o‘yin qoidasi.

O‘yin mantig‘i asosan uning sarlavhasida aks etadi. O‘yin harakati jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini namoyon qilishiga, o‘yin maqsadiga erishish uchun o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashga imkoniyat yaratadi.

O‘yin qoidasi o‘yin jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. U o‘quvchilar xulqini, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o‘yinlarda ma’lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O‘yinda ma’lum bir didaktik maqsad qo‘yiladi va bu maqsadga erishilishi o‘quvchilarda ma’naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi.

Chex pedagogi Ya.A.Komeniskiy o‘yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta’kidlab, aynan o‘yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o‘yin bolaning aqliy faoliyatlarini har tomonlama o‘stirishi, uning atrof- tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o‘stirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikda o‘yin uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi. Bolalar tarbiyasida didaktik o‘yinlardan ikki yo‘nalishda: barkamol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda foydalaniladi. O‘yin o‘quvchi faoliyatining asosiy shaklidir. O‘yin – muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchi qobilyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof – olam haqidagi tasavvurlari kengayadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning turli – tuman qobilyatlari, idroki, nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Didaktik o‘yinda o‘quvchi qoidalarga rioya qilishga o‘rganadi. Chunki qoidalarga rioya qilish o‘yin muvafaqqiyatini ta’minlaydi. O‘yinda qatnashish jarayonida ijobiy xulqiy sifatlar,

tashkilotchilik qobilyatlari shakllanadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to‘g‘ri va samarali metodidir. U ma’lum bir materiallar yoki shart – sharoitlarni talab etmaydi balki o‘qituvchilardan o‘yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi. O‘yinning ma’lum bir tizim va metodika asosida tashkil etilishigina o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobilyatini tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Didaktik o‘yinlar vositasida o‘quvchilarda bilimga qiziqishini uyg‘otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo‘ladi. Bunday hollarda bolada doim yangilanishlarni bilishga ishtiyoq, bilimga qiziqish uyg‘onadi. Bilishga qiziqish kichik maktab o‘quvchisini izlanishga o‘rgatadi, u doim har xil savollarga javob qidirishga o‘rganadi. Bilishga qiziqish faqat ta’lim jarayoni natijasiga ijobiy ta’sir qilib qolmay balki tafakkur, idrok, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarning faol rivojlavishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bilishga qiziqish – bu o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshiruvchi motivlardan biridir. Uning ta’siri juda kuchli bo‘ladi. Bilishga qiziqishni uyg‘otish hatto bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ham samarali ishlashiga yordam beradi.

O‘quvchilarni fanning yangi yutuqlari bilan tanishtirish o‘quv dasturlari doirasini kengaytirish, ularni ilmiy, ijodiy izlanishlar doirasi bilan tanishtirish o‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini oshiradi.

Hamma o‘quv materiallari ham o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lavermaydi. Bunday hollarda bolalarni ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirishning birdan – bir yo‘li didaktik o‘yinlardan foydalanish va ularni tashkil etishdir. O‘quvchilardan o‘qishga ishtiyoqni oshirish uchun ularni ta’limga qiziqtirish lozim. Buning uchun esa o‘qituvchi ta’lim jarayonidan qiziqarli tomonlarni topishi va bu jarayon o‘z ichiga o‘quvchini qiziqtira oladigan materiallarni olishi lozim. Buning yo‘li ta’lim jarayoniga didaktik o‘yinlarni kiritishdir.

- “So‘z o‘yini”.

O‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o‘quvchiga har xil harf yozilgan qog‘oz tarqatiladi. O‘yin boshlanguncha qog‘oz orqasidagi harf ko‘rsatilmaydi. Birinchi o‘quvchi o‘yin boshlanishi bilan qog‘ozni ortidagi harf bilan boshlanadigan so‘z yozadi. So‘ng orqada turgan o‘quvchiga uzatadi. Guruh yoki qator oxiridagi o‘quvchi o‘yin tugagach qog‘ozni o‘qituvchiga keltirib beradi. O‘yinni birinchi bo‘lib tugatgan va so‘zlarni to‘g‘ri yozgan o‘quvchilar g‘olib bo‘ladi. Masalan, anor – randa – alla.

- “Zanjir” o‘yini.

O‘qituvchi boshlab bir so‘zni aytadi o‘quvchilar bu so‘z qaysi harf bilan tugagan bo‘lsa, shu harf bilan boshlanuvchi so‘zni topib aytadilar. So‘z o‘yini shu tarzda davom etadi. Masalan, tabiat, taom, maymun, non, nok, kitob, botir, rayxon.

- “Bu meniki” o‘yini.

O‘qituvchi harf yozilgan kartochkalarni o‘quvchilarga tarqatadi, har bir kartochkada bir xil harf yozilgan bo‘ladi. Shunda so‘ng o‘qituvchi so‘zlarni o‘qiy boshlaydi. O‘quvchilar qo‘llaridagi kartochkalarda yozilgan harf bilan boshlanadigan so‘zni eshitishlari bilanoq “Bu meniki” deb javob berishlari shart. O‘qituvchi so‘zlarni tezroq o‘qiydi. Shuning uchun o‘quvchilardan ziyraklik talab etiladi. Masalan,

Tarqatiladigan harflar: A, B, D, O‘

So‘zlar: atlas, bahor, dono, o‘rik.

- “Tez javob” o‘yini

O‘qituvchi yoki boshlovchi, qator oralab yurib, o‘quvchilardan birini turgazadi va biror tur nomini aytadi. O‘quvchi esa turga kiruvchi so‘zlar topib aytishi lozim. O‘quvchi uchgacha sanaguncha aytishi kerak. Javob bo‘lmaganda o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Bunday o‘yin davomida o‘quvchilardan hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchikovlik bilan kuzatishga o‘rganadi. Bu o‘yindan dars davomida, dam olish daqiqalarida foydalanish mimkin. Masalan,

O‘qituvchi: “hayvon”

O‘quvchi: “it”

O‘qituvchi: “kino”

O‘quvchi: “Abdullajon”

O‘qituvchi: “o‘quv qurollari”

O‘quvchi: “qalam”

- “Aql charxi”.

Bu o‘yinda matematika darslarida op’tilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlar beriladi.

1-guruh



2-guruh



3-guruh



Ona tili darslarida ham bu o‘yinni o‘tkazish mumkin.

1-guruh



2-guruh



3-guruh



“Kim tez topa oladi?”.

Tabiatshunoslik fanidan foydalanish mumkin.

1-guruh	2-guruh	3-guruh
Hayvonlar:	Parrandalar:	Qushlar:
Ot	o‘rdak	laylak
Tuya	g‘oz	turna
Qo‘y	tovuq	bulbul
Echki	jo‘ja	mayna
Buzoq	xo‘roz	kakku

Matematika fanida ham bu o‘yindan foydalanish mumkin. Masalan,

1-guruh	2-guruh	3-guruh
36	48	32
4*9=36	6*8=48	4*8=32
9*4=36	8*6=48	8*4=32
6*6=36	2*24=48	16*2=32
18*2=36	12*4=48	32*1=32

Dars davomida va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda bu kabi o‘yinlardan samarali foydalanish, albatta, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘yin gfaqatgina vaqtning yoki bolalar uchun shunchaki odatiy hol emas. O‘yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayib boradi. O‘yin orqali yondashuv ta’lim jarayonini osonlashtiradi, bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur ta’lim olishga undaydi.

Didaktik o‘yinlarning o‘quvchilarni bilimga qiziqtirishdagi o‘rni.

Didaktik o‘yinlar – o‘quvchilar faolligi omili.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev. 2019 yil 19 martda o‘tkazgan videoselaktordagi nutqi Tal’at G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. 2011 yil

2. O‘qish. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. 2014 yil

3. Matematika. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. 2014 yil

SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH USULLARI

Boriyeva Go‘zalxon Sotiboldiyevna
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998995171602
Sultonova Mamlakatxon Sotivoldiyevna
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998993242231

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida sinfdan tashqari o‘qish darslari va ularni to‘g‘ri tashkil etish usullari tog‘risida so‘z boradi. Shuningdek o‘quvchilarga sinfdan tashqari o‘qish yordamida milliy tarbiyamizni singdirish borasida ham fikr yuritiladi

Kalit so‘zlar: adabiyot, estetik tarbiya, savod, kitob, bilim, tarbiya, matn.

O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’limining Davlat standartlari va o‘quv dasturiga ko‘ra 1-sinfda sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida, savod o‘rgatish darslarida hosil qilingan ko‘nikma va malakalar asosida bolalarning ona- Vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlari kengaytiriladi, shuning bilan birga boyitib boriladi.

Sinfdan tashqari o‘qish savodxonligini 1-sinfda haftada 1 marta savod o‘rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adaboyoti asosida o‘rganiladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil o‘qish jarayonini shakllantirishdir. Asosan, bu sinf o‘quvchilariga kitob bilan muamola qilish madaniyati, kitob o‘qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti-harakatlarini kuzatish, ijobiy tamonlarini o‘rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni o‘rganishdan iboratdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar tanlab olinadi. O‘qituvchi bolalarning his-tuyg‘ularini mukammal darajaga yetkazuvchi kitoblarni o‘qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go‘zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlari, qadriyatlari, o‘tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiradi. Endi maktab ostonasiga qadam qo‘ygan o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan havasni uygotadi. 2-sinfda o‘quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o‘qituvchining yordami va topshirig‘i asosida mustaqil o‘qishga o‘tishlari maqsadga mivofiqdir. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘tkaziladi. Ona-Vatan va ota-bobolar jasorati, o‘simliklar, qushlar hamda hayvonot olami haqidagi asarlarini o‘qituvchi topib, tanlab o‘quvchilarga o‘qish uchun tavsiya qilishi lozim.

1 va 2-sinflarda sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning mustaqil o‘qishlari uchun kishilarninig hayoti, yorqin tasvirlardan, ularning ma’naviy-ahloqiy turmush tarzi aks erttirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 1-2 sinflarda sinfdan tashqari o‘qish darslari ikki haftada bir marta o‘tkaziladi. Bu sinflarda o‘qituvchi sinf kutubxonasiga kerakli bo‘lgan, o‘quvchilar yoshiga mos kitoblarni to‘plashni lozim bo‘ladi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o‘qib borilsagina, o‘quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytirishga, shakllantirishga erishish mumkindir.

Sinfda va sinfdan tashqari o‘qish dasturining mazmuni, kichik yoshdagi o‘quvchilarda ona-Vatanga muhabbat uyg‘otish maqsadlariga xizmat qiladi. O‘qish bolalarning nutq boyligini o‘stirish, adabiy-estetik fakkurini kamol toptirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatishning muhim omilidir. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’lim tizimida muhim o‘quv predmeti ta’lim berish, kamol toptirish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

O‘quvchilarni boshlang‘ich yoki mustaqil o‘qishga o‘rgatishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich o‘qish malakalarini (to‘g‘ri va ifodali o‘qishni) tashkil etish;
- bolalarni o‘qigan asarlarining adabiy-estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularda tasvirlangan voqea-hodisalarning mohiyatini anglash va undan muayyan xulosalar chiqarishga o‘rgatish;
- o‘quvchilarda yuksak axloqiy qarashlar va nafosat tuyg‘usini tarbiyalash;
- o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish;

• o‘quvchilarning atrof-muhit to‘g‘risidagi bilimlarini boyitish.

Bu vazifalar dasturda berilgan badiiy, adabiy asarlar, jumladan, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida amalga oshiriladi. Har bir sinf o‘qish dasturi quyidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi:

• o‘qish mavzulari va yod olish uchun asarlar, o‘qish ko‘nikmasi va malakalari;
• matn va bog‘lanishli og‘zaki nutq ustida ishlash;
• sinfdan tashqari o‘qish.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qishga o‘quvchilarni ona tilini puxta o‘zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta’lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi, kichik yoshdagi o‘quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdir.

Sinfdan tashqari o‘qish dasturning mazmuniga ko‘ra ta’limning har bir bosqichida ikki asosiy bo‘limga ajratiladi:

Birinchi bosqichda o‘qish doirasi, ya’ni o‘qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o‘qish bilan tanishtirish yuzasidan o‘quvchilarga ko‘rsatma beriladi. Ikkinchi bosqichda shu o‘quv materiallari asosida bilim, ko‘nima va malakalar shakllantiriladi.

O‘quvchilar kitob va ularning mualliflari to‘g‘risidagi bilimlarni bevosita amaliy faoliyatlari, ya’ni kitob ustida ishlash jaryonida egallaydilar.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari o‘qish darslari bilan bog‘lab olib boriladi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishib, keyinroq bolalar yozuvchilarining asarlari bilan tanishadilar, so‘ngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o‘tadilar.

1-sinfda sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida savod o‘rgatish darslarida hosil qilingan ko‘nikma va malakalar asosida bolalarning ona-Vatan, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvur tushunchalari kengaytirilib, boyitiladi. 2-sinfda o‘quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o‘qituvchining topshirig‘i va yordami asosida mustaqil o‘qishga o‘tadilar. 3 va 4-sinflarda sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning mustaqil o‘qishlari uchun kishilarning hayoti yorqin tasvirlangan, ularning ma’naviy-axloqiy turmush-tarzi aks ettirilgan badiiy adabiy asarlar tavsiya etiladi. Jumladan, o‘quv materiali sifati sarguzashtlarga boy asarlar, ona tabiat saxovati, kishilarning o‘zaro mehr-muhabbati tarannum etilgan, buyuk ajdodlarimizning olamshumul faoliyatlari ko‘rsatilgan axloqiy-ma’rifiy hikoyalar, milliy istiqlolimiz to‘grisidagi asarlar bilan tanishtirishga ahamiyat beriladi. Birinchi sinf o‘quvchilarining kitob bilan mustaqil faoliyatini shakllantirish uchun sinf kutubxonasi tashkil etiladi.

Ikkinchi sinfda esa kitoblar ko‘rgazmasi mavzular asosida tashkil etiladi. Masalan, Vatan, istiqlol, tabiat, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar, buyuk ajdodlarimizning qahramonona jasoratlari kabi mavzular shular jumlasidandir. Bunday kitob ko‘rgazmalari hamda tavsiya etilayotgan kitoblar ro‘yxati o‘quvchilar saviyalariga mos asarlarni tanlab o‘qishlariga yordam berishi lozim.

Uchinchi sinf kitoblar ko‘rgazmasida kitoblar mualliflariga qarab tartiblanadi. Masalan, Q.Muhammadiy, Q.Hikmat, P.Mo‘min, G‘.G‘ulom, Z.Diyor, A.Obidjon, T.Yo‘ldosh kabi shoirlarning asarlari tavsiya etilgan kitoblar ro‘yxati va kitob ustida mustaqil ishlash uchun mavzular bo‘yicha kartotekalar mavjud bo‘ladi.

To‘rtinchi sinfda sinf va maktab kutubxonasidagi mavjud badiiy, tarixiy adabiyotlar, bolalar gazetasi va jurnallarida bosilgan, o‘quvchilar o‘qishi uchun tavsiya etilgan maqolalarning “Nimani o‘qishim kerak?” sarlavhali katalogini (mavzusi yoki muallifi bir xil kitoblar va maqolalarning ma’lum tartibda tuzilgan ro‘yxati) tuzish tavsiya etiladi.

Ikkinchi sinfdan boshlab o‘quvchilarni shahar va tuman kutubxonalari bilan tanishtirish, sayohatlar uyushtirish tavsiya qilinadi. Uchinchi va to‘rtinchi sinflarda kitobxon o‘quvchilarni tarbiyalashga, ularning kutubxonalardan mustaqil foydalanishlariga yordam beradigan adabiy ertaklar, badiiy o‘qish kabi tadbirlarni o‘tkazish ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. N.N.Azizxo‘jayeva. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. Toshkent. 2006 yil. 180-183 betlar.

ПЕДАГОГНИНГ МАҲОРАТИ ВА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Ботиров Норқобил Амирович,
Усмонов Жавохир Низомитдинович
Самарқанд вилояти Нарпай тумани
69-умумтаълим мактаб ўқитувчилари

Аннотация. *Мазкур мақола педагогнинг касбий фаолиятида муваффақиятни таъминловчи билимлар ва амалий фаолият усулларини комплекс равишда ўзлаштиришига қаратилган, компетентлик ёндашуви асосидаги касбий таълимни ташкил этиш ва ривожлантириш масалаларига қаратилган.*

Калит сўзлар: *касб, педагогика, методика, компетенция, компетентлик, компетентли ёндашув.*

Бугунги долзарб масалалардан бири бу педагогнинг касбий компетентлиги ва уларнинг касбий маҳоратидир. Шу боисдан ҳам кадрлар тайёрлаш миллий дастури замонавий педагог жавоб бериши керак бўлган талаблар комплексини белгилайди. Қуйидагилар мутахассиснинг педагогик ишга тайёргарлигининг зарур ва етарли даражасини таъминлайдиган асосий талаблар ҳисобланади. Зеро, давлатимиз томонидан таълимга қаратилаётган эътибор барча педагогларнинг ўзи устида ишлаши, тинмай изланиш олиб бориши ҳамда ўқув жараёнини замон талаблари даражасида, илмий асосда ташкил этишлари учун зарурий шароитларни яратиб бериш билан бир қаторда, таълим соҳасига ёш мутахассисларнинг келиб қўшилишига имконият яратмоқда, бу эса ўз навбатида таълим муассасаси педагоглар олдига янги вазифалар қўяди. Натижада педагогик маҳорат тўлақонли мазмунга эга бўлмай, уни эгаллаш қийин бўлиб қолиши мумкин. Хўш, педагогик маҳоратнинг ўзи нима? Уни қандай эгаллаш мумкин? Педагогик маҳорат – бу ўқитувчи-тарбиячининг шундай шахсий (болажонлиги, хайрихоҳлиги, инсонпарварлиги, меҳрибонлиги, самимийлиги, назокати, ва ҳ.к) ва касбий (билимдонлиги, зукколиги, фидойилиги, ижодкорлиги ва ҳ.к) фазилатларини белгилайдиган хусусиятки, ўз ўқув фанини чуқур ва атрофлича билишида, педагогикпсихологик ва методик тайёргарлигида, ўқувчи-ёшларни ўқитиш, тарбиялаш ва ривожлантиришнинг оптимал йўлларини излаб топиб, амалий фаолиятига қўллашидир. Шундай қилиб, педагогик маҳорат эгаси бўлиш учун ўқитувчи ўз ўқув фанини давр талаблари асосида билиши, педагогика, психология, методика фанларини мукаммал ўзлаштиришни ҳамда инсонийлик, меҳнатсеварлик ва фидойилик каби маънавийахлоқий фазилатларни ўзида таркиб топтириши лозим. Шуни алоҳида қайд қилиб ўтмоқ зарурки, педагоглик касби мураккаб ва маъсулиятли касбдир. Ўқитувчи таълим жараёнида ўқитиш шаклларини оптимал даражада ташкил этишни, баркамол шахсни тарбиялаш назариясини турли янги ғоялар билан бойитишни пухта билиши лозим.

Замонавий мактаб ўз фаолиятини, тезкор ва шиддат билан ривожланиб бораётган жамият, фан- техника ва ишлаб чиқаришнинг янгича талабларига мос равишда, узоқни кўзлаган ҳолда, ўқувчиларга нафақат, билим кўникма ва малакаларини назарий асосда етказиш, балки мазкур БКМлар асосида уни шахсини ривожлаантириш, индивидуал сифатларини мақсадли йўналтириш унда келажакда шахсий, касбий ва ижтимоий фаолияти учун зарур бўлган таянч компетенцияларни шакллантиришга қаратиш керак. «Замонавий билим бериш учун аввало, мураббийнинг ўзи ана шундай билимга эга бўлиши керак», деганда ҳақ эди биринчи президентимиз И.А.Каримов. Зеро, донишмандлар таъкидлаганидек: «Ким ҳар қандай тўсиқларни енгиб, узоқ довонни кўзлаб интилмас экан, у киши узоққа бора олмайди».

Ўқитувчи ёш авлод қалби ва тафаккурига бевосита таъсир ўтказиш билан бирга, уларнинг маънавий эҳтиёжларини замон талаблари асосида янги босқичга кўтаради. Янгича фикр ва дунёқарашни шакллантиради.

Ҳозирги замон ўқитувчисининг асосий фазилатлари ўз касбига содиқлиги, эътиқодлилиги, ўз касбини севиши, болаларни жонидек азиз кўришидир. Мактабда таълим-тарбия ишининг юқори савияда олиб борилиши фақат ўқитувчига, унинг касбий тайёргарлигига боғлиқдир.

Ўқитувчи шахсига қўйиладиган муҳим талаблардан бири шуки, у ўзи ўқиётган фанларни чуқур билиши, унинг методикасини яхши ўзлаштириб олган бўлиши зарур. Фанни ва

унинг назариясини чуқур билиши, уни қизиқарли қилиб ўқувчиларга етказа олиши болаларни шу фанга бўлган қизиқишларини оширади, ўқитувчи обрўсини кўтаради. Ўқувчилар ўқитувчи билимини ва бу билимни болаларга етказа олиш имкониятларини қадрлабгина қолмай, балки унинг шу фанга бўлган қизиқишини, фидойилигини ҳам тақдирлашади.

Ўз хизмат хусусиятига кўра ўқитувчи ташкилотчилик фазилатига ҳам эга бўлмоғи лозим. Бунинг учун ўқитувчи ташаббускорлик ва ташкилотчилик қобилятига эга бўлиб, ҳар доим тетик, ғайратли, ўз кучи ва имкониятларига ишонган бўлмоғи зарур. Ташаббускор ва ғайратли ўқитувчи болаларни ўз орқасидан эргаштира олади. Бола мактабда ўқир экан нафақат таълим -тарбия олади, балки шахс сифатида шаклланади ҳам. Юқорида келтирилган маълумотларга асосланиб айтиш мумкинки, ўқитувчининг педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш йўналишидаги билими, кўникма ва малакалари, қобилят ва имкониятларидан таълим-тарбия жараёнларини бошқаришда, ўқувчиларни фаолиятларини мувофиқлаштиришда қандай даражада фойдалана олиши, таълимий муҳитнинг шаклланганлиги уларнинг касбий компетентлигига боғлиқ бўлади.

Компетентлик таълим муассасаси ўқитувчиларининг маънавий дунёқараши, психологик-педагогик ва ташкилий-технологик салоҳияти, яъни унинг касбий имкониятлари салоҳиятини тасвирлайди. Шундай экан, педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришда компетентлик ўқитувчининг педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш йўналишидаги тушунчалар даражаси, унинг индивидуал қобилятлари ва малакаси, ўзини -ўзи ривожлантиришга ва узлуксиз мустақил таълим олишга бўлган мойиллиги, интилишлари, шунингдек, замонавий талаблар асосида ташкил этилаётган педагогик жараёнларнинг ҳолати ва самарадорлиги орқали аниқланади.

Таълим жараёнида сифатга эришишнинг турли йўллари ҳали ҳам изланмоқда. Бугунги кунда педагогик технологиялар ва турли хил методларни қўллаш яхши самара беради. Бироқ компьютер воситаларидан фойдаланиш ҳам анча натижали ҳисобланади. Аммо шунисини ҳам ҳисобга олиш керакки, технология ва методларни ишлатиш санъати ва қўллаш даражаси ҳам юқори бўлиши лозим. Ўқитувчи ютуққа эришиши учун кўплаб турли методларни қўллаши эмас, балки шу метод орқали ўқув жараёнига янгилик олиб кириши ва шу янгиликлар билан ўқувчини «қуроллантириши» лозим. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, таълим сифатини оширишда ўқитувчининг ўрни беқиёсдир.

Демак, ўқитувчи баркамол авлод таълим-тарбияси учун жавобгар шахс бўлиб, нафақат атрофдагиларга ўрнак бўлиши, шу билан бирга, педагогик маҳоратини намоён эта олиши, етук ўқитувчи сифатида малакали кадрлар тайёрлаш ишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: «Маънавият», 2013, 134-б.

2. Асадов Ю., Турдиев Н., Акбарова С., Темиров Д., Бабаджонов С. Ўқувчилар компетенциялаирнинг шаклланганлигини ташхислаш ва коррекциялаш методикалари. – Т.: 2016. 7-б.

STEAM TEXNOLOGIYASI – KELAJAK TA'LIMI

Bozorova Muxtaram Jo'raqulovna,
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman
29-umumiy o'rta ta'lim maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM texnologiyasi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan sohalarini birlashtirgan yangi o'quv texnologiyasi ekanligi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuvi, tanqidiy fikrlash, ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash, dizayn asoslarini tushunish kabi qobiliyatlarni rivojlatirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, elektron muhandislik, matematika, san'at, rasm, arxitektura, haykaltaroshlik, musiqa, she'riyatni tushunish.

Ta'lim sifatiga erishish va rivojlantirish, maktab o'quvchilarining kasbiy mahoratini doimiy va uzluksiz ravishda oshirib borishni talab etadi. Ta'lim muassasalarida, pedagoglar kasbiy mahoratida va bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirib boruvchi, amaliy faoliyatlariga ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi metodik muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda bunday yondashuv STEAM deb atalib, bu taniqli STEM qisqartmasining rivojlanishi bo'lib, san'at bundan mustasno.

STEAM - bu tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan sohalarini birlashtirgan yangi o'quv texnologiyasi. San'atning qo'shilishi loyihada ishtirok etadigan o'quvchilar tarkibini kengaytirishga imkon beradi, shuning uchun dizayn va matematikada aniq qobiliyatlarga ega bo'lmagan bolalar loyihani estetik jihatdan amalga oshirishda guruhga yordam berishlari mumkin. STEAM o'quv rejasi o'quvchilarga fanlararo va amaliy yondashuvdan foydalangan holda o'qitish g'oyasiga asoslangan. Beshta fanning har birini alohida o'rganish o'rniga STEAM ularni yagona o'quv sxemasiga birlashtiradi.

STEAM ta'limi ilmiy usullardan, texnik qo'llanmalardan, matematik modellashtirish va muhandislik dizaynidan foydalanishga imkon beradi. Bu o'quvchining innovatsion fikrlash, XXI asrning qobiliyatlari, ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

O'qituvchilarning fikriga ko'ra, integratsiya ko'pgina kasblarda muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi. Deyarli barcha mutaxassislarning ta'kidlashicha, ilg'or texnologiyalar o'rganish uchun g'ayratni oshiradi va dizayn va dasturlash sohasidagi asosiy bilimlarni kengaytiradi.

STEAM o'qitish - bu bolalarimizning mahoratini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradigan innovatsion usul. Uning yordami bilan biz iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo'lishimizga imkon beradigan ilg'or kadrlar bazasini shakllantirishimiz mumkin.

STEAM ta'limining afzalliklari:

- fanlar bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan mashg'ulotlar;
- ilmiy va texnik bilimlarni real hayotda qo'llash;
- tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish;
- o'ziga ishonchni shakllantirish;
- faol aloqa va jamoada ishlash;
- texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish;
- loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuvlar;
- har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish;
- dastlabki kasbiy rahbarlik.
- bolalarni hayotdagi texnologik yangiliklarga tayyorlash;
- STEAM, asosiy ta'lim dasturining majburiy qismiga qo'shimcha.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi kelajakda yuqori texnologiyalar bilan bog'liq eng mashhur kasblar: IT mutaxassislari, katta ma'lumot muhandislari, dasturchilar bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimi robototexnika, dasturlash, modellashtirish doiralarining ko'plab sonining paydo bo'lishi bilan bunday ijtimoiy talabga javob beradi. Biroq, ilmiy va texnik bilimlarning tanqisligi

haqidagi fikr tobora ko‘proq eshitilmoqda. Kelajakda qisman 4K deb nomlanadigan XXI asrning ko‘nikmalari talabga ega bo‘ladi. XXI asrning ko‘nikmalari bu alohida sohadir, hozir u turli darajalarda faol muhokama qilinmoqda. Konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki, sanoat davrida savodxonlikni belgilovchi asosiy ko‘nikmalar o‘qish, yozish va arifmetika edi. XXI asrda urg‘u tanqidiy fikrlash qobiliyatiga, o‘zaro ta’sir o‘tkazish va muloqot qilish qobiliyatiga, biznesga ijodiy yondashishga yo‘naltirilgan. Shunday qilib, kelajakdagi 4K asosiy ko‘nikmalari shakllandi:

Foydalaniladigan adabiyotlar :

1. M. I. Nuriddinova Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi.
2. Belskaya Y.M., Grigoryans A.G. Tabiatshunoslikni o‘qitish.

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA OLMOSH MAVZUSINING O‘RGANILISHI. KISHILIK OLMOSHLARI VA ULARNING GRAMMATIK VAZIFALARI

Darmonboyeva Dilnoza Sharobiddinovna
Namangan viloyati Norin tumani
17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi
Telefon nomeri :+998 93 496 81 82

Annotatsiya: Ushbu maqolada olmosh va uning turlari, kishilik olmoshlari, ularning grammatik vazifalari haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: olmosh, kelishik, atash ma’no, soz turkumi, morfologiya, grammatik ma’no

So‘z turkumlari boshlang‘ich sinflarda ham o‘quvchilarga o‘rgatilib kelinadi. So‘z turkumlaridan mustaqil so‘z turkumlariga alohida e’tibor qaratilgan.

So‘z turkumlari umumlashgan vazifasi va sor’oqlariga ko‘ra bir guruhga mansub bo‘lgan so‘zlardir. O‘zbek tilida mustaqil so‘z turkumlari oltita:

1. Ot
2. Sifat
3. Son
4. Olmosh
5. Fe’l
6. Ravish

Barcha mustaqil so‘z turkumlari atash ma’noga ega. Lekin olmoshning atash ma’nosi yoq. Olmosh atash ma’nodagi so‘zlarga ishora qiladi, shuning uchun u ichi bo‘sh so‘zlar deb ham yuritiladi. Masalan, Nigora aqlli - qiz, u doimo barcha do‘stlariga birdek muomalada boladi. Ushbu gapda olmosh so‘z turkumiga oid so‘z ikkita, ya’ni u, barcha. U, barcha so‘zlari ham mustaqil so‘z turkumi, lekin atash ma’nosi yoq. U Nigoraga, barcha esa Nigoraning do‘stlariga ishora qilmoqda. Olmosh so‘z turkumi boshqa so‘zlardan so‘z yasovchi qo‘shimcha orqali umuman yasalmaydi. Mavzuni o‘quvchilarga tushuntirishda buni alohida ta’kidlash kerak. Masalan, Hamma o‘quvchilar o‘zlari uchun berilgan topshiriqlarni sidqidildan bajarmoqdalar. Bu yerda olmosh ikkita, lekin sodda yasama emas, ya’ni tub olmosh.

Olmosh so‘z yasovchilar orqali yasalmasligi bilan boshqa so‘z turkumlaridan farq qiladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, olmosh boshqa so‘z turkumlari yasalishi uchun asos vazifasini bajarish mumkin. Masalan, o‘zboshimcha, manman (olmoshdan sifat yasalgan), sensiramoq, sizlamoq (olmoshdan fe’l yasalgan), o‘ziga kelmoq, o‘zidan ketmoq (ibora), o‘zimcha, o‘zicha (ravish) kabi. O‘z-o‘zidan so‘zi uchta so‘z turkumi vazifasida keladi. Faqat gapning mazmuniy qurilishiga ko‘ra uni farqlaymiz. Masalan, Anvar **o‘z-o‘zidan** nafratlana boshladi (o‘zlik olmoshi). Mashina **o‘z-o‘zidan** yurib ketdi (ravish). **O‘z-o‘zidan,** yurtdagi ishlar hal bo‘laveradi(modal so‘z).

Olmosh boshqa so‘zlar, gap, so‘z birikmasi o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z turkumlaridan. Olmosh ma’no xususiyatiga ko‘ra yettiga bo‘linadi:

1.Kishilik olmoshlari
2.O‘zlik olmoshi
3.Ko‘rsatish olmoshlari
4.So‘roq olmoshlari
5.Gumon olmoshlari
6.Belgilash olmoshlari
7.Bo‘lishsizlik olmoshi

Olmosh so‘z turkumlari o‘rnida almashinib qatnashishi mumkin. Masalan, kitob-bebaho ne’mat. Undan ko‘p hikmat olish mumkin. (Kitob- u, ot o‘rnida). Gullar qizil rangda, shu rang onamga yoqadi. (qizil-shu, sifat o‘rnida. Qalam - ming so‘m, daftar ham shuncha (ming so‘m - shuncha, son o‘rnida). Salima yomon o‘qidi, bu ustozining jahlini chiqardi (o‘qidi-bu, fe’l o‘rnida).

Kishilik olmoshlari uch shaxsdan birini ifoda qiluvchi olmoshlardir. O‘quvchilarga uch shaxsning kim ekanligini bildirib ketish darkor. Men, biz (so‘zlovchi), sen, siz (tinglovchi), u, ular (o‘zga). Men, sen, u birlikda, biz, siz, ular ko‘plikda ishlatiladi. Men bu vazifaning og‘ir ekanligini kechayoq anglaganman. Bu gapda olmosh so‘z turkumiga oid so‘zlar ikkita, ya’ni men, bu, men-kishilik olmoshi, shu-ko‘rsatish olmoshi. Biz Vatanimizni sidqidildan sevamiz. Biz-kishilik olmoshi.

Olmosh barcha gap bo‘lagi vazifasida keladi. Masalan, u menga bu voqeaning naqadar qiziqligini tushuntirdi. Bu yerda olmosh uchta: u, menga, bu. U - ega, menga- to‘ldiruvchi, bu - aniqlovchi vazifasida kelmoqda. Abdulla shunday gapidiki, o‘tirganlar hayron qoldi. Bu yerda shunday olmoshi hol vazifasida kelmoqda (shunday gapirdi, qay holda gapirdi). Nozimaning eng yaqin do‘sti - siz. Siz olmoshi ot kesim vazifasida kelmoqda.

Olmosh kelishik va egalik qo‘shimchalari bilan o‘zgara olish xususiyatiga ega. Masalan, sen kishilik olmoshini kelishik qo‘shimchalari bilan turlaymiz. Sening (n tovushi tushgan, sen+ning=sening), seni (sen+ni=seni), senga, sendan, sendan. Sening bu holating meni va ko‘plarni tashvishga soldi. Olmosh uchta: sening(aniqlovchi), bu (aniqlovchi), meni (to‘ldiruvchi).

Olmoshga egalik qo‘shimchalari ham qo‘shilib, shaxs va narsalarning uch shaxsdang biriga qarashli ekanini bildiradi. Masalan, o‘zlik olmoshiga egalik qo‘shimchalarini qo‘shib, turlaymiz. O‘zim, o‘zing, o‘zi (birlikda), o‘zimiz, o‘zingiz, o‘zlari (ko‘plikda). Bolalaring o‘zlari ketib qolishdi. Bu yerda o‘zlari sof ko‘plikni ifodalanmoqda. Yig‘ilishni raisning o‘zlari olib bordilar. O‘zlari bu jumlada piching, kinoya ma’nosida kelmoqda.

Shuni esdan chiqarmaslik va o‘quvchilarga alohida ta’kidlash zarurki, kishilik olmoshlariga egalik qoshimchalari umuman qo‘shilmaydi, Masalan, menim, seni, unim deb bo‘lmaydi. Ba’zi holatlarda o‘quvchi mening, seni olmoshlaridagi - ning, - ni kelishik qo‘shimchalarini egalik qo‘shimchalari bilan chalkashtirib yuboradilar. Buni o‘quvchilarga misollar orqali tushuntirib berish zarur. Savol tug‘ilishi mumkin, unimdagi - im qo‘shimchasi kishilik olmoshiga qo‘shilgan-ku degan. Unim bu yerda kishilik olmoshi emas, ko‘rsatish olmoshi hisoblanadi. U+im= unim (bu yerda unim, bitta n tovushi ortgan) .

Olmoshlarning nutqda qo‘llash ing ahamiyati shundaki, ular so‘z takrorining oldini oladi. Masalan, Aziza mehribon - qiz. Aziza onasi uchun har narsaga tayyor. Onasi ham Azizani rosa yaxshi ko‘radi. Azizaning dugonalari orasida ham hurmatli baland. Bu kichik matnda Aziza so‘zining bir necha marta takrorlab ishlatilishi nutqini g‘aliz holatga keltirgan. Aziza so‘zini hadeb takrorlayvermasdan, uning o‘rniga kishilik olmoshidan foydalansa, nutqning tog‘riligi ta’minlanadi. Buni o‘quvchilarga ham tushuntirib borish darkor.

Olmoshlar mavzusini o‘quvchilarga o‘rgatishda ko‘proq hayotiy misollar asosida, yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda, mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarish asosida, har bir o‘quvchining bajargan ishini bee’tibor qoldirmagan holda, uy vazifalarni ham muntazam tekshirib, o‘quvchilarni rag‘batlantirgan holda dars tashkil etilsa, o‘qituvchi o‘z maqsadiga erishadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar :

1. Ra’no Ikromova, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Dilorom Shodmonqulova. Ona tili. Umumta’lim maktabilarining 4-sinfi uchun darslik. “O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. Toshkent. 2017.
2. Nilufar Rasulova. Ona tilidan savollar. “Nurafshon ziyo yog‘dusi”. Toshkent. 2018.
3. Nargiza Erkaboyeva. Ona tilidan ma’ruzalar to‘plami. “O‘zbekiston”. Toshkent. 2017.

METAFORA VA UNDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Davlatboyeva Dilfuza Rustamovna
Namangan viloyati Uychi tumanidagi 9-sonli umumiy
o‘rta ta’lim maktabining ona tili fani o‘qituvchisi
+998974660141
davlatboyeva@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada she’rlarda metaforadan foydalanib obrazlilikni, tasviriylikni konnotativ ma’no orqali ifodalagan. Ushbu maqolada Usmon Azim ijodida metafora ma’lum uslubiy maqsad yuklaganligi va she’rga ekspressivlik va emotsionallik baxsh etganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ko‘chim, metafora, adabiyot, so‘z, she’r.

O‘zbek lingvopoetikasida, so‘z ma’nosining ko‘chish jarayonlari turli ko‘rinishlarda voqe bo‘ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari batafsil o‘rganilgan. Ko‘chimlar lingvopoetikada “troplar” atamasi ostida o‘rganilgan. Ko‘chimlar quyidagicha tasnif qilinadi: 1. So‘z ma’nosining miqdoriy ko‘chishiga asoslangan troplar(giperbola, meyozis); 2. So‘z ma’nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan troplar(metafora, metonimiya, ironiya). So‘z ma’nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usulidir. Shu boisdan juda ko‘p ijodkorlar o‘z asarlarida ko‘chimning aynan shu turidan foydalanadi. Metaforaning ikki tur mavjud: lingvistik va xususiy- muallif metaforalari.

Lingvistik metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Usmon Azim ko‘proq metaforaning xususiy- muallif turiga murojaat qilgan va shu orqali borliqni subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalagan holda aks ettirishga erishadi. Shoir she’rlarida metafora voqelikni obrazli tasvirlashga, uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Metaforik qo‘llash konnotatsiyani yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri sifatida ahamiyatlidir. Usmon Azim ham badiiy nutqning obrazliligini oshirishda metaforadan unumli foydalanadi. Bog‘ qo‘ynida ikki daraxt, Bir –biriga intizor. Ushbu she’rda ikki daraxt deyilganda yor va oshiq nazarda tutilayotganligi o‘z- o‘zida ayon. Biroq metaforaning yuzaga kelishida so‘zning uslubiy- semantik jihatlari qay darajada rol o‘ynaganligi quyidagicha aniqlay olish mumkin. Avvalo, darxt so‘zining semalarini aniqlash kerak bo‘ladi. ***Ikki daraxt*** – gullaydi, meva beradi, xazon bo‘ladi, faqat ildiz otgan joyida turadi… Endi yor va oshiqning semalarini aniqlaymiz. ***Yor va oshiq*** – ulg‘ayadi, sevadi, seviladi, ayriladi…

Ot so‘z turkumi orqali ifodalangan metafora gapda ega vazifasida kelishi mumkin. Masalan, “Au-dehors, la neige s’était remise à tomber, fine et légère. Des papillons incertains voltigeaient derrière les vitres.

Ot so‘z turkumi orqali ifodalangan metafora ot kesim vazifasida kelishi mumkin. Masalan, “toute âme est un cratère et tout peuple est un volcan.

Metafora orqali ma’no ko‘chirish turli xil so‘z turkumlari yordamida yuzaga keladi. Masalan, ot, sifat, fe’l, ravish so‘z turkumlaridagi so‘zlar orqali metaforalarni hosil qilish mumkin. Bulardan fe’l so‘z turkumi doirasidagi metaforalar ko‘plab uchraydi, ravish so‘z turkumi doirasidagi metaforalar esa kamdan-kam hollarda kuzatiladi.

Yuqoridagi semlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ***ikki darxtning*** *gullashi, meva berishi, xazon bo‘lishi****, yor va oshiqning*** *sevishi, sevilishi, ayrilishi* kabi semalar bilan uyg‘unlikni hosil qiladi va shu o‘xshashlik asosida metafora vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шомақсудов. А Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили – Т.,1986,
2. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Т.,1976.
3. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent. 2005.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA MANTIQIY MASALALARDAN FOYDALANISH

Davlatova Farog‘at
Namangan shahar 9- umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: 936715902

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishda yangicha yondashuvlar haqida hikoya qilinadi. O‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishda, tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilishda mantiqiy masalalar yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, mantiqiy fikrlash, “Muammoli dars”, amaliy faoliyat.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan juda ko‘p sohalar isloh qilinmoqda. Bugungi kun ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham ta’lim samaradorligini oshirish, zamonaviy va kreativ fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilgan. Uzluksiz ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim muhim bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘zini –o‘zi anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga o‘rgatadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘z mashg‘ulotlarida belgilangan maqsad va vazifalarni e’tiborga olgan holda ta’limning harakatchan modelini yaratadi. Matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish “Muammoli dars“ metodi fikr yoki xulosani o‘quvchining o‘zi chiqarishiga yordam beradi, dunyoqarashini kengaytiradi, o‘quvchida hayotiy ko‘nikmalar hosil qiladi, amaliy faoliyat bilan bog‘liq bilimlarni oshiradi.Hayotning har jabhasida matematik tenglamalar bor. Ularni oson, sodda va ravon tilda tushuntirish darslar davomida an’anaviy mantiqiy tenglamalarni yechib borishi yuqori sinfga borayotgan o‘quvchilarni fanni oson tushunishiga yordam bersa, hayotiy ko‘nikmalarning mustahkamlanishi kelajakda unga datur bo‘lib xizmat qiladi.

Mantiqiy masala:

Sotib oldim beshta ayiq,
Suvga soldim beshta qayiq,
O‘ylab ko‘rib aytingchi,
Suvda nechta ayiq, nechta qayiq.

O‘quvchilarimiz bu masalani eshitishlari bilan 60-70% 10 ta deb javob beradi, lekin men sotib olishim mumkin bo‘lgan o‘yinchoq ayiqlarni hisobga olmay javob berishadi. Ayiqlarni suvga solib qayiqqa solish kerakligini kechroq anglashadi. Matematik mantiqiy masalalar o‘quvchilar dunyoqarashini ham kengaytirib hayotiy ko‘nikmalarini oshirib boradi.

Mantiqiy masalalar:

1. Sinfda 32 ta o‘quvchi o‘qiydi, ulardan 24 tasi rus tilini biladi, 16 tasi ingliz tilini biladi. Nechtasi har ikki tilni biladi?

Javob: 8 tasi

2. Ikkita bodringni 12 bo‘lakka bo‘lish uchun, pichoq bilan ularni necha marta kesish mumkin?

Javob: 10 marta

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimjon Qosimov “Aqlga quvvat birliklar”-T.,”Yangi asr avlodi”2014

MULTIMEDIALI DARSLARNI TA'LIMDAGI O'RNI.

Davronova Gulchehra Axtamovna,
Qiziltepa tumani 41-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi,
Telefon:+998(90)7308700
uktam.bozorov.1987@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada multimedia dasturlari ma'lumotni turli shakllarda taqdim etishi va shu bilan birga o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ekanligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuter,multimedia,televizor,proyektor,audio,video.

"Multimedia" ingliz tilidan tarjimada "juda ko'p vositalar" degan ma'noni anglatadi: ovoz, video, grafika (diagrammalar, fotosuratlar, rasmlar). Qisqasi, multimediya bu kompyuter va proyektor bo'lib, Internetdagi har qanday kompyuterdan, shuningdek televizordan, videomagnitafondan va hokazolardan ma'lumotlarni loyihalash imkonini beradi. Ko'rgazmali kompyuter yordamida darslarni o'tkazish talabalarga materialni yaxshiroq yodlab olishga, o'rganilayotgan masalaning mohiyatiga chuqurroq kirib borishga yordam beradi. Multimedia texnologiyasini tushuntirish va tasviriy o'qitish usuli sifatida ko'rib chiqish mumkin, uning asosiy maqsadi o'quv materiallarini tarqatish orqali o'quvchilar tomonidan ma'lumotni o'zlashtirishni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli qabul qilinishini ta'minlash, vizual xotirani ulash orqali yaxshilanadi. Evro Lingvistika Instituti (Gollandiya) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ko'pchilik odamlar eshitgan narsalarning 5 foizini va ko'rgan narsalarining 20 foizini eslashadi. Bir vaqtning o'zida audio va video ma'lumotlardan foydalanish xotirani 30-50% gacha oshiradi.

Multimedia dasturlari ma'lumotni turli shakllarda taqdim etadi va shu bilan o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Muayyan materialni o'rganish uchun talab qilinadigan vaqtni tejash o'rtacha 30% ni tashkil etadi va multimedia dasturlari yordamida olingan bilimlar talabalar xotirasida uzoqroq saqlanadi. Metodik nuqtai nazardan, multimediya quyidagi namoyish afzalliklariga ega: slaydlardan foydalanib, siz tashkiliy kognitiv faoliyatning turli shakllaridan foydalanishingiz mumkin: frontal, guruh, individual; Siz maktabda mehnatni muhofaza qilish talablariga binoan amalga oshirib bo'lmaydigan turli xil videokliplar, rasmlar, diagrammalar, diagrammalar, eksperimentlardan foydalanishingiz mumkin. Ko'rgazmali shaklda taqdim etiladigan ma'lumotlarning ulushini ko'paytirgan holda, multimediya resurslari o'qituvchiga o'quv materiallarini yetkazib berish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi (rangli dinamik rasmlar, ovozli hamrohlik, "jonli" darslarning parchalari va boshqalar). Axborot olish, saqlash va qayta ishlashning elektron usullari bizga pedagogik va ma'rifiy faoliyatning yangi turlarini (o'quv saytlarini yaratish, lug'atlar, ma'lumotnomalar tuzish va boshqalar) joriy etishga imkon beradi.

Multimedia taqdimoti darsning uch didaktik maqsadiga eng maqbul va samarali javob beradi:

- Ta'lim yo'nalishi - o'quvchilarning o'quv materialini idrok etishlari, o'quv ob'ektlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni tushunish;
- rivojlanayotgan tomon - o'quvchilarning bilimga qiziqishini, umumlashtirish, tahlil qilish, taqqoslash, ijodiy faoliyatini faollashtirish qobiliyatini rivojlantirish;
- tarbiyaviy jihat - ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mustaqil va guruhli ishlarni aniq tashkil etish qobiliyati, kameralar hissini rivojlantirish va bir-birlariga yordam berish qobiliyati.

Matematika, rus tili va multimedia texnologiyalarini o'qitish jarayonida foydalanilganda darsning an'anaviy tuzilishi tubdan o'zgarmasligi mumkin. U hali ham barcha asosiy bosqichlarni saqlab qoladi, faqat vaqtinchalik xususiyatlar va to'yinganlik o'zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Башмаков, М.И. и др. Понятие информационной среды процесса обучения // Школьные технологии.- 2000.- №2.

2. Бобровская, Т. Системный подход: Информационные технологии в воспитательном процессе //ИКТ в образовании. – 2007. - №9.

MAKTABDA AXLOQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISH

Davurova Dilobar
Jizzax shahar 28- umumta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Mamato'rayeva Ozoda
Jizzax viloyati Do'stlik tumanidagi
6-umumta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
davurovad@mail.ru +998.90-297-57-65

Annotatasiya: Ushbu maqola maktab o'quvchilari o'rtasida odob-axloq qoidalarini targ'ib qilish, ularga qat'iy rioya etish talablarini o'rgatadi. Maqolada o'qituvchilar va o'quvchilar ham amal qilish lozim bo'lgan ko'plab talablar o'rin olgan.

Tayanch iboralar: tarbiya jarayoni, axloqiy tushuncha, axloqiy tarbiya,o'z-o'zini baholash.

Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish, uning ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni-o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his va tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Tarbiya jarayonida o'quvchining onginigina emas balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim.

O'quvchilarda axloqiy tushuncha va e'tiqodlarni tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlarni hosil qilib bo'lmaydi.

Axloqiy tarbiya murakkab jarayondir.Bunda dastlab bolalarga axloq, odob me'yor qoidalari mazmuniga oid bilim berishga e'tibor beriladi. Avvalo o'quvchini yaxshi bilan yomonni farq qilishga o'rgatish uchun unga odob va odobsizlik haqida tushuncha beriladi, kichik hikoya qahramonlarining odobli va odobsizlik hatti-harakatlariga oid na'munalar keltiriladi va so'ngra yaxshi odatlarni hosil qilishga qaratilgan faoliyat uyushtiriladi. O'quvchi axloqiy tushunchalarni badiiy adabiyotdan, hayotdan, kinofilm va teatr mazmunidan va turli- tuman suhbatlardan bilib boradi. Shular asosida unda axloqiy mulohaza tarkib topib boradi, kishilarning xulqini, voqealarni to'g'ri baholashga o'rganadi. O'z xulqini muhokama qilish va baholashdan ko'ra boshqalarning xulqini muhokama qilish ancha oson. Ammo bolani o'z-o'zini kuzatishga o'rgatish nihoyatda muhim. Shuning uchun bolalarni 1- sinfdan boshlaboq o'z xulqini axloqiy jihatdan baholashga o'rgatib borish kerak. Nima uchun mehnatni sevish va maktab mulkini ehtiyot qilish kerakligini, mehnatkash kishilarga hurmat bilan qarash, rostgo'y, sofdil, vijdonli, kamtar bo'lishning ma'nosini o'quvchi tushunib, anglab olishi lozim. Buning uchun darsligimizdagi masalan: "Mardlik va qo'rqoqlik", "Yolgonchilik va rostgo'ylik", "Mehnatsevarlik va oliftalik", "Chumchuq bola" kabi xislatlar ilgari surilgan mavzular asosida bolalar bilan bahs-munozaralar uyushtirish mumkin. "Chumchuq bola" hikoyasi asosida o'quvchilar bilan bahs-munozara o'tkaziladi.Buning uchun o'qituvchi tomonidan "Chumchuq bola" hikoyasi o'qib eshittiriladi, undagi qahramonlarga ta'rif beriladi.Hikoyada ikkita qahramon bor,Boboxon va Tal'at. Bunda Boboxon hikoyaning salbiy qahramoni,Tal'at esa ijobiy qahramoni. Sinf ikki guruhga ajratiladi:1-guruhga Boboxonni yoqlashi kerakligi; 2-guruhga esa Tal'atni yoqlashi kerakligi tushuntirib o'tiladi, lekin Boboxonni yoqlagan guruh uning yaxshi xislatlarini ham topa bilishi kerak. O'qituvchi o'quvchilar o'rtasida bahs-munozarani qizg'in davom etishi uchun rivojlantiruvchi savollar orqali boshqarib turiladi. Bu xil munozaralarda ularga faktlar keltirish va isbotlash, xatolarni to'g'irlashga yordam berish g'oyat muhimdir. Ba'zan bahs-munozara mavzusi savol bilan o'tishi mumkin. Bu bilan o'quvchi baxtni qanday tushunasiz? Inson go'zalligi nimada? va hokazo xatti-harakatlariga taalluqli yaramas hollar axloqiy bilimsizlikdan, ongsizlikdan, nodonlikdan kelib chiqadi.

O'quvchiga ta'sir etish va shunga muvofiq uning xulqidagi o'zgarishni o'rganish bilan uning onglilik darajasining o'sishini ham aniqlash mumkin. Masalan: O'quvchi vazifalarini bajarib bo'lgach, uni o'zi baholasin va nima uchun shu xil ball bilan baholanganligini tushuntirib bersin.

Shu tarzda o‘quvchini o‘z xulqini baholashga o‘qishda, mehnatda, hayotda muvaffaqiyatga erishish o‘zining shaxsiy fazilatiga bog‘liq ekanligini anglashga o‘rgatish mumkin bo‘ladi.

Buning uchun masalan, bolalarga o‘z ishlarining natijasini alohida kundalikka yozib borishni tavsiya qilish mumkin. Kundalikda “Bugun qanday yaxshi ish qildim?”, “Bugun qanday yomon ish qildim?”, “Ozimdagi qaysi fazilatni tuzatishim kerak?” degan uch bo‘lim bo‘lishi mumkin. Kundalikda haftaning oxirida “O‘tgan haftadan qanoatlanamanmi?”, “O‘zimni jazolashim kerakmi yoki mukofotlashim?” degan savolga javob yozishni tavsiya qilish mumkin. Sinf rahbari soatida yoki individual suhbatlarda bu yozuvlar tahlil qilinadi.

O‘quvchining o‘qishga munosabati uning o‘z-o‘ziga munosabati bilan uzviy bog‘liq. Kundalik yuritish bolani ana shu aloqani anglashga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatadi.

O‘quvchilarni axloqiy ruhda tarbiyalash ularning xarakter xislatlarini tarkib toptirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu xislatlar maqsadga intiluvchanlik, o‘qish va ishda matonatlilik, qat’iyat, tashabbuskorlik, uyushqoqlik, qiyinchiliklardan qo‘rqmaslikni tarbiyalaydi.

O‘quvchilarda bu sifatlar turli xil faoliyat jarayonida - o‘qishda jamoat ishlarida ishtirok etish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish, sinfdan tashqari ishlarda tashabbus ko‘rsatib qatnashish orqali shakllanadi.

Axloqiy tarbiyada uning natijasini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiyaning natijasini belgilashda va baholashda ayrim maktablarda o‘tkazilgan tadbirlar soni (nechta suhbat, ekskursiya, bahs-munozara va hakazo). Bu ishlar bolalarda qanday fazilatlar hosil qilgani yoki mustahkamlanishiga sabab bo‘lganligi hamisha ham inobatga olinavermaydi. Ko‘p joylarda tarbiyaning natijasini aniqlashda o‘quvchilar xulqiga qo‘yilgan baho asos qilib olinadi.

Bizningcha, o‘quvchining axloqiy tarbiyalanganligi natijasini hisobga olishda va baholashda uning ijtimoiy faolligi, muomala va aloqalari, ma’naviy yo‘nalishi va xulqida barqaror, mustahkam axloqiy sifatlari mavjudligi va ifodasi asosiy ko‘rsatkichdir.

O‘quvchining axloqiy tarbiyalanganlik darajasini faqat shaxsni har tomonlama o‘rganish asosidagina eng to‘g‘ri va mukammal baholash mumkin…

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika (Toshkent-“O‘qituvchi-1981-yil”) [1,333].
2. Boshlang‘ich sinf “O‘qish”, va “Odobnoma” darsliklari.

INFORMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI MATERIALLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING TURLARI

Djakbarova Nargiza Amanovna
Namangan viloyati Uychi tumanidagi
7 - sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining
informatika fani o‘qituvchisi
+998974660141
djakbarova@mail.ru

Annotatsiya: informatikadan dars samaradorligini oshirishda qiziqarli materiallardan foydalanish va uning usullari haqida bo‘lib, unda o‘qituvchining qanday innovatsion yondashuvlar qo‘llashi borasida.

Kalit so‘zlar: informatika, innovatsion yondashuv, samaradorlik, topshiriqlar, ta’lim

Hozirgi kunda informatikadan dars samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilar bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi iliq munosabatlarga olib keladi. Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayatgan axborot- ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texbologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga qiziqsh uyg‘otishdan iboratdir.

Informatika darslarida o‘quvchilarni fanga qiziqtirish borasida turli xil usullardan, interfaol metodlar orqali dars samaradorligini oshirish hozirda davr talabi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o‘quv mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, darsning turli bosqichlarida turlicha qo‘llaniladi. Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Olimlarning fikriga ko‘ra, bolalarning maktabdagi o‘quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shalllantirish qonuniyatlari o‘yin faoliyatlarida mujassam bo‘ladi. O‘quvchilarning aqliy rivojlantirishga yordam beruvchi quyidagi o‘yinlarni aytib o‘tishimiz lozim:

- Buyumlar va predmetlarga bog‘liq bo‘lgan predmetli o‘yinlar. Bunda o‘quvchi o‘yinchoq-predmet orqali moddiy olamni ularning xususiyatlarini anglashi mumkin;
- Intellektual faoliyatini shakllantiruvchi sujetli- rolli o‘yinlar. Bunday o‘yinlar nafaqat ko‘ngil ochuvchi vosita, balki ulkan evristik va ishontiruvchi energiya manbasidir;

Quyida ulardan misollar keltirib o‘tamiz: **dasturchi va buyurtmachi** o‘yini. Dasturlash bo‘yicha o‘tiladigan dars mashg‘ulotlarida “ Dasturchi va buyurtmachi” rolli o‘yinini qo‘llash ham o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Unda buyurtmachi dasturchilar kompaniyasiga kelib, buyurtma qilinadigan dasturga bo‘lgan talablarni tavsiflaydi. “ Menga muzqaymoqni reklama qiluvchi stend kerak”, “ Menga zamonaviy uyning loyihasi kerak”. Mazkur topshiriq bo‘yicha kompaniya, ya’ni guruh a’zolari jamoalarga bo‘linib, vazifalarni taqsimlab oladilar. Uni talab darajasida bajaradilar. Ekspertlar guruhi topshiriqni bajarilish sifatini va kampaniya ishini baholashlari mumkin. O‘yin to‘rt guruhga bo‘linib o‘ynaladi, o‘quvchida ijodiy fikrlash va o‘z qobiliyatlarini amaliy ishda sinab ko‘rish imkonini beradi.

Karrali sonlar o‘yini. O‘yinda ishtirok etuvchi guruh talalabalaridan tuzilgan jamoa o‘yinga shay turadi. Navbat bilan sonning navbati yetganda, shu sonning o‘rnida talaba, albatta kompyuterning bironta buyrug‘ini yoki yordamchi klavishning vazifasini aytishi shart. Qoidani buzgan har bir o‘quvchi o‘yinni tark etadi va o‘yinni ma’lum vaqt davomida belgilab g‘olib o‘quvchini aniqlanadi. Ushbu o‘yin xotirani charxlashda juda qo‘l keladi.

Mazkur ishni yoritish davomida, o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda dars jarayonlarida turli xil o‘yinlar orqali dars samaradorligini oshirish ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismanova K. Amaliy dars mashg‘ulotlarini innovatsion usullar yordamida tashkil etish- Ta’lim muammolari jurnali. 2- son. 2012.

KASBIY KOMPETENTLIGI SHAKLLANGANLIGINI ANIQLASH

Djaliova Karomat Raxmanovna
Termiz shahar 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel:+998936381797

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligining shakllanganligini baholash prinsiplari, pedagogik jarayonni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, metodlari, shakllari va mezonlari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetensiya, prinsip, pedagogik jarayon, assesment, imitatsiya, metod, shakl, nazorat, baholash, test.

Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to‘liq to‘plamini nazarda tutish kerak bo‘ladi. Bunda inson duch kelgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita ta’sir etadi.

Kompetentlikning mavjudligi inson mehnatining natijasiga qarab aniqlanadi. Har bir mutaxassisning kompetentlilik darajasi, uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlari shuki, kompetentli mutaxassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo‘lib, ular doimo yangilanib turadi. Muammoning mazmunini tushunishning o‘zi yetarli bo‘lmay, uni jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, shu bilan birga, kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri yo‘llarni chiqarib tashlash, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi1.

Kasbiy kompetensiyalarni baholash maqsadlari. Kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishdan maqsad muayyan kasbiy faoliyat uchun zarur hisoblanadigan kompetensiyalarni muhimlik darajasiga ko‘ra belgilab olish, real holatlarni baholay olish va kompetensiyalarni mavjud bo‘lgan darajasidan talab etiladigan darajaga olib chiqishdir. Ta’lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning asosiy – tayanch bo‘g‘imi hisoblanadi va uning maqsadi:

− kasbiy kompetensiyalarning mavjud bo‘lgan darajasining standart talablarida belgilangan darajaga mosligini aniqlash;

− bitiruvchi egallagan kompetensiyalarining ish beruvchi muassasalar talablariga mosligini aniqlash;

− bitiruvchilarning mustaqil ravishda kasbiy faoliyat yurita olish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Kasbiy kompetensiyalarni baholash sifatini oshirish prinsiplari. Kasbiy kompetensiyalarni baholash metodikalariga ko‘ra baholash quyidagi ishonchlilik va yetarlilik prinsiplariga mavofiq bo‘lishi kerak: ishonchlilik – baholash bevosita baholash obyektiga, ya’ni baholanayotgan kompetensiya elementiga tegishli bo‘lishi kerak; yetarlilik – baholashda kompetensiyaning baholanayotgan elementlari namoyon bo‘ladigan faoliyatning muhim jihatlarini ko‘rsatish uchun yetarli miqdordagi dalillardan foydalanish zarur. Baholashda aniq va tushunarli parametrlarga asoslangan, kasbiy vazifalarni hal etish natijalarini belgilaydigan atamalar orqali ifodalanishi va kompetensiyalarning sifatini, ya’ni o‘zlashtirilganligini bildiruvchi aniq xulosalarga asoslanishi kabi mezonlarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi kerak.

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholashda asosiy e’tiborni kompetensiyalarning alohida elementlari mavjudligiga emas, kasbiy vazifalarni hal eta olish layoqatlarini namoyon qila bilishga qaratish lozim. Baholash uchun beriladigan topshiriqlarni real kasbiy vazifalarning imitatsiyasi ko‘rinishida shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, bunda kasbiy masalalarni hal etish jarayonida namoyon bo‘ladigan kompetensiyalarning turli elementlarining rivojlanganlik darajasi baholanadi. Bundan tashqari, baholash natijalari bo‘yicha xulosalar bo‘lajak mutaxassisning aniqlangan malakalari kasbiy (funksional) vazifalarni bajara olish uchun yetarli darajadami, yo‘qmi degan savolga javob berishi zarur. Agar yetarli bo‘lmasa,

qanday rivojlantiruvchi choratadbirlarni amalga oshirish orqali kasbiy kompetensiyalarni talab darajasiga ko‘tarish mumkinligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish lozim.

Kasbiy kompetensiyalarni baholashning asosiy shakllari umumiy kompetensiyalarni baholash shakllaridan farq qiladi. Bu kasbiy kompetensiyalar elementlarini baholash ko‘rsatkichlarining o‘ziga xosligidan kelib chiqadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, ta’lim oluvchilarning kasbiy muammolarni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun real kasbiy muammoli vaziyatlarga o‘xshash topshiriqlar ishlab chiqish zarur. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini baholash metodlari nazoratlar va testlardir.

Ta’lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashda o‘tkaziladigan nazoratlarning an’anaviy ta’lim tizimidagi nazoratlardan asosiy farqi shuki, kasbiy kompetensiyalarni baholashda bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi emas, balki o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni amaliy faoliyatdagi vaziyatlarda qo‘llay olish layoqatlari orqali baholanadi. Shu sababli testlar faqat pedagogik, metodik, texnik-texnologik amaliy topshiriqlarga qo‘shimcha sifatida ishlatiladi. Nazoratlar quyidagicha o‘tkazilishi mumkin: og‘zaki muloqot layoqatlarini aniqlash maqsadida og‘zaki shaklda; ta’lim natijalariga baho berish uchun og‘zaki savollar orqali intervyu shaklida; (audit — tinglamoq, ta’lim oluvchini tinglash va nutqini talqin qilish orqali kompetensiyalariga baho berish maqsadida audit shaklida; nazariy bilimlarni tushunganligi va ularni amalda qo‘llay olishini baholash maqsadida yozma (yoki test) shaklda. Nazoratlar turli xil savollarni o‘z ichiga olishi mumkin, ya’ni savollar orqali quyidagi talablar qo‘yilishi mumkin: qisqa javoblar berish; bir nechta javobdan to‘g‘risini tanlash va asoslab berish; tuzilmali savollarga esse tipidagi mufassal javoblarni yozish. Tuzilmali savollar birorbir masala bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilimlarni aniqlashni ko‘zda tutadi. Esse tipidagi mufassal javoblarni talab etuvchi savollar ham birorbir masala bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilimlarni baholash hamda muhokama qilish, taqqoslash, tahlil qilish, baholash yoki muammoning yechimini izlab topish kabi kognitiv kompetensiyalarni aniqlashni ko‘zda tutadi. Ular tuzilmali savollardan javobning kengroq bo‘lishi bilan farqlanadi. Nazoratlar kompetensiyalarni namoyish qiladigan amaliy mashg‘ulotlarga qo‘shimcha tarzda o‘tkazilishi mumkin.

O‘zo‘zini ta’riflash. Talabalar o‘z kasbiy kompetensiyalarini o‘zlari ta’riflab beradilar, bu ta’riflar guruhning boshqa talabalari va o‘qituvchi tomonidan tasdiqlanishi kerak. O‘zo‘zini ta’riflash metodi bu baholanuvchi talabaning o‘z kasbiy kompetensiyalari darajasini yozma ravishda o‘zi baholashidir. Ta’rifda keltirilgan barcha ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tekshiriladi va tasdiqlanadi. Ta’rifda, odatda, quyidagi ma’lumotlar aks ettiriladi: talabaning ismi-sharifi, ta’lim bosqichi, akademik guruhi; talabaning mazkur fan bo‘yicha bajargan ilmiy yoki ijodiy ishlari ro‘yxati; talaba tomonidan o‘z kasbiy kompetensiyalarining baholanishi; kelajakda kasbiy jihatdan o‘zini takomillashtirish va o‘sish bo‘yicha rejalari; o‘quv yurtidagi ta’lim jarayoni to‘g‘risidagi fikrlari va takliflari. O‘zo‘zini ta’riflash metodi pedagogikaning boshqa ta’lim yo‘nalishlari orasida kasb ta’limi yo‘nalishiga ko‘proq mos keladi, chunki ushbu yo‘nalishda kasbiy kompetensiyalar komponentlarining turlari ko‘p va xilmaxil bo‘lib, kompetensiya elementlarini rivojlantirish va baholash shakllari ham turlituman. Bunday yondashuv bo‘lajak muhandispedagoglarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Муслимов Н. А. ва б. Касб таълими мазмунини модернизациялаш асосида ўқитувчилар касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2013. – Б. 128.

2. Муслимов Н. А. ва б. Модулли-компетентли ёндашув асосида касб таълими ўқитувчисининг касбий (махсус) компетентлигини шакллантириш технологияси. – Тошкент: ТДПУ, 2014 йил. – Б. 116.

KASBIY KOMPETENTLIGI SHAKLLANGANLIGINI BAHOLASH METODLARI

Djalilova Muqaddas Raxmonovna
12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998915805661

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligining shakllanganligini baholash prinsiplari, pedagogik jarayonni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, metodlari, shakllari va mezonlari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kasbiy kompetensiya, prinsip, pedagogik jarayon, assesment, imitatsiya, metod, shakl, nazorat, baholash, test.

Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida turli xildagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to‘liq to‘plamini nazarda tutish kerak bo‘ladi. Bunda inson duch kelgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita ta’sir etadi.

Kompetensiyalar shakllanganligini baholash jarayonini amalga oshirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega: – baholashni amalga oshirish uchun maxsus kasbiy kompetensiyalarning komponentlari belgilab olinadi;

- talabaning bajargan ishlarini baholash mezonlari sifatida davlat ta’lim standartlarida belgilangan kompetensiyalar darajasiga mosligi belgilanadi;
- me’yoriy ko‘rsatkichlardan past bo‘lgan natijalar kompetensiyalarning yetarli darajada emasligini bildiradi;
- kasbiy kompetensiyalar darajasini baholash kasbiy funksional vazifalarni bajarish darajasi pastligining sabablarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Buning uchun kasbiy kompetensiyaning har bir elementi uchun baholash ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak va ushbu ko‘rsatkichlar orqali kasbiy vazifalarni hal etish jarayonida kompetensiyalar darajasining mavjudligi haqida xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi;
- agar kasbiy kompetensiyalarni aniqlash uchun baholashning qo‘shimcha metodlari talab etiladigan bo‘lsa, albatta, ularga murojaat etish kerak. Buning uchun kasbiy kompetensiyalar elementlarini baholash yo‘llarini bevosita ish o‘rnida belgilab qo‘yish zarur (masalan, maxsus tashkil etiladigan nazoratlar o‘tkazmasdan kasbiy bilimlarni ekspressbaholash);
- agar kasbiy kompetensiyalarning barcha elementlari talab darajasida bo‘lsa-yu, natijalar qadar yuqori bo‘lmasa, demak, kompetensiyalar matritsasida talabalar faoliyati natijalariga ta’sir etuvchi barcha omillar e’tiborga olinmagan bo‘ladi;
- imitatsion topshiriqlarni shunday tuzish kerakki, ularni bajarish jarayonida talaba kasbiy kompetensiyalarining hamma elementlarini namoyish eta oladigan bo‘lsin;
- kompetensiya elementining shakllanganlik darajasini aniqlashning asosiy usuli talabaning o‘z kasbiy funksional vazifasini hal etish yo‘llari bo‘yicha og‘zaki hisobotini baholashdir, ya’ni talaba vazifani hal etgandan so‘ng, uni qanday tarzda yechganligi, qay bilim va ko‘nikmalardan foydalanganligi va hokazolarni tushuntirib berishi baholanadi;
- talaba o‘z ishi qanday mezonlarga ko‘ra baholanashini oldindan bilishi lozim;
- baholash individual tarzda amalga oshiriladi, lekin bir xil topshiriqlarni bajargan barcha talabalar uchun baholash mezonlari ham bir xil bo‘lishi zarur.

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligining shakllanganligini baholash va uning sifat darajasini ta’minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ta’lim jarayonini shaxsning kasbiy kompetentlikka erishishida betakror individualligini rivojlantirishga qaratish;
- bo‘lajak mutaxassisning o‘quvbilish, imitatsionmodellashtirish va kasbiyamaliy faoliyatining o‘zaro to‘ldiruvchanligi va izchilligini ta’minlash;
- kasbiy kompetentlikni insonparvarlikka qaratilgan holda tashxis qilish va o‘zo‘zini tashxis qilish;
- kasbiy kompetentlikning subyektli, obyektli va predmetli tarkibiy qismlarini shakllantirish

vositalari sifatida subyektliamaliy, mazmuniytexnologik va predmetlinatijaviy vazifalar tizimidan foydalanish kabi psixologikpedagogik shartsharoitlarni yaratish.

Adabiyotlar:

1. Муслимов Н. А. ва б. Касб таълими мазмунини модернизациялаш асосида ўқитувчилар касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2013. – Б. 128.

2. Муслимов Н. А. ва б. Модулли-компетентли ёндашув асосида касб таълими ўқитувчисининг касбий (махсус) компетентлигини шакллантириш технологияси. – Тошкент: ТДПУ, 2014 йил. – Б. 116.

O‘QISH DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN METOD VA USULLAR

Djalilova Xurshida Yuldashevna,
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi, Boyovut tumani
№ 18 maktab,Sirdaryoviloyati,O‘zbekiston Respublikasi
Telefon:+998915028404 mustafo2007@mail.ru

Annotasiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘qish darslari muammolari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qish darslari, zamonaviy metodlar,innovatsion texnologiyalar.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishganligi va hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy o‘zgarishlar jamiyatimiz ijtimioy hayotida tub burilish boshlab berdi va ular o‘zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta’lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog‘liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat amaliyotiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo‘lib, o‘z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga ko‘ra yosh avlodni ma’naviy - axloqiy barkamol inson qilib tarbiyalash davlatimiz oldidagi turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, faqat ma’naviy barkamol, erkin va ozod insongina kuchli bilim va tafakkur orqali har bir sohada to‘la muvaffaqiyat qozona olishi mumkin.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab insonning ma’naviy dunyosiga, uning har tomonlama yetuk bo‘lishiga jamiyatning sog‘lom turmush tarziga e’tibor har qachongidan kuchaytirildi. Ma’naviy axloqli va komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shaxs ma’naviyatini tarbiyalash va rivojlantirish oiladan boshlanadi va maktabda davom ettiriladi. Bolaning eng asosiy vaqti endi maktabda o‘tadi. Shuning uchun maktab ta’limini va maktab darsliklarini mukammallashtirish bugungi kunimizning asosiy vazifalaridan biridir.Ta’lim mazmuni o‘quv fani sifatida ona tili oldiga qo‘yilgan vazifalarga qarab belgilanadi. Bu vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, o‘quvchilarni aqliy va nutqiy rivojlanishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga va axloqiy tarbiyalashga, oddiy lisoniy bilimlarini o‘zlashtirishga, ongli o‘qish va yozish malakalarini hamda darslik bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltiradi. Bu vazifalarning barchasi o‘zaro bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ularni foydali hal qilish zaruriy lisoniy ma’lumotlarni asosli tanlashga, darslikda berilgan o‘quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy matnlarni uyg‘unlashtirish ustida ishlashga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifati, topshiriqlar xarakteri va o‘quvchilarning aqliy faoliyatining xususiyatlarini belgilaydigan qator uslubiy sharoitlarga bog‘liq.Yoshlarning nutq madaniyatini shakllantirishda maktabning, xususan, o‘qituvchilarning xizmati katta. O‘qish darslarida o‘qituvchilar o‘quvchilarda ona tilining o‘ziga xos tomonlariga nisbatan qiziqish uyg‘otadilar, mulohazalarini yozishga o‘rgatadilar. Chunki yozma va og‘zaki nutq madaniyatini egallash ona tili va o‘qish darslari orqali amalga oshadi.

«Xalqning madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan tarixiy va madaniy qadriyatlarni hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi».Yurtboshimizning ushbu fikrlariga qo‘shilgan holda yosh avlodga O‘qish darslari orqali yaxshi va ifodali o‘qish malakalarini shakllantirishga e’tiborini qaratish lozim. Bu o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida amalga oshiriladi.Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki, uning zaminida savodxonlik va ahloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi.

O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta’lim standartlari (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi.Shu maqsadda «O‘qish kitobi» darsliklariga ona tabiat,

atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, ahloqiy-ta’limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi egallangandan so‘ng o‘qish muayyan mavzular bo‘yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umarova M., Hakimova Sh. O‘qish kitobi . 3- sinf uchun, T.: 2006 .
2. Umarova M . 3- sinfga o‘qish darslari, T.: O‘qituvchi. 2004 .
3. Umumiy psixologiya. T.: O‘qituvchi. T.: O‘qituvchi. 1999.
4. Matchonov S. SHojalilov A. Gulomova X. Sariev Sh. O‘qish kitobi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARGA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

Djo‘rayeva Iroda Djamolovna.
Buxoro viloyati Buxoro tumani
22- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.
djurayevairoda82@gmail.com.

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning matematik tasavvurlarni shakllantirishda qo‘llaniladigan interfaol metodlar bayon qilingan .

KALIT SO‘ZLAR: Boshlang‘ich ta’lim, elementar matematik tasavvur, tahlil, sintez, tenglik, tengsizlik, bilim va ko‘nikma, belgilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yosh avlodni har jihatdan sog‘lomlashtirish, ta’lim-tarbiya berish, komil inson qilib tarbiyalash masalalariga e’tibor muhim o‘rinda turadi. Bu sohada olib borilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlarning maqsad va mohiyati yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashga qaratilgan. Pedagoglar ayni paytda innovatsion texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga kiritish orqali o‘quv samaradorligini oshirishni ko‘zlamoqdalar. Buning uchun boshlang‘ich ta’lim yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning poydevori hisoblanadi. Haqiqatdan ham, bu davrda inson bolasi dunyoni, borliqni anglayadi. Binobarin, ma’naviy boy, barkamol, axloqan pok va jismonan sog‘lom kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazish ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. Keyingi yillarda islohotlarning natijasi tufayli ta’lim-tarbiya sohasida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, fan- texnika nihoyatda jadal rivojlanayotgan davrda o‘quvchilarning turli sohalardagi tajribalarini sodda holda o‘rganishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi uchun boshlang‘ich ta’limni kerakli va zarur bilimlarini egallashlariga jiddiy e’tibor berishimiz lozim.

Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda matematik tushunchalarni berishda pedagogning o‘rnini alohida ta’kidlash joiz. O‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida pedagog tomonidan olib boriladigan mashg‘ulotlar davomida matematik tushunchalarni o‘zlashtiradi va bunga qiziqishi ortadi.

O‘qituvchining metod va usullarni tanlashi va ulardan samarali foydalanishga doimo e’tibor berishi kerak. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy metod yetakchi metod hisoblanadi. Bu metodning afzalligi, o‘quvchilarni tasvirlar, grafik rasmlar, modellar va ularni o‘rnini bosuvchi detallar bilan ishlashda amaliy faoliyatini tashkil qilishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarga elementar matematik masalalarni yechishda taqqoslash, sintez qilish, umumlashtirish, tahlil qilish o‘quvchining fikrlashini yo‘nalishini aniqlovchi metodik usul sifatida namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning asosiy usullari quyidagilar.

- analiz va sintez metodik usullar sifatida birgalikda keladi. Bu metodlar o‘quvchilar ongiga “ortiq”, “ko‘p” va “teng” tasavvurlarni shakllantirishni misol qilib olish mumkin
- tenglik va tengsizlik munosabatlarini idrok qilish va ajratish, bunda buyumni soni, o‘lchami, shakli bo‘yicha idrok qilishi va aloqa bog‘lanishlarini aniqlash malakasi
- o‘quvchilar o‘zlashtirgan amaliy ish usullari (qarshi qo‘yish, sanash, o‘lchashlar bilan taqqoslash)ni belgilar, xossalar, bog‘lanishlarini aniqlashning amaliy usullarini mustaqil izlashga yo‘naltirish. Masalan, almashinib kelish qonuniyatini, umumiy xossalarni topishni o‘rgatish mumkin
- mantiqiy savollar o‘quvchilarning idrok, xotira, nutqlarini rivojlantiradi, materiallarning tushunilishini va o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Mashg‘ulotlar jarayonida tekshirish va baholash usulini qo‘llash ham samarali natija beradi. Bu usullar o‘zaro uzviy bog‘langan. Tekshirish o‘quvchilarning masalani yechish jarayonini kuzatish ularning natijaviy javoblari orqali amalga oshiriladi.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan masala yechishda yakka va jamoa jarayonida xatolarni tuzatishni amalga oshiradi. Amaliy ta’sir ko‘rsatadigan va nutq xatolari tuzatilishi kerak. O‘qituvchi xato sabablarini tushuntiradi, namuna beradi yoki misol sifatida boshqa o‘quvchining javobini ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘lchashda, hisoblashda, tahlil qilishda yo‘l qo‘yishlari mumkin bo‘lgan

tipik xatolarni bilgani holda uning oldini olishga harakat qiladi.

Atrofdagi hamma narsalarni miqdor jihatidan kuzatishlarni uyushtirishga, o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarining xilma-xil turlarida matematik mazmundagi bilim va ko‘nikmalardan qanday foydalanishlariga kata ahamiyat beriladi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning elementar matematik tasavvurini shakllantirishda yuqoridagi metodlaridan foydalanib o‘qitilsa, o‘quvchilarning mustaqil fikrlay olish ko‘nikmalari shakllanadi, tafakkurni o‘stiradi, tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida birgalikdagi faoliyatining samaradorligi oshadi va ta’lim jarayonida yuqori natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. D. Qalandarov, D.T.Bozorov Ta’limda pedagogik texnologiyalar. ”Durdona” nashriyoti. 2013 yil.

2. X.Axmedov va boshqalar… Bolangiz maktabga tayyormi. T. 2000 yil.

SHAXSIYATNI SHAKLLANTIRISHDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING O‘RNI

Djumaqulova Sayohat Djurayevna
Termiz shahar 13-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinfda hukm suradigan muhit oilaga yaqin bo‘ladi. O‘quvchilar har doim yangi, qiziqarli narsalarni kashf etishlarini bilib, darslarga kelishdan juda xursand. Bu yerda hamma ularni qo‘llab-quvvatlaydi, maqtaydi va sevimli o‘qituvchilar ularga e’tibor va g‘amxo‘rlik qiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-psixologik, mustaqil qarorlar qabul qilish, nazorat qilish va baholash, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Boshlang‘ich maktabda bola rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari:

- bolaning o‘quv va kognitiv faoliyatini shakllantirish yo‘nalishi; - o‘quv materiallarini mohirona egallash, ta’limdan faoliyatga erkin o‘tish ko‘nikmalarini shakllantirish; - voqelikdagi ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik yo‘nalish;

Bu yerdan butun ta’lim va ta’lim jarayonining mazmuni va yo‘nalishini belgilaydigan maqsadlar yotadi:

- maqsadga erishishda qat’iylik;
- tanlangan vaziyatda mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlik.

Boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi kelgusi faoliyatning maqsadi deb atalgan narsa bilan cheklanib qolmaydi, bolaga maqsad va vazifalarni belgilash, individual qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda maqsadli natijalarni olish imkoniyatini beradi. Samaradorlik: asosiy maqsadlardan biri: bolani ishlashga o‘rgatish, turli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish, bu o‘z-o‘zini belgilashga, jamoada o‘zini o‘zi ishontirishga hissa qo‘shadi.

Boshlang‘ich sinf bosqichida quyidagi fazilatlar ham rivojlanadi: tirishqoqlik, mehnatsevarlik, aniqlik, ishni oxirigacha yetkazish istagi. Ushbu barcha diqqatga sazovor joylar o‘sha paytdan beri birinchi o‘rinda turadi agar bu fazilatlar boshlang‘ich sinf bosqichida rivojlanmasa, keyinchalik ularni rivojlantirish qiyin.

Boshlang‘ich sinfda mavjud dasturlarning tarkibini yangilash parallel dasturlar va darsliklardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Barcha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlarining ishlarida kognitiv faoliyatning turli shakllari va usullaridan foydalanishadi, bu bizga boshqa muammoni - maktabdagi bolalarning haddan tashqari yukini olib tashlash, ularda dunyoni bilish istagini uyg‘otishga imkon beradi. Ta’lim muassasalari: maktablar va maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi o‘quv jarayonining uzluksizligini, o‘quvchining ijtimoiy-madaniy moslashishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Bizning o‘quvchilarimiz shaxsiy xususiyatlar, qobiliyatlar, moyilliklar va sevimli mashg‘ulotlariga ega bo‘lgan ko‘p qirrali shaxsdir. Biz o‘quvchilarimiz bir-biriga o‘xshamasliklarini, bir-birlarini tushunishlari va atrofdagi dunyoni munosib baholab, zamonaviy sharoitlarda to‘la hayot kechirishlarini istaymiz.

Ko‘p jihatdan, bu bizning o‘quvchimiz haxs sifatida shakllanishiga, u o‘zini anglay olishiga bog‘liq. Maktab fanlari ham ushbu muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bir paytlar, Ulug‘ Ustoz shogirdlarini o‘zlari uchun qilich tanlashni taklif qilib, sinab ko‘rishga qaror qilgan. Ulardan biri uzoq davom etgan kuchni saqlashga umid qilib, yengil qilichni tanladi. Boshqasi ularga xavfsiz masofadan ko‘proq raqiblarini urish umidida uzun qilichni tanladi. Uchinchi o‘quvchi eng aqlli bo‘lib chiqdi, u o‘zi uchun eng qulay qilichni tanlab, qo‘lini cho‘zdi. [1]

Biz Ulug‘ Ustoz sifatida, talabaga u uchun hayotning zaruriy qismiga aylanadigan juda qulay bo‘lgan Bilim qilichini berishimiz kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yetarlicha kasbiy mahoratga ega bo‘lishi va kelgusi faoliyat uchun maqsadlarni belgilash bilan cheklanmasligi kerak. Bu bolaga maqsad va vazifalarni belgilash, keyin esa individual qobiliyatlari asosida o‘z faoliyati natijalarini maqsadli ravishda olish imkoniyatini berishi kerak [2].

Muhim omil - bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nazorat qilish va baholash. Ideal holda, boshlang‘ich sinf dasturini o‘zlashtirish muvaffaqiyati o‘quvchilarning bilim qiziqishiga va ijobiy motivatsiyasiga yo‘naltirilishi kerak.

Boshlang‘ich sinfdagi tajribali o‘qituvchi uchun o‘quvchiga nisbatan sezgirlik muhim

ahamiyatga ega: qiyin vaziyatda bo‘lgan bolani qo‘llab-quvvatlash, to‘g‘ri yechimni topishga yordam berish va hk, bu keyingi ijobiy hamkorlik uchun jiddiy rag‘batlantiradi.

Maktab o‘quvchilari bilan olib boriladigan darsdan tashqari ishlar ham bunga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sinfda jamoa tuzishga e’tibor berish kerak. Mavzu bo‘yicha dars soatlari, ekskursiyalar, bayramlar, musobaqalar va boshqalar bolalarga o‘z imkoniyatlarini ochishga, bir-birlarini yaxshiroq tanishga va do‘stlar orttirishga yordam beradi.

Sinfda qulay psixologik muhitni yaratish, umuman, ish jarayoniga eng ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘quvchilar xotirjam, o‘ziga ishonishadi va materialni o‘zlashtirishning eng yaxshi natijalarini namoyish etadilar.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z ishida yosh o‘quvchilarning bilim faolligini faollashtiradigan turli xil usul va usullardan foydalanadi. Tanlashda ustuvorlik quyidagicha qolishi kerak: bolaning individual xususiyatlarini saqlab qolish, uning maktabga moslashishi uchun qulay sharoitlar yaratish, sog‘liqni saqlash texnologiyalari va boshqalar, bu boshqa muammoni hal qilishga imkon beradi - maktabdagi bolalarning haddan tashqari yukini olib tashlash va ularda dunyoni bilish istagini uyg‘otish.

Adabiyotlar:

1. O‘qitish usullari va ularni amalga oshirish usullarini tanlash // Didaktikalar: axborot portali [Elektron resurs] URL: https://didaktica.ru/urok-osnovnaya-forma-organizacii-processa/58-vybor-metodov-obucheniya-i-sposobov -ix-realizacii.html (Kirish sanasi: 05/10/2018)

2. Andreeva T.A. Boshlang‘ich maktabning o‘quvchining kelajakdagi hayotidagi o‘rni // Ta’lim xodimlarining ijtimoiy tarmog‘i: axborot portali [Elektron manba] URL: https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/materialy-mo/2014/01/29/rol-nachalnoy-shkoly- v-dalneyshey-zhizni-uchenika (kirish: 05/10/2018)

3. Nikulochkina V.Ya. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining o‘quv faoliyatida baholashning roli // Psixologiya, Sotsiologiya va Pedagogika: Elektron ilmiy-amaliy jurnal. 2013. № 12 [Elektron resurs]. URL: http://psychology.snauka.ru/2013/12/2682 (kirish: 05/11/2018).

VOYAGA YETMAGAN O‘SMIRLAR XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Egamova Maftuna Murodovna
Pastdarg‘om tuman XTBga qarashli
22-maktab amaliyotchi psixologi
+998915369614
axmedovanvar777@gmail.com

Annotatsiya:ushbu maqolada voyaga yetmagan o‘smirlar xulq-atvorini shakllantirishning ijtimoiy psixologik jihatlarini, o‘smir shaxsini shakllanishga ta’sir qiluvchi omillarni keltirib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar:psixologik jihatlar, o‘smirlar, tarbiya, ehtiyoj, qiziqish.

Mustaqillikning ilk yillaridan davlatimiz rahbariyati o‘smir yoshlarning har tomonlama etuk, sog‘lom va kamol toptirishga e‘tiborini qaratdi.Shu o‘rinda xuquq-targ‘ibot organlari o‘smir yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko‘rishga e‘tibor qaratdilar. Bunday dolzarb muammoni hal qilishda respublikamiz psixologlari ham bir qator amaliy ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Biz ham o‘z maqolamizda voyaga etmagan o‘smirlarning xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunda biz o‘smirlar tarbiyasidagi salbiy og‘ishga olib keluvchi omillar va ushbu omillarga nisbatan ularning ijobiy hamda salbiy javoblarini o‘rganamiz. Chunki inson umri o‘rganilgan sari, undagi ko‘pgina yangidan-yangi ma‘lumotlar aniqlanaveradi. Shu sabab o‘smirlardagi o‘zgaruvchanlik xususiyati psixolglar oldidagi asosiy muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘smir shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o‘ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba‘zan shaxsning sog‘lom munosabatlari va sog‘lom turmush tarzini belgilasa, ba‘zan esa nosog‘lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi.

Ushbu xususiyatlar o‘smirlarda g‘ayriqonuniy xulqatvor kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jihatdan ta‘sirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko‘rsatadi. Bu esa profilaktik tadbirlarni o‘smirning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borishini taqazo qiladi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning ta‘sirchanligi, eng avvalo, o‘smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar, ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu ma‘noda o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg‘ulotlar voyaga etmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning dastlabki profilaktikasi sifatida xizmat qilishi kerak. Tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, psixologlar va pedagoglar tomonidan moslashmagan xulqning oldini olishga qaratilhgan bir qator tavsiyalar, maslahatlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi E.A.Gorshkova tarbiyasi qiyin o‘smirlarning sinf jamoasi bilan bo‘ladigan munosabatlarini sog‘lomlashtirish voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik xulqining oldini olishda muhim omil sifatida o‘rin tutadi, deb ta‘kidlaydi va quyidagi psixologik-pedagogik tavsiyalarni o‘rtaga tashlaydi:

1. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning sinf jamoasidagi o‘rni va uning sinfdoshlar, atrofdagilar bilan bo‘lgan munosabatlarini sog‘lomlashtirish.
2. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning shaxs xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda ijobiy shaxs sifatlarini shakllantirishga erishish.
3. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning sinf va maktab jamoasidan izolyatsiyalanishi (ajralib qolishlik) ning oldini olish tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirish.
4. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarni qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib sinfda va sinfdan tashqarida o‘tkaziladigan tadbirlarga jalb qilish.
5. Sinf jamoasi a‘zolarida sog‘lom psixologik munosabat hissini shakllantirish.
6. Sinf va maktab jamoasida tarbiyasi qiyin o‘smirlarga nisbatan ijobiy va faol munosabat ruhini yuzaga keltirish.
7. Tarbiyasi qiyin bolalar va o‘smirlarning ustun shaxs xislatlari, jismoniy barkamolligidan kelib chiqib, ulardan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish, ya‘ni sinfdan tashqari ishlarda ularga sardorlik, boshqaruvchilik ishlarini topshirish mumkin.

Bu orqali o‘smirda o‘z-o‘ziga nisbatan bo‘lgan ishonchini orttirish, ijtimoiy voqea-hodisalarga nisbatan bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga erishish mumkin. Bulardan ko‘rinadiki, shaxs

xulqidagi ogishni tuzatishga harakat qilishda, eng avvalo, osmir shaxsiga, uning ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishiga hamda o‘smirning motivatsion ehtiyojlar sohasini o‘zgartirishga, nosog‘lom turmush tarzi va tarbiya muhitini sog‘lomlashtirishga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘smirlardagi mavjud bo‘lgan ijobiy sifat va xususiyatlariga tayangan holda ularda har tomonlama qiziqishni, birinchi navbatda, o‘qishga, mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga nisbatan bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirish zarur bo‘ladi. Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro yaqinlik va sog‘lom munosabatni o‘rnatishga bog‘liqdir. Shuning uchun o‘qituvchining tarbiyasi og‘ir o‘smirga nisbatan berayotgan e‘tiborini, ularni o‘zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo‘layotganligini o‘smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bu o‘smir xulqini sog‘lomlashtirishga qo‘yilgan ilk qadam bo‘lib hisoblanadi. O‘smirdagi moslashmagan xulqni tuzatishning keying sharti o‘smir psixikasidagi o‘zgarishni o‘z vaqtida aniqlash va tibbiy, psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Bunda amaliyotchi psixologning xizmati kata bo‘lishi lozim

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A. Karimov. ―Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori‖. Toshkent: Sharq nashriyat manbaa konserni. 1997

2. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogika psixologiya». O‘quv metodik qo‘llanma TDPU. 2004.

3. Karimova V.M. Psixologiya. T.2004 y.

KASBIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK ODOB VA PEDAGOGIK MADANIYATNI YANADA RIVOJLANTIRISH

Ergasheva Dilbarxon Abduqaxxarovna
Namangan tumani 2-maktab O‘IBDO‘.
Tel:97-591-27-20

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishi va o‘z ustida doimiy ravishda ishlashi,pedagogik odob va pedagogik madaniyatni rivojlantirish masalalari ko‘rilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy faoliyat,mahorat,pedagogik odob, pedagogik madaniyat,imidj,zamonaviy texnologiyalar, refleksiya.

Ta’lim keng ma’noda insonning madaniyatini oshirishga xizmat qiladi, madaniyat esa, o‘z o‘rnida, ma’naviyat bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni qamrab oladi. Bugungi kunda ta’limning ushbu jihatiga e’tibor tobora oshib bormoqda, so‘z bo‘lajak o‘qituvchilar haqida borganda esa, bu talabning ahamiyati beqiyosdir.Bunga ko‘plab omillar ta’sir etadi, asosiysi – yuqori madaniyatga ega bo‘lgan o‘qituvchigina o‘quvchilarni madaniyatli qilib tarbiyalay oladi. Boshqa sabablarni ko‘rsatadigan bo‘lsak, bu hozirda jamiyatimizda demokratiyalashtirish jarayonlari amalga oshirilayotganligi sababli ta’limga har xil yondashuvlar, turli pedagogik qarashlar, konsepsiyalar, zamonaviy texnologiyalar kirib kelayotganligi va bu bir tomondan o‘qituvchiga ijodiy erkinlik, keng imkoniyatlar berayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan, pedagog oldida ularning ichidan bizning mafkuramizga hamda ta’lim maqsadiga mos keladiganlarini tanlash zarurati paydo bo‘lmoqda.

Zamonaviy mutaxassis inson va tabiat, shaxs va jamiyat, davlat o‘rtasidagi bog‘lanishlar, ta’limiy jarayonlarning, qolaversa, o‘z pedagogik faoliyatning jahon madaniyatida, xalq madaniyatida tutgan o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak

Pedagogik bilimdonlik – pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me’yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo‘lgan qobilligi, kasbiy tayyorgarlik darajasidir. Pedagogik mahoratning asosini pedagogik bilimdonlik tashkil etadi. Pedagogning kasbiy bilimdonligida talaba bilan sub’ektiv munosabat o‘rnata olish; pedagogik jarayonlar mohiyati, pedagogik voqelikni izchil idrok qila bilish; jahon pedagogik madaniyati asoslarini hamda milliy pedagogik tajribani o‘rganish, ularni integratsiyalashtirish asosida o‘z faoliyatiga tatbiq etish; innovatsion yangiliklar bilan doimiy xabardor bo‘lish; shaxsiy tajribalarni umumlashtirish va talabalarga uzatish; kasbiy fidoiylik hamda pedagogik texnologiyalarni egallash borasidagi BKMning o‘zlashtirilganligi namoyon bo‘ladi.

Pedagogik bilimdonlik negizida, yana shuningdek, pedagogik refleksiya (lot. “reflexio” – ortga qaytish, aks etish) ham ko‘zga tashlanadi. Manbalarda “refleksiya” tushunchasi “kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib etishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati”, “shaxsiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari va o‘yxayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash” sifatida talqin etiladi.

Pedagog faoliyatida uning odobi ham yaqqol aks etadi. Qolaversa, pedagogik odob ta’lim va tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim talab hamda omillardan biri sanaladi. Pedagogik odob pedagogik axloq va pedagogik jarayonda namoyon bo‘ladigan axloqiy qadriyatlar kabi asosiy kategoriyalarning mohiyatini yoritishda etakchi o‘rin tutadi. Pedagog faoliyatida ham barcha umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar etakchi o‘rin tutadi.

Pedagogik o‘zi tomonidan qozongan obro‘ga tayanib, talabalarning xulq-atvorlarini boshqaradi, ularning ishonchlarini qozonadi. Pedagogik obro‘ pedagogning ma’naviy-axloqiy va pedagogik-psixologik tayyorgarligini ham ifodalaydi. Pedagog ega bo‘lgan obro‘ darajasini uning chuqur bilimi, zakovati, mahorati, o‘z ishiga bo‘lgan munosabati va boshqalar belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. O.O‘rinova, M.Botirova. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda pedagogik odobning o‘rni va ro‘li. Farg‘ona to‘plam-2018.
2. F.O‘. O‘rinova, Z. Madaminova.Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish muammolari. Farg‘ona to‘plam-2018.

TA'LIM JARAYONIDA AKT

Ergasheva Mukarram Meliboyevna
Namangan viloyati, Chortoq tuman
XTBga qarashli 6-sonli maktab o'qituvchisi
Pochta: ergasheva06@umail.uz
Rahmonberdiyeva Feruza Xabibullayevna
Namangan viloyati, Chortoq tuman
XTBga qarashli 6-sonli maktab o'qituvchisi
Pochta: feruza06@umail.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada axborot-tehnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: axborot, ta'lim, kompyuter, texnologiya.

Ma'lumki hayotimizning har bir sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilib, kasbiy va hayotiy faoliyatimiz samaradorligini oshirmoqda. Bugungi kundalik hayotimizni nafaqat televizor, radio, balki mobil telefonlari, kompyuter, planshet kabi zamonaviy qurilmalarsiz o'tkaza olmay qoldik, ulardan foydalanib, turmushimiz mazmunini boyitamiz, ish va ta'lim olishdagi vazifalarimizni yengillashtiramiz.

Bugungi kunda deyarli ko'pchilik zamonaviy o'quvchi-bolalar umumta'lim maktablari ostonasiga qadam qo'ygunga qadar, oilada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan tanish bo'lgan, hatto ulardan foydalana biladigan holda kelmoqdalar. Ular haqiqatdan ham axborot asrida tug'ilib, hali atrof-olamni anglamay turib, zamonaviy aloqa qurilmalari, kompyuter va boshqa gadjetlarni ko'rib, ularning funksiyalari bilan tanish bo'lgan holda ulg'aymoqdalar. Bunday vaziyatda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining eng muhim ahamiyatga molik vazifalari — bu o'quvchilarga mazkur qurilmalar, ulardan foydalanish me'yorlari haqida ilk tushunchalarni berishdan iborat.

Ta'lim tizimini axborotlashtirish davrida hosil bo'ladigan va qayta ishlanayotgan axborotlar hajmi kun sayin ortib, zamonaviy kompyuter va telekommunakasion texnologiyalari vositalari tez sur'atlar bilan mukammalashib va takomillashib borayotgan sharoitda ta'lim tizimini kerakli axborot manbalari bilan ta'minlash, ularni to'plash, saqlash va qayta ishlash usullari bo'yicha kerakli bilim va malakalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlari va tashkillashtirish usullarini butunlay o'zgartirib yuborish bilan birga, yangi pedagogik texnologiyalarining zamonaviy metodlarini, usullarini va dasturiy vositalarini tatbiq etish bo'yicha yanada kengroq imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Ta'limni axborotlashtirishning eng muhim vazifalaridan biri bu axborot madaniyatini shakllantirishdir. Axborot madaniyatini shakllantirish darajasi, birinchi navbatda, axborot, axborot jarayonlari, modellar va texnologiyalar to'g'risidagi bilimlar bilan belgilanadigan mutaxassis; ikkinchidan, turli xil faoliyat turlarida axborotni qayta ishlash va tahlil qilish vositalari va usullaridan foydalanish ko'nikmalari va qobiliyatlari; uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatida foydalanish imkoniyati; to'rtinchidan, ochiq ma'lumot tizimi sifatida atrofimizdagi dunyoqarashdir.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish usullari o'qituvchida ta'lim texnologiyalarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga ishtiyoq beradi. Bugungi kunga kelib, bunday darslar o'quvning yangi shakllarini topishda o'qituvchining ishi va zaruriyatiga aylanishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Infocom.uz
2. https://autovideoparser.ru/

TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA TAYANCH KOMPETENSIYALAR

Ergasheva Sayyora Uktamovna
Samarqand viloyati Jomboy tumani
40-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Tel:+998-93-226-76-12

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limni isloh qilish eng muhim narsa, tayanch kompetensiyalarni belgilab olish kerak ekanligini, bu esa o'z navbatida ta'lim oluvchilarning muvaffaqiyatli ravishda ishlay olishlari va so'ngra oliy ta'lim olishlari uchun zarurligi haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar**:** *kompetensiya, raqamli kompetentlik, tadbirkorlik,tashabbuskorlik, loyiha*

O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jahon standartlariga javob beradigan ta'lim tizimini shakllantirish va sifatini oshirishga yo'naltirilgandir. Islohotlarni o'tkazishning zarurligi shundaki, mustaqil Respublikamiz jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishi, ilmiy-texnika rivojlanishidan orqada qolmasligi uchun jahon andozalariga mos keladigan salohiyatli kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shunga ko'ra "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ishlab chiqildi.

Umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va Oliy ta'limda o'rganiladigan fanlar orasida uzviylik va uzluksizlik ta'minlash maqsadida barcha fanlar bo'yicha DTS ishlab chiqildi, o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar tajriba-sinovdan o'tkazilib, hayotga tatbiq etildi. Xo'sh,"Kompetensiyaviy yondashuv" o'zi nima?

"Competence"so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni beradi. So'zma-so'z tajrima qilinganda, "musobaqalashishga layoqatlilik" ma'nosida keladi.

O'tgan asr oxirida o'tgan ta'lim bo'yicha xalqoro kongressda pedagog-olim Jak Delorf ta'lim tayanadigan to'rtta ustunni ta'riflab bergan:-**bu bilishni o'rganish, bajarishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish.**

Kompetensiyalarni ishlab chiqaruvchi asosiy mutaxassislardan biri B.Xutxamer "Yevropa yoshlari ega bo'lishi kerak bo'lgan" beshta tayanch kompetensiyalarning ta'riflarini keltiradi. Bu kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy va siyosiy kompetensiyalar: jamoada qaror qilishda qatnashish va u haqda javobgarlikni his etish;
- ko'p madaniyatli jamiyat hayoti bilan bo'g'langan kompetensiyalar: ta'lim orqali yoshlarda madaniyatlararo kompetensiyalarni, ya'ni boshqalarni hurmat qilish, boshqa madaniyatga, tilga va dinga ega bo'lgan insonlar bilan birgalikda yashay olish kabi zaruriy xislatlarni singdirish kerak;
- og'zaki va yozma muloqotga kirishish bilan bo'g'liq kompetensiyalar: bunda o'z ona tilidan tashqari yana boshqa tilni bilish ham muhimligi ko'zda tutiladi;
- jamiyatni axborotlashtirish bilan bo'g'liq kompetensiyalar: ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ajrata bilish uchun axborot texnologiyalarni bilish;
- kasbiy va ijtimoiy hayot taqozosiga ko'ra butun hayoti davomida uzluksiz ravishda o'qib o'rganib borish.

2006-yil 18-dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta'lim uchun quyidagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi:

1. O'z ona tilida muloqot qila olish;
2. Chet tilida muloqot qila olish;
3. Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;
4. Raqamli kompetentlik;
5. O'qishni o'rganish;
6. Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi;
7. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg'usi;
8. Madaniyatdan xabardor bo'lish va uni ifodalash.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2013-yil 4-iyundagi "Umumta'lim fanlari boyicha uzluksiz ta'limning Davlat

ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan 16 ta umumta’lim fanlari bo‘yicha ijodiy guruhlar tuzildi. Ijodiy guruhlar kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan umumta’lim fanlari bo‘yicha uzluksiz ta’limning Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari tayyorlandi.

Ana shunday zaruriy kompetensiyaviy zaruriyatlar asosida ishlab chiqilgan dasturlar bo‘yicha tabiiyki darsliklar va qaytadan ko‘rib chiqilmoqda va maqsadga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyonet.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi”Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”,Toshkent,1997 yil

BOSHLANG‘ICH SINF- ONA TILI DARSLARIDA O‘YIN USULLARIDAN FOYDALANISH

Ergasheva Shoira Toshtemirovna
Samarqand viloyati Jomboy tumani
40-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,
Turayeva Maxfuza Yuldashevna
Samarqand viloyati Jomboy tumani
40-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel:+998973964994,
Tel: +998945350230

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarda, dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etishga, izlanishga, o‘yin - usullari yordamida ijtimoiy tajribani qo‘llash va egallashga qaratilgan faoliyat shakli xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol, o‘yin usuli, zanjir usuli.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi interfaol usullardan mavzuga mosini tanlay bilishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchi, an’anaviy ta’lim berish usulidan voz kechgan holda, darslarni yangi zamonaviy va ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan ta’limga o‘tishi shart bo‘lgan ta’limda interfaol ta’limiy texnologiyalardan avvalo oddiydan murakkabga o‘tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog‘i lozim. Maktabda o‘tilayotgan ona tili darslarida: klaster, aqliy hujum, qorbo‘ron, baliq skleti, Venn diagrammasi, kichik guruhlarda ishlash, multimedia darslari kabi usullardan foydalanilmoqdaki, bunday usullar asosida dars o‘tilganda, mavzular o‘quvchilar yodida uzoq vaqt saqlanib qolishga va ish jarayonida qo‘llashga yordam bermoqda.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarga dars berishda quyidagi natijalarga erishilmoqda:

- Dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etishga, izlanishga majbur etilmoqda.
- Pedagog va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini to‘g‘ri tashkillashtirilishga erishilmoqda.

Umumta’lim fanlaridan hisoblangan ona tili fanida qo‘llaniladigan “Sinkveyn” (5 pog‘ona), B/B/B jadvali (bilaman, bilmoqchiman, bildim) “Bliss -so‘rov” va boshqa ko‘pgina usullarning qo‘llanilishi dars jarayonida mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi.Ona tili fanidan o‘yin darslari qo‘llanilganda, albatta o‘quvchiga mazkur o‘yin metodning mohiyati tushuntiriladi.

Eshitganimni yodimdan chiqaraman
Ko‘rganimni eslab qolaman
Amalda bajarsam, tushunib yetaman.
Konfutsiy

O‘YIN - fan va madaniyatning shaxs bilan bog‘liq sohalarida, shartli vaziyatlarda shaxs va narsalar harakatini ijtimoiy mustahkamlangan usullar yordamida ijtimoiy tajribani qo‘llash va egallashga qaratilgan faoliyat shakli.

Har bir o‘yin:

- *muayyan bir qoida asosida o‘ynaladi.*
- *bu qoidalarga bo‘ysunish“qaror - qat’iy, shikoyatga o‘rin yo‘q”qabilida bo‘ladi.*

ONA TILI DARSLARIDA O‘YIN USULLARI

O‘yin o‘quvchiga o‘zini boshqa o‘quvchilar bilan taqqoslash, shu asosda to‘g‘ri baholashga undaydi.

- *O‘ziga to‘g‘ri baho berishni o‘rganish odamga hayotida hamma vaqt yordam beradigan zaruriy xislat hisoblanadi.*

“ZANJIR”

O‘quvchilarga ot turkumiga oid so‘zlardan zanjir tuzish topshiriladi. Bunda navbatdagi

so‘z o‘zidan oldingi so‘zning oxirga harfida boshlanishi kerak (agar so‘z “ng” harf birikmasi bilan tugasa, birikmadagi “g” tovushi hisobga olinadi – bu eslatma o‘yin boshlanishidan oldin o‘quvchilarga tushuntiriladi).Masalan:

Pishloq – qishloq – qo‘l – lola – ayiq – quyon – nok-kon……..

Ushbu musobaqa tezlikka asoslanadi, muayyan vaqt ichida eng ko‘p so‘zdan zanjir tuzgan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

O‘yin shartini faqat bir bo‘g‘inli so‘zlardan zanjir tuzish bilan murakkablashtirish mumkin:

Bek –ko‘l – lof – fil – lak – ko‘z--zeb….

Bu o‘yinda javoblarni birinchi bo‘lib tez va to‘g‘ri yozgan o‘quvchi g‘olib chiqadi. O‘quvchilarning tayyorlanganlik darajasiga qarab, savollar xarakterini va sonini o‘zgartirish mumkin. O‘yinda javoblarini topish oson bo‘lgan harflardan – *a, b, g, l, s* va boshqa harflar foydalanish maqsadga muvofiq.Ta’lim – tarbiya jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy mustaqil fikrlashini shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, yaqindan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ziyonet.uz
2. Sh.Zufarov”Pedagogik innovatika”,T;2012

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA SAVOD O‘RGATISHNI TO‘G‘RI TASHKIL ETISH

Ergasheva Osuda Davlataliyevna
Namangan tumani 6-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
tel: 94-276-72-49
e-mail:osuda@mail.ru

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarga savod o‘rgatish, o‘quvchi bilan ishlash va pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari bo‘yicha mulohazalar bildirilgan

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ona tili fani, savod o‘rgatish, o‘qish ko‘nikmasi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish va yozishga o‘rgatish davrida savod o‘rgatish darslarini to‘g‘ri tashkil etilishi juda muhim. Jumladan, analitik-sintetik tovush metodida o‘qish va yozish darslari bir vaqtda, parallel olib boriladi. Bir soatda tovush-harf o‘rganilsa, keyingi darsda o‘sha tovushni ifodalovchi harfning yozilishi o‘rgatiladi, har ikki turdagi darsni to‘g‘ri tahlil qilish uchun quydagilarga e’tibor beriladi:

- ta’limning didaktik jihatlariga e’tibor berilib, uni so‘nggi yutuqlar bilan to‘ldirib borish;
- o‘quvchilarni yosh va fiziologik jihatlariga e’tibor berish;
- ularda mustaqil faoliyatni rivojlantirish ishlarini keng qo‘llash;
- o‘qish va yozishning uzviyligiga e’tibor berish;
- alifbo va unga qo‘shimcha materillardan unumli foydalanish.

Savod o‘rgatish jarayoni o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham g‘oyat mas’uliyatli davr bo‘lib ulardan kuch, g‘ayratni, bilmni talab etadi. Bu davrdagi darslar qanchalik qiziqarli va ta’sirli tashkil qilinsa, bolaning savodini chiqarish shunchalik oson kechadi, ularning o‘qishni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Buning uchun mualimlar bolada motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratishlari lozim. Motiv kishini biror ish harakatga undovchi, da’vat, turtki. Motiv bolada bilim olish ishtiyoqiga va qiziqish uyg‘otadi. O‘qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o‘quchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan holi bo‘lmaydi. Motiv hosil qilishga ta’limiy o‘yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo‘lib bolalar jiddiy sinov turadi. Bola yangi jamoa-maktab jamoasiga kirib boradi, endi shu jamoaning a’zosi ekaninni his etishga intizomga yangi sharoitiga moslashishiga majbur bo‘ladi. Bola kichkina bo‘lishga qaramay uni bajaradigan ishlari ko‘p. Bular maktab, o‘qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab vazifalarni bajarish va boshqalar. Muhimi o‘yindan maktabga, kundalik majburiy va uzoq mehnatga o‘tish bola hayotida tub burilishdir. Buning o‘zi bo‘lmaydi; hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan bolalarga ham bu oson emas. Uydan maktabga kelgan bolalar uchun yana ham qiyindir. Ayniqsa 40-45 minutlik darsda o‘tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi bola o‘qishida maktabdan sovushi mumkin. Shuning uchun ham o‘qituvchilar bola faoliyatini qiziqarli tashkil etishga intilishlari motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Uni bolalar yoshiga psixologik xususiyatlariga mos didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar vositalarida nazariy bo‘limlar oson egallanadi, o‘quvchilarning bilim olishda qiziqishlari ortadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bunday usul o‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqazishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosoiy figuraga aylanadi. Darlarda yangi pedagogik texnologiyalarni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o‘quvchilar faollashishi zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi, so‘ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi. O‘quvchining sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtririshi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin

bayon qila oladi. Yangi pedagogik texnologiyalar xilma-xil bo‘lib, qaysi metodni tanlash o‘qituvchining o‘tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchiga savod o‘rgatish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish hamda bu jarayon uchun o‘quvchi yoshiga mos bo‘lgan texnologiyalarni tanlay olishdadir. Savodxonlik o‘quvchining keyingi bilimlarni o‘zlashtirishi uchun zamin yaratadi. Shunday ekan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir o‘quvchi bilan individuai ishlashi, savod sirlarini o‘zlashtirishi uchun imkon yaratmog‘i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q, Rahmonbekova S. Ona tili darslari (qo‘llanma).- Toshkent, 1999.86b
2. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent, 1996.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 2002. 228 b.
4. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakultetlari uchun darslik.- Toshkent: Noshir, 2009. 347 b.
5. Qosimova K, Ne’matova A. 1-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2004.126 b. 6.

O‘QISH DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Erkaboyeva Nodiraxon Adxamjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti magistranti
Telefon: +998(91) 100 25 93
herkaboyev@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, o‘zlashma so‘zlar ma’nosini tushunishda lug‘at ustida ishlash mashg‘ulotlarining ahamiyati haqida ta’kidlangan. Lug‘at ishini tashkil etish bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy ko‘rsatma va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, so‘z ma’nosi, o‘zlashma so‘zlar, lug‘at ishi, etimologiya, mirzo, amir, munajjim, olim, podshoh, rasadxona, savob, orfogragik savodxonlik, orfoepik savodxonlik.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida olib boriladigan mashg‘ulotlarning asosiy qismi o‘quvchilarning og‘zaki bog‘lanishli nutqini o‘stirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z nutqlarida maqol, ibratli so‘zlar, hikmatlardan foydalanishlari, so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay ola bilishlari ularning so‘z boyligi, so‘z ma’nosini qay darajada bilishlari bilan belgilanadi. O‘quvchilar hikoya, rivoyat, qissa, masal, ilmiy-ommabop matnlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishish davomida o‘zlari uchun mazmuni notanish bo‘lgan so‘zlar ma’nosini ham o‘rganib boradilar. O‘tiladigan darslar davomida o‘quvchilar ko‘proq tilimizda mavjud o‘zlashma so‘zlar mazmunini tushunishda qiyinchilikka duch keladilar. O‘zlashma so‘zlar deganda boshqa tillardan olingan, o‘zbek tili leksikasining boyishiga xizmat qiluvchi so‘zlar tushuniladi. To‘g‘ri tashkil etilgan lug‘at ustida ishlash mashg‘ulotlari bunday qiyinchiliklarni bartaraf etishda katta amaliy ahamiyatga ega.

Professor K. Qosimova maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasining asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha etib belgilaydi:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish.
2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi:
- o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirish;
- so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish;
- so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish;
- ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish.
3. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish.
4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga o‘zlashma so‘zlar mazmunini o‘rgatishda o‘qish kitobida berilgan matnlar tahlili, har bir darsda o‘tkaziladigan lug‘at ishlari orqali ularda nazariy bilimlar hosil qilib boriladi. O‘qish kitoblariga kiritilgan matnlarda qo‘llanilgan o‘zlashma so‘zlar miqdori quyi sinfdan yuqori sinfga tomon ortib borgani sari matn ustida ishlash mashg‘ulotlari murakkablasha boradi. O‘qituvchi o‘quvchilarni asarning asosiy mazmunini aniqlashga, qahramonlarning xatti-harakatiga mos so‘z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so‘z bilan tasvirlashga o‘rgatadi. O‘quvchilarda so‘z boyligiga talab ortadi, lug‘at boyligi ko‘payadi, nutq sofligi va aniqligiga e’tibor kuchayadi, o‘qish tezligi oshadi va so‘zlarni nutqda to‘g‘ri qo‘llashga o‘rganadilar.

O‘quvchilarga badiiy asarda uchraydigan o‘zlashma so‘zlar ma’nosini tushuntirishda so‘zning etimologiyasi haqida ma’lumotlar berish shu so‘zning ma’nosini uzoq vaqt yodda saqlashga yordam beradi. O‘quvchilar so‘z etimologiyasiga qiziqish bilan birga, shu so‘z bilan bog‘liq voqea- hodisani, unga ma’nodosh bo‘lgan boshqa bir so‘zni ham eslab qoladilar. Misol tariqasida 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligining “Biz buyuklar avlodi” bo‘limidan “Buyuk munajjim” matnini keltiramiz.

Buyuk munajjim

Mirzo Ulug‘bek ham podshoh, ham olim edi. U kishi Amir Temurning nevarasi bo‘lgan.

Mirzo Ulug‘bek o‘n besh yoshidan boshlab podshohlik qilgan. Qirq yillik podshohlik davrida

ko‘p savob ishlarni amalga oshirgan. Samarqandda rasadxona qurdirgan. Rasadxonada osmon, oy, yulduzlar kuzatilgan. Shuning uchun u kishini buyuk munajjim, olim va shoh deyishadi.

O‘quvchilarga matn o‘qib eshittirilgandan so‘ng, mazmuni qayta hikoya qilinib, qaysi so‘zlarning mazmunini tushunishga qiynalayotganliklarini so‘rash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘quvchilarni asarni diqqat bilan tinglashga, asar mazmunini mustaqil tushunishga o‘rgatadi. Matndagi Mirzo, Amir, munajjim, olim, podshoh, rasadxona, savob kabi so‘zlar ustida lug‘at ishi o‘tkazish mumkin. Lug‘at ishi uchun tavsiya etilayotgan bu so‘zlar etimologik xususiyatiga ko‘ra o‘zlashma so‘zlardir (mirzo, amir, munajjim, olim, savob so‘zlari arab tilidan; podshoh so‘zi fors-tojik tilidan olingan).

Amir – buyruq beruvchi, hukmdor,(davlat boshqaruvchisi)

Mirzo – Amirning o‘g‘li (davlat boshqaruvchisining o‘g‘li)

Munajjim – osmon, oy, yulduzlarni o‘rganuvchi

Olim – bir fan bo‘yicha chuqur bilimga ega kishi

Podshoh – buyuk himoyachi (davlatni himoya qiluvchi)

Rasadxona – osmon jismlari kuzatiladigan joy (rasad – kuzatish)

Savob – xayrli, ezgu ish

Matndan shu so‘zlar ishtirok etgan qismlarni qayta o‘qish, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga o‘qish, asar mazmunini qayta hikoyalashda yangi birikmalarni qo‘llash, so‘zga ma’nodosh so‘zlarni topish, so‘zlarni lug‘at ishi daftarlariga yozib olish kabi topshiriqlar so‘z ma’nosini yaxshi tushunish bilan birga o‘quvchilarda orfografik va orfoepik savodxonlikni ham oshiradi.

O‘qish darslarida quyidagilarni e’tiborga olgan holda lug‘at ishlarini tashkil etish o‘zlashma so‘zlar ma’nosini to‘g‘ri va oson tushunish, uni uzoq vaqt yodda saqlash, og‘zaki va yozma nutqda undan o‘rinli foydalanish imkonini beradi:

1. Berilgan matndan o‘zlashma so‘zlarni aniq ajrata olish;
2. So‘zning ma’nosini izohlashda uning qaysi tildan kelib chiqqanligini aniqlash;
3. So‘z ma’nosini qisqa, aniq jumlalar bilan izohlash;
4. Shu so‘zlar ishtirokida kichik mashg‘ulotlar olib borish;
5. Tilning lug‘at tarkibini undagi eskirgan va yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, kasb – hunarga oid so‘zlar, ruscha – baynalminal so‘zlar kabi guruhlab o‘rgatish;
6. Lug‘at ustida ishlash mashg‘ulotlarini faqat o‘qish darslarida emas, balki fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etish (ona tili, matematika, odobnoma, atrofimizdagi olam, musiqa, …)

Umuman, o‘quvchilarga tilimizning lug‘at tarkibini o‘rgatib borish so‘z boyligini oshirish bilan birga, ularning nutq madaniyatini ham yuksaltiradi, shuningdek, milliy tilimizning naqadar boy tarixiy merosga ega ekanligini, uning qudrati va sehrini to‘liq ma’noda anglagan, milliy ruhda tarbiyalangan komil insonlar bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boymurodova G., Sattorova X. va boshq. O‘qish. 1-sinf. / Toshkent: Sharq, 2014. – 120 b.
2. Qosimova K., Matchonov S. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
3. Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi. O‘qish. – Toshkent, 2018.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: OME, 2006-2008. – 5 tomli.
5. G‘afforova T. va boshq. O‘qish kitobi. 1-sinf. – Toshkent: Sharq, 2019. – 128 b.

TA'LIM SOHASIDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISHI

Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiatosh tumani
1- sonli maktabning informatika fani o'qituvchisi
Eshanova Dilnoza Shamuratova

Annotatsiya: Yangi davr talablariga rioya qilgan holda ta'lim jarayonini zamonaviy usullarda tashkil etish, yangi texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilar faolligini oshirish bugungi kunda o'qituvchilardan talab qilinadigan asosiy vazifalardir. Informatika fanini o'qitishda turli xildagi elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsiya, axborot resurslari, zamonaviy bilim, innovatsion strategiya.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining vositalari deganda mikroprosessor, kompyuter texnologiyalari asosida ishlaydigan dasturiy ta'minot, dasturiy ta'minot, apparat-texnika vositalari va qurilmalar, shuningdek, ma'lumotlarni uzatish, axborot almashish, yig'ish, ishlab chiqarish, to'plash, saqlash va saqlash bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradigan zamonaviy vositalar va tizimlar tushuniladi. Ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish va mahalliy va global kompyuter tarmoqlarining axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatidir.

Bugungi kunda maktablarda olib borilayotgan masofaviy ta'limda o'quvchilar electron o'quv qo'llanmalariga har doimgidan ham ko'proq ehtiyoj sezadilar. Shunga asoslanib, ta'lim jarayonini maksimal darajada samarali tashkil etish va o'quvchilarga mustaqil o'zlashtirish imkonini beruvchi o'quv qo'llanmalarini yaratish dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Informatika fani matematika, fizika va bir qancha fanlar bilan uzviy bog'liqligi va murakkabligini hisobga olib, o'quv qo'llanmalarini to'g'ri tanlay olish o'qituvchidan alohida e'tibor talab etadi.

Ta'lim sohasi yangi texnologik burilishni tan olish, uning afzalliklari va xususiyatlarini pedagogik amaliyotda qo'llash va mehnat tabiatining keskin o'zgarishi sharoitida talab qilinadigan yangi ishchi kadrlarni tayyorlash zarurati bilan bog'liq yangi muammolarga duch kelmoqda. Albatta, ta'lim sohasidagi eng muhim texnologik yangiliklardan biri bu zamonaviy axborot komnikatsiyon texnologyalardir. Innovatsion jarayonda o'qituvchining pozitsiyasi qanday? Albatta, pedagogik faoliyat asosan ijodiy faoliyatdir. Har qanday ijodiy faoliyat samarali faoliyat, ya'ni yangisini yaratishga, ob'ektiv ravishda yangi yoki sub'ektiv ravishda yangi natijaga erishishga qaratilgan faoliyat sifatida qaraladi. O'qituvchi innovatsion jarayonda muallif, dasturchi, tadqiqotchi, foydalanuvchi, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, tushunchalarni targ'ib qiluvchi sifatida harakat qilishi mumkin. Ta'limdagi innovatsion jarayonlar to'g'risidagi bilimlar, bu bilimlarni o'z faoliyatini baholashda qo'llash qobiliyati o'qituvchiga pedagogik ijodda, kasbiy va pedagogik madaniyatni o'zlashtirishda, o'zini takomillashtirishda keng imkoniyatlarni namoyon etish uchun asos yaratadi.

Yagona pedagogik jarayonning innovatsion strategiyasi sharoitida innovatsion jarayonlarning bevosita tashuvchisi sifatida maktab direktori, o'qituvchilar va o'qituvchilarning roli sezilarli darajada oshmoqda. Ta'limning har xil texnologiyalari: didaktik, kompyuter, muammoli, modulli va boshqalar bilan o'qituvchi etakchi pedagogik funktsiyalarni bajarishda qoladi. O'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan o'qituvchi va tarbiyachi maslahatchi, maslahatchi, o'qituvchi vazifalarini tobora ko'proq o'zlashtirmoqda. Bu ulardan maxsus psixologik va pedagogik tayyorgarlikni talab qiladi, chunki o'qituvchining kasbiy faoliyatida nafaqat maxsus, fan bilimlari, balki pedagogika va psixologiya, ta'lim va tarbiya texnologiyalari sohasidagi zamonaviy bilimlar ham amalga oshiriladi.

Demak, yuqorida ko'rib chiqanimizdek, ta'lim sohasini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnalogiyalarining o'rni beqiyos.Shu bois, uni yanda rivojlantirish, bu orqali ta'lim sohasini yanada maksimal darajada rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1."Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-metodik majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. Toshkent, 2016

2. Informatika fanini o'qitish metodikasi fanidan multimediali elektron o'quv qo'llanma yaratish,

3. Шемакин Ю.И. Начало компьютерной лингвистики. –М.:Высшая школа, 19929-14

BOLALARGA BERING DUNYONI

Sadikov Furqatjan Ismoilovich
Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani
15-sonli maktabning amaliyotchi psixologi
Telefon nomeri: +998994712702

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsni kamolotga erishishi, oilaviy muhit, bolalar va o‘smirlarda xulqning og‘ishi, bola tarbiyasida oilaning tutgan o‘rni va ahamiyati haqida fikr mulohazalar ustida bahs yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Kamolot, mehr, psixologik kategoriya, empatiya-simpatiya, emotsional, ekstremal, psixologik resurs, respondent, depressivlik, affektivlik, xulq og‘ish.

„Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart”
I.A.Karimov

Yurtboshimiz mamlakatimizning bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqayotgan yoshlarimizning tafakkuri va dunyoqarashini keskin o‘zgartirgan, mutlaqo yangi ta’lim va tarbiya tizimini yaratish va hayotga tatbiq qilish ishlariga bevosita mualliflik va rahbarlik qilmoqdalar. Shu bois o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamolotga erishishida o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mehr ma’naviy- axloqiy, falsafiy hamda psixologik tushunchasi sifatida keng ma’noga ega. Mehr so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida (arabchadan olingan bo‘lib sevgi, muhabbat, moyillik) insonning o‘z tug‘ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo‘lgan sa’mimiy muhabbati, yaxshi ko‘rish tuyg‘usi, shafqat, rahmdillik, iltifotlilik tarzida ta’riflangan. U o‘z navbatida psixologik kategoriyalardan biridir. Psixologiyada mehr tushunchasi sevgi, muhabbat, g‘amxo‘rlik, e’tibor, empatiya-simpatiya ko‘rinishlarida uchraydi. Ushbu tushunchalarni tahlil qilinsa, bevosita ular inson kundalik turmushida ishlatadigan mehr tushunchasiga ma’no jihatdan mos keladi.

Psixologik resurslar esa, funksiyasiga ko‘ra insonning hayotga bo‘lgan qiziqishi va yashash hoxishini jonlantirib turadi. Psixologik resurslar shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida doimo faollikka yetaklab, emotsional ekstremal(favqulodda) holatlarda to‘siqlarni yengib o‘tishdagi, qiyinchiliklarda dalda va quvvat bo‘luvchi kuchdir. Shuningdek, insonda o‘zida ishonch va dadillikni tiklovchi hamda uning muntazamligini ta’minlovchi omillar ham psixologik resurslardir.

Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan haqiqat. Shunday ekan, u tug‘ilganidan boshlab hayotining oxirigacha e’tiborga, g‘amxo‘rlikka, qo‘llab-quvvatlashga, muhabbatga bir so‘z bilan aytganda mehrga extiyoj sezadi. Shu o‘rinda psixolog olim A.Maslouning ehtiyojlar nazariyasiga e’tibor qaratilsa, o‘rtamiyona inson hayoti davomida muhabbatga (mehrga) bo‘lgan ehtiyojining 50%ni qondirar ekan. Demak, bu ko‘rsatkich pasaysa, insonda salbiy tomonlama axloqiy, psixologik, biologik, o‘zgarishlar sodir bo‘lish ehtimoli oshadi.

Darhaqiqat, o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yopiq turdagi maktab-internat va kollej tarbiyalanuvchilari,,Huquqbuzarlik, jinoyat sodir etishdan Sizni nima to‘xtata olar edi?’’ degan savolimizga 41% bolalar,,ota-onamning mehr-e’tibori, g‘amxo‘rligi va nazorati’’ deb javob berishgan.

Amerikaning Chikago universiteti tibbiyot markazi mutaxasislarining kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, shaxsga bolaligidan yetarlicha e’tibor qaratmaslik, u bilan emotsional muloqotga kirishmaslik,,,mehr yetishmaganlik sindromi’’ni paydo qiladi. Bu esa, bola ulg‘aygach, unda yurak-qon tomir kasalliklari va insultni shakllantiradi. Mutaxassislar tomonidan o‘tkazilgan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari, yuqoridagi farazni isbotladi. Unda yoshi 55dan yuqori bo‘lgan 1000 kishi orasida so‘rov o‘tkazilgan va so‘rovnoma o‘z ichiga,,Sizning ota-onangiz bolaligingizda Sizga e’tiborsizlik, qattiqqo‘llik, rahmsizlik qilishganmi?’’,,Sizning ota-onangiz Siz bilan yetarlicha muloqot qilganmi?’’,,,Sizning ota-onangiz sizga mehr ko‘rsatganmi?’’ kabi savollarni ham qamrab olgan. So‘rovdan 3,5 yil o‘tgach respondentlardan 257 tasi turli kasalliklar sababli vafot etgan, ulardan 89 tasida esa insult alomatlari aniqlangan. Statistika shuni ko‘rsatadiki, o‘sha 89 kishi

orasida har to‘rttadan uchtasi so‘rovlarda yoshligida ota-ona mehridan mosuvo bo‘lishganligini e’tirof etgan insonlar bo‘lib chiqqan. Tadqiqot rahbari bo‘lgan doktor Robert Uilsonning fikriga ko‘ra:,,o‘tkazilgan tadqiqot maqsadi bolalarga mehr va e’tibor yetishmaslik sindromi keyinchalik ularda uchraydigan yurak qon-tomir muammolari bilan bog‘liqligini isbotlashdir’’.

Shu o‘rinda ma’naviy manba, Imom G‘azzoliyning Riyozatun-nafs asaridan quyidagi fikralarni aytib o‘tish maqsadga muvofiq:,,Qachonki bolada chiroyli xulq, maqtovga arzigulik bir fe’l sodir bo‘lsa, uni hurmat bilan sharaflamoq, ko‘nglini quvontiradigan narsa bilan taqdirlamoq, ko‘pchilik orasida bu fe’lini izhor etmoq zarur’’.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir ota-ona o‘z farzandini kamolotini ko‘rishni istaydi va bu yo‘lda harakat qiladi. Bugungu kunda ayrim insonlar,,o‘z farzandlarini moddiy jihatdan ta’minlab qo‘yish bu-farzandiga mehr berishdir’’ degan,,fikrni’’ qattiq ushlab olgan. Bunda ular bor shijoati bilan moddiy ta’minot ustida bosh qotiradi, tirishadi yoki moddiy ta’minlab qo‘ygan bo‘lsa,,ota-onalik vazifasi bajarildi’’ deb o‘ylashadi. Lekin o‘z farzandlariga axloqiy, ma’naviy jihatdan og‘ish (jumladan: zararli odatlarga berilish, tajovuzkorlik, erta yosh davrlaridanoq qarama-qarshi jins vakillariga bo‘lgan qiziqish, shahvoniylik, odamovilik, depressivlik, affektivlik, yurak va qon-tomir hastaliklari kabi turli psixologik salbiy o‘zgarishlar) holatlarni qayd etishganda esa, buning sababini qidira boshlaydilar. Bunda muammo qondirilmagan ehtiyoj (mehrga bo‘lgan ehtiyoj) sababli yuzaga kelgan bo‘ladi. Chunki, psixolog olim Z.Freydning fikriga va shunday nazariyaga binoan,,qondirilmagan ehtiyojlar insonda og‘ish holatini yuzaga keltiradi’’. Bejizga donishmand ajdodlarimiz,,mehribon bo‘linglar, dunyo-mehr ustiga qurilgan, mehr guldir’’ demaganlar.,,Mehr-e’tibor orqali nav-nihol bola, kelajakda har qanday tabiiy hodisaga chidamli shaxs sifatida shakllanadi’’. Shunday ekan farzand tarbiyasida ularga o‘z vaqtida mehr-e’tiborni taqdim etish joiz, zero,,mehr ko‘rgan-mehr ko‘rsata oladi’’. Shuningdek, psixolog sifatida shuni ayta olamanki,,,ehtiyojlarning haddan ziyod qondirilishi ko‘ngilxushlik va bemanigarchiliklarning omili bo‘ladi’’. Demak, bu o‘rinda,,oltin’’ o‘rtamiyonalikni topish zaruriyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya.-Toshkent:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati,2007-580b.

2. F.A.Azimova. Yomon bolalar bo‘lmaydi.-Toshkent:Turon Iqbol,2016-146b.

BOLA TARBIYASIDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH

Shaydullayeva Feruza Israilovna
Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani
40-sonli maktabning 2-toifali
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
Telefon nomeri: +998994402983

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagog tarbiyasi, tarbiya, bolaning ijtimoiy muhitdagi o'rni, oilada beriladigan tarbiya, xalq pedagogikasining o'rni va ahamiyati haqida.

Kalit so'zlar: Tarbiya, nasixat, tushuntirish, na'muna, xatti-harakat, xalq pedagogikasi, tartib, axloq, ota-ona.

Tarbiya tushunchasi o'sib kelayotgan yosh avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqli kamolot –dunyoqarashni, insoniy e'tiqot, burch va ma'suliyatni, jamiyatni kishilarga hos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda tarbiya deb, tarbiyachi o'zi hoxlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishga aytiladi. Tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu tufayli tarbiya so'zi ko'p vaqtlarda ta'lim, ma'lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi. Tarbiya ta'lim va ma'lumot natijalarini o'zida aks ettiradi.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

O'tmishda ota-bobolarimiz tarbiyada nasixat, tushuntirish, maqtash, rag'batlantirish, na'muna ko'rsatish, tanbex berish, taqiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Jamoa a'zolari bu usullarni qo'llashda, axloq qoidalariga suyangan holda, qilgan ishi, xatti-harakatining to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida bolada ishonch hosil qilishga harakat qilganlar, unga axloqlilik va axloqsizlik, odillik va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning ma'nosini tushuntirganlar. Bu tartib tarbiyada asosiy qoida hisoblangan. Tushuntirishda bolalarning yoshi hisobga olingan.

Ota-onalar bolalarga ya'ni farzandlariga axloq qoidalarini tushuntirishda xalq og'zaki ijodidan, ertaklardan, latifalardan foydalanishgan. Masalan:,,Kamtarlik ham bir hislat'',,, Odob-kishining zebi ziynati'',,, Eshik ochiq bo'lsa ham so'rab kir'', maqollari,,, Yotish qoidasi hikoyasi'',,,Hasis va afandi'',,Hovliqma'',,, Maqtanchoq'' kabi latifalar shular jumlasidandir. Chunki maqol va latifalarning obrazliligi bolalar ongiga, hissiyotiga kuchli ta'sir etgan. Xalq pedagogikasida bolaga fikrni qisqa, aniq bayon etish qobiliyatini o'stirishga e'tibor berilgan. Yaxshi so'z, yaxshilik qilish, yomonlik va ko'p so'zlashning zarari haqida maqollar ijod qilingan.

Oz so'z-soz so'z. Yaxshidan bog' qolar,
Tilga ixtiyorsiz- Yomondan dog' qolar.
Elga e'tiborsiz. Yaxshi odam oshini yer,
Yaxshilik yerda qolmas. Yomon odam boshini yer.
va boshqalar.

Axloq qoidalari bir guruh bolalarga va bir bolaga alohida tushuntirilgan. Ayrim vaqtlarda kattalar birlashib bolasi axloqsizlik qilgan oilada suhbat o'tkazishgan, bolaning xatti-harakatidagi noo'rin jihatlarni ko'rsatib, ota-onalarga tegishli maslahatlar berish usuli ham keng qo'llangan. Ota-onalar o'z bolalariga kattalar o'rtasida ular bilan so'zlashganda mehmonga borilganda, o'zini qanday tutish haqida nasixat qilganlar, axloq qoidalariga rioya etgan bolalar va kattalar nomini o'rnak qilib tilga olganlar. Shuningdek, ular o'z uylarida mehmonni qabul qilish, tartibini buzgan-,,Assalomu alaykum'' deb kutib olmagan, ovqat va choy keltirishda noo'rin harakat qilgan, mehmon qo'liga suv quyib, sochiq tutmagan, ketishda xayrlashishni unutgan, bolalarga mexmon ketgandan keyin nasixat qilib, yo'l qo'ygan kamchiliklarini ikkinchi marta

takrorlamaslikni uqtirganlar.

Tajribamdan kelib chiqib shuni ayta olamanki, ota-onalar o‘z farzandlariga bo‘lgan mehrini va hayrihoxligini amaliy ya’ni ko‘rsatishga harakat qilishlari kerak. Agar farzandingiz, bir nojo‘ya ishni bilmasdan qilgan bo‘lsa, kechirish kerak, bilib qilgan bo‘lsa, nasixat qilib, qilgan ishining yomonligini tushuntirish, agar u yana yomon ish qilsa, jazo berish kerak. Ammo uni yaramas so‘zlar bilan so‘kib, haqorat qilmaslik lozim, bu uni yomon so‘zlarga o‘rgatadi.

Bobolarimiz bola haqqi –ulug‘ xalqlarning ulug‘i bo‘lib, bunga ota-ona va murabbiylar mas’uldir deydilar: Shuning uchun bu haqlarini bilish va kerakli paytda ado etish, ota-ona va murabbiylar uchun lozimdir. Bola yoshlik vaqtida har xil tarbiyaga qobil bo‘lgani uchun bu vaqt ulug‘ g‘animatdir. Shunga ko‘ra, uni yoshlik –bolalik vaqtidan boshlab, tarbiya qilish kerakdir. Agar bolaga go‘zal tarbiya berilsa, u baxtli saodatli bo‘ladi, har bir yaxshi ishlari bilan ota-ona va murabbiylarini shodlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Yusupova.,,Tarbiyaviy ishlar metodikasi’’ fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent:2016-92b.

2. R.Ergashev, M.Eshonqulova.,,Xalq pedagogikasi’’ o‘quv-metodik qo‘llanma. Guliston:2015-92b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARINI TASHKIL QILISH

Fayzullayeva Dilrabo Rahmonovna
Buxoro viloyati Buxoro shahri
35-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998 93 450 27 57

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil qilish,bunday darslarda qanday kitoblardan foydalanish tavsiyalar berilgan. Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarda qanday fazilatlarni,hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Sinfdan tashqari o‘qish, asosiy vazifalar, kitob, mustaqil o‘qish, kitob tanlash,erkin fikrlash, mustaqil o‘qish, kichik guruh, hikoya, ertak, asardan parcha.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariini kitob o‘qishga qiziqtirish o‘qituvchining asosiy maqsad va vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda o‘qish fanining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchining ifodali,ravon o‘qishi,o‘z fikrini to‘liq bayon qila olishi, nutq madaniyatini rivojlantirish o‘qituvchidan ulkan mahorat, sabr-toqat talab qiladi. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda sinfdan tashqari o‘qish darslari ham alohida o‘rin tutadi.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari o‘qish tashkil qilingan.Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quv dasturi bian bog‘liq holda olib boriladi. Bunda o‘quvchilarda kitob o‘qishga havas uyg‘otish,ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash,badiiy adabiyotga qiziqtirish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan tanishtirish kabi maqsadlar amalga oshiriladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil qilishning asosiy talablaridan biri kitob tanlay olishdir. Kitob tanlashda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko‘zda tutiladi;
- kitob mazmuning xilma-xilligi e’tiborga olinadi;
- kitobning bola yoshi va saviyasigamosligiga ahamiyat beriladi;
- kitob tanlashda o‘quvchining qiziqishi inobatga olinadi;
- kitob tanlashda mavsumga e’tibor beriladi.
- o‘quvchilarning adabiy-estetik tafakkurini o‘stiruvchi,ezgulikka yetaklovchi,
- vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantiruvchi murakkab syujetga ega bo‘lmagan mavzularga e’tibor qaratiladi.

Masalan, bunday kitoblar ro‘yxatiga 1-2-3-4- sinflarga mo‘ljallangan,,Kitobim-oftobim”,,,Sinfdan tashqari o‘qish”,,,Tarbiya” kitoblarini namuna qilib ko‘rsatish mumkin. Sinfdan tashqari o‘qish darslari qiziqarli jarayon bo‘lib,o‘quvchilarda erkin fikrlash malakalarini tarbiyalab, hayotiy ko‘nikmalarini shakllantiradi. K.Qosimova ta’biri bilan aytganda sinfda o‘qish hayotga tayyorlash vositasi bo‘lsa, sinfdan tashqari o‘qish hayotning o‘zidir.

Shuning uchun sinfdan tashqari o‘qish darslari uchun tanlanadigan mavzularning xilma-xilligiga alohida e’tibor berish lozim. Bunday darslarda o‘quvchilar o‘qigan yoki o‘qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelishlari, o‘rtoqlariga ko‘rsatishlari,bu kitoblar haqida sinfdoshlari bilan fikr almashishlari mumkin.

Har bir sinfdan tashqari darsda yangi kitoblar tavsiya qilinishi ham yaxshi samara beradi. Buning natijasida o‘quvchiarda ma’lum bir yangi kitoblar ko‘nikmasi hosil qilinadi. Bunday darslarda o‘qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqali tahlil ishi amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq boladi.Sinfdan tashqari darslarning asosiy vazifalaridan yana biri o‘quvchilarda mustaqil o‘qish malakasini shakllantirishdir..Shunng uchun bunday darslarda turli topshirilar berish mumkin. Masalan, mustaqil o‘qish uchun ertak, she’r, hikoya,asardan parcha berish, shu o‘qiganlari asosida kichik insho yozish, test savollari tuzish, qahramonlarga izoh yozish,muallif haqida ma’lumot yig‘ish, kitob nomiga qarab,kitob nima haqida ekanligini taxmin qila olish, o‘qigan asar mazmuniga mos rasm chizish,ko‘rgazmalar tayyorlash,kitobxonlik kundaligini yuritish kabi turli topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil ishlashga va izlanishga undaydi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarini kichik guruhlarda ishlash shaklida olib borilsa,yaxshi natija

beradi va o‘qituvchi butun sinf bilan juda ko‘p topshiriqlarni amalga oshira oladi.

Masalan :a) 1-guruhga o‘qilgan asar yuzasidan kichik insho yozish,

b) 2-guruhga asar mazmuniga doir testlar tuzish;

d) 3-guruhga asar qahramonlariga izoh yozish;

e) 4-guruhga asar mazmuniga mos rasm chizish;

Shunga o‘xshash turli topshiriqlar berish va ularning taqdimotini tashkil qilish mumkin. Bunday taqdimotlar orqali darsda o‘rganilgan asar chuqur tahlil qilinadi va o‘qilgan asardan parcha, hikoya,ertak o‘quvchilar ongida mustahkamlanadi.Bu har bir o‘qituvchining ijodkorligiga bog‘liq.

Sinfdan tashqari o‘qish bolalarning darsda olgan bilimlrini boyitadi, ta’lim-tarbiya jarayonida badiiy adabiyotni o‘qishga qiziqish uyg‘otadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga katta ma’naviy bilim beradi.Ularni mustaqil kitob o‘qishga, mustaqil fikrlashga undaydi.Shaxsiy mulohazaga ega bo‘lish malakalarini shakllantiradi, badiiy asardagi voqea-hodisalardan hayotiy xulosalar chiqarish va undan ibrat olish hissiyotini tarbiyalaydi. Estetik zavq olishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B.Ma’qulova, S.Sa’diyeva . Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari. T.,1997
2. K.Qosimova. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. T.,1985
3. B.Ma’qulova, S.Matchon. Kitobim-oftobim. T.,,O‘qituvchi” .,2000

“MUNSHAOT” TARKIBIDAGI IKKI RUBOIY HAQIDA

Fayzullayeva Maftuna Odil qizi
Toshkent shahar Shayxontohur tumani
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Telefon: (93) 316-06-93
fayzullayevamaftuna52@gmail.com

Annotatsiya: Hazrat Alisher Navoiydan bizga boy adabiy-ilmiy meros qolgan. Ana o‘sha ma’naviyat durdonalaridan biri “Munshaot”(Xatlar) va uning tarkibidagi kichik she’riy janrlardan biri bo‘lmish ruboiylardir. Ushbu ruboiylarning badiiy-g‘oyaviy jihatlarini va xatlardagi o‘rnini o‘rganish ijodkorning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-estetik, axloqiy qarashlari bo‘yicha yanada kengroq ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi va istiqlol davri yoshlarini ongli yashashga, yetuklikka chorlaydi. Ma’naviy olamimizni turli salbiy ta’sir va tahdidlardan asrash va himoya qilish yo‘lida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: xatlar(“Munshaot”), taronayi ruboiy, xosa ruboiy badiiy san’atlar: tashbih, ruju’, istiora, tanosib.

Alisher Navoiyning hayoti, ijtimoiy faoliyati, falsafiy-siyosiy qarashlari, mamlakat hayotida yuz berayotgan voqea-hodisalarga munosabatini belgilash va aniqlashga yordam beruvchi rasmiy va shaxsiy maktublardan tashkil topgan asari “Munshaot” bo‘lib, maktublar mohiyatini yoritishda Navoiy masnaviy bilan bir qatorda ruboiy janriga keng murojaat qiladi. Sharq she’riyatining eng qadimiy va keng tarqalgan ushbu janridan foydalangan holda shoir maktublar mazmunini boyitgan va aytmoqchi bo‘lgan fikrlari xulosasini ifoda etgan.

“Munshaot”dagi 70-maktub quyidagi ruboiy bilan boshlangan:

Ham charx bisoti asrai borgahing,
Ham oy jirmi na’li samandi sipahing.
Ham kun sipari qazo o‘qidin panahing
Yo‘q-yo‘q, bu charxu oyu kun xoki rahing .[1]

Maktub Xuroson davlati hukmdori Husayn Boyqaroga minnatdorlik ramzi sifatida bitilgan. Xatda Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga sovg‘a-salomlar jo‘natganligi bayon etiladi. Hazrat Alisher Navoiy ana shu yuborilgan tuhfalarga munosib xizmat qilish, saroydan uzoqda, tobe viloyatlarda zimmasiga yuklangan vazifalarni sidqidildan bajarishga doimo tayyor ekanligini bildirish maqsadida ushbu maktubni bitadi.

Yuqorida matni keltirilgan ruboiyda Sulton Husayn Boyqaro madh etilgan. “Munshaot” tarkibiga kiritilgan she’riy parchalar ixcham, lekin teran mazmunni ifoda etadi. Maktublarning nasriy qismidagi mo‘jazbayonlikni she’riy ifodalarda ham kuzatish mumkin. Zero, maktublarda istifoda etilgan qit’a, fard, ruboiy kabi kichik she’riy janrlar o‘z tabiatiga ko‘ra fikrning mo‘jaz ifodalanishini talab etadi. Maktubning nasriy qismi qay darajada yuksak poetik saviyada yozilgan bo‘lsa, Hazrat Alisher Navoiy bunday muvozanatni maktublar tarkibida kelgan kichik she’riy janrlarda ham saqlagan.

Ruboiyning birinchi misrasida shohga murojaat etilib, butun osmon sahni taxtining sahni bo‘lishi tilak sifatida bildiriladi. Ikkinchi va uchinchi misralarda esa fikr va qiyos yanada rivojlantiriladi. Yakunlovchi to‘rtinchi misrada yanada ustunroq tilak bildiriladi, ya’ni “Yo‘q-yo‘q osmon, oy va kun qadamingning tuprog‘i bo‘lsin”, - deydi ulug‘ shoir. Ushbu o‘rinda Navoiyning ruju’ san’atidan mahorat bilan foydalanganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, birinchi, ikkinchi va uchinchi misralarning boshida “ham” so‘zini qo‘llab, takrir san’ati orqali fikr kuchaytirib ifoda etilgan. Uchinchi misrada Hazrat Alisher Navoiy oyni qiyos uchun tanlab, shohning askarlariyu qo‘shinlarini madh etgan. Askar otining taqasi bilan oyda monandlik ko‘rgan shoir Sulton Husayn Boyqaro lashkari otlarining oyog‘idagi taqani oyga tenglashtiradi.

Ushbu ruboiy tuzilishiga ko‘ra taronayi ruboiy hisoblanadi, a-a-a-a shaklida qofiyalanadi.

“Munshaot” tarkibidagi 71-maktub ham ruboiy bilan boshlanadi:

Gulshang‘a, nasimi subh, rozim yetkur,
Ne roz, hadisi jongudozim yetkur.
Gul boshig‘a evrulub, o‘pub sarv ayog‘in,
Ko‘pdin ko‘p qulluqu niyozim yetkur. [2]

Ushbu maktub ham Sulton Husayn Boyqaroga yo‘llangan. Maktubdagi jumlalar mazmunidan Alisher Navoiyning o‘z ixtiyori bilan emas, balki Husayn Boyqaro istagi yoki topshirig‘iga ko‘ra mamlakatning qaysidir viloyat yoki chekka yerlarida yurganligi anglashiladi. Maktub ruboiydan so‘ng quyidagi nasriy jumla bilan boshlanadi: “Qulluq duodin so‘ngra arzadosht ulkim, firoq zoviyasida ovoraliqning bayoni mujibi kudurat va boisi malolat bo‘lg‘ay deb andin shammae izhor qilmoq maslahat ko‘rulmadi.” Jumlaning hozirgi o‘zbek tilimizga tabdili: Qulluqona duodan so‘ngra shuni ma’lum qilamizki, firoq burchida ovoza bo‘lib yurishimizni bayon qilish dil xiraligiga sabab bo‘ladi, deb undan ozgina bo‘lsin izhor qilishni ma’qul ko‘rilmadi.

Navoiy ruboiyning birinchi misrasida tong shamoliga murojaat qiladi va undan gulshanga dilidagi rozini, ya’ni sirini yetkazishini so‘raydi. Ulug‘ Navoiy ushbu misrada istiora san’atidan mohirona foydalangan, Sulton Husayn Boyqaroni gulshanga tashbih qilgan. Ikkinchi misrada esa shoir ruju’ san’atiga murojaat qilar ekan, mamlakat hukmdoriga o‘zining yuksak sidq-u sadoqatini ifoda etgan. Uchinchi, to‘rtinchi misralarda ham istiora san’ati qonuniyatlari amal qiladi. Gulning boshidan aylanish, o‘rgilish; sarv daraxtining oyog‘ini o‘pish “nasimi subh”dan, ya’ni yoqimli tong shamolidan zorlanib, so‘raladi. Fikrimizcha, tahlil qilinayotgan ruboiyda istiora, ruju’, tanosib va tashxis san’atlari uyg‘unlashib ketgan. Binobarin, “gulshan”, “gul”, “sarv” tanosib san’ati unsurlari bo‘lsa, yoqimli tong shamoli (“nasimi subh”)ning gul boshiga egilishi, sarv oyog‘ini o‘pishi kabilar tashxis san’atini yuzaga chiqarib, chuqur ma’noni yuksak poetik shaklda ifodalanishi yo‘lida xizmat qiladi.

Ruboiy tuzilishiga ko‘ra xosa ruboiy hisoblanadi, qofiyalanishi: a-a-b-a

Maktubda Hazrat Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaroning nevara ko‘rganligidan g‘oyatda xursandligini bayon qiladi. Nevarasi Sulton Muhammad Mirzoni saltanat qutisining sof duri va xalifalik osmonining porloq yulduzi, deya tavsiflaydi. Alloh shohning umrini uzun va davlatini bardavom qilishini, tangri taolodan so‘raydi.

Asardagi ko‘pgina maktublarning mag‘zidan ana shunday ruboiylar keng o‘rin olgan va ular asar g‘oyaviy-badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Alisher Navoiy. Munshaot. – Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 14-jild. Toshkent: “Fan”, 198-bet.

2. Alisher Navoiy. Munshaot. – Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 14-jild. Toshkent: “Fan”, 199-bet.

ЛИЧНОСТНО- ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ.

Фазилдинова Муслима Қосимжон қизи
Риштанского района
учитель русского языка школы№14
тел:91-286-40-01
e-mail:fazliddinova@mail.ru

Аннотация:Данная статья посвящена методике проведения практических занятий по русской литературе с помощью инновационных технологий . Провести практические занятия, используя методами личностно-ориентированного обучения. Как в следствие в процессе занятий у учащихся расширяет логическое мышление. Их поддерживать в получении знаний, использовать результаты на занятиях полученные нами и найти пути решения на возникающие проблемы.

Ключевые слова: инновационная технология, компьютер, принцип индивидуальности, традиционный урок, анализ урока.

21 век-это век инновационной технологии. Потому что, в нынешнее время во всех сферах, не только в образовании, но и в других сферах общества, используются и распространяются в массовом масштабе разные технологии обучения. Ниже мы с вами будем говорить о роли личностно-ориентированного обучения в образовании,а именно в жизни школы.

Сегодня нет такого учителя, который не задумывался над такими вопросами : ” Как можно сделать свой урок ещё интереснее, ярче?” Как увлечь учащихся своим предметом на уроке?” Таким образом, каждый преподаватель сам лично относится к обучению, своему предмету пользуясь условиями, возможностями личностно-ориентированного обучения.

Основная цель такого обучения:разбудить интерес у учащихся к изучаемому предмету,поддерживать их в этом пути и создать формулу успеха.

Итак, в современной педагогической технологии педагогический процесс должен осуществляться на основах личностно-ориентированных технологий обучения. Это объективная необходимость.

Личностно-ориентированное обучение имеет некоторые свои принципы:

- принцип самоактуализации;
- принцип субъективности;
- принцип индивидуальности;
- принцип выбора;
- принцип творчества и успеха и т.д.

Оссобенности работы учителя в личностно-ориентированных группах следующие:

1. Раскрыть субъективный опыт учащегося во время урока (с учетом практической направленности)
2. Атмосфера повышения интереса;
3. Оценить учащегося не по итогу урока,а по его достижения результатов
4. Рациональное домашнее задание.

Следовательно,данная технология обучения даёт возможность учителю использовать различные методы на уроке. Сюда входят такие методы,как: работа в группах,написание различных видов сочинений, урок-размышление, урок-игра и т.д Такие методы обучения можно использовать как на уроках литературы,так и на уроках русского языка.

На основе таких методов мы проанализируем упражнения, включённые в систему работы по литературе, и, выявляем, что главная цель личностно-ориентированного обучения в преподавании русской литературы заключается в формировании всесторонне развитой личности учащегося, его мышления, языковой интуиции и способностей, овладение культурой речевого общения.

Для системы средне-специального профессионального образования можно отнести следующие личностно-ориентированные технологии обучения:

- деловые игры;
- проблемное обучение;
- компьютерное обучение;
- модульное обучение.

Исходя из сказанного,можно сделать такой вывод,каждый человек на всю жизнь запомнит, как он в школе учился и как его учили! Никогда не забудьте, что важно не какой объём знаний получает ребёнок,а каким образом он получает знание на уроках. На уроке между учителя и ученика всегда должно быть дружелюбие, взаимопонимание, взаимоуважение. К примеру, я сама работаю и в младших и в старших классах. На всех с уроках стараюсь пользоваться интересными методами, дидактическими играми и стараюсь работать с учениками,смотря на возрасту, смотря на способности каждого ученика. Я думаю,что если такая правильная атмосфера была б в школах, уроки пройдут интересными, эффективными! И это является одной из основной цели личностно-ориентированного обучения!

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. “Современный литературный русский язык” В.В.Бабайцева.
2.“Русский язык и литература :теория и методика преподавания в образовательной организации” В.В.Решетова.
3. Методические пособия.
4.“ Педогогические технологии и педагогическое умение”А.Х.Косимова.Ф.А.Холикова

TA'LIMDA ELEKTRON RESURSLAR

Fozilova Oysha Rahimovna
Namangan viloyati, Chortoq tuman
XTBga qarashli 6-sonli maktab o'qituvchisi
Pochta: rahimovna11@umail.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada internet resurslaridan ta'lim jarayonida foydalanish haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: internet, manba, electron resurs, tarmoq, electron darslik.

Globallashuv asrida bir soha faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki, har qanday davlatning xalqaro miqyosda barqaror rivojlanishi va istiqbolib iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq.Bugungi kunda Internet bizning hayotimizga tobora kirib bormoqda. Internetda pochta, telefoniya, biznes (savdo, bank, auksion) ishlari ko'proq amalgam oshirilmoqda. Kundan-kunga tarmoqda axborot manbalari ko'paymoqda. 2004 yilgi hisobotga ko'ra Internetdan foydalanuvchilar soni 600 mln. kishidan ortiq edi. Internet deyarli ta'lim jarayoni uchun ideal muhit vazifasini o'taydi. Bunga Internet foydalanuvchilarining dunyoning istalgan nuqtasidan tarmoq resurslaridan foydalana olishligi muhim omillardan biri sifatida ko'rsatilmoqda. Tarmoq foydalanuvchilari va axborot sahifalari soni uzluksiz tarzda o'sib borib, ko'pchlik yoshlar uchun ermak va qulay vositaga aylanmoqda. AQSH da o'tkazilgan statistik tadqiqotlarga ko'ra Oliy o'quv yurtlarining yuqori kurs va kollejlari talabalarining 100% i Internetdan foydalanadilar. Talabalar Internetning faol foydalanuvchilari sifatida haftasiga o'rtacha 11 soatni online ga sarflaydilar. Har 10 talabadan 9 tasi kuniga elektron pochatasidan foydalanadilar. Internetdan yangilik, axborot va ish qidiradilar. Amerikalik 5 dan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning deyarli 90% i kompyuterdan foydalanadilar, bu foydalanuvchilarning 59%i Internetdan foydalanuvchilardir. 15 yoshli amerikaliklarning har to'rtinchisi Internetdan foydalanadilar, 10 yoshlilar guruhida bo'lsa 60% ni, 16 va undan kattalarida bu ko'rsatkichlar 80% ni tashkil

Elektron o'quv nashrlari ichida Internetda joylashtirilgan tarmoq resursalari ko'proq tarqalmoqda. Shuningdek Internet resurslarining ham soni ortmoqda. Asta-sekin resurslarning berilganlar bazalari, maxsus katalog va qidiruv tizimlari vujudga keldi. Tarmoq ilmiy-ta'lim resurslari bilan ishlash o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib, tarmoqda,brauzerlar bilan ishlash malakasini, Internetda axborot izlash, uni qayta ishlash va saqlash usullari bilan tanish bo'lishni talab etadi. Internetda ishlamoqchi bo'lgan pedagog va o'quvchi oldida turadigan birinchi muammo – axborot qidirish muammosidir. Keyingi muammo – topilgan resurslarning ta'lim maqsadlarida foydalanishga yaroqliligini aniqlashdan iborat.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun elektron darslik yaratish katta mahorat talab qiladigan va uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Elektron darsliklar ta'lim jarayonida yaxshi samara berayotgan va ularga katta ehtiyoj sezilayotgan hozirgi kunda maxsus fanlar uchun bunday vositalarni yaratish davr talab bo'lib qoldi. Shu bois ham respublikamizda ayni davrda elektron o'quv adabiyotlarini yaratish jarayoni rivojlanib bormoqda. Hozirga qadar elektron darsliklarni yaratish texnologiyasiga oid tadqiqotlar olib borilgan, ammo elektron darsliklarni yaratish va amalda joriy etish jarayonini tashkil etish va boshqarish jihatlari yetarli darajadao'rganilmagan. Yaratilayotgan elektron o'quv adabiyotlari o'qitishning didaktik tamoyillariga, o'quv materiallarining bir tizimliligiga, bilimlarning ketma-ket va uzviylikda uzatilishiga asoslanishi lozim.

Har bir elektron o'quv adabiyoti o'quvchilar yoshiga, fanning o'quv dasturiga mos bo'lishi, mavzular to'la yoritilishi, fanlararo bog'liqlik, o'quv fani mavzularga mos dizaynlar tanlanishi, fanga nisbatan qiziqishini orttirishi, ta'limda samaradorlikka erishilishiga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Infocom.uz
2. hozir.org

TA'LIMI JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIKA USULLARINI QO'LLASH

Ganjayeva Indira Uktamovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
4-son maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarix ta'limi jarayonida innovatsion pedagogika usullarini qo'llash masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, innovatsiya, konepsiya, ixtiro, intellectual,emotsional-motivatsiya.*

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish-innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat yangilik va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X .Barnet, D j.Basset, D .G am ilton, N .Gross, R.Karlson, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifmi, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi. Oliy maktab o'qituvchisining innovatsion faoliyati oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir.[1]

Innovatsiya (inglizcha innovation) — yangilik kiritish, yangilikdir. A.l.Prigojin innovatsiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka- tashkilot. aholi. jamiyat. guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. Tadqiqotchilar (A.l.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, A.G. Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta 'sirini mikrosathi. Birinchi yondashuvda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri. ularning birligi, raqobati va natijada binning o'rnini ikkinchisi egallashidir. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonning sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish
bosqichi. u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tatbiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.
6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.
7. V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlaming ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish, deb biladi. Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.[2]

Birinchi shaklga, yangilik kiritishning oddiy jarayonlari kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir. Ikkinchi shaklga, yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir. Yangilik kirtish ham ichki mantiq ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning

[1] Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya.2009 yil.- B.97-99

[2] Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya.2009 yil.- B.97-99

atrof-muhitga o ‘zaro ta’sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir. Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. Shuningdek, pedagogika fanida xususiy, shartli, inahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg‘onadi. Xususiy yangilik V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko‘zda tutadi.Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma’lum unsurlaming yig‘indisi shartli yangilik hisoblanadi. Mahalliy yangilik aniq obyektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi. Subyektiv yangilik ma’lum obyekt uchun obyektning o‘zi yangi bo‘lishi bilan belgilanadi. Ilmiy yo‘nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vosita: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

«Innovatsiya» - bu ta’lim: ma’lum bosqichlar bo‘yicha rivojlanadigan jarayon. V.I.Zagvyazinskiy «yangi» tushunchasiga ta’rif berib, pedagogikadagi «yangi» faqatgina bu g‘oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. O‘qitish jarayonida noan’anaviy ta’limning o‘ziga xos jihati an’anaviy ta’limdagidan farq qilib, o‘quvchilarning mustaqilligi va o‘quv faoliyatini taqiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo‘naltirish, o‘quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, ularni faoliyatga ongli ravishda yo‘llash, biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o‘quvchi-o‘quvchilarda fan asoslarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi.

ADABIYOTLAR

1. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya.2009 yil.- B.97-99

PERFECTION IS THE CHILD OF TIME

Giyasova Salima Farkhod kyzy,
Teacher of English language at the boarding school of creativity named after Ibrahim Yusupov at the presidential agency for the development of creativity and specialized schools under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan,
The Republic of Karakalpakstan, Nukus

Annotation*: In this article we described perfection is the child of time. Here we gave own methods of using theatre club in teaching foreign languages. We proved in this article effective technique in teaching.*

Key words: *Perfection, theatre, theatre club, tale, fable, myths, narrator, kinesthetic activity, fun, engage the students.*

In history, if we paid attention perfection had a meaning of, flawless knowledge or conduct. Many philosophies and theologies have formulated theories about perfection. For example, The Manichaeans divided themselves into two classes according to their degree of spiritual perfection. Those who were called the elect practiced strict celibacy and vegetarianism, abstained from wine, did no labor, and preached. They were assured of ascent to the realm of Light after death. The auditors, much more numerous, were those of lower spiritual attainment. They were permitted marriage (although procreation was discouraged), observed weekly fasts, and served the elect. They hoped to be reborn as the elect (see Transmigration). Eventually all fragments of divine Light would be redeemed, the world would be destroyed, and Light and Darkness would be eternally separated.

Tippett first achieved recognition in the 1930s with his Concerto for Double String Orchestra (1939), which displays his interest in energetic counterpoint, in which two or more melodies are played simultaneously. His oratorio A Child of our Time(1941) contains elements of African American spirituals and was the first of many works to convey his humanitarian and pacifist beliefs. His enthusiasm for jazz and blues is evident in the Fourth Symphony (1977) and the Triple Concerto (1979). Tippett has also been influenced by the philosophy of Swiss psychiatrist Carl Jung, especially in Tippett's opera of 1970, The Knot Garden. His opera, Ne w Year(1989) is remarkable for its exuberance and freshness of style. Tippett's other compositions include his String Quartet No. 5 (1991) and an orchestral work, The Rose Lake(1994). He was knighted in 1966, and became a member of the Order of Merit, Britain's highest honor, in 1983.

We always prefer to use theatre club activities in my professional period. It improved language skills of my students by the help of using theatre and active language games. According my students' point of view, "Theatre Club" is a time of making good training period. For example, we made stage version of the story of Scottish tale named "The Wells at the End of the World" with my club members. In this tale 10 characters are acted and we sew the toys ourselves. And, also my students might be compare this tale to Uzbek tale named: "Zumrad and Qimmat". Both of tales are very popular, interesting and easy for learning languages.

Theatre club takes a literary text- a sample of fiction, a fable, or a folk tale and students act it out. They are not authors but if narrator only, they only recite the narration. They do not write dialogues; but reproduce the dialogues in the tale. Students will orchestrate the drama that a tale portrays, choosing sound effects, props, and blackboard pictures to provide background. They decide who stands where and what actions are needed to bring the tale alive in a special way.

In Theatre club, students, not the teacher, do the telling, although the success of the telling depends, first of all, and mostly, on the teacher's original decision in selecting a tale. In making this choice, the teacher should remember that while students may become frustrated, truly exasperated, as they struggle with this foreign language, they also have the faculty of imagination.

In theatre club evokes imagination, putting a number of formal pedagogical principles into play simultaneously as action proceeds. For instance, language materials ought to be intrinsically motivating. They ought to engage the students, pique their curiosity, and be within their range of proficiency so that they are neither bored, because the materials are too familiar, nor frustrated, because they are loaded with too many new features, new words, new sounds, or new grammatical structures.

There are lots of reasons for using Story Theatre and kinesthetic activities in the classroom. It is fun. And effective! It appeals to students' unconscious-that part of us those theorists in second language acquisition stress is so important. Story Theater lowers students' anxiety level, a major concern of Krashen; it reaches the whole person, Curran's requirement for successful learning; it addresses the unconscious which the psychiatrist Lozanov recognized as playing a fundamental role in language learning; and by linking meaning and imagination, it enters memory, which Stevick sees as central to acquisition. But most compelling of all reasons for using Story Theater, is Joseph Campbell's observation that the themes of fables and myths are so universal that a story from Japan will be appreciated by a class of students in Athens.

References:

1. Smith, Stephen M. 1984. The Theater Arts and the Teaching of Second Languages. Reading, Massachusetts: Addison-Wesley.

2. Spolin, Viola. 1963. Improvisation for the Theater. Evanston, Illinois: Northwestern University Press.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQ OG‘ZAKI IJODI - MILLIY TARBIYANING ASOSI.

Qutbidinova Husnidaxon Shuhratovna
Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar
10-umumta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998905847551
qutbidinovahusnidaxon@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularni komil va yetuk inson qilib kamolga yetkazish masalalariga bag‘ishlangan.
Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, maqollar, doston, ertak, topishmoqlar, latifalar

Xalq og‘zaki ijodi qamrovi nihoyatda keng, serqirra tushuncha bo‘lib, u shu xalq paydo bo‘lgan butun bir davrni o‘z ichiga oladi.

Tarbiya ijtimoiy-tarixiy zaruriyat va ehtiyojdir. Shu bois har bir millatning etnopedagogik xususiyatlariga xos bo‘lgan milliy tarbiyasi o‘sha millatning yashash jarayonida, oila ehtiyojlari asosida yuzaga keladi. Bu xususiyatlar asrlar davomida sinovdan o‘tib, sayqal topib, mukammallashgan va shu millat manfaatini himoya qilishga qodir bo‘lgan milliy tarbiyaga aylangan.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, o‘quvchilar xalq og‘zaki ijodini o‘rganish orqali milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalanadilar.

Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligini, o‘tkirligi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z kishilar timsoli bo‘ladi. Ertak o‘qish orqali o‘quvchlar ertak qahramonlarining hatti-harakatlarini muhokama qiladilar va shu bilan birga yaxshilikning doimo g‘alaba qozonishiga ishonch bildiradilar.

Maqol-xalq og‘zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, xilma-xil badiiy ifoda vositalari-ohangdosh tovushlar takrori bo‘ladi. Maqol turmush tajribalari zamirida tug‘ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa hikmatli so‘zlardir.

1-2-sinflarda maqolni ifodali o‘qish va yod olishga katta ahamiyat beriladi. 3-4-sinflarda esa maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o‘rganish jarayonida ham muntazam o‘rganib boriladi. Shu bilan birga “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limi tarkibida “Maqollar” mavzusi alohida o‘rganiladi. Bunda maqollar xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasi asosida vujudga kelganligi, tarbiya vositasi sifatida har bir xalqning milliy ma’naviyatining shakllanishida muhim vosita bo‘lishi haqida dastlabki tushunchalar beriladi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining qadimdan shakllangan janri dostondir. U eng murakkab, yirik va keng tarqalgan shakllardan hisoblanadi. U adabiy atama sifatida yirik hajmli, asarlarni anglatadi. Dastlab xalq og‘zaki ijodida shakllangan bu janr keyinchalik yozma adabiyotda ham salmoqli o‘rin tutgan. Boshlang‘ich sinflarda asosan “Qahramonlik dostonlari” va “Jangnoma” dostonlari o‘rganiladi.

Boshlang‘ich sinflarda dostonlardan berilgan parchalarda, asosan, qahramonlarning bolalik davrlari aks etgan epizodlar keltiriladi. Bunda bolalarni qahramonlikka, Vatanga sadoqatli bo‘lishga chorlovchi voqealar tasvirlanadi.

Latifa xalq og‘zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri bo‘lib, nozik, mayin kinoya, qochiriqlar, ishtirok etuvchi kulguli, kichik hajmli hikoyadir. Xalq orasida “afandi” deb ham kiritiladi. Latifalar yagona qahramon (Nasriddin Afandi) bilan bog‘liq holda yaratiladi va Ixcham salohiyatga ega bo‘ladi. Latifalarning eng muhim xususiyatlardan biri uning hamma vaqt hayot bilan hamnafas, hamqadam borishidir. Latifa bilan ishlanganda ularda tanqid qilingan illatlar haqida alohida to‘xtalib o‘tish, o‘quvchilarga yaxshi fazilatli bo‘lish kerakligini uqtirib borish lozim. Umuman olganda, latifalar orqali ham o‘quvchilarga milliy tarbiyani ular ongiga va tafakkuriga singdirish maqsadga muvofiqdir.

Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog‘liq holda yaratiladi. Ularning zamirida

kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi.

Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan darsliklarda ham keng qo'llanilgan. Har bir topishmoq uni yaratilgan xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusumi bilan bog'liq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, xalq og'zaki ijodi tom ma'noda odobnoma bo'lib, bugungi kunda xalqimiz tomonidan yillar davomida shakllangan. Xalq og'zaki ijodi namunalarini keyingi avlodga yetkazish mexanizmlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodida inson ma'naviy ruhiyatidagi yaxshilik, ezgulik, ahillik, qadr-qimmat sha'nini ulug'lovchi sahifalar rang-barangdir. Hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasi, istiqlol mafkurasi va merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ona tili o'qitish metodikasi. K. Qosimova Toshkent "Nosir" nashriyoti
2. Xalq ta'limi jurnali 2018 N1 100-105 bet
3. Milliy pedagogika mohiyati. Umumta'lim maktablari uchun qo'llanma. -T. 2013, 61-162-betlar

WHY IS CREATIVITY SO IMPORTANT IN HIGHER EDUCATION?

Khabibullayeva Rushana,
the student of Navoi State Pedagogical Institute
Faculty of Foreign languages
Department of English language and literature
khabibullayevar@gamil.com
(+998-93-085-20-10)

Annotation: ”Continuous improvement is better than delayed perfection”, Mark Twain said. Every once in a while, teachers and students seem as they are tiring because of constant way of learning system. It would be better if both endeavour to breathe life into education in order to deepen knowledge. We should alter our going way, not our appointed place.

Keywords: “enrich knowledge”, “work individually”, “clearly explanation”, “feel responsibility”, “add contribution”, “work on yourself”, “lifelong fortune”.

Everyone wants to lead a happy life and the first step would start with studying at a university. This is probably because, students learn more than their followers who do not enter to Higher education. Of course, after graduation they will have a great opportunity if they are truly suitable for “the student of university”. In order to come it true, they must have bright ideas, suggestions. Moreover, their teachers have to be ready to give advice and motivation to make them go on. All those things depend on creativity. Because of that, they, we, you may be perfect and find the way to destiny.

Let’s imagine: you are teacher. What should you do to make successful lesson?

To my mind, firstly, you should be motivator and kind person for all your students to enrich their knowledge. Students fulfill whatever you give to solve if you are initiative. During a lesson you yourselves do not have to explain the whole theme as a lecturer. It would be boring for all. Supposing you make your students imagine and think deeply about that appointed topic and ask their thoughts. After full hearing all of them, as a starter, you must give rewarding opinions about them and give comments, correct their mistakes. This amazing method helps you to see their bid for doing their best and their respect too. You had better walk around the class instead of staying a place without motion. At that position you can control your students’ action and work individually, if there is someone who comes across some barriers, you should give clearly explanation a little.

Furthermore, you should make some attention-grabbing quiz like “hot seat for students”, “warm-up games” during lesson. You may divide them to groups and make a game. For instance, you give cards which some questions, new facts have already been written in order to check how they understand. They are able to acquire “golden card” as “best mark”, if their answers are proper. But if it is wise version, after your correcting the wrong reply, you should them red coloured card. By doing this, you manage to make your students engage to listen everything. After you complete the task, you tell them to count their colourful cards and define the winner group. You may encourage them by giving some kinds of prizes as certificates. It would be better if you give one or two assignment as a hometask and don’t forget to say: “My dear, all of you are active today!” They are getting interested more and more as a child.

But students should feel responsibility as teachers. Supposing you were student, what can you do to add your contribution to successful learning system? Do you know what kind of duties you have? After you pass exam with flying colours, you feel over the moon. Even you consider yourselves as “the happiest person in the world”. But entering university does not mean to stop study and put your feet up. If you continually chill out without gaining new data, you can not find your life as you imagine. However, you should be brainy by working on yourselves, studying a lot with your coursemates, as well as, your teachers. It will be much better if you search and find out secrets of your subject or solve the issues which people’re eternally suffering. You attempt to create new strategies, also, add your contribution for your company to evolve over the years into multi-million dollar organization and those lead you to live a charmed life as you want.

On the whole, everything depends on us, our spirit and bid too. If you have belief and enough knowledge, you can create a way which there seems to others no way and the result you procure lifelong fortune.

Used literature:

1. “The vitamin of brains” by Djim Ron
2. “7 stairs of success” by Ravshanbek Khonniyoz

O‘QISH DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Xaitmirzayeva Barno Nuruddinova
Toshkent viloyati Qibray tumani
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annatatsiya:Ushbu maqolamda boshlang‘ich sinf o‘qish va ona tili darslarida maqollar ustida ishlashda lug‘atning o‘rni haqida yozganman.

Kalit so‘zlar: So‘z, gap, maqollar, lug‘at, nutq.

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi.Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi.Leksikologiya o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘limdir. Leksikologiya lug‘at tarkibidagi so‘zlarning nutqda ma’no ifodalash xususiyati, qo‘llanish faolligi, boyib borishi, ba’zi so‘zlarning eskirib, iste’moldan chiqib ketishi, ma’no ko‘chish hodisasi kabilarni o‘rganadi.Shu sababli leksikolagiya lug‘at ustida ishlash metodikasining asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan, mazmunga mos so‘z va so‘z birikmalarining ma’lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug‘ati qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa uning nutqi ham shunchalik boy bo‘ladi; o‘z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug‘atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Maktabda nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishlash ni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarning lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

So‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning o‘qish ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash jarayonlari bo‘lib o‘tadi.

O‘quvchilar nutqini boyitishda maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar o‘qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, Grammatik tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sermazmun va ta’sirchan bo‘ladi; maqollar o‘quvchilarning badiiy didini o‘stiradi, nutqqa e’tibor bilan qarashga, to‘g‘ri, mantiqiy fikrlasha o‘rgatadi, estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.O‘qish kitoblarida mavzuga bog‘liq holda, o‘zbek tili darsliklarida esa mashq matnlari ichida xilma- xil mavzularda juda ko‘p maqollar beriladi. O‘quvchilar maqollarni o‘qib, o‘qilgan asarning axloqiy muammosi bilan, hayotiy sharoit bilan bog‘laydilar, ularning majoziy mazmunini, ayirim so‘z va iboralarning ma’nosini tushuntiradilar.Natijada o‘rni bilan maqollardan foydalana boshlaydilar

Lug‘atni boyitishda turli lug‘atlar juda foydali qo‘llanmadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun “Imlo lug‘ati” mavjud. O‘qituvchi ma’lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug‘atlardan muvaffaqiyatli foydalanadi.

Xulosa qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish darslarida badiiy asar tahlili va maqollar tahlili ustida ishlaganda lig‘at ustida ishlaydilar. Bu o‘quvchilarning nutq faolligini va so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili o‘qitish metodikasi.
2. O‘zbek imlo lug‘ati
3 .Internet saytlaridan

TENGSIZLIK ELEMENTLARINI O‘RGATISHDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Hamdamova Yoqutxon Abdusattarovna
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998996033475
Karimova Sevara Zokirjonovna
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998999102681

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida tengsizlik elementlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar tog‘risida so‘z boradi. Shuningdek o‘quvchilarga dars mobaynida qo‘llanadigan o‘yinlar to‘g‘tisida ham fikr yuritiladi

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, metod, matematika, taqqoslash, so‘rash.

Bugungi kun pedagogikasida fanlarga mos ravishda didaktik manbalar tanlash to‘g‘risida ko‘plab so‘z yuritiladi. Lekin o‘qitishning bu turdagi zamonaviy metodlarini qo‘llashda nimalarga e’tibor qaratish kerak? Quyida biz o‘qitishning zamonaviy metodlarini matematika fani misolida, noan’anaviy darslar uchun foydalanish mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinlar bilan yoki, matematik o‘yinlar asosidagi didaktik manbalarni qay tarzda qo‘llashni munozara qilmoqchimiz. Shu bilan birgalikda matematika yo‘nalishida ham rag‘batlantirish va ta’limotni asoslash metodlari jumlasiga bilish harakterdagi o‘yinlar, o‘qishda muvoffaqiyatli vaziyatlar yaratish, mukofotlash metodi va boshqa metodlarini qo‘llash mumkin. Buning uchun anglash faoliyatini rag‘batlantirish va o‘quv predmetiga qiziqish uyg‘otishning samarali metodlaridan biri bo‘lgan o‘yin turini tanlash kerak. Maktabgacha yoshda o‘yin kichkintoylar hayotida muhim ahamiyatga ega. O‘yinlar ijodiy, harakatli, didaktik o‘yinlarga bo‘linadi. Boshlang‘ich ta’limdagi o‘rgatuvchi va didaktik o‘yinlar asosida bolaning masalani yechishga yo‘naltirilgan bilish harakteridagi mazmun, aqliy va ifoda kuchi, o‘yinning borishini aniqlovchi harakat va qoidalar yotadi. Didaktik o‘yinlarda fikrlashni uning asosiy protsesslari analiz, taqqoslash, xulosa chiqarish va hokazolar rivojlantiriladi. O‘qitish protsessidagi didaktik o‘yinlar vaqtida paydo bo‘ladigan ijobiy ellyutsiyalar bolalar faoliyatini faollashtiradi, ularning erkin diqqatlarini, xotiralarini rivojlantiradi. O‘yinda o‘quvchilar o‘zlari payqamaganlari holda juda ko‘p matematik amallarni, mashqlarni bajaradilar, sanashni mashq qiladilar, sonlarni taqqoslaydilar, masalalar yechadilar. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan bolalarning miqdoriy, fazoviy tasavvurlarini rivojlantiurvchi ko‘p miqdorda o‘yinlar yaratilgan. “Arifmetik loto”, “Doiraviy misollar”, “Zinacha jim”, “Magazin”, “Tun va kun nima o‘zgardi”, “Sanayver”, “Ko‘rganini eslab qolish”, “Tik-tuk” o‘yinlari esa shular jumlasidandir. Didaktik o‘yin-ta’lim beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta’limning maqsadlarga erishuvchi ya’ni o‘tilgan o‘quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinni o‘tkazishda aniq maqsad, biror harakatni, biror hisoblash usulini, ya’ni ma’lum didaktik topshiriqni mustahkamlash vazifa qilib olinadi. Didaktik topshiriq darsga qo‘yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o‘yinning ham har qanday o‘yindagi singari qoidalari bo‘ladi. O‘yin qoidalari o‘yin topshirig‘iga kiritiladi. O‘yin topshirig‘i-o‘quvchining bolalarga o‘yinning qanday o‘ynalishini, kim g‘olib chiqqan hisoblanishini va hokazolarni tushuntirish tarzida beradigan topshirig‘idir.

Matematikada mazmunli o‘yinlarni tanlashda ma’lum izchillikka amal qilish muhimdir. Didaktik o‘yinlarni o‘tkazish metodikasi o‘qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qiladi. Yangi didaktik o‘yin bilan tanishtirish puxta o‘ylangan bo‘lishi va bu o‘yinlar kichik yoshdagi o‘quvchilarni muvoffaqiyatli o‘qitish shartlaridan biri bo‘lib hisoblanishi kerak.

1. O‘quvchilarda sezgirlik, ziyraklikni tarbiyalashga doir o‘yinlar.
2. O‘quvchilarning xotirasini, idrokini, nutqini rivojlantirishga doir o‘yinlar.
3. O‘quvchilarning diqqatini tarbiyalashga doir o‘yinlar.
4. Munosabatlarni tanishtirishga doir o‘yinlar.
5. Sanashni o‘rgatuvchi didaktik o‘yinlar.
6. Son va uning tarkibini shakllantirishga mo‘ljallangan o‘yinlar.

7. Hisoblashni o‘rgatish maqsadida o‘tkaziladigan o‘yinlar.
8. O‘lchashni o‘rgatishga doir o‘yinlar.
9. Miqdorlarni o‘lchov birlikmalari bilan tanishtirishga doir o‘yinlar.
10. Konstruktiv ko‘nikmani shakllantiruvchi o‘yinlar.

O‘quvchilarning bilim, o‘quv va malakalarini tekshirish va baholash, boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Matematika o‘qitish jarayoni doimo nazorat qilish bilan birga olib boriladi. Nazorat qilish o‘quvchilarning bilimlar darajasini va bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlaydi, bilimlar, ko‘nikmalar va malakalardagi kamchiliklarni aniqlaydi, uning oldini olishga yordam beradi. Matematika darslarida nazoratning uch turi: dastlabki, kunlik va yakuniy tekshirish amalga oshiriladi. Dastlabki tekshirish o‘quv yilining boshida yoki yangi mavzuni o‘rganishdan oldin yangi, materialni o‘rganishga qanday bilimlarni tushirish kerakligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Kunlik tekshirish asosida bilimlarni birlamchi mustahkamlashdan oldin, o‘quvchilar yangi mavzuni to‘g‘ri tushundilarmi, yo‘qmi ular qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganlarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Yakuniy tekshirish o‘quvchilar bilan mavzuni, bo‘limni o‘rganishning oxirida yoki chorak o‘quv yilining oxirida o‘tkaziladi. Undan maqsad o‘qitish natijalarini aniqlash, o‘quvchilar olgan bilim, o‘quv va malakalar sifatini tekshirishdan iboratdir. Matematikadan bilimlarni nazorat qilish usuli turli-tuman. Bu usullar og‘zaki so‘rash va yozma hamda amaliy ishlardir.

Og‘zaki so‘rash frontal va yakka tartibli bo‘lishi mumkin. Frontal so‘rashda savollar butun sinfga beriladi, biroq savollarning murakkablik darajasi bir xilda bo‘lmadi. Har bir bolaning imkoniyatini hisobga olib va shu bilan birga hammani faol ishlashga jalb etishda o‘qituvchi sinf o‘quvchilariga tabaqalashtirib yondashadi. O‘qituvchi yakka tartibda so‘rash uchun ko‘pincha o‘quvchining javobiga butun sinf diqqatini jalb qilish maqsadida o‘quvchini doska oldiga chaqiradi. O‘qituvchi yakka tartibda so‘rashda o‘quvchiga topshiriqlar ko‘rsatilgan kartochka berib, uni bajarishga vaqt ajratishi mumkin. O‘qituvchi og‘zaki so‘rashni o‘tkazishda bolalar o‘quv materialini qanchalik o‘zlashtirganliklarini tekshiradi, iloji boricha hamma o‘quvchilarni faol ishlashga jalb qilishga harakat qiladi. Og‘zaki so‘rash o‘quvchilarning bilimini har tomonlama to‘liq aniqlashga imkon beradi, biroq u ko‘p vaqt talab qiladi, ko‘proq o‘quvchilarni bilimini tekshirish imkonini cheklab qo‘yadi. Bundan tashqari og‘zaki so‘rashda o‘qituvchining savollari va o‘quvchining javoblari hech qaerda qayd qilinmaydi. Bu turli o‘quvchilarning bir savolga bergan javoblarini taqqoslash, bir o‘quvchining o‘quv yilining turli paytlarida bergan javoblarini taqqoslash imkoniyatidan o‘qituvchini maxrum qiladi. Og‘zaki so‘rashning bu kamchiliklari materialni o‘zlashtirishni yozma ishlar yo‘li bilan tekshirishda ma’lum darajada bartaraf qilinadi. Mustaqil yozma ishlar bilim, o‘quv va malakalarni kunlik va yakuniy tekshirish maqsadida o‘tkaziladi. Kunlik tekshirishda mustaqil ishlar hajmi jihatidan uncha katta bo‘lmay asosan o‘tilayotgan mavzuga doir topshiriqlardan iborat bo‘ladi. Bu holda tekshirish darsda o‘qitish jarayoni bilan uzviy aloqada bo‘lib, unga bo‘ysunadi. Shuning uchun mustaqil ish qismlarga bo‘linib, dars davomida 2-3 marta berilishi mumkin. Mustaqil ishlar uchun mashqlar va vazifalar o‘quvchilarning o‘zaro mos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qituvchi tomonidan tuziladi. Har bir mustaqil ish tekshirilishi kerak. Mustaqil ishlarga berilgan baho o‘qituvchining ixtiyori bilan jurnalga qo‘yilishi mumkin. Yozma tekshirish ishlari mavzu yoki bo‘lim o‘rganilgandan keyin o‘quv choragi yoki o‘quv yilining oxirida o‘tkaziladi. Chorak yoki yilning oxiridagi tekshirish ishlariga mo‘ljallangan savollar matematikaning turli bo‘limi yuzasidan beriladi. Chorak yoki yillik tekshirish ishlari odatda masala va misollardan iborat bo‘ladi. Tekshirish ishi o‘qituvchi tomonidan diqqat bilan tekshirilishi, tahlil qilinishi lozim. O‘qituvchi tekshirish ishini sifatli tahlil qilib, har bir sinf o‘quvchisini xatolarini, qiyinchiliklarini va ularning sabablarini ko‘rsatish kerak. Har bir tekshirish ishi baholanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyot:

1. S.Alixonov. “Matematika o‘qitish metodikasi” Toshken. 2012 yil.
2. A.Nurmatov, I.Ahmadjonov. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi“. Toshkent. 1991 yil.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ILMIY-OMMABOP ASARLARNI O‘QISH METODIKASI

Hamraqulova Feruza Akbarovna
Namangan viloyati Norin tumani
27-son maktab oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998939149306

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilmiy-ommabop asarlarni o‘qish haqida tavsiyalar berilgan.
Kalit so‘zlar: kuzatish, sayohat, milliy istiqlol, o‘quv kinofilmlari.

Boshlang‘ich sinflarda ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayot haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o‘rgatish.

Tabiatshunoslikka oid va tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop asarlarni o‘qib o‘rganishda tabiat hodisalarini kuzatish, o‘quvchilarni dehqonlar mehnati bilan tanishtirish, mamlakatimizda yuz bergan o‘zgarishlarning guvohi va ishtirokchilari bo‘lgan insonlar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi asarlar Vatanimiz o‘tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, buyuk siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to‘g‘risida bilim beradi. O‘qish darsliklaridan o‘rin olgan Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi matnlar o‘quvchilarni nafaqat o‘tmishimiz bilan tanishtiradi, balki ularning Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas’uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. O‘quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg‘usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o‘tmishi haqida hikoya qilingan ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar o‘tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo‘ladilar. Jamiyat taraqqiyoti haqida qisqacha bo‘lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog‘liq mavzudagi asarlar tahliliga alohida e’tibor berish zarur.

1-sinf dasturida o‘qish bilan bog‘liq holda kuzatish, sayohat darslari mo‘ljallangan. Masalan, yil fasllarida mavsumiy tabiat hodisalarini, dala mehnatini kuzatish uchun tabiatga sayohat uyushtirish ko‘zda tutiladi. Sayohat tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan bolalarning uzoq kuzatishlari uyushtiriladi. Bunday darslarda ko‘rgazma sifatida o‘quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin.

Tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop asarlarni unga mos rasmlar bilan bog‘lab o‘qitish kishilarning baxtli hayot uchun intilishlar, ota-bobolarimizning dushmanlardan Vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi; o‘quvchilar mehnat hayotning asosi ekanligini, insonlar turmushi mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Dasturga ko‘ra 2-sinf o‘quvchilari “Toshkent”, “Toshkent merosi” mavzusidagi ilmiy-ommabop asarlarni, 4-sinfda esa “Mangulukka tatigulik kun” (Safar Barnayev) asarini o‘qish orqali o‘tmish ajdodlarimiz, ularning xizmati, vatanimizning hozirgi taraqqiyoti haqida bilib oladilar. Bu maqollar xalqimizning hayoti, mehnati va kurashi haqida yangi bilim berish bilan birga, bolalarni vatanga, xalqqa, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Ilmiy-ommabop asarni uzviy birlikda o‘rganish o‘quvchilarning har bir mavzuda bayon etilgan tarixiy-adabiy hodisalarni, ular o‘rtasidagi umumiylikni, har bir davrga ega xususiyatlarini anglab olishlarini ta’minlaydi. Ular o‘quvchilarni kelgusida gazeta va jurnallarni o‘qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o‘zlashtirishiga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o‘stiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
2. U. Masharipova O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ODOB-AXLOQ TUSHUNCHALARI VA MA’NAVIYAT NEGIZINI SHAKILLANTIRISH

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani
46- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Haydarova Mahbubaxon Ne’matovna

Annotatsiya: Xulq va odob esa o‘z ichiga juda ko‘p narsani qamraydi. Yurishturishimiz, odamlar orasida va yolg‘iz qolganimizda o‘zimizni tutishimiz, muomala madaniyatimiz, atrofdagilarga diqqat-e’tiborimiz – bularning bari bir bo‘lib bizning xulq-odobimiz qanday ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: xulq-odob, muomala madaniyati,

Bugun barchamizning uyimizda radio va televizor, ko‘pchiligimizda kompyuter ham bor. Qayerga qaramaylik, turfa xil axborotga ko‘zimiz tushadi. Bunga katta ko‘chalarga osilgan, avtobus va metro vagonlari ichiga, yana ko‘plab boshqa joylarga yopishtirilgan e’lonlar va reklamalarni ham qo‘shish mumkin. Dam olish kunlari televizorning o‘nlab kanallarida namoyish etiladigan yuzlab ko‘rsatuv va filmlarni, istaymizmiyo‘qmi ko‘ramiz, ulardan ta’sirlanamiz. Bu qadar kuchli axborot oqimini to‘xtatish yoki jilovlashning imkoni yo‘q, albatta. Shunday ekan, (masalan, televizor misolida) biz nimani ko‘rishni, qachon ko‘rishni, qancha ko‘rishni o‘zimiz uchun aniqlab olishimiz juda ham muhimdir**.**

Shuni aytish joizki, biz Sharq xalqlari sirasiga kiramiz. Ota-bobolarimiz odob-axloq, uyat, iffat, hayo singari chinakam insoniy fazilatlarni ulug‘lovchi va insonlardan talab qiluvchi islom diniga e’tiqod qilib kelganlar. Ajdodlarimiz ming yillar davomida hayot tarziga singdirgan bu qadriyatlarga sadoqatli bo‘lish barchamizning burchimiz hisoblanadi. Modomiki shundayekan, dunyoning hamma yerida, har xil qarashlar asosida yaratilgan barcha tomoshalar ham bizga to‘la foydali deb bo‘lmaydi. Bu tomoshalar (kinofilmlar, videofilmlar, spektakllar, konsertlar, ko‘rsatuvlar, turli xil shoular) shakli va mazmun-mohiyatida milliy hamda diniy qadriyatlarimizga zid keluvchi o‘rinlar ham ko‘plab topiladi.

Inson xulq-atvorida uning hayotda ko‘radigan voqealariga qanchalik ahamiyatga ega ekani to‘g‘risida gapirdik. Endi G‘arb mamlakatlarida suratga olingan kinofilmlardagi ayrim qahramonlarning tili, muomala usuliga ahamiyat bering. Agar bu qahramonlar salbiy, axloqsiz odamlar sifatida ko‘rsatilsa ham tushunish mumkin edi. Yo‘q, aksariyati ijobiy – boshqalar o‘rnak olishi lozim bo‘lgan qahramonlarning aytayotgan gapso‘zlarini eshitib,hayron qolamiz. Nega? Chunki, biz bu borada boshqacharoq qarashga egamiz.

Xalqimizda «Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi» degan gap bor. Dunyoda yashar ekansiz, unda kechayotgan voqea-hodisalar, gap-so‘zlar sizga o‘z ta’sirini o‘tkazmasligining iloji yo‘q. Hamma gap nimadan ta’sirlanishda, qanday ta’sirlanishda qolgan. Demak, har birimiz qanday muhitda yashayotganimiz, atrofimizdagi odamlar kimlar ekani, ulardan qanday yaxshi narsani o‘rganish mumkin-u, qanday salbiy ishlarga qo‘shilmasligimiz lozimligini doimiy nazorat qilishimiz kerak ekan-da .Yurtboshimiz mustaqil yurt farzandlaridan talab etiladigan fazilatlarni quyidagicha izohlaydi:

«Toki ular milliy ildizlari baquvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastning «da’vati» ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi».

Bu borada ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ustida ko‘proq ishlash, ularning dunyo qarashini kengaytirish lozim. Ze’ro har qanday odob- axloq tushunchalari avvalam bor oilada, so‘ngra maktabda shakillanadi. Shuning uchun ham biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan katta masuliyat talab qilinadi. Shu bois boshlang‘ich sinfdan boshlab odob, axloq, ma’naviyat, o‘zini tutish, qadiryatlarga amal qilish, va shunga o‘xshash bola tarbiyasiga mos bo‘lgan tushunchalarni o‘quvchi yoshlar ongiga singdirish va bu borada ular bilan tez-tez o‘rtoqlashib turish lozim.

Shu o‘rinda odob-axloqning o‘z milliy me’yorlari mavjud ekanini ham aytib o‘tish lozim. Unga amal qilish, bu me’yorlarni buzib chetga chiqmaslik nihoyatda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Xarakatlar strategiyasi.- Adolat nashriyoti. 112-bet. 2017.

2. Yoshlarga donolar o‘giti/ tuzuvchilar:O.Salimov, Q.Qurbonboyev,M.Bekmurodov, L.Tangriyev, N.Xalilov,-Toshkent, G‘afur-G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,

3. G‘oziev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., 1994.

4. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (Yosh iste’dodlarini izlaymiz): Metodik qo‘llanma. T., 1998

5. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (Yosh iste’dodlarini izlaymiz): Metodik qo‘llanma. T., 1998

O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDA ERKIN FIKR YURITISHLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI

Haydarova Nozigul Bahrom qizi
Qiziltepa tumani 18 -maktab o‘qituvchisi
Telefon: 91-988-28-18
nozigul@umail.uz
Teshayeva Mashhura Qo‘ldoshevna
Qiziltepa tumani 38-maktab o‘qituvchisi
Telefon: 90-717-64-83
t_mashhura@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning ingliz tilida erkin fikr yuritishlari va o‘quv–tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda kichik guruhlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan hamkorlikda ishlashlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishga oid qisqacha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv-tarbiya, ta’lim, innovatsiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish kelajakda yosh avlodni sog‘lom va ijtimoiy faol, hayotda mustaqil erkin fikr yurita olishi nafaqat, o‘zbek tilida, balki ingliz tilida ham ravon nutq so‘zlashlari hamda o‘z fikrini erkin bayon qila olish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan. O‘quv jarayonini qiziqarli tashkil etish, o‘quvchilarni erkin fikr yuritishlari va ingliz tilida fikrini bayon etish jarayonida turli xil nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish va oldini olish uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishini taqozo etadi.

O‘quv - tarbiya jarayonida ta’limning guruhli shakli esa o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatadi va bir vaqtning o‘zida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi. O‘quv–bilish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga yangi pedagogic texnologiyalar orqali ya’ni dars jarayonida kompyuter, proyektor, ovoz kuchaytirgich va hokazolardan foydalangan holda darsni tashkil qilishi o‘quvchilarning ham xotirasini mustahkamlaydi, ham o‘qituvchi darsga barcha o‘quvchilarni jalb qila oladi. Guruh sharoitida ishlashda turli interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Shunday usullardan biri dars jarayonini rasmlar orqali tashkil etish.Ushbu usul o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, shu bilan bir qatorda o‘quvchilarning o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil qilishda hamda dars jarayonida qay darajada tushunganliklarini baholashga o‘rgatadi. Bu usulning asosiy maqsadi o‘quvchilarga tarqatilgan tarqatma materiallar oddiy qog‘ozga tushurilgan rasmlar orqali o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturining 2-bosqichida “O‘quv–tarbiya jarayonlarni zamonaviy pedagogik texnologiya bilan ta’minlash”ning zarurlig, 3-bosqichida esa to‘la ta’minlash vazifasi belgilangan.

Bundan bilinib turibdiki, texnika jadal su’ratlar bilan rivojlanayotgan, ijtimoiy holat o‘zgarayotgan davrda maktablarda fanlarni, shu jumladan, chet tilini ham mazmun jihatdan yangicha o‘qitish zarurat va zamon talabidir.

So‘nggi yillarda ingliz tilini o‘qitish tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, interfaol metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanilib borilishi ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

Ingliz tili fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyadan samarali foydalana olish eng birinchi navbatda o‘qituvchining faoliyatiga nazariy bilim darajasiga, tashkillashtirish qobiliyatiga va pedagogik mahoratiga bog‘liq. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ingliz tili darslarida qo‘llash an’anaviy darslarga qaraganda yuqori darajadagi natijalarni kafolatlaydi. Bu hayotiy haqiqat, chunki nafaqat oily ta’lim muassasalarida, litsey, kollejlarda balki umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham bunga ehtiyoj sezilmoqda.

Hozirgi kunda ingliz tilini o‘qitish ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir o‘qituvchidan o‘z bilimini muntazam oshirib borishi, dars jarayonini o‘quvchilarning bilim darajasini hisobga olgan holda qiziqarli hamda ijodkorlik bilan tashkil etish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta o‘rgarib chiqishni hamda o‘z faoliyati davomida qo‘llashni taqozo etmoqda.

Ta’limida o‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtiradigan o‘zi va o‘tkazilishi qulay bo‘lgan usul

va uslublarni o‘qitish shakllarini, metodlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o‘quv jarayonining samaradorligiga erishadi. Bugungi kun ta’lim tizimining talablaridan kelib chiqqan holda zamonaviy texnologiyalardan amaliy geografiya darslarida mavzuga mos turda saralab olish va olib borishda ko‘zda tutiladigan maqsadlar quyidagicha taqsinlanadi:

O‘quvchilarning amaliy ingliz tili va u orqali nutqiy ohanglarinin shakllantirish;

- O‘quvchilarning nazariy bilimlarni amalda bajara olishda muhim o‘rinni egallash;
- O‘rganilayotgan mavzuni to‘liq o‘zlashtira olishga yordam berish va boshqa shunga o‘xshagan ahamiyatli vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Ingliz tilini o‘qitish ta’limida zamonaviy ta’limni tashkil etish orqali o‘quvchilarda ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish mumkin. Chunki fanda ong va ong osti tassavvurlar, ularni aynan fikrlash orqali bayon etish, so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi, bayoni hamda morfologik, sintaktik tahlili asos bo‘lib.

Ingliz tilini o‘qitishda avvaldan takomillashtirilgan ta’lim metodlari: og‘zaki bayon, suhbat, darslik va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash, eshitish va yodlash va shuning bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalardan to‘g‘ri foydalana bilish – bu o‘quvchilarning fikrini oydinlashtiradi, darsga jadalligini orttiradi.

Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliytini nazorat qilish, ular tomondan egallangan bilim darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan “Sharabey”, “FSMU”, “Veer”, “Klaster”, “Bumerang”, “Muloqot”, “Pingbord” va bir nechta texnologiyalar murakkab ko‘rinishlari bilan ajralib turadi. Masalan, “Muloqot” texnologiyasini ingliz tili ta’limida amaliy, fakultativ mashg‘ulotlarda va darsdan tashqari vaqtda, o‘tkaziladigan tarbiyaviy soatlarda qo‘llash mumkin bo‘lib, mashg‘ulot jamoa va kichik guruh shaklida o‘quv xonasida yoki tabiat qo‘ynida o‘tkazilishi mumkin. Ushbu texnologiya talabalarning dars jarayonida “Muloqot” texnologiyasi yordamida tanlangan mavzu, muammo asosida talabalarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga yordam beradi.

Shunday qilib, dars jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda pedagogik texnologiyalarning usullaridan keng foydalanish natijasida o‘quvchilarning mazkur darslarga bo‘lgan qiziqishlari ortadi, shu fanlar asosida chuqur bilim, malaka va ko‘nikma hosil bo‘lishiga yordam beradi. Bunda usullarni o‘qitubvhi dars berayotgan sinf o‘quvchilarining bilim salohiyatiga va saviyasiga qarab tanlashi lozim.

O‘QISH DARSLARIDA NUTQ O‘STIRISH

Haydarova Yulduzxon Adashevna
Namangan viloyati Namangan shahar
57-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998990678023

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqini o‘stirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, og‘zaki tasvirlab berish, inssenirovka.

Nutq tafakkur bilan bog‘liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda o‘stiriladi. Darsda o‘qilgan asarni o‘quvchilar ongli tushunishi, asosi mazmunini, g‘oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo‘llaniladi. O‘qigan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar. O‘qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o‘quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o‘qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so‘raydi. Natijada o‘qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O‘qituvchi bergan savollar yordamida asarning mazmuni aniqlanadi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqining o‘sish darajasi to‘g‘ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoya qilish ancha oson, boshqa turlari esa ancha qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakatlari asosiy ro‘l o‘ynaydi.

O‘quvchi o‘qigan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi; ayrim lavhalar o‘zaro bog‘landi (sintezlanadi), o‘zaro taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi. O‘qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o‘quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo‘ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o‘tiladi, ya’ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o‘qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o‘ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, o‘quvchilar topgan sarlavhani jamoaviy muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o‘zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o‘z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim.

Tanlab hikoyalash ham bolaning tafakkuri va nutqini o‘stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o‘quvchi: 1) o‘qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravshda ajratib so‘zlab beradi; 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi; 3) hikoya mazunini faqat bir sujet yo‘nalishida so‘zlab beradi. O‘quvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang‘ich sinf izohli o‘qish darslarida keng qo‘llaniladigan metodik usullar yordam beradi.

Hikoyani o‘qish bilan bog‘liq holda o‘tkaziladigan ijodiy ishlar ham o‘quvchilar nutqini, tafakkurini o‘stiradi. Masalan, inssenirovka qilish, ya’ni sahnalashtirish. Bunda hikoyani sahna ko‘rinishida namoyish qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. U. Masharipova O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.
2. Boshlang‘ich sinf o‘qish darsliklari.

UMUMTAL'IM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING YANGICHA USULLARI

Haydarova Ra'no Djasurova
Namangan shahar 7 -umumiy
o'rta ta'lim maktabi Ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishning dolzarbligi, turli metoflardan keng foydalanish ahqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: chet tili, metodika, axborot texnologiyalari, nutq o'stirish, intensive o'qitish.

Hozirgi vaqtda nafaqat chet tiliga o'qitish bo'yicha balki barcha fanlarga вопросу o'qitishni, o'rgatishni yangi-yangi metodlarini izlab topish va uni amalda sinab ko'rish to'g'risida ko'p ishlar qilinayapti. Bu hozirgi kundagi ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilash, uchun xal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim muammolardan biridir. Agar avval chet tili o'qitish shu til sistemasini o'rganish deb qaralgan bo'lsa, keyingi yillarda o'qitishdagi muhim ko'zlangan narsa bu o'quvchilarni chet til nutqini o'stirishdan iborat bo'ldi. Shuni aytish kerakki chet til o'rganishdagi bu maqsadlar, o'z-o'zidan yoki boshqa kimsalar yoki shaxs tomonidan qo'yilmaydi, balki lingvistika va psixologiya fanlaridagi o'zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Chet-til o'qitishni intensivlashtirish masalasi yuzasidan mamlakatimizda va chet ellarda ancha ishlar qilindi va qilinmoqda. Bular yangi intensiv metodlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Xo'sh, intensiv metod o'zi nima? Uni qanday tushinish mumkin? Intensiv o'qitish degan, so'zning birimch ma'nosi bu- qisqa vaqt ichida o'quvchilarni o'rganilayotgan chet tilida nutq faoliyatini amalga oshirishga, ya'ni gapirishga o'rgatishdir. Bu asosan o'quvchilarning ichki psixologik imkoniyatlariga va hotira zahirasiga tayangan holda amalga oshiriladi. (Leontev A. A. Kitaygorodskaya). Demak, intensiv metod (yoki intensiv) o'qitishning quyidagi ikki harakterli hususiyatini ko'rsatish mumkin: Qisqa vaqt ichida ma'lum hajmdagi o'quv materialini organish va shunga mos chet tilidagi nutqiy faoliyatni amalga oshirish; Shaxs hotirasining barcha zahiralaridan (psixologik imkoniyatlaridan) maksimal darajada foydalanish ya'ni o'quvchilarning faolligini oshirish. Keyingi yillarda dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish yuzasidan ko'p ishlar qilish zarurligi taqozo etilmoqda.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnlogiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012 yil 13 dekabrdagi PQ 1875 –sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangucha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda.

Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar va ўэйгмсршдфк xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakillanadi. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi. Zamon ilgarilab borgani sari har sohada yangilik ko'payib bormoqda. Til o'rgatishda ham turli uslublar paydo bo'lmoqda. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar boshlang'ich bosqichda o'qitish, o'rta bosqichda o'qitish, yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlarga bo'linadi. Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomondan maxsus dastur ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim e'tibor beriladi. Harmerning ta'kidlashicha, suhbat davomida ona tilini biladiganlardan birinchi talab- bu talaffuz. O'quv jarayonining boshlanishida

o‘qituvchi asosiy e‘tiborni o‘quvchining talaffuziga qaratishi kerak. Grammatika va lug‘at asosiysi hisoblansada, ma‘ruzachi talaffuzi notog‘ri bo‘lsa, buning hammasi befoyda. Native speakerlar agar so‘zlovchi so‘zlarni to‘gri talaffuz qilsa nutqni grammatik xatolar bilan ham tushunishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov.J. Chet tilini o‘qtish metodikasi. T.: 2012.
2. . David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning [M] 2002.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI HISOBLASHGA O‘RGATISH“NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Xusanova Xolidaxon
Namangan viloyati
Namangan shahar
55-maktab
xolidaxusanova@gmail.com
Telefon:+998(97)2508

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda matematika fanining muhimligi haqida. Darsda interfaol usullari to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Misol-masalalar, og‘zaki hisoblash, komponentlari, diqqatni jamlash, tashabbuskorlik.

Ta’lim va tarbiya yagona jarayon bo‘lib, ayniqsa matematika darsi tabiatni e’zozlash, uni muhofaza qilish, nafosat, tejamkorlik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik kabi hozirgi yoshlar uchun juda zarur tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Bu ishlar butun ta’lim jarayonida, masalalar mazmuni talqinida va masala yechish vaqtida faollik, diqqatni jamlash, chidamlilik, iroda va boshlangan ishni oxiriga yetgazishga intilish kabi xislatlarni tarkib topishiga xizmat qiladi. O‘quvchilarning og‘zaki hisoblash malakalarini oshirishda o‘qituvchi darslik bilan chegaralanib qolmay, darsni turli uslublar, o‘yinlar asosida tashkil qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yangi dastur bo‘yicha o‘qitishda boshlang‘ich sinflarda matematik diktantlar o‘tkazish ayni muddaodir. Matematikadan o‘tkaziladigan diktantlarning xususiyati shuki, ko‘pchilik topshiriqlar eshitish asosida bajariladi. Diktant o‘quvchilarning bilimini, o‘quv malakasini tekshirish va nazorat qilish usullaridan biridir.

O‘qituvchi yozilgan diktantlarni tahlil qilib, bolalar qaysi biri yordamga mutojligini bilib oladi. Bundan tashqari diktantlar ta’lim berish ahamiyatiga ham ega. O‘quvchi o‘qituvchining aytganlarini ichida takrorlashga, diqqat e’tiborini unga qaratishga ham o‘rganadi.

U asosiy matematik tushunchalarni, amallarning komponentlari nomlarini va natijalarini o‘zlashtirib oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki hisoblashga o‘rgatish uchun, ayniqsa, 1-4-sinf o‘quvchilari quyidagilarga kata ahamiyat berishlari kerak;

Maslan:1-sinf tayyorlov davrida ham matematik diktantlar olish.

Sonlar tarkibini yozish:

5=4+1 5=3+2

5=1+4 5=2+3

3 dan 10 gacha sonlar tarkibini yod olish.

6 dan kichik sonlarni yozish.

9 ni 2 ta orttiring.

Qo‘shish va ayirish jadvalini yod olish.

3-4-sinflarda ko‘paytirish amallarini yod olish.

Jadvaldan tashqari ko‘paytirish jadvalini yod olish ham o‘quvchilarni misol va masalalar yechishida qiyinchlik tug‘dirmaydi.

Umuman olganda misol va masalalarni og‘zaki hisoblash, o‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib, ularning hayotni har tomonlama tushunishiga yaqinda yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich sinf matematika fani metodik qo‘llanma.
2. Qiziqarli matematika.

BOLALARDAGI NUTQIY RIVOJLANISHNING BUZILISHLARI

Ibragimova Gulnoz Bahodirovna
Xorazm viloyati Xonqa tumani
5-son maktab logopedi
Tel: +998972994568

Annotatsiya: Maqolada nutqning rivojlanmaganligi sabablari va nutq rivojlanishining darajalari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: nutq rivojlanmaganligi, nutq rivojlanishi darajalari, logopedik ishlar.

Nutqning birlamchi rivojlanmaganligini ta’riflashga doir ko’pgina ilmiy ishlar mavjud bo’lib, ularning ko’rsatishicha u eshitish, intellekt nuqsonlari va boshqa tashqi omillar ta’siriga bog‘liq bo’lmay, o’zining mustaqil kelib chiqishiga ega. Biroq hozirga qadar umum qabul qilingan ta’rif mavjud bo’lmay, uning mohiyati va mexanizmi haqidagi tasavvurlar xilma-xil.

Etiopatogenetik nuqtai nazardan nutqi rivojlanmagan bolalar turli xildagi guruhlarni tashkil etadi. Ba’zi vaziyatlarda mazkur holat ko’pincha genetik tabiatga ega bo’lgan konstitutsional xarakterga ega. Odatda bunday bolalardagi nuqsonning klinik manzarasi jiddiy psixopatologik belgilarga, ayniqsa psixoorganik belgilarga ega bo’lmaydi. Boshqa bir holatlarda zararlanish belgilari, ya’ni psixoorganik va boshqa psixopatologik belgilar yorqin namoyon bo’ladi.

Nutqning to’liq rivojlanmaganligi turli darajalarda namoyon bo’ladi. Avvalgi yuz yillikning 60-yillarida nutqiy rivojlanmaganlikning uch darajasi ta’riflangan. 2000- yilda T.B.Filicheva nutqiy rivojlanishning IV darajasini ta’riflab bergan.

Nutqiy rivojlanishning I darajasi – umum qo’llaniladigan nutqning mavjud emasligi, jumlali nutqning (nutqsiz bolalar) mavjud emasligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur darajadagi bolalar muloqot uchun sodda so’zlardan, tovushlarga bo’lgan taqlid, maishiy mazmundagi alohida ot va fe’llardan, sodda gap bo’laklaridan foydalanib, ularning tovush tarkibi noaniq va turg‘un emas. Bola o’z “bayoni”ni mimika va imo-ishora bilan mustahkamlaydi. Mazkur bolalar uchun muloqot jarayonidagi nutqiy izlanishga bo’lgan katta tashabbuskorlik va o’z nutqiga bo’lgan tanqidiy munosabat xarakterli.

Nutqiy rivojlanishning II darajasida – imo-ishora va sodda so’zlardan tashqari, buzilgan bo’lsada biroq doimiy umumqo’llaniladigan so’zlar paydo bo’ladi. Bir vaqtning o’zida ba’zi grammatik shakllar farqlana boradi. Biroq mazkur jarayon turg‘un bo’lmagan xarakterga ega bo’lib, nutqning qo’pol rivojlanmaganligi mazkur bolalarda yorqin ifodalanadi. Bolalar bayonlari odatda kambag‘al bo’lib, bola idrok etayotgan predmet va harakatlarni sanab o’tish bilan chegaralanadi.

Maxsus korreksion ta’lim ta’sirida bolalar nutqiy rivojlanishning yangi III darajasiga o’tadilar. Mazkur daraja leksik-grammatik va fonetik-fonematik rivojlanmaganlik elementlariga ega bo’lgan keng jumlali nutqning mavjudligi bilan xarakterlanadi, bu esa bolalarning atrofdagilar bilan nutqiy muloqotini kengaytirish imkonini beradi. Mazkur darajadagi bolalar atrofdagilar bilan muloqotga faqatgina ota-onalari, tarbiyachilar, ular nutqiga tegishli izohlarni kiritishga qodir kishilar ishtirokidagina kirishadilar. Erkin muloqot juda murakkab kechadi. Bolalar to’g‘ri talaffuz eta olgan tovushlar mustaqil nutqda yetarlicha aniq jaranglamaydi. Tovushlarning differensiatsiyalashmagan talaffuzi xarakterli bo’lib, bunda bir tovush bir vaqtning o’zida mazkur fonetik guruhga mansub ikki yoki bir necha tovushlar bilan almashtiriladi. Endilikda mazkur bosqichda bolalar nutqning barcha qismlaridan foydalanadilar, sodda grammatik shakllarni to’g‘ri qo’llaydilar, sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplarni qurishga harakat qiladilar.

Bolaning talaffuz imkoniyatlari, turli bo’g‘in tizimiga ega so’zlarni takrorlash imkoniyatlari yaxshilanadi. Bolalar ularning hayotiy tajribalaridan yaxshi tanish bo’lgan predmetlar, harakat, belgilar, sifat va holatlarni nomlashda qiynalmaydilar. Ular o’z oilalari haqida onsonlikcha so’zlab bera oladilar, qisqa hikoyani tuza oladilar. Og‘zaki nutqiy muloqotda bolalar ular uchun qiyin bo’lgan so’zlar va iboralarni chetlab o’tishga harakat qiladilar. Bolalar keng jumlali nutqdan foydalanishlariga qaramay ular o’zlarining normal nutqga ega tengdoshlariga qaraganda gaplarni mustaqi tuzishda katta qiyinchiliklarni sezadilar.

Nutqiy rivojlanishning III darajasiga ega bolalarda tovushlar talaffuzidagi barcha nuqsonlar kuzatiladi (sigmatizm, rotatsizm, lambdatsizm).

Logopedik ishlar davomida ko’pgina bolalarda nutqning to’liq rivojlanmaganligini bartaraf etish imkoni mavjud, lekin ba’zi holatlarda mazkur jarayon yetarlicha samarali kechmagan, bu esa nutqiy rivojlanishning IV darajasini ajratishni talab etdi. T.B.Filicheva nutqiy rivojlanishning IV darajasini quyidagicha ta’riflagan nutqning leksik-grammatik va fonetik-fonematik rivojlanmaganligining yorqin tarzda ifodalanmagan elementlariga ega keng jumlali nutq.

Nutqi to’liq rivojlanmagan bolalar uchun mo’ljallangan logopedik guruhlarga nutqning leksik-grammatik tomonlarining buzilishlariga ega, nutqiy rivojlanishning turli darajalariga ega bolalar qabul qilinadi.

Zamonaviy tadqiqot ma’lumotlarini umumlashtirish natijasida nutqiy dezontogenezning ba’zi umumiy va o’ziga xos qonuniyatlarini ajratib ko’rsatish mumkin.

Adabiyot manbalarini tahlil etar ekanmiz, nutqning rivojlanmaganligi so’zning tibbiy ma’nosida mustaqil nozologik birlikni ifodalamaydi degan xulosaga keldik. Bu mexanizmi, belgisi, tizimi, og‘irligiga ko’ra turli-tuman bo’lgan guruhlar yig‘indisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya.
2. Mo‘minova L.R. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqini rivojlantirishning korrektsion pedogogik asoslari.
3. Волкова Г.А. Методика обследования нарушений речи у детей.
4. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии.

INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA SINONIMIK FRAZALARNING AHAMIYATI

Ibragimova Ra’no Ubaydullayevna
Namangan viloyati Chortoq tumani
1-maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o‘rganuvchilarining lug‘at boyligini kengaytirishda sinonimlarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Sinonimik frazalarning xususiyatlari misollar orqali yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, sinonim, sinonomiya hodisasi, semantika, stilistik bo‘yoqdorlik, til o‘rganuvchilarining lug‘at boyligi.

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo‘lib, iboralar orasida ham keng tarqalgan. Tilshunos A.B. Kunin frazeologik sinonimlarga quyidagicha ta’rif bergan: “Frazeologik sinonimlar bu koreferent frazeologizmlar bo‘lib, bir grammatik sinfga kiruvchi, umumiy hamda differensial semantik komponentlarga ega bo‘lgan, stilistik jihatdan o‘xshash va noo‘xshash bo‘lgan birliklardir”. Ikki iborani sinonim deb atash uchun ular aynan bir ma’noni anglatishi shart. Ammo bu bir ma’nolilikni teng ma’nolilik deb tushunish noto‘g‘ri. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma’nosidan tashqari, o‘ziga xos ma’no qirrasiga, uslubiy-funksional xususiyatlariga ham ega bo‘ladi. Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo‘lishi mumkin bo‘lib, shulardan biri ma’no qirrasidagi farqdir. Masalan ingliz tilida so‘zlashuv uslubida keng tarqalgan “lower one’s credit” va “blot one’s copybook“ (nomiga dog‘ tushirmoq) iboralari aynan bir ma’noni anglatishi, bir xil (so‘zlashuv) uslubiga xoslanaganiga qaramay, bu sinonimlar ichki ma’no qirrasi jihatidan o‘ziga xosliklarga ega, ya’ni ikkinchi frazeologik birlikda ma’no bir qadar kuchli. “Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish lozim buning uchun iboralarning so‘z komponetlariga diqqat qilish lozim. Leksik tarkibida aynan bir so‘z qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug‘dirmaydi”. Masalan: like a bat out of hell- go like a bomb-in a crack (bir zumda, tezda) iboralari sinonim ekanligiga hech qanday shubha yo‘q. Lekin shuni unutmaslik kerakki sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so‘z bilan ifodalangan bo‘lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so‘z bilan ifodalangan komponetlar o‘zaro sinonim bo‘lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo‘ladi. Masalan: on one’s own- under one’s own power-of one’s own hat (mustaqil ravishda) sinonimik qator tarkibidagi “own” so‘zi takrorlanayotganiga qaramay ular variantdosh emas, sinonim birliklar hisoblanadi. Chunki variantlanish alohida hodisa hisoblanib bunda ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi lug‘aviy ma’no birligi saqlanadi. Variantlanish iboraga xos yaxlitlikning o‘z doirasida, shu yaxlitlik yo‘l qo‘ygan darajada voqe bo‘ladi. “Masalan, be on smb’s back-get on smb’s back (kimningdir boshiga chiqib olmoq); bad egg- bad hat (iflos, past odam) birliklari variantdosh iboralardir”. Frazeologik sinonimlar bilan variantlar o‘rtasida ko‘pgina umumiy tomonlar mavjud. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik sinonimiya variantdoshlikka nisbatan ancha keng tushunchadir. Frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar ingliz tilining kuchli tasviriy uslubiy manbalari sanaladi. Shuning uchun lug‘atlarda frazeologik sinonimlar ham frazeologik variantlar ham o‘z aksini topishi lozim. Variantdosh frazeologik birliklarni sinonim frazeologik birliklardan farqlash frazeologik stilistikaning eng muhim masalalaridan biridir. Bu hol ayniqsa sinonim iboralarning uslubiy tarmoqlanishi haqida so‘z yuritilayotganda muhim ahamiyat kasb etadi. “Sinonimiya – ma’no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma’nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatga polisemantik ibora qatnashsa iboradan emas balki konkret frazeologik ma’nodan kelib chiqish lozim”. Chunki har bir frazeologik ma’no o‘zicha sinonimga ega bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin. Masalan “feel one’s oats” polisemantik iborasini olsak, birinchi ma’nosi “o‘ynoqi, chopqir bo‘lmoq” bo‘lib, tulporlarga nisbattan qo‘llaniladi va hech qanday sinonimga ega emas. Ikkinchi ma’nosi bo‘lsa insonlarga nisbattan “sho‘x, hazilkash bo‘lmoq“ bo‘lib, “make good cheer” iborasi bilan sinonim hisoblanadi. Sinonimik munosabatga qatnashuvchi (bir sinonimik uyaga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko‘pchilik uyalar ikki sinonimli, uch sinonimli uyalar ham anchagina, to‘rt iborani birlashtiruvchi uyalar ham mavjud. Masalan,

ingliz so‘zlashuv uslubiga xos sinonim iboralar: rough as bags-bad hat (dag‘al, qo‘pol) give smb down the blanks- lay the blast (tanbeh bermoq); be up in the air- get off one’s bike-hit the ceiling (qattiq g‘azablanmoq); cool beggar- cool car custumer-smart Aleck (surbet); to be out of one’s box-go out of one’s mind-to be soft in the head-addle brained-go nuts (aqldan ozgan, esini yegan). “Frazeologik uyalar tarkibiga turli ko‘rinishli hamda turli xususiyatli frazeologik birliklar kiritilishi mumkin: 1) Umumiy komponentlarga ega bo‘lgan frazeologik sinonimlar: have a head on one’s shoulders -have one’s head screwed on (the) right way – tushunadigan, aqli raso, zehnli; bunday frazeologik qatorlar analogiya asosida vujudga keladi. 2) Ma’nodosh hamda ma’nodosh bo‘lmagan komponentlarga ega bo‘lgan frazeologik sinonimlar: (as) clear as day (day—light)-(as) plain as a pikestaff (as the nose on your face) –kunday ravshan, ochiq-oydin; (as) crazy as a fox - (as) mad as a march hare (as a hatter) esi og‘gan, jinni; clear va plain, crazy va mad so‘zlari ma’nodosh so‘zlar hisoblanadi. 3) Umumiy komponentlarga ham, ma’nodosh komponentlarga ham ega bo‘lmagan frazeologik sinonimlar: down at heel-out at elbow-bechorahol, isqirt kiyingan; in a crack-like a bat out of hell (bir zumda, ko‘z ochib yumguncha)”.Frazeologik qatordagi sinonim iboralar umumiy bir ma’noni anglatishiga qaramay har doim ham birining o‘rniga ikkinchisi qo‘llanila olmaydi. Chunki har bir ibora o‘ziga xos semalariga ega.

Xulosa, sinonimlik hodisalarini o„rganish ingliz tili frazeologizmlarini kengroq tushunishga hamda ularning o‘zaro semantik stilistik munosabatlarini kengroq ochib berishga asos bo‘ladi. Sinonimik munosabatlar frazeologik birliklar uchun xarakterlidir. Aynan mana shu ma’no munosabatlari tufayli frazeologik birliklarning ma’noviy paradigmalarini tuzish, hamda ularni semantik jihatdan izohlash, uslubiy o‘ziga xosliklarini ifodalab ko‘rsatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005. – 466с.

2. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство «Высшая школа», 1970. – 344 с

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OLMOSH TURKUMIGA

Ibragimova Gulxumor G‘anijonovna
Namangan viloyati Chortoq tumani
1-maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ingliz hamda o‘zbek tillarida olmosh so‘z turkumiga oid so‘zlarning ifodalanishi, o‘xshash va farqli jihatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: olmosh, pronoun, jins kategoriyasi, shaxs va son kategoriyasi, kishilik olmoshlari, personal pronoun.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xorijiy tilni o‘rganishga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi va uzluksiz ta’limning bir qismiga aylanib ulgurdi. Bugun o‘quv muassasalarida rus, ingliz, nemis, fransuz, tojik, arab kabi bir necha tillar o‘qitiladi. Prezidentimizning “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talabni yanada kuchaytirdi. Bunga qo‘shimcha ravishda, yoshlarni xorijiy mamlakatlarda tahsil olishi va kelgusi ish-faoliyatlarini xorijiy tilda xuddi o‘z ona tillarida ish yurita olgandek faoliyat ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Tilni to‘la egallash, o‘z navbatida, mashaqqatli va murakkab jarayondir. Bu ishga astoydil bel bog‘lagan inson tilda o‘rganishi va o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan so‘z, so‘z birikmasi, ibora va nutq vositalarining o‘rni beqiyos ekanligini anglab boradi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ingliz tilini o‘rganuvchilar 90% vaqtini tildagi yangi so‘zlarni yodlashga sarflaydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, til o‘rganuvchilar o‘rtacha soatiga 20-30 ta so‘z yod olish mumkin. Lekin til o‘rganuvchilar o‘zlari yod olgan so‘zlarini barchasini nutqda qo‘llay olmaydilar. Shuning uchun bu so‘zlarning atigi 2-3% gina yodimizda saqlanib qoladi. Bu holat esa til o‘rganuvchilar uchun yechimini topish qiyin bo‘lgan muammolardan biri hisoblanadi. Ba’zan biz ingliz tilidagi berilgan barcha so‘zlarni biladiganga o‘xshaymiz-u, lekin gapni tushunmaymiz. Yoki tanish so‘zlar yordamida inglizcha gap tuzamiz, biroq bu gapni ingliz kishisi tushunmaydi. Buning sababi nimada? Buning sababi shuki, so‘zlarning bir biri bilan bog‘lanishi, ularning gapdagi tartibi o‘zbek va ingliz tillarida har xil.

Taniqli metodist olim Paul Roberts: “Grammatika bu gaplar hosil qiluvchi mexanizmdir”, –deb bejiz aytmagan edi. Darhaqiqat, biz ana shu mexanizm haqida ma’lumotga ega bo‘lmay turib ingliz tilida to‘g‘ri gap tuza olmaymiz [1. 24].

O‘zbek tilida olmosh so‘z turkumi sifatida ot, sifat, son, fe’l, ravish, taqlid, undov, gap va hatto, matnni almashtira olish xususiyatiga ega. Olmosh guruhiga [*men*], [*sen*], [*u*], [*biz*] kabi shaxsga; [*kim*], [*nima*], [*bu*], [*ana*], [*mana*], [*mana bu*] kabi predmetga; [*qanday*], [*shunday*] kabi belgiga; [*buncha*], [*shuncha*], [*qancha*] kabi miqdorga; [*qachon*] kabi paytga; [*qayer*] kabi o‘ringa; [*shunday bo‘lmoq*], [*qanday qilmoq*] kabi harakat-holatga ishora qiluvchi leksema kiradi[2. 139].

Ingliz tilida olmosh o‘zbek tilidan farqli ravishda quyidagi ma’no turlariga bo‘linadi:

1. Personal pronouns (kishilik olmoshlari);
2. Demonstrative pronouns (ko‘rsatish olmoshlari);
3. Possessive pronouns (egalik olmoshlari);
4. Indefinite pronouns (noaniq olmoshlar);
5. Reciprocal pronouns (ikki tomonlama yo‘nalgan olmoshlar);
6. Reflexive pronouns (o‘zlik olmoshlari);
7. Interogative pronouns (so‘roq olmoshlari);
8. Relative pronouns (nisbiy olmoshlar).

Olmoshlarni kishilik olmoshlar (personal pronouns) misolida solishtirib ko‘ramiz. Bizga ma’lumki, o‘zbek tilida ham ingliz tilida ham 3 shaxs hamda birlik va ko‘plik son tafovut qilinadi. Ingliz tilida jins kategoriyasi ham mavjud bo‘lib, u ikkinchi shaxs birlik olmoshlarida namoyon bo‘ladi va u 3ga bo‘linadi:

1. Erkak jinsiga nisbatan;
2. Ayol jinsiga nisbatan;
3. Narsa va hodisalarga nisbatan.

O‘zbek tilida bunday kategoriya mavjud emas. Ammo olmoshlar har ikki tilda ham ishora vazifasini bajaradi, ya’ni matndan anglashilgan so‘z, birikma, gap va hatto matnning o‘zi o‘rnida ham qo‘llanilishi mumkin. Bu turkumning o‘rganilishining ta’limiy ahamiyati ham shundaki,

nutqda olmosh so‘z turkumiga oid so‘zlarni qo‘llash nutqning noo‘rin takrorlar qo‘llanilib, uning badiiyligiga putur yetishini oldini oladi.

Personal pronouns who?, what?, whom? Kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi va 2guruhga bo‘linadi:

1) Subject pronoun;
2) Object pronoun.

Ularni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

Subject pronoun		Object pronoun	
Singular	Plural	Singular	Plural
I	We	Me	Us
You	You	You	You
He She It	They	Him Her It	Them

Personal pronouns gaplarda quyidagicha qo‘llanilishi mumkin:

1. ***I*** *speak English.* – ***Men*** *inglizcha gapiraman.*
2. ***You*** *speak English.* – ***Siz*** *iglizcha gapirasiz.*
3. ***He*** *speaks English.* – ***U*** *inglizcha gapiradi.*
4. ***She*** *speaks inglish.* – ***U*** *inglizcha gapiradi.*
5. ***It*** *(radio) speaks English.* – ***U*** *inglizcha gapiradi.*
6. ***We*** *speaks English.* – ***Biz*** *inglizcha gapiramiz.*
7. ***They*** *speak English .* – ***Ular*** *inglizcha gapirishadi.*

Xulosa, olmosh so‘z turkumini ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llanilishini o‘quvchilarga o‘rgatish orqali ularning ingliz tiliga oid yangi bilimlar egallashlariga ko‘maklashish hamda ular nutqini o‘rinsiz takrorlardan tozlash, nutqiy g‘alizlik kelib chiqishining oldini olish kabi maqsadlar ko‘zlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Umarxo‘jayev, Sharofiddin Olim. Hammabop ingliz tili English for everybody. – Toshkent: Sharq, 1998-yil, 24-bet.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: 2010-yil, 239-bet.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MEHNAT DARSLARIDA APPLIKATSIYA ISHLARI ORQALI IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ibrohimova Nozimaxon Abdullajonovna
Andijon tumani 51-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998905423208 akramjon-83@mail.ru

Annotatsiya*: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnat darslarida applikatsiya ishlari orqali ijodiy faoliyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari bayon qilingan bo‘lib o‘quvchilarni ilk yoshligidan boshlab ona tabiatga qiziqish va muhabbatini, undagi go‘zalliklarni ko‘ra bilishni turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berish,turli asboblardan foydalanish orqali bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishning tashkiliy pedagogik shartlari xususida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Gerbariy, kuzatishlar, press quritish, materiallar, gazeta, yelvizak, variant, qobiliyatlarni strukturalash, perseptiv qobiliyatlar, komponentli tarkib, suggestive qobiliyatlar, motivatsiya. iasboblardan foydalanish orqali bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishning tashkiliy pedagogik shartlari xususida so‘z yuritilgan.*

O‘quvchilarni ilk yoshligidan boshlab ona tabiatga qiziqish va muhabbatni, undagi go‘zalliklarni ko‘ra bilishni tarbiyalash kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy qobiliyatlarni, konstruktorlik g‘oyasini, tushunchalarning aniqligini uyg‘otadi. Turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berilishini, turli asboblardan foydalanishni talab qiladi va ularni ishlatish bilim, ko‘nikma, malakalarini beradi. Turli tabiiy materiallarni to‘plash o‘qituvchi qo‘ygan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar ko‘rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o‘zlari o‘ylab topgan tasvir uchun material to‘playdilar.Va aksincha, avval qandaydir materialni to‘plab, keyin qanday ish bajarishni aniqlashlari kerak. Tabiiy materiallarni o‘quvchilar dastlab o‘qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to‘playdilar. Tabiiy materillarni to‘plash jarayonida o‘quvchilar atrofdagi o‘simliklar dunyosi, hashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materiallni qachon va qanday to‘plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo‘riqlash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, uni asrash masalalariga alohida e’tibor berishhar bir o‘quvchining burchidir. Mehnat darslarida tabiiy materiallardan: quritilgan barglar, gullar, poliz ekinlari- qovun, tarvuz, qovoq urug‘lari, mevalar – olcha, o‘rik, shaftoli danaklari va shu kabilar: baliq tangalari va qanotlari, jo‘xori va makkajo‘xori so‘talari, paxta chanog‘i, yong‘oq po‘sti va shu kabilardan keng foydalaniladi. Tabiiy materillarni to‘playotgan har bir o‘quvchi tabiiy materiallarni tartibli yig‘ish va tayyorlash lozimligini bilishi, barg to‘plash jarayonida daraxtlar, butalar shoxini qo‘pollik bilan sindirish, gul va shu kabilarni o‘ylamasdan to‘plash tabiatga nisbatan vahshiylik ekanligini yodda tutishi lozim. Gullarni qo‘l bilan sindirib bo‘lmaydi, aks holda poyasi zararlanishi mumkin. O‘simliklarni to‘plashda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo‘lishi kerak. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi. Quritib olishga mo‘ljallangan o‘simliklar har qanday namlikdan holi bo‘lishi kerak, aks holda o‘simlik quritilganda unda dog‘larning izi qoladi. Quritilayotgan o‘simlikning tabiiy rangini asrab qolishning eng muhim sharti, ularni shamol o‘tib turadigan joyda, yel vizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O‘simliklarni quritish 3 sutkadan oshmasligi kerak. Gerbariy ramkalarida quritish. Gerbariy ramkalarida quritilgan o‘simliklarning ko‘pchiligi o‘zining tabiiy rangini saqlab qoladi. Bunda o‘simlik yumshoq qog‘oz yoki gazeta orasiga solib qo‘yiladi. Har bir varaq qog‘oz va o‘simlik o‘rtasiga yana bir necha qavat qog‘oz yoki gazeta qo‘yiladi, chunki quritilayotgan o‘simlik o‘zidan namlik chiqaradi. Shundan so‘ng papka ikkita tursimon ramka o‘rtasiga qo‘yilib, ochiq havoga qo‘yiladi. Agarda havo harorati kechqurun va kechasi juda pasayadigan bo‘lsa, quritilayotgan o‘simlik issiq va quruq joyga olib qirqiladi. Pressda quritish. Orasiga o‘simlik solingan qog‘ozlar gerbariy papkasi o‘rniga ikkita faner listlar o‘rtasiga joylanib, og‘ir narsa bostirib qo‘yiladi. Og‘irlik pressga qancha o‘simlik joylashtirilganiga 265 bog‘lik bo‘ladi. Mayda nozik o‘simliklar kam og‘irlikni va quritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi. 2-3 soatdan so‘ng qog‘oz almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi. Issiq dazmol bilan quritish. Issiq dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar quritiladi. Qavat-qavat gazeta yoki

yumshoq qog‘oz orasiga o‘simlikni qo‘yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So‘ngra ustki qavatidagi gazetani olib, quritilayotgan o‘simlik shamollatiladi va quruq joyga suriladi, so‘ngra gazeta yopib yana dazmollandi. O‘simlik 2-3 minutda quriydi va u o‘zining tabiiy rangini yo‘qotmaydi. Agarda quritilgan o‘simlik ko‘tarilganda o‘zining tanasini ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi. Agar u sinib maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi. Loy narsalar yasashdagi asosiy material hisoblanadi, chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan loyda boshqa narsalar tosh, qum va shu kabilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ish qo‘lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tekshirib ko‘rish kerak. Loy shirali va shirasiz bo‘ladi. Shirasiz loyning tarkibida ko‘p qum bo‘lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo‘ladi. Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv qo‘yib, 5-6 soat saqlanadi. So‘ngra suvi to‘kib, qo‘lga yopishmaydigan quyuqroq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi. Plastilin–narsalar yasashda qo‘llaniladigan materialdir. U sun’iy plastik massa bo‘lib, loydan hech qachon qurimasligi va doimo ishlatishga tayyorligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil – oddiy va murakkab turlari bo‘lib uni tayyorlashni bir nechta usullari bor. Birinchi variant – toza quyuq loyga glitserin qo‘shib bir turli massa hosil bo‘lguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanadigan massa qo‘lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo‘shiladi. Ikkinchi variant–quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo‘shib, qo‘lga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo‘lgancha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo‘yoq massasini qo‘shib va puxta aralashtirib bo‘yashmumkin. Uchinchi variant -1 qism to‘prog‘iga 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo‘lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo‘shib aralashtiriladi. Barglar o‘yinchoqlarni yasashda qiziqarli va kerakli qo‘shimcha material hisoblanadi. Ular turli shakl varanglarda bo‘lishi mumkin. Eman daraxtlarning yirik barglarini bolalar kemalarga yelkan sifatida ishlatishadi. Barglardan kapalak qanoatlari, baliq suzgichlarini (bu o‘yinchoqlar g‘udda va bargdan yasaladi) yasashda qo‘llash mumkin. Barglarni kuzda, ular chiroyli bo‘lganida terish yaxshi. Darsda foydalaniladigan tabiiy materiallar o‘qituvchi rahbarligida ekskursiya jarayonida to‘planadi. Ekskursiyani uyushtirishdan oldin bolalarga bo‘lajak ish namunasi ko‘rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko‘rib, mashg‘ulot jarayonida foydalaniladigan tabiiy materiallar ya’ni, bargning shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so‘ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya yo‘nalishi, tabiiy materiallarni to‘plash uchun mo‘ljallangan joylar aniqlanadi. O‘quvchilar e’tiborini va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan ob’ektdan mehnat darslarida ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy muhim belgilari, elementlari va xususiyatlarini ajratishga, to‘planayotgan materialni to‘g‘ri baholashga yo‘llaydigan savollar ro‘yxati tuziladi. Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko‘tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari, shakllari bolalarni ajablantiradi. Ular tabiatning butun go‘zalligini, uning ranglarini, to‘kilgan barglar hidi va ular o‘zining elastiklik xususiyatini yo‘qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo‘lib qolganligini ko‘radilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e’tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o‘simliklarda sodir bo‘layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli bayon etibberiladi: o‘simlik yangi sharoitlarga moslashib, qish fasliga tayyorgarlik ko‘rayotganligi bilan tanishadilar. Bolalarning e’tibori atrofda uchib yurgan qushlar, kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi, Uchib yurgan qushlar ularning tuzilish formalarini mehnat darslarida qushlar applikatsiyasini tayyorlash uchun to‘plangan barglar material xizmatini o‘tashi to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi. O‘quvchilar barglarni to‘plar ekanlar ularning ranglarini, shakllarini qiyoslashni o‘rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligi va diqqat qilish qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi. To‘plangan 266 barglar oldindan tayyorlab qo‘yilgan daftar varaqlari orasiga qo‘yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg‘ulotlari gacha rangini yo‘qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e’tiborini insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etish kerak. Ekskursiya oxirida suhbatga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga uylarida qushlar tasviri tushirilgan rasmlarni, su’ratlarni ko‘rishni, ularning tanasi va qanotlarining shakliga, rangiga alohida e’tibor berish topshiriladi. Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg‘ulotda bolalar quritilgan barglardan qush applikatsiyasini zo‘r ishtiyoq bilan bajaradilar, agarda applikatsiyani o‘z istaklariga ko‘ra, o‘zlari to‘plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday dars, mashg‘ulot quyidagi sxemaga ega bo‘ladi: Ishni bajarilish tartibini aniqlash 1. Predmetning qismlarining joylashishini grafik tasvirlash. 2. Predmetning

qismlari uchun shakli hamda o‘lchamlari bir xil bo‘lgan barglarni topish. 3. Ularni qog‘ozga joylashtirish. 4. Ishni bajarilish texnologiyasi haqida tushuntirib berish. 5. Ish niamaliy bajarish. Applikatsiyasini bajarish bo‘yicha mustaqil ish 1. Shaklni, o‘lcham va buyoqlarni to‘g‘ri tanlash; 2. Elimlash ishlarini tartibli bajarish; 3. Detallarning joylashishini to‘g‘ri tasvirlash; 4. Ish bajarilgan qog‘ozning orqasiga barglaridan foydalanilgan daraxt yoki o‘simliklarininomlarini yozish. Bajarilgan ishni tahlili va baholash 1. Ishni bajarilishda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash; 2. Xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida to‘g‘irlash; 3. Namunali, sifatli va chiroyli bajarilgan ishlarni rag‘barlantirish. Turli barglarni to‘plash o‘qituvchiquygan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar ko‘rib chiqilgan va batafsil tahlil qilingan yoki o‘zlari o‘ylab topgan tasvir uchun barglarini to‘playdilar. Yoki aksincha, avval turli burglarni to‘plab, keyin ishni bajarish tartibini aniqlashlari mumkin. Bargning xususiyatlari va shakllari shunday xilma-xilki, applikatsiyalar yasashda ulardan asosiy material sifatida ham, yasalgan narsalarga bezak berish materiali sifatida ham foydalanish mumkin. Bu ishlarni bajarish o‘quvchilarni estetik didini, tasavvurini oshiradi va ijodiy izlashnish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga yordamberadi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ijodkorlik qobiliyatlari, ko‘nikma va shaxs xislatlarini shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, o‘quv fanlari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ijodiy yondashish, ta’lim jarayonini integratsiyalash asosida tashkil etishga zamin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sharipov Sh. S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. Fan.dok. diss. – Toshkent: TDPU, 2012.- 27 b.

2. Boymurodova G. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini ta’minlashning texnologik tizimi.–Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 80 b.

3. Zelenkova T. V. Aktivizasiya tvorcheskogo voobrajeniya u mladshix shkolnikov. // Boshlang‘ich maktab. – 1995yil - №10. B-4-7.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BOSHLANG‘ICH TA’LIM BOSQICHIGA TAYYORLASHDA ULARNING NUTQINI O‘STIRISH MUAMMOLARI

Igamova Yulduz Ilxomovna
Navoiy viloyati Navoiy shahar 21-DMTT tarbiyachilari
Murodova Madina Soliyevna
Navoiy viloyati Navoiy shahar 21-DMTT tarbiyachilari
Telefon: +998(93)3154456

“Sayyoramizning ertangi kuni,farovonligi fardandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishishi bilan bog‘liq”.
Sh.M.Mirziyoev

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirishda, ularni boshlang‘ich ta’lim bosqichiga tayyorlashda nutqiy savodxonligini rivojlantirish, bolalarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otish. Lug‘at boyliklarini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: antonim, sinonim,motorika, intelektual, grammatika.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari asosidagi “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturimizga ko‘rsatilganidek, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, kichik guruh (3-4) yoshdanoq amaliyotga tadbiq etilgan. Ushbu dasturda maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishiga qo‘yilgan barcha rivojlanish soxalari va ular tarkibidagi kichik soxalar bolaning mukammal ta’lim-tarbiya olib intelektual shaxs bo‘lib shakllanishi ko‘zda tutilgan va o‘rganib chiqilgan. Shunday ekan o‘z hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda, til, nutq, asosiy muomala vositasi ekan, bola tarbiyasida ham nutqiy savodxonlikni rivojlantirish, muomla madaniyatini shakllantirish alohida o‘rin tutadi.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida belgilanganidek har bir bolaning nutqini rivojlantirish, savodxonligini oshirish, bunda badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otish, she’r, ertak, topishmoq, maqol, masal, hikoya kabi janrlarni farqlashga o‘rgatish, tez aytishlar orqali nutqni o‘stirish, tovushlarning to‘g‘ri talaffuzi, harflar bilan tanishtirish, gapda so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, ya’ni antonimlar, sinonimlarni farqlashga o‘rgatish, surat asosida tasviriy, ijodiy hikoya tuzish kabi ko‘pgina yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning qo‘l barmoqlarining mayda motorikasi; daftardagi yozuv qatorlarini aniqlash, nuqtali chiziqlarni birlashtirish, chiziq bo‘ylab so‘zlar va qisqa gaplarni yozish, rasmlarni to‘g‘ri joylashtirish, qo‘lni uzmasdan nuqta chiziqlarini birlashtirib rasm chizish malakalirini o‘z ichiga oladi.

Biz bu dasturda ko‘rsatilgan talablar asosida ish olib borsak, kelajakda MTT da tarbiyalanayotgan har bir bolani maktabga tayyor holda kuzata olamiz deb o‘ylayman. Farzand go‘yoki bir nihol uning ildizini chiroyli parvarishlash biz tarbiyalovchilarning qo‘limizdadir.

Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishda so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, yangi so‘zlarning ma’nosini tushuntirishga alohida e’tabor qaratish lozim. Bolalarni bosqichma-bosqich so‘z birikmalari va gaplar tuzishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalar u yoki bu narsa, voqea-hodisalar haqidagi o‘z fikrlarini gaplar yordamida bayon qiladilar. Mashg‘ulotlar davomida tarbiyachilar bolalarning har bir savoliga aniq va samimiy javob qaytarishlari lozim. Shu tariqa ularning nutqi samarali rivojlanadi va uchraydigan nuqsonlar bartaraf etiladi.

Bolalar kundalik hayotlarida turli voqea va hodisalar buyumlarga duch keladilar. Tarbiyachilar va ota-onalar ular haqida bolalarda aniq tasavvur hosil qilishlari kerak. Narsa, buyumlarning nomlari, hayotiy vazifalari haqida bolalarga to‘liq ma’lumot berish talab qilinadi. Bu bolaning og‘zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish, yo‘l qo‘yadigan xatolarini tuzatishga imkon beradi. Shuningdek, bolalarda yangi bilim va tasavvurlar hosil bo‘ladi, ular hodisalar va buyumlarning nomlari, sifat va xususiyatlarini o‘rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘atini boyitish, nutqini ravon, silliq va ta’sirchanligini ta’minlashda ularda sherlar yodlatish, ertaklar o‘qib berish alohida ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolalarga o‘qib berish uchun she’rlar va ertaklar tanlash davomida mazmun va uslub jihatdan ularning yoshi, tushunish darajasiga mos kelishiga alohida e’tibor qaratishi kerak. Bunda

o‘qilayotgan ertakdagi ayrim o‘z va iboralar ustida bolalar bilan birgalikda ishlash, bir tomondan, ertakning mazmunini oson hamda to‘liq o‘zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, ularning so‘z zaxirasini boyitish, o‘qilayotgan ertakdagi voqealarni tushunish imkoniyatini kengaytiradi.

Nutq faoliyatining rivojlanishi bolaning intellektual taraqqiyoti davomida amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan bola nutq faoliyatining takomillashishi quyidagi ikki yo‘nalishda tatbiq etiladi. Bolaning nutq faoliyati atrofdagilar bilan kundalik muloqot va hamkorlik jarayonida takomillashadi. Bolaning nutq faoliyati maxsus mashg‘ulotlar jarayonida boyib, rivojlanib boradi.

Mashg‘ulotlarda tarbiyalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat tarbiyachining rejasi bo‘yicha o‘tkaziladigan ta’limiy o‘yinlar, mashg‘ulotlar bilan cheklangan bir taraflama faoliyatdir. Shu sababli nutq faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha ruhiy kechinmalar tarbiyachi tomonidan turli ta’limiy usul va vositalar yordamida sun’iy ravishda yuzaga keltiriladi.

Bunday ta’limiy usul va vositalar bolalar ongiga tashqaridan ta’sir etishga mo‘ljallanganligi uchun ular har doim ham kerakli ruhiy kechinmani yuzaga keltira olmaydi. Buning natijasida bola nutqini rivojlantirishda bir qator qiyinchiliklar vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda, ta’lim jarayonida shakllantiriladigan nutq faoliyati bilan tabiiy nutq faoliyati orasida farq tobora kuchayib boradi. Maktabgacha ta’lim jarayonidagi muhim vazifalardan biri, bolalarning nutqini o‘stirish va uni izchil takomillashtirishdan iborat.

Shaxslararo munosabatlarga kirishish, o‘qish, o‘zaro axborotlarni bir–biriga uzatish, muloqotga kirishish uchun nutq boyliklaridan foydalaniladi. Nutq o‘stirish metorikasining asosiy vazifasi nutq o‘stirishning eng samarali vositasi va yo‘llarini ilmiy-pedagogik asosda ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari, birinchi navbatda, bolalarda zarur nutq ko‘nikmalarini hosil qilishga mas’uldirlar. Bunda bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali ularda muloqotga kirishish ko‘nikmalarini tarkib toptirish nazarda tutiladi.

Buning uchun tarbiyachilar maktabga tayyorlash jarayonida bolalarga nimani, qanday o‘rgatish, ularda qanday nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilish, mazkur jarayonda ular nutqini shakllantirishda qaysi usul va yo‘llardan qanday sharoitda foydalanish zarurligini bilishlari lozim.

Bolalarning kattalar bilan o‘zaro muloqot va hamkorlik o‘rnata olishlari ularning rivojlanishlari va maktab ta’limiga tayyor bo‘lishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Kattalar bilim va ko‘nikmalar, butun insoniyat tomonidan to‘plangan tajribalar va madaniyatni yosh avlodga yetkazuvchilar hisoblanadilar. Nutq shaxslararo muloqot vositasi hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berishning ko‘plab vazifalari bilan bir qatorda, ularning nutqini o‘stirish, muloqot ko‘nikmalarini hosil qilish talabi ham qo‘yilgan. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida nutqning tovush xususiyatlarini o‘zlashtirish, so‘z zahirasini boyitish, nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik jihatdan to‘g‘riligiga rioya qilish, badiiy asarlar tilini tushunishga o‘rgatish talab etiladi. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalar ona tilining imkoniyatlarini o‘rganar ekanlar, asosan, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallaydilar. Buning natijasida muloqot ko‘nikmalari tadrijiy tarzda rivojlanadi.

Bolaning kattalar bilan muloqotida uning hissiyotlari yetakchi o‘rin egallaydi. Bu bolalarni maktabga tayyorlash bosqichida bilish faoliyati shakllanishining asosi sifatida tarkib topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov “YUksak ma’naviyat yengilmas kuch” T. 2008 yil
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T. 2000 yil
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T. O‘zbekiston 1997 yil
4. O‘zbekiston Respublikasi Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishigaqo‘yiladigan Davlat talablari. Toshkent 2018 yil

TA'LIMNING TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRUVCHI ASPEKTLARI VA O'QITUVCHI SHAXSI

Imomova Gulbahor Xabibullayevna
Xalq ta'limi a'lochisi
Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 35-umumiy
o'rta talim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Tel: 91-699-09-70

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda o'tmish mutafakkirlarining shaxsi va asarlariga oid mavzulardan foydalanib, o'quvchiga tushunarli qilib yetkazib berish haqida fikr yuritgan.

Kalit so'zlar. Irodali inson, pedagog, o'quvchi, uslub, savodxonlik, interaktiv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

В статье раскрыты методы использования наследий великих предков на уроках чтения, создающих благоприятные условия для совершенствования содержания образования, обеспечивающих расширения кругозора учащихся. Также автор предлагает методические рекомендации по проведение уроков родного языка.

Ключевые слова. Волевой человек, современные педагогические технологии, духовный кругозор, интерактивный.

In this article, author, tries to explain that it's important to link every reading lessons with themes and books which linked with ancient ancestor and about their valuable stories. And tutor must be able to explain how it is important to know about history and being suitable for sore fathers.

Key words. Tolerant person, encyclopedic," Key for knowledge", method, diagram of Vin, game "Gumption", vanguard pedagogical technologies, moral outlook.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-marifiy o'zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda yoshlarimiz ta'lim olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Ulardan to'g'ri va oqilona foydalanish esa, ta'lim, tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, vatanparvar ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib kelmoqda. Davlat va jamiyat taraqqiyoti inson hamda uning manfaatlarini rivojlantirishga nechog'liq e'tibor qaratilayotgani bilan chambarchas bog'liqdir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ''Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham – bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir. Aynan shu bois chuqur bilimga ega barkamol avlodni shakllantirish, yangicha fikrlaydigan va davr bilan hamqadam yuradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir''. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jamiyatda insonni erkin va mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash zarur. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Kaykovus singari Sharq mutafakkirlari e'tirof etgan inson ma'naviy kamolotining zaruriy shartlaridan biri mustaqil va mantiqiy tafakkurdir. Bu jarayonda o'quvchi mukammal faollik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatadi. Madaniy merosimizga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shgan allomalarimiz Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar ijodini o'rganish kelajak avlod uchun katta ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ularning har biri jahon sivilizatsiyasining rivojiga tegishli hissasini qo'shib kelgan. Bu silsilada Yusuf Xos Hojibning nomini ham faxr va iftixor bilan tilga olish mumkin. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" hamda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asarlari ma'naviyat durdonalaridan biridir. Shu o'rinda "qomusiy" so'zini qo'llaganimiz tasodifiy emas. Har bir yaratilgan asar o'quvchini, kitobxonni bir yo'nalishda tarbiyalaydi. "Qutadg'u bilig" asari esa davlatni idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasm-rusumlarini,

axloqiy prinsiplarini o‘zida mujassamlashtirgan, qomusiy asar sifatida yuzaga keldi. Bu asar didaktik yo‘nalishga ega bo‘lib, unda davlatni idora qilish usullari, oddiy xalqdan tortib oliy darajadagi mansab egalari elikxonlargacha – olim, shoir, dehqon, chorvador, kosib singari ko‘plab tabaqa, toifa, ijtimoiy guruhlarning fe’l-atvori qanday bo‘lishi lozimligi, davlat qurilishi, turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, umuman, siyosiy-ijtimoiy, moddiy-ma’naviy, axloqiy-tarbiyaviy masalalar o‘sha davr talabi nuqtayi nazaridan yo‘l-yo‘riqlar badiiyat qonunlari asosida tavsiflangan.

Yusuf Xos Hojib o‘z zamonasining donishmandi, mutafakkiri, ilg‘or fikrli faylasufi edi. U o‘z asarida ilm-fan, bilim va zakovatga alohida e’tibor bilan yondashadi:

Biligsiz kishi bir yemishsiz yig‘ach,
Emishsiz yig‘achig‘ neku qilsu ach.
(Bilimsiz kishi bir mevasiz yog‘ochdir, Mevasiz yog‘ochni och kishi nima qilsin).

Bu ifodalarning ixcham, lo‘nda, samimiyat bilan yo‘g‘rilganligi e’tiborni tortadi.

Ifodaning ravonligi, tilga olinayotgan hodisaning tabiiyligi, bevosita kundalik turmush bilan zich bog‘lanib ketganligi ham uning ta’sir kuchini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy dunyoqarashi haqida so‘z borar ekan, yuqorida aytib o‘tilganidek, ularni ilk maktab yoshidan boshlab buyuk mutaffakkirlarimizning ma’naviy merosi bilan tanishtirib borish orqali boy ma’naviy dunyoqarashga ega shaxsni tarbiyalashga erishishimiz mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol, bilimli inson qilib tarbiyalash vazifasi ko‘p jihatdan boshlang‘ich sinflarda ta’limni to‘g‘ri uyushtirish, xususan, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning nutqini talab darajasida o‘stirish bilan o‘zaro bog‘liq. So‘z zahirasi boy o‘quvchining fikrlash doirasi keng, ma’naviyati yuksak, o‘qish-o‘rganishga ishtiyoqi baland bo‘lishi tabiiydir. Boshlang‘ich sinflardagi o‘qish darslari orqali o‘quvchilarda savodxonlik sifatlari shakllantiriladi, kitobga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi uyg‘onadi, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlari kengaytiriladi, nutq va tafakkuri oshadi. Nutq tarbiyasida “matn” ham markaziy tushuncha hisoblanadi. Zero, umumiy o‘rta ta’lim maktabida nutqni rivojlantirish bo‘yicha ishlarning pirovard maqsadi o‘quvchini o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda erkin bayon qilishga o‘rgatishdir. Bola kichik yoshida ta’sirchan, atrofdan kelayotgan barcha ma’lumotlarni tez qabul qiluvchi bo‘ladi. U nimani eshitsa, eshitganicha talaffuz qilishga va uni, nutqida qo‘llashga intiladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv yili boshidanoq nutq doirasini aniqlab, nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish va ular ustidan ish olib borish lozim. So‘z boyligi o‘quvchilarga barcha fanlardan beriladigan bilimlarni tez va puxta o‘zlashtirib olish hamda ta’lim dasturlarida ko‘zda tutilgan ko‘nikma-malakalarni o‘zlashtirishga zamin yaratadi. O‘quvchilarning o‘qish malakalarini takomillashtirish, savodxonligini oshirish, nutqini o‘stirish talabi zaminida, nutq madaniyati turadi. Farzandlarning ma’naviy kamolotida qadimdan nutq madaniyati va odobiga alohida ahamiyat berib kelingan.

Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishga yo‘naltirilgan amaliy vazifalar hal etilishi lozim. Shu o‘rinda 1-sinf o‘qish kitobini “Biz-buyuklar avlodi” bo‘limi orqali birinchi bo‘lib yozuvchi Muhammad Alining “Amir Temur” bobomiz haqida ibratli matn berilgan bo‘lib, undan so‘ng Amir Temur o‘gitlari o‘quvchilarga aniq va tushunarli holda bayon etilgan. Bo‘limdagi mavzularni o‘tishda quyidagicha usullarni qo‘llashimiz mumkin. O‘quvchilar buyuk mutafakkirlar: Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo va Amir Temur nomlarini esda saqlab qolishlari lozim.

Agar o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdan boshlab ma’naviy dunyoqarashini shakllantirar ekanmiz, birinchi navbatda ularning qiziqishlarini, bilish darajasini hisobga olishimiz kerak. Ma’lumki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshi 7-11 yoshni tashkil etsa, ularning o‘yin faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi 75-80 foizni tashkil etadi. Shunday ekan o‘quvchilarning yoshi va qiziqish darajasiga qarab quyidagi interaktiv metodlarni tavsiya etamiz. Vena diagrammasi usulidan boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida foydalanish mumkin. Bu metod uchta oval figuralarning kesishmasidan iborat. Doirachalar uchta bo‘lib, bunda birinchi va uchinchi doirachalar ichiga berilgan topshiriqning farqli jihatlari yozilsa, o‘rtadagi doirachaga ularning umumiy, o‘xshash tomonlari yoziladi. Bu usul yordamida o‘quvchilar mavzuga oid alohida sifatlarni, xususiyatlarni, ikki toifadagi narsalarni farqlashni, ajratishni o‘rganib oladilar. Biror-bir bo‘lim yakunlangach, ushbu bo‘limni tahlil qilishda “Ven diagrammasi” usuli samarali natija beradi. Masalan, 2-sinf o‘qish kitobi kitobi” da esa “Otalar so‘zi aqlning ko‘zi” bo‘limi orqali yuqorida aytib o‘tilganidek,

Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk allomalar bilan tanishadilar. Bu darsda “Vena diagrammasi” usulini quyidagi tartibda qo‘llash mumkin. 1. Birinchi doira ichiga Amir Temur bobomiz haqida. 2. Uchinchi doira ichiga Alisher Navoiy bobomiz haqidagi ma’lumotlarni yozamiz. 3. Ularning o‘xshash tomonlarini 2-doira ichiga yozing, deb topshiriq beramiz. Bu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilarga vaqt beriladi, vaqt tugashi bilan har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib, boshqa guruhdagi o‘quvchilarni yozganlari bilan tanishtiradi. O‘quvchilar qarsak chalib rag‘batlantiriladi. Bu usul orqali o‘quvchilar tanqidiy, tahliliy va va ijodiy fikrlashga o‘rganadi. O‘qituvchi, fikrlashga tayyor turgan o‘quvchilar oldiga muammoli savollar qo‘yib, uni aniqlashtirish, yechimini topishga undaydi. Bu esa, uning ijodiy qobiliyatiga va ko‘proq izlanishiga bog‘liq.

Zakovat o‘yini: O‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘ladi va aylana stol atrofiga joylashtiradi. Guruhlarga bo‘lim asosida navbati bilan savol beriladi.

Savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

– bo‘limdagi hikoyalarni o‘qib, buyuk ajdodlarimizdan kimlarning hayoti bilan tanishdingiz?

– vatanimiz va xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan yana qaysi buyuk kishilarni bilasiz?

– biz nima uchun ular bilan faxrlanamiz? Va hokazo…

Guruhlarning qaysi biri ushbu savollarga tez, mazmunli va aniq javob bersa, shu

guruh g‘olib hisoblanadi. O‘yin orqali o‘quvchilarning tezkorligi, bilimlarini aniq ifoda eta olishi qobiliyatini, bo‘limni qay darajada yaxshi tushunganliklarini, bilib olishimiz mumkin. Shu o‘rinda o‘quvchilar ma’naviy dunyoqarashini o‘stirish va barkamol inson qilib voyaga yetkazishda quyidagi gapga ahamiyat qaratish lozim:

– o‘quvchilar ma’naviy dunyoqarashini o‘stirishda mavzularni, ma’naviy tushunchalarni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tarzda o‘rgatib borish.

– ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda o‘qish darslarida berilgan o‘tmish mutafakkirlarining asarlariga oid mavzulardan keng foydalanish va o‘quvchiga tushunarli qilib yetkazib berish.

– o‘quvchilarning mavzularni o‘zlashtirishlariga, mustaqil fikrlashlariga erishish choralarini topish.

– har bir darsga ijodiy yondashish.

– darsda turli usullardan, interaktiv metodlardan, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan, o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish.

– turli didaktik o‘yinlar bilan o‘quvchilarni mavzuni o‘rganish va o‘zlashtirishga qiziqtirish.

– metodik yangiliklardan va pedagogik tajribalardan har doim boxabar bo‘lib, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, boshlang‘ich sinflarda maktab ta’limining yetakchi predmetlaridan bo‘lgan o‘qish darslari orqali olingan bilimlar poydevori quriladi. O‘quvchilar ma’naviy dunyoqarashini o‘stirishda eng munosib, eng qulay metod va usullardan, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida va maqsadga muvofiq foydalanish, o‘qish-o‘qitish ishlarida samarali natijalar beradi. Pedagog va o‘quvchilarning birgalikdagi ijodiy faoliyati mavzularning o‘zlashtirilishini osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sariyev Sh. Ma’naviyat ko‘zgusi. O‘quvchilarning milliy ma’naviyatini shakllantirishda boshlang‘ich ta’limning o‘rni. – T.: “TDPU”, 2009. – 250 b.

2. Mirsamiqova R. // Ma’naviy-axloqiy tarbiyada “Qutadg‘u bilig”ning ahamiyati. – T.: “TDPU”, 2009. – 215 b.

3. Mahkamova M., Isroilova Sh.// Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish usullari. – T.: “TDPU”, 2009. – 215 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARGA SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA NUTQ KO‘NIKMALARINI O‘STIRISH

Inamova Muqaddas Isoqjonovna
Namangan tumani 6-maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
tel: 93-266-81-92
e-mail:inamova@mail.ru

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish hamda nutq ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida olib boriladigan amaliy ishlar yuzasidan fikrlar yoritilgan

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, savodxonlik, til, nutq, nutq o‘stirish

Ta’limning yangi mazmuni o‘quvchilarning har tomonlama kamol topishiga, ularni faollashtirishga qaratilgandir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xat-savodga o‘rgatish, lug‘atni boyitish nutqlarini rivojlantirish orqali boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishga erishmoq lozim. Xat savod o‘rgatish ta’limning muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘qish, chiroyli yozish hamda o‘qiganlarini so‘zlab berish o‘rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so‘zlarga, so‘zni bo‘ginlarga ajratish, tovushlarni eshitib va talaffuz qilib bir-biridan farqlash, so‘zda tovushlarning birin-ketinligiga e’tibor berishni ham bilib olishlari ta’minlanadi. Bolalarning nutqni o‘stirishda kesma harflar bilan ishlashga o‘rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalar bog‘inlar tuzishga tez o‘rganadilar. Ochiq va yopiq bo‘g‘inlarni turli ko‘rinishdan tuzilgan gaplar tuzishni ham mashq qiladilar. Kichik matnlarni ovoz chiqarib bo‘g‘inlab, ongli to‘g‘ri va ravon o‘qishda o‘rganadilar. O‘quvchi avval ichida bo‘g‘inlab o‘qish, so‘ng ovoz chiqarib so‘zni butunicha aytish yozuv bilan uzviy bog‘lab olib boriladi. Bu usul bolalarning og‘zaki va yozma nutqning baravar rivojlantirishga yordam beradi. O‘qish darslarida o‘quvchilar so‘zdagi harflarni bir-biriga bog‘lab yozish, so‘z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o‘rgatiladi. Xat savod o‘rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o‘xshash tomonlarini farqlab bosma harflarni yozma ravishda ko‘chirib yozishga ham o‘rgatish foydalidir. Chunki ular ko‘pincha bosma harflarni aralashtirib yozib qo‘yadilar. Shunday paytda ular e’tiborini yozuv namunalariga jalb qilish, yozuvlarini to‘g‘ri va chiroyli bo‘lishiga erishmoq lozim. Bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish ishlari ham bu davrning asosiy vazifalaridan biridir. O‘quvchilarni yozuvga o‘rgatishda dastlab yozilishi talaffuziga mos keladigan so‘zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o‘rgatishda so‘z tarkibidagi harflarning to‘g‘ri va aniq yozilishi hamda qo‘shilishiga daftarlarni ozoda tutishga bolalar e‘tibori tortiladi. Bu davrdagi darslarni maqsadga muvofiq tashkil etish o‘quvchilar bilimining kelgusida pishiq- puxta bo‘lishiga mustahkam zamin yaratadi. Savod o‘rgatish ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish uchun quyidagilarga e‘tibor berish lozim:

- ta’limning didaktik jihatlariga e’tibor berib, uni so‘nggi yutuqlar bilan to‘ldirib borish;
- o‘quvchilarning yosh va fiziologik jiqatlariga e’tibor berish;
- ularda mustaqil faoliyatni rivojlantirish usullarini keng qo‘llash;
- o‘qish va yozishning uzviyligiga e’tibor berish;
- alifbo va unga qo‘shimcha materiallardan ijodiy foydalanish;

Maktabda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish uchun kurash barcha o‘qituvchilarning ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy vazifasi sanaladi. O‘quvchilar nutqini o‘stirish ularga o‘z xalqining adabiy tilini o‘rgatish demakdir. Adabiy til esa normaghtirilgan qonun-qoidali til. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarni ana shu adabiy tilda so‘zlashga odatlantira borish kerak. O‘qituvchining nutqni o‘stirish jarayoni bola maktabga 1-qadam qo‘ygan kunidan boshlanadi. Nutq ko‘nikmalari izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi grammatikaning har bir bo‘limiga oid mashg‘ulotda o‘tilgan mavzu asosida o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini o‘stirishga e’tibor berishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarni matnni to‘g‘ri, ifodali, ravon talaffuz etishiga katta e’tibor berishi kerak. Bu ko‘nikmaga dastavval nutqning ixcham, sodda va ravon mazmundor bo‘lishi kiradi. Shuning uchun har bir grammatika va imlo darsida nutq o‘stirishi o‘qituvchining diqqat markazida turishi, o‘quvchilarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va so‘z boyligini kengaytirish birinchi darajali vazifa qilib qo‘yilishi shart. Savod o‘rgatish jarayonida bir turdagi mashg‘ulotlar uzoq

davom etsa o‘quvchilar tez charchab qoladi. Shuni hisobga olib, mashg‘ulotlarning turi va usullarini o‘zgartirib turish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dastlabki mashg‘ulotlar ta’sirchanlik va mo‘jizakorlik jihatidan yuksak darajada bo‘lishi kerak. Chunki bolalar yozish va o‘qishdek aqliy faoliyatga birdaniga kirisha olmaydilar. Savod ta‘limning adabiy til meyorlariga rioya qilgan holda olib borilishi qisqa va lo‘nda, ta’sirchan va tabiiy, ravon nutq egallanishi uchun zamin yaratadi. O‘quvchilarning nutqini mukammal rivojlantirish uchun o‘qituvchi ko‘p izlanishi, bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lmoq’i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva Q, Nazarov K, Yo‘ldosheva Sh. «Savod o‘rgatish metodikasi» T.»O‘qituvchi» 1996.

2. Ro‘ziboyeva O‘. «Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari unli va undosh tovushlarni o‘rganish bilan og‘zaki nutqni o‘stirish» T. 1996.

3. Qosimova K. «Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi» T.»O‘qituvchi» 1985.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Inamova Komilaxon Valiyevna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +99894 1567667

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarini olib borishda yanicha metodlardan foydalanish, o‘qish darslarini o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, nutqini rivojlantirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy bilimlar, ta’lim, tarbiya, pedagogik texnologiya,,internet tarmog‘i

Pedagogik texnologiya – bu butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining o‘z oldiga ta’lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish ta’limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O‘zbekistonimizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishni yangi Davlat ta’lim standartlari asosida tashkil etishga qaratilgan. Hozirgi kunda o‘qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’lim jarayonida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning pedagogik fikrlashida o‘rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jaryonida qo‘llashga oid tavsiyalar o‘qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan: o‘quvchilarni boshqalar fikrini eshitishi, tushunishi, hurmat qilishi, o‘zgalar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish.

O‘qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar o‘quvchilar o‘rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib o‘quvchilarni harakatchanlikka boshlab ruxlantirdi, natijada o‘quvchilar hamkorliik o‘rgana boshladi. Har qanday interfaol metod to‘g‘ri va maqsadli qo‘llanilganda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya ta’lim tizimining rastional yo‘llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo‘lib, unda o‘qituvchi asosiy mas’ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o‘quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda etkazib berishidan iborat.

O‘quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe’latvori har xil bo‘lishiga qaramay o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatish lozim. Bunda o‘quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo‘lib, o‘qish, mutolaa qilish, chizma chizish, proektstiyalar formulalarini tushunib asboblarni ishlata olishi, bir-birlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lib, oldilariga qo‘yilgan muammolarni yechishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangilanishlar o‘quvchilarga yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda yoshlarimizni o‘ziga va boshqa insonlarga jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o‘zgarishning vatanparvarlik g‘oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko‘zda tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo‘yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi. Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan talablarning majmui pedagogning umumlashtirilgan modelini va unga asosan quyidagi asosiy talablarni ifodalaydi: ta’lim berish mahorati, tarbiyalash olish mahorati. O‘quv tarbiya jarayonida inson omilini ta’minlovchi shaxsiy fazilatlari – ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Demak, o‘qituvchi pedagog o‘z oldiga qo‘yilgan murakkab mas’uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo‘lishi kerak:

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi;
- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtai nazarda yangilashi;
- axborot ta’lim texnologiyalarini va o‘qitish vositalarini ta’lim berishda tadbiq etish, internet tarmog‘i to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi va undan o‘z bilimini oshirishda foydalana olishi.
- oilaviy ta’lim-tarbiya muammolari bo‘yicha tasavvurlarini rivojlantirishi.

- dars jarayonida pedagogika texnologiyalaridan unumli foydalanish yo‘llarini bilishi.
- o‘quvchilarning fikrlashlari va bir-birdari bilan fikr almashishlari hamda do‘stona muhit yaratish uchun sharoit yaratishi.

Yuqoridagi pedagogga qo‘yiladigan zamon talablari mazmunli amalga oshirish uchun har bir o‘qituvchi yangicha fikrlashi, tafakkurini o‘stirishi, pedagogik tehnalogiyalari mustaqil o‘rganishi, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqur bilib olishi kerak. Yangi pedagogik tehnalogiya nima va biz uni qanday tushunamiz? An’anaviy texnologiyadan farqli jihatlari nimada? Yangi pedagogik texnologiya darslarning an’anviy darslardan farqi shuki bu darsda o‘quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o‘z fikrini yorqin bayon etishga imkon yaratib berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Farmoni, PF-5712. 2019 yil 29- aprel.

2. “O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq”, 1997 yil. 39-bet.

LEARNING IN COLLABORATION IN ENGLISH LESSONS

Irg'oziyeva Matluba Muhammadjonovna,
English teacher of school № 46 in Chartak district of Namangan region.
E_mail: ali1112000gamer@gmail.com. Tel:+998941519667

Annotation: In this article was given information about working with pupils in pairs and groups and advantages of collaborative learning while teaching English lessons.

Key words: collaboration, communication, group and pair works, monological, dialogical and polylogical speech.

Having worked as an English teacher for my experience, I believe that one of the most urgent and a complex problem of modern methods is teaching oral communication.

Teaching students to communicate in a foreign language in the educational process is a difficult task. After all, natural speech is stimulated not by necessity, but by the need for real communication. The lack of active oral practice in the English lesson, the desire to improve the effectiveness of teaching, prompted me to use group work (to teach in collaboration) students. Since they exchange ideas, opinions, information, and learn from each other in the process of learning. Currently, in natural communication situations, a person is much more likely to encounter Dialogic and polylogical forms of communication. Therefore, I devote a significant place in the educational process to working in pairs and groups. In these forms of work, my students achieve their goals by collaborating with each other. Note that all students work in these classes. They learn to listen and hear. Everyone feels relaxed. Working in small groups, everyone gets the opportunity to realize what their strength is, and get help in what they are weaker than others. By working together, my students learn to work without my control, together with their colleagues, in order to achieve their goals. Teaching group interaction in my classes has become not only a method of teaching oral speech, but a natural component of the educational process.

My work in this direction and observations has shown that the group form of organization of educational work has a number of advantages: it helps to increase motivation to study, teaches you to objectively evaluate yourself and others, increases the business status of the student in the team, and diversifies the lesson. Working in a group, students show speech independence. They help each other, successfully correct the statements of the interlocutors, even if I do not give such a task. In order for group speech collaboration to be effective, I came to the conclusion that it is necessary to purposefully train students in communication technology, clearly observing the basic principles of learning in collaboration. I start the organization of group communication with the formation of speech groups taking into account the psychological compatibility of children. The optimal composition of the group is four or five people. At the same time, each group has strong, medium and weak students, necessarily girls and boys. If the group works smoothly for several lessons, then it works in this structure constantly.

Practice has shown that the most successful groups are those where their members complement each other: one is efficient, but not emotional; another has personal experience, but has little time; the third knows little, but is interested in this issue. In the process of work, there is a sense of cooperation and mutual support. Participation in speech communication involves possession of the motive of activity set by the communicative task, and performing a speech act in accordance with this motive. If all groups have to discuss the same problem, I will inform you about the task goal after organizing the speech groups. (For discussion of different problems, it is better to announce tasks before forming groups, then students who are interested in the same topic can join together for joint creativity.) The roles are usually assigned by the students themselves, but in some cases I do it myself.

I usually evaluate the work of the entire group, not just one student. In these lessons, I evaluate not so much the knowledge as the effort and effort of the students. Very often, at the intermediate stage of work, the results of each group member's work are evaluated by the group leader. As a rule, I choose the student from each group who should report for the work performed.

There are many different options for learning in collaboration. When training, I try to stick to the individual-group option. But sometimes I try to diversify this option with a creative

approach applied to my students. In the five lessons that I have attached to their experiences, try to explain your work in developing students ‘ reading skills with the extraction of basic information, improving reading skills, teaching writing, monological, dialogical and polylogical speech when learning in cooperation.

At the initial stage of training, I usually take on the role of an organizer of communication, support the discussion with clarifying remarks, leading questions, pay attention to the original opinions of participants, controversial issues, and relieve the tension that arises. Over time, the role of the lead (leader) is transferred to one of the students in each group.

The content of such discussions is usually any real-life problem. For example, career choices, future plans, relationships with parents, environmental protection, the role of women in society, and others.

Used literature:

1. M. Z. Implementation of a communicative and cognitive approach to teaching English. Collection of reports and speeches of the IV all-Russian seminar. Obninsk: Titul, 2001. - pp. 62-68

2. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperative Learning. Minneapolis, M.N.-pp.1-88

3. Radley P., Sharley A., Driscoll L. TRIO-2. The British Council, 1987.124 pp.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Ishanxonova Tilobatxon Muratxonovna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tuman
27 – maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon : +998 91 181 27 09

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ch ta’limda didaktik o‘yinlarning ahamiyati va ulardan namunalar aks ettirilgan. O‘quvchilarga dars davomida turli didaktik o‘yin-lardan foydalanib bilim berish muhimdir.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yinlar, so‘z boyligi, darsga qiziqish.

Bizga sir emaski, kichik yoshdagi bolalarning eng sevimli mashg‘ulotlaridan biri bu o‘yindir. Boshlang‘ich ta’lim davrida didaktik o‘yinlarning o‘rni kattadir. Didaktik o‘yinlar bolalarning so‘z boyligini oshiradi, aqlini charxlaydi, og‘zaki nutqini rivojlantiradi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning yoshiga qarab tashkil etiladi. O‘yinlar davomida o‘quvchilar qoidalarda rioya qilishga, o‘zgalarni tinglashga, diqqatni jamlashga o‘rganadi. O‘qituvchi har bir darsning mazmuniga mos o‘yinlarni tanlay olishi kerak. Bu uning pedagogik mahoratiga bog‘liq. O‘yinlar tashkil qilishda ko‘rgazmalilikka e’tibor berilsa bola darsni to‘liq o‘zlashtirishiga erishiladi. Didaktik o‘yinlarning ahamiyati shundaki, o‘yin davrida sinfdagi barcha o‘quvchilarning ishtirokiga erishiladi. O‘quvchilarning nutqi o‘sadi, so‘z boyligi ortadi, o‘z fikrini to‘liq ayta olishga o‘rganadi, burchni his qilishga, mas’uliyatni anglashga, o‘quvchini fikrini jamlab tez va aniq bayon etishga undaydi.

O‘qituvchi esa didaktik o‘yinlarni o‘tkazish davomida sinfda do‘stlikni, inoqlikni, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni yo‘lga qo‘ya oladi. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini orttira oladi. O‘quvchini fikrini jamlab tez va aniq bayon etishga undaydi. Didaktik o‘yinlarning turlari juda ko‘p. Matematika darslarida ko‘proq “ Kim zehnli “ o‘yinini qo‘llash yaxshi samara beradi. O‘yin musobaqa tarzida qatorlararo o‘tkaziladi. O‘qituvchi sonlarni aytadi, aytilgan sondan oldin yoki keyingi sonlarni o‘quvchilar aytadilar. Masalan, 6 dan keyingi son ? (7), 10 dan oldingi son (9). Bu o‘yin maktabga ilk bor kelgan 1 – sinf o‘quvchilarini sanashni o‘rganishlariga, eslab qolish darajasining yuqori bo‘lishiga, mustaqil fikrlay olishiga, jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lishga o‘rgatadi.

Ona tili darslarida “Kim ko‘p biladi?” o‘yini o‘tkazilsa, o‘quvchini vaqtdan unumli foydalanishga, so‘zlarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatiladi. Chunki bu o‘yinda guruhlardan bir nafardan o‘quvchi xattaxta oldiga chaqiriladi, qo‘llariga o‘rganilgan harflardan biri yozilgan varaq beriladi. O‘quvchilar shu harf bilan boshlanadigan so‘zlardan 2 daqiqa ichida musoba-qadoshlaridan ko‘proq yozishlari kerak bo‘ladi. Bu o‘yin o‘quvchining xotirasini ham kuchay-tiradi. Ona tili darslarida yana “ So‘z “, “ Bo‘g‘in “, “ So‘z tarkibi “ mavzularini o‘rgatish davomida “ So‘zdan so‘z “ o‘yinidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu o‘yinning qoidasi shundayki, berilgan so‘zdan harflarning ketma – ketligini buzmagan holda yangi so‘zlar hosil qilinadi. Shunday didaktik o‘yinlardan boshlang‘ich sinflarda samarali foydalanish uchun o‘qituvchi vaqtni va maqsadni aniq belgilashi lozim. Sinfdagi o‘quvchilarni o‘yin shartlarini to‘gri bajarishga, hamjihat bo‘lib ishlashga undashi kerak. Didaktik o‘yinlarni tashkil etilganda sinfdagi barcha bolaning darsdagi faolligiga erishiladi. O‘quvchilar mavzuni tez va oson tushunishlariga yozdam beradi. Bu esa dars jarayonini qiziqarli va mazmunli bo‘lishiga olib keladi. Bu esa darslarda qaynoq kayfiyatni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim jurnali 2017-yil 2-son

2. Ona tili: 1-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. U.Masharipova, M.Umarova, D.Baynazarova, M.Nabiyeva. T: “Sharq” 2014-yil

INTERACTIVE METHODS OF ACTIVITIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Ismaylova Gulay Reymovna
Qoraqolpog'iston Respublikasi Qanlikol tumani
7-son maktabining ingliz tili fan o'qituvchisi
Telefon: 998973537794 gulayismaylova3@gmail.com.

Keywords: interactive technology, interactive method, foreign language, communication, dialogue, discussion, brainstorming, case, project, role play, presentation.

Annotation: the article describes the importance of interactive teaching methods in the modern educational process, describes the advantages of this approach. The author indicates a number of techniques used in his work.

There are a lot of different ways to teach your students. But if you really want them to connect with the lesson and not just memorize facts or numbers one of the best ways to teach them is with interactive classroom activities. Interactive classroom activities are activities that forgo one-way communication, or individual learning in favor of getting students involved and engaged with the lessons or material. Interactive classroom activities can allow students to understand what they're learning on a deeper, more integrated level—which can make the classroom experience a more successful and rewarding one.

Below some types of interactive methods are given: **Brainstorming**. It is technique for generating new ideas on a topic. These methods stimulate creative activity of the learners in solving problems and express their ideas freckly. Various variants of solving the problem are usually given here. In brainstorming quantity of utterances is important but not the quality. Teacher should listen to all utterances and not criticize them. Instead of this he inspire the learners to give as many variants of solving the problem as he (or she) can. Lacks of criticism create favorable conditions for the learners to express the ideas freely and these of course motivate them.At the end of brainstorming activity all the expressed utterances are written and then analyzed. **Discussion.** This type of interactive method requires to study teaching material on the theme before starting discussion. After having learnt the lexico-grammatical material on the theme the learners may start discussion. This method helps the learners consistently and logically express their ideas by presenting grounds for their utterances. Here the learners work in small groups and this improves their activity because every member of the group may express his/her ideas and takes part in the discussion.The forms of organizing group work are the following: a) a theme is selected (chosen); b) learners must have learnt the chosen problem; c) groups are formed; d) teacher gives instruction and announces the time; e) controls the activity of learners and if it is needed,helps and stimulated them. f) at the end of the discussion one representative of each group makes presentation. **Cluster.** The next innovative method is cluster. It is one of widely used methods in teaching a foreign languages now. It can be used in all stages of teaching English to both young and aged learners. In presenting new words a teacher writes a new word on the blackboard. And then learners tell the words that can be used together with the given word.

References:

1. Fries Ch. C. Teaching and Learning English as a Foreign Language. Ann Arbor, 1947.
2. Littlewood. W. Communicative Language Teaching. An Introduction. Cambridge. CUP. 1981.
3. Palmer H. Scientific Study and Teaching of Languages. London, 1922.
4. Richards G. C. and Rodgers Th. S. Apporaches and Methods in Language teaching. USA, 1993.

ОНА ТИЛИМ - МИЛЛАТ ҒУРУРИ

Сурхондаре вилояти Денов туманидаги
80-умумий урта талим мактабининг бошлангич
синф укитувчиси Исмоилова Рано
Телефон ракам:+998915184029

Анотация: Тил миллат гурури, ифтихори, фахри. Ватан кузгуси.Р.Исмоилова ушбу маколаси хам бошлангич синф укувчиларининг она тилимизга булган мехр-мухаббатнинг ривожланишига ижобий таьсир курсатади.

Калит сузлар: Она тили, Давлат тили, узбек тили, тил Миллат бойлиги, тил Миллат гурури.

Тарихнинг долғали замонларига дош бериб келган тилимизга Истиқлол йилларида давлат мақоми берилган. Фахр билан айтиш мумкинки, ўзбек тилида жаранглагувчи юртимиз мадҳияси ҳозирда жаҳоннинг энг баланд минбарларидан янграмоқда. Минг йиллик орзулар рўебга чиқди.

Ўзбек тили – Олтой тиллари оиласининг туркий туркумига кирувчи тилдир. Ушбу тил Ўзбекистон Республикаси Конститутциясига мувофиқ давлат тили ҳисобланади. Давлат тили ҳақидаги Қонун 1989 йил 21 октябрда қабул қилинган. 1995 йил 21 декабрда такомиллаштирилди.

XIX – асрнинг иккинчи ярмидан ҳозирги давргача ишлатиб келаётган тил хозирги ўзбек адабиёти тили деб аталади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан “21 февраль Халқаро она тили куни” сифатида белгиланган. Мазкур сана 2001 йилдан буён Халқаро миқёсида кенг нишонланиб келинмоқда. Халқаро она тили кунинг мазмун –моҳиятида ҳар бир халқнинг миллий тафаккури, маънавияти, руҳиятининг ўзагини ташкил этадиган тилга алоҳида муҳаббатнинг белгиси ўз аксини топади.

Ўзбекистон Республикаси Марказий Осиёда умум таълим мактаблари учун 7 тилда дарсликлар чоп этувчи ягона мамлакатдир. Шу билан бирга ўтган йиллар давомида ўзбек тилининг мавқеи тикланди. Ҳамда унинг тараққиёти йўлида улкан ишлар амалга оширилди. Ҳозир расмий тан олинган 6 та халқаро тил бор: Инглиз, испан, араб, рус, хитой, француз, тилларидир.

Ўз она тилини доимо авайлаб асраш шу қаторида қардош тилларини ҳам қунт билан ўрганиб ҳурмат қила билиш, тилнинг софлигини сақлашни, тил ифода воситаларидан бири эканлиги билиб олинади. Фарзандларимиз комиллиги аввало, муомала маданиятида намоён бўлади. Тадбир давомида ўқувчилар айтган шеър ва ибратли сўзларда ўз аксини топади.

Ҳар ким чучук сўз элга изҳор айлагай,
Ҳар нечаки ағёрдур, ул ерни обод айлагай.

(*Алишер Навоий*)

Биз узоқ вақт миллийлигимиздан, урф –одат ва қадриятларимиздан бебаҳра қолдик. Яхшиямки, халқимиз бахтига озодлик юз очди. Айниқса, ўзбек тилига Давлат тили мақомининг берилиши ушбу борадаги энг катта воқеалардан бири бўлди.

Она тилим, муқаддас тилим,
Онам аллалари қулоқларимда.
Сенда сўзлаб яйрайди дилим,
Жарангдошсан ардоқларимда !

“21 февраль – Халқаро она тили куни” ни нишонлаш ҳам ўрта умум таълим мактабларининг бошланғич синфларида анъанавий тус олса ўқувчиларда тилга нисбатан бўлган эътиборни, ҳурматни, миллий ғурур каби туйғуларнинг таркиб топишига ва жаҳон тилларини ўрганишга нисбатан бўлган қизиқишнинг ортишига пойдевор бўлиб хизмат қилади. Бизнинг ўзбек тилимизда “осмон”, “одам” сўзлари араб тилидан, “солдат”, “галстук” сўзлари немис тилидан кириб келгани ҳолати ҳам тилларнинг бойишига сабаб бўлса, бугунги кунда ўзбек тилининг ҳам жаҳон тилларига қўшилиб равнақ топаётганлиги ҳолатини биз ўзбек курашининг жаҳон аренасига чиқиб машҳур ва манзур бўлганлиги сабаб, “кураш”, “чала”, “ёнбош”, “ҳалол” сўзлари ҳам жаҳон тиллари орасида ўз ўрни ва мавқеига эга бўлиб бораётганлиги ҳақида

ўқувчиларга тадбир давомида тушунча бериш ҳам ўзбек тилининг равнақидан уларда тилга нисбатан бўлган эътиборни кучайтиради. Она тилим – миллат ғурури деб фахрланишга асос бўлиши табиий эканлигини унутмаслигимиз лозим.

“Она тилим – жону дилим”, “Тил - миллий бойлигимиз”, каби мавзуларда суҳбатлар ўтказиш. Тарбиявий соатларда шоирларнинг тил ҳақида ёзилган шеърларидан ўқиб бериш. Масалан, шоир Мухтор Худойқуловнинг “Она тилим” шеърини ўқиб бераман:

Она тилим,
Жону дилим.
Сенинг билан
Бийрон тилим.

Она тилим,
Бобо тилим.
Сени севар,
Юрту элим.

Она тилим,
Кону илм,
Сенла олай
Чуқур билим.

Она тилим,
Момо тилим,
Сен борсан – ки-
Ёруғ йўлим !

Мақоллардан унумли фойдаланиш ҳам тилга бўлган эътиборни ривожлантиради. “Тилингни тўғри тутолмасанг, дилингни тўғри тут”.

Тил миллат бойлиги. Тил бор экан миллат яшайди. Ўзбек тилига нисбатан бўлган дунё халқларининг муҳаббати кун сайин ортиб бормоқда. Яқин келажакда ўзбек тилининг ҳам жаҳон тиллари орасидан ўрин олишига иймоним комил. Ёш авлод тарбияси миллат тарбияси эканлигини унутмаслик лозим. Фикримни жаҳон халқларининг ўзбек тилини ўрганишга нисбатан бўлган бугунги кундаги муносабати тасдиқлайди.

Фойдаланилган адабиетлар:

1 .Баркамол авлод-Узбекистон тарракиетининг пойдевори (« Таьлим тугрисида»ги конун, Кадрлар тайерлаш миллий дастури),-Т.:Узбекистон,1997.

2. М. Худойберганова, С. Фузаилов, М. Мухторова, 3- сингла она тили дарслари, укитувчи китоби.-Т.:Укитувчи, 2008.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ODOB-AXLOQ VA TARBIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH

Israilova Zulxumor Abdikadirovna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
29-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mustaqil O‘zbekiston ta’lim muassasalarining odob-axloq tarbiya tizimi – bu o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy-madaniy fe’l-atvori, axloq qoidalariga va milliy mustaqillikni mustahkamlashning tarbiyaviy talablariga asoslanuvchi, xalq hayotining barcha jabhalari bilan chambarchas bog‘liq, hech kimdan kam bo‘lmagan barkamol avlodni shakllantirishning pedagogik jarayonidir.

Kalit so‘zlar: Odob-axloq, tarbiya, rostgo‘ylik, mehnatsevar, vatanparvarlik, urf-odatlar, insoniy munosabatlar, o‘zlikni anglash.

O‘zbek xalqining ma’naviyati haqiqatgo‘y va adolatli bo‘lish, jaholat va qabihlik yo‘lini to‘sish, insoniylik, birodarlik, mehmondo‘stlik, poklik, xushxulqlilik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi. O‘zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi, ta’lim-tarbiya, ma’daniyat an’analari moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib tarqaladi. Hozirgi va kelajak avlodlarimiz kishilari o‘zbek milliy ma’naviyati, yaxshi bilimlari va unga rioya qilishlari lozim. Shundagina jamiyat to‘q, farovon, kishilar osoyishta va madaniy hayot kechiradilar. Bu hamisha hamma avlod tomonidan e’tirof etilgan qoidadir.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. o‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi.

O‘qish darslarda ona haqidagi asarlar orqali o‘quvchilarning Davlat ta’lim standartlari (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda «O‘qish kitobi» darsliklariga ona, ota-ona, ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

Uzluksiz ta’limning boshqa bosqichlaridan farqli o‘laroq, boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qish malakalarini shakllantirish, asar ona haqidagi matni ustida ishlash ta’limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi, asosan ona haqidagi matnlar ustida ishlash orqali ma’naviyahloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog‘lab olib boriladi.

Shunga ko‘ra o‘qish darslarining yetakchi xususiyati ona haqidagi asarlarni o‘rgatish o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash, ota-onaga mehrli qilib tarbiyalash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. O‘qish ta’limi bo‘yicha o‘quvchilarni faqat ona haqidagi asarlarni matni bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo‘lmaydi. Negaki ona haqidagi asarlarni matni zaminidagi tarbiyaviy g‘oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha ham bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan maqsad o‘zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularini uyg‘otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o‘quvchilar tabiatdagi o‘zgarishlar, yil fasllarining almash-

inuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o‘quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta’limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo‘lib, ular zamonaviy o‘qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o‘zaro bog‘liq holda sinf va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari jarayonida ona haqidagi asarlarni organish orqali hal qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darsligida ona haqidgi asarlarni rejali ravishda o‘rgatib borish, o‘quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning bir me‘zoni bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.

2. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari., T.: O‘qituvchi‖, 2004-yil

3. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T.: O‘qituvchi‖, 2005-yil

BOSHLANG‘ICH TA’LIM DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Isroilova Shoira Turg‘unpo‘latovna
Yangiqo‘rg‘on tumani 38-maktab
1 toifali boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annottasiya: Ushbu maqola boshlang‘ich ta’lim darslarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, pedogog, pedogogik texnologiya, o‘quv jarayoni.

O‘quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishda ko‘p yillik maktab
tajribasiga hamda ilmiy-tadqiqot xulosalariga asoslangan holda darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borish lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni o‘quv jarayonida qo‘llash ta’lim tizimida katta yutuqlarga erishilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, o‘quv jarayonini demokratlashtirish, hamkorlik, ham ijodkorlikda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quv jarayonining markazida o‘quvchi bo‘lmog‘i va o‘quv jarayoni unga yo‘naltirilgan bo‘lishi talab etilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish, axborot bilan ishlash kompitensiyalarini rivojlantirish maqsadida multimedia mahsulotlari yaratilgan bo‘lib, darslarda keng foydalanilmoqda. Bunday multimedia mahsulolari pedagoglar uchun quyidagi afzalliklarga ega;

- Darsning ko‘rgazmaliligini ta’minlaydi
- Vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi
- Interfaol dars tashkil qilish imkonini beradi. va h. k.

Ammo pedagoglar nafaqat tayyor multimedialardan foydalanish, balki o‘zlari yaratgan pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars jarayonini to‘liq yoki qisman avtomatlashtirishlari ham mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dars berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonida yakka tartibda, juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar, axborot manbalaridan unumli foydalanish imkonini beradi. Masalan, “G‘oyalar gilami” mashqi boshlang‘ich sinf darslaridagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga, o‘zlashtirishga, shu bilan birga, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Darsdan oldin quyidagilarni tayyorlab qo‘yish zarur bo‘ladi: Eni 15-20 sm hajmda uzun qilib kesilgan rangli qog‘oz bo‘laklari (3 xil rangda, har biridan 30-40 tadan), 6 ta flipchart qog‘oz, yelim.

Bumerang texnologiyasi – o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash, o‘rganilgan materiallarni saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan. Mazkur texnologik mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllariniqamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir o‘quvchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashga imkoniyat beradi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash mantiqiy shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur interfaol usuli ta’lim bilan bir qancha tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: Jamoa bilan ishlash mahorati, muomalalik, ko‘nikuvchanlik, o‘zgalar fikriga hurmat, faollik, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish, o‘zini xolis baholash.

«Fikriy hujum» metodi. Bu metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonida faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yechishga o‘rgatish

uchun xizmat qiladi. Ushbu metodning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulot (bahs)ning xar bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim oluvchilarning mashg‘ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi. «Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog‘ida ta’lim oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg‘ulot bir soat tashkil etilishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o‘qitilgan dars shunday kechadiki, bu jarayonda birorta o‘quvchi chetda qolmaydi, ya’ni ular ko‘rgan, bilgan, o‘ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, O‘quvchilarda fanga oid tasavvurlarini shakllantirish, asosiy tarixiy faktlarni yaxshi o‘zlashtirish va ular to‘grisida aniq tushuncha hosil qilishlarida, vaziyatni tahlil qilish, baholash, munosabat bildirishda pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik didaktik asoslari (monografiya). - Toshkent: “Fan”, 2005, -130 bet.

2. Bikbaeva N.U. va boshq. Matematika 2. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 2007.- 208 bet.

3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi.- Toshkent, TDPU nashriyoti, 2006.- 98 bet.

BIOLOGIYA VA KIMYO FANINI O‘QITISHDA “REZYUME” INTERFAOL TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.

Jabbarova Dilafruz Urganch shaxri
12-sonli maktabning
Kimyo fani o‘qituvchisi
Ro‘zmetova Muqaddas Bog‘ot tumani
31- son maktab biologiya o‘qituvchisi.

Annatotsiya: Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Kalit so‘z: Pedagogik, axborot, ta’lim, fikr, jamoa, siyosati, flomaster,rangli qalam.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Texnologiyaning tavsifi: Bu texnologiya murakkab,ko‘p tarmoqli,mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yola mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. **Texnolgiyaning maqsadi:** O‘quvchilarni erkin, mustaqi, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga,fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishga o‘rgatish. **Texnologiyani qo‘llanilishi:** Ma’ruza darslarida(imkoniyat va sharoit bo‘lsa), semenar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka (yoki kichik guruhlar ajratilgan tartibda o‘tkazish, shuningdek uyga vazifa berishda ham qo‘llash mumkin. **Mashg‘ulotda foydalanadigan vositalar:** A-4formatdagi qog‘ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar. **Mashg‘ulotlar o‘tkazish tartibi:** O‘qituvchi o‘quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi va har bir kichik guruhga qog‘ozning yuqori qismida yozuvi bo‘lgan, ya’ni asosiy muammo, undan ajratilgan o‘quv muammolari va ularni yechish yo‘llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi.

Har bir guruh a’zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o‘z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar.

- Kichik guruh a’zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o‘qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi.
- O‘qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so‘rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so‘ng taqdimot guruhi o‘z xulosasi bilan tanishtiradi;
- O‘qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so‘ngra mashg‘ulotni yakunlaydi. **Ilova (misol tariqasida)**

O‘quvchilar billimini nazorat qilish							
Neft		Tabiiy gaz		Toshko‘mir		Yangi energiya turlari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa:							

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tolipov O‘.,No‘monova N.Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnalogiyalar.G‘G‘ Xalq ta’limi.-Toshkent,2002.-N 3.23-29b.
2. Zunnunov A.,Maxkamov U., Didaktika (Ta’lim nazaryasi).O.O‘Yu uchun qo‘llanma.-Toshkent.Sharq,2006.-132
3. Begmatov U.E.Umumiy o‘rta maktablarda kimyodan darsdan tashqari ishlarni dars bilan boqlashning nazariy-metodologik asoslari.Diss...kand.ped.nauk.T.2004.- 152 .

“ONA TILI DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH VA NUTQ O‘STIRISH”

Dilnoza Jabboraliyeva
To‘raq’org‘on tumani 24-maktab o‘qituvchisi
Telefon nomer:+998939230724

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilar shaxsini shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga hos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek muallif bugungi kundagi manbaalarga qo‘llash mumkin bo‘lgan nazariyalar va interaktiv usullsri bilan tanishtirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: morfologiya, gramatika, so‘zlarni morfologik tahlil qilish.

Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida “ona tili, o‘qish bolalarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omilidir” deyiladi. Bu vazifalar Grammatik mavzularni o‘rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug‘aviy -Grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili fani o‘quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Tilni bilish uning Grammatik qonun–qoidalarini, ta’rifini o‘zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya’ni fikrni og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Tilning lug‘at boyligini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishi uchun ona tili darslarida so‘zlar va ularning ma’nolari quyidagicha tanishiriladi.

1. O‘quvchilarni notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirish.
2. O‘quvchilarni so‘zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish.
3. O‘quvchilar tilida kam qo‘llanadigan so‘zlar ma’nosi ustida ishlash.

Ona tilini o‘rgatish natijasida o‘quvchilarda o‘z fikrini Grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to‘g‘ri yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o‘zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so‘zlarni o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi haqidagi (Grammatik, ya’ni morfologik va sintaktik); so‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasalish usullari haqidagi (so‘z yasalishiga doir); so‘zlarning leksik - semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o‘zbek tilining to‘g‘ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, Grammatik, fonetik, so‘z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganish uchun tilni ongli egallashga va o‘quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo‘ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o‘quvchilar so‘zni tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, so‘zda tovushning ma’noni farqlashdagi ahamiyatini to‘g‘ri tushunishga imkon beradi.

Bilimlarni o‘zlashtirishda didaktik talablardan biri bilimlarni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganini muntazam tekshirib va baholab boorish hisoblanadi. Tekshirish o‘quvchilarning bilim sifatlarini, shakllantirilgan malakalardan qanchalik foydalanishini aniqlashni ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida o‘quvchilarning yangi materialni o‘rganishga tayyorligini aniqlashga imkon beradi. Lug‘at ishida so‘zning ma’nosi, talaffuzi va imlosi e’tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o‘quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o‘zgalar nutqini anglashlarini ta’minlashdir. Buning uchun o‘qituvchi ona tili darslarida qo‘llangan har bir so‘zning va ta’limiy jarayonlarda: ekskursiya, o‘zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so‘zlarning ma’nosiga e’tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.

Tilning lug‘at boyligini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so‘zlar va ularning ma’nolari quyidagicha tanishtiriladi.

1. O‘quvchilarni notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirish.

O‘quvchilar darslikdagi so‘z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo‘lishi mumkin. Bu so‘z yangi paydo bo‘lgan so‘z bo‘lmasa ham, o‘quvchi uning ma’nosini bilmaydi, demak, o‘quvchi uchun yangi so‘z hisoblanadi. Masalan, 1-sinf “Ona tili” darsligida xabib (do‘st) sarkarda (qo‘mondon, lashkarboshi), zeb (bezak, ko‘rk, husn) kabi so‘zlarga duch keladilar.

Bunday so‘zlarning ma’nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo‘li bilan, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar bilan izoh berish yo‘li bilan, gap tuzish orqali ma’nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish mumkin.

2. O‘quvchilarni so‘zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish.

O‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zlarning bir ma’nosini tushunsa, boshqa ma’nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so‘zlarning hamma ma’nolarini birdaniga o‘zlashtirib ololmaydilar. Ularning ma’nosini o‘zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1-2 sinflarda o‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zning bir-ikki ma’nosi bilan tanishsa, 3-4 sinflarda yana boshqa ma’nolarini bilib oladi.

3. O‘quvchilar tilida kam qo‘llanadigan so‘zlar ma’nosi ustida ishlash.

Adabiy tilga oid ba’zi so‘zlar o‘quvchilar nutqida kam qo‘llanadi. Bu so‘zning ma’nosini o‘quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o‘rnida oddiy so‘zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so‘zlarni qo‘llaydi. O‘qituvchi ularni kitobi so‘zlar almashtirish uchun nutqda to‘g‘ri qo‘llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur. Masalan, jim-tinch-osuda-osoyishta, yurakdan-dildan, soat strelkasi- soat minlari kabilar. So‘zlarning qo‘llanishi faollashtirish uchun yozma ishlar o‘tkazilayotganda ham o‘quvchilar e’tiborini ayrim so‘zlarni boshqasi bilan almashtirishlariga qaratiladi. 1-sinfda rasmlar asosida og‘zaki hikoya tuzayotgan o‘quvchilarning nutq birliklari bir- biridan farqli bo‘lishi, biri ikkinchisining so‘zini qaytarmasligi talab qilinadi. Masalan, Shirinsuxan- shirin so‘z, zilol suv-tiniq suv, kichik- mo‘jaz, nafis- nozik, tanbeh berdi – dashnon berdi, nasim- tongi yel (shamol kabilar).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Sh. M. Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent 2016 yil. – 13-14 betlar
2. R. Mavlonova “Pedagogika”. O‘qituvchi 2001 yil.
3. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
4. Elektron manbaa resurslari:
5. WWW.ZIYONET.UZ
6. WWW.PEDAGPG.UZ

YANGI XUSUSIY MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA YANGICHA TA'LIM-TARBIYA!

New Education in New Private Preschools!
Muallif: Jakbarova Oyazim Mutalipovna
Andijon tuman iqtisodiyot va transport
KHK maxsus fan o'qituvchisi. E-mail: oyazimm20@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada Maktabgacha ta'lim muassasasi yoki bog'cha tarbiyalanuvchisi bo'lgan yoshidagi bolalarni tarbiyalashdagi eng muhim fazilatlarni qanday o'stirish va rivojlantirish ko'rsatib o'tilgan. Maqolada muallif o'z fikrlarini ilmiy dalillar va psixologik isbotlar orqali ifodalagan.

Abstract: This article shows how to develop and improve the most important qualities in the upbringing of children of preschool age or kindergarten age. In the article, the author expresses her views through scientific evidence and psychological evidence.**Kalit so'zlar:** ta'lim- tarbiya, yosh xususiyati,bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilari.

Maktabgacha ta'lim muassasasi yoki bog'cha tarbiyalanuvchisi bo'lgan yoshidagi bolani tarbiyalashdagi eng muhim fazilat bu- unga nisbatan zo'r ishonch va bolaga nisbatan katta talabchanlikdir. Bola oldiga o'z yoshiga mos bo'lgan eng yuqori talablarni qo'yadi va bunda uning insonga va shu bilan birgalikda atrofdagi barcha yaqinlariga nisbatan chuqur hurmati ifodalanadi. Ushbu jarayon bilan boladagi eng yaxshi tomonlarini rejalashtirish, boshqara olish va ushbu fazilatlarni yuzaga chiqarish kabi yaxshi natijalarga ega bo'ladi.

Bolani bir qancha usullar orqali tarbiyalasa, o'qitsa, o'rgatsa lekin biz kutgandek u samarali natijaga olib kelmasa, eski tizimdan butunlay vos kechib yangi yo'l, usul vositalarni yangidan tanlab olishimiz kerak va bola ustidagi tajribani yana davom ettirib albatta natijaga erishishimiz kerak. Bu degani bolaning ta'lim-tarbiyasida birxillik emas balki xilma-xilliklar asosiga tayanmog'imiz kerak. Bolani o'sib kelayotgan muhitida atrofidagi insonlar tomonidan to'g'ri uslub, to'g'ri muomala va eng asosiysi to'g'ri munosabatni yo'lga qo'yish bola tarbiyasi uchun eng asosiy omillar hisoblanadi.

Tarbiyachi birinchi navbatda tarbiyalanuvchilarini mehrini, ishonchini qozona olishi, ularning ota-onalari hurmatiga sazovor bo'lishi, MTMdagi hamkasblari o'rtasida obro'- e'tibor qozona olishi uchun ishning boshidan astoydil harakat qilishi lozim. Tarbiyachi o'z kasbini jon-dildan yaxshi ko'rsa, bolalarni sevsa, ularga bor mehru muhabbatini baxshida eta olsagina o'z o'rniga ega bo'lgan tarbiyachi hisoblanadi.

Tarbiyachiga maslahatlar:

1. Yuzingizdan tabassum arimasin, u bolalarni ham, ota-onalarini ham, hamkasblaringizni ham befarq qoldirmasin(unutmang tabassumingiz samimiy bo'lgandagina muvaffaqiyatga erishasiz).
2. Xushmuomala bo'ling. Tarbiyalanuvchilaringizni ismlariga "oy", "bek", "xon", "jon" qo'shimchalarini qo'shib ayting, ularni doimo sizlab ishonchini qozoning. Bolalar ishonchini oqlay olsangiz, ularni eng yaqin kishisi bo'lib qolasiz.
3. O'zingizni muntazam tarbiyalab boring. Tarbiyalanuvchilaringizni yaxshi ta'lim-tarbiya olishlarini istasangiz, doimo o'z ustingizda ishlang. Har kungi faoliyatingizni rejalashtiring, bajargan ishlaringizni kun ohirida tahlil qiling, tahlilga asoslanib o'tgan ish kuningizni baholang.
4. Guruhingiz bolalarini yosh xususiyatlarini, o'sib ulg'ayishlarini, rivojlanishlarini, ularga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunini juda yaxshi bilishingiz lozim.
5. Siz bamisoli ijodkor, xushchaqchaq aktiyor bo'lishingiz kerak. Olamdagi barcha go'zalliklarni his etib, baxra olishni bilishingiz, bolalarni ham shu go'zalliklarni ko'rib, his qilib, baxramand bo'lishiga o'rgatib borishingiz lozim.
6. Tarbiyalanuvchilaringiz dilini faqat yaxshi, ezgu hislar bilan to'ldiring.
7. Faoliyatingizning asosi maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini bayon eta olishga, jamoat joylariga o'zini tuta bilishga, o'zaro munosabatlarda "boshqariluvchi" emas, balki "boshqaruvchi" vazifasini bajarishga o'rgatish, kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirib maktab ta'limiga tayyorlab berishdan iborat. Siz bolalarda ona Vatanimizni sevish, unga sodiq bo'lish kabi xislatlarni tarbiyalay olishga urinishingiz kerak.

8. Eng yaxshi tarbiyachi qanday bo‘lishi kerakligi haqida uzoq o‘ylab mustaqil mulohaza yuriting va ana shunday biror malakali tarbiyachiga o‘xshashga harakat qiling.

MTMda bolalarga ta’lim-tarbiya berishning hozirgi zamon talabi har bir bola bilan yakka holda ish olib borib, ularning qiziqishlarini erkin faoliyatlari asosida sinchiklab o‘rganib chiqish darkor. Undan keyin yakka tartibda suhbat uyushtirish ham bola ruhiyatini o‘rganishda yaxshi natijalarni bera oladi. . So‘ng kuzatuv, tahlil va suhbat natijalarini birlashtirib tarbiyachi bolalarni kelajakdagi kasbiy tayyorgarliklari uchun yangidan-yangi rejalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. MTT sharoitidan va amalga oshira olish darajasidan kelib chiqib mashg‘ulot xonasining o‘zini kasb turlari bo‘yicha bo‘lish va bo‘lingan yangi xonachalarni shu tanlangan kasb turlari bo‘yicha jihozlash, bolalarni shu jihozlardan unumli foydalana olishi bo‘yicha ishlarni tashkillantirish tarbiyachilarimiz oldiga qo‘yilgan bugungi talablardan hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya tizimidagi eng birinchi maqsadimiz ham bizning kelajagimiz bo‘lgan bolalarni har tomonlama- aqlan ruhan, ma’nan, jismonan rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash va albatta ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarining hozirdan sinchini bolalar tafakkurida qurib bitkazish, ta’lim-tarbiya berish jarayonini ota-onalar bilan birgalikda rejalashtirib, reja asosida faoliyat yuritishimizdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xorazm PXQTMOHM “Psixologiya, pedagogika, menejment, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi tomonidan taqdim qilingan ma’ruza . Muallif: Axmedova Maryam-Xorazm, 2017-yil
2. Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiya: tahlil, ta’rif, mulohaza. – T.: Ma’rifat, 1998, 24 iyun. 24.
3. Sayidahmedov N., Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999.

SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA GRAMMATIK – ORFOGRAFIK BILIMLARNI AMALIY O‘ZLASHTIRISH

Jalilova Lobarxon Yusubaliyevna
Farg‘ona viloyati Bog‘dod tumani
21-son umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998993964956

Annotatsiya: Ushbu maqolada savod o‘rgatish davrida grammatik-orfografik bilimlarni amaliy o‘zlashtirish haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: propedektiv mashqlar, grammatik tushuncha, orfografik qoida.

Savod o‘rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy o‘zlashtira boradilar, ya’ni ularga mavzu tushuntirilmaydi, nazariy ma’lumot berilmaydi. Bolalar og‘zaki va yozma nutqni o‘zlashtirish va yozma mashqlarni bajarish bilan o‘quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o‘rganiladigan mavzularni o‘zlashtirishga tayyorlanadilar.

Savod o‘rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Omon, Tolib, Lola, Naima kabi juda ko‘p ismlarni o‘qidilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o‘zlashtira boradilar. Bu bilan ular keyinroq kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o‘zlashtirishga tayyorlanadilar.

Til-dil, olti-oldi kabi so‘zlarni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o‘zlashtirishga, son-sana, gul-gulchi-guldon-gulzor, bog‘-bog‘bon kabi so‘zlarni o‘qishni mashq qilish esa bolalarni “O‘zakdosh so‘zlar” mavzusini o‘zlashtirishga tayyorlaydi.

Propedevtik mashqlar tizimi boshlang‘ich sinflar grammatika va imlo dasturining bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma’lum nutq tajribasi, til qoidalarini, so‘zni, uning tarkibi va yasalishini, boshqa so‘zlar bilan bog‘langanda o‘zgarishini kuzatish tajribasi to‘plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o‘quvchilar nazariy umumlashmalarni o‘zlashtiradilar, ular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalari shakllanadi. Gap ustida ishlash, fikr almashish, aloqa-aralashuv gap vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun ham gapni o‘qishga, gap tuzishga, gap mazmunini aniqlashga, gapni to‘g‘ri yozishga oid amaliy bilimlar savod o‘rgatish davridan boshlab shakllantiriladi.

O‘quvchilarda nutq, uning og‘zaki va yozma shaklida bo‘lishini nutqning gaplardan hosil bo‘lishi va gap haqida amaliy tushuncha darslikdagi mazmunli rasmlar asosida hosil qilinadi. Buning uchun o‘qituvchi rasm yuzasidan 3-4 so‘zli savollar tuzib keladi. O‘quvchilar javobidan nima hosil bo‘lgani (hikoya, og‘zaki nutq) aniqlanadi. So‘ng o‘qituvchi xattaxtada hikoyaning nusxasini chizilganini aytadi. O‘quvchilar nusxalarni kuzatadilar.

O‘qituvchi birinchi nusxa 1-berilgan savolning javobi ekanini aytadi. So‘ngra o‘quvchilarga nechta savol berilgan va nechta javob olinganini aniqlash topshirig‘i beriladi. Ularga “Chiziqning boshi nima uchun burchakli? Oxiriga nima qo‘yilgan?” kabi savollar bilan murojaat qilinadi. Ularga “3 ta savol – 3 ta gap berilgan edi, shuning uchun 3 ta javob – 3 ta gapning nusxasi chizilgan” deyishadi. O‘quvchilarning javobini hisobga olgan holda gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan ko‘rsatilishi, oxiriga gapning tugaganligini bildiruvchi tinish belgisi-nuqta qo‘yilgani tushuntiriladi. O‘quvchilarning javobini tartiblashtirib va to‘ldirib, quyidagicha xulosa chiqariladi. Demak, nutqimiz gaplardan tuzilgan ekan. Nutqda 2, 3, 4 ta va undan ham ko‘p gap bo‘ladi. Gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan belgilanadi, gapning tugagan joyiga nuqta qo‘yiladi.

Navbatdagi darslarda gapning boshqa xususiyatlari o‘tilayotgan mavzu va rasmlarga bog‘liq holda o‘rgatib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish
2. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o‘qish darslari.
3. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARSLARNI QIZIQARLI VA SAMARALI TASHKIL ETISHDA INTEGRATSIYALASHGAN USULLARDAN FOYDALANISH.

Jalolova Nasibaxon Orifjonovna
Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tuman
XTB ga qarashli 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim
maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.
+998943049482
Jalolova@mail.ru

Annotatsiya: Bu mavzuda o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash,fanlar aro bog‘lanish ,ijodkorlik,izlanuvchanlik boshqaruvchanlik kabi bir qator sifatlarini shakllantirish va bo‘limlar yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Kalitso‘zlar: Integratsiya,fanlararo bog‘lanish,taqdimot,faollik,guruhlar,interfaol usullardan samarali foydalanish.

Boshlang‘ch sinflarda o‘qish fanilarida ma’lum bir bo‘lim yuzasidan muntazam ravishda “Bo‘lim yuzasidan takrorlash” yoki “Otilganlarni mustahkamlash” mavzulari o‘tkaziladi. Bu mavzularni o‘qituvchi tomonidan aniq bir maqsad asosida rejali tashkil etilsa,o‘quvchilar har bir bo‘lim mavzularini mukammal o‘rganishga intiladilar.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rag‘batlantirishni yaxshi ko‘rishlarini, ularda o‘yin faoliyatlariga bo‘lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda bu mavzularni **“Integratsiyalashgan”**usul asosida tashkil etilsa yanada samarali va yaxshi natijaga erishish mumkin.Bu usulni o‘z tajribam asosida muntazam ravishda faoliyatim davomida qo‘llab kelmoqdaman.Bu usullarni boshqa fanlarda ham qo‘llash mumkin.

Sinf o‘quvchilarini o‘quvchilar soniga ko‘ra bir necha guruhlarga turli usullar orqali bo‘lib olnadi.Guruh o‘quvchilarini fan nomlari bilan nomlanadi.Masalan:**”Matematika”, “Ona tili”, “Musiqa”,”Tasviriy san’at”, “O‘qish”,”Atrofimizdagi”** olam kabi guruhlarga bo‘linadi. Masalan 2- sinf o‘qish fanidan **”Ertaklar –yaxshilikka yetaklar”** bo‘limi uchun quyidagicha tashkil etiladi.

1. **O‘qish guruhi** - Eng yoqtirgan mavzusi asosida sahna ko‘rinishi yoki “Zanjir” usulida so‘zlab beradi.(Qarg‘a bilan Tulki masali)
2. **Ona tili guruhi**- Masal asosida 2-3 ta gap tuzadilar, tuzgan gaplarini tahlilini qiladilar. Gapning asosini, ikkinchi darajali bo‘laklarini,yoki so‘roqlari asosida shaxs va narsaning nomini, belgisini,sanog‘ini harakatini bildirgan so‘zlarni aniqlaydilar.
3. **Matematika guruhi**-Masal qahramonlari asosida harakatga doir masalalar yoki misollar tuzdilar va yechimini taqdimotda asoslab beradilar.
4. **Odobnoma guruhi**-Masal qahramonlarining salbiy va ijobiy fazilatlarni aniqlaydilar,maqollar, hikmatli so‘zlardan masal mazmuniga mos ravishda topadilar.
5. **Tasviriy san’at guruhi**-Masal asosida qahramonlarni aks ettiruvchi ijodiy ishlarni namoyish etadilar.Masalan Qarg‘a va Tulkining haykalini plastlin yordamida yasaydilar,rasmlarini chizishlari,masal xulosasiga ko‘ra fikrlarini namoyish etishlari mumkin.
6. **Atrofimizdagi olam guruhi**-Qarg‘a va Tulkining tabiatda tutgan o‘rni, oziqlanish tartibi,yashash jarayoni,tuzilishi, turlari haqida ma’lumotlarni beradilar.

Bu usuldan foydalanish orqali quyidagi natijaga erishish mumkin.

1. Dars qiziqarli va baxs munozaraga boy bo‘ladi.
2. Dars davomida barcha o‘quvchi o‘z guruhi uchun mas’uliyat bilan yondashishga harakat qiladi.
3. Fanlararo bog‘lanadi.
4. O‘quvchilar doimo bo‘limlar bo‘yicha mavzularni mukammal o‘rganishga harakat qiladilar(chunki keyingi darsda qaysi fan guruhi bo‘lishlaridan qat’iy nazar faol bo‘lishga intiladilar.)
5. O‘rtoqlariga nisbatan hurmat shakllanadi.
6. O‘quvchilarda izlanuvchanlik,topqirlik,ijodkorlik,guruhni boshqara olish,ahillik,o‘zgalar fikrini tinglash,xulosa chiqarish,ma’lumotlarni to‘plashga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantiruvchi sifatlarni hosil qilishga erishish mumkin.
7. O‘quvchilar Bo‘lim yuzasidan takrorlash”, ”O‘tilganlarni mustahkamlash” mavzulariga

o‘zlari uyda ham mustaqil tayyorgarlik ko‘rib keladilar.

Bu kabi natijalarga erishish uchun o‘qituvchidan alohida mahorat talab etiladi.Darsni tashkil etish rejasini oldindan tuzib olinsa yuqorida aytilgan natijalarga erishish mumkin.Integratsiyalashgan usulni ko‘proq mana shunday darslar davomida qo‘llab borilsa, o‘quvchilarning o‘zida ham ko‘nikma hosil bo‘ladi.O‘qituvchi guruhlardagi o‘quvchilarning yutuq va kamchiliklarini ham aniqlab oladi.Integratsiyalashgan usul metodidan to‘g‘ri foydalanilsa albatta o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi.

Adabiyotlar:

1.”Mana buyuklar” kanali
2. “Ona tili o‘qitish metodikasi”

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH VA ONA TILI FANLARIDAN UYG‘UNLASHGAN DARSLARNI TASHKIL QILISH

Jangirova Shahzoda Abdikodirovna
Surxondaryo viloyati Denov tumani
26-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998(91)5147936

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarini o‘tishda uyg‘unlashgan darslarni tashkil etishning yo‘llari, usullari, bu borada o‘qituvchilarning ijodkorligi, samaradorlikka erishishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘qituvchi, uyg‘unlashgan dars, bilim, ona tili, o‘qish, samaradorlik, usullar, kitobxonlik, barkamol shaxs*

“…o‘quvchi fandan fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi,
birini ko‘rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi…”
Abu Rayhon Beruniy

O‘qituvchi – bu kelajakning bunyodkori. Shunday ekan, kelajagimizning poydevori bo‘lgan yosh avlodni asrimizning chin ma’nodagi “ega”lari – “bilimdon”lari – yetuk shaxslar qilib tarbiyalash “bunyodkor”lar qo‘lida.

Bugungi kun o‘qituvchisidan o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga yo‘llay olish, ta’lim jarayonida noan’anaviy metod va usullardan foydalanish, ta’limda samaradorlikka erisha oladigan yangi g‘oyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida beriladigan bir soat – 45 minutlik dars qaysidir ma’noda butun sinf o‘quvchilarining natijadorligiga erishish uchun oz vaqt hisoblanadi.(ayniqsa boshlang‘ich sinflarda) Ammo mahoratli pedagog-ustoz har bir o‘tayotgan darsini qiziqarli, shiddatli bilimlar bahsiga aylantirishi va o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan mavzuni ham tez, oson o‘rgatishi mumkin. Biz bilamizki, bilim – bu ma’lumotlarni qayta-qayta takrorlash, mustahkamlab borish jarayonida hosil bo‘ladi. Agar biz o‘quvchiga mavzuni fanlararo bog‘lab tushuntirsak, bilim sifati yanada ko‘tariladi.

Boshlang‘ich sinflardagi ona tili va o‘qish darslarini uyg‘unlashgan holda o‘tilishi o‘quvchining fanni o‘zlashtirishidagi imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. O‘qituvchi bu fanlardagi mavzularni mohirlik bilan, turli qiziqarli topshiriqlar bilan, fanlararo bog‘lab o‘quvchiga yetkaza olsa, unda o‘quvchi ma’lumotlarni o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘z ona tiliga qiziqish, kitob o‘qishni sevish kabi sifatlarni ham shakllantiradi. Keling, buni misollarda ko‘rib chiqamiz.

1-2- sinflarda ona tili fanidan so‘z va uning ma’nolari (shaxs, narsa, belgi, sanoq, harakat) atamalarsiz o‘rgatiladi. O‘qituvchi dars davomida shu mavzularni o‘quvchilarga tanishtirish bilan birga o‘qish darsida o‘tilgan she’r yoki hikoyadagi so‘zlarni ma’nolariga qarab ajratishni ko‘rsatishi mumkin. Bu yo‘l orqali o‘quvchilar ham ona tili, ham o‘qish darsi bo‘yicha egallagan bilimlarini mustahkamlab oladilar.

Masalan: 2-sinf o‘qish darsi “Tuya, fil va olmaxon” ertagi o‘tilganda, ona tiliga mos quyidagi topshiriqlarni berishimiz mumkin. (topshiriqlar har bir guruhga alohida beriladi)

1) ertakni o‘qing va ertakdan nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni toping
(nima? –tuya, fil, olmaxon, yo‘l, yer, urug‘, vaqt, o‘ra, g‘alla, hayvon,…)
2) ertakni o‘qib, ertak matnidan harf birikmali so‘zlarni toping
(birmuncha, pishdi, saqlash, shunday,…)
3) ertakdan harakatni bildirgan so‘zlarni aniqlang
(so‘rashibdi, va’da qilibdi, buyurdi, kelmabdilar,…)
4) ertak qahramonlarini yozing va tovush tomondan (fonetik) tahlil qiling

(Tuya – 4 ta tovush, 4 ta harf, 2 bo‘g‘in: tu-ya; unli – u, a; undosh – t, y; jarangli undosh - y; jarangsiz undosh- t)

2-sinf ona tili darsi “Nutq. Matn” haqida ma’lumot berayotganda o‘qish kitobidagi o‘rganilgan mavzular yuzasidan matn yaratish topshirig‘i bersa bo‘ladi. Masalan: “Kuz” mavzusida matn yozish uchun Eson Rahimovning “Kuz fasli” she’ri o‘qib beriladi. Shoir she’rda kuz haqida qanday ma’lumotlar bergani tahlil qilinadi va unga o‘zi ham qo‘shimcha fikrlar bilan boyitib

matn tuzish aytiladi.

Kuz

Oltin kuz fasli kirib keldi. Daraxt yaproqlari sarg‘aya boshladi. Tevarak-atrof zangori tusga kirdi. Osmonda turnalar davra qurib ucha boshladi. Dalalar va bog‘larda ishlar qizg‘in. Bog‘bonlar bog‘larda g‘arq pishgan mevalarni terib olishmoqda. Bu mevalar elimiz dasturxoniga yetkazilib beriladi. Dehqonlar esa dalalardagi hosillarini yig‘ishtirib olishmoqda. Kuz fasli biz uchun ham sevimli fasl. Chunki kuz faslida yangi o‘quv yilini boshlaymiz...

(O‘quvchi matn tuzganda qaysi fikrni she’rdan, qaysi jumlani o‘zi tuza olganini ham aytib beradi)

Bola psixologiyasida shunday xususiyat borki, u bir xillikdan tez zerikadi, vaziifalarni almashtirib tursangiz, topshiriqlarni to‘liq uddalashiga erishish mumkin. Boshlang‘ich sinflarda shu kabi uyg‘unlashgan darslarni o‘tkazib tursak, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi rivojlanadi. Ona tilimiz qoidalarini oson o‘zlashtiradi, o‘qigan ertak va hikoyalrini mazmunli qayta hikoya qila oladi, insho va bayon yozish ko‘nikmasi, kitobxonlik madaniyati shakllanadi.

Darslarda qo‘llanayotgan har bir usul va metodlarimiz samaradorlik kaliti bo‘lsagina, o‘qituvchi o‘z ishining “usta”si hisoblanadi. Qolaversa o‘quvchining barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi mana shu kabi harakatlarimizga bog‘liq ekanligini unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent -2011
2. M.Shodiyeva. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv Toshkent-2014
3. K.Qosimova Ona tili o‘qitish metodikasi Toshkent-2009 70-b
4. T.G‘afforova. 2-sinf O‘qish darsligi Toshkent- 2018
5. K.Qosimova. 2-sinf Ona tili darsligi Toshkent- 2018
6. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali 2020-yil 4-son 6-b
7. www.ziyonet.uz

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA MANTIQIY TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Jangirova Ozoda Abdiqodirovna
Buxoro viloyati Buxoro tumani
35-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998(91)4616203

Annotatsiya: *Ushbu maqolada matematika fani haqida ma’lumot, boshlang‘ich sinf matematika darsida mantiqiy topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati, dars jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan topshiriqlar keltirib o‘tilgan. Xalqaro baholash tizimiga tayyorgarlik haqida to‘xtalgan.*

Kalit so‘zlar: *Matematika, ta’lim, mantiqiy topshiriqlar, tafakkur, boshqotirma, darslik, “SEAMO” xalqaro olimpiadasi*

“Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so‘rasangiz,
farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman.
Shavkat Mirziyoyev

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratilyapti. Bu esa yurtimiz kelajagi yo‘lida qilinayotgan samarali ishlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining ta’lim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilyapti. Bu islohatlar zamirida etuk, barkamol, har tomonlama mukammal yosh avlod vakillari – kelajagimiz egalarini jahondagi ilg‘or mamalakatlar yoshlari bilan raqobatlasha oladigan qilib ta’lim-tarbiya berish maqsadi ko‘zda tutilgan.

Ta’limni samarali tashkil etish bugungi kun o‘qituvchilariga bir qator ma’suliyatlarni yuklamoqda. Zamon bilan hamnafas bo‘lib, so‘nggi yangiliklar asosida berib borilayotgan bilim ertaga albatta o‘z natijasini beradi. Boshlang‘ich ta’lim barcha bilimlar uchun ilk qadam tashlanadigan davr bo‘lib, unda o‘quvchining dastlabki qobiliyat va intilishlari namoyon bo‘ladi. Matematik qobiliyatga ega o‘quvchilar ham aynan ana shu davrda aniqlanadi. O‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalarning shakllanishida boshlang‘ich ta’lim muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich ta’limda matematika fani o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobilyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o‘z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llash hamda ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Matematika jozibador fan bo‘lib, u barcha fanlar eshigining kalitidir. Matematika fani insonning aqlini o‘stiradi, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlagan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, eng muhimi uning tafakkurini kengaytiradi.

Endi matematika darsliklariga to‘xtalsak. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf matematika darsliklari ancha murakkablashib, turli mantiqiy topshiriqlar, boshqotirmalar bilan boyitilib borilmoqda. Darslikda berilgan mantiqiy topshiriqlar o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, tasavvurlarini kengaytirishga, uddaburonlik va epchillikka, berilgan vazifani tez va oson uddasidan chiqa olishga, mustaqil qaror qabul qila olishga undaydi.

Xo‘sh, bu mantiqiy topshiriqlarni bajartirish bizga nima beradi? O‘quvchidan qanday natija olamiz? Bizga ma’lumki, mamlakatimiz bir nechta xalqaro baholash tizimlari (PISA, PIRLS, TIMSS, SEAMO) orqali yoshlarimiz bilimlarini sinovdan o‘tkazish arafasida turibdi. Bu baholash tizimlari natijasi esa yurtimiz ravnaqi uchun juda muhim sanaladi. Bu xalqaro baholash dasturlarining so‘nggi marta o‘tkazilgan sinov-topshiriqlariga e’tibor qaratsak, matematik bilimlarni aniqlashda o‘quvchining mantiqiy masalalarni to‘g‘ri tahlil qilib, yecha olishi asosiy o‘ringa qo‘yilgan.

“SEAMO” - Janubi-Sharqiy Osiyo Matematika olimpiadalaridir. Mazkur olimpiadada 1-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan o‘quvchilarning mantiqiy misol va masalalarni yecha olish qobiliyati tekshiriladi. Bu kabi xalqaro baholash tizimlarida yuqori natijalarga erishish uchun matematika darslarida o‘quvchilarga o‘ylab, tahlil qilib, tafakkurlarini ishga solib bajaradigan mantiqiy topshiriqlar berib borishimiz kerak. Bu ishlarni 1-sinfdan boshlasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hozirda faqat 3-sinf Matematika darsligida shu kabi mantiqiy topshiriqlar berilgan. Mazkur darslikda berilgan mantiqiy topshiriqlarning ba’zilarini keltirib o‘tmoqchiman.

1. Qanday qilib 3 litrli va 5 litrli idishlar yordamida hovuzdan 1 litrli suv olish mumkin? (avval 3 litr suv olib, 5 litrli idishga solamiz, so‘ngra yana 3 litr suv olib, shu 5 litrli idishga solib to‘ldirsak, idishimiz tagida 1 litr suv qoladi)

2. Toshbaqa ertalab 17 metrli chuqurlikka tushib ketdi. Har kuni kunduzi 5 metrga ko‘tariladi, kechasi esa 2 metrga siqg‘alib pastga tushadi. Toshbaqa necha kunda chuqurlikdan chiqadi? (demak, 5-2=3 1 kunda 3m chiqadi, 12:3=4, 4 kunda 12 m ga chiqsa, 5-kuni kechga chuqurdan chiqib ketadi, 12+5=17)

Mantiqiy topshiriqlarni 1-2-sinflarda ham berib borilsa, o‘quvchi keyingi ta’lim jarayonlarida qiynalmaydi. 1-2-sinf matematika darslarida quyidagi mantiqiy topshiriq va boshqotirmalarni berish mumkin:

1. Qachon 3ni ko‘rib, 15 deymiz? (soatda)

2. Agar 1 ta tuxum 10 minutda pishsa, 3 ta tuxum necha minutda pishadi?
(10 minutda)

3. Davronnig tug‘ilgan kuniga 10 ta bola keldi. Ulardan 4 tasi qizlar bo‘lsa, u holda bu bayramda nechta o‘g‘il bola bor? (10-4=6, 6+1=7 ta o‘g‘il bola)

4. Qaysi figuraning boshlanishi ham, oxiri ham yo‘q? (aylananing, halqaning)

Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishda mantiqiy topshiriqlar berib borish o‘quvchini mustaqil fikrlashga, o‘z kuchiga ishonishga va hayotda o‘z o‘rnini topa olishiga xizmat qiladi. Barcha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan masala va misollardan har bir darsida foydalanib borsa, biz ta’lim bergan o‘quvchilar kelajakda har qanday sohada Vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shadigan yetuk kadr bo‘lishiga ishonaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tal’at G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent -2011
2. Matluba Shodiyeva. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv Toshkent-2014
3. F.Baxromov va boshqalar. Ming bir boshqotirma. Toshkent-2019 23-b
4. S.Burxonov. 3-sinf Matematika darsligi Toshkent- 2019
5. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali 2019-yil 6-son 21-b
6. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali 2020-yil 2-son 10-b
7. www.ziyonet.uz

AL'BERT EYNSHTEYNGACHA BO'LGAN FIZIKADAGI QIYINCHILIKLAR

Jo'raeva Umida Yuldashalievna
Fizika fani o'qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
Telefon: +998972306035
Mahmudova Dilfuza Mirzaahmedovna
Kimyo fani o'qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
Telefon: +998934047913

Klassik mexanika va elektrodinamika orasidagi qarama-qarshiliklar yillar davomida kuzatilib keldi. XIX asr davomida ko'pgina atoqli fizik olimlar elektr va magnitizm haqidagi ta'limotga katta hissa qo'shdilar. Xususan Maksvell (1831 yil) elektromagnit hodisalarni N'yuton sxemalariga sig'masligini allaqachon tushungan edi. Fiziklar mexanikaning faqat o'z ichiga tezliklarni emas, balki tezlanishlarni ham qabul qiladigan tenglamalari bilan ish ko'rganlarida barcha inersial sistamalar teng huquqli bo'lar edi. Mehanikaning qonunlari Galiley almashtirishlariga nisbatan invariant edi. Lekin elektromagnit nazariyasining asosiy tenglamalari bo'lgan Maksvell tenglamalariga yorug'likning bo'shliqdagi tarqalish tezligi – universal doimiy ***c*** kiradi. Shuning uchun Maksvell tenglamalari Galiley almashtirishlarida invariant bo'lib qolmaydi. Har qanday to'lqin uzunligini elektromagnit tebranishlari - radioto'lqinlari, yorug'lik, rentgen nurlari uchun ham bu universal doimiyning qiymati bir hil bo'lib, taxminan 300 000 *km/sek* ga teng. Shunday imtiyozli sistemani tanlash mumkinki, bu sistemaga nisbatan yorug'lik doimiy o'zgarmas ***c*** tezlikda harakatlanadi (tarixan bunday absolyut sanoq sistemasini tovush tarqalishi uchun havo qanday rol' o'ynasa, elektromagnit tebranishlari uchun ham shunday rol' o'ynaydigan hayoliy muhit – qo'zg'almas efirga bog'langandir).

Yer o'zining Quyosh atrofidagi orbitasi bo'ylab 30 *km/sek* tezlik bilan harakat qiladi. Shunga ko'ra yorug'likning Yerning harakat yo'nalishi bo'ylab tezligi qarama-qarshi yo'nalishdagi tezligidan farq qilishi kerak. Ammo ko'rdikki, 1881 yilda birinchi marta Maykel'son tomonidan o'tkazilgan o'lchashlar yorug'lik tezligining uning tarqalishi yo'nalishiga butunlay bog'liq emasligini ko'rsatdi. Yorug'likning tezligi kuzatuvchining yoki manbaning tezligiga bog'liq emasligi eksperimental yo'l bilan aniqlandi. So'nggi tekshirish aylanayotgan Quyoshning qrama-qarshi tomonidan kelayotgan nurdan foydalangan sobiq sovet astronomlari tomonidan 1955 yilda o'tkazildi. Quyosh diskining bir cheti doimo bizga tomon, qarama-qarshi cheti esa teskari tomonga harakat qiladi. Lekin yorug'lik Yerga ikkala chetidan ham bir xil tezlikda etib keldi. Hatto bizga nisbatan deyarli yorug'lik tezligida yaqinlashayotgan hayoliy poezdni ko'z oldimizga keltirganimizda ham bari bir undan chiqqan yorug'lik platformada tinch turgan projektorning yorug'ligidan tezroq tarqalmagan bo'lar edi. Galiley almashtirishlaridagi tezliklarni ko'shish qonuni (I) ga xilof ravishda, yorug'lik poezd yoki platforma bilan bog'langan har qandan inersial sanoq sistemasiga nisbatan xil tezlik ($c=c^1$) bilan tarqaladi. Ta'kidlab o'taylikki, agar yorug'lik tezligi cheksiz bo'lganida edi natija o'z-o'zidan ma'lum bo'lardi: cheksizlikka qanday kattalikni qo'shsangiz ham u doim cheksizligicha qolaveradi. Shunday qilib, XX asr boshlariga kelib fizika sohasida g'alati ahvol vujudga keldi. Bir tomondan Maksvell tenglamalari ichida universal ***л*** tezlik (c) qatnashar va shuning uchun ular Galiley almashtirishlarida invariantligicha qolmas edi. Mexanikaga nisbatan to'g'ri ekanligi shubhasiz bo'lgan nisbiylik prinsipi elektrodinamikaga qo'llanilishi mumkin emasdek bo'lib qoldi. Imtiyozli absolyut qo'zg'almas sistemaning va binobarin, unga nisbatan bo'lgan absolyut harakatning bo'lishi muqarrardek bo'lib qoldi. Undan tashqari "Maykel'son tajribalariga qadar ham eksperimentning aniqlik darajasida koordinat sistemasi harakatining fizikaviy hodisalariga va ularning qonunlariga ta'siri kuzatilmaganligi ma'lum edi" – deb yozgan edi 1954 yilda Al'bert Eynshteyn. Umumiy mulohazalardan men hech qanday absolyut harakat yo'qligiga va mening vazifam faqatgina bu holni elektrodinamikadan ma'lum bo'lgan ahvol bilan moslashtrishdan iborat ekanligiga to'la ishongan edim. Al'bert Eynshteyn klassik mexanika bilan elektrodinamika o'rtasidagi chuqur qarama-qarshilikni yo'qota oldi. Buning uchun unga fazo va vaqtga nisbatan bo'lgan traditsion fikrlardan voz kechishga to'g'ri keldi. Bu barcha inersial sistemalarning teng huquqliligini (ya'ni nisbiylik prinsipini) saqlab qolish bilan birga Maksvell nazariyasining to'g'ri ekanligini saqlab qolish imkonini ham berdi.

Al’bert Eynshteyn olim sifatida fizika taraqqiyoti tarixida chuqur iz qoldirdi. U asos solgan nisbiylik nazariyasi o‘zidan oldin yaratilgan nazariyalar (masalan: N’yuton nazariyasi) dan aniqligi bilan ancha farq qilar edi. Buning uchun takomillashgan nazariya klassik fizika nazariyasidan nima bilan farqlanadi degan savolga javob berish lozim bo‘ladi. Ma’lumki, umumiy nisbiylik nazariyasi ilgarigiga nisbatan bir qancha aniqlik bilan ilgari ma’lum bo‘lmagan ko‘p hodisalarni oldindan aytib berdi va ularni topishga imkon yaratdi. Biroq klassik fizika ham ko‘p narsani tushuntiradigan va yaxshi rivojlangan nazariyadir. U, yangi nazariyani chegarali yoki hususiy holi sifatida o‘z ahamiyatini to‘la saqlab qoldi. Yangi nazariya, ish sonlar ustida borganda, ko‘pincha klassik nazariyaga tuzatish kiritadi, xolos.

Biroq hozirgi zamon fundamental fizik nazariyalarning har biri hodislarning ichki tabiatining o‘xshashligini ajoyib faktlarini ochib berdiki, bu faktlar shu vaqtgacha kishiga o‘zaro mutlaqo bog‘lanishsiz bo‘lib tuyulgan, hatto o‘z mohiyati bilan bir-biriga zid, to‘g‘ri kelmaydigan faktlar edi.

Eynshteyn nazariyasi munosabatlari bir-biriga nisbatan zarur bo‘lib ko‘rinmagan va umumiy ichki tabiati bilan bog‘lanmagan hodisalarni hozirgi zamon fizikasi ruhida birlashtirdi. Nisbiylik nazariyasining asosiy ahamiyati ham shundadir.

Foydalanilgan adabiyot:

1. R.B.Bekjonov. “Eynshteyn va nisbiylik nazariyasi”. Toshkent. 1974 yil. 94-97 betlar.

UMUMTA'LIM MAKTABLARDA FIZIKA FANINI O'QITISHDA METODLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Jumanazarova Sayyora Najimovna,
Xorazm viloyati Xiva tumanidagi
15-maktabning fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Davlatimiz musaqilikka erishgandan keyin ta'lim tarbiyaga katta e'tibor qaratildi. Hozirgi kunga kelib ta'lim tarbiyada ko'plab yutuqlarga erishildi. Zamonaviy ta'lim oldida turgan eng muhim vazifa o'quvchi shaxsining ilm olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: metod,innovatsion texnologiya,BBBmetodi,

Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim texnologiyasi, fanlarni o'qitish taraqqiyot talablariga javob bera oladigan bo'lishi lozimdir. Ta'lim jarayonida o'quvchiga iloji boricha qisqa fursatda ko'p ma'lumot yetkazib bera olish, shu bilan birga malakali kadrlar tayyorlay olish hozirgi kun o'qituvchisining oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda ta'lim usullarining, ta'lim jarayonlarining yangidan yangi modellarini joriy etish ustoz-murabbiylarimiz oldiga qo'yilgan bosh mezonlardan biridir. Albatta sinf xonasiga kirgan o'qituvchining birgina o'zi bir paytda 30 nafar o'quvchi bilan ishlayolmaydi, shuning uchun ham bu muammoni hal qilishda, biz noan'anaviy dars o'tish usullaridan foydalanamiz. Masalan: Davra suhbati texnologiyasi─ aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.Interfaol metodlardan biri "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim."metodi bo'lib, uni fizika darsida qo'llashda yaxshi natijaga erishish mumkin. Bu metod orqali muayyan mavzular bo'yicha o'quvchilar bilimini baholash va o'qituvchining o'quvchilarning nimalarga qiziqishlari, mavzuni o'zlashtirish darajalarini bilib olishga imkon beradi. Ushbu metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan ommaviy yoki guruhli ishlash mumkin. Guruh shaklida tashkil etilganda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi.

Butun dars davomida faol o'quvchilar berilgan barcha masalalarni to'g'ri va tez ishlab boradilar. Sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa, aksincha bir-ikkita masalani to'g'ri ishlay oladilar. Bu vaqtda o'qituvchi o'quvchilar bilimini baholashga qiynaladi. Quyidagi metodni qo'llash orqali bu muammoni bartaraf etish va o'quvchilarning darsga qiziqishini yanada oshirish mumkin.

O'qituvchi masala yechish darsi mavzusini e'lon qiladi. Mavzu yuzasidan kerakli fizik kattaliklar va ularning ifodalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Shundan so'ng masalalar yechish boshlanadi. 1-masalaning sharti e'lon qilinadi. Masalani to'g'ri va tez ishlagan o'quvchilar daftariga o'qituvchi baho emas, balki "N" harfli belgini qo'yadi. Keyin 2-masalani ishlashga kirishadilar. Bu masala uchun "A" harfi bilan belgi qo'yiladi. 3-masala uchun "M" harfi va h.k. Shu tariqa keyingi masalalar ishlanadi. Agar bitta o'quvchi dars davomida berilgan hamma masalalarni to'g'ri va tez ishlasa,ketma-ket ball o'rniga "namunali" so'zini hosil qiluvchi harfli belgilar qo'yib boriladi. Dars yakunida "NAMUNALI" so'zining barcha harflarini to'plagan o'quvchilarga "Fizika fanidan namunali o'quvchi" deb yozilgan rag'bat kartochkasi beriladi va "5" baho bilan baholanadi Dars davomida "NAMUNA" harflarini to'play olgan o'quvchilarga "Fizika darsida yaxshi qatnashchi" kartochkasi beriladi va "4" baho bilan baholanadilar Dars davomida 5 tagacha masala ishlay olgan o'quvchilarga "Fizika qiziqarli fan. O'z ustingizda ishlang." Kartochkasi beriladi va bu o'quvchilar "3" baho bilan baholanadilar. Bu metod "Sirli baho"metodi deyiladi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. P. Habibullayev, A. Boydedayev, A. Bahromov, M. Yo_ldosheva ―Fizikadan umumta'lim maktablari uchun darslik‖. G_afur G_ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2010.160 bet

2. B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov. Mexanika va molekulyar fizikadan laboratoriya ishlari. Aloqachi. Toshkent, 2006yil.

MAKTABDA NEMIS TILI FANINI O‘QITISHDA “QORA QUTI” METODIDAN FOYDALANISH.

Jumaniyozova Shoira Sotimboyevna
Xonqa tumani 24 –maktab
Malikova Laylo Rajabovna
Urganch tumani 15-son maktabning
nemis tili o‘qituvchilari

Annotatsiya: Dars texnologiyasi, yangi bilimlarni egallash, mustaqil ishlash texnologiyasi va boshqa). O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri “shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi”dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta’limning yangi modeli yaratildi.

Kalit so‘z: O‘quv, tarbiya, ijodkor, pedagogik, shaxs manfaati, ta’lim, ijtimoiy.

Mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimida ham chet tillarni o‘rganish bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari loyihasini ishlab chiqish jarayonida “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari talablari asoslanildi hamda dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ijobiy tajribalari va “Xorijiy tillarni bilish bo‘yicha umumyevropa kompetensiyalari”tizimi chuqur o‘rganib chiqildi. Uzluksiz ta’lim tizimida chet tillarini o‘rgatish bo‘yicha ishlab chiqilgan davlat ta’lim standartlarining ahamiyati shundaki, unda o‘quvchi-yoshlarni chet tillarda erkin muloqot qila olish ko‘nikmasini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri etib belgilangan bo‘lib,bir nechta yo‘nalishlarni qamrab olgan. Ta’lim jarayonida mazkur metodni qo‘llashdan maqsad-o‘quvchilar tomonidan mavzuni puxta o‘zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash,ularda hamkorlikda ishlash,ma’lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi. O‘quvchilar juftlikka biriktiradilar;juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so‘zlar,sanal ar,raqamlar,belgilar va x.o.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;topshiriqni to‘g‘ri bajargan guruhnining bir a’zosi o‘qituvchi rolini bajaradi va topshiriqnining yechimini yozuv taxtasiga yozadi;sinf o‘quvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharxlaydilar (tayanch so‘zlar,sanalar,raqamlar,belgilar qanday ma’noni anglatishini aytadilar);to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi o‘qituvchi rolini bajarib,juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema,jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o‘qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

MASALAN: Ustoz quti ichiga kalitni solib qo‘yib, shunday belgilarni aytishi mumkin:

- Bu narsa hammaga kerak
- Ba’zan yo‘qolib ham turadi;
- Metalldan yasaladi.

Qora quti metodining “Sirli sandiqcha” degan turi ham mavjud. Bu usuldan amaliy mashg‘ulotlarda va laboratoriya ishi darslarida foydalaniladi.

Masalan: kimyo darslarida bu usul o‘quvchilarni kimyoviy asboblar va idishlarning nomlari eslab qolishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov.I.A. Barkamol avlod − O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. −Toshkent:Sharq nashriyoti-matbaa konserni.1997.

2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

3. 1. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003 y.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRSHNING AHAMIYATI.

Jumaniyozova Sumbuloy Azadovna
Xiva tumanidagi 6-son maktab
Quryazova Zaynab Allaberganovna
Xiva tumanidagi 32-son maktabning
boshlangich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘qish darslari jarayonida o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo‘llari haqidagi tasavvurlarga aniqlik kiritadi.

Kalit so‘zi: Lug‘at, xulq-atvori, o‘zakdosh, idrok, ruhiy holat,badiiy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishida qilgan ma’ruzalarida ta’lim va tarbiya tizimi masalasiga keng e’tiborni qaratib o‘tgan edi.

Bu fikrdan ham ko‘rinib turibdiki, ta’lim va tarbiyaning yosh avlod hayotidagi roli hamda ahamiyati katta. O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishda eng qiziqarli usul, ularni kishilar, hayvonlar va ularning harakati, narsalar va ularning ko‘rinishi, sifati, kishilar ruhiy holati, xulq-atvori, kechinmalari bilan tanishtirishdir. O‘quvchilarning nutqi kitobiy va boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar bilan ham boyitib boriladi. Biroq o‘quvchilarning nutqini boyitishda ko‘proq e’tibor berish kerak bo‘lgan, tushuntirish zarur bo‘lgan masala aniqlab olinishi kerak. So‘zlarni esda qoldirishda o‘zakdosh so‘zlarni topishga ortiqcha kirishib ketilsa, bu holat o‘quvchilarning so‘zlar mohiyatini to‘liq va yaxlit holda idrok qilishlariga salbiy ta’sir qiladi. Asar ustida olib boriladigan, ya’ni boshlang‘ich sinflar, xususan, 3-sinf o‘qish dlarslarida o‘quvchilar tanishadigan har xil janrdagi asarlar ustida olib boriladigan lug‘at ishlari badiiy asarda ifodalangan g‘oya, mazmun, timsollar (boshlang‘ich sifnlarda asarda ishtirok etuvchilar, qatnashchilar deyiladi) ni tushunishga yordam bersagina samarali bo‘ladi. Uslubda nutq ustida ishlashda eng qulay omillardan biri «uslubiy mashqlar»dir. Quyida uslubiy mashqlarga misol keltiramiz.

1. “O‘g‘lini hamisha sevinch bilan kutuvchi Hilol buvi sevinganidan darhol yostiqdan boshini uzdi”.
2. “Umarali va onasi uzoq dardlashib o‘tirdilar…”
3. “Umarali singlisiga ham mehr, ham qiziqish hissi bilan tikildi. Singlisining ingichka, nozik qoshlari ostidagi shahlo ko‘zlarida mung ko‘rib, ich-ichidan dard chekdi”.
4. “Suhbat qizg‘in xususn, Umarali zo‘r ehtiros bilan gapirar edi. Keyin o‘rnidan qo‘zg‘aldi”.

O‘quvchilar o‘qituvchining taklifi bilan yuqorda ko‘rsatilgan fe’l va fe’l shakllarining o‘rniga yangi so‘zlar topib qo‘yadilar va yozuvchi Oybek nima uchun “boshini ko‘tardi” deyish o‘rniga “boshini uzdi”, “gapirib o‘tirdilar” deyish o‘rniga “dardlashib o‘tirdlilar”, “ich-ichidan qayg‘urdilar” deyish o‘rniga “ich-ichidan dard chekdi” “o‘rnidan turdi” deyish o‘rniga “o‘rnidan qo‘zg‘aldi” va “ko‘rdi” deyish o‘rniga “tikildi” fe’llari va fe’l shakllarini ishlatganining sababini o‘zlari hal qiladilar. Qiynalsalar, o‘qituvchi yordamlashadi. O‘quvchilar bu xil uslubiy mashqlarni bajrishda yozuvchi tomonidan tanlangan so‘zlar faqat fikrni aniq ifodalash uchungina emas, balki obrazlar, timsollar ichki hissiyotining eng nozik nuqtalarini tasvirlashga ham xizmat qilganligini anglab olishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu so‘zlarning hammasi ekspressiv fe’llar bo‘lib, Umarali va uning onasining ichki kechinmalarini oydinlashtirishda katta rol o‘ynagan. O‘quvchilar har xil janrdagi asarlarni o‘qish jarayonida badiiy tasviriy voqelar bilan tanishar ekanlar, o‘z tillari- o‘zbek tilining tasviriy imkoniyatlari nihoyatda boy til ekanligin chuqur tasavvur etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.
2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
3. Umarova M. O‘qish kitobi: 3- sinf uchun darslik. 3-nashri. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 216 b.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNING SHAXS SIFATIDA SHAKLLANTIRISHDA SPORTNING AHAMIYATI

Jumaniyozova Nasiba
Urganch davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi kattasi o‘qituvchisi

Avezmetova Maksuda
Urganch davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun amaliyotchi psixologlarining faoliyati va ular amalga oshirishi lozim bo‘lgan masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.Chunki bugungi kunda jamiyatning turli jabhalarida psixologlarga ehtiyojlar kuchaymoqda.

Kalit so‘zlar: Psixolog, jamiyat, ruxiyat, kasbiy etika, muomala, psixologik iqlim, jamoa,shaxs,iroda, ma’suliyat.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini jahon miqiyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning, bilimdon, ma’naviy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishiga bog‘liqdir. Bu o‘rinda inson ruhiyati qonunlarini o‘rganuvchi psixologiya fani va uning sohalari alohida ahamiyat kasb etadi. Insonni jamiyatimiz uchun to‘laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish, samaradorligini yanada oshirishda psixologiya ilmi va uning amaliyotda to‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lishi juda muhimdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganlaridek – «Yosh avlod bizning kelajagimizdir. Yosh avlodni jismonan va ruhan sog‘lom qilib tarbiyalamasdan turib, davlatimizga yetuk barkamol avlodni yetishtirib berish mumkin emas».[1]

O‘zbekiston Respublikasi istiqlolga erishganidan so‘ng qabul qilgan «Ta’lim to‘g‘risida», «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risi»gi Qonunlar, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va boshqa farmonlar tub ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va madaniy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

XXI asr buyuk o‘zgarishlar davri. Bu o‘zgarishlar eng avvalo inson tafakkuriga, uning fikrlash tarzida ro‘y berishi muqarrar. Tabiiyki, bu xolat shaxs ma’naviyati va u orqali jamiyatning ma’naviy qiyofasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Har bir yosh avlod sportda yutuqqa erishishi va davlatimizni yuksak cho‘qqilarga olib chiqishi uchun avvalo sportni nazariy jihatdan to‘laqonli bilishi uning predmeti va vazifalari, metodlari, sport faoliyati, sport mashg‘ulotlari, sport musobaqalarining psixologik tahlillari, yugurishning psixologik tasnifi, bilish jarayonlarining sport mashqlarining bajarishdagi roli, emotsional tanglik va ularni tug‘diruvchi omillar haqidagi masalalariga doir bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishi muhim ahamiyatga egadir.

Sport hozirgi zamon hayotida katta o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritib, g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarni yangi yo‘lga solib, aholini har tomonlama muhofaza qilish tadbir va choralarini amaliy jihatdan olg‘a surmoqda. Bu faoliyatlar yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan ishtiyoqlarini yanada rivojlantirmoqda.

Sport psixologiyasi – psixologiya fanining bir sohasi bo‘lib, sport faoliyati va jismoniy tarbiya sharoitida inson ruhiyatining namoyon bo‘lishi va rivojlanish qonuniyatlarini, jismoniy mashqlar va sport bilan faol shug‘ullanishlarning inson ruhiy dunyosiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi.

Sport hozirgi kunda barcha xalqlarning hayot talabi va ehtiyojiga aylanib bormoqda. Chunki u kishilarning har tomonlama chiniqishini tahminlabgina qolmay, balki ruhan tetik, ma’nan boy, ahloqan pok, yuksak madaniyatli, mustahkam irodali qilib ham tarbiyalaydi. Sport turlari xilma-xildir. Lekin ularning har biri ham kishilarda yuqoridagi xislatlarni tarbiyalash uchun sport mashg‘ulotlarida uzlyuksiz shug‘ullanish va musobaqalarda qatnashishini talab etadi.

Sport psixologiyasi umumiy psixologiya, pedagogika, fiziologiya, biologiya, anatomiya falsafa va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqdir. Hozirgi eng yuqori sport ko‘rsatgichlari sport psixologiyasi fanining izlanishi natijasidir.

[1] Karimov I.A. «Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». T, 1997 y

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda jismoniy mashqlarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati rivojlanadi. Trenirovka jarayonlari ularda yuksak sport mahoratini egallashlariga, jismonan baquvvat bo‘lishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ta’limning vazifasi jismoniy mashqlarni bajarishning turli usullarini egallashga yordamlashishdir.

O‘quvchini sportni mukammal egallashida harakat tasavvurlarini roli kattadir.

Harakat tasavvurlariga ega bo‘lmay o‘quvchi eng oddiy jismoniy mashqlarni ham bajara olmaydi. Harakat to‘g‘risidagi tasavvurlar doimo murakkab bo‘lib, u ko‘rish harakat elementlarining birligidan tashkil topadi. Uzoq davom etgan harakatlar dastlab ko‘z kuzatishlari keyin muskul harakat tasavvuri bilan bog‘lanadi.

Jismoniy mashqlar bilish jarayonlaridan iroda kuchi bilan chambarchas bog‘liqdir. Jismoniy mashqlarni bajarish odatdagi muskul harakatlaridan ortiqroq harakatni talab etadi. Ko‘p marotaba va tez-tez qaytariladigan harakatlar o‘quvchilar qobiliyatini shakllantirish va uning iroda kuchini sarf etishda muhim rol o‘ynaydi.

Diqqatni kuchaytirishdagi iroda kuchi tabiatan iroda kuchini talab etadi. U ma’lum muddat ichida tanlagan ob’ektga o‘z ehtiborini qaratishda nomoyon bo‘ladi. Shuning uchun iroda kuchi qobiliyatini tarbiyalash bo‘yicha mashqlar qilib turish kerak bo‘ladi. Bunda e’tiborni turli xil tashqi muxit qarshiliklaridan boshqa narsaga jalb etish muhim ahamiyatga ega. SHug‘ullanuvchilardan ehtiborni kuchaytirishni talab qiladigan topshiriqlarni qiyinligini hisobga olib, trener ularda iroda kuchini ham tarbiyalaydi.

Sport faoliyatini psixologik tahlil qilish masalalari ichida psixologlar diqqatini ko‘proq sport faoliyatining motivlari masalasi jalb etadi. Bir qator tadqiqotlarda bevosita motivlar mavjudligi va ularning ahamiyatli ekanligi aniqlangan. Masalan, jismoniy mashqlarda mushaklar harakatlaridan rohatlanish, estetik zavqlanish, musobaqalarga qatnashish ishtiyoqi shuningdek, sport faoliyatining o‘z motivlari ham aniqlangan. Bular sog‘lom, baquvvat bo‘lish, o‘zini himoya qila olish istagi, o‘zini mehnatga, jangovor harakatlarga tayyorlash, kelishgan, chiroyli qaddi-qomatga erishish va h.k.

Insonni sport bilan shug‘ullanishga qiziqtirishning asosiy ruhiy xossasi - ushbu sport turi bilan shug‘ullanish orqali erishiladigan qoniqish xissini hosil qilish tuyg‘usidir.

Bu bosqichda sport faoliyatining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O‘zini sport mahoratini yuksak darajada saqlab turish va undan ham ko‘p yuqori muvaffaqiyatlarga erishishga intilish.

2. O‘zining sportdagi erishilgan g‘alabalari bilan Vatanga xizmat qilish, xalqaro musobaqalarda Vatanning shon-sharafini ko‘tarish, yangi dunyo rekordlarini o‘rnatishga intilish.

3.O‘zi tanlagan sport turiga o‘z xissasini qo‘shishga intilish, uning texnika va taktikasini boyitish va yuksaltirish, o‘z tajribasini, bilimini yosh sportchilarga o‘rgatishga intilish.

Bu motivlar yorqin ijtimoiy yo‘nalganlik xarakteriga ega bo‘ladi, yahni sportchining shaxsiy motivlari ijtimoiy motivlarga bo‘ysundiriladi. Bu esa sportning tarbiyaviy ahamiyatini, shaxsning paydo bo‘lishidagi rolini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida shuni tahkidlash joizki, sport va u orqali yoshlarning ongida va ruhiyatida yangicha sifatlarning shakllantirish, sport psixologiyasi masalalari doirasida turli muammolarni yechishga yordam berish, yuksak madaniyatli va ma’naviy yetuk, xalqqa munosib vorislar bo‘lib kamolga yetishishlarining muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, Sharq, 1999.
2. Karimov I.A. «Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». T, 1997
3. Kretti B.D. Psixologiya v sovremennom sporte. M., 1980.
4. Mamatov M.M. Sport psixologiyasi kursidan mahruzalar matni. Toshkent, 1999.

ZAMONAVIY TARBIYACHINING MTTDAGI VAZIFALARI VA XALQARO TAJRIBALAR

Ozoda Jumanova
Samarqand Davlat Universiteti
Maktabagcha ta'lim fakulteti talabasi
Telefon: +998 99 096 51 63
ozoda.jumanova.99@gmail.com

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga qo'yiladigan talablar, tarbiyachining pedagogik qobiliyati, tarbiyachi imidji, tarbiyachi vazifalarining xalqaro davlatlar tajribalaridan namunalar, shaxs shaklanishida tarbiyachining o'rni, tarbiyachi faoliyatidagi kerak bo'luvchi asosiy xislatlar.

Kalit so'zlar. Tarbiyachi, qobiliyatlar, tarbiyachi imidji, profissional yo'nalish, muloqot, xalqaro tajribalar, asosiy xislatlar.

Har bir jamiyat o'zining iqtisodiy va ma'naviy ravnaqi uchun mas'uliyatli vazifani his etadigan, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdan manfaatdordir. Zero, jamiyatimiz hayotida har bir shaxs o'zining layoqatli yo'nalishlarini kashf etishi, anglashi xalq farovonligini oshirib boradi. Jamiyatga yuklatilgan ushbu vazifalarni hal qilish ko'p jihatdan tarbiyachining kasbiy salohiyati va yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo yosh avlodga bilimlarni puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-ahloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liq. Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda yana bir omilning mavjudligi, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimi hodimlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog tarbiyachilari tomonidan ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ularni ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qo'llay olish shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalarning amalga oshish jarayoni tarbiyachining pedagogik qobiliyatining qay darajada shakllanganligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi shaxs- bu tarbiyachi. Tarbiyachi – bu maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va pedagogik faoliyatda mutaxassis sifatida shug'ullanayotgan kishidir. Tarbiyachi bolalarni o'qitishi emas o'qishga boshqarib turishi, ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbarlik qilishi zarur. Ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishdagi pedagogning birinchi vazifasi – maqsadni belgilashdir. Maqsad esa pedagog faoliyatida tayanch omil bo'lib, u tarbiyachi va bolalarning umumiy mehnatini ma'lum yo'nalishga boshqarib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun qabul qilingan " Ilk qadam" davlat dasturiga muvofiq tarbiyachilar bolalarga ta'lim- tarbiya berishadi. Tashkilotdagi asosiy ta'lim faoliyati bu- mashg'ulotdir. Ushbu dastur asosida tarbiyachilar o'z qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda mashg'ulotlarning tashkiliy qismlarini olib borishlari mumkin. Shu ma'noda Mashg'ulot bu – Tarbiyachi demakdir. Dastur bizga mashg'ulotni aynan shunday tushunish imkonini va tasavvurini beradi. Tarbiyachi tashkilotdagi barcha ta'lim-tarbiya ishlariga mas'ul shaxs sifatida qanday bo'lishi talab etiladi? Tarbiyachida kuzatuvchanlik, e'tiborlilik, sabrlilik, tashkilotchilik xususiyatlari, norasmiy yetakchilik mahorati bo'lishi kerak. Eng avvalo, tarbiyachi mashg'ulot va ta'lim-tarbiya jarayoni uchun qulay ijtimoiy muhit yarata olishi va muhit tashkilotchisi sifatida bolalar bilan rasmiy bo'lmagan aloqani o'rnatishi kerak. Tarbiyachi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini bilishi, bolalar bilan ishlash metodologiyasini egallagan bo'lishi bilan bir qatorda, bolalarning guruhdan-guruhga muvaffaqiyatli o'tishiga, ularni rivojlanish va tarbiyada bosqichma-bosqich o'sishiga yordam beradi. Bola bilan doimiy aloqa qilish tarbiyachining eng muhim vazifasidir. Kommunikativ kompetensiya tarbiyachida yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, bolalalarning fikr bildirishi va nutqida muammoli vaziyatlar uchramaydi. Zamonaviy pedagog tarbiyachi o'zining vazifalarini bajarish uchun muayyan shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ular quyidagilar:

- Professional yo'nalish. Shaxs pedagoglik kasbiga qiziqishi va bolalarga mehr qo'yishi va pedagogik niyat va moyillikka ega bo'lishi kerak.
- Hamdarlik. Ushbu his-tuyg'u bolaning his-tuyg'ularini his qilishi va xayrixohlik, bolaning natijalariga hissiy munosabat bildirish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

- Pedagogik optimizm. Tarbiyachidan har bir bolaning kuchi va imkoniyatlariga ishonishi talab etiladi.
- Kasbiy aloqa madaniyati. Tarbiyachi bolalar, ota-onalar, hamkasblar bilan, ya'ni pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari bilan to'g'ri ijtimoiy aloqa o'rnata olishi kerak.
- Pedagogik aks ettirish. Tarbiyachining qobiliyati pedagogik fikrlash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Ko'zgu- bu qadamlarni tahlil qilish, olingan natijalarni baholash va rejalashtirilgan maqsad bilan qobiliyatini anglatadi.
- Vakolat. Ota-onalarning ishonchini qozonish uchun birinchi qadam bu vakolatdir. Bolalar, ota-onalar va hamkasblar orasida obro'-e'tiborga ega bo'lish ularning ahloqiy fazilatlari, madaniyati, bilim darajasi va kasbga sodiqligini baholashni anglatadi.

Tarbiyachi shaxsiyatining zaruriy fazilatlaridan birini ajratib ko'rsatish qiyin. Negaki, tarbiyachi umumiy ma'noda tarbiyalanuvchilar uchun ideal shaxs sifatida gavdalanadi. Tarbiyachi o'z faoliyatida vijdoniylik, o'ziga talabchanlik, tashabbuskorlik, sabr-toqat va chidamlilik xislatlarini o'zida rivojlantirib boradi.

Tajribali tarbiyachilar ham endi faoliyatini boshlayotgan tarbiyachi ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda tarbiyalanuvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;
- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish;
- fikr va mulohazalarini so'z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan bola ongiga aniq yetkaza olish;
- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir bolaning yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va takomillashtirish.

Ijtimoiy muhitda tarbiyachi imidji alohida o'rin tutadi. Zamonaviy pedagog qiyofasi deganda uning tashqi va ichki qiyofasi nazarda tutiladi. Shuningdek, tarbiyachining qiyofasi uning chehrasida va kiyinishida namoyon bo'ladi. Pedagog har qanday kiyimda yurishi mumkin emas. U toza va ozoda, bejirim va latofatli kiyinishi kerak. Bolalar tarbiyachisini, birinchi navbatda, chiroyli kiyingani, nafis pardoziga qarab ham yaxshi ko'radi, undan keyin chehrasiga va ko'zlaridagi mehrga e'tibor qaratadi.

Rossiyada maktabgacha ta'lim tizimidagi tarbiyachi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak :

- Rivojlangan fikrlash, uzoq muddatli va operativ xotira;
- Yuqori emotsional barqarorlik, baholash ob'ektivligi, odob-axloq;
- Atrof-muhit uchun empatlar, talablar;
- Ijodiy qobiliyatlar mavjudligi;
- Diqqatni tez o'zgartirish qobiliyati;
- Mehr-oqibat, bag'rikenglik, adolat, tashabbus.

AQSH pedagogikasida tarbiyachilarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Bolani o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;
- Bolaning eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ko'rish;
- Bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarini va g'ururini yerga urmaslik;
- Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash.

Yaponiya ta'limida quyidagi vazifalar belgilangan:

- Bolani maktabga puxta tayyorlash;
- Kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar mas'uliyatini kuchaytirish;
- Tarbiyalanuvchilarni nafosat, jismoniy kamolotiga berilayotgan e'tibor;
- Pedagoglarga yuksak talabchanlik;
- Yosh iqtidor soxiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

Barcha fikrlarni umumlagan holda, zamonaviy pedagogga kerak bo'ladigan asosiy xislatlar quyidagilar deb aytishimiz mumkin:

O'zgarishlarga moslashish. Bu eng qiyini, biroq to'la qonli shaxs sifatida mavjud bo'lish uchun zarur bo'lgan shart.

O‘z xatolarini tan olish va ular ustida ishlash. Hech narsa qilmagan kishigina xato qilmaydi. Ammo, tarbiyachi bu tur kishilari jumlasiga kirmaydi.

Rivojlanish. Dunyo va zamon bilan hamnafas yashash.

Bolalarga hurmat. Bolalarni yaxshi ko‘rish keng qamrovli tushuncha. Ularni hurmat qilish ma’nosi bilan bari oddiy namoyon bo‘ladi.

Haqiqiy narsalar bilan hurmatga ega bo‘lishga tayyor turish. Balandparvoz so‘zlar,buyruq ohangi bilan bolada qiziqish uyg‘ota olmaysiz. Hammasi juda oddiy. Yaxshi pedagog o‘z sohasini yaxshi biladi, maqsadini tushuntira oladi va bunga erishadi.

O‘z-o‘zini tanqid qilish. Agar tarbiyachi o‘z faoliyatini tahlil qilib, uni qanday rivojlantirishni o‘ylasa, u ko‘p narsaga erishadi.

O‘z vazifasini tushunish. Tarbiyachi bolalar uchun kerak bo‘lgan ma’lumotlarni qiziqarli tarzda yetkaza olishi va mashg‘ulotlar davomida bolalarning aqliy rivojlanishini o‘stirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ” Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” P. Yusupova
2. ” Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” O.U.Xasanboyeva, M.X.Tojiyeva, SH.K.Toshpulatova, M.M.Pirmuhamedova, R.T.Akbarova, M.SH.Nurmatova, N.M.Qayumova, N.N.Djamilova, X.Sariyev, L.A.Kulay
3. F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A’zamova ” Maktabgacha pedagogika”
4. ” Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” SH.Shodmonova
5. Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma Ziyomuhammedov M.E.
6. Mavlonova R.A., Vohidova N.X., Ijtimoiy pedagogika.
7. Maktabgacha pedagogika : darslik/ Sodiqova Sh.
8. Ziyonet.uz
9. Ziyo.uz.

YOLG‘IZLIK MUAMMOSI VA UNING OQIBATLARI

Zilola Jumayeva Muhiddin qizi,
Qiziltepa tumani 41-maktabi amaliyotchi psixologi
Telefon:+998(93)4811217
Zilolichka1717@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonlarda yuz berishi mumkin bo‘lgan yolg‘izlik muammosi haqida yozilgan. Bu muammoni kelib chiqish sabablari nimalardan iborat ekanligi va unga yetib bormaslik uchun nimalar qilish kerakligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yolg‘izlik, hamdard, g‘amxo‘rlik, muloqot, xulq-atvor.

Yolg‘izlik muammosi o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra chuqur ildizga ega. Avvalo u ruhiy kasallik. Odam bolasi onasining qornida o‘tirar ekan, o‘zini himoyalangan his qiladi. Shu holat insonda bir umrga saqlanib qoladi va u shu tuyg‘u bilan o‘ziga sherik, hamdard qidirishga intiladi. Kishi xorda maroq bilan qo‘shiq kuylaganda ham o‘zini odamlar bilan hamohang his qiladi.

Yolg‘izlikda ham o‘ziga xos xususiyatlar uchraydi. Masalan, oilada o‘zini yolg‘iz sezish. Kishi o‘z umr yo‘ldoshi bilan birga yashasa-yu ammo o‘zini yolg‘iz sezsa, bu og‘ir psixologik holatni keltirib chiqaradi. Chunki mazkur juftlik bir—birini sevishga, g‘amxo‘rlik qilishga bir-birlariga va’da bergan edilar, amalda esa bu yo‘q.

Agar inson o‘zini yolg‘iz his qilsa, o‘zgalarda ham shunday holat borligini tushunadi. O‘zaro muloqot jarayonida inson yolg‘izlikdan qutuladi. har qanday holatdan chiqib ketish yo‘li - bu harakatdir.

Eng to‘g‘ri tashkil etilgan tarbiya ta’sirida ham insonni yolg‘izlik hissi tark etmasligi mumkin. U holda bu his shaxsning o‘zgarmas xususiyatiga aylangan bo‘ladi. Insonlar bir-birisiz yashay olishmaydi. Boshqa tomondan esa inson doimo o‘zini yolg‘iz his qilaveradi. U har doim muloqotga kirishishga, muloqot kislorodidan nafas olishga majbur. Behuda vaqt o‘tkazishlar shaxsning rivojlanishi uchun hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Uni haqiqiy muloqot deb ham atab bo‘lmaydi. Vaqt juda tez o‘tib ketishi mumkin, biroq yolg‘izlik hissi yanada yaqqolroq namoyon bo‘laveradi. Inson o‘zini tashlab qo‘yilgandek his qilishi, ertami yoki kechmi kasal bo‘lib qolishi mumkin. Ko‘p hollarda zerikish yoki yolg‘izlikdan xalos bo‘lish uchun kishilar sayohat qilishni yoqtiradilar, biroq dunyoning narigi tomoniga borsa ham o‘zidan qochib qutila olishmaydi.

Yolg‘izlikning sabablaridan biri o‘zining ko‘p narsaga qodirligini saqlab qolishga intilish hissidir. Bunday sifatlar bolalikdanoq shakllana boshlaydi. Shuning uchun bolalar bilan munosabatlarda ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga, muloqotchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor berish zarur

Yolg‘izlik hissini chuqurlashtirmaslik, sensor deprivatsiyaga aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur. O‘z holiga tashlab qo‘yilsa har qanday muammoning yechimini topish qiyinlashib boraveradi. Insonda asta-sekin xulq-atvorning buzilishi, shaxslararo aloqa o‘rnatishning yomonlashuvi kuzatiladi.

Shunday qilib, yolg‘izlik insonning hayotida biron bir narsaga yoki shaxsan ahamiyatsiz narsaga etishmaslik (yo‘qotish) hissi. Bu odamlar uchun xavflidir: bu ularning erkinligiga, individualligiga va o‘ziga xosligiga tahdid soladi. mmo, boshqa tomondan, biz bu o‘zini anglashning o‘ziga xos versiyasi, o‘zini anglash demakdir. Yolg‘izlikni engib, odam o‘ziga va boshqalarning o‘ziga xosligiga ishonch hosil qilishi, insoniy munosabatlarning qadriyatlarini anglashi mumkin.

Biz bundan saboq olishimiz kerak, undan o‘tamiz, shundan keyin bu holat yo‘qoladi, chunki dars o‘tdi, xulosalar chiqarildi va bu vaziyatda endi mantiq yo‘q. Ammo agar xulosalar qilinmasa, hech narsa o‘zgarmasa, bularning barchasi uzoq vaqt davom etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonova Z. Mullaboyeva N. Yolg‘izlik hissini bartaraf etish usullar, XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari T. 2012.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA O‘QITUVCHINING KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Junayeva Dilrabo Boltayevna, Xolmatova Gulchehra Juraqulovna
Samarqand viloyati Narpay tumani 69-umumta’lim maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik faoliyatda o‘qituvchining kompetentligini shakllantirish muammolari keng yotirilgan.*

Kalit so‘zlari*: Pedagog, pedagogik mahorat, ijodkor, tashabbuskor, o‘quvchi, ta’lim.*

Mustaqillikni mustahkamlashda, kadrlar tayyorlashning milliy modelini ro‘yobga chiqarishda, har tomonlama kamol topgan, jamiyat oldiga qo‘ygan turmush sharoitlariga moslasha oladigan, ta’lim – tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan, davlat, jamiyat va oila oldidagi javobgarlik hissini seza oladigan yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda o‘qituvchilarning ma’naviy roli muhim hisoblanadi.

Kishining tevarak-atrofda munosabat, birgalikdagi faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o‘zgarishlar qilish layoqati shaxsning ijtimoiy faolligi sifatida tushuniladi. Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib shaxs va uning faolligidir. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan, eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir.

Pedagog kasbi o‘ta individualdir. Har bir pedagogning bosh vazifasi – o‘z ishining ustasi bo‘lish. Pedagogik mahorat o‘z kasbi sohasida individuallikni yorqin ifoda etish sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat unsurlari kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan belgilanadi.

Ko‘nikmalarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

1. Loyihalash ko‘nikmalari. 2. Konstruktiv ko‘nikmalar. 3. Tashkilotchilik ko‘nikmalari. 4. Kommunikativ ko‘nikmalar. 5. Gnostik ko‘nikmalar.

Pedagogik mahorat zamirida pedagogik kompetentlik yotadi. Pedagogik kompetentlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me’yorlar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik funksiyalarni bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi professional-shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Professional-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok etish va unga izchil ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Professional kompetentlik o‘z faoliyat sohasida erkin mo‘ljal olishni nazarda tutadi. Insonning kasbiy layoqati – muayyan ish funksiyalarini o‘zlashtirish va muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar, jismoniy, ruhiy va axloqiy fazilatlarning zaruriy majmui. Pedagogik faoliyatga loyiqlikni tavsiflovchi shaxsiy fazilatlar qatoriga yoshlar bilan ishlashga moyillik, kirishimlilik (boshqa odamlar bilan til topa olish), sipolik, kuzatuvchanlik, zehni o‘tkirlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, o‘ziga o‘ta talabchanlik kiradi. Bu fazilatlarning barchasini aniqlash va sinovdan o‘tkazish mumkin. Pedagog o‘z kasbiy bilimlari va mahoratini oshirishi uchun pedagogik faoliyatning tarkibiy tuzilishini aniq tasavvur qilishi lozim. Pedagogga zarur bo‘lgan kasbiy bilimlar: pedagogika va psixologiya, bola rivojlanishi fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi. Ushbu bilimlar bolani o‘rganish, uning qilmishlari va xulq-atvorini, o‘zaro munosabatlari xususiyatlarini, boshqa bolalar guruhiga moslashuv yo‘llarini tahlil qilish uchun zarur. Pedagog ta’lim oluvchilar faoliyati va hamkorligini tashkillashtira olishi lozim. Pedagogik texnologiya tushunchasi mavjud bo‘lib, pedagog uni ham yaxshi bilishi zarur. Bu tarbiyalanuvchilarga ta’sir ko‘rsatish usullari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni anglatadi. Pedagogik texnika va shakllangan ko‘nikmalar pedagogni kasbiy mahorat cho‘qqilariga olib keladi. Bu tarbiyalanuvchini tushuna bilish, qilmishga, insonga o‘z munosabatini bildira olish, ayni vaqtda o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tahlil qilish qobiliyatini anglatadi. Pedagog har bir bola bilan til topa olishi lozim. U pedagogning har bir so‘zi bola hayotida ulkan o‘yin o‘ynashini yodda tutishi kerak.

Pedagog nutq madaniyati va texnikasiga e’tibor berishi lozim. Nutq madaniyati o‘z fikrini aniq, lo‘nda va o‘rinli bayon etish ko‘nikmasi bilan belgilanadi. Nutq texnikasi nafas olish, ovoz va diksiya usullari bilan belgilanadi. Bularning barchasini uzoq mashq qilish yo‘li bilan o‘zlashtirish mumkin. Pedagog teatr pedagogikasi unsurlarini ham o‘zlashtirishi muhimdir. Zero pedagog ishi

rejissyor ishi, aktyor ijodiga yaqin turadi. Pedagog tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi, tez qaror qabul qilishi va ishni tez tashkillashtira olishi lozim.

Zamonaviy o‘qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘la olishi kerak:

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni berib borishi lozim.

2. Zamonaviy o‘qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z stida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i darkor.

6. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi shart.

7. O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari (mimika,jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. O‘qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo‘lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

9. O‘qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning diqqatini ko‘p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari)dan ortiqcha va o‘rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishga odatlanish kabilar) ega bo‘lishi lozim.

10. O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi lozim.

O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarni o‘zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o‘quvchilar va hamkasblari hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko‘rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o‘qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda. «Barkamol avlodO‘zbekiston taraqqiyotining poydevoridir»,-degan shior kun tartibiga o‘rnili kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning echimi o‘qituvchi va tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo‘lib qoldi. Boisi, o‘qituvchi tajriba va malakasining uyg‘unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O‘qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo‘lishi lozimligini mazkur darslik epigrafidagi buyuk nemis pedagogining fikri ham tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Kabulova Rayxan Rajapovna
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani
34-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998949038108

Annotatsiya: Bu maqolada pedagogik texnologiya va uning shakllanish bosqichlari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, shakllanish bosqichlari, algoritm.

Pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiyaning hamma bosqichlarida turlicha holda mavjud bo‘lgan. Bu turli uslubiy ishlanmalar, fanlar bo‘yicha o‘quv-tematik, kalendar darslarni rejalashtirishda, darslik va uslubshunoslik, ya’ni o‘qitish metodikasida ham pedagogik texnologiya mavjud edi. Hozir milliy maktab sharoitida gap uni ko‘r-ko‘rona tushunmasdan, qo‘llashda ilmiy asoslangan darajaga ko‘tarish ustida boradi.

Pedagogik texnologiyaning shakllanishi uzoq davom etadigan jarayondir. Biz umumiy holda uning shakllanish bosqichlarini bayon qilamiz:

Birinchi bosqich-o‘quvchilarning bo‘lak faoliyatlarining tahlili. Ularning maktabni bitirgandan keyin o‘rta maxsus yoki oliy o‘quv yurtlarida o‘qishi yoxud kasbiy faoliyatlarining tahlili.

Ikkinchi bosqich-shu tahlildan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyani ishlab chiqib, unga ta’limning har bir bosqichida, sinfda o‘quv fanlarining mazmunini belgilash. Ta’limni diagnostik asosda maqsadini jamiyat manfaatlari nuqtayi nazardan belgilash.

Uchinchi bosqich-belgilab olingan ta’lim mazmuni asosida o‘quvchilarning o‘quv yuklamasi, kerakli vaqt me’yorini aniqlash.

To‘rtinchi bosqich-didaktik jarayonni amalga oshirish uchun ta’limning tashkiliy optimal shakllarini tanlash va shunga muvofiq o‘qitish vositalarini
aniqlash.

Beshinchi bosqich-didaktik maqsadni amalga oshirish uchun
o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda mavzular, aniq darslar bo‘yicha uslubiy ishlanmalar ishlab chiqish.

Oltinchi bosqich- ta’lim maqsadi asosida o‘quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va uni ta’lim jarayoniga joriy qilish.

Yettinchi bosqich-o‘quvchilarning belgilangan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishlarini, bilim saviyalarini nazorat qilish va o‘zgartirishlar kiritish.

Sakkizinchi bosqich- o‘quv mashg‘ulotlarining mazmuni va tarkibini ishlab chiqish, shu asosda dars va uy topshiriqlarini optimal rejalashtirish.

To‘qqizinchi bosqich- yuqoridagilardan kelib chiqib, loyihalashtirilgan
ta’lim-tarbiya jarayonini sinovdan o‘tkazish.

Bu bosqichlar o‘quv jarayoni texnologiyasini ishlab chiqishning ketma-ketligi (algoritmi) dir. Biz o‘qituvchilar pedagogik mahoratining texnologiya darajasiga ko‘tarilishi bosqichlarini hamda uning ta’lim-tarbiya jarayonining umumiy xususiyatlari asosida shakllanish ketma-ketligi (algoritmi)ni keltirdik.

Bularning hammasi uning nihoyatda qiyin, murakkab va ko‘p qirrali jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Endi shulardan kelib chiqib, pedagogik texnologiyaga ta’rif bersak bo‘ladi. Pedagogik texnologiya-o‘qituvchi pedagogik mahoratining yuksak cho‘qqisi bo‘lib, ta’lim tarbiyaning har qanday murakkab vaziyatida ham aniq
qo‘llaniladigan usul, vositalarining majmuidir.

Xo‘sh, hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati va mazmuni nimadan iborat? Bu, eng avvalo, ta’lim tarbiya mazmunini milliylashtirish. Bunda biz bugungi yosh avlod ta’lim-tarbiyasi mazmunini o‘tmish avlodlarimiz yaratgan va jahon fani rivojiga asos bo‘lgan bilimlar, boy tariximiz, madaniyatimiz manbalarini hozirgi zamon fani yutuqlari bilan bog‘lashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J. Yo‘ldoshev Yangi pedagogik texnologiya.
2. M. I. Nuriddinova Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi.
3. www.uzedu.uz

INTELLEKTUAL SALOHIYATLI BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Kabulova Sabohat Bahodirovna
Urganch davlat universiteti "Psixologiya" fakulteti o'qituvchisi
Sherjanova Nodira Alisherovna
Urganch davlat universiteti "Pedagogika" fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellektual salohiyatli barkamol avlodni tarbiyalashda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning psixologik jihatlar bayon qilingani.
Kalit so'zlar: Intellektual salohiyat, axborot, psixologik himoya.

Mamlakatimizning istiqboli ko'p jihatdan intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish va unga mos ta'lim–tarbiya olib borishga bog'liq va bunga mustaqil Respublikamizdagi ijtimoiy–tarixiy taraqqiyotning tezkor sur'atlar bilan rivojlanishi, fan–texnika va texnologiyalar sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarning ta'lim–tarbiya sohasiga keng joriy etilishi asos bo'lmoqda.

Bu asoslar o'z Vatanini va xalqini sevadigan, milliy mafkuramizga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni shakllantirishdek muammo yechimini hal etishni ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri darajasigacha ko'tardi. Bu boradagi ishlarning ahamiyatliligini Prezidentimiz quyidagicha ta'kidlagan edi: "Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb mazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'ladigan, voqyea – hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak".[3.9]

Bu haqda O'zbekiston Respublikasining **"**Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va ta'limni isloh qilish borasidagi boshqa me'yoriy hujjatlarida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va shu asosda intellektual salohiyatli ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muhim masalalardan ekanligi ta'kidlangan.

Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli bo'lgan intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirish fan–texnika va texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlaridan ta'lim–tarbiya sohasida keng foydalanishni taqozo etadi va bu bilan jahon andozalari talablariga to'liq javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi. Bunda «XXI asr – intellektual asr»ning, ya'ni axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchilarini tarbiyalash eng muhim dolzrab muammolardan biri bo'lib, unda aqliy mehnatning rivojlanishini ta'minlovchi intellekt va bilimlar ro'yobga chiqariladi hamda iste'molda ulardan foydalaniladi.

Ushbu muammo yechimini hal etishda jamiyatni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lish, axborotlarni ishlab chiqish va undan rejalashtirilgan maqsadlarda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun avvalo,yoshlarda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malaka va ko'nikmasini rivojlantirish lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraganda,hozirgi paytda yoshlar hayotini axborot va kommunikatsiya texnologiyalarisiz,xususan, mobil telefon,televideniye,radio va internet tarmog'isiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Globallashuv jarayonidagi ma'naviy tahdidlar,zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, yoshlarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarining huquqiy asoslari, milliy axborot tarmog'i va resurslarni zararli axborotlardan himoya qilish,axborot sohasida yoshlarning ijtimoiy fikrini monitoring qilish tizimini shakllantirishning ilmiy jihatlari, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirihda jamoat tashkilotlari oldida turgan ustuvor vazifalar,yoshlar axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlovchi yangi texnologiyalar yaratishning nazariy asoslari kabi mavzularga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2012 yil 21 martda qabul qilingan "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalrini yanada kengroq joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bolib, unda ayniqsa yuridik va jismoniy shaxslar axborot tizimlarininig bosqichma bosqich integratsiyalashuvi asosida milliy axborot tizimini shakllantirishni ta'minlash masalasi

ilgari surilgan. [2.3-4]

“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun iqtisodiyotimizning boshqa tarmoqlari qatori ta’lim jarayonlariga ham zamonaviy axzborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilishda muhim omil bo‘lmoqda.[1.2]

Xususan yoshlarga bilim berish sifati va mazmunini yanada takomillashtirish, uni davr talabalri asosida yolga qoyish, umumiy ta’lim va kasbiy fanlarga oid ma’lumotlarni muntazam boyitib, yangilab borishda zamonaviy axborot-texnologiyalaridan unumli foydalanish muhim orin tutadi.

Mazkur Qonunning izchilik blan tadbiq etilishi natijasida ta’lim jarayonini axborotlashtirish, ta’lim muassasalari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatisya texnologiyalrini keng joriy qilishga oid loyihalarga muvofiq umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini zamonaviy kompyuter jihozlari va texnikasi bilan ta’minlash, o‘quv jarayonida multimedia va elektorn darsliklardan, raqamli ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanish, ularda axborot-resurs markazlarini tashkil etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

“Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, oqni qoradan dostni dushmandan ajratishga qodir bo‘lgan, bizning qanday boy tarix va merosga ega ekanimizni anglab yashaydigan, imon-e’tiqodli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan insonlar etib voyaga yetkazishimiz, bu masalani hech qachon ikkinchi darajali vazifa deb bilmasligimiz kerak”,-deydi prezident Islom Karimov. [3.17-18]

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni Toshkent 2003 y

2. Karimov I. “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2012 y 21 mart Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining veb sayti- www.lex.uz

3. Karimov I. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.

TALABA - YOSHLARNING INTERNET TARMOG‘IDAN FOYDALANISHDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Kabulova Sabohat
Urganch davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba yoshlarning internet tarmog‘idan foydalanishda axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish haqidagi fikrlar bayon qilingan. Shungdek, internet tarmog‘i va undan samarali foydalanish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, internet tarmog‘i, ijtimoiy tarmoq,axborot,psixologik xavfsizlik.

Globallashuv jarayoni haqida fikr yuritilganda I.Karimovning ”Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida globallashuv jarayonining mazmun-mohiyatiga bergan tavsiflarini keltirish o‘rinli hisoblanadi: ”…Globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishini ta’kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma’no-mazmundagi xo‘jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda[1].

Ilm-fan, texnika-texnologiyalarning taraqqiy etishi insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlar yaratdi. SHu jumladan axborot yaratish va tarqatish sohasida ham jadallashib ketdi.

Turli axborotlar oqimidan turli maqsadlarda foydalanilmoqda. O‘quvchi- yoshlarmiz tomonidan axborotlar oqimining ko‘pligi, ulardan kerakli joylarda o‘rinli foydalana olmayotganliklari ko‘p xollarda ularning tarbiyasida ham namoyon bo‘lmoqda.

Xozirgi kunda internet tarmog‘i eng ommabop va tezkor axborot tarqatish vositasiga aylandi. Mamlakatimizda ham internetdan, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning aksariyatini yoshlar tashkil etadi. Globallashuv jarayonida, inson ongini egallashga intilish tobora kuchayayotgan hozirgi sharoitda yosh avlodni ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlardan asrash eng muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.Buning uchun yoshlarda psixologik xavfsizlikni shakllantirish zarur. Axborot makonida psixologik xavfsizlik axborotlardan to‘g‘ri foydalanish va ushbu axborotlardan to‘g‘ri foydalanishga asos bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoq deb - tarkibida bir nechta ishtirokchilar bo‘lgan va ular orasida muloqot o‘rnatuvchi, ko‘plab foydalanuvchiga ega veb saytlar tushuniladi.Foydalanuvchilar orasida muloqat o‘rnatish, umumiy qiziqishlarni aniqlash, guruhlar orasidagi muloqotni internet tarmog‘i orqali bajarish ijtimoiy tarmoq funktsiyalari hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqning maqsadi internetda o‘zaro qiziqishlar yoki faoliyatga ega shaxslar bilan muloqot qurishdan iborat. O‘zaro aloqa ichki pochta yoki xabar almashish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Axborot so‘zining lug‘aviy ma’nosi lotincha «informatio»-tushuntirmoq, bayon etmoq degan ma’noni bildiradi. Ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot-kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma’lumotlar majmuini anglatadi.

Axborotlashtirish so‘zining ma’nosi esa axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o‘z-o‘zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmuidir.

Yer sharida globallashashuv jarayonining tezlashishida ham axborotlar oqimining o‘rni beqiyosdir. Axborotlar almashinuvi davlatlar rivojida, odamlar hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda. SHunday ekan, o‘quvchi-yoshlarimizni xar xil axborotlar oqimiga immunitetini hosil qilish, axborot xavfsizligi ta’minlash, ularning axborotlar bilan ishlash madaniyatini shaklllantirish bugungi kunning dolzarb muammosi bo‘lib qolmoqda[2].

Axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishni qanday amalga oshirishimiz mumkin?

Oliy ta’lim muassasalarida 2008 yildan beri «Ochiq axborot tizimida axborot- psixologik xavfsizlik» maxsus kursi o‘qitilib kelmoqda. Lekin umumiy o‘rta ta’lim amalga oshirilayotgan maktab va o‘rta maxsus ta’lim amalga oshirilayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida bunday kurslar o‘qitilmaydi. Aynan kichik maktab yoshida va o‘smirlik davrida o‘quvchilarni axborotlar bilash ishlash madaniyatini shakllantirish muhim sanaladi.

Umumta'lim maktablarda ko'proq barcha fanlar bo'yicha nazariy va amaliy fundamental bilimlarni olsalar, darsdan tashqari ma'naviy –ma'rifiy tadbirlarda aynan o'quvchilarni axborot madaniyatini shakllantirishga doir turli mavzularda uchrashuvlar tashkil qilish lozim.

Bu mavzularni nomlanishi taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. "Ommaviy axborot vositalaridagi o'quv dasturlarini ahamiyati"
2. "Internetning ta'lim jarayonidagi ahamiyati"
3. "Internetdagi darslik, badiiy adabiyotlar, maxsus kurslardan foydalanish tizimi"
4. "Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlari"
5. "Kompyuter o'yinlarini salbiy oqibatlari"
6. "Kompyuter va kitobning foydali jihatlari"
7. "Telefonda gaplashish madaniyati"
8. "Kompyuter, televizor, telefon va kitob" va x.

Axborotni qidirish, yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash va tarqatish jarayoni informatsion jarayon hisoblanib, o'smirlik yoshida informatsion jarayonga munosabat turlicha bo'ladi. O'spirinlik davrida axborotlardan aniq maqsad yo'lida foydalanilsa, o'smirlik davrida bu unchalik muhim jarayon hisoblanmaydi.

Hozirgi kunda o'quvchi – yoshlar axborot resurslaridan kutubxona, fond, ma'lumotlar bankidan foydalanishdan ko'ra telefon orqali internet tizimidan tayyor virtual axborotlar tizimidan foydalanishni afzal ko'rishmoqda. Virtual tizimda axborotlarni hammasi ham ilmiy asoslangan, faktlar, dalillar asosida isbotlangan ishonchli ma'lumotlar hisoblanmaydi. Bundan foydalanuvchilarning hammasi ham axborotlarni bu jihatlarini hisobga olib o'tirmasdan undan foydalanishga harakat qiladi.

Internet butun dunyoni egallab olgan tarmoq ekani barchaga ma'lum. Internet va ijtimoiy tarmoqlarga tobelik xolatlarini ko'rishimiz mumkin. Bu esa internetga sizni boshqarish imkoniyatini tuhfa etadi[3]. SHu o'rinda har qanday axborot xurujlari, ommaviy madaniyat xavfidan himoyalanmagan internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siridan butun millatni, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni himoya qilish har bir ongli insonning burchi ekanini ta'kidlash lozim. YOsh avlodni tarbiyalash jarayonida internetdan foydalanish madiniyatini shakllantirish uchun quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- ✓ o'quvchilarga nafaqat informatika darslarida, balki fanlarni o'qitish jarayonida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali ijtimoiy tarmoqlarning yaratilishi mazmun-mohiyatini etkazib borish;
- ✓ internetda, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan ishlash jarayonida bildirilayotgan fikr-mulohazalarni ishonchli va axloqiy me'yor qoidalariga rioya etgan holda bayon etish;
- ✓ ijtimoiy tarmoqdan ro'yxatdan o'tish jarayonida kiritilayotgan ma'lumotlar, joylashtirilayotgan shaxsiy fotosurat, audio, videolarning xaqqoniyligini ta'minlash;
- ✓ ta'lim-tarbiya jarayonida, xususan, informatika darslarida o'quvchi-yoshlarga chet elda emas, balki, O'zbekistonda ishlab chiqilgan foydali saytlarni yaratilganligini tushuntirish va ulardan to'g'ri foydalanish, muloqot o'rnatish usullari yuzasidan tavsiyalar berib borish;
- ✓ O'zbekistonda ishlab chiqilgan ijtimoiy tarmoqlarda axborot xavfsizligi ta'minlanganligini, saytlarning doimiy nazorati olib borilishini, chet el saytlaridan qolishmasligini tushuntirib, amaliy misollarda ko'rsatib borish;
- ✓ chet el ijtimoiy tarmoqlarida bizning milliy mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan salbiy tomonlarni o'quvchilarga tushuntirib borish;
- ✓ yoshlarni salbiy axborotlar ta'siridan himoyalash;
- ✓ axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mahoratini oshirish;
- ✓ internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish;

Internet hamda ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish orqali yoshlarimizning axborot xurujlaridan saqlanishiga zamin yaratgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. "Ma'naviyat" nashriyoti, T., 2008. 111-112.

2. Irnazarov Q.T., Xusanov M.M. «Ochiq axborot tizimida axborot- psixologik xavfsizlik». Namangan. 2008 y. 54 bet.

3. Tulepov A. Internetga in qurgan o'rgimchaklar. – T.: "Movaraunnahr" nashriyoti, 2014 y.72-73bet

MILLIY XAVFSIZLIKGA ETNIK JARAYONLARNING TA'SIRI

Kadirova Nargiza Reymbaevna
Taxiatash shahri 10-maktab MIG' fani o'qituvchisi
Tel.: +998996857829

Annotatsiya: Maqolada milliy xavfsizlikning asosiy strategik printsiplaridagi joriy o'zgarishlar mohiyati to'g'risida. Milliy xavfsizlikka zamonaviy tahdidlar, milliy xavfsizlikning etnosiyosiy jihatlarini muhokama qilish, etnosiyosiy ziddiyatlar va etnosiyosiy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim muammolari va dolzarbligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Etnonatsionalizm, etnorevionalizm, etnik, etnopolitik xavfsizlik, geosiyosiy, identifikatsiya

Barchamizga ma'lumki, milliy xavfsizlik juda murakkab darajadagi funktsional tizim hisoblanadi. Davlat, jamiyat va shaxsning hayotiy manfaatlarining o'zaro ta'siri va ularning ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turish jarayonlari. Milliy xavfsizlik bu imkon beradigan tizimli va ajralmas hodisadir. Bu hodisada dinamik jarayon sifatida jamiyat va uning manfaatlarini o'rganish. XXI asrda xavfsizlik tushunchasi an'anaviy talqindan uzoqlashdi. Birinchidan, davlatning jismoniy hayoti va uning xalqaro tizim ichida o'zini anglash huquqi va qobiliyati turadi. Ikkinchidan, muayyan hududlar va siyosiy hududlardagi tinchlik kafolatlangan. Bugun milliy xavfsizlik kengroq kontekstda joylashtirilgan va qo'shimcha o'lchovlarga ega va cheklanmagan. Ta'kidlanishicha, tobora rivojlanib borayotgan globallashuv va mintaqalashtirish, shuningdek, integratsiya natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy hayotning barcha qirralari xalqaro miqyosda asta-sekinlik bilan yo'qolib bormoqda. Ichki va tashqi xavfsizlikni bir-biridan ajratib turuvchi va ko'plab tahdidlar (xalqaro terrorizm, giyohvand moddalar savdosi, axborot va texnogen halokatlar) ni kuzatib bo'lmaydi. XXI asrga tegishli prognozlar tahdidlar, tahdidlar, xavf-xatarlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib bormoqda. Zamonaviy tahdid, xavf va xatarlarning mohiyati xavfsizlik bilan bog'liq muammolar qatorida alohida o'rin tutadi. Milliy xavfsizlikka tahdidlarni tahlil qilish uchun xatarlar, potentsial va real tahdidlar bir-biridan farqlanmaydi, shu bilan birga tahdid va xavf etimologiyasi - ikkita asosiy tushunchalar noaniq bo'lib qolmoqda. Xavfsizlikka tahdid bu shaxsning hayotiy muhim manfaatlariga tahdid soladigan shartlar va omillarning yig'indisi. Qonunda tahdid nafaqat xavf tushunchasiga yaqin, balki u orqali jinoyat hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dunyodagi qurolli to'qnashuvlarning yarmi davlatlar ishtirok etgan xalqaro nizolar hisoblanadi. Etnopolitik mojarolar milliy guruhlar yashaydigan va faoliyat yuritadigan tabiat va obyektiv sharoitlarga bog'liqdir. Milliy jamoalarning tarqalishining tabiiy jug'rofiy chegaralari dunyoning siyosiy xaritasiga to'g'ri kelmaydi. Shu tarzda, bosib olingan hududlar davlatlar milliy (etnik) davlatlar uchun kurash maydoniga aylanadi. Bu milliy harakatlarga sabab bo'ladi va milliy nizolarni keltirib chiqaradi. Bugungi kunda dunyoda 3 mingdan 5 minggacha etnik guruhlar istiqomat qiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadiki, ko'p millatli davlatlar etnik xususiyatlarga to'la siyosat (iqtisodiy asoslangan chegaralar, maqom sifatida etnik kelib chiqish va boshqalar) hayotga yana bir obyektiv ijtimoiy-tarixiy talabni qo'yadi. Bu xususiyatlarni yengib o'tishga mo'ljallangan sayyoraviy bir xillik. Boshqa tomondan globalizatsiya o'z-o'zini yo'q qilish uchun katta imkoniyatlarga ega - bu kuchli migratsiya oqimlarini tezlashtiradi.

– siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy nuqtai nazarga ega bo'lgan taniqli etnik reduktsionizm
– etnik o'ziga xoslik prizmasi orqali jarayonlar;
– Etnonatsionalizm va etnorevionalizm;
– etnik ozchiliklarning huquqlari va maqomiga ko'proq e'tibor qaratish;
– Avflar siyosiy-fuqarolikdan etnik identifikatsiyaga va boshqalarga o'tish.

Etnik mojarolar va urushlar na hududiy, na ijtimoiy-siyosiy lokalizatsiyaga ega emas. Har qanday tarixiy davr yoki geosiyosiy organizm mahsulotidir. Kimdir bu fikrga qo'shilishga moyil bo'ladi. Xavfsizlikning umumiy kontseptsiyasida hanuzgacha etnosiyosiy mezon hisobga olinmagan. Siyosat va milliy xavfsizlik har jihatdan juda murakkab, chunki ular jamiyat hayotining turli sohalarida va o'quv mashg'ulotlarida (terminologik, uslubiy va boshqalar) ishtirok etadilar. Konstruktivist (post-modernist) yondashuvni e'tirof etuvchilarning fikriga ko'ra, etnik jamiyat hayotining asosiy sohalarini (siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqalar) o'ziga xos tavsifidir. Harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir. Yuqoridagi yondoshuvlarga qarshi bo'lganlar (birinchi navbatda, ibtidoiylik nazariyasida aks

ettirilgan) ular aniq ko‘rinadigan narsalardan kelib chiqadilar. etnik munosabatlarning butun majmui, shuningdek, etnik hayot, shuningdek, bog‘liq xususiyatlar (etnik tarix, psixologiya, mentalitet va boshqalar) alohida ijtimoiy subyekt - etnik soha sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Milliy xavfsizlikda yangi segmentni aniqlashga harakat qilish bilan bog‘liq tuzilma - etnosiyosiy xavfsizlik. Bugungi kunda davlatni shakllantiruvchi millatlar va etnik ozchiliklar o‘rtasida ko‘proq ajratuvchi chiziqlar mavjud. Endi globallashuv sharoitida tahdid va tahdidlar tizimi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Butun milliy xavfsizlik tizimining muhim omili bo‘lgan etnosiyosiy sohada xavfsizlikni ta’minlash. Buni etnik munosabatlarning yaxshilanishi uchun qilish kerak. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar davrida inson, jamiyat va davlat o‘zini xavfsiz his qilishi mumkin bo‘lgan asosiy shartlardan biridir. Aytish kerakki, milliy xavfsizlikka zamonaviy nazariy yondashuvlar juda noaniq xavfsizlik masalalari haqida gap ketganda, ular ba’zi uslubiy jihatlarni e’tibordan chetda qoldiradilar milliy xavfsizlik strategiyasini shakllantirish lozim. Xavfsizlik sohasida qarorlar va ularni amalga oshirish, ular haqida bemalol gapirish vaqti keldi. Milliy xavfsizlikka tegishli etnopolitik masalalar shu paytgacha siyosatshunoslar ularni chetlab o‘tishga harakat qilishgan. Bu milliy xavfsizlikning etnosiyosiy jihatlarini (etnopolitik xavfsizlik) nazariy-uslubiy va amaliy tadqiqotlar aniq etnik siyosatni olib borishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan etnik o‘ziga xoslikni siyosiy maqsadlarda ishlatishga qaratilgan barcha urinishlarni zararsizlantirish juda muhimdir. Etnosiyosiy qarama-qarshilikni hal qilish vositasi sifatida etnik nizolarning oldini olish muhimdir. Kerak bo‘lsa, bunday qarama-qarshilikning salbiy natijalarini yengish uchun mo‘ljallangan har xil modellar va dasturlarni yaratish. Davlat va jamoat institutlari bu boradagi sa’y-harakatlarini kuchaytirishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A. Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – T.10. «O‘zbekiston», 2002 yil, -b 186.

2. Azizxo‘jaev A.A “Demakratiya xalq hokimiyati demakdir”. – T.: Sharq 1996 y - 226 b. 3.2.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. “O‘zbekiston”, 2008 yil. 67-m

4. D.V. Dragunskiy, “Etnopoliticheskie protsessy na postsovetskom prostranstve i rekonstruktsia Severnoy Evrazii,” Polis, No. 3, 1995, p. 40.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KASB VA MEHNAT FAOLIYATIGA TAYYORLASH

Kamoleddinova Shaxnozaxon Shavkatjonovna
Yozyovon tumani 1-maktab o‘qituvchisi
Tel:+998905839726
Muminova Mamuraxon Abdujabborovna
Yozyovon tumani 1-maktab o‘qituvchisi
Tel:+998916659083

Annotatsiya: Ushbu ma’ruzada o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdan boshlab mehnat va kasb – hunarga o‘rgatib borish uchun pedagog va ota–onalar nimalarga e’tibor berishlari borasida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb–hunar, maktab, pedagog, hamkorlik, to‘garak, “Besh tashabbus”, “Barkamol avlod”.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnat faoliyatini shakllantirish pedagog nuqtai nazari, mahorati va bu ishga qay darajada tayyorligiga bog‘liq. Aslida bola maktabga kelguniga qadar oilada, so‘ng maktabgacha ta’lim muassasasida mehnat faoliyatiga o‘rgatiladi. Bola oila a’zolarining nimalar bilan shug‘ullanayotganini kuzatib boradi va taqlid ham qiladi. U otasiga,onasiga yordam berishni va bu uchun ulardan maqtov eshitishni yoqtiradi. Shunday vaqtda ota–onalar farzandlarini rag‘batlantirishi, mehnatga, kasb-hunarga qiziqtirib borishi juda muhim jarayon hisoblanadi. Lekin ayrim hollarda ota–onalarning “sen hali kichkinasan, sening qo‘lingdan kelmaydi, xalaqit qilmay tur” kabi so‘zlari bolani mehnatga, kasb–hunarga bo‘lgan qiziqishini susaytirib, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qolishiga sabab bo‘lishi tajribalarda kuzatilgan. Kim nimaga qiziqadi, qaysi fan unga ko‘proq yoqadi, shularni kuzatishi va bilishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda aksariyat bolalar “kelajakda qaysi kasbni egallashni xohlaysiz?” degan savolga ko‘p hollarda ota–onasining kasbini aytadi, yoki o‘qituvchi deb javob beradi. Mohir pedagog esa o‘quvchining qaysi kasb, yoki hunarga qobiliyati, layoqati borligini sezadi va shu bo‘yicha o‘quvchini yo‘naltirib boradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan o‘qish, ona tili, matematika, odobnoma, atrofimizdagi olam, texnologiya, tasviriy san’at darsliklarida keltirilgan mehnati orqali baxtga erishgan insonlarning faxrli nomlari mehnat va kasbiy faoliyatga qiziqishni shakllantiruvchi material bo‘lib xizmat qiladi. Atrofimizdagi olam o‘quv fani dasturida o‘quvchilarni qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish sanoati, fermerlik bilan shug‘ullanish borasida dastlabki ma’lumotlar bilan tanishtirish ko‘zda tutilgan. Turli kasblar bilan tanishish jarayonida arifmetik misol va masalalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalalar yechish jarayonida o‘quvchilar sotuvchi, quruvchi, haydovchi, uchuvchi, tikuvchi kabi kasb egalarining mehnati to‘grisida ba’zi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Bugungi kunda masalalarni oddiy rasmlar bilan emas, balki masalaga oid slaydlar orqali tushuntirish o‘quvchini masalani nafaqat oson tushunishiga, balki masalada berilgan kasb egasining ish faoliyatini yaqqol ko‘rishiga imkon beradi. O‘qituvchi masala yechish jarayonida, albatta, masalaning tarbiyaviy tomonini ham ochib berishi, mehnat, kasb–hunar orqali inson yuksak darajalarga, xalq orasida hurmat–e’tiborga erishshi mumkinligini tushuntirib berishi lozim bo‘ladi. Suningdek, o‘qituvchi masalani amaliy tarzda ko‘rsatib berishi mumkin. Bunda o‘quvchilarga berilgan masalada ko‘rsatilgan kasb yoki hunar egasi rolini bajarishni topshiradi. Shu kasb egasi ishlatadigan atamalar bilan tanishtiradi. Bu bilan o‘quvchilarning so‘z boyliklari ham oshib boradi. Texnologiya darsida esa o‘quvchilar haykaltarosh, duradgor, kulol, tikuvchi kabi hunar egalarining mehnat jarayonlari bilan, ishlatadigan ish qurollari bilan tanishadilar. O‘z qo‘llari bilan loydan turli idish va buyumlar, matodan oddiy narsalar tikishni o‘rganadilar. Bundan oldin esa o‘qituvchi o‘quvchilarga qaychini qanday ishlatishni, ignani qanday ushlashni, ignaga ip o‘tkazishni o‘rgatadi. Albatta, bu jarayonlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ham uqtiradi. Bolalar o‘zlari yasagan, yoki tikkan narsalarini hammaga ko‘rsatib, maqtov eshitishni xohlaydilar. Bunday paytda pedagog va ota–onalar ularni rag‘batlantirib borishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilarni mehnatga o‘rgatishda, kasb–hunarga qiziqtirishda o‘qish fanining ham ahamiyati katta hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Umarova va boshqalar. “O‘qish”. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2019.
2. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. — T.: «Turon-Iqbol», 2006
3. Avliyoqulov N. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. — T.: 2001

O‘QISH FANIDA “VIDEO TOPISHMOQ” STRATEGIYASI

Kamolova Mahliyo Dilshodovna
Namangan viloyati Norin tuman
19-maktab boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi
974678688 . kamlovamahliyogmail@.com.

Annotatsiya*:* Ushbu maqola orqali boshlang‘ich ta’lim bosqichida kompetensiyadan foydalanishdarslarni xilma-xil shakllari “Video topshiriq” texnologiyasi” bugungi kun talablariga mos keladiga o‘quvchilarni yangi ped texnologiyalar asosida ta’lim olishiga imkoniyat yaratadigan innavatsiyon texnoliya haqida ma’lumot berilgan

Kalit so‘zlar: Videotopshiriq,o‘quvchilar,innavatsion texnologiyalar o‘qish darsi, mashg‘ulotlar, mustahkamlash.

Farzandlarimizni ma’rifatli va ma’naviyatli qilish, kasb-hunar egallab jamiyatga nafi tegadigan inson bo‘lib kamol topishida ota-onalarga mahalla va ta’lim muassasasi eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Yoshlarimiz ma’naviyatini shakllantirishda oiladagi muhim, ona tarbiyasi, otalar o‘giti, keyinchalik mahallaada, umumta’lim maktablarida, oliy o‘quv yurtlarida beriladigan ta’lim-tarbiya muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim huquqiy asosdir. Bugungi kunda yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o‘ziga xos qobilyati va iste’dodini o‘z vaqtida payqash, tarbiyalash va ro‘yobga chiqarish nafaqat ota-onalarning ezgu maqsadi, balki jamiyatning burchi sifatida e’tirof etilmoqda. Bugungi davr bolalari tug‘ma o‘tkir zehn sohiblari bo‘lib, ular axborot olishga va ulardan unumli foydalanishga bo‘lgan qobilyatlari juda kuchlidir.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlami O‘quvchilarga yetkazib berish asosida ma‘lum faoliyat ko‘nikma va malakalani shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilaming o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalami qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar (komp’yuter, televidenie, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, Video va audio magnitofonlar yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida o‘qitishda turli axborot vositalaridan o‘rinli, maqsadli, samarali foydalanish vazifasi turibdi. Metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: o‘qituchilarga o‘rgatayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namovish qilinadi o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi o‘quvchi video lavhalarda aks etgan jarayon, hodisa yoki voqeliklarning mohiyatini daftarlariga qayd etadi O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi Videolavhalar namoyish qilingach, o‘quvchilardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqyelik aks etganligi, qaysi badiiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxs ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Video topishmoqning javobini topish orqali o‘quvchi (talaba)lar o‘rganiladigan yangi mavzu haqida tasavurga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kun ped texnologiyar asosida darslarni tashkil qilish o‘quvchilarni darslarga to‘liq qamrab olishga va ularni ba’zan mustaqil, ba’zan gruhlarda ishlashga shart- sharoitlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 4-sinflar uchun “O‘qish fanidan metodik qo‘llanma”.G. Boymurodova,X. Sattarova, F.Karimova,G.Saydullayeva,Z.Kabilova.Toshkent-2017.
2. “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizom” . Toshkent-2017
3. Interfaol metodlar. Metodik qo‘llanma. D.Ro‘ziyeva, M. Usmonboyeva, Z. Xoliqova. Toshkent -2013
4. www. ziyouz.com kutubxonasi

TEXNOLIGIYA FANIDAN QOG‘OZDAN FOYDALANIB NARSA YASASH YO‘LLARI

Karimova Nasiba Xolmirzayevna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
6-maktab texnologiya fani o‘qituvchisi

Annatatsiya :Ushbu maqolamda texnologiya darslarida qog‘ozdan turli xil narsalar yasash usullari haqida yozganman

Kalit so‘zlar: Mehnat, qog‘oz, mehnat qurollari, dars, o‘qituvchi va boshqa so‘zlar.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo‘gani kabi, boshlang‘ich ta’lim va o‘rta ta’lim sohalarida ham tub islohatlar amalga oshirildi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlari yaratildi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim-tarbiya olishiga bog‘liq.

Mehnat ta’limi darslarni pedagogik jihatdan bilimdon bo‘lgan o‘qituvchilargina ulkan pedagogik samara beradigan darajada olib borish mumkin. Bunday pedagog o‘qituvchi shaxsning manfaatlarini kasb tayyorligi manfaatlaridan yuqori qo‘yadi. Uning kasbkorlik va shaxsiy faziatlari, o‘quvchi shaxsni rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Mehnat ta’limida malakali o‘qituvchilar amaliy ish turlari bo‘yicha maqsad va vazifalarini yoritib berishlari bilan birgalikda darsni tashkil etish metodikasini ham to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf mehnnat ta’limida qog‘oz bilan ishlash darslarni tashkil etish ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo‘l mehnati asosida tashkil etiladi. Mehnat ta’limi darslarida o‘quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy, ekalogik va aqliy imkoniyatlarini aniq mehnat jarayonida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyingi sinflarda davom etilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qilinadi.

Boshlang‘ich sinflarda mehnat ta’lim darslarida o‘quvchilar asosan ishlab chiqarish texnologiyalari mahsulotlari, qog‘oz va karton turlari bilan ishlaydilar.

O‘quvchilar qog‘oz va karton turlari bilan ishlash darslarida qog‘ozni buklash va unga ishlov berish kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, ularni ishlatishda foydalaniladigan asbob-uskunalardan foydalanish qoidalari texnologiyalarini bilishlari kerak. O‘quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg‘ulotlarida emas, balki boshqa dasrslarda ham to‘qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Bu barcha o‘quv anjomlari daftarlar, kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, bosiladigan qog‘oz turlari; yoziladigan, muqova qilinadigan, bosma va rasm soladigan, kitob va oynoma qog‘ozlardir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar turli qog‘ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari; rangi, qalinligi, zichligi, siyohni shimish xususiyati, sathining xarakteri- silliq yoki g‘adir-budurligi bilan tanishadilar.

Mehnat ta’limi darslarida o‘quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatga tayyorlashning ilk bosqichlarini o‘rganadilar. Birinchi sinfda o‘quvchilar eng avvalo faqat dars mashg‘ulotlarida emas, balki boshqa darslarda to‘qnashga keladigan materiallar bilan tanishishdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, texnologiya darsi o‘quvchilarni mehnatga o‘rgatish va ularni kasbga yo‘naltiruvchi fan deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Texnologiya o‘qitish metodikasi
2. Internet saytlardan

USEFUL TIPS FOR ENGLISH EDUCATORS HOW TO CONDUCT TEACHING PROCESS EFFECTIVELY.

Karimova Diyora Ravshanovna
The English teacher of the school №27, Ferghana city
e-mail: diyoraxonk@gmail.com
telephone number: +998916750377

Abstract: The skills and competencies, knowledge and experience of an English teacher are tested through conducting fruitful lessons and using innovative methods in teaching process. Efforts like this put us in a position where we can search for and share modern, advanced experiences.

KEY WORDS: teaching tools, innovative methods, effective tips.

Being an English teacher is a rewarding career choice. However, it is also challenge to teach English effectively. Teaching a new language requires a teacher to first make their students realize the primary aim of learning the language. But in most Indian schools learning English is only examination-oriented. Here are few tips for teachers to teach English effectively. One way to ensure your students for learning is through their participation. Make your students participate by encouraging them to write about themselves and the people they live with. Encourage peer evaluation; it helps your students improve themselves by learning from their mistakes as well as from the mistakes of their peers. After figuring out their problem areas, you can give them exercises and worksheets accordingly. Reading and Literature- Relate literature to real life. Child reading a book. Reading is equally important as learning the rules of English. Use interactive ways to create interest in reading like utilizing various reading materials that relate to real life. Encourage your students read newspapers and magazines aloud turn by turn at the beginning of your class. Encourage your students to find new words from the prescribed text-material. This makes a fun activity where students find new words, learn their meanings and also their reading skills. Young students usually find narrating and listening to stories interesting. Make short stories a part of your class by encouraging your students to narrate stories in English. This helps them improve their communication skills. This also helps you to assess your students' interactive skills and helps them improve. This helps the students improve their thinking ability. Watching cartoons is very helpful tip for teaching language. Although they do not understand the words in the cartoon during language learning, they try to understand the words they use through the actions of the cartoon characters. This is an interesting and effective way for children to learn the language. Technology to teach English. Explore technology and other teaching tools. With the advancement in technology, many interesting tools for teaching have also been developed. Explore the use of technology in the classroom and find new ways of teaching English to your students. There are many interactive applications like English For Kids, Grammar Up, Sentence Builder etc., for children that help them learn and use English effectively. Dramas to engage and inspire. Children performing a play. Dramas and plays are another method to engage students in interactive learning. Ask your students to perform a play based on any story from their prescribed text-book. Let this be a group task where students get to decide their characters in the play and prepare dialogues suitable to the scenes in the play. Students learn how to make a script, how to act it out and how to organize the play. This also helps them improve their language skills. Today's teacher should not only teach students, but also teach them to work independently, to think freely, to be creative. The skills and competencies, knowledge and experience of an English teacher are tested through conducting fruitful lessons and using innovative methods in teaching process. Efforts like this put us in a position where we can search for teachers, share modern, advanced experiences.

References:

1. I.Y.Tursunov, U.N.Nishonaliyev. The course of pedogogy. – T.O'qituvchi, 1997.122-126 p
2. Voris.Youth Journal. V 1-70. February 18 .2013. 3. R.Munavar. 7 Tips to teach English effectively/theteachersdigest.com August 21,2014

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA NOAN'ANAVIY DARSLAR

Karimova Mohida Absattarovna
Namangan viloyati Uychi tumani
7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
geografiya fani o'qituvchisi
+998974660141
karimova@mail.ru

Annotatsiya: maqolada geografiya darslarida yangi interaktiv metodlar orqali dars o'tish usullari va ularning ahamiyati borasidagi qarashlar mavjud. Hozirgi kunda eng ommalashgan tur ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv metod, an'anaviy ta'lim, noan'anaviy ta'lim, jarayon, o'quvchi, o'qituvchi.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri- bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi ca o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fiklashga, erkin so'zlashish qobiliyati shakllanishiga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iboratdir.

O'nlab yillar o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning o'ziga xos modellaridan biri bo'lib qolmoqda. An'anaviy dars- muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchu shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yoritish, mustahkamlasu va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim shaklidir. An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol- javib, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu boisdan ham, ko'p hollarda dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli- tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchining o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan. Noan'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihati ayniqsa, geografiya darslarida o'quvchilarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, geografiya darslarida majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, yangi mavzuni tushuntirish chog'ida buyruq orqalu emas, balki shu yangi mavzuni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyojini, qiziqishi, imkoniyatinu chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish orqali amalga oshiriladi.

Geografiya fanini o'rgatishda " Bilaman/ bilishni xohlayman/ bilib oldim" kabi usuldan foydalanish tavsiya etiladi. Misol uchun, Afrika mavzusi o'tilishi o'quvchilarga e'lon qilindi.

- O'quvchilar mavzu bo'yicha jadvalning birinchi (bilaman) va ikkinchi (bilishni xohlayman) deb nomlangan qismlarini to'ldiradilar.
- So'ngra mavzuga oid material tarqatiladi. Tarqatma material o'zaro raqib guruhlar tomonidan o'qib o'rganilgandan so'ng, jadvalning uchinchi (bilib oldim) bandi to'ldiriladi.
- Guruhlar tomonidam to'ldirilgan jadvallar o'zaro taqqoslanadi.

Ushdu metodning afzalliklari: mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib borish imkoniyatini beradi; tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, geografiya darslarida, FSMU yoki " taqdimot" kabi usullardan foydalanish ham qo'l keladi.

Mavzuni o'rganish doirasida, geografiya darslarida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish o'zining ijobiy samarasini berib kelishini, ularni tashlil etish turlari, bosqichlarini qanday amalga oshirish lozimligi borasida ma'lumotlarga yanada teranroq tushunildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat- T.: Akademiya, 2004.

SOG‘LOM BOLANI VOYAGA YETKAZISHDA DORIVOR O‘SIMLIKLAR O‘RNI.

Karimova Maqsuda Bahodirovna
Xonqa tumani 24-son maktabning
biologiya fani o‘qituvchisi

Mamlakatimizda dorivor o‘simliklarni madaniy holda ekish ishlari 1992-yilda boshlangan edi. “Shifobaxsh” ilmiy-ishlab chiqarish turi o‘ttizdan oshdi. Hozir bunday o‘simliklar, dorivor o‘simlikning 45 tonnasi madaniy holda yetishtirilganda shuncha mahsulotning 215 tonnadan ortig‘i madaniy holda yetishtirildi. Mazkur markazda olib borilgan izlanishlar tufayli tabobatda keng ishlatiladigan qizil exinotseya, dorivor valeriana kabi o‘simliklar urug‘i iqlim sharoitimizga moslashtirilib, yuqori sifatli hosil olinmoqda. O‘zbekiston. territoriyasidagi to‘qayzor o‘simliklarini tashkil qilishda teraklarning bir necha turi, jiyda, yulg‘un, qizilmiya, kandir, qamish,, savag‘ich, ajriq, sho‘rajriq, ilonchirmoviq, oqbosh, shirinmiya, yantoq kabi juda ko‘p o‘simliklar, qatnashadi. To‘qayzor o‘simliklarining 40% ga yaqini vaqt-vaqti bilan suv toshib turishiga va sho‘rlangan sharoitda o‘sishga moslashgan o‘simliklardir.

Shulardan biri olovrang jiyda nafaqat to‘yimliligi, balki bir qator yosh bolalarda hamda kattalarda uchraydigan xastaliklarga davoligi bilan ham qadrlidir. Uning qoqisini saqlash mumkin. Jiyda kukun holiga keltirilib, xamirga qo‘shilsa,yopilgan nonning quvvatbaxshligi ortadi.Bazida tub aholi bu ne’matni ‘non jiyda’ deb ulug‘laydilar. Jiyda darmondorilarga boy bo‘lgani uchun xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda tavsiya etiladi. Xalq tabobatida jiyda mevasi yoki damlamasi bolalarda uchraydigan bemavrid ich ketishiga qarshi dorivor sanaladi. Damlama nafas yo‘llari shamollaganda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilaydi. Damlamasini tayyorlash uchun 50g miqdordagi jiyda mevasi ustiga 1,5l qaynoq suv quyiladi. Keyin yengil olovda 10-15 minut qaynatiladi. So‘ng olovdan olib, 1soat damlab qo‘yiladi. Bu damlama kuniga 2 osh qoshiqdan 3-4 mahal ichiladi. Shuningdek, jiyda guli yosh bolalardagi gijjalarni haydovchi beozor, sinalgan vosita sifatida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, kolit, bronxit, yurak xastaliklarida, barglari esa bod, belangi kasaliklarida, shuningdek, jarohatlarni tez et oldirishda buyuriladi. Yana jiyda mevasidan sharob ham tayyorlasa bo‘ladi. Undan juda xushbo‘y ichimlik hosil bo‘ladi. U parishonxotirlikka chek qo‘yadi, teran fikrni uyg‘otadi. Jiyda gullarining muattar hidi yurak faoliyatini yaxshilaydi. Hozirgi zamon tibbiyot ilmida jiyda asosida olinadigan preparatlarning yosh bolalarda ko‘p uchraydigan yallig‘lanishlarga qarshi ta’sir ko‘rsatib, ichakning to‘lqinsimon harakatini susaytirishi mumkinligi o‘rganilgan. Jiyda asosli dorivorlar enterokolit, stomatitlarda burishtiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Ular bakteriyalarga qarshi ta’sir ko‘rsatadi. Jiyda mevalaridan sanoat miqyosida turli preparatlar ishlab chiqilgan. Ular me’da ichak yo‘lidagi yallig‘lanish kasalliklarini davolaydi, shuningdek, stomatit, gingivit kabi dardlarda og‘iz bo‘shlig‘i va tamoqni chayish uchun ishlatiladi. Jiydaning bunchalar serhosiyat ne’matligi uning tarkibidagi shifobaxsh moddalar borligi bilan izohlanadi. Jumladan, jiyda mevasining yumshoq qismida 40 % atrofida qand moddasi bo‘lib, uning 20% ni fruktoza tashkil etadi. 10% oqsillar, kaliy va fosfor tuzlari, B1, B2, PP, E kabi vitaminlar, o‘simlik barglarida salmoqli miqdorda askorbat kislota (vitamin C), gullarida 0,3 % efir moylari aniqlangan. Jiyda tanasi va shoxlarining po‘stloqlarida elagnin, tetrasidrogarmol alkaloidlari, oshlovchi va bo‘yoq moddalari mavjud. Jiyda juda beozor o‘simlik bo‘lib, uni danagi, qalamchasi yordamida ko‘paytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. “Hammabop tibbiyot qo‘llanmasi” David Verner Toshkent-2011.
2. “Tabiatning o‘zi tabib” Shukur Irgashev Toshkent-2011.
3. “Xalq tibbiyoti” Boris Li Toshkent-2009.
4. “Tabobatda ishlatiladigan dori darmonlar” M.A.Klyuev tahriri ostida. Toshkent-1995.
5. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibbiyotda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar. V Karimov, A Shomahmudov. Ibn sino nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi 1993y.
6. www.ziyonet.uz
7. www.google.uz

KOMIL XORAZMIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Karimova Nargiza
Namangan viloyati, Pop tumani
33- umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
tel 94 5051655

Annotatsiya: Xalqimiz o‘z ma’rifatparvar ajdodlarini unutmaydi, ularning nomini doimo hurmat bilan tilga oladi. Xorazm tarixida ma’rifatparvar shoir, musiqashunos, davlat arbobi Komil Xorazmiyning o‘z o‘rni bor. U xalqining dunyoning yetakchi millatlari qatorida ko‘rishni orzu qilgan ijodkor edi. Maqolamiz Komil Xorazmiy va uning pedagogik qarashlariga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: ”Murabbayi Komil”, rus-tuzem maktabi, “Qog‘az”.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xivadagi adabiy harakatning davomchilaridan biri buyuk san’atkor, musiqashunos, mohir xattot va tarjimon davlat arbobi, ma’rifatparvar shoir Komil Xorazmiy 1825 – yilda Xiva shaxrida mudarris Abdulla Oxund oilasida tavallud topgan. Yoshlikda uni erkalab Pahlavon laqabi bilan chaqirganlari uchun uning nomi keyinchalik, Pahlavon Niyoz Muhammad shaklida mashhur bo‘lib ketgan. Madrasada o‘qib yurgan kezlarida Komil Xorazmiy arab, fors –tojik tillarini puxta o‘rgangan. Zamondosh shoirlar suhbatlarida, adabiy majlislarda ishtirok etib turgan va keyinchalik o‘zi ham g‘azallar yozgan. U xattotlik va musiqa ilmini puxta egallagan. Xattotlik sirlarini boshqa yoshlarga ham o‘rgatgan, uning ko‘magida 50 nafarga yaqin xattotlar yetishib chiqqan. Komil Xorazmiy Xorazm maqomlarining ohanglarini nota shaklida qog‘ozga tushirgan, Xorazm “Rost” maqomining “Murabbayi Komil “, “Peshrovi Firuz” kuylarini bastalagan. Mohir tarjimon sifatida Barxo‘rdor Turkmonning asarlari va Husayn Voiz Koshifiyning “Latoyif uz-zaroif” asarini fors –tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan.1884-yilda Komil Xorazmiy boshchiligida Xorazmda rus-tuzem maktabi ochilgan. U maktabda ta’lim –tarbiya ishlari bilan shug‘ullangan. O‘z g‘azallarida insonparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini, ta’lim –tarbiya masalalarini ilgari surgan.”Kamol” g‘azalida ilm-marifatni yuksak baholab shunday deydi:

Emas kishiga bu dunyoda mulk-mol kamol,
Xusuli ilmu hunar keldi bezavol, kamol.

Shoir ilmni insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri sifatida targ‘ib etadi, ilmli, hunarli kishi hurmat qozonajagini shunday ta’kidlaydi:

Kamol bergusidir so‘zga shuhratu, ta’sir,
Bu qushga qilgali parvoz parrubol kamol.

Komil Xorazmiyning ko‘pgina g‘azallari ilm-ma’rifatga, yetuklikka chorlovchi fikrlar bilan yo‘g‘rilgan. Bu fikrlar shoirning orzu-istaklari, dardlari, ehtiros va samimiyat bilan sayqallanib, rangin misralarda qalblarga yetib boradi. U “Qog‘oz” radifli she’rida ma’rifatparvarlik uchun zarur bo‘lgan qog‘ozni ulug‘laydi, uni savodli kishi uchun makon, xat-savod chiqarish manbayi ekanligini, inson qaddu qomatini, uning barcha sifatlarini ta’riflash uchun kerakligni ta’kidlaydi. Qog‘oz chehrasida ishq masalasi olamga yoyilishi, inson lafzi ruxsorining oyinasi ekani tasvirlanadi. Qog‘oz savodsizlarga harfni o‘rgatuvchi va dunyoga bo‘lgan mehrni tahrir qiluvchi manba ekani, shuningdek, daraxtlar qalamga, daryolar siyohga, osmon esa qo‘g‘ozga o‘xshatiladi.

Ko‘zu qaddu xatu la’ling sufotin qilgali tahrir,
Midodim-ko‘z, mijjam-xomam, siyohi ashki jon qog‘az.
Sorig‘ chehramdur ishqini qilgon fosh olamga,
Nechunkim lafz ruxsorigadur oyinasoz qog‘az…
… Jamoli vasfi tahririn tamom etmak mumkin emas :
Qalam ashjoresa, daryo siyohi, osmon qog‘az.

Insonparvar shoir Komil Xorazmiy o‘z ijodida hayotiy muhim masalalarni ilgari sursh bilan o‘z davrining ijtimoiy muhim masalari haqida ham qalam tebratdi, jamiyat har tomonlama to‘kis bo‘lishi, kamol topishi kerakligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek pedagogika antologiyasi. -O‘qituvchi: Toshkent, 1994.

PISA VA PIRLS - O‘QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI BAHOLASH XALQARO DASTURLARI

Karimova Safura Raxmatullayevna
Jomboy tumani 40-IDUM o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
tel: +998972865070

Annotatsiya: mazkur maqolada Xalqaro tadqiqotlar, ularning mohiyati va tadqiqotga tayyorgarlikning borishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar : *Xalqaro tadqiqotlar, PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. *(2018 yil 8 dekabrdagi 997-son)*.

Mazkur hujjatga asosan Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha bir qator xalqaro tadqiqotlar amalga oshiriladi. Jumladan,

PIRLS - dasturi asosida boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasi baholanadi;

TIMSS - dasturi orqali 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasi baholanadi;

PISA - dasturi esa 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga mo‘ljallangan;

TALIS - dasturi yordamida umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktori va o‘qituvchilari bilan so‘rovnoma o‘tkazish orqali maktabda o‘qitish va ta’lim olish jarayonlari samaradorligi aniqlanadi. Bizning davlatimiz o‘quvchilari ham 2021-yilda xalqaro baholash tizimida ishtirok etadi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘i Ulug‘bek Tashkenbayev hamda Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA — International Association for the Evaluation of Educational Achiyevement)ning Amsterdamdagi direktori Andrea Netton o‘rtasida O‘zbekistonning PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etishi yuzasidan 25-yanvar kuni ilk rasmiy uchrashuv tashkil qilindi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko‘ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda. Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo‘ylab ta’limni baholash, tushunish va yaxshilash bo‘yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog‘ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta’lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o‘qish salohiyati bo‘yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta’lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi. O‘quvchilarning topshiriqni tez, to‘g‘ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlay bilishi, ishga ijodiy yondashishi muhimdir. O‘quvchilarni ishni bunday o‘ylab, izchil bajarish ko‘nikmalari o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi, albatta. Bunday ko‘nikmalarni bolalar o‘qituvchining alohida o‘tkaziladigan mashqlari orqali egallaydilar. Faqatgina o‘qituvchi rahbarligida ishlagandagina, ular fikrlashga, amaliy mashg‘ulotlarni ijodiy bajarishga, yo‘l qo‘yilgan xatolarni topish va uni tuzatishga o‘rganadilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. PISA 2015 Science Ftamework, OECD, 2017. www.oecd.org/about/publishing/corrigenda.htm.

MILLIY GINASTIKA TIZIMINING YARATILISHI VA UNING PSIXOLOGIK JIXATLARI

Kasimova Xulkar
UrDu Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Karimova Nilufar
UrDu Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy ginastika tizimining yaratilishi va uning psixologik jixatlari haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zi: Milliy gimnastika, tariya, gimnastika taraqqiyoti, atletik yo‘nalish .

Milliy gimnastika tizimining yaratilishi XIX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu ijtimoiy talablar oqimi edi. Urush qilish usullari bir vaqtda harakat qilishni, buyruqlarning aniq bajarilishini, jang maydonida saflanishlarini talab qilardi. O‘sha davr pedagoglari va shifokorlariga gimnastika yoshlarni jismonan tarbiyalashning birdan bir to‘g‘ri usubi bo‘lib ko‘rinadi.

XIX asrning birinchi yarmig kelib, gimnastika taraqqiyotida uch yo‘nalish ko‘zga tashlana boshladi:

-*gigiyenik yo‘nalish* (gimnastika odamning salomatligini mustahkamlash va jismoniy kuchini rivojlntirish vositasi hisoblanardi);

-*atletik yo‘nalish* (gimnastika murakkab mashiqlarni, shu jumladan, gimnastika jihozlaridan bajariladigan mashqlarni qo‘llash yo‘li bilan insonning harakat sifatini rivojlantirish vositasi deb hisoblanardi);

-*amaliy yo‘nalish* (gimnastika urushda uchraydigan turli to‘siqlardan oshib o‘tishni askarlarga o‘rgtish vositasi hisoblanaydi),

Nemis gimnastika tizimi. Napoleon qo‘shinlari Prussiyani egallab turgan davrda tarkib topa boshladi. Bu tiimning asoschisi F.Yan (1778-1852) edi. F.yan gimnstikadan mamlakani bosqinchilardan ozod qilish maqsadida yoshlarga harbiy tayyorgarlik berish uchun foydalanishga intildi. Gimnastika jihozlaridagi mashqlar v harbiy o‘yinlar bu tizimning asosini tashkil qilar, chunki ular, Yanning fikricha, odamning jismoniy kuchini rivojlantirib, irodasini mustahkamlar edi. U o‘zining gimnastikasini “turnkunst” (epchillik san’ati), shogirdlarini esa “turnerlar” deb atadi. Keyinchalik nemis gimnastikasi “turnen” degan nom oldi.

Yan Frizen Eyzelen bilan birgalikda gimnstika mashqlari texnikasini ishlab chiqdi. “Nemis gimnastikasi” darsligi nashr etilib, unda o‘sha vaqtda ma’lum bo‘lgan jihozlarda bajariladigan hamma mahqlarning tavsifi berilga edi. Mashqlarni bajarayotganda shug‘illanuvchilardan boshni to‘g‘ri tutish, oyoq uchlari cho‘zilgan bo‘lishi, gvdani harbiycha to‘g‘ri tutish, to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakat qilish talab qilinardi. Mashg‘ulotlarda musobaqa usulidan foydalanilardi, bu esa shug‘illanuvchilarning qiziqishni juda ham oshirar va ular bir hildagi mashqni behisob takrorlashga intilishardi. U davrada turli harakatlar kombinatsiyalari qo‘llanilmas edi.

A.Shpiss (1810-1858) nemislar turnenini maktabda o‘qitishga moslashtirib, mashg‘ulotlar jadvalini tuzib chiqdi. U 1840-yilda “Turnerlik san’ati haqida ta’limot” nomli asarini e’lon qiladi. Shpissing gimnastika mashg‘ulotlarida tartibli mashqlar (saf va qayta saflanishlar) bo‘lib, undan keyin gimnastika jihozlarida mashq bajarishga tayyorlovchi erkin mashqlar (Pestolotssi bo‘g‘in gimnastikasidan va Fit gimnastikasidan olingan harakatlar) bajarilar edi. Shpiss uzun yakkacho‘p, uzun qo‘shpoyalar, qator narvonlar, qator langarcho‘plar singari guruhiy mashq jihozlarini joriy qildi. Darsning ykuniy qismida harakatli o‘yinlar o‘tkazilar va guruhlarda bajariladigan mashqlar qo‘llanilar edi.

Shpiss nemischa turnen tamoyillarini saqlab qolgan holda nemis burjua milliy gimnastika tizimini yaratib tugalladi. Shpiss gimnastikasi buyruqlarni yaxshi bajaradigan va harbiy xizmat uchun yetarli jismoniy tayyorgarligi bo‘lgan intizomli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishga yordam beradi. Biroq bu uslub bolalar tashabbusini bo‘g‘ib qo‘yar, eng muhimi, o‘sha davrdagi tabiiy va pedogogik fanlardagi ko‘pgina ilg‘or fikrlarga to‘g‘ri kelmas edi. Ana shu kamchiliklar juda ko‘p e’tirozlarga sabab bo‘lgan. Bular orasida eng asosli e’tirozlardan biri P.F.Lesgaftning e’tirozlaridir.

Shved gimnastika tizimi nemis gimnastikasi bilan oldinma-ketin paydo bo‘lgan. Unda gigiyena yo‘nalishi yaxshi ishlab chiqilganedi. P.Ling (1776-1839) XIX asrning birinchi

yarmida gimnastikanign Daniyada o‘rgana boshladi. Chunki o‘sha davrda gimnastika G‘arbiy Yevropadagi ilg‘or mamlakatlardan biri bo‘lgan Daniyada tarqala boshladi. P.Lingning tashabbusi bilan 1886-yilda Stokgolmda maxsus institute ochildi. P.Ling u yerda o‘zinging jismoniy tarbiya uslubi va vositalaini qo‘lladi. U inson badanini mustahkamlaydigan va kamol toptiradigan masgqlardan foydalanish kerak, deb hisoblardi. Ammo u gimnastikaning tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olmagan edi.

Uning o‘g‘li Y.Ling (1820-1886) otasi boshlagan ishni davom ettirib, mashg‘ulotlar jadvalini ishlab chiqadi. Mashqlarni jadvalga solib, maxsusu gimnastik jihozlardan foyalanish va bir qancha uslubiy qoidalarni ilgari suradi. Bunda mashqlar anatomic belgilarga qarab, uning tasnifi beriladi. Muvozanat, to‘g‘ri yo‘nalish va kuchga tayanish bunga asos qilib olinadi. Gavda a’zolarining aniq bir holatda bo‘lishiga katta ahamiyat beriladi.

Shved gimnastka darsi qat’iy tartibda birin-ketin keladigan 16 qismdan iborat jadvalga binoan tuzilgan edi. Bu tizim o‘qituvchining tashabbusini cheklashiga qaramay, ko‘plarga ilmiy tomondan asoslangan tuyilar, bu hol shved gimnastikasining mashhur bo‘lib ketishiga va ko‘pgina mamlakatlarda keng tarqalishiga sabab bo‘lgan edi.

Fransuz gimnastiksi tizimi, asosan, harbiy-amaliy yo‘nalishda bo‘lib, shved tizimi bilan deyarli bir vaqtda shakllandi. Fransiyada gimnastika tizimini yaratgan kishi Amoros(1770-1848) bo‘ldi. U A.V. Suvorovning harbiy jismoniy tayyorlov tizimi bilan tanish bo‘lib, bundan o‘z tizimini yaratishda foydalandi. Hauotda va harbiy sharoitda zarur bo‘lgan ko‘nikmalar orttirishga yordam beradigan mashqlar – to‘siqlar qo‘yilgan ochiq joyda yurish va yugurish, qurol-yarog‘lar bilan turli holatlardan sakrash, yukni yoki “yaradorni” jiydan-joyga ko‘tarib o‘tish, suzish va sho‘ng‘ish, kurash tushish, uloqtirish, o‘q otish, qilichbozlik va chvndozlik mashqlarini u eng yaxshi mashqlar, deb hisoblar edi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. A.Yefemenko. Gimnastika. T.,O‘zDJTI, 1993
2. I.Azimov, Sport psixologiyasi. T.,O‘zDJTI, 1993
3. M.Karimov. O‘zbekistonda gimnastika. T.,O‘zDJTI, 1999

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA ELEMENTLARINI O‘RGANISH

Kawkaeva Rana Aytbaevna
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Qoraozek rayoni 8- maktab o‘qituvchisi
+998 904207844
Rana.aytbaevna@gmail.com

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinflarda sintaksisning asosiy manbayi so‘z birikmasi va gap ekanligini o‘quvchilarga o‘rgatish, boshlang‘ich sinflarda gap ustida ishlash vaa ularga tinish belgilarini tanishtirish haqida.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, sintaksis, punktuatsiya, ta’lim, dars.

Sintaksis tilshunoslikning asosiy qismi bo‘lib, boshlang‘ich ta’limda morfologiya bilan taqqoslanib o‘rgatiladi. Sintaksis o‘z ichiga so‘z turkumlari bilan gap bo‘laklari o‘rtasidagi bog‘lanish va farqni tushuntirishni oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari simtaksisni o‘rganish davomida o‘z nutqlarida uchraydigan ba’zi nuqsonlarni tuzatib boradilar va sodda va qo‘shma gapni bemalol ajratib, tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, ular o‘z nutqiy faoliyatini kengaytirishadi va murakkab gap tuzish imkoniyatiga ham ega bo‘lishadi.

Sintaksisni o‘rganish ifodali o‘qish san’atini o‘zlashtirishda talab etiladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan ona tili darsining yetakchi vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapni mazmunli tuzish ko‘nikmasini shakllantirishdan iboratdir. Boshlang‘ich ta’limda gap ustida ishlashning bir necha yo‘llari ishlab chiqilgan va ular quyidagilar:

- Yozma nutqni orfografik normalar asosida to‘g‘ri tashkil etish;
- Muhim belgilar vositasida gap xususidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- Bog‘lanishli nutqda gapning maqsadga va ohangga ko‘ra turlaridan o‘rinli foydalanish;
- Fikrni yorqin ifosa etadigan so‘zlar ishtirokida gap tuzish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- Gap qurilishini o‘rgatishda so‘zlarning bog‘lanishiga, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning joylashish tartibiga e’tiborli bo‘lish.

Bundan ko‘rinib turibdiki, “ Gap” mavzusi boshlang‘ich ta’lim jarayonida, uning barcha bosqichlarida o‘rgatiladi. O‘quvchilar birinchi sinfdanoq “ gap so‘zlar tuziladi” degan tushunchani o‘zlashtirib oladilar. Gapning xususiyatlari: gap tugashida oviz pasayadi; yozuvda gap oxirida nuqta qo‘yiladi; gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanishi uqtiriladi. Ikkinchi sinfda gap ustida ishlashning yangi bosqichiga o‘tilinib, o‘quvchilar gapni amaliy o‘rganishdan tushuncha sifatida o‘zlashtirishga o‘tadilar. O‘qituvchilar gapda eng muhim- bosh bo‘laklar ega va kesim bo‘lishini o‘rgatishadi.

Uchinchi sinfda gap ustida ishlash doirasi kengayib, o‘quvchilar gapning maqsadga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari va gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi bilan kengroq tanishadilar. Masalan, yosh rassomlar tanlovga mukammal tayyorlandilar. Bosh bo‘laklar: rassomlar (kimlar?) – ega; tayyorlandilar (nima qildilar?) – kesim. To‘rtinchi sinfda esa so‘z birikmasi gap komponenti sifatida ajratiladi va gapning uyushiq bo‘laklarini o‘rganish jarayonida gap bo‘laklari haqidagi bilimni kengaytiradi. Ushbu sinfda ham “ so‘z birikmasi” qo‘llanmasa- da, o‘quvchilar unimg muhim belgilarini amaliy tarzda bilib olishlari lozim. Bundan tashqari, ushbu kurslar davomida o‘quvchilar mashqlar yordamida ikki nuqta, chiziqcha, tire va qo‘shtirnoqning qo‘llanishini ham o‘rganishadi.

Xulosa qilib aytganimizda, boshlang‘ich sinflarda sintaksis o‘rganish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va ular orqali o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishga, nutq madaniyatini egallashga imkoniyat yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Yusupova Sh. O‘qituvchilar kitobi. T.,2003.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MATEMATIK BILIMLARNI EGALLASHNING AHAMIYATI

Kayumova Madina Baxodirovna
Nasritdinova Muxabbat Xamidullayevna
Namangan shahar 70-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari
Tel: +998999710293

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish jarayonida matematik bilimlarning ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, asos, aqliy rivojlanish, nazariya, tushuncha.

Boshlang'ich sinfda matematika o'qitish o'quvchilarning matematik bilimlarini rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuasini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. 6-10 yoshli davr bolalarning fikrlash qobiliyatlari va tasavvurlari shakllanishida eng mas'ul va muhim davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Bolalikning mana shu davrida shakllantirilmagan bilimlar poydevorini keyinchalik to'ldirish juda qiyin. Shu sababli, matematikadan boshlang'ich ta'lim metodikasining asosiy vazifalaridan biri – o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlash, bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta'sirlarni rivojlantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari matematik bilimlarni berishda yangi matematik tasavvurlar, ko'nikma va bilimlarni shakllantiruvchi uslublardan tez-tez foydalanmoqdalar. Matematikaning fan sifatida kiritilishi, o'quvchilarning bilim doirasini, fikrlashlarini mustaqil holda kengaytirishga, o'quvchining o'zida ishonch hosil qilishda, tashqi muhit ta'sirining sanog'iga qiziqishni shakllantirishga, qolaversa, yuqori sinfda o'qish davrida matematikani yaxshi o'zlashtirib ketishga yordam berishi hisobga olingan.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida son, hisob-kitob, birlik va ko'pliklar o'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirishga yordam berishi aniqlangan. Tabiat har bir sog'lom bolaga to'la rivojlanish imkoniyatlarini bo'lib bergan va har bir sog'lom bola ijodiy faoliyatning yuqori cho'qqilariga ko'tarilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy firlash qobiliyatlarini shakllantirishni amalga oshirish muvaffaqiyati pedagoglar ixtisosiga, uning kasbga oid tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman maktab matematika kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda ishlashda o'rta maktablarda matematika o'qitishda ko'zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'limning ahamiyatini to'g'ri baholash kerak. O'rta maktab matematika dasturiga taalluqli ko'pgina masalalar boshlang'ich sinflardayoq shu darajada mustahkam o'zlashtirilishi kerakki, bunda ular o'quvchilar ongida butun umr saqlanib qolsin. Boshqa masalalar esa o'qitilishning dastlabki bosqichida keyingi sinflarda mufassal qarab chiqishga tayyorgarlik ko'rish maqsadidagina kiritiladi yoki biror malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida fikrlash qobiliyati darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun kiritiladi.

Maktabning boshlang'ich sinflarida bolalar matematika sohasida dasturda nazarda tutilgan bilimlar, o'quvlar va ko'nikmalarning ma'lum hajmini ongli ravishda va mustahkam egallab olishlari haqida gap borganda yuqorida aytib o'tilgan mulohazalarni hisobga olish kerak. Matematika kursi o'quvchilar kuchi yetadigan darajada o'quv materiallarini umumlashtirishni, o'rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiy prinsip va qonuniyatlarni tushuntirishni, qarab chiqilayotgan hodisalar orasida mavjud bo'lgan bog'lanishlarni tushuntirishni nazarda tutadi. Bu asosan amallarning xossalarini, ular asosidagi mavjud bog'lanishlarni o'rganishga, bolalarda shakllanayotgan amaliy o'quv va ko'nikmalarning asosi bo'lgan matematik munosabatlar va bog'lanishlarga taalluqlidir. O'quvchilarda egallangan bilim, o'quv va malakalarni turli xil shartlarda qo'llanishga o'rgatishni o'quvchilarning maxsus masalasi sifatida qarash mumkin.

O'quvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to'g'ri, aniq, qisqa matematik nutqni o'stirish masalasi uzviy ravishda bog'langandir. Matematika o'qitishning asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga hisoblash, o'lchash va grafik ko'nikmalarning ma'lum aniq

sistemasini hosil qilishdan iborat, boshqacha aytganda bu sistema eng sodda amallarni bajarishdan iborat bo‘lib, ko‘p marta takrorlash hisobiga avtomatizmgacha yetkazildi. Bu vazifani yetarlicha baholamaslik amalda bolalar bilimlari sifatining pasayishiga olib keladi. Shunga qaramay hozirgi vaqtda boshlang‘ich matematika kursini o‘rganishni faqatgina ko‘nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o‘zlashtirish bilan almashtirish ham mumkin emas. O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni ochishda kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishni o‘rganishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar chiqarishni o‘rganishlari kerak.

Matematikadan boshlang‘ich ta’lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o‘qitish nazariyasini o‘z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o‘zi yetarli emas. O‘qitishning ma’lum mazmuni va o‘qituvchilarning aqliy faoliyati, saviyasi bilan tasvirlanadigan u yoki bu o‘quv yo‘nalishi uchun eng yaroqli usullarini qo‘llay bilish, darsga tayyorlanishda yoki darsning o‘zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur. Ayni shu boshlang‘ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun o‘quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasi va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish ayniqsa muhimdir. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to‘g‘ri, aniq, qisqa matematik nutqni o‘stirish masalasi uzviy ravishda bog‘langandir. Bu matematika o‘qitishning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikbayeva N. U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi
2. Jumayev M. E., Tadjieva Z. G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi.

MASOFAVIY O‘QITISHNING AFZALLIKLARI

Kuchkarova Nargisa Rahimjonovna
Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani
24- umumiy o‘rta ta’lim maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: 99899 020-23-38

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim sohasini rivojlantirishda, yoshlarni zamonaviy usulda o‘qitishda hamda raqobatbardosh kadr qilib tayyorlashda masofaviy ta’limning ahamiyati to‘g‘risida fikr mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, ta’lim jarayonini axborotlashtirish

2020 yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili, deb e’lon qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoev ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratdi: “Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya,

Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”

Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart.

Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Yurtimiz “Xalqaro axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi” bo‘yicha 2019-yilda 8 pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, hali judayam orqadamiz.

Shu bois, “Raqamli iqtisodiyot”ga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi.

Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham samarali vositadir.

Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilashi mumkin. Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida, men yurtimizda 2020-yilga “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb nom berishni, taklif etaman”.[1]

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish, raqobatdosh kadrlarni tayyorlash, yoshlarni zamonaviy usulda o‘qitishda masofaviy ta’limdan foydalanish afzal hisoblanadi.

Masofaviy ta’limdan foydalanuvchilar ta’lim muassasasiga qatnab, belgilangan vaqtda auditoriyalarda o‘tirishga majbur bo‘lmaydilar — bilim olish uchun Internet tarmog‘iga ulangan kompyuter mavjud bo‘lishining o‘zi kifoya.. Ta’lim olishga ehtiyojmand bo‘lganlar vaqt va imkoniyatlarga ega bo‘lmagan holda, har qanday olis masofadan turib, o‘zlariga qulay joy va vaqtda ta’lim olish bilan shug‘ullanish jadvalini o‘zlariga alohida qulaylashtirib, tuzib oladilar. Masofaviy ta’lim shakli foydalanuvchiga o‘zini namoyon etishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. O‘z tafakkuri ustida ishlash, chuqur o‘ylab ko‘rish imkoniyati ta’lim oluvchilarga og‘zaki nutqda yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklarning oldini olishga yordam beradi. Masofaviy ta’lim foydalanuvchi dunyoqarashini kengaytiradi. Har bir foydalanuvchi bilim sirlarini yanada chuqur egallash maqsadida Internet tarmog‘idagi elektron pochta yoki Web-tizimdan foydalanadi.

Hozirgi davrda yuqoridagi talablarni ta’minlagan holda umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarda ta’lim beruvchi mutaxassis-pedagoglarni tayyorlash uchun masofaviy ta’lim kurslari dasturlarini ishlab chiquvchi, masofaviy ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash zarurati dolzab bo‘lib turibdi. Masofaviy ta’lim foydalanuvchilarida hozircha

[1] 4 Yanvar 2020 Prezident murojatnomasiO‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati

mazkur ta’lim tizimi sohasida tajriba yetarli darajada emasligi va o‘quv kurslarini oxiriga qadar qiyinchiliklarni yengib, sabr bilan bilim olish motivatsiyasi ham shakllanib ulgurmagan. Bunda eng ko‘p uchraydigan to‘siqlardan biri o‘quvchilarning o‘qishni davom ettirishni xohlamay qolishlaridir. O‘qishning maxsus on-layn sharoitida o‘tkazilishi evaziga ta’lim oluvchi yanada ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Ta’lim jarayonida shaxsan yolg‘iz bo‘lish, yonida haqiqiy hamkor ta’lim oluvchilarni his emaslik, o‘z xohishiga muvofiq vaqt va joyda ta’lim jarayoni bilan shug‘ullanish mumkin. Biroq masofaviy ta’lim hali an’anaviy ta’lim tuzilmasidagi yordamchi tizim sifatida shakllanib ulgurganicha yo‘q.

Masofaviy ta’lim — bu ta’lim muassasalari uchun ham, foydalanuvchilar uchun ham ancha arzon tushadigan ta’lim shaklidir. Bunda kommunal xizmatlar, auditoriya soatlari va boshqalar uchun to‘lovga xojat qolmaydi. Masofaviy ta’lim — ta’lim turi sifatida jiddiy va muhim masaladir.

Masofaviy o‘qitishning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. O‘qitishning ijodiy muhiti. Mavjud ko‘pgina uslublar asosida o‘qituvchi (pedagog) ilm beradi, o‘quvchi- talabalar esa faqat berilgan materialni o‘qiydilar. Taklif qilinayotgan masofaviy o‘qitish asosida esa o‘quvchi-talabalarning o‘zlari kompyuter axborotlar bankidan kerak bo‘lgan ma’lumotlarni qidirib topadi va o‘zlarining tajribalarini boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo‘lishini ta’minlaydi hamda o‘z o‘rnida mehnat ta’limi olishini rag‘batlantiradi.

2. Mustaqil ta’lim olishning imkoniyati borligi. Masofaviy o‘qitish asosida ta’lim berish boshlang‘ich, o‘rta, oliy va malaka oshirish bosqichlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Tayyorgarligi turli darajada bo‘lgan inspektorlar o‘zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari va o‘zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo‘lishi mumkin.

3. Ish joyidagi katta o‘zgarishlar. Masofaviy o‘qitish asosida ta’lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan ham ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olayotgan yoshlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bunday uslub asosida o‘qitish kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

4. O‘qitish va ta’lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy o‘qitish asosida ta’lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, masofaviy o‘qitish asosida ta’lim olish Oliy o‘quv yurti tomonidan qo‘yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta’lim olayotgan o‘quvchi-talabalarning boshqalardan ustunligi ularning eng yaxshi, sifatli materiallar va o‘qituvchi (pedagog)lar bilan ta’minlanishidadir. Ta’lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda o‘qituvchi (pedagog) auditoriyada o‘qitish shartlaridan holi bo‘lishi kerak.

Ta’lim jarayonini axborotlashtirish - jamiyatni axborotlashtirishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirish quyidagi qulayliklarga ega:

- jamiyatning har bir a’zosi haqidagi ma’lumot va bilimlarni olishga yo‘l ochib beradi; - shaxsning intellektual va ijodiy qulayliklarini rivojlantiradi; - jamiyatning har bir a’zosi faollik bilan malakasini oshirib, faoliyat fazasini tezkor o‘zgartiradi; - masofaviy o‘qitish yordamida ta’lim samarasini oshirishni ta’minlaydi. Zero, masofaviy o‘qitish har qanday sohada ham jahon ta’lim markazlarining uslubiy adabiyotlari, zamonaviy hamda so‘nggi axborotlarni olish, jamlab foydalanish imkoniyatlarini beradi. Masofaviy o‘qitish usuli an’anaviy ta’lim shakllaridan farq qiladi. Masofaviy ta’lim berish usuli respublikamiz sarhadlarini bosib o‘tib, MDH va jahon miqyosidagi yirik ta’lim markazlari bilan muloqotda bo‘lib, ta’lim olishning yangi zamonaviy yaxlit ta’lim imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Jahon iqtisodiy tizimlarining dunyo miqyosida umumiy keng tus olishi, jahondagi bir nechta ilg‘or mamlakatlarni axborotlashtirish jamoa bosqichiga kirishi va davlatning jahon iqtisodiyot kengashiga olib chiqilishi uchun respublikamiz Prezidenti tomonidan qo‘yilgan masalalar, shu bilan birga shartli bo‘lgan «raqobatni» hamma tarmoqlarga kiritish, ayniqsa davlatning oliyma’lumot tarmog‘iga kiritilishi davlatimizning oliy ma’lumot tizimidagi raqobatchilik to‘g‘risidagi muammosi dunyo bozorida faol bo‘lishi turgan gap.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.

2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2004.

3. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1999.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI TASHKIL ETISHDA IJOBIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Kuzieva Fotima Mavlonovna
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi
28- umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematika fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan ijobiy topshiriqlarning ahamiyati manbalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Matematika, darslik, funksiya, topshiriqlar, mantiqiylik, masala, malaka.

Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev -„ Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz“ -degan edilar. Shunday ekan hozirgi kunda ta’lim sohasidagi bo‘layotgan o‘zgarishlarning bari o‘sib kelayotgan yosh avlodning kamol topishi uchun xizmat qilmog‘i lozim. Boshlang‘ich sinf matematika ta’limidagi ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Eng avvalo bolalarda maktabga tayyorgarlik davridayoq matematik tasavvurlarni shakllantirishda ijodiylikka e’tibor qaratish lozim. Negaki bu bolalarning maktabga ya’ni 1–sinfga qadam qo‘yishi bilan alifbe va yozuv darslari qatorida matematika darsi ham o‘tilishi boshlanadi. Bu paytda bolalarda tayyorgalik davrida ijodiy tashkil etilgan mashg‘ulotlarning samarasi o‘laroq matematikaga qiziqish kuchli bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf matematika ta’limini ijodiy tashkil etishda asosan mantiqiy topshiriqlardan keng foydalaniladi. Mantiqiy topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish, topshiriqda berilgan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilishga undaydi. Boshlang‘ich sinf matematika darsliklarining barchasida mantiqiy topshiriqlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlangan va kiritilgan. Asosan 3-sinf matematika darsligi (S.Burxonov, O‘.Xudoyorova. Toshkent-2016) tarkibida har bir dars uchun alohida ijodiy topshiriq berilgan. Bu matematika darslarining barini ijodiy tashkil etish imkonini beradi. Bu darslarni ijodiy tashkil etish uchun yana bir vosita bu masalalardir. Matematik ta’lim jarayoinida masalalardan foydalanish qadim zamonlardan beri qo‘llanib kelinayotir. Shuning uchun ham matematika darslarida matematik masalaning roli va o‘rni haqida gap borganda quyidagi uch bosqichni ko‘zda tutish maqsadga muvofiqdir. 1966- yili xalqaro matematiklar simpoziumida matematik masala va misollarni yechish o‘quvchilarning faqatgina matematik faoliyatlarini shakllantiribgina qolmay, balki ana shu fanga doir bilimlarni o‘zlashtirish va uni amaliyotga tadbiq qilishiga ham xizmat qiladi, deyiladi. Hozirgi davrda masala yoki misollar yechish orqali matematik ta’lim jarayonini olib borishning metodik usul va vositalari ishlab chiqilgan va bu usullar haqida ko‘pgina ilmiy metodik va didaktik adabiyotlarda yaratilgan. Matematik tushunchani masala yoki misollar yordamida kiritish va uning tub mohiyatini o‘quvchilarga tushuntirish murakkab bo‘lgan pedagogik jarayondir. Shuninig uchun ham bir maktab o‘qituvchisi dars jarayonida bajartiradigan masalani tanlash yoki uni tuzishda juda ham ehtiyot bo‘lishi kerak. Tuzilgan masalalarni dars jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda bo‘lishi kerak. Har bir dars jarayonida bajartiriladigan masala yoki misol darsning maqsadiga mos kelishi kerak. Agar darsda o‘qituvchi o‘quvchilarga biror yangi matematik tushunchani o‘rgatmoqchi bo‘lsa, tuziladigan masala yoki misol ana shu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi xarakterda bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Hozirgi zamon didaktikasida A.D.Semushin, K.I.Neshkov va Yu.M.Kolyagin, J.Ikromov, T.To‘laganov va N.G‘aybullaev kabi metodist matematiklar matematika kursidagi masala va misollarning bajaradigan funksiyasini quyidagicha turlarga ajratishadi:

- Masalaning ta’limiy funksiyasi.
- Masalaning tarbiyaviy funksiyasi.
- Masalaning rivojlantiruvchi xarakterdagi funksiyasi.
- Masalaning tekshiruv xarakterdagi funksiyasi.

O‘quvchilar masalalar yechishga zarur malakalarni egallashlari uchun turli hayotiy berilgan va izlanayotganlar orasidagi ma’lum bog‘lanishlarni tushungan holda topishga o‘rgatish kerak. Masalalar yechish malakasini hosil qilishda masalani tahlil qilishning umumiy metodini o‘quvchilar qanday egallab olganliklari va bolalar o‘zlari mustaqil masala yechimini topishlariga

yordam beradigan vositalarni qanday o‘zlashtirganliklari muhim ahamiyatga ega. Bu vositalar masala shartini bir vaqtda analiz qilib qisqa yozish, yechish rejasini tuzish, yechimini tegishli og‘zaki yoki yozma tushuntirishlar bilan yozish, yechimning to‘g‘riligini tekshirishdan iborat. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, o‘quvchilarning matematika fanidan oladigan bilimlari puxta bo‘lishi uchun quyidagi shartlarni bajarilishi zarur.

- O‘quvchilarning matematikaga qiziqishlarini shakllantirish;
- Tushuntirilgan mavzu materialini o‘quvchilarning mantiqiy asosda o‘zlashtirishlariga erishish;
- Matematika darslari davomida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash faoliyatlarini hosil qilib borish;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M.,,Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent,,O‘zbekiston”-2016.
2. Alixanov.S,,Matematika o‘qitish metodikasi“ Cho‘lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2011.
3. Jumayev M.E.,,Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum“ (O‘quv qo‘llanma) Toshkent,,O‘qituvchi”- 2004.

“USTOZ – SHOGIRD” ILMIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XARAKTERNI ISLOH QILISH

Zarafshon shahar 16-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari M.P.Boboyeva Navoiy shahar 20-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi M.T.Rustamova

Annotatsiya: U*shbu maqolada* **“**Ustoz – shogird” ilmiy faoliyatini rivojlantirishda xarakterni isloh qilish hozirgi kunda yosh avlodni kasbga yo‘llash, ularga ta’lim o‘rgatish ishlarini amalga oshirishda «Ustoz-shogird» ananalariga *tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Dastur, poydevor tushunchasi,* xarakter*, aqliy kamolot, dunyoqarash, insoniy* ijodkor*, ijtimoiy, yondashuv, barkamol insonni.*

Hozirgi kunda yosh avlodni kasbga yo‘llash, ularga ta’lim o‘rgatish ishlarini amalga oshirishda «Ustoz-shogird» ananalariga asoslanilmoqda.

Qadimda ota-bobolarimiz farzandlarini komil inson bo‘lib yetishishiga katta e’tibor bilan qarashgan, ya’ni bobolarimiz uslubiga ko‘ra xarakter faqat yetuk ustozlar tarbiyasi asosidagina hosil qilinadi. Unga ko‘ra, farzandning saodatmand bo‘lib o‘sishini istagan ota-ona nuridiydasini zamonaning mashhur ustoziga topshirgan. O‘z navbatida ustoz bolaning ma’naviy va jismoniy sog‘lom bo‘lib o‘sishi ma’suliyatini zimmasiga olgan. Chunki etuk farzand vaqti kelib oilani, ustozni va jamiyatni, Vatanni shon-shuhratga burkagan. Shu sababli ustoz qo‘lidagi tarbiya oluvchining o‘z farzandidek aziz deb bilgan. Bizda biror bir mashhur zot uchrasa birinchi navbatda uning ustozi, so‘ng nasl-nasabi so‘rab surishtirilar edi. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya muassalarida olib borilayotgan ustoz-shogird tizimida aynan shogirdlarni tarbiyalashda uning xarakter xususiyatlari inobatga olinmoqda. Ushbu maqolada o‘quvchilarning komil inson bo‘lishlarida ustozlarning o‘rni hamda ularni o‘rganishda psixodiognostik metodlardan foydalanish, shuningdek ta’lim-tarbiya jarayonining samarali usullari yoritib berilgan. Komil insonni voyaga etkazishning – “Ustoz” instituti qadim jamiyatimizda yillar davomida shakllanib kelgan. Unga ko‘ra ustoz, o‘z shogirdini quyidagi uslublarga ko‘ra tarbiyalagan.

Birinchi: shogird xarakteridagi kuchli va zaif tomonlarni anglab olish. Agar shogirdda ijobiy xislatlar ko‘p bo‘lsa, uni kuchaytirish. Bordi-yu salbiy xususiyatlar ustivor bo‘lsa, har xil yumushlar buyurish bilan isloh qilish. Misol uchun Jalollidin Rumiy m’eyoridan ortiq mag‘rur bo‘lgani uchun ustozi Shams Tabriziy unga mahallama-mahalla yurib, odamlarning uylarini tozalashni buyurgan. Natijada Rumiy qalbi pok oddiy odamlarga nisbatan mag‘rurlikni tashlaydi va oddiy fuqaroparvar bir inson bo‘lib qoladi.

Ikkinchi: Shogirdning qiziqish olamini anglab olish, agar unda ezgulikka havas bo‘lsa, bu tuyg‘u takomillashtirilgan. Agar yovuzlikka moyillik bo‘lsa, isloh qilingan. Mashrab hurfikrlikka moyil edi. Ilk ustozi Bozor Oxund Mashrabni o‘zidan kuchliroq bo‘lgan Hidoyatulloh Ofoq Hojaga jo‘natadi. Bozor Oxund shogirdini fikrini bo‘g‘ib qo‘yishi mumkin edi va mashrab Ofoq xo‘ja huzurida valiy bo‘lib etishadi. Fuzayl Ayozning o‘g‘irlikka moyilligi bor edi. Ustozi unga o‘g‘irlikni buyurdi va uyushtirilgan holda qo‘lga tushirib Fuzaylni odamlar orasidan olib o‘tkazdi. Fuzayl keyinchalik o‘g‘rilarni hayotga qaytarish tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bugun biz tarbiyalanuvchilarning qiziqish olamini to‘g‘ri anglab olishimiz va to‘g‘ri yo‘naltira bilishimiz lozim.

Uchinchi: Shogird xarakterini shakllantirishda ustozning namuna bo‘lishi, Fariddin Attor mo‘g‘ul bosqinchilari qo‘liga tushib qoladi. Shogirdlari mo‘g‘ul askarlar ketidan ergashishadi. Bir mo‘g‘ul askari sherigiga deydi: Shu qari cholni menga sot, o‘n oltin tanga beraman” dedi. Attor asr olganga dediki: “Sotma men bundan qimmat turaman” Bir oz yurishgach yana bir mo‘g‘ul askari cholni menga sot, bir qop somon beraman dedi. Attor asir olgan kishisiga dediki, “Tez sot men bundan qimmatiga arzimayman”. Johil mug‘ul askari bu gapni eshitib attorni chopib tashladi. Voqeaning guvohi bo‘lgan attorning shogirdlari yig‘ilishib xulosa qilishdi. “Ulug‘lik pulga sotilmaydi, uning bahosi yo‘q. Bugun biz ustozning so‘zda fikrda va amaliyotda ibrat manbai bo‘lishiga erishishimiz kerak. Biz uchun ustoz ideal shaxs bo‘lmas ekan, xarakterimiz kemtik bo‘lib qoladi.

Xalqimizda bir ibratli maqol bor “Ustozdan o‘tmagan shogird-shogird emas” . Bugungi

“Ustoz-shogird” maktablarida faoliyat olib borayotgan shogirdlar kelajakda o‘z ustozlari kabi bilimli va mahoratli ustozlar bo‘lib yetishsagina, biz bugungi kun ustozlari bilan faxrlana olamiz va ta’lim oldidagi sharafli burchimizni bajargan bo‘lamiz.

Shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari quyidagilardan iborat:

- ustozga itoatli bo‘lish va ustoz an’analarini davom ettirish;
- ustozni yuzini yerga qaratmaslik, uning obro‘sini ko‘tarish. Ustozning sha’niga iliq so‘zlar olib kelish;

Birovning narsasiga ko‘z olaytirmaslik, ustozga cheksiz hurmat bilan munosabatda bo‘lish deganda – shogird o‘z kasbini sevishi, ishga e’tiqod qo‘yishi va o‘ta ishonishi ustoz oldida hokisor bo‘lishi nazarda tutilgan. Xuddi shuningdek ustoz ham quyidagilarga amal qilmog‘i lozim. Ustoz shaxsiy fazilatlarining o‘ziga xos tomonlari: saxiylik, odoblilik, mehr-shafqatlilik, ochiq yuzlik, xushmuomalalik, sabrlilik, talabchanlik, qanoatlilik, to‘g‘ri so‘zlik, poklik, muloyimlik, rostgo‘ylik, do‘stlik, hamkorlik, hamjihatlik va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ustoz maqomiga ega bo‘lgan tajribali pedagog avvalo oliy ma’lumotli o‘z ixtisosi bo‘yicha yetarlicha mehnat stajiga ega bo‘lishi, yangilikka intiluvchan, doimiy tarzda bilimlarini oshirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.,1998
2. E.G‘oziev. Umumiy psixologiya. I-kitob, Toshkent, 2002 yil.
3. H.Yo‘ldoshev., S.Bilatov. «Ustoz-shogird» odobi. «O‘zbekiston» nashriyoti. T.: 2005 yil.

TEXNOLOGIYA FANINING O‘QUVCHILARNI IJODKORLIKKA YO‘NALTRISHDAGI AHAMIYATI

Madaminova Yarkinoy Saparboyevna,Yakubova Dinara
Urdu “Mehnat talimi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
“Mehnat talim” yo‘nalishi talabasi
Telefon: +998942302568, +998974521811
Madaminova_67@mail.ru

Annotatsiya; Maqolada texnologiya fanida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan texnologik ijodkorlik ko‘nikmalari va malakalarining shakllantirish mazmuni yoritilgan va metodik ko‘rsatmalar berilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, rivojlanish, qobiliyat, ijodkor, faoliyat, pedagogik texnologiya

Kelajak bunyodkorlari bo‘lgan yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, shaxsni axloqiy va intellektual shakllantirish butun jamiyatning, xususan, ta’lim tizimining eng asosiy vazifalaridan biridir. P. Podlasiy ta’kidlaganidek, “O‘qitishning barcha sabablarini tahlil qilish imkonini beruvchi ilmiy nazariya hozircha yo‘q, shu bilan birga, didaktik jarayonlarning borishiga kompleks ta’sir qiluvchi barcha sabablarning bir-biriga zid bo‘lmagan manzarasini yaratishga sekin-asta, qadam-baqadam yaqinlashishdan boshqa yo‘l ham yo‘q. U bu bilan samaradorlikni o‘qitishning o‘zgarishi (o‘sishi) bilan tavsiflaydi va didaktik jarayonning samarali ta’sir qiluvchi to‘rtta bosh omilini ajratib ko‘rsatadi: tashkiliy pedagogik, o‘quv materiali, o‘quvchilar ta’limi va vaqt.

Ta‘lim sohasidagi bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘quvchilarda nafaqat ta‘limiy, balki hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan davlat ta‘lim standartlari olimlar, metodistlar va tajribali o‘qituvchilardan iborat ijodiy guruhlar tomonidan ishlab chiqildi, ijodkorlikka yo‘naltirilib, takomillashtirilib, bugungi kunda amaliyotga joriy etilmoqda. Texnologiya fani mashg‘ulotlari insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy texnologiya va ijodkorlik faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beruvchi muhim ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar qaysi kasbni egallashmasin, kim bo‘lmasin, texnologiya fanidan olgan bilim va ko‘nikmalarini uyda, oilada, ish faoliyatida albatta foydalanadi. Texnologiya fani mashg‘ulotlarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, mashg‘ulotlarda turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali ijodkorlikka yo‘naltirishni kuchaytirish, ishlarini bajarishda ijodiy yondashuv bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan. O‘quvchilarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standartlarida belgilangan malaka talablari–tayanch va fanga oid kompetensiyalardan biri bo‘lgan ijodkorlikni shakllantirish, ta‘lim sifatiga erishish va uni rivojlantirish yoshlarning ijodiy faoliyatini doimiy va uzluksiz ravishda oshirib borishni talab etadi.

Texnologiya mashg‘ulotlarini tashkil qilishda: “darslarni qanday olib borish va o‘quvchilarni qanday o‘qitish kerak?” degan savolga javob beradi; sharoitlardan kelib chiqqan va ma’lum natijaga yo‘nalgan, aniq pedagogik g‘oyaga loyihalanadi; o‘z natijalarini qayta ishlab chiqarishi bilan farqlanadi; ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchiga yo‘naltirilgan darsning uslubiy ishlanmalaridan farqli o‘laroq ta’lim olishda ularning o‘z faoliyatlari hisobiga yutuq ta’minlanishiga yo‘naltiriladi.

Maktablarida o‘qitiladigan texnologiya fani 1-9 sinflarda o‘qitilishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, har bir davrda o‘qitishning o‘ziga xos xususitlaridan kelib chiqqan xolda ijodkorlikka yo‘naltirib o‘qitiladi. 1–4 sinflarda texnologiya ta’limi mazmuni qog‘oz va karton bilan ishlash, tabiiy materiallardan turli buyumlar yasash, eng sodda texnologiya amallari va ish qurollaridan foydalanishni o‘rgatishdan iborat. Bu sinflarda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va ta’lim mazmunini etiborga olgan xolda ijodiy topshiriqlar berish, amaliy ish usullarini tanlash zarur. Ana shu maqsadda turli pedagogik texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Yuqori sinflarda texnologiya ta’limi darslari yo‘nalishlar asosida o‘qitilishi va darslarning katta qismi amaliy mashg‘ulotdan iborat ekanligini nazarda tutgan xolda ta’lim ijodkorlikka yo‘naltirish xususiy yondashuvni talab etadi. Ijodkorlikni rivojlantirishda pedagogic texnologiyalarni qo‘llashninng ahamiyati katta. Pedogogik texnologiyaning mazmuni bu o‘qituvchi va

o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan metodlarga bog‘lik. O‘quvchilardagi ijodkorlikni rivojlantirish esa biz o‘qituvchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki xar bir ishga ijodiy yondashish davr talabidir. Texnologiya darslariga oid ijodkorlik kechalarini tashkil etish tadbirlarni har o‘quv choragi va yil oxirida o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarning ijodiy qilgan ishlari namunalari namoyish qilinadi va taqdimotlar o‘tkaziladi.

Kechada «Texnologiya fani masfg‘ulotlarida nimalarni yasay oldingiz?» mavzusida o‘tkazish mumkin. Kechaning maqsadi texnologiya darslarida egallangan ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, ijodkorlik ishlarini bajarishga qiziqishni uyg‘otishdir va texnik va texnologik jarayonlarga o‘quvchilarning ijodiy yondashishlarini shakllantirish . Texnologiya fani bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish o‘quvchilarning ijodkorlik fazilatlarini shakllantirishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bunda tadbirlarni sinflar kesimida biror bir bo‘limni tugallangandan so‘ng tashkil etish tavsiya etiladi.

Xulosa qilsak, texnologiya fani mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodkorliklarining rivojlanish omillaridan biridir, ya’ni texnologiya darslari o‘quvchilarda ijodkorlik, yyaratuvchanlik kabi fazilatlarni shakllanishi, o‘quvchilarda ishga ijodiy yondashish, o‘z-o‘zini boshqarish, ishdagi kamchiliklarni o‘z vaqtida topish, o‘z- o‘ziga talabchan bo‘lish, maqsadga intilish kabi xislatlarni namoyon bo‘lishiga hamda ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alekseevich.V.E.“ O‘smirlarda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish” Toshkent 1992y.

2. Подласый И. П. Педагогика. — Москва: ВЛАДОС, 1999.

3.Sharipov Sh.S, Qoysinov O.A, Egashov ShT, va b. Texnologiya fanini o‘qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish Metodik qo‘llanma. – T.: “Muxammad poligraf “ MHJ ” 2017yil.

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISHNING INNOVATSION USULLARI

Firuza Madayeva Mamirjonovna.
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
17-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining
1-toifali ingliz tili fani o‘qituvchisi.
Farxod Tajibayev Zaylobiddinovich.
Namangan shaxar 82-sonli umumiy o‘rta ta’lim
maktabining 2-toifali ingliz tili fani o‘qituvchisi.
Telefon: +998999083651
e-mail: farxodtajibaev@mail.ru
Telegram: @trillioner_farxodtajibayev

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda butun dunyoda ingliz tiliga bo‘lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Quyida biz kichik yoshdagi bolalarga informatsion texnologiyalardan foydalanib, qo‘shiq-kuy orqali, rol ijro etish orqali va ingliz tilini o‘qitishning boshqa innovatsion metodlari haqida so‘z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: Prezident qarori, alifbo, she’r, qo‘shiq, multfilm, topishmoq, rolli o‘yinlar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng chet tillarini o‘rganishga katta e’tabor berib kelinmoqda. Jumladan, ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 12- dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori hamda 2013-2014-o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o‘rgatishning joriy etilishi buning isbotidir

Bugungi kunda nafaqat maktab, litsey, kasb hunar kolleji, oliy o‘quv yurtlari talabalari balki MTM tarbiyalanuvchilari bundan tashqari turli soha vakillari ham xorijiy tillarni o‘rganmoqdalar, chunki hozirgi kun talabi, davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlari, o‘quv jarayonlari, madaniyat va sport ishlari ham aynan xorijiy tillarni o‘rganishga va undan foydalanishga bo‘lgan talabni keng qamrovli oshirmoqda. Bu esa mamlakat kelajagi uchun juda quvonarli holat albatta.

Tilni o‘rganishda esa juda muhim masalalar ham talaygina. Bulardan eng muhimi yoshga doir murakkab psihologik masaladir. Psihologlarning ta’kidlashicha, bolalar kattalarga nisbatan tillarni tez va oson o‘rganadilar. Bolalarda tilga o‘rganishga bo‘lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususuyati kuchli ekanligi, esda qolish va yod olish instinktlari yuqori ekanligi hamda bolalarda kattalarga qaraganda vaqtlari ko‘p bo‘lishi buning muhim sabablaridan biridir. Keling fikrlarimizga ilmiy yondoshsak. 6-7 yoshdagi bolalarning xorijiy tillarni o‘rganish koeffitsienti o‘zidan kattaroq bolalarga nisbatan anchagina yuqori. Ular ma’lumotlar ma’nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlab olish bilan har qanday chet tilini oson va tez o‘rganadilar. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga grammatikadan ko‘ra ko‘proq harakatlar, rasmlar, she’rlar, qo‘shiqlar va rolli o‘yinlar bilan o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aks holda ularni zo‘riqtirib qo‘yishimiz va yoki til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirib qo‘yishimiz mumkin.

Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o‘rgatish birmuncha murakkabroq va ma’suliyatli vazifadir. Lekin biz quyidagi usullardan foydalangan holda ularga xorijiy tillarni oson va tez o‘rgatishimiz mumkin bo‘ladi:

- qo‘shiq va she’rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo‘lgan, ma’noga ega bo‘lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o‘rgatish. Bunga misol qilib Ingliz tili alifbosini ABC ni olishimiz mumkin. Alifboni qo‘shiq qilib o‘rganish shunchaki yodlab chiqishdan ko‘ra samaraliroq;
- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar; Bu o‘yinlar yordamida Ingliz tili atmosferasi shakllanadi va bola til o‘rganishga yana ham qiziqa boshlaydi;
- multfilmlar; Bolalar til o‘rganish mobaynida multfilmlardagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining inglizcha nomlari, ayrim ko‘p takrorlanadigan so‘z va iboralarni tezgina yodlab oladilar. Bu ham ularning lug‘at boyligiga anchagina ta’sir ko‘rsatadi;
- topishmoqlar; Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga bo‘lgan qiziqishi juda kuchli bo‘ladi shuning uchun o‘qituvchi topishmoqni Ingliz tilida aytsa bolalarda mantiqiy fikrlash

ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Topishmoqning javobini Ingliz tilida aytishga harakat qiladilar;

- rol ijro etish(role play): Bunda o‘qituvchi mavzuga doir yangi so‘z yoki harakatni tushuntirmoqchi va Inglizcha nomlarni o‘rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim bo‘ladi. Misol uchun quyonning sakrashi, suvda suzish, kitob o‘qish va shu kabilarni ko‘rsatib bersa qolgan o‘quvchilar shu harakatga mos so‘zlarni Inglizcha nomini aytishga harakat qiladilar;

- imo-ishoralar, yuz harakatlari (mimika) orqali o‘qituvchi bolalarga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel (come here), derazani och (open the window) kabi imo-ishoralarni qilganda, yoki hissiyotini yuz mimikasi orqali ko‘rsatib berganda ham ular mavzu va unga doir so‘zlarni kuchliroq eslab qoladilar.

Bulardan tashqari ko‘rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali ham tilni o‘rgatishga qiziqtirish mumkin. Bunday usullarning xilma-xilligi o‘quvchilarning har bir yangi mavzuga o‘zgacha qiziqish bilan qarashga undaydi. Chunki ular bir xillikdan tez zerikadi. Ularga bir turdagi dars o‘tish uslublaridan emas, balki an’anaviylikdan biroz chekinib, usullarni o‘zgartirib, yangilab dars o‘tishimiz lozim. Aks holda bolalar o‘qituvchining qanday dars o‘tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko‘rishadi. Usullarni yangilab dars o‘tish bolalarning intilishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o‘rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg‘ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o‘tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun asos bo‘lib hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chet tilini o‘qitish metodikasi. Jamol Jalolov. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. How to learn English as a foreign language? McMillan. Oxford University Press. 2016.
3. www.wikipedia.uz
4. www.ziyonet.uz

KÍSHÍ MEKTEP JASINDAǴI BALALARDIŃ MEKTEPKE MASLASIWINDA ATA-ANALAR HÁM OQITIWSHILARDIŃ XIZMETÍ

Madetbaeva Xurliman Saparg'aliy qızı
Ájiniyaz atindaǵi NMPI pedagogika fakulteti
pedagogika hám psixologiya tálim baǵdariniń 2-kurs talabası
medetbaevaxurliman@gmail.com, +998906509832

Annotatsiya: Mektep tálimine psixologiyaliq tayarliq hám rawajlaniwdiń socialliq shárt-sharayatlari, kishi mektep jasindaǵi jetekshi xizmet, oqiwshiniń mektepke maslasiwinda ata-ana hám oqitiwshilardiń tutqan roli,

Gilt sózi: "ideal", "psixika", "motiv"

Kishi mektep jası 6 – 7 jastan 9 – 10 jasqa shekem dawam etedi. Bul dáwirde balaniń psixikası bilim alıwǵa jetetuǵın dárejede rawajlanǵan boladı. Kishi mektep jasındaǵı balanıń áhimiyetli qásiyetlerinen biri, onda ózine tán zárúrliklerdiń barlıǵı. bul zárúrlikler óz áhimiyetine kóre tek belgili bilim, kónlikpe hám tájiriybelerdi iyelewge qaratılmay, bálki oqıwshılıq qálewin sáwlelendiriwden ibárat. Bul zárúrliklerdiń tiykarında balanıń óz portfeline, shaxsıy oqıw qurallarına, sabaq tayarlaw stolına, kitap qoyatuǵın shkafına iye bolıw, úlkenlerdey hár kúni mektepke barıw sıyaqlı qálewleri jatadı. Áne sol zárúrlik bala shaxsınıń qáliplesiwinde, sonıń menen birge onıń sociallasıwında úlken áhimiyetke iye esaplanadı. Fiziologlardıń pikirine kóre, 7 jasqa kelip balanıń úlken miy yarım sharları belgili dárejede rawajlanǵan boladı. Ayırım 6 jaslı balalar ata-anasınıń qálewi menen ele oqıwǵa tayar bolmay turıp, mektep bosaǵasına qádem qoyadı. Nátiyjede, oqıw dawamında aqılıy ha'm ruwxıy zorıǵıw aqıbetinde túrli keselliklerge shalınıp, fizikalıq ha'm psixikalıq rawajlanıwında nuqsanlar payda boladı. Birinshi klasstıń birinshi kúnlerinen baslap bala jeńiwi kerek bolǵan bir qansha qıyınshılıqlarǵa ushıraydı. Bul qıyınshılıqlar: mektep turmısın ózlestiriw, jańa kún tártibin jaratıw hám oǵan maslasıw, ol ushın tanıs emes klass toparına qosılıw, is-háreketlerin shegaralawshı qaǵıydalardı qabıl qılıw sıyaqlılar esaplanadı. Qolay sharayatlarda oqıw jaǵdayların qabıl qılıw, iyelew 2 ay (bazıda 1 jılǵa shekem) dawam etedi. Bunday jaǵdayda ata-analar perzentiniń "oqıwshı bolıw" imkániyatın qádirlep, oqıw xızmetindegi talapların iyelewge járdemlesiwleri kerek. Bul waqıtta balanı ózi mustaqıl epleydi dep, óz halına taslap qoyıw múmkin emes. Ata-ananıń qollap-quwatlawı mektepte beriletuǵın tapsirmalarǵa joqarı qızıǵıwshańlıq tárizinde portfelin jıynastırıwǵa járdemlesiw, keyingi oqıw kúnine tayarlanıw tárizinde bolıwi múmkin. Kishi mektep jasındaǵı oqıwshılardıń áhimiyetli qásiyetlerinen biri, oqıtıwshı shaxsına isenim sezimi esaplanadı. Olar oqıtıwshını ideal insán sıpatında qabıl etedi. Sonıń ushında oqıtıwshınıń balaǵa tárbiyalıq tásir kórsetiw imkániyatı júda úlken. Mine, usınday jaǵdaylarda oqıtıwshı pedagogikalıq sheberliginen durıs paydalanıp, balanı oqıwǵa qızıqtırıp, oǵan isenim bildirse kózlegen nátiyjege erisedi.

Juwmaq qılıp aytqanda: balanıń mektepke maslasıwında ata-analardıń hám oqıtıwshılardıń rolı salmaqlı orın tutadı. Oqıwǵa birinshi qádem qoyǵan bala ele ózin tolıq ańlawı hám óz is-háreketlerin anıq biliwi qıyın. Tek oqıtıwshı ǵana balaǵa normalar qoyıwı, olardıń is-háreketlerin bahalawı múmkin. Bala ushın oqıtıwshı onıń psixologiyalıq jaǵdayın belgilep beriwshi tiykarǵı shaxs esaplanıp, bul onıń klasstaǵı teńlesleri menen bolatuǵın múnásibetine, bul múnásibet bolsa óz-ózinen shańaraǵındaǵı múnásibetlerge tásirin kórsetedi. Sonıń ushında bul jastaǵı balalar menen isleskende pedagoglar hár bir oqıwshıǵa individual jandasıwı kerek. Ulıwmalastırıp aytqanda, bul jastaǵı balalardıń tárbiyasında Ata-analar menen oqıtıwshı birgelikte, sheriklikte jumıs alıp barsa maqsetke muwapıq boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Sherimbetova Z.SH. "Boshlanǵish sinflardagi ózlashtirmovchi óquvchilarning psixologik xususiyatlari" T.2007.-17b
2. Davletchin M.G. "Zamonaviy maktab óqituvchisi psixologiya" T.-1998j
3. Z.T.Nıshanova, N.G'.Kamılova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya"

SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA YOZUVGA O‘RGATISH

Madrahimova Shoiraxon Mahamadaminovna
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
31-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998939483555

Annotatsiya: Ushbu maqolada boalarga savod o‘rgatish jarayonida yozuvga o‘rgatish haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: grafik malaka, izohlab o‘qish, imlo, imloviy malaka, analiz, sintez.

Savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar o‘qishga o‘rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o‘qvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim: 1.Partada to‘g‘ri o‘tirish, daftarni to‘gri qo‘yish, chiziqlarni chamalash, yozayotganda ruchkadan to‘gri foydalaninsh, hoshiyaga rioya qilish. 2. Yozuv daftari yoki alifbe asosida o‘zbek alifbosidagi barcha bosh va kichik harflarni yozish, shuningdek, harflarni so‘zda bir-biriga bog‘lab yoza olish; bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish. 3.Tahlil qilingan so‘z va ikki-uch so‘zli gaplarni o‘qituvchi yordamida yozish. 4.Talaffuzi bilan yozilishida farq qilinmaydigan so‘zlarni ko‘chirib yozish va eshitib yozish; yozganlarini matnga qarab, shuningdek, izohlab o‘qish bilan tekshirish. 5.Og‘zaki tuzilgan hikoyadan olingan gapni yozish.

Analitik-sintetik tovush metodi (tovush-tarkib metodi) tamoyiliga muvofiq, o‘qish va yozuv birligi saqlanadi. Harflarni yozishda o‘qishga o‘rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya’ni o‘qish darsida o‘quvchilar harfni o‘zlashtiradilar, matnni o‘qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so‘zni yozadilar. Yozuvga o‘rgatishning bu tarkibida genetik tamoyil buziladi, ya’ni oson harfni yozishdan asta-sekin qiyin harfni yozishga o‘tiladi.

Yozuvga o‘rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta’lim berish, ko‘nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

Grafik malaka qo‘l-harakat malakasidir, bu harakat, birinchidan, muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutq birligi bo‘lgan tovush grafik belgilariga, ya’ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Ozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to‘g‘ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va imlo qoidalariga rioya qilishni, uchinchidan, o‘z fikrini, taassurotini, istaklarini ifodalashda yozuv malakasidan foydalanishni talab qiladi.

Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvaffaqiyatli va to‘g‘ri shakllanadi. Savod o‘rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar.

Yozuv malakasi o‘qish malakasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bola yomon o‘qisa, yozuvni egallashi ham qiyin bo‘ladi, chunki bo‘g‘inlab o‘qish malakasidan so‘ng, bo‘g‘inlab yozish malakasi shakllanadi. Harf terish kartonida tuzilgan so‘zni ko‘chirish yoki yozishga tayyorlanishda bolalar uni bo‘g‘inlab o‘qiydilar. Bu o‘qish uchun ham, bo‘g‘inlab aytib yozish uchun ham, imloga oid malakasining o‘sishi uchun ham muhimdir.

Yozish va o‘qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq, bolalarda o‘z fikrini yozma ifodalash malakasi biroz barqarorlashganda, bu malaka nutqqa, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta’sir qiladi. Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad harflarni bosmasdan bir tekisda, elementlarga ajratmay bog‘lab, tez, bir maromda yozish, so‘zlarni qatorga to‘g‘ri joylashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
2. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o‘qish darslari.
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ В ПРИМЕНЕНИИ К ПРЕДМЕТУ ЭКОНОМИКА В СТАРШИХ КЛАССАХ

Мадраимова Мархамат Рахимбергановна
Школа № 15 г. Ургенча
+99891 437 20 21
urinovamadina16@gmail.com
Балтабаева Олеся Эркиновна
Школа № 28 г. Ургенча
+99890 438 83 03

Аннотация: Исследование оценивает междисциплинарный подход к преподаванию предмета экономики с помощью инновационного метода обучения. В исследовании используется художественное, кооперативное и экспериментальное обучение и методы в преподавании урока обществознания в старших классах. Целью исследования является наблюдение за отношением и восприятием учащихся при реализации этого учебного процесса и исследование того, в какой степени этот метод может способствовать улучшению преподавания и обучения.

Ключевые слова: преподавание экономики, искусство, метод проектов, кооперативное и экспериментальное обучение, критическое мышление, эффективное обучение.

Сложность и взаимодействие явлений, происходящих в повседневной жизни, требует разных подходов. Необходимым условием для этого сотрудничества является взаимодополняемость наук для достижения научных достижений, а также для понимания мира. Междисциплинарный начинается сначала с уровня научных исследований, а затем распространяется на сферу образования.[1]

Преподавая экономику в старших классах средней школы, учителя часто сталкиваются с различными проблемами, связанными с тем, как они могут помочь своим ученикам понять основные экономические явления, соответствующие термины и их применение в повседневной жизни. Чтобы преодолеть такие проблемы, учителя должны открывать и применять новые методы обучения, которые соответствуют потребностям, интересам и способностям их учеников.

Наш метод предложения представляет собой сочетание обучения через искусство, кооперативное и экспериментальное обучение и метод проекта. Предлагаемый метод основан на исследовании, которое было проведено в старшей школе и имеет замечательные результаты в отношении дидактической методологии. Цель данной статьи - представить этот инновационный метод, исследовать восприятие и отношение учащихся во время этого учебного процесса и изучить, в какой степени этот метод может способствовать улучшению преподавания и обучения.

Искусство: Искусство может быть внедрено в учебный процесс как стимул для привлечения интереса учеников. Искусство может быть ценным для образования, потому что произведения искусства являются не просто выражением художника, но творчеством с образовательной ценностью. Эта интеграция направлена не на то, чтобы завалить ученика знаниями, а на мотивацию, чтобы наблюдать, исследовать, экспериментировать, воображать и создавать свои собственные ассоциации посредством эмоций. Он направлен на то, чтобы способствовать размышлению, критике, творческому мышлению и эстетическому опыту учащегося с целью развития системы ценностей учащегося. Использование искусства в учебном процессе можно охарактеризовать как дидактическую основу, которая дополняет аналитическую программу обучения, поскольку для ее интерпретации она должна быть параллельной соответствующей исторической, социальной и культурной среде.[2]

Совместное обучение: не отрицая ценности традиционных методов обучения в бакалавриате, значительное количество учителей признают важность совместной работы в обучении. Это называется “структурирование позитивной взаимозависимости”. Согласно, этому методу все студенты должны работать в группах, чтобы коллективно выполнять задачи для достижения академических целей. Группы могут быть назначены учителем или самими учащимися, но ключевым фактором успеха метода является необходимая взаимо-

зависимость для выполнения задачи и тот факт, что ни один студент не может выполнить задание самостоятельно.[3]

Метод проекта: метод проекта – этометод обучения, основанный на опыте, который используется в образовании и помогает студентам развить многие навыки. Это современная форма обучения, начинающаяся с конкретных соображений по теме и направленная на достижение цели посредством сотрудничества между учащимися и их активного участия, с акцентом на участие, а не на конечный результат. В частности, он поддерживает и поощряет сотрудничество и мультисенсорный подход в обучении. Поскольку это совместный подход, он дает возможность учащимся принять участие в управлении и реализации «сложных планов работы, таким образом развивая критическое мышление и навыки сотрудничества», посредством социального взаимодействия между одноклассниками, учителем и другими учениками. социальная среда.[1]

Экспериментальное обучение: Экспериментальное обучение – это философия и методология, в которых преподаватели целенаправленно взаимодействуют со студентами в непосредственном опыте и сфокусированном размышлении с целью повышения знаний, развития навыков и разъяснения ценностей. В отличие от традиционных ситуаций в классе, когда учащимся, возможно, придется соревноваться друг с другом, или им, возможно, придется остаться незанятыми или не мотивированными, а преподавание более структурировано, ученики в ситуациях обучения на основе опыта могут сотрудничать и учиться друг у друга в более структурированный подход. Обучение предназначено для вовлечения студентов с непосредственным опытом, который тесно связан с реальными проблемами мира и реальными жизненными ситуациями. Преподаватель является скорее помощником, чем директором студенческого прогресса.

Во время этой методологии обучения поощряются коммуникация, работа в команде, развитие критического мышления и навыки презентации. Задача для учителя–это сочетание методов обучения, которые включены в нашу методологию, и правильное их применение для достижения наилучших возможных результатов.

Список использованной литературы:

1. Бриния В., Викас Е. (2014). Инновации в методике преподавания экономической науки в среднем образовании: внедрение искусства в преподавание курса «Основы экономической теории»,
2. Трилианос, А. (2009). Критическое мышление и его учение.
3. Дэвис Б. (1999). Совместное обучение: студенты, работающие в малых группах, «Говоря об обучении», информационный бюллетень Стэнфордского университета по преподаванию.

TARBIYA MASALALARI XUSUSIDA

Madumarova Nigora Abduqaxxorovna
Farg‘ona viloyati Quva tumani xalq ta’limi
bo‘limi ona tili va adabiyot fani metodisti
Tel: 90-580-97-71
e-mail:nigora@inbox.uz

Annotatsiya: Maqolada yosh avlod tarbiyasi, tarbiya haqida ajdodlarning qarashlari, hozirgi kunda tarbiya masalasiga e’tibor xususida mulohazalar yuritilgan

Kalit so‘zlar: tarbiya, ma’rifatparvar ziyolilar, farzand tarbiyasi

Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir.” deb bejiz aytmagan. Xo‘sh, tarbiyaning nimasi hayotu, nimasi momot (ya’ni o‘lim). Yaxshi tarbiya ko‘rgan farzandi bor odam qariganda yosharadi, yomon farzandi bor odam esa yosh turib qariydi. Tarbiya ko‘rgan farzandlar ota–ona uchun suyanchiq, tarbiyasizlar esa bevaqt halok qiladi. Tarbiyaning nimasi saodatu, nimasi falokat. Tarbiyali farzand qo‘lida saodat kaliti bo‘ladi. Qo‘lida saodat kaliti yo‘q farzand falokatning o‘zginasi. Noqobil farzand ortiqcha barmoqqa o‘xshaydi, kessang og‘riydi. Xalqimizda “Barmog‘ingni qaysinisini tishlasang ham og‘riydi”, - degan naql yuradi. Tarbiyali farzad ham, tarbiyasiz farzand ham barmog‘ingdek aziz.

Xo‘sh. Tarbiya o‘zi nima. Tarbiya “arabcha” so‘z bo‘lib, parvarish qilmoq, ta’lim bermoq, o‘rgatish, odob o‘rgatish, navozish, mehribonlik ko‘ksatish, ko‘z-quloq bo‘lish, himoya qilish kabi ma’nolarga ega. Tarbiya ona qornidan, so‘ng chiroyli aytilgan alladan boshlanadi. Tarbiya shunchalik nozik ishki, bunda birgina ota-ona emas, balki butun atrof - muhit, mahalla-ko‘y ishtirok etadi. Turli xil kinofilmlar (u yaxshi bo‘lsa ham, yomon bo‘lsa ham), internet kefelar, turli mavzudagi kitoblar, bolaga ikki xil tarbiya beradi, ham yaxshi ham yomon. Turli yo‘llarga kirib ketayotgan qizlarimiz, oqimlar ostidan chiqa olmayotgan yigitlarimiz nazoratsiz qolish oqibati emasmi? Oilada yaxshi tarbiya berayapman deb, aksini qilib qo‘yayotgan ota–onalar ham yo‘q emas, chunki ularning gapi bashqacha-yu, ishi boshqacha. “Ustozni qilganini emas, aytganini qil” deydilar. Lekin ko‘zga, quloqqa singib borayotgan tarbiya umumlashib bolada namoyon bo‘ladi. Buni muntazam nazorat qilish yana ota-ona zimmasiga tushadi. Oila tarbiyasi–bu umumiy ijtimoiy tarbiya jarayonining shunday bosqichiki, u insonning keyinchalik butun umri davomida oladigan ma’rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin, poydevor vazifasini o‘taydi. Oila tarbiyasi ota-ona va farzandlar, shuningdek bir necha avlodga mansub shaxslarning o‘zaro qon-qarindoshchilik munosabatlari asosida quriluvchi o‘ziga xos betakror ma’naviy-ruhiy jarayondir. Tarixdan bizga ma’lumki, jahon ilm-fani va madaniyatiga g‘oyat ulkan hissa qo‘shgan o‘rta osiyolik allomalar insonni qanday qilib baxtli hayot kechirish mumkinligi borasida izlanganlar, bu xususida odilona yo‘l topish uchun intilganlar. Ular o‘zlarining ana shu mazmunda yaratgan asarlarida ahloqli, odobli, bo‘lish totuv oila qurish baxt iqbolga eltuvchi ishonchli yo‘llardan ekanligi ko‘rsatib berishgan.

Ayniqsa, ularning farzand tarbiyasi borasida qarashlari, o‘gitlari, pand–nasihatlari bugungi kunda ta’lim tizimida dasturulamal bo‘lib kelmoqda. Ularda o‘tmishimiz, tariximiz haqidagi purma’no hikmatlar mavjud. Zero, birinchi Prezidentimiz ham “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”, deya bejiz ta’kidlamagan.

Buyuk mutafakkirimiz Abu Nasr Farobiy jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan qomusiy allomadir. U ta’lim–tarbiya haqida ko‘plab asarlar yozib qoldirgan. Farobiyning dunyoqarashi tabiiy va ijtimoiy fanlarning eng dolzarb muammolarini yechishga qaratilgan. U ulug‘ atematik, o‘tkir shifokor, buyuk tabiatshunos, atoqli faylasuf, musiqa nazariyasining taniqli namoyandasi, yuksak didli tarbiyachiva ko‘zga ko‘ringan axloqshunos ham edi. Uning fikricha, bilimlar insonni yaxshi axloqli, salobatli va aql-idrokli qiladi. Inson bilim olmay turib o‘zi ko‘zlagan maqsadiga erisha olmaydi. Yaxshi inson bo‘lishi uchun odamda imkoniyat bo‘lmog‘i zarurligi ko‘rsatiladi: ta’lim va tarbiya olish imkoniyati borligi tufayli ta’lim olish hamda to‘g‘ri tarbiya topish kerak. Bunda tarbiya–bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr qimmatni va odobda amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo‘l, deb ta’riflanadi. Farobiy yosh avlodni kamolotga yetkazishga u yashayotgan jamiyatdagi muhit, hayotiy tajriba, ta’lim-tarbiyaning ta’siri va bu ta’sir natijasida ular

o‘zlaridagi ijobiy yeki salbiy xislat-fazilatlarni namoyon qilishlarini aytadi. Insonlar tug‘ilganda kamolotli bo‘lib tug‘ilmaydi, ularning orasida aslida farq ham bo‘lmaydi, ularning xulqi, faoliyati, hayoti o‘xshash bo‘ladi, keyinchalik esa o‘zgaradi, ya’ni ijtimoiylashuv jarayonida jamiyatda odamlar ming yillardan beri amal qilib kelayotgan qadriyatlarni va ma’yorlarni qabul qiladilar. Ularga moslashadilar, voqealar va muhit ta’sirida yaxshi yoki yomon odatlarni o‘rganadilar, shu bois, odamlardagi xato va kamchilik, yutuq va muvaffaqiyatlar ularda jamiyatda keyinchalik shakllanadi.

Demak, ta’lim va tarbiya berish bir–biridan farq qiladi. Ta’lim so‘z bilan bir narsani uqtirish, o‘rganish bilan amalga oshiriladi hamda yoshlar nazariy bilimlarini shu ta’lim yordamida egallaydilar. Tarbiya esa amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladi, yoshlarda u ma’lum ish harakat, kasb–hunar, odob orqali singdiriladi. Ta’lim–tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy harakat-odat malaka, faoliyat birlashib boradi.

Tarbiya haqida Shayx Sa’diy o‘zining “Guliston” asarida shunday deb yozadi. “Kimda kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo‘lgach baxtli bo‘la olmaydi, xo‘l novdani istagancha bukish mumkin, quruq novdani esa faqat olovda toblab to‘g‘rilash mumkin”. Yashash jarayonida tarbiya-har bir insonning orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish jarayonidir. So‘zimiz yakunida yana bobomiz Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlarini keltirmoqchimiz. “Agar inson yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul baxtiyor bir inson chiqar”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.
2. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi-Targ‘ibot ishlarini metodik ta’minlash bo‘limi tomonidan yaratilgan qo‘llanmala

ЎҚУВЧИНИНГ ШАХС СИФАТИДА РИВОЖЛАНИШИДА БАДИИЙ АСАРНИ ИФОДАЛИ ЎҚИШГА ЎРГАТИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Махмудова Сохибахон Хамзаевна
“Халқ таълими аълочиси”, “Ижодкор ўқитувчи”,
“Машъал ўқитувчи” кўкрак нишонлари соҳибаси
Фарғона вилояти Учкўприк тумани 17-мактаб директори
Телефон: 91 153 77 87

Анотация: Бошланғич синф ўқувчилари учун бадиий асарни ўқишни тўғри ташкил этиш ўқувчиларда инсоний фазилатлар, гўзал ахлоқ ва ижобий характерларни шакллантиришда муҳим рол ўйнаши таъкидланади. Бадиий асарларни ўқишни тўғри ташкил этишда ифодали ўқишга ўргатишнинг, тўғри талаффуз этишга ўргатишнинг техник машқлари тавсия этилади.

Калит сўзлар: Бадиий асар, ифодали, равон ўқиш, ижодий тафаккур, асар мазмуни, тақлид, нутқ техникаси, машқлар, урғу, дикция.

Маълумки,бадиий асар ўқиш эндигина ўқишни ўзлаштириб олган болалар учун ҳам завқли машғулот бўлиб, бошланғич синфларда ташкил этиладиган синфдан ташқари ўқиш машғулотларида ўқувчилар бадиий асарларни севиб ўқийдилар. Синфдан ташқари ўқишни мунтазам олиб бориш ўқувчиларда инсоний фазилатлар, гўзал ахлоқ ва ижобий характерни шакллантиришда мухим аҳамият касб этади.Мардлик, тўғрилик, меҳнатсеварлик, дўстлик, ватанпарварлик, ҳалоллик, меҳр-муҳаббат каби инсоний фазилатлар улуғланган бадиий асарлар, ибратли кичик ҳикоя, шеърлар, халқ оғзаки ижоди намуналарини ўрганиш, айниқса эртак, масал, достонларни ўқиш ўқувчиларга ахлоқий тарбия беришнинг асосий омили бўлиб хизмат қилади.Уни мукаммал идрок этиш орқали кичик ёшдаги ўқувчиларниг маънавий дунёси бойиб боради. Бошланғич синфларда ўқиш учун асар танлашда, аввало унинг кичик хажмлилигига, яъни ўқувчи учун зерикарли бўлмаслигига ва эсда сақлаши учун осон бўлишлигига ҳамда ғоявий-сиёсий мазмунига эътибор берилади. Синфдан ташқари ўқиш учун бошланғич синф ўқувчиларининг мавжуд билим захираларига, ёш хусусиятларига мос, бола шахсини ривожлантирувчи, тарбиявий аҳамиятга эга мавзулар танланади.

Ўқитувчи мазкур асар пайдо бўлиш тарихи, ўша даврдаги ижтимоий-сиёсий ахвол ҳақида маълумот беради (масалан: учар гилам, ойнаи жаҳон...), асарни тарихий ва асосли факт, мисолларга боғлиқ холда ҳаётга боғлаб ўргатади. Ўқувчиларнинг ифодали ва равон ўқишларига эришиш,нутқ маданиятини шакллантириш, фикрларини равон ва мантиқан тўғри, мазмунли ва ифодали баён этишга одатлантириш, дунёқарашини кенгайтиришда синфдан ташқари ўқишнинг аҳамияти катта. Ифодали ўқишсиз таълим-тарбия самарадорлигини ошириш ва ўқувчиларнинг ижодий тафаккурини ўстириш мумкин эмас.Шунинг учун ҳам, бошланғич синфларда ўқувчиларнинг синфдан ташқари ўқишларини ташкил этиш энг мухим масалалардан бири ҳисобланади. Ўқиш дарсларининг вазифалари синфдан ташқари ўқиш билан тўлдирилади.Чунки синфдан ташқари ўқишнинг мақсади,асосан, ўқувчиларга равон ва ифодали ўқишни ўргатиш,бундан ташқари бадиий асар орқали тарбиявий элементларни сингдириш, асарнинг ғоявий-бадиий асосларини тахлил қилиш орқали ўқувчиларда қайта ҳикоялаш, анализ-синтез қилиш, таққослаш, мустақил фикрлаш, айни вазиятга тўғри баҳо бериш, хулоса чиқариш, муносабат билдириш каби хислатларини шакллантиришдир. Бир сўз билан айтганда, синфдан ташқари ўқиш ўқувчиларнинг сўз санъати билан самарали мулоқотда бўлишларига эришишга ва маънавиятларини шакллантиришга қаратилган, бўлиб тўғри ташкил этилган машғулотда ўқувчилар мавзуни ижодий жараён сифатида завқ билан ўрганадилар. Ифодали ўқиш,умуман, асарнинг мазмунига эътибор бериб мантиқий ўқишда ўқитувчи эътиборни, асосан, ёзувчининг асарда ифода этган фикрига, уни тўғри талқин этишга қаратади.

Кичик синфларда матнни аввал ўқитувчи намунали ўқиб беради. Бадиий асарни грамматик ва поэтик қонун –қоидаларга риоя қилиб ўқиш орқали ўқитувчи асарни поэтик ва бадиий хусусиятларини очиб беради. Ифодали ўқиш адабий асарни тушунарли, таъсирчан ўқиш демакдир. Ифодали ўқишнинг бадиий эмоционал бўлиши учун ўқувчи асар мазмуни,

ғоявий-бадиий жиҳатлари ҳақида тасаввурга эга бўлиши лозим. Асарни ўқишдан олдин унда қандай ғоя илгари сурилгани, адибнинг мақсади аниқланади. Маълумки, ҳаётдаги муайян воқеа-ходисага нисбатан ҳар бир ўқувчида маълум бир муносабат уйғонади. Бадиий асарда ҳам шундай, бир асар қаҳрамонига нисбатан ўқувчиларда нафрат уйғонса, бири ўқувчиларда юмор, бири хайрихохлик кайфиятини уйғотади. Бошланғич синф ўқувчилари тақлид қилишга мойил ва эмоционал хиссиёти кучли, таъсирчанлиги юқори бўлади. Синфдан ташқари ўқиш учун мавзу танлашда ўқитувчи бунга эътибор бериши керак.Ўқитувчи синфдан ташқари ўқиш жараёнида ўқувчиларнинг асар мазмунини тасаввур қилишларига, уларда асарни эстетик баҳолаш элементларини шакллантиришга, қайта ҳикоялашда эгаллаган маълумотларини мантиқан кетма-кетликда, хис-ҳаяжон билан сўзлашларига эришиши керак. Синфдан ташқари ўқиш учун танланган мавзуни тушунишни осонлаштириш, таъсирчанлигини ошириш учун, асар қаҳрамонлари холатини англаш учун,аввало, асар ифодали ва равон ўқилишига эришиш лозим.Ўқиш ижод, ифодали ўқиш эса санъат даражасидаги ижоддир. Маълумки, асар қанчалик мукаммал бўлмасин уни ифодали ўқилмаса муайян таъсир кучига эга бўлмайди. Ўқувчиларни ифодали ўқишга ўргатиш ўқитувчидан катта маҳорат талаб қилади.Бунинг учун ўқитувчи нутқ техникасини билиши, ўқувчиларни нутқ воситаларига оид техник машқлар билан мунтазам шуғуллантириб бориши мақсадга мувофиқдир.Шунда ўқитувчи ўқувчиларнинг ўқишини,овозини,нутқини аниқ,равон,бурро ва жарангдор бўлишига эришади.

Маълумки, ифодали ўқиш жараёнида нафас, овоз, ва нутқ аъзолари фаол иштирок этади. Ифодали ўқишнинг муҳим воситаларидан бири нафасдир,яъни ўқувчиларнинг ифодали ўқиш санъати нафас негизи билан узвий боғлиқдир. Чунки, матнни ўқиётганда ўқувчининг нотўғри нафас олиши ўринсиз паузалар қилишига олиб келади..Бунинг оқибатида ўқилаётган матн мантиқан бузилади, матндаги муаллиф мақсади ўқувчига тўғри етиб бормайди, фикр тушунарсиз бўлиб қолади. Нутқ воситаларига оид машқлар усули жуда кенг кўламли бўлиб, синфдан ташқари ўқишни ташкил этишдан олдин нафас,овоз, дикция,интонацияга оид машқлар ўтказиш ўқувчиларда учрайдиган нафас,овоз,нутқ аъзолари билан боғлиқ камчиликларини тузатишда самарали ёрдам беради. Нафас машқининг кенг тарқалган,тажрибали бошланғич синф ўқитувчилари фойдаланадиган қуйидаги турларини ўқувчилар севиб бажарадилар:

Дастлабки холат.Гавда тўғри тутилиб, оёқ товонлари бир-биридан елка тенглигида очилади.Қўллар олдинга чўзилади.Бир деганда товон кўтарилиб панжа учида турилади. Қўллар икки ёнга очилади.Бурун орқали чуқур нафас олинади.Икки деганда дастлабки холатга қайтади ва оғиздан нафас чиқарилади. Ёки ўқувчилар бурундан чуқур нафас олиб ичларида 1 дан 10 гача санайди ва оғиздан нафас чиқарилади.

Лаб, тил,жағ машқлари жуда содда, лекин, ўқувчилар учун қизиқарли. Буларга лабни чўччайтириш, тилни айлантириш, жағни айлантириш кабилар киради. Бадиий асарни ифодали ўқишда нафас ва овоз каби дикциянинг ҳам ўзига хос ўрни бор. Дикция сўзларни аниқ ва бурро талаффуз қилиш,яъни, нутқ товушларини талаффуз қилиш меъёридир.Нутқ товушларини талаффуз қилиш меъёрини ўргатишда унли товушларни аниқ-равшан, урғу билан айтилади. Бошланғич синфларда синфдан ташқари ўқиш учун танланган матнни ўқишдан олдин қуйидаги дикцион машқларни бажариш ўринлидир:

Унли товушлар машқи: А-О-И-У-Ў-Э

Ундош товушлар машқи: П-Б,К-Г,Т-Д,С-З

Ундош товушларга унли товушларни қўшиб, бўғин ҳосил қилиш:

РИ-РЕ-РА-РО-РЎ-РУ-РИ

Қўшалоқ ундошли бўғинлар ташкил этиш:

ФИССИ,КЕППЕ,САРРА,ГОББО,СЎЗЗЎ,БУФФУ.

Такрорланувчи ундошли бўғинлар:

ТУРП, КСЕРКС, КНЕГ, КЕНГ, ДРАПП, ДРРР.

Ундошлар машқини ўтказиш жараёнида нафас ва овозга ҳам эътибор берилади, ундошларни ўзаро боғлаб талаффуз этилади.

Тез айтишлар айтиш: Оқ чойнакка оқ қопқоқ, кўк чойнакка кўк қопқоқ. Ғани ғилдиракни ғилдиратди. Ўқувчилар ифодали ўқиш асосларини мустаҳкам эгаллашлари учун бошланғич синф ўқитувчиси нутқ техникаси бўйича бу каби машқларни мунтазам ўтказишга эътибор бериши керак.

Урғу ифодали ўқишнинг асосий воситаларидан бири бўлиб, у таъкидлаш, алохида эътибор қаратиш учун хизмат қилади.Урғу сўзларни тўғри талаффуз этишга, маънони тўғри ва тўла англашга ёрдам беради. Маълумки,урғу илмий адабиётларда лексик урғу, динамик,ритмик урғу, мантиқий урғу, традицион урғу, психологик урғу каби бир неча турга бўлиб ўрганилади. Ўқитувчи намунали ўқишда урғунинг барча турларига эътибор бериб ўқийди. Бошланғич синф ўқувчиларига эса соддароқ тарзда, сўз урғуси тушган бўғиндаги унли шу сўзнинг бошқа бўғинларига қараганда кучлироқ, чўзиқроқ талаффуз этилиши ҳақида тушунтирилади. Машқлар ўтказилади: Лола, лолалар, лолаларни, лолаларнинг, лолалардан, лолазорлардан. Бола,болалар, болаларга.Дўст,дўстлар, дўстларим, дўстларимнинг.Бундай машқлар ўқувчиларга урғуни тўғри қўйиб ифодали ўқишларига ёрдам беради. Бошланғич синфларда асарни қайта ҳикоялашга,айниқса, катта ахамият бериш керак.Чунки қайта ҳикоя қилиб бериш орқали ўқувчиларнинг асар воқеаларини кетма-кетликда баён этиш кўникмаси ва нутқ бойлиги ошиб боради. Асарга, унинг қаҳрамонларига муносабат билдириши, воқеа ва ҳатти-ҳаракатларни тахлил қилиши орқали ўқувчиларнинг мустақил фикри, ижодий тафаккури кенгайиб боради. Синфдан ташқари ўқишда халқ оғзаки ижоди намуналаридан “Донишманд” эртагини адабий ифодали ўқиш ўқувчиларнинг эртак мазмунини тўла англашларига ёрдам беради:

Бу эртакда дўстлик, ҳамжихатлик, иноқлик ғоялари акс эттирилган бўлиб, эртак орқали ўқувчилар ўзаро иноқлик рухида тарбияланади. Ўқувчилар жамоасини бир мақсад йўлида жипслаштиришда мана шу каби эртакларнинг аҳамияти катта. Синфдан ташқари ўқишда ўқитувчининг асосий вазифаси ўқувчиларни тўғри мақсад сари йўналтира олиш, асар ғоясини тўғри талқин этиш ва ахлоқий тарбия беришдир.

“Товуқ,ўрдак ва сичқон” эртагида воқеа товуқ, ўрдак ва сичқон ўртасидаги диолог орқали баён этилган бўлиб уни ролларга бўлиб ўқитилади,яъни ўқувчилар бу эртакни диалог усулида- товуқ, ўрдак, сичқон тилидан баён қиладилар.Бунда ўқувчилар ҳар хайвон овозини ўхтатиши, яъни, уларнинг бу паррандаларга муносабати сезилиб туриши лозим. Икки ялқов- ўрдак билан сичқоннинг дангаса, танбаллиги, текинхўрлиги уларнинг ўзига хос овозида фош этилиши лозим. Ўқувчилар ифодали ўқишда улар персонажларнинг ҳатти-ҳаракати, табиати, ниятига яхши тушуниб етиши ва ҳатто образнинг қайси ҳолатда, қандай кайфиятда эканлигини ҳам билишлари, тушунишлари зарур .Чунки ўқувчилар талқинидаги барча оханг, интонация,темп, ритм каби мазмуний ва шаклий компонентлар кўп жиҳатдан ана шу вазифа учун хизмат қилади.

Бошланғич синфларда драматик асарларни ифодали ўқиш, айниқса, уларни сахнада ижро этиш ўқувчилар учун қизиқарли бўлади.Синфдан ташқари ўқиш жараёнларида ўқилган “Зумрад ва Қиммат”, “Алишернинг ёшлиги ”, “Яхши сўз” каби ва бошқа драматик асарлардан тайёрланган саҳна асарларини ўқувчилар эрталикларда, байрам кечаларида ижро этишлари мумкин. Асарни ўқиш жараёнида ўқувчи унга нисбатан жиддий муносабатда бўлишни ўрганади, бу эса унинг бадиий адабиёт билан тўғри мулоқотда бўлишида, ўқилган асар самараси сифатида янги билим ва тажрибага эга бўлиб боришига ёрдам беради.Ўқувчи шахсини ривожланишида,умуман, комил инсон тарбиясида бадиий адабиётнинг ўрни катта, шунингдек, кичик ёшдаги ўқувчилар қалбида бадиий адабиётга ҳавас уйғотишда тўғри ташкил этилган синфдан ташқари ўқиш машғулотининг аҳамияти каттадир. Хулоса қилиб айтганда, синфдан ташқари ўқишни тўғри ташкил этиш бошланғич синф ўқувчиларини тўғри ва ифодали ўқишга, матн мазмунини тушуниш ва таҳлил қилишга ўргатади, бадиий адабиётга қизиқишларини орттиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Таълимга оид газета ва журналлар
2. Метод бирлашма йиғилишлари маърузалари

THE IMPORTANCE OF PUBLIC RELATIONS (PR) IN MODERN INNOVATIVE EDUCATION: DEVELOPMENT TRENDS OF PR SCIENCE

Makhsimova Risolat Qosimjon Qizi
Journalism and Mass Communications
University of Uzbekistan; 2nd year student
rmakhsimova@gmail.com ;
+998990054201;

Abstract: Today, the field of information services and PR is becoming more and more entrenched in the life of our society and state. In our country, this area is relatively new and has not yet been fully systematized. What is the role of this industry? What are the benefits of systematizing it? All these questions can be answered only after understanding the theory and practice of PR and international communications.

Key words: Public relations; "state of mind"; monitoring community; publicity; oil of democracy.

The evolution of the history of the formation and development of PR is studied in three periods. They are: preparation, intermediate and main periods.

The origins of PR go back to Thomas Jefferson, the third president of the United States, who first used the term "public relations" in 1807.

This does not mean that the beginning of PR starts from this day. In fact, its history goes back a long way. He went through different stages at different times under different names. Initially, PR was manifested as a profession in the activities of Greek and Roman orators. They guided public opinion through the speeches they made. If the mind is controlled, then the actions are also controlled. The only real-life example is Demosthenes, a Greek who was on the verge of surrendering without a fight, despite the invasion of his country, and we all know from history that his words were not in vain.

However, until 1807 it was called by other names. According to reports, Thomas Jefferson included the phrase "public relations (PR)" in his "Seventh Address to Congress" instead of the phrase "state of mind". The term "PR" in English, which has a high international status, has been widely used as a secular science name in other languages since then, especially in Uzbek. In 1832, the first discussions about PR were held at Yale University. John Robinson also made an integral contribution to the development of the Preparatory Period in Public Relations. He was sealed as the first official PR agent in the history of science. In 1868 he opened a press agency and began PR activities.

However, it was not until the twentieth century that the field of public relations (PR) began to emerge.

Known as the "father of public relations," Ivy Ledbetter Lee has created a positive image of many people in the United States through PR. Ivy Lee, who graduated from Priston University in New York in 1898, first worked for the World newspaper. However, the young journalist is not satisfied with the narrow streets of journalism. He wanted to be more active in public life. He demonstrated this aspiration in the 1903 New York mayoral election. He became a Parker and Lee co-founder with his colleague George Parker when he became a spokesman for the Democratic National Committee during the U.S. presidential election the following year.

In 1918, the first personal press secretary of the King of Great Britain took office. In 1932, the position of Head of Public Relations was established under the United Kingdom Government.

The name PR as a science is derived from Edward Bernays's 1923 work, The Crystallization of Social Thought. This pamphlet discusses how to positively publicize public opinion as a whole, that is, as a crystal. This work is the first theoretical foundation of PR science. In the same year, the Department of Public Relations was established at New York University. According to A. Chumikov, a Russian researcher, in Public Relations, E. Bernays described his work as follows: "When I opened my first office in 1919, I appointed a Public Relations Adviser. He started to listen to customers and work with the public. " Thus, theorists began to explore new aspects of PR. Public opinion polls are one of the most important criteria for communication.

According to V. Korolko, public relations has three main functions:

1. Study and observe public opinion. PR is the only way to get public opinion and influence it effectively. If public opinion is not studied in time, then a positive goal will not be achieved.

2. Monitoring community movement. So it is important not only to study the opinion of the public, but also to monitor their actions. The PR professional must determine how the public will behave in this or that action. As new situations arise and social attitudes change, the public needs to know in advance how they are behaving and where they are going. Publicity is an important part of a PR professional.

3. Ensuring mutual interest between the organization and the public. It is necessary to ensure mutual interests, not one-sided, and, as a result, to develop cooperation with the public. It will be a win-win situation. These three key functions are essential for PR professionals to strengthen their relationship with the public.

Former Indian President Indira Gandhi called PR "the oil of democracy." PR establishes communication between governments and the people, the population and business, producers and consumers, individuals and social groups. PR develops only in countries where democracy is practically developed. At the same time, it also serves the development of democracy. That is why today the field of public relations as a secular science is gaining momentum. Only where there is transparency, truth, sincerity can PR bring success and the expected result.

In 1974, PR was recognized as an international social institution, at which time the European PR Association (YePRA) was registered as an advisory body to the UN Economic and Social Council.

PR, which has come such a long way, has about 1,000 definitions today. It is therefore recognized as an area that is difficult to understand. In 2012, the PRSA approved its most optimal definition: "PR is a strategic process of establishing a mutually beneficial relationship between businesses and their communities." Its constituent areas are more than 50. Nowadays, many people understand PR and advertising as one thing. However, advertising is only one aspect of PR. Today, scientists say that advertising is "paid" and PR is "wanted". The reason is that advertising is an expensive, short event. Its distance and level of exposure is measured by price, while PR is done in the long run based on a strategic plan. In short, the taste of PR is a constant confidence, while the taste of advertising is a short and strong feeling. This ensures a constant stay in the public spotlight. In my opinion, Al Ries meant exactly the same concepts when he said, "PR is the best way to build a brand, and advertising is the best way to support it".

Today, PR confederations established for the development of this field provide a basis for the exchange of experience of specialists. In particular, the European PR Confederation, which has been operating since 1959, unites 22,000 PR professionals from 25 countries. In 1996, the Russian Public Relations Association also joined it. The anti-crisis mask of the PR sector, which aims to change the direction of public thinking, is also its remedy. Today, he is discovering new ways and directions.

References

1. Saidov U. Globalization and intercultural communication. –Tashkent: Academy, 2008. -128 p.

2. Vasilev G.A., Polyakov V.A. The basics of advertising. Textbook benefits - Moscow: UNITY-DANA, 2006.132 p.

3. Farby E.D. How to create a good advertising. St. Petersburg, 2004.-- 123p.

4. Ephraim. T., Efremova F. The modern explanatory dictionary of the Russian language. http://dic.academic.ru/dic.nsf/efremova . 2000.

5. Ivanova E.V. Psycholinguistics advertising appeal. Moscow, 2009.-- 154. www.aztr.ru.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING “KITOBXONLIKKA” QIZIQISHLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Mamadaliyevna Azizaxon
Namangan viloyati
Namangan shahar
18-maktab
azizaxonmamadaliyevna@gmail.com
Telefon:+998(97)2508

Annotatsiya: Ushbu maqola yosh avlodni kitobga bo‘lgan mehrlarini orttirish va shu orqali bilimli, kitobni sevadigan, yurt kelajagi uchun buyuk hissa qo‘shadigan farzandlar tarbiyalash haqida .

Kalit so‘zlar: Vatanparvar, vijdonli, kitobxon, axborot, buyuk, ma’naviy boylik,adabiyot.

O‘quvchilarni kitobxon qilib tarbiyalash pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Chunki badiiy adabiyot orqali kichkintoy moddiy va ma’naviy boyliklar bilan tanishadi, jamiyatimizda bunday yetuk yoshlar soni ancha ortadi. Jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash, farovon hayot va yangi jamiyat qurish yangi avlod qo‘lidadir. Shunday ekan, biz kelajak vorislarimiz vujudini komillikka intilish hissi bilan yog‘dirishimiz, ular tarbiyasiga va bilimiga qo‘yiladigan har bir talabga vijdonan javob bermog‘imiz lozim.

O‘quvchi va kitoblar. Bola mustaqil o‘qishni o‘qituvchi yordamida o‘rganadi va shu bilan birga “kitobxon” yoshini egallaydi. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ertaklar, hikoyalar, kata hajmdagi bolalar kitoblari bilan tanishtiramiz.

O‘quvchilar kitoblarni jihozlanishini va bezaklarini ko‘zdan kechiradilar.

- Asarning chiroyli, ifodaliligini his qildirish, poetik so‘zlarga sezgirligini oshirish.
- Tanish asarni qayta eshitishga o‘rgatish;
- Kitobni ko‘zdan kechirish va undan axborot olishni o‘rgatish;

Olti-yetti yoshli bolalarda qalin kitoblarga qiziqish tobora ortib boradi, bu holat uning kitobni uzoq va qaytadan o‘qishga qiziqishidandir. Tajribadan bilindiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kitobdagi rasmlarga qiziqadi. Ertak va she’r, rivoyatlarni sevib o‘qiydi.

- Kitobni o‘qishdan oldin bolaga kitob va uning muallifi haqida iliq so‘zlar aytish, asardagi qahramonlar ularga nima sababdan yoqqanligini tushuntirish kerak.
- Kitob bolalarga yoqqan bo‘lsa, qayta-qayta o‘qib berish kerak.
- Kitobni iloji boricha to‘liq o‘qib berishimiz lozim. O‘quvchilarning mustaqil o‘qishini tashkil etishimiz kerak.
- Maktab darsliklarida berilgan she’rlar ifodali o‘qitilib, yod olishlarini talab qilinadi. She’r yod olganda bolaning nutqi o‘sadi va xotirasi mustahkamlanadi.

Albatta, o‘quvchilarni she’riyat gulshaniga qiziqtirish va she’rga oshno qilish o‘qituvchidan chinakam mehnat va jasorat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat .M.Mirziyoyev besh tashabbus haqida 2019.
2. Boshlang‘ich ta’lim jurnali.

BOSHLANG‘ICH SINFLARGA XALQ MAQOLLARINI O‘QITISHNING AHAMIYATI

Mamadaliyeva Xurshida Shaydullayevna
Namangan viloyati Chortoq tumani
52-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqol va boshlang‘ich sinflarga xalq maqollarini o‘qitishning ahamiyati xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, xalq og‘zaki ijodi, o‘qish darsliklari, xalqaro janr, ma’naviy tarbiya, axloqiy sifatlar.

Dunyoda hikmat durdonalarini yaratmagan, asrlar osha ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab, sayqal berib, avloddan avlodga meros qilib qoldirmaydigan xalq bo‘lmasa kerak. Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo‘lib, o‘sha xalqning milliy – madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Shuning uchun xalqning o‘ziga xos madaniyati, tarixi va urf odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o‘rinda turadi. Tilda mavjud bo‘lgan leksema o‘sha xalqning turmush tarzidan, ya’ni xalq tilidan kelib chiqqan bo‘lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi.

Maqol xalqning asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to‘plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham chuqur mazmunga ega bo‘lgan og‘zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha – qavlun- gapirmoq, aytmoq, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil etadi. Maqol o‘z tabiatiga ko‘ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o‘z maqollariga ega bo‘lmagan xalqning o‘zi yo‘q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoy “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman” deb yozganida to‘la haqli edi. Boshlang‘ich sinflarda maqollarni o‘rganish orqali o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish bilan bir qatorda ular orqali o‘quvchilar ongiga turli insoniy fazilatlar singdiriladi. Bunda quyidagilarga e’tibor beriladi:

1) maqollar tajribada sinalgan fikrni tasdiqlaydi. Masalan:

“Hunarli kishi xor bo‘lmas” (1-sinf),

“Hunar bolsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda” (3-sinf) –

maqollarida hunari orqasidan kishining yaxshi turmush kechirishi hamda kishilar orasidagi ahillikning ahamiyati ifodalangan;

2) tabiatda sodir bo‘lgan voqea va hodisalarni jamiyat hayotiga (ko‘chma ma’noda) boshlaydi. Inson uchun uning zarurligi ochiladi. Masalan:

Bog‘ni eksang bog‘ bo‘ladi,
Botmon dahsar yog‘ bo‘ladi.
Boqimsiz bog‘ tog‘ bo‘ladi.
Yurak-bag‘ring dog‘ bo‘ladi;[3]

3) Maqol mazmunida narsalarning o‘ziga xos xususiyati, mohiyati ochiladi va bu inson hayotiga ham bog‘liq holda, ma’no jihatidan tarbiya mazmunini beradi. Masalan:

“Do‘stsiz boshim-tuzsiz oshim” (4-sinf),

“Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni” (1-sinf);

Maqollardagi muhokama va tafsilot inson, jamiyat va ayrim predmetlarning mohiyatini eslatish bilan birga, o‘quvchilar fikrini uyg‘unlashtiradi, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan:

“Ona yurting- oltin beshiging” –

Axloq, odob bahsidagi maqollarni tahlil etish orqali xalqning hukmi ifoda etiladiki, bu maqollarni o‘rganish orqali o‘quvchilar asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan eng oliyjanob fazilatlar haqida fikrga ega bo‘ladilar. Jumladan,

“Ochko‘zlik yomon odat, keltirar u falokat” –maqoli mazmuni 1-sinfda “Ochko‘z sichqon” ertagi mazmuniga bog‘lab o‘rgatiladi. Bunda ochko‘zlik insonni halokatga eltuvchi narsa ekanligi, nafsibalolik oxir-oqibat kulfat keltirishi tushuntiriladi. O‘quvchilar bunday illatga ega bo‘lmasligi uqtiriladi. Ertak mazmunidan xulosa chaqartiriladi. Zero, komillik belgisi, eng avvalo, ilmlilik va biron-bir hunarnining mohir egasi bo‘lish bilan ham belgilanadi.

“Hunar o‘rganish uchun ham hunar kerak”.

“Olim bo‘lsang, olam seniki”.
“Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda”.
“Ilm-aql chirog‘i” –

kabi maqollarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga ilm olishning afzalliklari, bilim hamisha insonni yuksaklikka eltuvchi vosita ekanligini tushuntiriladi. Ko‘rinadiki, xalq maqollari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniy fazilatlarni tarbiyalashda, ularda yuksak ma’naviyatni shakllantirishda, kelajakda barkamol inson bo‘lib yetishishlarida juda katta rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich sinf, xususan, birinchi sinf o‘quvchilarining og‘zaki bog‘lanishli nutqqa ega bo‘lishi, matn mazmuni asosida tuzilgan savollarga javob bera olishi, o‘qiganlariga o‘z munosabatini bildirishi, o‘qituvchi savoli yoki darslikda berilgan rasm asosida matn mazmunini qayta hikoyalashi, o‘qituvchi yordamida matnni qismlarga bo‘lishi, ularga sarlavha tanlashi, matnning asosiy mazmunini aniqlashga, matnda qatnashuvchi shaxslarni, tabiat manzaralarini tasvirlovchi so‘z va iboralarni tahlil qilish hamda shu so‘zlar ishtirokida og‘zaki hikoya tuzishga, ertak, she’r, hikoya, topishmoq va maqollarni janriy xususiyatlariga ko‘ra farqlay olishga o‘rgatilishi talab etiladi. Bunda, albatta, maqol va matallarni qo‘llay bilish malaksini hosil qilish ahamiyatli.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasining tugal fikri tarzida qat’iy ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi doimo ustunlik qiladi. Ularni yosh avlod ongiga singdirish, xususan, boshlang‘ich sinflarda maqollar va ularning ma’no qirralarini o‘quvchilarga o‘rgatishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati juda muhum.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchonov S., Shojalilov A.va boshqalar. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo‘l Poligraph servise.
2. Mirzayev I. Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodini o‘rganish. – Toshkent: O‘qituvchi,1979.

SAVOD O‘RGATISHDA ANALITIK-SINTETIK TOVUSH METODI

Mamatova Maxsuda Ikromjonovna
Namangan viloyati Norin tumani
27-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998944391279

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatishda analitik-sintetik tovush metodi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: analitik-sintetik tovush metodi, alifbe, fonematik eshitish.

Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodining an’anaviy hamda shakllanish, tashkil toppish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savod o‘rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko‘ra ta’limiy va o‘stiruvchi xarakterda bo‘ladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy o‘sishni ta’minlaydi, o‘qishning ongli bo‘lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo‘linadi: a) alifbegacha tayyorlov davri; b) alifbo davri.

Bunda yozuvga o‘rgatish o‘qishga o‘rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

a) savod o‘rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) savod o‘rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi;

d) o‘qish birligi sifatida bo‘g‘in olinadi, bo‘g‘in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardir:

1. Ta’lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan: savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga differensial individual yondashish (bu bolaning umumiy rivojlanishi hamda o‘qish va yozishga tayyorligiga bog‘liq).

2. O‘qitishning istiqboli nuqtai nazaridan: grammatika, so‘z yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish.

3. Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfning mosligini, osonligini, ta’limning tarbiyaviy va o‘stiruvchi xarakterini hisobga olish.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim tamoyillaridandir. Maktabda axloqiy tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi. Bolalar darsda ommaviy siyosiy tushunchalarni egallaydilar.

“Alifbe” sahifalarida do‘stlik, baynalminal munosabat, bolalar mehnati, tabiat, kattalar mehnati, bolalar o‘yinlari, oila, maktab hayotiga oid rasmlar berilgan, turli mavzularda matnlar keltirilgan. Bular bolalarda o‘zaro do‘stlik, mehnatsevarlik, mehnatni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiatni sevish va asrash, hayvonot dunyosiga qiziqish, ularni muhofaza qilish, maktab va o‘qishni sevish, umuman, estetik tarbiyani shakllantiradi. Demak, bolalarga axloqiy, g‘oyaviy- siyosiy, mehnat va estetik tarbiya berish ham savod o‘rgatish vazifasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o‘qish darslari.
2. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSIDA MATNLI MASALALAR YECHISH SAMARADORLIGI

Mamatqulova Umida Ahmadjonovna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +99894 1782751

Annotatsiya: Boshlangich sinflarda matematikani o‘qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llash usullarini ishlab chiqish, dastur materiallariga mos matnli masalalarni o‘rganishning samarali usullarini aniqlash yangi pedagogok texnologiyalardan foydalanib masala yechishni amalga oshirish yo‘llarini izlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, matematika darsi, ta’lim, tarbiya, pedagogik texnologiyalar, masalalar yechish.

Ta’lim jarayoni interfaol metodlar asosida tashkil etish bo‘lajak mutaxassislarning O‘zbekistonning ilg‘or tajribalari, an’analari, madaniyatini hisobga olgan holda har tomonlama shakllantirish imkonyatini beradi. Bu borada ta’lim tizmida, o‘quv jarayonida interfaol metodning umumiy asoslari tadqiq etilgan.

Ta’limni tubdan isloh qilishning ajralmas va muhim qismi hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, amaliyotga joriy qilinishi mumkin bo‘lgan yo‘l-yo‘riqlar yangicha usullar orqali mutaxassislar tomonidan ma’lum tizim asosida o‘rgatilishi lozim. Jahon ta’limi tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti ta’limning takomillashishi va taraqqiy qilishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mustaqillik yillarida ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar ta’lim jarayoni tarkibiy qisimlarini yangicha tartibda namoyon bo‘lishini taqozo etadi. An’anviy ta’lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta’lim metodlarining paydo bo‘lishi, ta’lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta’limni tashkil etishning noan’anaviy shakllari keng ko‘lamda joriy etilishi kuzatilmoqda.

Mazkur o‘zgarishlarning bir qismi mavjud didaktik ta’limotlarning tarkibidan o‘sib chiqqan bo‘lsa, yana bir qismi dunyodagi ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogik tajribalariga suyangan holda paydo bo‘ladi. Shu o‘rinda ta’limning zamonaviy interfaol metodlarining mamlakatimiz ta’lim sohasiga kirib kelishi alohida e’tibor qaratadigan yo‘nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur.

Matematikani o‘qitish umumiy sistemasida masalalar yechish samarali mashq turlaridan biridir. Masalalar yechish bolalarda avvalo mukammal matematik tushunchalarni shaklllantirish ularning programmada berilgan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlarida favqulotda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, agar biz qo‘shish haqida to‘g‘ri tushuncha shakllantirishni istasak, buning uchun bolalar yig‘indini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to‘plamlarni birlashtirish amalini, bajarib yechishlari zarur.

Shunday qilib, masalalar konkret material bo‘lib, ular yordamida bolalarda yangi bilim vujudga keladi va mavjud bilimlar tadbiq qilinishi jarayonida mustahkamlab boradi. Masalalar bilimlarni shakllantirishda konkret material bo‘lgani holda nazariyani amaliyot bilan, o‘qitishni turmush bilan bog‘lab olib borish imkonini beradi. Masalalar yechish bolalarda kundalik hayotda har bir kishi uchun zarur bo‘lgan amaliy uquvlarni vujudga keltiradi.

Masalalar yechish jarayonining o‘zi ma’lum metodika o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u aqliy operatsiyalarni analiz va sintez, konkretlashtirish va abstraklashtirish, taqqoslashi, umumlashtirilishi talab etiladi. Masalan, o‘quvchi istalgan masalani yechayotganida analiz qiladi, savolni masala shartida ajratadi, yechish rejasini tuzayotganida sintez qiladi, bunda konkretlashtirishdan (masala shartini hayolan chizadi) so‘ngra abstraklashdan foydalanadi (konkret situatsiyadan kelib chiqib arifmetik amalni tanlaydi) biror bir turdagi masalalarni ko‘p marta yechish natijasida o‘quvchi bu turdagi masalalarda berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanishlar haqidagi bilimni umumlashtiradi, buning natijasida bu turdagi masalalarni yechish usuli umumlashtiriladi.

Bolalarni masala yechishga o‘rgatish – bu berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanishni aniqlashni va buning asosida arifmetik amallarni bajarishni o‘rganish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. A. “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent, “Sharq”, 1997 yil
2. Bikbayeva N. U. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996 yil
3. Toshmurodov B. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishni takomillashtirish ” Toshkent “O‘qituvchi”, 2000 yil

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

Mardonova Dilfuza Boboqulovna
Navbahor tuman 5-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
O‘razova Bashorat Ramazonovna
Navbahor tuman 19-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon 998934340078, 907311822

Annotatsiya: Ushbu maqola 1-4-sinflarda o‘qish darslarida sinfdan tashqari o‘qish darslarida, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kichik guruhlarda ishlashning o‘ziga xos pedagogik-psixolgik xususiyatlari, interfaol usullarning afzalliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘quvchilarni fikrlash jarayoni, savol-javob, to‘g‘ri talaffuz, kichik guruhlar, mashg‘ulot, ko‘p qismli topshiriqlar.

Bugungi kunda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda o‘tkazish o‘zining yuqori natijalarini beradi. Qaysi interfaol usullarni qo‘llash har bir mashg‘ulotning didaktik vositasidan kelib chiqqan holda tanlash maqsadga muvofiq va o‘z samaradorligini ko‘rsatadi. Dars jarayonida yangi pedagogic texnologiyalarni qo‘llash yaxshi, lekin birinchi navbatda o‘qituvchi qaysi texnologiyani, qaysi mavzuga qo‘llash mumkinligini va shu orqali qanday natijaga erishishini bilib qo‘llagani maqul, sababi hamma mavzularga bir xil texnologiyani qo‘llash, o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni so‘ndiradi va ularda darsdan zerikish hissini o‘yg‘otadi.

Birinchi Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganidek “Bizning ishonchimiz va tayanchimiz bo‘lmish yoshlarimizga yanada keng yo‘l ochib berish, farzandlarimizni zamonaviy bilim va tajribaga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan, ma’naviy yuksalish, komil insonlar etib tarbiyalash, ularning jamiyatimizda mustahkam va munosib joy olishi yo‘lida zarur shart-sharoitlarni yaratib berish barchamiz uchun ham qars, ham farz”. Zero, mustaqil ongli faoliyat yuritadigan insongina o‘z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi birinchi to‘la-to‘kis bajara oladi, inson degan ulug‘ nomga munosib ish ko‘radi. Shuningdek, mustaqil fikrli inson o‘zining xatti-harakati va odamlar bilan munosabatga tanqidiy baho bera oladi, milliy hamda umuminsoniy axloq me’yorlariga rioya etadi,maustahkam e’tiqodga ega bo‘ladi.

Shu o‘rinda o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish qachondan boshlanadi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Buning uchun fikrlash jarayonining shaklllanishi bosqichlarni bilish lozim. Bola dunyoga kelganidan boshlab, hayotni kattalar faoliyatini tabiatdagi voqea-hodisalarni kuzatadi va ularni o‘zlashtira boshlaydi, nutqi shakillanadi, unda borliq, atrof-olam to‘g‘risida tasavvurlar paydo bo‘ladi. Ko‘plab ma’lumotlarni tushunishga, anglashga intiladi. Buning natijasida ko‘plab savollar paydo bo‘ladi. Masalan “Osmonda nima bor ?”, “Bu qanday qush ?”, “Qushlar nega uchadi ?” kabi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolalar ota-onalariga tinimsiz savollar berishi mumkin. Ana shunday paytda bolaning savollariga sabr-toqat bilan javob berish, uning fikrlashia. Hodisalarni anglashga nutqini o‘sishiga yordam beradi. Oila kattalari tomonidan yo‘l qo‘yilgan mazkur xato bolaning fikrlash jarayonini susaytiradi.

Shuni unutmaslik kerakki bolaning nutqi maktab ta’limiga tayyorgarlik bosqichida katta bilan muloqotga kirishib, ularning fikrini o‘qib olish va to‘g‘ri isloh qilish natijasida shakillanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning fikrlash darajasi asosan ta’lim-tarbiya jarayonida takomillashadi. Bunda o‘qituvchining roli beqiyosdir. Didaktik o‘yinlar bolada o‘qish motivining rivojlanishiga yordam beradi. Bu o‘quvchilarda bilim ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadi. O‘yin vositasida o‘quvchilarning yangi bilimlarini o‘zlashtirish jarayoni osonlashadi, muomala madaniyati shakillanadi. Dars davomida u o‘zining mustaqil fikrini bildira boshlaydi. Masalan, “Suratdagi xatoni top” o‘yinida bola suratni mustaqil kuzatadi. Qish manzxarasiga oid o‘sha suratda biror bir daraxtning gullayotgani tasvirlangan bo‘lsa, bu xatoni bola o‘zi mustaqil ravishda topadi. Uning tafakkuri oshadi. Har bir faslning o‘ziga xosliklarini eslaydi va qishda daraxt gullamasligini aytib asoslab beradi. Xuddi shuningdek “Matndagi xatoni top” o‘yinlari, rebus, boshqotirmalar ham o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Ayniqsa, darslardagi rasm ustida ishlashga doir mashqlar yuzasidan olib borilgan savol-javoblarda bola faol ishtirok etadi, rasmga munosabat bildiradi. Agar rasm asosida hikoya yozish topshirig‘i berilsa, u o‘z

tasavvurlariga tayangan holda hikoyani mustaqil yoza oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida bolani mustaqil fikrlashga o‘rgatish imkoniyatlari juda keng. Ularning ichida o‘quvchini matn ustida ishlashga yo‘naltirish mustaqil fikrlashga o‘rgatishning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, bunda matnni bo‘laklarga bo‘lish va ularga sarlavha qo‘yib, mazmunini saqlab qolgan holda qizqattizib o‘qish o‘qituvchining savollariga matndan javob topib, eng chiroyli tasvirlangan bo‘lakni o‘qish, matndagi bosh g‘oya ifodalangan gapni aniqlash, ertak yoki masalni o‘qigandek “Nima haqiqatga yaqin, nima o‘ylab topilgan?” mavzusida suhbat o‘tkazish, xulosalarga tinglangan voqea yoki hodisaga o‘z munosabatini bildirish, “Asar sizga nimasi bilan yoqdi?” mavzusida suhbatlar uyushtirish matndagi har xil kayfiyatga xos qismlarni, siymolarni ifodalovchi so‘zlarni topish, qiyin so‘zlar ma’nosini aytib o‘qish, matnni qismlarga bo‘lib, ifodali o‘qish va qismlarning biridan ikkinchisiga navbat bilan o‘tish, voqea yoki hodisani so‘z yordamida tasvirlash kabilar kiradi.

Darslikdagi matn oxirida berilgan mashqlar, savol va topshiriqlar asosida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash, ayniqsa muhim. Masalan, “She’rni kim aytyapti?”, “She’rga siz qanday qo‘shimcha qila olasiz ?”, “Ertak voqealari ichida bo‘lishni xohlarmidingiz?” kabi savollar, “Matnni qismlarga bo‘ling va har bir qismga sarlavha qo‘ying”, “O‘qituvchi yordamida matn rejasini tuzing”, “Reja asosida uni qayta hikoya qiling” kabi topshiriqlarni berish o‘quvchilarning tafakkurini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov M.N. Ta’limni didaktik loyhalash – T: A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashryoti 2002 yil
2. Nishonova.Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashning psixologik asoslari. P.pf.q.diss
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalari izohli lug‘at – T .. 2009

PEDAGOGIK MAHORAT VA PEDAGOGIK TIZIMNING TARKIBIY QISMLARI

Matchanova Dilfuza Yaqubovna
Xorazm viloyati Urganch shahar 8-son IMI ning oliy toifali matematika fani o'qituvchisi
Tel:+99-897-299-05-98

Annotatsiya: Maqolada ilg'or o'qituvchilarning qiziqishlari haqida batafsil keltirilgan.
Kalit so'zlar: Ilg'or o'qituvchilarning qiziqishlari, o'qituvchi faoliyati turlari.

Ilg'or o'qituvchilarning ikki xil qiziqishlari bo'ladi:

1. O'z sohasini, ya'ni o'z predmetini chuqur bilishi va bilimga intilishi. Psixologiya va pedagogika fanining eng yangi yutuqlarini egallash;
2. Bolalar bilan muloqot ehtiyoji.

Bu ikkala qiziqish ham o'zaro juda yaqindan bog'liq bo'lib, agar o'qituvchi o'z sohasini bilsa-yu, o'quvchilarni yoqtirmasa va muloqot ehtiyoji bo'lmasa, bunday o'qituvchining maktabda ishlashi qiyin bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchi bolalar va yoshlar psixologiyasini va pedagogikasini yetarli darajada bilishi shart. Demak, o'qituvchi kasbi uchun zarur bo'lgan bilim va tajribalardan tashqari, pedagogik vazifa va pedagogik vaziyatni hal etishga urinish mumkin bo'lgan pedagogik vositalardan samarali foydalana olishi hamda unda pedagogik vazifa va vaziyatni chuqur hal etish uchun har tomonlama mustahkam bilimga ega bo'lishi talab qilinadi.

O'qituvchi faoliyati turlari. O'qituvchining kasbiy faoliyati turli yo'nalishlarda bo'ladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar: O'quv pedagogik faoliyat. Bu faoliyat jamiyat talablariga mos ravishda oliy maktabda o'quv jarayonini tashkil etishga yo'naltiriladi. Oliy maktabdagi o'quv jarayoni uchun o'kuv va ilmiy-tadqiqot ishlarining uzviy bog'liqligi, o'quvchilar faolligi va mustaqil ishlari ijodiy potensial bo'lgan shaxs ahamiyatini oshirish xarakterlidir. Oliy maktabdagi pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy faoliyat qo'shib olib boriladi. Nazariy faoliyat yangi qonuniyatlarni ochish bilan bog'lanadi. Amaliy faoliyat muayyan vaziyatlarni yangilashga va pedagogik vazifalar tizimini hal qilishga yo'nalgan bo'ladi. O'qituvchi konkret fanni boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro bog'lagan holda uning o'qitilish maqsad va vazifalarini belgilaydi, o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini jonlantirishni ta'minlaydigan o'qitishning mazmuni, zamonaviy shakl va metodlarini o'ylab topadi. O'qituvchi o'quv-pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi uning ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etishidir. Oliy maktab o'qituvchisining pedagogik faoliyati tavsifida olimlar, odatda, N.V.Kuzmina va Z.F. Yesarova tadqiqotlariga tayanadilar.

Pedagog faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Pedagoglik dunyodagi eng qadimgi kasblardan biridir. Uning ijtimoy ahamiyati hech qachon kamaymaydi, so'nmaydi. Pedagoglik kasbi bir qator muhim talablarga javob berishi kerak. Hozirgi zamon pedagogining shaxsi uchun eng muhim asos– bu insonparvarlik yo'nalishidir. Pedagog juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega odam. U juda ko'p narsani bilishi kerak, hozirgi zamonda o'zi o'qigan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'ishi kerak, o'z o'quvchilarini har kuni o'qishga o'rgatib borishi uchun uzi muntazam o'qib o'rganib, o'z bilimini to'ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak. Pedagogik mahorat asosan o'qituvchining faoliyatida pedagogik mahoratga erishish uchun maxsus umumlashtira olish qobiliyati, yuqori bilim, yetarli malaka va ko'nikmalar bo'lishini talab qiladi.

Pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari: pedagogik faoliyatning maqsadi, obyekti, subyekti va vositasi kabi tarkibiy qismlari mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.uzedu.uz
2. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazarya va amaliyot 2005 yil

PANDEMIYA SHAROITIDAGI TA'LIM ISLOHOTLARI

Nizomiy nomidagi TDPU magistri
Matkarimova Nilufar Boqijon qizi
+99898/128-97-97
nilufarmatkarimova21@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi pandemiya sharoitida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli iqtisodiyot doirasida OTMlarida modulli ta'lim tizimini joriy etilishi masalalariga qaratilgan bo'lib, bunda modul kredit tizimining imkoniyatlari va samaradorliklariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Tayanch tushunchalar: pandemiya, epidemik vaziyat, platforma, modul, modulli ta'lim, modulli o'qitish

Bugungi kunda butun dunyoga o'zining tez tarqalishi bilan insonlar ko'ngliga havf solayotgan koronavirus kasalligini chegara bilmas hususiyatlari bilan pandemiyani yuzaga keltirganini ko'rishimiz mumkin. O'tmishga nazar tashlasak bu kabi xolatlar tarixda ham qator yuqumli kasalliklar nomi bilan atalgani, biroq ular materiya, areallarning o'ziidagina tarqalgani bilan epidemiya holatida qolganligi, dunyoga koronovirus singari pandemik vaziyat bilan havf solmaganini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi amaldagi vaziyat – barcha davlatlarning qator sohalariga o'zining sezilarli darajada ta'sir o'tkazganligi bilan ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Butun dunyo mazkur sinovli vaziyatdan inqirozlariz chiqishga, mavjud muammoli holatlarni esa yengillashtirish chora tadbirlarini ko'rmoqda. Bunday islohotlar ayni damda respublikamizning barcha sohalarida ham amalga oshirilinmoqda.

O'zbek xalqi azaldan o'zining sabri, bardoshi, bir-birini qo'llab-quvvatlashi, e'tiqodlari tuzilmasi bilan boshqa xalqlardan ajralib turgan. Har bir narsada bir hikmat borligiga ishonuvchi va har qanday kulfat ortida quvonch borliliga umid qiluvchi xalqimiz mana shu sinovli kunlarda ham bir biriga madad bo'lib kelmoqda.

Mazkur pandemiya muhitida ham axolinining manfaatlari yo'lida hizmat qilish, yoshlar salohiyati, ilm olishiga imkoniyat yaratish masalalari e'tiborsiz qolgani yo'q.

2020 yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili, deb e'lon qilinishi mamlakatimizda yaqin kelajakda aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish va axborot texnologiyalari sohasini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri bo'lib qolishidan dalolat beradi.

Bugungi kunda insoniyat taraqqiy etishi ko'p jihatdan axborot texnologiyalarining rivojlanish shiddatlariga bevosita bog'liq.

XX asrning oxirida, internet tarmog'i jamiyat hayotining turli sohalariga kirib kelishi bilan "elektron hukumat","elektron savdo", "raqamli iqtisodiyot" kabi atamalar paydo bo'ldi.

An'anaviy iqtisodiyotdan ko'pgina ustunliklarga ega raqamli iqtisodiyot qisqa davrda dastlab rivojlangan mamlakatlarda, keyinchalik dunyo bo'ylab keng ommalashdi.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirish tizimi bo'lib, bunga avvalambor onlayn-xizmatlar, masofaviy ta'lim, elektron to'lovlar, tovar va xizmatlarning internet-savdosi misol bo'la oladi.

Ayni pandemiya sharoitida ta'lim oluvchilar uchun OTMlari tomonidan modulli ta'limga asoslangan holda ta'limni tashkil etish, bunda ilmiy ijodiy faoliyatni masofadan turib, axborotlashgan platformalarga kerakli bazadagi ma'lumotlarni joylsh va ulardan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratildi. Albatta mazkur jarayon belgilangan tartibda ta'lim tizimida qo'llanishi amaldagi rejalarda begilangan va bunga navbat bilan erishilishi nazarda tutilgan bo'lsada, biroq bu tizimni ayni pandemiiya sharoitida umumtarg'ib qilingani va buni bugungi intelektual salohiyatli yoshlarimiz tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi va malakali pedagog o'qituvchilarimiz tomonidan texnologik kompitentligini baholashga zamin yaratganini ko'rishimiz mumkin.

Modulli o'qitish – bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotlariga tayangan holda, bilimlarning to'liq va samarali o'zlashtirishiga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'limiy modul – unga tegishli metodik materiallar bilan birgalikdagi o'quv kursining mazmunli qismi.

O'quv moduli – har bir o'quv topshiriqlarini bajarish vaqti, nazorat va hisobga olish usullari, o'quv materiallari (paragraf, mavzu, bo'lim, fan, integrallashgan kurs)ni o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar. Ko'proq oddiy va o'ziga xos tarzda o'quv moduli uni o'rganishning ko'proq oqilona shakl va metodlari bilan birgalikda odatiy o'kuv dasturlari mavzu(bo'lim)larini aks ettiradi.

Modulli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'quvchi o'ziga taqdim etilgan individual o'quv dasturi asosida mustaqil ish olib boradi. Bu o'quv dasturida xarakatlarning rejasi, axborotlar blogi, o'qitish natijalariga erishish bo'yicha metodik tavsiyanomalar bo'lishi kerak. O'qituvchi bu sharoitda nazorat qilishi, maslahat berish, axborotlarni o'zlashtirish bo'yicha xarakatlarni muvafiq-lashtirish vazifalarini bajaradi.

Modulli o'qitishning umumiy yo'nalishi, uning maqsadi, mazmuni va tashkil etish metodikasi qo'yidagi tamoyillariga asoslanadi:

1) modullilik – o'qitish mazmunidan alohida elementlarini bo'lib olish;

2) tadrijiylik – bilimlarning amaliy yo'naltirilganligi va jadal o'zlashtirilishiga erishish;

3) moslashuvchanlik – ta'lim mazmunini va unga erishi yo'llarini ta'lim oluvchining individual ehtiyojiga qarab moslashtirish;

4) metodik maslahatning xar tomonlamaligi – ta'lim oluvchining bilish faoliyatida va pedagogik faoliyatda professionallikni ta'minlash;

5) interfaollik – ta'lim oluvchi va pedagog o'rtasida ishchan xamkorlikni ta'minlash.

Modulda ta'limning maqsadi, mazkur modulni o'rganish vazifalari va darajasi, ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar aniq belgilab beriladi. Modulli ta'limda hammasi oldindan dasturlashtiriladi: o'quv materialini o'rganishning ketma-ketligi, aosisy tushunchalar, egallash lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar, o'zlashtirish darajasi va o'zlashtirish sifatini nazorat qilish. Modullarning soni ham fanning o'ziga xosliklari, ham ta'limdagi nazoratning istalgan chastotalari bilan bog'liqlikda olinadi.

Modul o'quvchilarga dastlab umumiy faoliyatga kirishish, so'ng qismlar bo'yicha umummiy maqsadlar zonasida anglangan o'zaro harakatni ishlab chiqishga imkon beradi.

Modul tufayli o'quvchilar mazmunni o'zlashtiradi, qanday axborot va qanday maqsadda muhokama qilinayotganligini tushunib etadi, u nimani "qabul qiladi" va nima uchun bu zarurligini anglab etadi. Modul doirasida o'quv axborotlarini tizimlashtirish pedagog va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatining shakl va turlari tadrijini ajratib olish va aniqlashni talab etadi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), hamda Jahon banki ushbu pandemiyani o'rta, maxsus va oliy ta'limning fors-major vaziyatlarga tayyorgarligini tekshiruvdan o'tkazayotgan holat deb baholashmoqda. Buning sababi, jahondagi barcha ta'lim muassasalari yangi formatga o'tib, ommaviy tarzda masofali o'qitish tajribasini qo'llashga majbur bo'lishdi. O'z o'rnida, bu qator muammolarni keltirib chiqardi. Birinchidan, internet texnologiyalaridan foydalanish uchun o'qituvchi va talabalarda raqamli savodxonlikning yetarli emasligi, ikkinchidan, internet tezligining pastligi, uchinchidan esa, ba'zi mamlakatlarda internetga ulanish imkoniyatining kamligi yoki aholining aksariyat qismi uchun deyarli yo'qligi va to'rtinchidan, aksariyat ta'lim oluvchilarda masofaviy o'qish uchun texnik vositalarning (kompyuter, noutbuk, gadjetlarning) mavjud emasligi. Shubhasiz, bunday holat ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etmasdan qolmadi, texnik nosozliklar va boshqa omillar o'quv jarayonida uzilishlarga olib keldi.

Lekin shu bilan birga, jahon ekspertlari pandemiya tufayli joriy qilingan qat'iy karantin qoidalari ta'lim, jumladan oliy ta'lim uchun yangi imkoniyatlar yaratganini e'tirof etishmoqda. Xususan, Armanistonda karantin paytida masofaviy ta'lim olish imkonini beruvchi universitetlarning yagona iUniversity platformasi ishga tushirildi, Birlashgan Arab Amirliklari global tarmog'ida ta'lim olish va biznes yuritish uchun 5 ta: Google Hangouts Meet, Cisco Webex, Avaya Spaces, Blue Jeans va Slack nomli ilovalar uzluksiz ishlay boshladi. Kiprda ta'lim va fan vazirligi Pedagogika instituti orqali masofaviy ta'lim olib borish uchun o'qituvchilarni tezkor tayyorlash ishlarini tashkil qildi. Rossiya universitetlarida esa qo'shimcha reallik (AR – augmented reality) texnologiyasining qo'llanilishi (RF "Perviy kanal"dagi "Vremya" axborot ko'rsatuvi, 2020 yil 12 maydagi efir) ta'limda innovatsiya bo'ldi.

O'zbekistondagi OTMlarda tashkil etilayotgan modulli ta'lim tizimi ham modulli o'qitish

tamoyillariga asoslangan xolda, yoshlarni karantin sharoitida ham ilm olishi, mamlakatimizdagi pandemik vaziyatdan oqilona foydalanishga zamin yaratib bermoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
2. Xodjaev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: Sano-Standart, 2017.
3. Бакирова Г.Х. Психология развития и мотивации персонала: Учеб. пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 439 с.
4. Гулбоев А.Т. Педагогик ташхис воситасида ўқитувчилар малакасини узлуксиз ошириш. – Т.: «Fan va texnologiya», 2009. – 112 б.

BOSHLAHG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI O‘STIRISHDA MUAMMOLI TA’LIMNING ROLI

Matqosimova Omatoy Nabijonovna
Matyoqubova Mashhura Maxammadjonovna
Andijon viloyat Qo‘rg‘ontepa tuman
28-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: *ushbu maqolamiz orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ona tili darslarida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va ularni yechishda o‘quvchilarning faolligini ta’minlash usullari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *muammoli ta’lim, boshlang‘ich sinf, ijodiy faoliyat, muammoli vaziyat.*

Ta’limning poydevori hisoblangan boshlang‘ich tizim o‘quvchini yoshligidanoq har tomonlama etuk va barkamol qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Bu mas’uliyatni to‘g‘ri his etgan har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darsga puxta tayyorlangan holda ko‘rsatmali qurollardan foydalanib dars o‘tsa, bolalarga bilim berish ancha osonlashadi, bir soatlik saboq mazmundorligi ancha oshadi. Ayniqsa, bu borada ona tili darslaridagi o‘quv materiallar o‘quvchilar oldiga ijodiy izlanish, tashabbuskorlik xislatlarini qo‘yadi. Darslikdagi o‘quv topshiriqlarni bajartirishda turli usullar va zehnlarini o‘stiruvchi vositalardan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bir soatlik darsda ko‘pi bilan 15-20 daqiqagacha diqqatlarini to‘play oladilar, shundan so‘ng beixtiyor ularning xayollari bo‘linadi. Shuni to‘g‘ri his etgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darsni bir xil andozada o‘tmay, balki rang-barang usullar va uslublar asosida olib borsagina ko‘ngildagidek natijaga erishadi.

O‘quvchilarning “Ona tili” darsligidagi nazariy va amaliy xarakterdagi o‘quv materiallarini egallashda, qolaversa, egallangan bilim va ko‘nikmalarning qay darajada ekanligini aniqlab olishda mustaqil ishlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini o‘stirishga va fikrlash qobiliyatini, bilish ehtiyojini vujudga keltirishga qaratilgan. Chunki, izlanuvchanlikka asoslangan faoliyat muammo yaratish, muammoli vaziyatni vujudga keltirish bilan boshlanadi. Yaratilgan qiyinchiliklarni yengish uchun o‘quvchilarda mavjud bilimlar yetishmay qolganda, u noma’lum bilimlarni egallash uchun izlanishga, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga majbur bo‘ladi. Izlanish esa o‘quvchida faollikni va mustaqilishlashga moyillikni vujudga keltiradi.

Ko‘ramizki, muammoli ta’lim muammoli vaziyat yaratish va undan elementar tarzda foydalanish orqali amalga oshiriladigan ta’lim usuli sanaladiki, biz quyida o‘quv topshiriqlarini bajarishda va mustaqil ishlarni uyushtirishda uning roli qay darajada ekanligi haqida so‘z yuritamiz.

Masalan, IV sinfda o‘qituvchi “Gapning uyushiq bo‘laklari” mavzusini o‘tar ekan, uyushiq bo‘laklar-ning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘quvchilarning puxta o‘zlashtirib olishlarini asosiy vazifa qilib qo‘yadi.

O‘qituvchi ana shu vazifani bajarish uchun muammoli vaziyat yaratadi. Jumladan, berilgan yoki tavsiya etilgan matnlardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni sanash ohangi bilan o‘qib, uyushiq bo‘laklarni aniqlash, ularga so‘roq berish yoki simvolik tasvirli tarqatmalar (geografik yoki tarixiy kartalar bilan berilgan grammatik topshiriqni tarqatmalar) tarqatib, shular yordamida uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan gaplar tuzishni talab qilish, o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan gaplarda nuqtalar o‘rniga uyushiq bo‘laklarni qo‘yish (masalan, bog‘da olma, o‘rik, anor, nok kabi mevalar pishib yotibdi) kabi mustaqil ishlarning har bir ko‘rinishi bir muammoli vaziyatdir. Chunki, ana shu kichik muammolarni hal qilish natijasida o‘quvchilar dars oldiga qo‘yilgan asosiy masalani bilib oladilar, qolaversa, o‘tilgan mavzuni yanada mustahkamlaydilar.

Dars jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyat chog‘ida ona tilining qonun-qoidalari, ularning o‘zaro bog‘lanishi, o‘xshash va farqli tomonlari aniqlanadi. Muammoli vaziyatning yaratilishi o‘quv materialini tushunib o‘zlashtirishga istak qo‘zg‘otadi, fikrlashda faollikni vujudga keltiradi. Chunki bunday vaziyatda faqat o‘qituvchi emas, balki o‘quvchilar ham bir-birlariga muammoli ko‘rinishdagi savollar beradilar. Masalan, “Kelishik qo‘shimchalarning turlanishi” mavzusi o‘tilayotganda darslikdagi mashqda so‘roqlar o‘rniga mos otlarni qo‘yib, so‘z

birikmalarini ko‘chirish talab qilingan topshitiqlar bajarilgach, o‘qituvchi quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi.

1. Ot bilan ot bog‘langanda qaysi kelishik qo‘shimchasi qo‘llaniladi?

2. Ot fe’l bilan bog‘langanda qaysi kelishik qo‘shimchasi qo‘llaniladi? kabi dars jarayonida o‘rtaga tashlangan savol orqali o‘quvchilar oldida kuzatish va bilishdan iborat muayyan qiyinchilikni tug‘dirish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish zaruratini vujudga keltirish kerak. Savolni o‘rtaga tashlashda o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini doimo hisobga olish zarur. Ayni vaqtda o‘quvchilarda o‘zlari qaytarayotgan javoblardan ham savollar tug‘iladi. Masalan, ot bilan ot qaratqich kelishigidan boshqa kelishik qo‘shimchasi bilan ham bog‘lanishi mumkinmi? Tushum kelishigining qo‘shimchasi faqat ot bilan fe’l bog‘langanda qo‘llaniladimi? Bu kabi savollarga javob topish uchun o‘quvchilar diqqatini mashqdan keyin berilgan qoidaga jalb etiladi. Shubhasiz, darslikda ajratib ko‘rsatilgan qoidalarni o‘qituvchi rahbarligida mustaqilo‘qish natijasida o‘quvchi o‘zida tug‘ilgan savollarga javob topa oladi. Muammoli ta’lim izlanuvchanlik xarakterida bo‘lganligi sababli ona tilining qonun-qoidalarini faqat xotirada saqlab qolish bilan chegaralanmay, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. K. Qosimova. «Ona tili o‘qitish metodikasi», T., 1985 y.
2. T. Ashrapova. «Ona tili o‘qitish metodikasi» T., 1986 y

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUCHILARIGA ONA TILI VA ADABIYOT FANNINI O‘QITISHDA “DEBATLAR” TEXNOLOGIYASI INTERFAOL USULIDAN FOYDALANISH.

Matyaqubova Maloxat Yuldoshevna
Xiva tumanidagi 6-son maktab
Nurmetova Roxat Nurjanovna
Xiva tumanidagi 32-son maktabning
boshlangich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Yoshlarga ta’lim–tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, iste’dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo‘llashi, o‘quvchilarni o‘zaro faolikka olib kelishiga bog‘liqdir.

Kalit so‘z: Pedagog, ta’lim–tarbiya, iste’dod, debat, madaniyat, g‘oya.

Har bir pedagog shuni doimo hisobga olishi va esda tutishi lozimki, dars o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Dars jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga e’tibor qaratiladi, birinchi navbatda bu amalga oshiriladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislarining fikricha “Pedagogik texnologiya” bu o‘quvchilarni o‘qishi, o‘rganish va ularni har tomonlama rivojlantirish qonun qoidalarini o‘z ichiga olgan pedagogik tadbirlar tizimida iboratdir deyiladi.

Ta’limni texnologiyalashtirish ta’lim jarayonini samaradorligini oshirish va ta’lim oluvchilarni berilgan sharoitda hamda ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o‘quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida uni to‘liq boshqarish g‘oyasini tashkil etishdir.

Ona tili va adabiyot fanidan mavzu tanlandi. Masalan: Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebining baxtsizligiga uning o‘zi ham aybdormi?

Savoli baxs mavzusi sifatida tanlandi.

Rahbar tinglovchilarni mavzuga munosabatiga ko‘ra tinglovchilarni 2 guruhga ajratadi va ularni o‘quv xonasining 2 tomoniga qator qo‘yilgan stollarga o‘tqizadi va har bir guruh qatnashchilari qaysi nuqtai nazarni himoya qilishlarini belgilaydi. (Masalan. 1-guruh savolga “Ha” deb javob beruvchilar, 2- guruh esa “Yo‘q”). Shundan so‘ng, rahbar tinglovchilarni juftlaydi, har bir juftda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo‘lishi kerak. Juftlar tartib raqami yoki alifbo harflari bilan belgilanadi. O‘qituvchi 1-guruh a’zolariga (keltirilgan misolda ijobiy holatni joriy qilish tarafdorlari) har biri juft sanasi (ramzi) bilan belgilangan katak qog‘oz varaqlarni tarqatadi. Tinglovchilar o‘quv xonasining 2 tomonida o‘tirib, juftma-juft yozma muloqotni boshlaydilar. 1-guruh a’zolariga o‘zlari ma’qullayotgan nuqtai nazar foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular bu dalilni qog‘oz varag‘iga puxta tahrir qilingan paragraf shaklida yozadilar. Bu vaqtda 2-guruh a’zolari o‘zlari bahs jarayonida bayon etishlari mumkin bo‘lgan nuqtai nazarlarini isbotlashlari mumkin. Yozilgan varaqlar qarshi guruhdagi sheriklarga beriladi. Ularga juft bo‘yicha sheriklarining dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun hamda o‘z qarshi dalillarini bayon qilishlari uchun 8 daqiqa vaqt ajratiladi. Dalillar almashishining bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi, bunda har bir tinglovchi sherigining dalil-isbotiga javob qaytarishi va o‘zining aks dalilini keltirishi shart. Tinglovchilarning bilimlarini aniqlash uchun 3-4 raund etarlidir. Oxirgi raundda tinglovchilarga yakuniy paragrafni yozish imkoni beriladi. Shundan so‘ng, yozma ish yig‘ib olinadi. Bahslarga yakun chiqarishning yaxshi shakli ikkala tomonga qaratilgan savoldir. “Qarshi tomonning eng yaxshi dalili—isbotlari qaysilar bo‘ldi?” O‘qituvchi ishni yakkama- yakka yoki jufti bo‘yicha baholashi mumkin.

Ona tili va adabiyot darslarida “Debatlar” tashkil qilish uchun mavzular tanlanadi.

Bu texnalogiya o‘quvchilarni olgan bilimlarini mustaxkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R. Ishmuhammedov “O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.
2. A. G‘ulomov, M. Qodirov “Ona tili o‘qitish metodikasi”, Toshkent., 2001 yil.
3. B. To‘xliev “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, Toshkent., 2010 yil.
4. N. Yo‘ldasheva “Zamonaviy ta’limda interfaol dars”, Toshkent., 2008 yil.

BIOLOGIYANI O‘QITISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI

Maxanbetova Baxitjan Makenovna
Nukus shahar 22- sonli ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchisi
+998 905900360
Medicm808@gmail.com

Annotatsiya: maqolada biologiyani o‘qitishda loyihalash texnologiyasining qo‘llanilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarda ijodiy faoliyat tajribalarini tarkib toptirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: biologiya, loyihalash texnologiyasi, tadqiqot, botanika.

O‘quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o‘qituvchi ularga tegishli ko‘rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o‘qitishdan ko‘zlangan natijaga erishish yo‘llarini ko‘rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o‘quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim. Loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo‘lgam muammoni hal etish jarayonida ko‘zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo‘lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo‘lsa, amalyotga qo‘llash masalasi bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma’lum bit muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish sanaladi. Biologiyani o‘qitishda o‘qituvchi loyihalash texnologiyasidan o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o‘quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham ijodiy muammolarni hal etishda foydalanish zarur.

Botanika o‘quv kursida o‘simlik organlarini o‘rganib bo‘lgandan so‘ng, “ O‘simlik- yaxlit organizm” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarga quyidagi loyihalar tavsiya etiladi:

- Loyiha mavzusi: o‘simlik yaxlit organizm;
- Loyihaning maqsadi: o‘simlik organlarining tuzilishi va funksiyasinu hisobga olgan holda uning yaxlit organizm ekanliginu isbotlash;
- Loyihaning mazmuni: o‘simliklarning vegetativ va generativ organlarining tuzilishi va funksiyasini qayd etgan holda o‘simlik yaxlit organizm ekanligini isbotlang. O‘simlik organlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar aks etgan jadval tuzish va shu asosda fikrlarni qayd etish;

Biologiya o‘qituvchisi ushbu loyihalar turidan darslarda foydalanishi mumkin. Misol uhun, Odam va uning salomatligi o‘quv kursida “ Odamning sutkalik ovqat ratsionida oqsil, yog‘, uglevodlar miqdori va ulardan ajralib chiqadigan energiya miqdorini aniqlash” laboratoriya mashg‘ulotini kichik guruhlardan tashkil etib, topshiriqlar orqali olib borish maqsadga muvofiq. Loyihalar predmeti va mazmuniga ko‘ra, bir fan sohasini qamrab olgan loyihalar, fanlararo izlanishini talab etadigan loyihalarga ajratiladi. Bu loyihalarni shalllantirishda o‘qituvchi biologiya sohasidagi muammoli, qiyin mavzularni olishi mumkin. Mazkur loyihalar biologiyani o‘qitishda tabiiy fanlar, adabiyot, ma’naviyat, madaniyat, san’at va gumanitar fanlar bilan fanlararo bog‘lanishnu amalga oshirishga imkon beradi. Loyihalar o‘quvchilarda aqliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, loyihalar texnologiyasu o‘quvchilarda ijodiy faoliyatning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova A. T. G‘ofurov A. T. Biologiya ta’limi texnologiyalari.- T.: O‘qituvchi. 2002.

MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALALAR YECHISHNING AHAMIYATI

Mingboyev Azizbek Solijonovich
Norin Tuman 36 Maktab Matematika fani o‘qituvchisi
+998934980088
azizjanimronbek@gmail.com
Shakirov Baxtiyor A’zamjonovich
Norin Tuman 36 Maktab Matematika fani o‘qituvchisi
+998972121632
shakirovbaxtiyor47@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada matematik masalalar yechishning matematikani o‘qitishdagi vazifalari, o‘qitish jarayonidagi ahamiyati va o‘rni haqida bo‘lib, matematik masalalar turlari va ularni yechish bosqichlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, masalalar, yechis usullari, o‘quv dasturi, ta’lim.

Ta’lim jarayonida matematika darslarida o‘quvchilarga fanni o‘qitish davomida turli xil matematik masalalarni yechish orqali fanga kirib boriladi. Matematika aniq fanlar tarkibiga kirar ekan, ushbu fanni o‘quvchilarga o‘qitish bir muncha murakkab va o‘ta mushkul ish hisoblanadi. Chunki, har bir o‘quvchi xar hil, ularning fikri va dunyoqarashi boshqachadir. Shu boisdan xam matematikani o‘qitishda uslubchilar matematik masalalarning turlicha vazifalari borligini aniqlashganlar va ular quyidagilardir: amaliy; umumta’lim; rivojlantiruvchi; tarbiyaviy; nazorat etish.

- Matematikani o‘qitishda amaliy vazifalar yordamida o‘quvchilar ko‘rsatilgan matematik ko‘nikma va malakalar bilan qurollanib, matematikani tadbiq etish va xayotda qo‘llashga doir zaruriy bilimlarga ega bo‘ladilar;
- Umumta’lim vazifasi esa, o‘quv dasturida ko‘rsatilgan matematik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bundan tashqari, yangi bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda matematik ma’lumotlarni oshirish, matematik masalalar yechish ko‘nikmasi shakllana borishi bilan ajralib turadi;
- Matematikani o‘qitishning rivojlantiruvchi vazifasiga o‘quvchilarda masalalar yechish orqali ularning matematik tafakkurini vaa qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Shu boisdan ham, o‘qituvchi har bir masaladan ushbu maqsadlarga e’tibor bergan holda dars o‘tishi ko‘zda tutiladi;
- Tarbiyaviy maqsadlariga matematik masalalarning o‘quvchilarda yaxshi insoniy fazilarlarni tarkib toptirish uchun qo‘llanishdan iborat.
- Nazorat etish vazifasiga esa, masala va mashqlardan o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash saviyasini tekshirish vazifasida ishlatilishi yodda tutiladi.

Matematikani o‘qitishda matematik masalalarning ahamiyati bu uning bajaradigan vazifalaridan ko‘rinib turadiki, bilim, ko‘nikma berish bilan chegaralanmasdan, balki o‘quvchida matematik tafakkurni rivojlantirish, ma’naviy tarbiyalash, shu orqali o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayorlab borish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga, mantiqiy bilimlarini oshirishdan iborat bo‘ladi. Shuning uchun ham, matematik masalalarni yechishda o‘quvchilar mustaqilligi va faolligini ta’minlashga e’tiborni qaratish, matematik masalalarning turli dars bosqichlarida qo‘llanilishini hisobga olish, matematik masalalar turlaridan foydalanish, matematik masalalar yechish usullariga e’tibir berish, yutuq va kamchiliklarini doimiy ravishda qayd etib borish maqsadga muvofiq, matematik masalalar yechish bosqichlari nazardan qolmasligiga ham e’tibor qaratish bu o‘ziga xos talab darajasiga yetadi. Yuqoridagi talablarga nazar solganimizda, matematikani o‘qitishda har bir mashq, misol va masala o‘z o‘rnida va uning vazifalariga mos ravishda qo‘llanilishi ahamiyatlidir.

Matematik masalalar, fanni chuqur va puxta o‘rganish uchun xizmat qiladi, ya’ni matematik madaniyatni qaror toptirish, matematika fanini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish, mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirib, o‘quv masalalarini qo‘llash orqali amalga oshirilib, matematik rivojlanish uchun asos vazifalarini o‘tab boradi. Matematik tafakkurni shakllantirish uchun matematik tushunchalarni qo‘llashga doir, matematik belgilarni qo‘llashga doir, isbotlashga doir, matematik ko‘nikma va bilimlarni shakllantirishga doir, yangi matematik bilimlarni o‘zlashtirishga doir, muammoli vaziyatlarni yaratishga doir mashqlar qo‘llash muhim

ahamiyatga ega ekanligi ma’lum. D. Poya “ Masalalarni qanday yechi kerak” nomli asarida har qanday masalani yechishning to‘rtta asosiy bosqichini ko‘rsatib o‘tadi:

- Masalaning qo‘yilishini tushuntirish;
- Yechish rejasini tuzish;
- Rejani amalga oshirish;
- Orqaga nazar solish.

Xech qanday ko‘rsatma va tavsiyalar o‘qituvchiga masalalar yechishga yordam bermaydi, agar u o‘zi mustaqil masalani yecha olmasa. O‘qituvchining mohirligi, masalalar yechishga muhabbatigina o‘quvchilarni masalalar yechishga qiziqishini ta’minlashi mumkin. Misol uchun, teorema va uni isbotlashga doir masalalar xususiyatlari teoremada bayon qilishga zarur matematik ma’lumotlar va bilimlarni ochib beruvchi, isbotda foydalaniladigan matematik ma’lumotlarni takrorlash, teoremada bayon etilgan natijaga olib keluvchi isbotlashga va xisoblashga doir masalalar yechilishi, teorema bayonini o‘zlashtirishga doir, teorema isboti ayrim bosqichlarini o‘zlashtirishga doir va isbotning boshqa usullarini izlashga doir va teoremada bayon qilingan ma’lumotlarni, yangi matematik bilimlarni qo‘llay olishga doir mashq va masalalardan foydalanishdan iboratdirXulosa qilib aytganimizda, matematik masalalarni yechis o‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, matematik mazmunni va ijodiy fikrlash uchun asosiy vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusova D. Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. Darslik- T.: Fan va texnologiya, 2011
2. W.W.W.Ziyonet.uz

O‘QISH VA YOZISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK TAVSIFI

Mirahmedova Marg‘uba Azamjonovna
Namangan viloyati Norin tumani
27-son maktab boshlang‘ich o‘qituvchisi
Tel: +998942727400

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish va yozish jarayonining psixofiziologik tavsiflari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: idrok, xotira, tafakkur, fonematik eshitish, analiz-sintez.

O‘qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o‘quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi. Kichik yoshdagi o‘quvchini o‘qishga o‘rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o‘qish paytida bitta harfni ko‘radi uni bilish uchun rasmlarni ko‘z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o‘qituvchi aytishga yo‘l qo‘ymaydi, undan bo‘g‘inni aytishni talab qiladi. O‘quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esidan chiqib qoladi yoki ularni qo‘shib bo‘g‘in, bo‘g‘indan so‘z hosil qilguncha, o‘qish jarayoni sustlashadi.

2. Ko‘pincha bola o‘qiyotgan qatorni yo‘qotib qo‘yadi, harfni, bo‘g‘inni, so‘zni qayta o‘qishga to‘g‘ri keladi. O‘quvchining diqqati kengaygan sari bo‘g‘in va so‘zni butunligicha idrok eta boshlaydi.

3. O‘qishni endi o‘rganayotgan bola o‘qiyotgan matn mazmunini o‘zlashtirmaydi, chunki u so‘zni qanday o‘qishga ko‘p kuch beradi. Darslikdagi rasmlar, o‘qituvchining savollari, ko‘rgazmali qurollar ularning ongli o‘qishlarini ta’minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon so‘zni birinchi bo‘g‘iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xatto o‘qishga olib keladi. Bunday xatoning oldini olish uchun so‘z bo‘g‘inlab o‘qitiladi, so‘zni bo‘g‘in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O‘qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o‘quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o‘stirishga katta e’tibor berish kerak. Savod o‘rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o‘stirishga, ya’ni tovushni aniq talaffuz qilishga, boshqa tovushlardan farqlashga, o‘rgatish, bo‘g‘in yoki so‘zdan o‘sha tovushni ajrata olish ko‘nikmasini o‘stirish muhim sanaladi.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savod o‘rgatish davrida eshitish idrokini o‘stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar o‘tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o‘quvchilar ruchkani to‘g‘ri ushlashni, daftarni to‘g‘ri qo‘yishni, harfni yozishda yozuv chiziqlari, ular bo‘ylab qo‘lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga qanday ulash, qatorga sig‘ish-sig‘masligini mo‘ljallashi lozim. Bu jarayon o‘quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, ularning bayroq va yelka muskullari charchaydi. Shuning uchun ham darsda ikki, uch marta jismoniy mashqlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jaraonida o‘quvchi ruchkani qog‘oz ustida sekin, ishonchsizlik bilan qimirlatadi, bir harfni yozib to‘xtaydi va namuna bilan solishtiradi. Ba’zan chiziqdan chiqib ketadi, noto‘g‘rilarini bo‘yab to‘g‘rilaydi. Bunda u o‘qituvchiga har daqiqada murojaat qiladi, uning qo‘li va boshi yozishda birgalikda harakat qiladi. Yozuv jarayonida o‘quvchilarning ongli harakat qilishlarini ham talab etadi. Shu sababli o‘qituvchi yozuv jarayoniga sabr-qanoat bilan katta e’tibor qaratishi juda muhim. Yozuvning chiroyli va imloviy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi savodxonlikning yuksak belgisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o‘qish darslari.
2. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mirxonova Feruza Fayziyevna.
Buxoro viloyati Romitan tumanidagi
15-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkil etish va uning o‘quvchilarni nutqi, dunyoqarashini rivojlantirish hamda axloqiy sifatlarni shakllantirishdagi o‘rni xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: odob-axloq, tarbiya, yangi avlod, ta’lim, tarbiya, pedagogik mahorat

Mustaqil O‘zbekiston ta’lim muassasalarining odob-axloq tarbiya tizimi – bu o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy-madaniy fe’l-atvori, axloq qoidalariga va milliy mustaqillikni mustahkamlashning tarbiyaviy talablariga asoslanuvchi, xalq hayotining barcha jabhalari bilan chambarchas bog‘liq, hech kimdan kam bo‘lmagan barkamol avlodni shakllantirishning pedagogik jarayonidir.

Mustaqillik – bu hech kimga qaram bo‘lmasdan, o‘z milliy manfaatlarimizni, uzoq va davomli maqsadlarimizni ko‘zlab iqtisodiyotimizni barqaror sur‘atlar bilan o‘sishini ta‘minlash, aholimizning farovonligini, xalqaro maydonda Vatanimizning obro‘-etiborini munosib darajaga ko‘tarishdir. Shu bilan birga ertangi kunimizni yanada yuksaltirishga mustahkam zamin yaratishga qurbi-qudrati yetadigan, hech kimdan kam bo‘lmasdan hayotga kirib kelayotgan yetuk va barkamol, mustaqil fikrlaydigan yangi avlodni kamol toptirish demakdir.

Ona tilini o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda o‘z ona tilida fikrni to‘g‘ri, aniq, ravshan va go‘zal ifodalay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. So‘zlarni to‘g‘ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda tuza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so‘z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olishni o‘rgatish, o‘z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg‘usini shakllantirish ona tili mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi.

Biz yangi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitda faqat bilimli kishilarni emas, balki ijodkor, tadbirkor kishilarni ham yetkazib berishimiz lozim. «Bilimli kishi» bilan «tadbirkor kishi» orasida farqi bor, albatta. Bilimli shaxs bilimga ega bo‘lsa ham, lekin bilimini har vaqt ham amaliy faoliyatda qo‘llay olmaydi. Tadbirkor shaxs esa faqat bilimli bo‘lib qolmasdan, balki egallagan bilimini sharoitga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ham egadir. Shuning uchun ―bilimlining bilimi omborda yotgan sara urug‘ bo‘lsa, tadbirkorning bilimi yerga ekilgan dondir.

O‘quvchilarga odob-axloq sifatlarni singdirish maktabda o‘qish mashg‘ulotlarining bosh vazifasidir. Shuning uchun birinchi soatdan oxirgi mashg‘ulotgacha o‘qish darslari o‘quvchilarda odob-axloq sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

O‘quvchilarda odob-axloq sifatlarni rivojlantirishda ona haqidagi asarlarning ahamiyati va o ‘ rni ham juda katta bo‘lib, o‘quvchilar ona haqidagi asarlar orqali ravon, tekis, chiroyli jumlalardan foydalangan holda so‘zlashga o‘rganish bilan birgalikda, ona va onaning o‘gitlari haqida ma‘lumotlarni ozlashtirib boradilar.

Boshlang‘ich sinflardagi dars mashg‘ulotlarida, xususan o‘qish darslarida o‘quvchilarga axloqiy sifatlarni shakllantirishda she‘riy asarlarning yuqorida ta‘kidlaganimezdek ahamiyati katta.

O‘zbek xalqi qadim-qadimdan odob-axloq normalariga qattiq rioya etgan xalqdir. Salom alikdan tortib, toki kattalarni hurmatda, kichiklarni izzatda ko‘rish odobiga muomalasining barcha qirralari o‘zbek millatida mavjud va bularni albatta singdirib borish o‘qituvchilarning oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Zero, O‘z ona tilini bilmagan odam o‘z shajarisini, o‘zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo‘q odam. Kishi tilini bilmaydigan uni dilini ham bilmaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1998.
2. Karimov I.A.Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» Qonuni. T.: 1997 4. O‘zbekiston Respublikasining Milliy dasturi.T.: 1998.
4. Tolipov O‘.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: “Fan”. 2005.

MASOFAVIY TA'LIM – BILIM OLISHNING ENG OSON VA QULAY USULIDIR

Mirzakarimova Mohidil
Buloqboshi tumani XTB ga qarashli
22-umumiy o'rta ta'lim maktabining
fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: siz ushbu maqolada masofaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari, masofadan o'qitish bugungi kunning talabi ekanligi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'limning shakllari, online ta'lim, masofadan o'qitish

Mustaqil vatanimiz tomonidan yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol inson sifatida tarbiyalash va ta'lim olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, katta umid va ishonch bildirilmoqda. Shunday ekan, o'qituvchi hozirgi sinovli kunlarda ham bor e'tibori va kuchi bilan o'quvchilarning har tomonlama yetuk, zukko va bilimdon bo'lishlari uchun harakat qilmog'i lozim.

Ta'limning har xil shakllari, har birining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud, ya'ni o'rganishning yagona to'g'ri usuli yo'q. Ammo deyarli hamma narsa axborot texnologiyasi yo'lidan ketayotgan dunyoda masofaviy ta'lim birinchi marta eng yaxshi usul bo'lishi mumkin.

Shuni aytish mumkinki, masofaviy ta'lim, bizning bugungi yosh avlodlarimiz uchun eng yaxshi yagona va to'g'ri yo'l bo'lishi mumkin.Masofaviy ta'limda ta'lim oluvchi va o'qituvchi fazoviy bir –biridan ajralgan holda doimiy muloqatda bo'ladilar. Masofaviy ta'lim - masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim. Masofadan turib o'qish majburan tiqishtirilgan tizim emas, balki insonning ongli, aniq maqsadga yo'naltirilgan tanlovidir.

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning maqsad va vazifalari bosqichma – bosqich ro'yobga chiqarilishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning roli muhim ahamiyat kasb etishi hammaga ayondir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning to'liq amalga oshishidan ko'zlangan maqsadlarning naqadar ezgu ekanini inobatga olsak, bugungi kunga kelib o'qitish tizimlarining har bir jabhasida ilg'or texnologiyalardan foydalanish zarurati alohida dolzarblik kasb etayotganini sezish qiyin emas. Hammamiz guvohimizki, kundalik hayotimiz va istiqbolimiz ravnaqi uchun muhim ehtiyoj sanalmish tom ma'nodagi ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining jalb etilishi tobora oldingi o'ringa chiqib bormoqda. Buni ko'plab maxsus ta'lim muassasalari, akademik litseylar kasb –hunar kollejlari va yetakchi oily o'quv yurtlari hamda akademiyalar misolida ko'rish mumkin.

Masofaviy ta'limga axborot texnologiyalari joriy qilishning qator afzalliklari:

- yashash joyidan turib, o'qish imkoniyati - chekka qishloqlarda yashovchilarda katta shaharlarga borib, xohlagan maktablarida o'qish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. masofaviy ta'lim texnologiyalari ularga o'z shahridan ketmasdan turib, o'qish imkoniyatini yaratib beradi.
- o'qish va ishni barobar olib borish - o'qituvchilar ishdan ajralmagan holda ta'lim berish imkoniga ega bo'ladilar.
- sifatli texnologiyalar - o'quvchi sifatli o'quv materiallari yordamida o'qitilishi, o'qituvchi bilan muloqat qilishi va o'z uchun individual o'quv rejasini tuzishi mumkin.

- baholashning xolisligi - masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali bilim sifatining doimiy nazorati, natijalarning baholanishini ko'zda tutadi.

Bundan tashqari, masofaviy ta'limda o'quvchilar tinglash orqali juda ham yaxshi o'rganadilar. Joriy mavzu uchun tayyorlangan video ma'ruza va uni ixtiyoriy vaqtda ko'rish imkoniyati, ko'zlangan maqsadga erishishda eng to'g'ri yo'l bo'la oladi, shubhasiz. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning juda ko'p ijobiy tomonlari mavjud.

Masofaviy ta'lim samarali ekanligining asosiy sababi, o'quvchining jismoniy qobiliyatlarini boshqa o'quvchilarga mavhumligidir. Ko'pincha o'quvchilar boshqa sinfdoshlaridan hijolat chekadi va qo'rqqanlari uchun savol berishdan tashvishda bo'ladilar. Bunda masofaviy ta'lim juda qo'l keladi va har bir o'quvchida savol so'rash imkoniyati bo'ladi ya'ni ular hech qanday to'siqlarga duch kelmaydi. Bu esa o'quvchilar erkin va ishonch ega bo'lgan holda dars olib borishi va o'tilayotgan mavzuni shoshilmay o'ylab olishlari mumkin. Eng asosiysi onlayn

ta’limda o‘quvchilar dam olish kunlarida ham o‘qishlari mumkin.

O‘z navbatida, masofaviy ta’lim ham o‘quvchiga bir qancha vazifalar yuklaydi. Lekin, buning asosiy yechimi ularning vaqtni to‘g‘ri boshqarishida bo‘ladi. Ya’ni, vaqtni boshqarish va maktab topshiriqlari ustida ishlash, har bir vazifani bajarish, sustkashlik qilmaslik kabilarning asosiy yechimi o‘quvchi kundalik hayotidagi vaqtning to‘g‘ri muvozanatidadir.

Pirovardida, masofaviy ta’limning jamiyatga bo‘lgan ijobiy ta’siri salbiy ta’sirlardan ustun turadi. Shunday ekan, barchamiz bir jamoa bo‘lib, faqat yoshlarni har tomonlama yetuk inson bo‘lishi uchun sitqi dildan xizmat qilaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim – tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T: O‘zPFITI 2015 – 160 s.

2. J.G‘.Yo‘ldoshev. “O‘zbekiston respublikasi talimi- taraqqiyot yo‘lida/ Toshkent “O‘qituvchi” 1994 y.

INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Mirzakarimova Dilfuza Mahamadjanovna
Namangan viloyati Chortoq tumani
24-son umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998941552260

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarga dars o'tish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaralari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv ta'lim, aql charxi, ro'lli o'yin, charxpalak, aqliy hujum.

Yurtboshimizning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz,"- deb ta'kidlashlari ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan barcha pedagog-o'qituvchilar oldiga ulkan mas'uliyat va vazifalar yuklaydi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va farmonlar mamalakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Shuni inobatga olgan holda endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun o'qituvchi bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. O'quv jarayonida o'quvchilarga bola sifatida emas, shaxs sifatida qaralishi, mavzuga oid pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo'llanilishi o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir topshiriqqa ijodiy yondashish, mas'uliyatni his qilish, shuningdek, o'qituvchiga nisbatan hurmatini oshiradi. Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga qiziqtirish, fikrlashni o'rgatishga xizmat qiluvchi jarayondir.

"Interaktiv ta'lim" - bu doimiy muloqatga asoslangan metodlar tizimi, birgalikda o'qish va faol ishtirok etishdir. Bu - o'zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir. Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. O'qitish metodi - ko'zlangan maqsad, yoki rivojlantirilgan aniq bir maqsadga erishish yo'lidagi amallar ketma –ketligidir.

Biz darslarda o'quvchilar bilan birgalikda, juftlikda, guruhlarda ishlashda juda ko'plab interaktiv metod va mashqlardan "Guruhlarda ishlash", "Taqdimot" yangi mavzuni bayon qilishda "Kichik ma'ruza", "Rolli o'yin", "Aqliy hujum", "Charxpalak" metodlaridan va "Hamma, hammaga o'rgatadi", "Vaziyatlar", "Aql charxi" mashqlaridan foydalanishimiz mumkin. Bunda o'quvchilar ta'lim olish jaroyonida guruhlarda, hamjihatlikda ishlaydilar, mustaqil bajaradilar va eslab qoladilar. Bunda birinchi navbatda o'quvchilarda - "do'stona kelishuv" va hayotiy ko'nikmalar shakllantiriladi.

"Do'stona kelishuv" - intizom, faollik, o'zaro hurmat, ijodkorlik, ijodiy jarima, reglament (aniq, qisqa, lo'nda fikrni bayon qilish).

"Hayotiy ko'nikmalar" - muloqat qila olish, ijodiy fikrlash, stress holatdan chiqib ketish, histuyg'ularni jilovlay olish, muammolarni hal qila olish, o'z-ozini tahlil qila olish, qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash.

O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda ham "kichik guruhlar ishi" metodidan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarni istalgan metodingiz bilan guruhlarga bo'lib olishingiz mumkin. Bu metod o'quvchilarni juftlikda ishlashga, bir-birining fikrini tinglashga, farqlay olishiga, ijodiy fikrlashga, barcha o'quvchilarning faol qatnashishlariga yordam beradi.

"Hamma, hammaga o'rgatadi" mashqidan foydalanish ham boshlang'ich va yuqori sinflarda qo'l keladi. Buni barcha fanlarga moslab o'tkazish mumkin.

"Aql charxi" usulida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari, nutqi rivojlanadi, tez va to'gri javob berish malakasi shakllanadi. Bu mashqda ikki yoki uchta o'quvchidan iborat guruhlar ishtirok etadi. Birinchi o'quvchi mavzuga oid terminlardan birini aytadi, ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan terminni qaytaradi va o'zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o'quvchi

avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo‘shib aytadi. Navbat birinchi o‘quvchiga keladi. Qaysi o‘quvchi adashib ketsa yoki, aytilgan terminni qaytarib aytsa, o‘yindan chiqadi. Bu o‘yinni tashkil etishda - maqsad aniq bo‘lishi va o‘quvchilarning qaysi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga e’tibor qaratilishi lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonida dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilar bilimini mustahkamlash, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llash bilan birgalikda turli ko‘rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa qo‘lda, ijodkorlik bilan tayyorlangan ko‘rgazmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan,oddiy daraxt shoxining rasmi chizilgan plakat bo‘lib, uning shoxlariga gullarni, qushlarni, mevalarni joylashtirish mumkin. Bu qo‘lda tayyorlangan ko‘rgazmadan barcha fanlarda o‘z o‘rnida foydalanish mumkin. Bu ko‘rgazma orqali o‘quvchilar fanlarning bir-biriga o‘zaro bog‘liqligini, vatanning muqaddasligini, tabiatni sevishni, jonivorlarni asrashni o‘rganadilar. Darslarning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim darajalarini boyitishda darslarda turli interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. O‘quvchilarda bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O‘quvchilar darsga puxta hozirlik ko‘rishga intiladilar. Bunday usullar darsning qiziqarliligini va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarni ta’lim jarayonida faol bo‘lishga undaydi. Bunday metodlarning barchasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.A. Abdullayev, R.K.Choriyev, “Hamkorlik pedagogikasi”.
2. R.J.Ishmuhamedov “Innavatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”.
3. M.Ochilov “Yangi pedagogik texnologiyalar”.
4. www.uzedu.uz sayti

TARBIYACHINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH

Mirzakarimova Gulnora Maripjonovna
Andijon viloyati Marhamat tumani
10- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining
boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi
+998974736353
mirzakarimova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida tarbiyachi tomonidan qo‘llanadigan innovatsion pedagogic texnologiyalar zarurati, mohiyati yoritilgan, qo‘llanish shakli bayon etilgan. Innovatsion pedagogic texnologiya tarbiyachi tomonidan tarbiyalash vositalari yordamida tarbiyalanuvchilarga ta’sir ko‘rsatish va motiv uyg‘otish hamda bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, texnologiya, innovatsiya, tarbiyachi, mashg‘ulot, metod, motiv.

Butun jahon miqyosida ta’lim tizimini, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni ilg‘or texnologiyalar asosida tarbiyalash va ijtimoiylashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda tarbiyachilar va ular malakasini oshirish hamda sifatli ta’limga bo‘lgan ehtiyoj dunyo miqyosida keskin orta boshladi. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ham ko‘rishimiz mumkin. [1] Shunday ekan tarbiyachilarni har tomonlama o‘z kasbining bilimdoniga aylantirish, o‘quv-tarbiya ishlari jarayonining mazmunini hamda shaklini yangilash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga erishish dolzarblik kasb etadi. Demak, bunda tarbiyachiga texnologiya shubhasiz asosiy hamqadam bo‘lishi kerak.

Innovatsion so‘zi inglizcha innaveshin so‘zidan olingan bo‘lib yangiliklar kiritish degan ma’noni anglatadi. Innavatsion pedagogik texnologiyalarning maqsadi ta’lim jarayonida interfaol usullarni qo‘llay bilishlikdir.

Ilg‘or pedagogik texnologiya ta’lim jarayonida bir butunlikdagi yondashish, yuqori natijalarga erishish borasidagi ilmiy-amaliy asoslangan loyihalarni tahlildan o‘tkazib, ularni qo‘llash maqsadida tashviqot ishlarini muntazam olib borilishini ta’minlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiya tarbiyachi tomonidan tarbiyalash vositalari yordamida tarbiyalanuvchilarga ta’sir ko‘rsatish va motiv uyg‘otish hamda bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir.

Bu vazifani bajarish uchun hozirgi zamon maktabgacha ta’lim muassasalaridagitarbiyachilard an o‘z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, innovatsion pedagogikmetodlarning mazmun-mohiyatini to‘liq anglashlari va ulardan o‘z faoliyatlarida mohirona foydalanadigan bo‘lishni taqazo etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida innovatsion faoliyatning samarali yo‘lga qo‘yilganligi innovatsion jarayon subyekti va innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Xulosa shuki, har qanday innovatsion yangilik zaminida biron – bir g‘oya yotadi. Pedagogik texnologiya tarbiyalanuvchilarning mashg‘ulot jarayoniga faol qatnashishi va mashg‘ulotga qiziqishini orttiradi. Demak, biz o‘z faoliyatimizda bir xil yoki bir-biriga o‘xshash usullar bilan chegaralanib qolmay, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishimiz bugungi kun ta’limining talabidir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli “Maktabgacha

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “ ATROFIMIZDAGI OLAM” FANINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Mirzakarimova Munojatxon Maxamadovna
Andijon viloyati Marhamat tumani
10- sonli maktab o‘qituvchisi
+998 901457250
Munojat.maxamadovna@gmail.com

Annotatsiya: maqolada umumta’lim maktablarida o‘tiladigan “ Atrofimizdagi olam” fanining o‘ziga xosligi, uni o‘qitish orqali o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish yo‘llari tahlil etilga.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, dars, pedagogik texnologiya, nutqiy ko‘nikma.

Boshlang‘ich sinflarda “ Atrofimizdagi olam “ fani ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni samarali amalga oshiruvchi fanlar sirasiga kiritiladi. Shuning uchun ham, uning o‘qitilishi o‘ziga xos uslubda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu fan o‘zida o‘quvchilarning so‘z- mantiq tafakkurini rivojlantirish va nutqini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bundan tashqari ushbu darslik o‘z ichiga xayot xavfsizligi asoslarini va yo‘l xarakati qoidalarini o‘rgatish yuzasidan talablarni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlab etish kerakki, o‘quvchilarga atrofdagi narsalar, tabiat va uning hodisalari bilan tanishtiradi, atrofdagi narsalar haqida tasavvur shakllarini boyitadi, xodisalarni o‘z nomi bilan atashga o‘rgatadi, xodisalarning xususiyatlarini, ahamiyati va ularning insonlar hayotiga ta’sirini anglash va farqlashga o‘rgatadi.

Ushbu fan yuzasidam darslar “ Texnologiya”, “ Ona tili “, “ O‘qish” darslari bilan uzviy bog‘liq holda olib boriladi. “ Atrofimizdagi olam” fanining yana bir muhim xususiyati, uning o‘quv dasturi mazmuni boshqa umumta’lim fanlarini egallashga zamin xozirlovchi tavsifga egadir. Ya’ni o‘quvchilar o‘z atrofidagi barcha narsa va xodisalarning nomini, xususiyatini va boshqa jihatlarining mohiyatini o‘rganish orqali boshqa fanlarning asoslarini egallash uchun zarur nutqiy zaxiraga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ish turlari tavsiya etiladi.

- Ko‘rgan va o‘rgangan narsa- predmet, voqea- hodisalarni og‘zaki va yozma tasvirlash;
- Kundalik yuritish. Kuuzatuvchilarini yozib borish;
- Kichik hisobotlar va loyihalar taqdimotini;
- Tajribalar o‘tkazish va ular haqida so‘zlab berish;
- Sayr haqida kichik hikoya tuzish va gapirib berish.

Dasturda berilgan mavzular bo‘yicha dars soatlari namunaviy berilgan bo‘lib, o‘qituvchi sinf o‘quvchilarining imkoniyatlari, sharoitdan kelib chiqib o‘zgartirishi mumkin. O‘qituvchilar ushbu fan bo‘yicha turli didaktik o‘yinlar, mavzu bo‘yicha turli sahna ko‘rnishlari orqali o‘quvchilarni fanga qiziqtirib, tevarak- atrof bilan tanishtirib, ularning nutqini rivojlantiradi. Ular ijodiy fikrlashga, atrof- muhit haqidagi tasavvurlar bilan boyitib, hikoyalar tuzishni o‘rganishadi va ularni og‘zaki tarzda so‘zlab beradi. Darslar o‘quvchilarning so‘zlashuv va u asosida bog‘langan nutqini kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Masalan, o‘qituvchi sayr paytida o‘quvchilar oldiga ko‘rib o‘rganilayotgan narsa- predmet haqidagi tasavvurlarini o‘zaro o‘rtoqlashish, shu yuzasidan dialog tuzish va olib borish, yoki shunga o‘xshash nutqiy muloqotga ehtiyoj tug‘diruvchi talablarni qo‘yadi. Shu o‘rinda, o‘qituvchida kuchli pedagogik mahorati talab etiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, tevarak- olam bilan tanishish o‘quvchilarda olamni anglashda, predmatlarning nomlarini, belgi- xususiyatlarini o‘zlashtirishga ko‘mak beradi. Bu esa, o‘z o‘rnida o‘quvchilarda boshqa fanlarga ham qiziqish uyg‘otadi va ularni chuqurroq egallashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Otaboyev Sh. T, Nabiyev M. N. Inson va biosfera. Toshkent.- O‘qituvchi. 1995.

O‘ZBEK TILINING TOVUSH TIZIMI VA YOZUVI

Mirzamatova Guluzro Ravshanovna
Andijon viloyati Andijon tumani
36-son maktab boshlangich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998972723774

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining tovush tizimi va yozuvi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: harf birikmalari, unli harflar, sintezlab o‘qish, j va j tovushi.

O‘zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi.1993-yil 2-sentabrdagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” gi qonunga muvofiq o‘zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi.

O‘qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o‘qishga o‘rgatishda o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Savod o‘rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So‘z bo‘g‘inga bo‘linadi, bo‘g‘indan kerakli- o‘rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o‘rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o‘qish jarayoni o‘zgartiriladi. Bunda o‘zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o‘rgatishda o‘zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

1. Savod o‘rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi. Hozirgi o‘zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o‘.

E harfi so‘z va bo‘g‘in boshida qo‘llanadi (ekin, echki, aeroplan), undoshdan keyin o‘rta keng lablanmagan unli tarzida o‘qiladi (kel, tez). Savod o‘rgatishda oldin so‘z boshida keladigan e, so‘ngra undoshdan keyin keladigan e tovush-harfi bilan tanishtiriladi.

O harfi o‘zbekcha, umumturkiy so‘zlarda quyi keng, lablangan o tovushini ifodalaydi, ruscha-baynalminal so‘zlarda urg‘usiz bo‘g‘inda a tarzida (botanika), o‘ tovushi kabi (tonna), qisqa i tarzida (traktor) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unli qatnashgan ruscha-baynalminal so‘zlar savod o‘rgatish davridan so‘ng o‘quv jarayoniga kiritiladi.

A tovushi bahor, savol kabi so‘zlarda o kabi, muomala, munosabat kabi so‘zlarda I tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin a yoziladi.

U tovushi qovun, sovun kabi so‘zlarda I tovushiga yaqin talaffuz etilsa ham u yoziladi.

I tovushi bilan, sira kabi so‘zlarda talaffuz etilmasa ham yozuvda doimo saqlanadi.

2. O‘zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: shundan 3 tasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j (jurnal), j (jo‘ja), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z, g‘, sh, ch, ng. Undoshlarni o‘rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslanadi.

J harfi 2 tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Birinchi darsda portlovchi j tovushini o‘rgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida ko‘ nikmalar hosil qilinadi, keyingi darsda esa sirg‘aluvchi j tovushi va uning talaffuzi o‘rgatiladi. So‘ng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitik-sintatik mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Sh tovushini ifodalovchi sh harf birikmasi ham s va h harflari bilan, ch tovushini ifodalovchi ch harf birikmasi h harfi bilan tanishtirilgach o‘rgatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o‘qish darslari.
2. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish.

BUYUK MATEMATIK OLIMLAR IJODIGA BIR NAZAR

Mirzarahimova Marg‘ubaxon Xoshimjonovna
Matematika va informatika fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998993940568
Karimova Muyassar Mahmudillayevna
Matematika fani o‘qituvchisi
Namangan viloyati Uychi tumani 18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Telefon: +998913652520

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fani rivoji tarixida unutilmas iz qoldirgan buyuk olimlar to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek olimlarning ijodoy faoliyati ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: algebra, tenglama, yechim, taqqoslash, tavsiflash, simvolika.

Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy hayotning qaysi yo‘nalishiga qaramang, matematika fani kirib bormagan sohaning o‘zi qolmadi. Darhaqiqat, matematika fani ham boshqa fanlar qatori o‘zining rivojlanish tarixiga egadir. Shunday ekan bugun biz ijodi bilan tanishmoqchi bo‘lgan buyuk fransuz matematiklari to‘g‘risida siz maqola so‘nggida xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

XVI asrning buyuk matematiklaridan biri 1540 yilda Fransiyaning Fontene-le-Konta hududida tug‘ilgan Fransua Viyetdir. Ixtisosi bo‘yicha huquqshunos bo‘lgan Fransua Viyet dastlab advokatlik bilan shug‘ullanadi. U 1571 yildan 1584 yilgacha qirollar Georg III va Georg IV ning maslahatchisi bo‘lgan. Biroq Fransua o‘zining butun bo‘sh vaqtini matematikaga va astronomiyaga bag‘ishlagan. Ayniqsa 1584 yilda qirol saroyidagi lavozimidan chetlashtirilgandan so‘ng matematika bilan zo‘r berib shug‘ullana boshlaydi. Fransua Viyet qadimgi va o‘z davridagi matematikaning asarlarini qunt bilan o‘rganadi.

Fransua Viyet aslida yangi algebrani yaratdi. U algebraga harfiy simvolikani kiritdi. Uning asosiy g‘oyalari “Analitik san’atga kirish” asarida bayon etilgan. Ushbu asarda u quyidagicha yozadi: “Men bayon etayotgan san’at yangidir....”-so‘ngra “Barcha matematiklar o‘zlari bilgan algebra va almuqobala zaminida behad xazinalar yashirinib yotganini bilsalar-da, ularni topishni bilmasdilar: uning eng murakkab deb hisoblangan masalalar bizning san’atimiz yordamida osongina hal bo‘ladi”.

Darhaqiat, barchamizga ma’lumki, masalan, kvadrat tenglamalar juda oson yechiladi. Ularni yechish uchun tayyor formulalar mavjud. F.Viyetgacha har bir kvadrat tenglamani yechish o‘z qoidalari bo‘yicha bajarilar (u qoidalar so‘z yordamida ifodalanadigan uzundan-uzoq mulohazalar va tavsiflardan, katta-katta amallardan iborat bo‘lar edi) Xatto tenglamalarning o‘zini hozirgi bizga tanish ko‘rinishda yoza olishmas edi. Buning uchun ham so‘zlar yordamida uzundan-uzoq tavsiflash kerak edi. Tenglamalarni yechish usullarini o‘rganish uchun yillar kerak edi. Tenglamalarni yechish uchun formulalar u yoqda tursin, bizga ma’lum umumiy qoidalar ham yo‘q edi. O‘zgarmas koeffitsentlar harflar bilan belgilanmas edi. Tayin son koeffitsentli ifodalargina qaralardi holos.

Fransua Vyiet algebraga harfiy simvolikani kirgizdi. Viyetning kashfiyotidan keyin qoidalarni formulalar ko‘rinishida yozish imkoniyati tug‘ildi. To‘g‘ri Viyet ham hali daraja ko‘rstkichini so‘zlar yordamida belgilar, bu esa ba’zi masalalarni yechishda qiyinchilik tug‘dirar edi. Chunonchi manfiy sonlar o‘z tatbig‘ini topmagan edi. Fransua Viyet o‘z asarlarida birinchidan to to‘rtinchigacha darajali tenglamalarni yechish nazariyasini mufassal bayon qilib berdi.

Istalgan natural darajali keltirilgan ko‘rinishdagi tenglamalar ildizlari va koeffitsentlari orasidagi bog‘lanishni kashf etishi Viyetning katta yutug‘i bo‘ldi. Keltirilgan kvadrat tenglama uchun Viyetning mashhur teoremasi bizga yaxshi tanishdir: “keltirilgan ko‘rinishdagi kvadrat tenglamaning ildizlari yig‘indisi qarama-qarshi ishora bilan olingan ikkinchi koeffitsentga, bu tenglama ildizlarining ko‘paytmasi esa ozod hadga teng”. Bu teorema kvadrat tenglamalar yechimi to‘g‘ri topilganini og‘zaki tekshirishga, soddaroq hollarda esa tenglamalarning ildizlarini topishga ham imkon beradi. Fransua Viyet Yevropada birinchi bo‘lib, l sonining analitik (formula yordamida) ifodasini berganini ham qayd etib o‘tishimiz lozimdir.

Fransiyalik ikkinchi mashhur matematik Rene Dekartdir. U 1596 yilda Fransiyaning

janubidagi Lae shahrida dvoryan oilasida tug‘iladi. Otasi Reneni ofitser bo‘lishini orzu qilar edi. Shuning uchun u 1613 yili Reneni Parijga jo‘natadi. Rene Dekart uzoq vaqt armiya safida xizmat qilib qolib ketadi. U Gollandiya, Germaniya, Vengriya, Chexiya, Italiyada harbiy yurishlarda, gugenotlar qal’asi La-Roshal qamalida ishtirok etadi.

Biroq Reneni falsafa, fizika va matematika qiziqtirar edi. Parijga qaytib kelganidan ko‘p o‘tmay u Viyetning shogirdi, o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan matematigi Mersen bilan, keyinroq Fransiyaning boshqa matematiklari bilan tanishadi. Armiyada bo‘lgan chog‘ida Dekart o‘zining butun bo‘sh vaqtini matematika bilan shug‘ullanishga sarf qiladi. U nemis olimlari algebrasini, fransuz va grek olimlarining matematikasini o‘rganadi.

La-Roshal zabt etilganidan so‘ng 1628 yilda Dekart armiyani tark etadi. U mo‘ljallagan ilmiy ishlarining keng rejalarini amalga oshirish maqsadida yolg‘izlikda turmush kechiradi. Dekartning falsafiy qarashlari katolik cherkovining talablariga mos kelmas edi. Shuning uchun u Gollandiyaga ko‘chib o‘tdi, u erda 1629 yildan 1649 yilgacha 20 yil yashadi, biroq protestant cherkovining ta’qibi tufayli Stokgol’mga ko‘chib ketishga majbur bo‘ldi. Lekin Shvetsiyaning qahraton shimol iqlimi Rene Dekart uchun og‘irlik qildi va u shamollashdan 1650 yilda vafot etadi.

Dekart o‘z davrining yirik faylasufi va matematigi edi. Rene Dekartning eng mashhur asari “Geometriya” asaridir. Dekart fanga hozirda ham foydalaniladigan koordinatalar sistemasini kiritdi. U sonlar va to‘g‘ri chiziqlar kesmalari orasida bog‘lanishni aniqladi va bu bilan geometriyada algebrik usullarni joriy etdi. Dekartning bu kashfiyotlari faqat geometriyaning emas, matematikaning boshqa bo‘limlari, optikaning rivojlanishida ulkan turtki bo‘lib xizmat qildi. Miqdorlarning bog‘lanishini koordinata tekisligida grafik usulda tasvirlash, sonlarni kesmalar bilan tasvirlash, hamda kesmalar, shuningdek, turli funksiyalar ustida arifmetik amallar bajarish imkoniyati tug‘ildi. Bu go‘zalligi, nafisligi va soddaligi bilan ajralib turuvchi yangi usul edi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. I.S.Petrakov. “Matematika togaraklari”. Toshkent. 1991 yil. 20-21 betlar.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATI MUAMMOLARI

Mirzayeva Dilorom Norovna
Termiz shahar 13-maktab
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqola zamonaviy o‘zbek ta’lim tizimining ilg‘or mamlakatlarning ta’lim tizimlari bilan raqobatlasha oladigan iqtisodiyot va jamiyatning yangi sifatini shakllantirishning eng muhim omili sifatida muammolariga bag‘ishlangan. O‘zbekiston ta’lim siyosatining asosiy vazifasi - uning fundamental xususiyatini saqlab qolish va shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish asosida zamonaviy ta’lim sifatini ta’minlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: Davlat ta’lim standarti, shaxsiyatini rivojlantirish, individual farqlar

30-yillarning boshlarida taniqli psixolog L.S. Vygotskiy bolaga yo‘naltirilgan ta’limning imkoniyati va mosligini asosladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, pedagogika ertangi bolaning rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak va ta’lim faqat rivojlanishdan oldinda bo‘lsa yaxshi bo‘ladi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinfda turli xil ta’lim tizimlari mavjudligi sababli, Davlat ta’lim standartini joriy etish talab qilindi, bu esa quyidagilarga qaratilgan: -barcha fuqarolarning sifatli ta’lim olishlari uchun teng imkoniyatlar;

- ta’lim makonining birligi;
- o‘quvchi va o‘qituvchilarning akademik erkinliklari;
- o‘quvchilarning akademik harakatchanligi.

Bozor iqtisodiyotining yangi talablari va shiddat bilan o‘sib borayotgan axborot jamiyati ta’lim tizimini yosh avlod uchun barcha ta’lim maqsadlari, vazifalari, shakllari va mazmuni mohiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Bizning zamon talablariga javoban o‘zbek o‘qituvchilari ta’limning rivojlanishi va maqsadi o‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirish deb atashdi va ta’lim siyosatining strategik maqsadi ularning faoliyatini rag‘batlantirishdir. Maqsad va vazifalarga erishish uchun davlat ta’lim standartlarining ikkinchi avlodi ishlab chiqilgan. Ichki ta’limga xos bo‘lgan yuqori darajadagi bilimlarni saqlash va fanni o‘qitish natijalariga bag‘ishlangan birinchi avlod standartlaridan farqli o‘laroq, ikkinchi avlod standartlari shaxsiyatni rivojlantirish va vakolatlarga asoslangan yondashuv, operatsion vakolatlarning muhimligini ta’kidlaydi.

Bolalarning quvonchli muhitni, ishtiyoqni va o‘quvchilarni qoniqtiradigan muhitini yaratishga ta’limning butun qurilishi va birinchi navbatda ta’lim mazmunining boyligi yordam beradi, bu esa har bir o‘quvchiga o‘zini qoniqarli faoliyatda amalga oshirishga imkon beradi. Bu tizimning umumiy didaktik xarakteristikasi. Bu ajralmas, uning qismlari o‘zaro bog‘liq, ularning har biri o‘quvchilarning umumiy rivojlanishini ta’minlaydigan funktsiyani bajaradi.

Ushbu tizimga kiritilgan bolalar turli xil individual farqlar bilan ajralib turadi. Biroq, ular uchun umumiy bo‘lgan narsa ham xarakterlidir: ular aqliy rivojlanishda samarali ravishda rivojlanib boradilar. Afsuski, tavsiyalariga qaramay, qishloq maktablarida hali ham keng qo‘llanilmaydi.

Shu bilan birga, funktsional savodxonlikni, ma’lumot bilan ishlash qobiliyatini, amaliy muammolarni hal qilishda nazariy bilimlarni qo‘llash qobiliyatini sinovdan o‘tkazgan xalqaro ta’lim natijalari, rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda, o‘quvchilarining nafaqat o‘rtacha darajasi, balki vaziyatni yomonlashtiradigan tashvishli tendentsiyani ko‘rsatdi. Buning sabablari ko‘p, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va mintaqalararo tafovutlar, resurslar bilan ta’minlanishning tengsizligi va boshqalar.

Ta’lim tizimi o‘quv natijalarini an’anaviy bilimlar, ko‘nikmalar va standartlar ko‘rinishidagi taqdimotidan voz kechadi va standart so‘zlar o‘quvchining boshlang‘ich ta’lim oxiriga qadar puxta egallashi kerak bo‘lgan haqiqiy faoliyatni ko‘rsatadi. O‘quv natijalariga qo‘yiladigan talablar shaxsiy, meta-mavzu va mavzu natijalari ko‘rinishida tuziladi. Umumjahon ta’lim faoliyati alohida o‘rin tutadi.

Umumta’lim tizimida universal ta’lim faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha kontseptsiyani ishlab chiqish O‘zbekistonning sanoatdan post-industriyadan - axborot jamiyatiga o‘tishini aks ettiruvchi yangi ijtimoiy ehtiyojlarga javob beradi. Ta’limning maqsadi o‘quvchilarning umumiy madaniy, shaxsiy va kognitiv rivojlanishi bo‘lib, bilim olish qobiliyati kabi asosiy bilimlarni beradi.

Boshlang‘ich umumiy ta’lim bosqichida o‘quvchilar qobilyatini shakllantirishda, uning samaradorligini ta’minlovchi muhim element yosh o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) yo‘nalishi va ularni to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatlarini shakllantirishdir (AKT kompetentsiyasi). Biroq, faqat ushbu dasturdan foydalanish muammoni hal qila olmaydi. Har qanday intizomda o‘qish jarayonida bola o‘qituvchining ta’sir etadigan ob’ekti sifatida emas, balki o‘zini o‘zi o‘zgartiradigan o‘quv predmeti sifatida ko‘rib chiqilishi juda muhimdir. Bunday mavzudagi bo‘lish, o‘zini o‘zi o‘zgartirishga bo‘lgan ehtiyojni anglatadi.

Ushbu tizim an’anaviy ta’limga nisbatan kognitiv faoliyatda o‘quvchi faoliyatining boshqa turiga ega. An’anaviy o‘rganish reproduktiv turning ta’lim faoliyatiga asoslanadi. Bunday faoliyatni tashkil etish shundan iboratki, birinchidan, assimilyatsiya qilish uchun taklif qilingan harakat usulini aniq belgilab olishadi va ikkinchidan, ular uning ma’nosini bir darajaga yoki boshqasiga tushunishadi, uchinchidan, tegishli mashqlarni bajarishda uni ko‘proq yoki kamroq aniq ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Buning uchun o‘qituvchi o‘zlashtirish uchun taklif qilingan yechim namunasini namoyish qilishi, iloji bo‘lsa, uni aniq tushuntirishi va o‘quv mashqlarini hal qilishda uni to‘g‘ri qo‘llash ustidan ishonchli nazoratni ta’minlashi kerak. Ta’limni rivojlantirish sharoitida o‘qituvchi bolalarning oldida turgan muammoni hal qilish yo‘lini topishga qaratilgan tadbirlarni tashkil qilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Zankov L.V. Didaktika va hayot // Zankov L.V. Tanlangan asarlar. M., 1990 yil.
2. Ta’lim sifatini monitoring qilish: uslub. V.P. Somon SPb., 2008 yil.
3. Ta’lim muassasasining taxminiy asosiy o‘quv dasturi. Boshlang‘ich maktab / komp. E.S. Savinov. Ed 4-chi, rev. M., 2012 yil.

O‘QUVCHILARNING IMLOVIY BILIMNLARINI TAKOMILLASHTIRISH ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mirzayeva Karimaxon Xakimovna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +99894 2796341

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ham ta’limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi dars maqsdiga erishishda o‘quvchilarning imloviy savodxonligi, uni yanada takomillashtirish usulllaridan foydalanish va darslarni tashkil qilish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, o‘qish, yozish, sanash, sog‘lom, nutq faoliyati, og‘zaki nutq.

O‘zbekiston Republikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanihning o‘ziga xos yo‘liga ega bo‘ldi. Mustaqillik omili ta’lim sohasini ham tubdan yangilash zaruratini vujudga keltiradi. O‘zbekiston Republikasining ―Ta’lim to‘g‘risida‖ gi qonuni hamda ―Kadrlar tayyorlash milliy dasturi‖ talablari asosida ta’limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi 1- darajali ehtiyojga aylandi.

O‘zbekiston Republikasida umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida‖ gi Nizomda ta’kidlanganidek: Boshlang‘ich ta’lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o‘zini o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq–atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush tarsi asoslari egallab olinishini ta‘minlashga da‘vat etilgan‖. Shu asosga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umumadaniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim. Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish saloxiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini kommunikativ savodxonligini va o‘z–o‘zini anglash saloxiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatda zavqlana olishga, milliy urf–odatlarini o‘ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi, yoshlarning ma’naviy barkamol shaxslar bo‘lib yetishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga to‘liq joriy qilish to‘grisida ko‘plab fikrlar bayon etilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo‘ladigan ona tili ta’limida o‘quvchi o‘z fikrlarini ravon bayon qila oladigan bo‘lishi va to‘g‘ri savodli yoza oladigan bolishi kerak. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini bosqichmabosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Shunga ko‘ra, ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning eng samarali usul va metodlarini qo‘llash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Ta’limning takomillashgan turlaridan foydalanish har jihatdan xususan, ona tili darslarida ham o‘ta dolzarbdir.

Boshlang‘ich sinflarni ona tili ta‘limi o‘quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o‘stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o‘zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so‘zlarning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi haqidagi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik–semantik guruhi haqidagi, o‘zbek tilining to‘g‘ri yozuv qoidalarini va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o‘quvchilar nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.

Savod o‘rgatish, sinfdan tashqari o‘qish va imlo qoidalari o‘rgatiladi. Ona tili ta‘limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda bayon qila olish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e’tiqodi va buyiik kelajakka ishonchdir. - T.: „O‘zbekiston”, 2000.
2. .Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent, 1984.
3. Xudoyberganova M., Muxtorova M. 3-sinfda ona tili darslari. — T.: O‘qituvchi, 2005.
4. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. - T.: O‘qituvchi, 1992.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI BO‘G‘IN KO‘CHRISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Mohigul Jumayeva
Navoiy davlat pedagogika instituti
boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bo‘g‘in ko‘chirish va bo‘g‘in ajratish ko‘nikmalarini shakllantirish borasidagi fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Bo‘g‘in, o‘quv topshirig‘i,ona tili darsligi, tafakkur, ijodiy fikrlash, mashq, topshiriq.

Bo‘g‘in ko‘chirish bo‘g‘in ajratishga asoslanadi. Bo‘g‘in bir unlidan iborat bo‘lganda, bo‘g‘in ajratish va ko‘chirish mos kelmaydi. Ya’ni bo‘g‘in bir unladan iborat bo‘lganda quyidagicha ko‘chiriladi. So‘zning boshidagi bir bo‘ginni tashkil etgan unli yuqori satrda qoldirilmaganligi kabi, so‘z oxiridagi yakka unli keyingi satrga ko‘chirilmaydi. Misollar: **ona, mu-do-faa**. Shuningdek, so‘z o‘rtasidagi bir bo‘g‘inni tashkil etgan yakka unli yoki unli bilan boshlanuvchi bo‘g‘in keyingi satrga olib o‘tilmaydi: **sao-dat, mao-rif, mual-lim, muat-tar, mu-shoi-ra**.

Boshlang‘ich talimda didaktik texnologiyalaridan foydalanish eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarda tahlilq ilish, mantiqiy fikrlash, hisoblash, o‘lchash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoatarkibida ishlash, nutq o‘stirish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga qaratiladi.

Ta’limiy o‘yinlar orqali avvalo bolalardagi shaxsiy faollik, mustaqillik, ijodkorlik tarkib toptiriladi va shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Oldilariga qo‘yilgan aniq vazifani qo‘lga kiritishga yaqindan yordam beradi, masalaga ongli tushunib yondashish malakasini oshiradi.

Ma’lumki maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan o‘quvchi undan qat’iy tartib –intizomni talab etuvchi muhitga tezgina moslashib, kirishib keta olmaydi., o‘zini ushbu muhitga yolg‘iz his etadi. Shuning uchun kichik yoshdagi o‘quvchining faoliyat turidagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligini samarali hal etish uchun uning o‘yin faoliyatiga o‘tish davrini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishni talab etadi.

Ta’limning o‘yinli faol texnologiyalari o‘quvchining maktab ta’lim-tarbiyasiga hadiksirab qarashdan asraydi, uni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

Ta’limiy o‘yinlarni o‘tkazish davomida o‘qituvchi o‘tilayotgan mavzu asosida yondashishi zarurligiga e’tibor qaratishi lozim. Ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarni tasavvurlarini, qobiliyatlarini, lugat boyliklarini oshishiga katta yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘tilayotgan materiallarni o‘zlashtirish e’tiborga olingan holda quyidagi ta’limiy o‘yinlardan foydalanish mumkin.

Sinf xonasiga olib kirilgan har qanday, har tomonlama go‘zal, bola diqqatini o‘ziga jalb qila oladigan ko‘rgazma har qanday tilsiz bolani ham tilga kiritadi, uni o‘ylashga majbur etadi. 4-sinflarda qo‘lda tayyorlangan ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zlari turli mavzularda ko‘rsatmali qurollar tayyorlashlari mumkin.

Qo‘lda ko‘rgazmali qurollar yasash xilma-xildir. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish uchun katta hajmdagi rangli rasmlar, bukletlar va tarqatma materiallar tayyorlanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar faoliyatini o‘stirish, fikrlashga undash va qiziqishlarini o‘stirishda turli kartochkalar muhim ahamiyatga ega. Didaktik materiallardan foydalanish o‘quvchining darslarga qiziqishini orttirib, bilim doirasini kengaytiradi. Ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalaydi, xotirasini mustahkamlab, o‘rganilgan materialni uzoq vaqt esda saqlab qolishga yordam beradi.

Bolaning idrok qilishi uchun iloji bo‘lsa o‘sha narsani ko‘zi bilan ko‘rib, qo‘li bilan ushlab, hidi bo‘lsa hidlab, imkoni bo‘lsa, mazasini totib ko‘rsa, o‘sha predmet va uning belgi, xususiyatlari o‘quvchining yodidan ko‘tarilmaydi. Idrok qilishning bu turlarida o‘quvchining ko‘rish, hid bilish, sezish, maza-ta’m bilish sezgilari ishtirok etadi.

Mohir o‘qituvchi har bir darsda tarqatma so‘zli, rasmli, didaktik materiallardan, bo‘g‘nli, so‘zli, gapli kartochkalardan, harf, so‘zli kassalardan keng foydalanadi.

4-sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirish uchun didaktik o‘yinlar o‘tkazdim. Buning uchun rasmli kartochkalar tayyorladim. Bu kartochkalardan mavzuga oid topishmoqlar yozdim, o‘quvchilarga tarqatib chiqdim. O‘quvchilar tez va aniq javob berdilar. Birinchilardan bo‘lib topgan besh o‘quvchini rag‘batlantirdim.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida didaktik o‘yinlar jarayonida ko‘rsatmalilikni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Darsda o‘rganiladigan mavzularning aynan o‘ziga oid ko‘rgazmalarni ko‘rsatish, masalan, qushlar, hayvonlar, maktab, sinf, shaharlar va shunga o‘xshash bevosita o‘zini ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘rsatib, o‘quvchilar bilimini puxta bo‘lishini ta’minlaydi. Ko‘rgan bilganlarini darsda eslatish, ularni savol-javoblar orqali o‘rganilayotgan mavzu mazmuniga bog‘lash mumkin.

2. O‘rganilayotgan mavzu mazmuniga mos bo‘lgan turli texnik vositalarning modellaridan foydalanish.

3.Ayrim shahar va qishloqlar, umuman, ayni vaqtda ko‘z bilan ko‘rish mumkin narsalarga oid materiallarni o‘rganishda rasmlardan foydalanish.

4.Turli xildagi kartochkalardan foydalanish(Masalan, rasmlar tasvirlangan yoki turli xil meva, hayvonlar shaklida tayyorlangan bo‘lishi mumkin). Bu ona tili va o‘qish darslarida qo‘llaniladigan ko‘rsatmalilikning keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ko‘rsatmalilikning turlari xilma-xil bo‘lib, uni yana davom ettirishimiz mumkin. Ko‘rgazma vositalardan yana biri qo‘lda yasalgan olma daraxtining maketidir. Daraxtda mevalar osilgan. O‘yin jarayonida sinfni uch guruhga bo‘lamiz. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi chiqariladi. O‘quvchilar mevalardan uzib, uning orqasidagi topshiriqni bajarishi kerak. Har bir mevalar orqasida mavzuga oid so‘zlar berilgan bo‘ladi. O‘quvchilar shu so‘z qatnashgan gap tuzib, uni doskaga yozishi kerak. O‘yin shu tariqa davom etib, qaysi guruh ko‘proq olma mevasini yig‘sa shu guruh g‘olib hisoblanadi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar.

Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti — o‘yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvoviq foydalanish bilan ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Quyida ana shu o‘yinlardan namunalar keltiramiz:

«Ikkala bo‘g‘inida bir xil unli bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzing» o‘yinida birinchi bo‘g‘inida ham, ikkinchi bo‘g‘inida ham bir xil unli qo‘llaniladigan so‘zlarni (masalan, tutun, butun, uzun, quzg‘un, burgut, uyg‘un, tuyg‘un, mushuk, ustun, uyg‘ur, uchun, uzum, tushum va h.k.) topish va so‘zlar ro‘yxatini muayyan miqdorga yetkazish topshiriladi. Belgilangan miqdorda eng ko‘p so‘z topa olgan o‘quvchilar o‘yin g‘olibi sanaladi.

«Keyingi bo‘g‘inni top» o‘yini. Berilgan bo‘g‘inlar ishtirokida so‘z tuzish tushuntiriladi va qaysi o‘quvchi ko‘p so‘z tuza olsa, o‘yin g‘olibi bo‘ladi. Masalan, bo, bu, ju, ni, lo, sa, mu...

- bola, bobo, bozor, bodom;
- bo‘yin, bo‘ri, bo‘liq, bo‘zchi;
- jo‘ja, jo‘ra, jo‘xori, jo‘na;
- nima, nizom, nigoh, nido, nihol;
- lola, loyiq, lochin, lobar, loviya, lozim;
- savob, sarob, saxovat, sadoqat, sahifa...

«Talaffuzdan adashmang»o‘yini. O‘qituvchi o‘quvchilarga h va x yoki f-p tovushlari ishtirok etuvchi so‘zlardan aytishni topshiradi. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linib topshiriqni bajarishlari mumkin. Shunda kim so‘zni noto‘g‘ri aytsa o‘yindan chiqadi. Mavzu asosida so‘zni aytgan o‘quvchi shu so‘zni doskaga yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtda eng ko‘p to‘g‘ri so‘z aytgan o‘quvchi o‘yinda g‘olib hisoblanadi. Namuna:

Shoh - davlat boshlig‘i, podshoh
Shox-novda, daraxtning shoxi.
Xil-xil - saralangan, tanlangan.
Hil-hil- ezilib pishgan.
Uhladi - xafa bo‘ldi, «uh» tortdi.
Uxladi - uxlamoq, dam olmoq.
Hol - ahvol (hol)ni so‘radi.

Xol - odam tanasida bo‘ladigan xol.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘yin faqatgina vaqtning o‘tishi yoki bolalar uchun shunchaki odatiy hol emas. O‘yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayib boradi. O‘yin orqali yondashuv ta’lim jarayonini osonlashtiradi., bu fanga qiziqishni kuchaytirib bolani chuqur bilim olishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti. Toshkent “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2005, 5-son, 64

2. Abdullaeva q. va boshqalar. Savod o‘rgatish darslari. T., “O‘qituvchi ”, 1996

3. Бобомуродова А. Она тили таълими жараёнида ўйин-торшириқлардан фойдаланиш. Тошкент “Мусиқа” нашриёти, 2009, 91.

4. Дарслардаянги педагогик технологиядан фойдаланиш.(Ўқитувчиларнинг методик тавсиялари). Фарғона. 2002,13.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INNOVATSION G‘OYALARDAN FOYDALANISH

G‘ulmova Moxidil Mamasharifovna
Buxoro viloyati Kogon shahar.
3-umumiy o‘rta ta’lim maktab,
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi
Telefon:+998(94)324-47-53
moxidil-gulomova@mail.ru

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda innovatsion g‘oyalardan foydalanishning asosiy maqsadi, har bir darsni o‘ziga xos usul asosida o‘tish,o‘quvchining qiziqishini oshirish,uning qalbiga darsga,ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liqdir.Aynan boshlang‘ich sinflarda innovatsion g‘oyalardan foydalanish samaralidir.Innovatsion g‘oyalarni ish tajribasida qo‘llay olishda avvalo o‘qituvchida yangi ijtimoiy ko‘nikmalar mavjud bo‘lishi kerak.

1. O‘z fikrini ifodalay olishi;
2. Muloqotga kirisha olishi;
3. Vaziyatni baholay olishi va muammalarni yecha olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, innovatsiya, g‘oya, qoboliyat, bilim, ko‘nikma, ko‘rgazma.

O‘quvchilar nutqi muayyan metodik vositalar va mashq turlari orqali amalga oshiriladi. Bularning ichida eng muhimlaridan biri-bog‘lanishli nutq mashqlari hisoblanib,ular o‘qish va ona tili darslarida muntazam o‘tkazib boriladi.O‘qish va ona tili darslarining samaradorligini oshirish ushbu fan metodikasining muhim vazifasi hisoblanadi. Shuningdek,o‘zlashtirish jarayonida uchragan qiyinchiliklarni trening o‘yinlar bilan bartaraf etish mumkin.Natijada esa metodika va fan-texnika taraqqiyoti bolalarning aqliy o‘qish darajasi,psixologiyasi o‘zgarib borishida o‘z ifodasini topadi. O‘qish va ona tili darslaridagi har bir mavzu bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak.Hozirgi davr ta’lim tizimi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirishda ilg‘or innovatsion g‘oyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinflarda innovatsion g‘oyalardan foydalanish:

- vaziyatga moslashuvni
- muloqot qobiliyatini
- axborot savodxonligini
- ko‘nikma hosil qilshni
- haqiqiy bilim manbayini oshiradi.

O‘quv jarayonida ko‘rgazma vositalaridan o‘rinli foydalanish katta ahamiyat kasb etib, o‘quvchi diqqat-e’tiborini, nutqini, erkin fikrlash salohiyatini yuksaltiradi. Shuning uchun ham hozirda aynan 1-sinf o‘quvchilarimga ona tili va o‘qish darslarida kompyuter, videoroliklardan, slaydlardan, multimedia ilovasidan unumli foydalanib kelmoqdaman.Ekran orqali ko‘rganlarini,,Dengizga sayohat’’ kabi ta’limiy o‘yinlardan foydalanish mavzuni tez va oson o‘zlashtirishga yordam berishi bilan birga,muammoli vaziyatlarni hal qila olishga ham o‘rgatadi.,,Dengizga sayohat’’o‘yinida o‘quvchilar bilan birgalikda suv kemasida dengizga sayohatga chiqadilar.Kema maketi va to‘lqin tovushli monitorda eshittiriladi.O‘quvchilar o‘zlarini xuddi dengizga suzayotganday his qiladi va sayohat davomida suv jonzotlari bilan suhbatlashib,savol-javob o‘tkazish mumkin.,,Sirli bo‘g‘inlar qasri’’ o‘yinida bo‘g‘inlar kesilib,aralashtirib yuboriladi.O‘quvchi ana shu bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzadi.So‘zlardan esa gaplar tuzish mumkin.Sirli qasr qatnashchilarni har bir to‘g‘ri tuzilgan so‘z uchun mukofotlaydi. Bundan ko‘rish mumkinki,boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar ko‘proq ko‘rgazmalilikni yoqtiradi. Bunday trening o‘yinlar didaktik vazifalarni yechishga yordam beradi:-fanlar bo‘yicha bilimlarni mukammal o‘zlashtirishda;-o‘zlashtirilgan bilimlarni takomillashtirishda;-o‘z-o‘zini boshqarish mahoratini shakllantirishda;-o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirishda;-o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun o‘quv-metodik yordam ko‘rsatishda.Trening aqlni charxlovchi o‘yinlar,har xil shakldagi ma’lumotlarni taqdim etadi va shu bilan birga bir qatorda,o‘quv jarayonini yanada jonlantiradi.Innovatsion g‘oya, trening o‘yinlar samaradorligi boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayoniga qay darajada singdirilishiga bog‘liq.Turli trening o‘yinlar:

1. Darsni yoritishda o‘qituvchiga hamroh bo‘ladi.
2. Dars mavzusi,maqsad va vazifalarini yoritishda,muammoli savollar qo‘yishda.

3. O‘rganuvchi ma’lumot manbayi sifatida.
4. Interaktiv laboratoriya sifatida.
5. Bilimlarni tekshirish uchun.
6. Zo‘riqishning oldinini olish va erkin his etish kabi holatlarda qo‘llanishi mumkin.

Innovatsion g‘oyalarni o‘qish va ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishda turli trening o‘yinlar ko‘rinishida singdirib borish lozim.Bu uchun,o‘qituvchi har bir darsning muhim vazifalarini oldindan belgilab olmasa,o‘z maqsadiga erisha olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti.Boshlang‘ich ta’lim jurnali-Toshkent, 2005-№521-33 betlar.
2. J.R.Yo‘doshev.S.A.Usmanov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T:”O‘qituvchi-2004”
3. R.Safarova “Nutqiy ko‘nikmalarni tekshirish asoslari”.Boshlang‘ich ta’lim jurnali.-Toshkent, 1997-№5б10-11-betlar.
4. X.G‘ulomova .1-sinf ona tili dars ishlanmalaridan namunalar.Boshlang‘ich ta’lim jurnali-Toshkent, 1996-№6,11-14-betlar.

O‘LMAS UMARBEKOVNING “QIYOMAT QARZ” DRAMASIDA MILLIYLIK IFODASI

Mo‘ydinova Rahimaxon Umarjonvna
Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani
28-umumiy o‘rta talim maktabi
Ona tili va dabiyot fani o‘qituvchisi.
Телефон: +998(99) 632 16 80
Maktab_28@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbekona milliy qadriyatlar, urf-odatlar, O‘zbek xalqining yuksak milliy qadr – qimmati, or – nomusi va shon – sharafi uning o‘ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Syujet tuguni No‘monjonning urushga ketish oldidan otaga ikkita qo‘zi tashlab ketishi bilan tug‘iladi. O‘qituvchi darsda bu asrani yoritish orqali o‘quvchilarda darsga va bilim olishga yanada qiziqish orttirish bilan birga axloqli, pok vijdonli, halol, o‘zgalar haqiga hiyonat qilishdan qo‘rquvchi avlodni tarbiyalashga undashi mumkin.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ma’naviyat, yosh avlod, odob- axloq, ta’lim- tarbiya, imon - e’tiqod, halollik, bag‘ri kenglik, samimiylik,

Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob – axloqi, yurish- turishi bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodlarimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

Sh. M. Mirziyoyev

Milliylik, milliy tuyg‘u asar yashovchanligidagi asosiy omillardan biridir. O‘lmas Umarbekovning dramatik asarlari ichida g‘oyaviy – badiiy jihatdan barkamoli,, Qiyomat qarz “ dramasidir. Dramatik asardagi bosh qahramon ma’lum aktyorga bag‘ishlab yozilishi mumkin. Xarakter yaratilayotganda, o‘sha aktyor portreti, gapirish ohangi ichki olami, yurish- turishi dramaturg ko‘z oldida turadi. Asardagi Sulaymon ota timsoli xalq artisti Sh. Burxonovga mo‘ljallab yaratilgandek. Sulaymon ota harakterida o‘zbek millatiga xos imon - e’tiqod, halollik, bag‘ri kenglik, samimiylik singari xususiyatlar ota xarakterida yaxshi berilgan. O‘zbek xalqining yuksak milliy qadr – qimmati, or – nomusi va shon – sharafi uning o‘ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Syujet tuguni No‘monjonning urushga ketish oldidan otaga ikkita qo‘zi tashlab ketishi bilan tug‘iladi. Voqealar rivoji davomida ma’lum bo‘ladiki, bu ikki qo‘zi 30 yilda 400 taga yetadi. Umri tugayotganini sezgan ota No‘monjon daragini topish, qiyomat qarzdan qutulish harakatiga tushadi. Mana shu xususiyatning o‘zi milliy xarakter bag‘ridagi o‘ziga xos tuyg‘udir. Bungacha o‘tgan davr ichida Sulaymon ota, Zebi xola qalbida o‘zbekona bir ilinj, orzu yashaydi. No‘monjon eshikdan kirib kelsa-yu, uni uylasa, nevaralarini quchog‘iga olib, ertaklar so‘zlasa. Ana shu faqat o‘zbekkagina xos orzu, armon ifodasida sandig‘ida do‘ppi, qiyiq saqlaydi. Sulaymon ota xarakteridagi milliy tuyg‘u do‘sti, samovarchi G‘ulom Haydarov bilan munosabatlarida ham yorqin ko‘rinadi. Choyxona yonidagi tolzor, buloq, to‘rqovoqdagi bedanalar ham milliylik ifodasiga xizmat qiladi. Ikki qariya munosabatlaridagi hazillar qo‘pol bo‘lsa-da, bu ularning bir-biriga bo‘lgan o‘zgacha mehri ko‘rinib turadi. O‘zbekka xos bir-biriga laqab qo‘yish xususiyati ham chollar o‘rtasidagi samimiyatni ko‘rsatib beradi. Masalan : Sulaymon ota G‘ulom cho‘loq, qayerdasan ?

G‘ulom aka. Ha,ha, mancha baqirasan betga chopar.

Sulaymon ota xarakteriqatidagi milliy tuyg‘u ifodasi “Mamurjonning qo‘y” detalini, “Bog‘aro qo‘ysam qadam gul g‘uncha qilmay xahdadir” satrlarini chol tomonidan takrorida uning qalbidagi yolg‘izlik dardi, farzand dog‘I urushga bo‘lgan nafrat, yashashga bo‘lgan ishtiyoq, No‘monjonni toppish orzusi singari tuyg‘ular yuzaga chiqadi. Ota xarakteridagi muhim xususiyatlardan biri uning adolatlili, har bir masalani odilona hal qilishidir. No‘monjonni izlab topish, unga qiyomat qarzini topishirish ota hayotini mazmuniga aylangan. Zebi xola ham bir umr uni kutib, kelsa

uylantirib qo‘yish orzusida olamdan ko‘z yumdi. Otaning No‘monjonni izlab bormagan joyi qolmadi. Asardagi eng hayajonli narsa shuki, No‘monjon urushga bormagan, Zarkatga yaqin joyda yashaydi, u jahonga mashhur shifokor bo‘ladi. Ammo Sulaymon otani, Zebi xolani esga ham olmagan, shuncha vaqt biror marta ham yo‘qlamagan. Bu o‘rinda mehr va oqibatsizlik, odamgarchilik va qadrsizlik singari tuyg‘ular ravshan ko‘rinadi. Ilgari Sulaymon otani, unga kunda quymoq pishirib kasalxonaga qatnagan Zebi xolani eslamagan No‘monjon 400 qo‘yning daragini eshitib yaltoqlanib qoladi. Ana shu damlarda Sulaymon ota adolat bilan ish ko‘radi.

“Nazarov. Obbo otaxon-ey… Obbo siz-ey! Qo‘ylar xayolimga ham kelgani yo‘q. Lekim sizmi. Zebi xolamni o‘ylardim… Lekin baribir, borardim. Sizni bir ko‘rib kelardim” Sulaymon ota ikkita qo‘yning pulini unga berib, qolgan puliga Kiyevda shahid bo‘lgan urush qurbonlariga yodgorlik o‘rnatdi

Birinch prezidentimiz I. A.Karimov takidlaganidek: “Milliy madaniyatning o‘ziga xosligini takidlashga alohida etibor berish kerak. Shu bilan birga, milliy o‘zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umri bashariy qadriyatlar ideallaridan, bizning ko‘p millatlik jamiyatimiz ananalaridan ajralib qolishi mumkin emas”

Ota xarakteri barkamolligini yuzaga chiqishida uning nutqi muhim omil bo‘ladi. Avvalo, Sulaymon otanutqiga o‘ziga xos gap qurilishini kuzatamiz. U eng zarur so‘zni gap oxirida, alohidatakidlab aytadi. Urush yillari choy toppish, xususan pamil choy toppish mushkul edi. Shuning uchun ota nutqida pamil choyga alohida urg‘u beriladi: “Juda besabrsan-da. Choy damladim. Pamil choy”

Ota nutqi mahorat bilan individiuallashtirilgan. Nutqdagi o‘ziga xosligni berishda mubolag‘a, ashbeg, juft so‘zlar, ruscha so‘zlarning buzib ishlatilishi, vulgar so‘zlar kabivositalardan o‘rinli foydalanilgan. . Yozuvchining mahorati shundaki, Sulaymon ota xarakteridagi o‘zbekona tuyg‘ular boshqa millatlarni ham hurmat qilish xususiyatlari bilan bog‘lanib ketgan. Zero, o‘zbek xalqi milliy tuyg‘ularni, qadriyatlarni e’zozlagan holda boshqa millat vakillariga ham hurmat bilan qaraydi. Asardagi Sulaymon ota timsoli milliyligi, o‘zbek cholining ajoyib namunasidir . Qaysi asarda milliylik yorqin ifodalansa, milliy xarakterlar yaratilsa, bunday asarlar mahorat jihatidan yuksak bo‘lsa, davr sinovlariga dosh berabbb

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov. Manaviy yuksalish yo‘lida, Toshkent, “O‘zbekiston nashriyoti” 1998. 14-bet.
2. O‘lmas Umarbekov. Saylanm, 3 jildlik, 3 jild Toshkent. G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1985.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI AQLI ZAIF BOLALAR NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muhammadiyeva Nozimaxon Sayfiddinovna,
Zarafshon shahar 1-sonli MTT tarbiyachisi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" talablari asosida yoshlarni komil inson, barkamol shaxs qilib tayyorlash, uzluksiz ta'lim tizimining hamma bosqichlarida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish pedagogik muammo sifatida o'rganilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 2010 yil 18 iyun 117-son Qarorining 2-bandiga muvofiq "maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarining sonini, ularning ixtisoslashuvi va joylashuvini qayta ko'rib chiqqan holda, shuningdek, jismoniy yoki aqliy rivojlanishida turli nuqsonlar bo'lgan bolalar kontingentidan kelib chiqib maqbullashtirish" ko'zda tutilgan bo'lib, bu og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash metodlari, vositalarini ham qayta ko'rib chiqishini va takomillashtirishni talab qiladi.

"Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" bola shaxsi rivojlanishining to'rtta turi asos qilib olingan: jismoniy, ijtimoiy hissiy, nutq hamda o'qish va yozishga tayyorlashdan iborat bo'lib, uyg'unlikda bola rivojlanishining yaxlitligini tashkil etadi.

Aholining ajralmas bir bo'lagi bo'lmish alohida yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxorlik, sog'lom barkamol qilib tarbiyalash ularni shaxsiy huquqlarini ijtimoiy himoyalash, ta'lim tarbiya jaroyonini mos ravishda tashkil etish, sog'lom bolalarga har tomonlama tenglashtirish, natijada jamiyat taraqiyotida o'z o'rnini topishlarini taminlashdagi dolzarb masalalar mamlakatimiz istiqlolga erishgandan buyon hech qachon davlatimiz siyosatidan chetda qolgan emas. Maktabgacha yosh davri - bu bola rivojlanishining eng samarali va jadal jarayonidir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlanishi, o'rganilishi va ular bilan zarur hollarda psixologik-pedagogik korreksiya ishlarini olib borilishi mumkin qadar ertaroq amalga oshirilsa, mazkur pedagogik-korreksion ish samaradorligini yanada amalga oshiradi. Bu organik yetishmovchilikka ega bolalar o'z sog'lom tengdoshlariga qaraganda, aqliy faoliyatini yanada faolroq tarzda rivojlantirishga muhtoj ekanliklari bilan ham asoslanadi. Bolaning rivojlanishida nutq eng muhim ahamiyatga ega. Nutqning rivojlanishi bilan shaxsning, shuningdek barcha psixik jarayonlarining shakllanishi chambarchas bog'liq. Yusuf Xos Hojib, Imom al-Buxoriy, Abu Nosir Farobiy, At-Termiziy, Alisher Navoiy kabi buyuk daholar tomonidan yaratilgan asarlarda nutq va uning inson faoliyatidagi ahamiyati yorqin misollarda o'z ifodasini topgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutq egallash sintezi davri alohida dolzarbligini hosil qiladi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda nutq o'stirish muammosiga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy izlanishlar: aqli zaif bolalarda birinchi nutqiy ko'rinishlar davrini bo'lmasligi va kechikishi, birinchi so'zlarni kech talaffuz qilishi, iborali nutqni sekinlik bilan hosil bo'lishi, nuqdan yetarli foydalanmasliklari, lug'at boyligini kambag'alligini ko'rsatadi. M.P.Xamidova, M.Yu.Ayupovaning maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalardagi nutqni asosi bo'lmish grammatik tomonini tekshirish natijalarining tahlili, ularda tilning leksik-grammatik tuzilishining yetarli shakllanmaganligini ko'rsatadi. Ular amalda tilning grammatik qoidalarini buzgan holda qo'llaydilar va nutqda xuddi shunday ifodalaydilar. Aqli zaif bolalarda 5 yoshda so'zlardan gap tuzish jarayoni zaifligi yoki yetarli shakllanmaganligi kuzatiladi. Tekshirishdan olingan natijalar aqli zaif bolalar 2-3 so'zdan iborat gap tuzish imkoniga ega ekanligini ko'rsatdi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar gapni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Noto'g'ri tuzilgan gaplar orasida tugallanmagan, grammatik jihatdan shakllanmagan, ma'nosiz so'zlarni o'rnini almashtirish kabi kamchiliklar kuzatiladi. Maktabgacha talimda nutqiy kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va kompensasiyalash to'g'ri nutq shakllanishida aniq natijalarga erishishda yordam beradi. Korreksiya va talimning asosiy roli alohida yordamga muhtoj bolalar, shu jumladan, aqli zaif bolalarning maktabgacha tarbiya davrida nutqni o'stirish, nutqni o'stirish orqali tafakkurni o'stirish, umuman barcha ruhiy jarayonlarni o'stirish va natijada maktab talimiga hamda ijtimoiy hayotga moslashtirishdir. Chunki ular normal rivojlanayotgan bolalardan farqli ravishda mustaqil so'zlashish qobilyatiga ega emasdir. Bolalarni nutqi o'sishi bilan atrofda yuz berayotgan voqea – hodisalarni idrok etishga harakat

qiladi va talabini ongli ravshda boshqarishga intiladi. Bolalardagi nutq faoliyatining orqada qolishi atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishini qiyinlashtiradi, narsa va voqeylikni tushunib yetishga xalaqt beradi va shu bilan,,bilish jarayoni”ning rivojlanishga salbiy ta’sir qiladi. Aqli zaif bolalarda me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlariga qaraganda nutqi kechikib shakllanadi va bir qator kamchiliklarga ega bo‘ladi. So‘zning tovushining tahlili va sintezi buzilishidagi talaffuz kamchiliklari, lug‘atining qashshoqligi, grammatik qurilishining shakllanmaganligi aqli zaif bolaning nutqi va tafakkurining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xatto ayrim mustaqil jumlalar paydo bo‘lgan taqdirda ham bolalarning aloqasi qator fonetik va Grammatik buzilishlar bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, og‘zaki nutq buzilganligi tufayli shaxslararo munosabatga kirishish kechikadi. Aqli zaif bolalarda nutqning buzilish xususiyati yuqori nerv faoliyati va uning psixik shakllanishining o‘ziga xosligi bilan aniqlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, respublikamizda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini o‘stirish maktabgacha pedagogikaning dolzarb muammolaridan bo‘lib, faqat ta’limiy jihatdan emas, balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha davrdayoq aqli zaif bolalar nutqini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, tafakkurini o‘stirish ularning ijtimoiy hayotda moslashishini tezlashtiradi.

COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDAGI INNOVATSIYALAR

Muhayyo Ismoilova (Farg‘ona viloyati,
Toshloq tumani 12-maktab o‘qituvchisi)
ismoilovaaaaa@gmail.com
+998 99 999 07 60

Ushbu maqolada COVID-19 pandemiyasi sharoitida O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi yangi islohotlar, bu tizimga oid qarorlardan ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Jahon banki mutaxassislarining Jahon bankining rasmiy veb-saytida O‘zbekiston: maktablarning yopilishiga o‘z vaqtida javob nomli maqolasi ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: Xalq ta’limi vazirligi; Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi; milliy teleradiokompaniya, online-maktab; onlayn darslar; onlayn olimpiada; Jahon banki; Xalq ta’limi vaziri, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun.

Bugungi kunda IT -texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib ta’lim sohasini ham qamrab olmoqda. Dunyoning deyarli barcha zamonaviy ta’lim muassasalarini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston ham jahon axborot-ta’lim makonida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Ana shu erishilayotgan muvaffaqiyatlarda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzurida tashkil qilingan Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazining ham salmoqli o‘rni bor.

Markazining faoliyati Xalq ta’limi tizimining innovatsion pilot loyihalarini texnik amalga oshirish va sinovdan o‘tkazish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi organni yaratishga, shuningdek, raqamli innovatsion texnologiyalar, veb-platformalar, dasturiy mahsulotlar va axborot tizimlarini joriy qilishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasining tarqalishini oldini olish va ta’lim muassasalarida sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta’minlash maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun muddatidan oldin, 2020-yilning 16-mart kunidan e’tiboran qo‘shimcha ta’til e’lon qilindi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2020-yilning 18-mart kuni koronavirus bilan bog‘liq vaziyat bo‘yicha xalqqa murojaat qildilar. Jumladan, “Bu hayotning ko‘p og‘ir sinovlarini va yaxshi-yomon kunlarini boshidan kechirgan xalqimiz hammasini to‘g‘ri tushunib, masalaga ongli yondashmoqda”[1], – deya e’tirof etdilar.

O‘zbekiston Respublikasiga koronavirusning kirib kelishi va tarqalishini oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasining 2020-yil 15-martdagi yig‘ilish bayoniga muvofiq Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 17-martdagi 82-sonli buyrug‘i bilan o‘quvchilar uchun qo‘shimcha e’lon qilingan ta’til davrida masofadan turib o‘quv jarayonini tashkil etish hamda ta’lim muassasalari va tashkilotlarning bino va inshootlarini samarali saqlash ishlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, yetim va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadida o‘z faoliyatini ish joyida amalga oshiradigan rahbar va xodimlar ro‘yxati tasdiqlangan[2] (24-martdagi 87-sonli buyruq bilan ushbu ro‘yxat tarkibiga o‘zgartirish kiritilgan[3]). Bunda umumta’lim maktablarining direktor yoki o‘rinbosarlaridan biridan tashqari xodimlariga, ularning xohishlariga ko‘ra mehnat qonunchiligida belgilangan tartibga muvofiq mehnat ta’tili berish tavsiya etilgan. Shuningdek, joriy yilning 31-martidagi Xalq ta’limi vazirining 91-sonli buyrug‘ida maktab o‘qituvchilarining ish faoliyatini masofaviy tarzda davom ettirish, masofaviy ta’lim jarayonini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan xodimlarning mehnat faoliyatini masofaviy ish usuliga o‘tkazish orqali tashkil etish, navbatdan tashqari mehnat ta’tilida bo‘lgan xodimlarning ta’til muddatini yillik asosiy mehnat ta’tili hisobidan uzaytirish, qolgan xodimlarga zaruriyatga ko‘ra asosiy mehnat ta’tili hisobidan haq to‘lanadigan mehnat ta’tili berish belgilangan.

Majburiy ta’til paytida farzandlarimiz o‘quv mashg‘ulotlarini onlayn davom ettirishlari uchun

[1] O‘zR. Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning koronavirus bilan bog‘liq vaziyat bo‘yicha xalqqa murojaati, 2020-yil 18-mart

[2] Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 17-martdagi 82-sonli buyrug‘i

[3] Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 24-martdagi 87-sonli buyrug‘i

Xalq ta’limi vazirligi O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorligida videodarslar turkumi yo‘lga qo‘yilganligi, teleradiokanallarimiz orqali yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun tariximiz, boy madaniyatimizga oid ko‘rsatuv va eshittirishlar, ular uchun foydali va qiziqarli badiiy dasturlar, kinofilmlarni ko‘paytirishi lozimligini alohida ta’kidlagan edilar.

Prezidentimizning xalqqa yo‘llagan murojaatnomalarida va o‘tkazgan videoselektorlarida[1] doimo o‘quvchi yoshlarga murojaat qilar ekanlar, farzandlarimizning uydagi vaqtini bekor o‘tkazmaslikka, onlayn darslarni qunt bilan o‘zlashtirishi, kitob o‘qishi, bilimini oshirishi, badantarbiya va jismoniy mashqlar bilan har kuni shug‘ullanishga chorlaydilar.

Shu munosabat bilan 4-chorak uchun mo‘ljallangan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘quvchilar televizion darslar orqali onlayn tarzda o‘qiy boshladilar.

Bu jarayonlarning barchasi ayni kunlarda, ayniqsa, pedagog va ota-onalarni ham yanada quvontirdi.

Barcha maktablarda navbatdan tashqari ta’til e’lon qilindi. Shuningdek, o‘qituvchilar ham metodik yuklamalarini onlayn, ya’ni masofadan turib amalga oshirishi belgilandi.

Ta’til vaqtida 1-sinfdan 11-sinfgacha barcha fanlardan o‘zbek va rus tillarida milliy teleradiokompaniya kanallarida darslar efirga uzatilmoqda. Uchta kanalda uzatiladigan efirlarning to‘liq ro‘yxati Xalq ta’limi vazirligining rasmiy sayti www.uzedu.uz hamda telegram kanalida berilmoqda.

Hozirda Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi bir qator loyihalarni ishlab chiqib, amalga oshirmoqda: Prezident maktabi, Edu Market interaktiv virtual ta’lim dasturi, Edu kids bolalar uchun ilmiy-ommabop videoroliklari, Toshkent xalqaro ta’lim universiteti, hamda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan kitob.uz-veb-portali.

Markaz o‘z oldiga ko‘ngilochar kontent bilan foydali bo‘lgan narsalarni birlashtirib, bolalarning zamonaviy bilimlarini o‘zlashtirishdagi qiziqishini oshirishni maqsad qilib qo‘ygan. Tahliliy ma’lumotlarga qaraganda bunday yondashuvlar bolalarning o‘yin davomida intellektual salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi[2].

Xalq ta’limi vazirligining maktab o‘qituvchilarining karantin davrida o‘quvchilar bilan masofadan (onlayn tarzda) amalga oshiradigan ishlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi va joylarga yuborildi.

Unga ko‘ra, fan o‘qituvchilari o‘quvchilarni baholab borishi uchun vaqtinchalik o‘z fani bo‘yicha sinf jurnalini daftarda yuritadi.

Karantin muddati tugagandan so‘ng, ushbu vaqtinchalik sinf jurnalidagi o‘quvchilarning baholari asosiy sinf jurnaliga ko‘chirib qo‘yiladi.

O‘qituvchi tomonidan vaqtinchalik sinf jurnaliga o‘tilgan mavzular, uy vazifalari va o‘quvchilarning joriy baholari kiritib boriladi (oraliq nazorat baholari va o‘quvchilar davomati kiritilmaydi).

Toshkent shahrida o‘quvchilarning olgan baholari kundalik.com elektron tizimiga kiritib boriladi.

O‘qituvchilar qo‘shimcha bilim olishni istagan o‘quvchilar ota-onalari bilan kelishilgan holda qo‘shimcha topshiriqlar berishlari ham mumkin.

[1] www.president.uz
[2] www.itsm.uz

2019-yilda yurtimizda ilk marotaba Nukus, Xiva, Namangan va Toshkentda to‘rtta Prezident maktabi ochildi. Mazkur maktablar mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirishdagi islohotlarning lokomotiviga aylanadi. Ushbu maktablarda yoshlarga dars berish uchun xorijdan yuqori malakali o‘qituvchilar jalb qilindi. Prezident maktabining xorijlik pedagoglari tomonidan ham Online-Maktab loyihasi doirasida videodarslar tayyorlandi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi chet ellik o’qituvchilar ishtirokida videodarslar tayyorladi. Videodarslar 17-maydan efirga uzatildi[1].



2019-2020-o‘quv yili onlayn tarzda yakunlanadi. Respublika maxsus komissiyasining Qaroriga ko‘ra:

- xalq ta’limi tizimidagi tashkilot va muassasalarida 2019-2020-o‘quv yili online-maktab loyihasi doirasida tashkil etilgan masofaviy televizion videodarslar orqali yakunlanadi;

-o‘qituvchilar va masofaviy ta’lim jarayonini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan xalq ta’limi tizimidagi (ta’lim muassasalari, tashkilotlari, hududiy bo‘linmalar) xodimlar o‘z ish faoliyatlarini masofaviy tarzda (ish haqi to‘langan holda) davom ettiradilar.

Hozirgi vaziyatdan kelib chiqib, 2019-2020-o‘quv yilidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida yakuniy imtihonlar bekor qilindi va o’quvchilarning baholarini istisno tariqasida joriy o‘quv yilining uch chorak baholari asosida chiqarish tavsiya etildi. Bitiruvchilarga davlat namunasidagi attestat (shahodatnoma)larni elektron shaklda (skaner) bitiruvchilarga yetkaziladi.

Attestat (shahodatnoma) blankalari respublikamizda karantin muddati tugagunga qadar ta’lim muassasalarida saqlanadi. Karanti davri yakunlanganidan so‘ng ular o‘z egalariga topshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi *“Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”* PQ-4306 Qaroriga asosida iqtidorli o‘quvchi yoshlarni aniqlash, ular faoliyatini ilmiy va uslubiy jihatdan ta’minlab borish, sohada ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ular asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiya va qo‘llanmalar ishlab chiqish; umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari o‘rtasida mahalliy va xalqaro, shu jumladan nodavlat fan olimpiadalarini tashkil etish, ularning xalqaro olimpiadalardagi ishtirokini ta’minlash[2] maqsadida onlayn olimpiadalar tashkillangan.

Onlayn olimpiadada ishtirok etish uchun o‘quvchilar olympiad.uzedu.uz (yoki oo.uzedu.uz) saytiga belgilangan vaqtda, o‘zlarining login va parollari yordamida kirishlari kerak.

[1] www.uzedu.uz

[2] O‘zR. Prezidentining Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4306 Qarori, 2019-yil 3-may

Onlayn olimpiada yakunlangach, o‘quvchilar o‘z reytinglarini ko‘rishlari va QR-kodli sertifikatlarini yuklab olishlari mumkin bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda olympiad.uzedu.uz axborot tizimida ro‘yxatdan o‘tgan o‘quvchilar soni 175,000 nafarni tashkil etmoqda[1].

Jahon bankining rasmiy veb-saytida O‘zbekiston: maktablarning yopilishiga o‘z vaqtida javob nomli maqola e’lon qilindi[2].

Maqolada bank mutaxassislarining ta’kidlashicha, 22-aprel holatiga ko‘ra 180 dan ortiq mamlakatlarda maktablarni yopish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi kamida 1,7 milliard o‘quvchiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Maktablarning uzoq vaqtga yopilishi oz fursatda nafaqat ta’lim sifatining, balki inson kapitalining rivojlanishi va iqtisodiy imkoniyatlarning ham pasayishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston, ko‘plab davlatlar singari, koronavirus tarqalishining oldini olish uchun barcha maktablarni yopishga majbur bo‘ldi. Qaror 15-mart kuni, mamlakatda COVID-19 ning birinchi holati ro‘yxatga olinganida qabul qilindi. Ikki kun o‘tgach, Xalq ta’limi vazirligi karantin davrida umumta’lim maktablarning 6,1 million nafar o‘quvchilari uchun masofadan turib onlayn ta’lim berilishi haqidagi Hukumat qarorini e’lon qildi.

Maqolada qayd etilishicha, O‘zbekistonda internet tezligi va aholini qamrab olish ko‘rsatkichlari yuqori emas. Shu sababli, Xalq ta’limi vazirligi mamlakatdagi barcha o‘quvchilarga onlayn ta’lim yetib bormasligi mumkinligini tan oldi. Mamlakatda raqamli televidenie aholini 100 foiz qamrab olganini e’tiborga olgan holda televizion darslarni ishga tushirish masofaviy ta’lim bilan aholini ommaviy qamrab olish uchun yagona imkoniyatdir, deya ta’kidlaydi Jahon banki mutaxassislari.

2020-yil 19-may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida yangi tahrirdagi Ta’lim to‘g‘risidagi qonun loyihasi tasdiqlandi.

Qonun loyihasini takomillashtirish maqsadida mas’ul qo‘mita hamda ishchi guruh tomonidan bir necha bor muhokamalar o‘tkazildi. Tegishli vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida loyihaning qoida va normalari maromiga yetkazildi.

Xususan, qonun loyihasini takomillashtirish jarayonida 238 ta normaga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi, 123 ta norma chiqarib tashlandi. Ularning o‘rniga 54 ta yangi to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi normalar kiritildi. Ortiqcha ma’muriy tartib-taomillar va tartibga solishning eskirgan mexanizmlarini bartaraf etish hisobiga kiritilgan 7 ta moddadan butunlay voz kechilib, aniq sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi 9 ta yangi modda kiritildi.

E’tiborlisi, qonun loyihasiga inklyuziv ta’lim tushunchasi ham singdirilgan. Bu esa har bir bolaning ta’lim olishdagi teng huquqliligini ta’minlash har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, loyihada amaldagi qonunda, umuman, qonunchilikda ko‘zda tutilmagan yangi qoida yurtimizda yoshidan qat’iy nazar, katta yoshdagilar uchun ham umri davomida bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab borish imkoniyati belgilangan.

Xalq ta’limi tizimida so‘nggi 10 yillar ichida AKTni joriy qilishda bir muncha oqsoqliklar borligi hammamizga ma’lum.

Yaqin kelajakda mamlakatimizda axborot texnologiyalari qo‘shimcha emas, balki ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi shubhasiz.

[1] www.oo.uzedu.uz

[2] www.uzedu.uz

Xalq ta’limi vaziri Sherzod Shermatovning sa’y-harakatlari bilan ta’lim tizimida AKT va onlayn maktab loyihasini qisqa muddatda joriy qilinganligi ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlardan biri ekanligini bugungi kunning o‘zi ko‘rsatib, yana bir bor isbotlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning koronavirus bilan bog‘liq vaziyat bo‘yicha xalqqa murojaati, 2020-yil 18-mart.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4306 Qarori, 2019-yil 3-may.
3. Respublika maxsus komissiyasining 2020-yil 15-martdagi yig‘ilish bayoni.
4. Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 17-martdagi 82-sonli buyrug‘i.
5. Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 24-martdagi 87-sonli buyrug‘i.
6. URL: www.president.uz
7. URL: www.uzedu.uz
8. URL: www.itsm.uz
9. URL: www.oo.uzedu.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘QISH MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Muhiddinova Gulnora -Namangan tumani
2-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.
Tel:97-591-27-20

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish malakalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan bo‘lib,ongli o‘qish orqali hayotiy voqealar tasvirini o‘quvchilarga to‘laqonli yetkazish, barcha asarlardagi obrazlar va voqealikka yozuvchi qarashlarini tushuntirish orqali tarbiyaviy maqsadlar amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar:Ongli o‘qish,sidirg‘a o‘qish, obraz,pedagogik, psixologik.

Mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi jamiyatimizda yangicha ong, tafakkurga ega bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashda asosiy poydevordir desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Chunki dasturning bosh g‘oyasi komil inson va malakali mutaxassislarni tarbiyalashdan iboratdir. O‘quvchilarni o‘qish malakalarini takomillashtirish va ularga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishda darslarda o‘rganiladigan badiiy asarlar, ularning g‘oyasi undagi obrazlar muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘qish darsliklarida ko‘proq badiiy asarlar, undagi obrazlar orqali kishilarning hayotiy tajribalari, tabiat jamiyatdagi voqea – hodisalar nafis so‘zlar bilan san’atkorona yoritilgan bo‘ladi. Shunday ekan har bir o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun ularni avvalo og‘zaki nutqlarini boyitishga ahamiyat beriladi.

Har bir dars pedagogik, psixologik, metodik tomondan to‘g‘ri tashkil etilishi, didaktik talablarga amal qilgan holda o‘tkazilishi kerak. O‘qituvchi darsda vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi, undan unumli foydalanishi zarur. O‘qish darsi o‘zining mazmuni va mundarijasi jihatidan boshqa darslardan farq qilishi va ta’limda yetakchi ahamiyat kasb etishi maqsadga muvofiqdir. Darsni tashkil etishda bolalar e’tiborini qiziqarli misollarga jalb qilish, ko‘rgazmali qurollarni maroq bilan tomosha qilishga qaratish, shu yo‘sinda asosiy mavzuga o‘tish lozim. O‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rishda, ko‘rgazmali qurollar tayyorlashda o‘quvchilarning didini, nafosat tarbiyasini o‘stiradigan materiallar tanlashi, uning o‘zi esa darsga hamisha yaxshi kayfiyat bilan kirishi, o‘quvchilarda ham yaxshi kayfiyat hosil qilishi kerak. O‘quvchi dars davomida har bir o‘tiladigan mavzuni tushuntirishda ovoz chiqarib o‘qishi uchun awal uni ruhan tayyorlash lozim. Uning o‘qishini atrofdagilar, o‘rtoqlari, o‘qituvchi yoki uyda ota-onasi, aka-ukalari eshitayotganini his va idrok etishi lozim. Shundan so‘ng u o‘rtacha ovozda har bir tovush, bo‘g‘in, so‘z va gaplarni to‘g‘ri talaffuz qilib o‘qishi, gaplar orasidagi to‘xtamlarga rioya qilishi, tinish belgilari uchraganda ovozni pasaytirish yoki to‘xtash lozimligini bilish kabilarga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Mazkur o‘qish turi deyarli har darsda, uyda surunkali ravishda takrorlanishi va o‘qituvchi, ota-ona tomonidan nazorat qilinishi lozim. Buning uchun matnni sidirg‘a o‘qitilavermay, balki tanlab o‘qitish metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

O‘quvchining ongli o‘qish malakasini oshirish uchun matnlardan so‘ng berilgan savol va topshiriqlarga ularning munosabatlarini aniqlash, matn mazmunini erkin ravishda so‘zlab bera olish uquvini tarbiyalash lozim. O‘qish darsliklarida berilgan,,Sanog‘idan adashmadi”,,,Kuy sehri”,,,O‘quvchiga esdalik”,,,Ish ishtaha ochar”,,,Musavvir Qorbobo”,,,Maqtanchoq ayiq”,,,Dehqon-bobo” kabi bir qator matnlarning mazmunini tushunib, ma’lum xulosa chiqarish uchun o‘qituvchi bolalarga yo‘llanma berishi, ularni faollashtirishi kerak.[1]O‘qish darslariga qo‘yilgan talablar bir-biriga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bolalar ongli o‘qishga o‘rganmasalar ifodali o‘qish unsurlarini yaxshi o‘zlashtira olmaydilar. Yoki ravon, tushunarli o‘qimasalar o‘qish tezligini oshirish mumkin emas. Demak, o‘qish turlari o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liqligini o‘qituvchi e’tiborga olishi, dars jarayonida ulardan navbat bilan foydalanishi, o‘quvchilarni hamma turdagi o‘qishga o‘rgatishi, o‘rtacha ovozda o‘qishga odatlantirishi lozim. Shunday qilinganda bolalar sekin-asta hamma o‘qish turlarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Adabiyotlar:

1.G.Boymurodova,X.Sattarova-O‘qish-3 (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma)”Sharq”-T.;2016

[1] Q. Abdullayeva, M. Umarova 2-sinf o‘qish darsligi Toshkent 2012 y

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARINING TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O‘RNI

Muminova Muborak Belyalovna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
29-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘qish darslari o‘quvchilar fikrini va nutqini o‘stirish, vatanga muhabbat ruhida tarbiyani amalga oshirish hamda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan ham boshqa fanlar orasida alohida o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: o‘qish darslari, matematika, yozuv, tabiatshunoslik, rasm, musiqa, jismoniy tarbiya, mehnat ta‘limi, ifodali o‘qish, nutqini o‘stirish

Boshlang‘ich sinfda o‘qish darsi o‘z mazmuni, o‘quvchilar fikrini, dunyoqarashini, nutqini, bola shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshqa o‘quv-predmetlari orasida muhim o‘rin tutadi. O‘qish darslari jarayonida o‘quvchilarning o‘qish malakalari takomillashadi. O‘quvchilarning to‘g‘ri, ravon, ongli va ifodali o‘qish, badiiy asar g‘oyasini tushunish, asar yoki voqea-hodisaga o‘z fikrini bildira olishqobiliyatlari o‘sib boradi. O‘qish kitobidagi turli she‘rlar, hikoya va maqollarni o‘qish va ular ustida ishlash natijasida o‘quvchilarda borliq va voqelik haqidagi bilimlari, tushunchalari kengayib boradi. O‘quvchilar ta‘limning dastlabki kunlaridan boshlab tabiat, jamiyat, kishilar mehnati va hayvonlarning yashash faoliyatlari haqida va bir qator shunga o‘xshash bilimlarni o‘zlashtirib boradilar.

Birinchi sinfda savod o‘rgatish davri tugagandan so‘ng o‘qish darslari boshlanadi va keyingi sinflarda davom ettiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarga matematika, yozuv, tabiatshunoslik, rasm, musiqa, jismoniy tarbiya, mehnat ta‘limi kabi fanlardan boshlang‘ich bilimlarni berib boradilar. O‘qituvchi uchun eng muhimi shundan iboratki, bola o‘zi olayotgan bilim, unda shakllanadigan his-tuyg‘u hayotda zarur va ahamiyatli ekanini tushunib yetsin. O‘qish darsi orqali o‘quvchilarga mana shunday xislatlarni singdirib boriladi. Bu o‘rinda o‘qish darslari muhim o‘rin tutadi. Sinfda o‘qish darslarida quyidagi vazifalar bajariladi:

1. O‘qish malakalarini takomillashtirish, o‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari, to‘g‘ri, tez ongli, ifodali o‘qish malakalarin shakllantirish;
2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg‘otish, Qanday tovushni anglatishini bilgan holda tez, ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qiy oladi.

O‘qish darsini yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi esa boshqa fanlarni ham tez va osongina o‘zlashtiradi. Ana shunday ekan, savod o‘rgatish davridan boshlaboq o‘quvchilarni darsga qiziqishini oshirish, ularni to‘g‘ri, ravon, xatosiz, ifodali qilib o‘qishga o‘rgatib borish kerak.

O‘qish darslari o‘quvchilar fikrini va nutqini o‘stirish, vatanga muhabbat ruhida tarbiyani amalga oshirish hamda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan ham boshqa fanlar orasida alohida o‘rin tutadi. Chunki o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘qishni tugutish bilan bir qatorda turli narsalar va ko‘rgazmali qurollar yordamida ularning tasavvur tushunchalarini kengaytiradilar. Dars davomida o‘tilgan turli badiiy asarlar orqali asarda ishtirok etgan obrazlar namunasida tarbiyaviy ta‘sir o‘tkaziladi.

Mana shu ta‘sir o‘quvchilar hayotida ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi, ularni axloqiy yo‘lga yetaklashi lozim. O‘qish darslarining asosiy qismini o‘quvchilarning o‘qishiga ajratish lozim. O‘quvchilar turli xildagi aniq topshiriqlar asosida bir marta o‘qitiladi va o‘qish mas‘uliyatlari orttirib boriladi. O‘quvchilarga qo‘yiladigan bunday talablar va topshiriqlar dastlab sodda va oson bo‘lib, asta-sekin murakkablashtirib boriladi. O‘qish darslari davomida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish va nutq o‘stirish masalasiga alohida e‘tibor beriladi. O‘qish darslarini o‘tishda darslikdagi va boshqa turli xil rasmlardan foydalanib Shu asosda suhbat o‘tkazish o‘quvchilarning so‘zlashuv natijasida og‘zaki hikoya tuzdirish, she‘r, topishmoq va maqollarni yoddan aytirish singari turli o‘qitish usullaridan foydalanib darsni tashkil etish mumkin.

O‘qish darslarida o‘qitish va so‘zlab berish jarayonida o‘quvchilarning adabiy talaffuz normalariga rioya qilishlari talab qilinadi. Buning natijasida o‘qituvchi o‘quvchilarni tiniq va ravon so‘zlashlari, har bir so‘z tinglovchilar e‘tiborini o‘ziga jalb qilishi kabi nutq malakalarini egallashlariga katta hissa qo‘shgan bo‘ladi. O‘qish kitobidagi turli janrlarga xos bo‘lgan badiiy

asarlarni o‘qish va ular ustida ishlash orqali o‘quvchilarning borliq, voqelik haqidagi tasavvur tushunchalari kengayadi.

Birinchi sinfda o‘quvchilar ongli, to‘g‘ri va bir me‘yorda bo‘g‘inlab o‘qish malakalarini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar asta-sekin bartaraf etiladi. O‘quvchilar o‘qigan matnlarining mazmunini o‘qituvchining yordamchi savollari asosida, hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib so‘zlab berishga o‘rgatib boradilar.

Ikkinchi sinf o‘quvchilarida so‘zni butunicha o‘qish malakalari shakllanadi va ongli, to‘g‘ri, ifodali o‘qishga intilish yaqqol seziladi, o‘qish tezligi ortadi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay o‘qiy boshlaydilar. O‘qituvchi rahbarligida o‘qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlaydilar, undagi ayrim voqea-hodisalarni so‘z bilan tasvirlashga o‘rganadilar.

3-sinfda o‘quvchilar so‘zlarni butunicha o‘qish malakalarini to‘la egallab, ongli va ifodali o‘qishga ko‘proq e‘tibor qaratadilar. O‘qilgan matn mazmunini mulohaza qilish, voqealar yo‘nalishini aniqlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. 3-sinf o‘quvchilariga o‘zaro fikr oliShuv jarayonida xalq maqollari va obrazli iboralardan o‘rinli foydalanish adabiy talaffuz normalariga rioya qilish o‘rgatiladi.

4-sinfda esa o‘quvchilar matndagi so‘zlarni butunicha, ma‘nosiga tushunib, to‘g‘ri o‘qish malakalrini egallaydilar. O‘qiganlari mazmunini qayta hikoyalash, matnlarni qismlarga bo‘lish va sodda reja tuzish vazifalarini mustaqil bajara oladilar.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish asosiy dars, o‘quv-predmetlaridan biri sifatida o‘qitib boriladi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qishni o‘rgatish ularga tarbiyaviy ta‘sir etish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ya‘ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga darslar davomida bilim berish bilan bir qatorda ularga iroda, e‘tiqod va yaxshi xislatlarni tarkib toptiriladi va ularni qiziqish, qobiliyat va iste‘dodlarini o‘stirish vazifalarini ham bajariladi. O‘qish darslaridagi barcha asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarga tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov I.A.Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.

2. Boshlang‘ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim., 2006, 5- son .

3. Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: ―Fan‖, 2006-yil

MATEMATIKA DARSIDA O‘QUVCHILARNING FANGA QIZIQISHINI SHAKILLANTIRISH.

Muqimova Qandolat Bobonazarovna. O‘qituvchi
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 12- umumiy o‘rta ta’lim maktabi
xulfizar@gmail.com +998-93-310-19-04

Annotatsiya: Ushbu maqola matematika fanining o‘quvchilar bilim saviyasini shakillantirishdagi o‘rni. Bundan tashqari o‘quvchilarning aqliy qobilyatini shakillantirish, raqamli texnologiyalarga bo‘lgan munosabatlarni oshirish haqida.

Kalit so‘zlar: Al-Xorazmiyning bugun va kelajak uchun qo‘shgan hissasi, matematika sirlari, matematikaning qiziqarli mavzulari, matematikada sonlar, ma’lumotlar,

Matematik, o‘z ishida matematikadan ko‘p foydalanadigan, hamda matematik masalalarni yechadigan kishi. Bugungi hayotimizni ilm-fan texnika yangiliklarsiz tasavvur qilish qiyin. Ammo bu yangiliklar bizga sir emas. Chunki bizning ota-bobolarimiz buyuk matematik astronom bulib, o‘z hayoti va ijodi davomida ko‘plab hozirgi kunda dunyo mamlakatlari foydalanib kelayotgan asarlar qoldirgan. Shu insonlardan biri bobokalonimiz Al-Xorazmiy.

Algebra fanining asoschisi buyuk matematik, astronom, geograf, fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardan. Xorazmiyning 10-tacha asari to‘liq, qisman yoki ayrim parchalar tarzida yetib kelgan. Shu asarlarning o‘ziyoq ko‘rsatadiki, Xorazmiy insoniyat sivilizatsiyasiga buyuk hissa qo‘shgan olimdir. Amerikalik fan tarixchisi George Sarton Xorazmiyni „O‘z zamonasining eng buyuk matematigi, agar barcha holatlar e’tiborga olinsa, barcha zamonlarning eng buyuk matematiklaridan biri“, deb baholagan. Bunday baho Xorazmiyning matematika tarixida tutgan beqiyos o‘rni sabab.

Xorazmiy algebra faniga asos solgani, bu fan atamasi uning „Kitob muxtasar min hisob aljabr valmuqobala“ („Aljabr valmuqobala hisobi haqida qisqacha kitob“) asari nomidan kelib chiqqani yaxshi ma’lum. Lekin ba’zan Xorazmiy faqat o‘zidan avval ma’lum bo‘lgan chiziqli va kvadrat tenglamalar yechish usulini tizimga solgan, degan nuqtai nazar uchraydi. Bu fikr Xorazmiy asari shu mavzudan boshlanganligi tufayli paydo bo‘lgan. Holbuki, Xorazmiyning kitobi, birinchi navbatda, algebraik hisobga bag‘ishlangan. Bu shundan ham ko‘rinadiki, kitob nomi ikki muhim algebraik amal – aljabr va almuqobala bilan atalgan. Xorazmiy algebraik amallarni, avval tenglamalarni yechishda qanday qo‘llanishini bayon etib, so‘ng algebraik shakl almashtirishlariga o‘tgan. Aks holda kitobning maqsadini tushunish qiyin bo‘lar edi. Xorazmiy asari 12-asrning boshlarida kremonalik Gerardo, chesterlik Robert tomonidan lotinchaga tarjima qilingan, nomi qisqarib „aljebra“ (fransuz, ingliz tillarida), „algebra“ (nemis, rus tillarida) deb atala boshlagan va fan nomiga aylanib ketgan.

Al-xorazmiyning sivilizatsiya taraqqiyotida sonlar va arifmetik amallar qanday o‘rin tutishi ravshan, busiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur qilib ham bo‘lmaydi. Bugun umumbashariy madaniyatning eng oddiy unsuriga aylanib ketgan sonlarni o‘nli sanoq sistemasida yozish va ular ustida arifmetik amallarni bajarish qoidalari Xorazmiyning „Arifmetika“ asari tufayli joriy bo‘lgan. Shu tufayli Xorazmiyning kitobi ham, o‘nli sanoq sistemasi ham tez orada Sharqiy Turkistondan Ispaniyagacha bo‘lgan hududdagi musulmon dunyosiga, 12-asrdan boshlab Yevropaga tarqalgan. Shuning uchun Xorazmiyni butun insoniyatni arifmetika x* o‘rgatgan ustoz hisoblash mumkin.

1983-yilda Xorazmiy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan uning barcha asarlari rus tilida (A.Axmedov, Adolph-Andrei Pavlovich Yushkevich, B.A. Rozenfeld va boshqalar tarjimalarida) hamda tanlangan asarlari o‘zbek tilida (A. Axmedov tarjimasida) nashr etildi.

Xorazmiy ilmiy merosini o‘rganish va uning fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini targ‘ib qilishda nomlari yuqorida zikr etilgan olimlardan tashqari J. Sarton, E.S. Kennedi, D. King (AQSH), S.A. Nallino (Italiya), Xorazmiy Zemanek (Avstriya), A. Allar (Belgiya), R. Rashed (Fransiya), S. Brokelman, D. Samploinius (Germaniya), M. M. Rojanskaya (Rossiya) va boshqalar ham muhim hissa qo‘shgan.

O‘zbekistonda Xorazmiy hayoti va faoliyati bilan birinchi bo‘lib T.N. Niyoziy qiziqqan. 1960-yillardan S.H. Sirojiddinov va G.P. Matviyevskaya rahbarligida Yaqin va O‘rta Sharq fani tarixi, jumladan, Xorazmiy merosini o‘rganish va dunyo miqyosida targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamda ilmiy tadqiqotlar boshlab yuborildi. 1983-yilda buyuk olim tavalludining 1200

yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy anjuman (Moskva, Toshkent va Urganch shahrida) Xorazmiyning jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rnini belgilashda muhim tadbir bo‘ldi.

Hozirgi kunda Urganch davlat universiteti, O‘zbekistonning turli joylarida ko‘plab maktab va boshqa ob’yektlar „Xorazmiy“ nomi bilan atalgan. Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Matematikani yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘ladi va istalgan sohada ishlab ketadi” deb aytib o‘tgan.

Bugungi kunda yoshlarni matematika faniga qiziqtirish maqsadida xalqaro olimpiadalar o‘tkazilmoqda. Yana bir quvonarli xabar shundaki 2019-yil Toshkent shahrida Al-Xorazmiy nomidagi matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktab ochildi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, yoshlarimiz matematika fanining kelajak hayotda tutayotgan o‘rni, raqamli texnologiyani rivojlantirish, insoniyat tarixida yangi matematika asri kelganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.

YUKSAK ODOB-AXLOQLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA TA'LIM MUASSASALARIDA HADIS SABOQLARINI O'RGATISHNING DOLZARBLIGI

Muqimova Osiyoxon Adahamovna
Asaka tuman 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
Telefon: +998 93 246 08 41

Annotatsiya: Maqolada buyuk ajdodlarimiz, ularning meroslari, jumladan, hadislarning insonlar, yosh avlodning tarbiyasida tutgan muhim o'rni va ahamiyati to'g'risidagi hayotiy mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: hadis, tamaddun, ma'naviy tahdid, e'tiqod, axloqiy tarbiya, bo'shliq,milliy qadriyat va an'ana, "muhaddislar sultoni", "musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi", "din va millatning hujjati", hadis saboqlari

Ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy meros, ularning bunyodkorlik g'oyalari hamda ezgu ta'limotlari yoshlarni imon-e'tiqodli, vatanga sadoqatli, oliyjanoblik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Farzandlarimizning ajdodlarimiz kabi dunyo tamadduni rivojiga xizmat qila oladigan bo'lib kamol topishini ta'minlash bugungi kunimizning dolzarb vazifasidir.

Qur'oni karim, hadisi sharif va ulug'larning o'gitlarida inson ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan odob-axloq va tarbiyaning barcha jihatlari o'z ifodasini topgan. Axloqiy tarbiya inson kamolotining ajralmas qismi hisoblanadi. Hadisi shariflarda insonlarning yaxshisi go'zal xulqli va chiroyli muomalali kishilar ekanligi ta'kidlangan. Bir hadisda "Albatta, sizlarning eng yaxshilaringiz xulqi yaxshilaringizdir" deyilib, go'zal axloq ulug'langan.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida ham farzandlar tarbiyasi va ularni barkamol avlod bo'lib yetishishida odob-axloqning o'rni katta ekani alohida aytib o'tilgan.O'tgan allomalar, buyuk insonlar e'tirof etganidek, farzandlarga ilm-ma'rifat, chiroyli odob-axloqni o'rgatish savobli amallardan hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar barcha jabhalarda oldinda bo'lishlari uchun, avvalo, go'zal odob-axloqli bo'lishlari lozim. Har bir zamonlarda farzand tarbiyasi muhim hisoblangan va bu haqda ko'p yozilgan.Lekin bu mavzu eskirmaydi. Chunki har qaysi zamonda kelajak avlodni, ya'ni yoshlarni turli xurujlardan, yovuzliklardan muhofaza qilish doimo dolzarb bo'lgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning : " Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir "degan so'zlari jamiyatimizda yashovchi har bir ota-onaning, pedagoglarning, qolaversa, millat taqdiriga befarq bo'lmagan insonlarning shioriga aylanishi kerak. Bizning zaminimizda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalarimizning o'lmas asarlari, ilmiy merosi yoshlarimizning bebaho mulkiga aylanishi uchun olib borilayotgan faoliyatimizni kuchaytirishimiz kerak. O'quvchi –yoshlarimizni kitobsevarlikka o'rgatish orqali bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar ularning mulkiga ma'naviy boyligiga aylanishi zarur.

Muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat hamda bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib turar ekan,Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Xo'ja Ahrori Valiy singari aziz avliyolarning ta'limotlarini zamonaviy –kommunikatsiya vositalari: ixcham kinofilmlar, disklar, animatsiyali tasvirlar, videokliplar yordamida yoshlarning didiga mos tarzda tushuntirib borish lozim.Bizning ushbu mavzuga alohida to'xtalishimizning qator sabablari bor .

Davrning taraqqiyotidan kelib chiqib, bugungi kunda juda ko'pchilik Yevropa madaniyati, Amerikacha yashash hayot tarzi bilan o'zlarini "madaniyatli "deb hisoblaydi. Koreya tarixi yoki Turkiya sultonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq biladigan yoshlar, balki yoshi kattalar orasida ham Imom Moturidiy kim, Burxoniddin Marg'inoniy qanday yuksak unvonga sazovor bo'lganligi haqida biladiganlari juda ozchilikni tashkil etadi. Albatta, bu masalada ularni

ayblab bo‘lmaydi. Mustabid sho‘ro tuzumi davridagi hayotimiz va uning asoratlari milliy ma’naviyatimizning rivojlanishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymagan. Xalqimiz tarixi soxtalashtirilgan, butun dunyo hozirda tan olayotgan ulug‘larimiz haqida to‘liq ma’lumotlar aytish taqiqlangan. ”Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi” degan xalqimizning dono maqoli bor. Darhaqiqat, mustaqillik sharofati bilan asliyatimizni tanidik, o‘zligimizni ko‘rsata boshladik. Xalqimiz nurli kelajak sari dadil qadam tashladi. Yo‘llarning nurafshon bo‘lishida ajdodlarimizning merosi alohida o‘ringa ega. O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q. Bu haqiqatni unutmagan holda yoshlar ong-shuuriga ham singdira olishimiz shart.

Go‘zal axloq inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilatdir.Muqaddas islom dinimiz insonda go‘zal axloqiy fazilatlarni, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi qarashlarni mujassam etgan, ularni barqaror shaklda mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit tizimidir. Insoniylik, mehr-oqibat, halollik, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizgamansub bo‘lgan fazilatlar diniy va axloqiy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan Qu’rondan keyin turadigan hadislarda ko‘rsatilgan. Hadislarda islom dinining qonun qoidalari bilan birgalikda insoniylik fazilatlari keng tashviq qilinadi, insoniylik sha’niga dog‘ tushiradigan yomon sifatlar qoralanadi. Hadislarda o‘zaro do‘stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, poklik, adolat, insof-tavfiqli bo‘lish targ‘ib qilingan. Razolat, kibr-u havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg‘onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nafrat tuyg‘ulari ifodalangan. Bugungi kunda islom dininga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko‘payib borgani hech kimga sir emas.Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag‘rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o‘zini oqlagan qadriyat va an’analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq.

Hozirgi kunda islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g‘arazli maqsadda ularni teng qo‘yish kabi holatlar uchrab turibdi. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, ulardan o‘zining nopok maqsadlari yo‘lida foydalanmoda.Bunday nojo‘ya harakatlar yoshlarning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini anglashimiz va xulosa chiqarishimiz kerak. Buning uchun har qaysi ustoz va murabbiy mustaqil, kengfikrli, qobiliyatli, komil insonlar tarbiyasida ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan asarlarni, hadislarni tarbiyalovchilarga yetkazishi lozimdir.

Ko‘p yillik pedagogik tajribamizdan kelib chiqib, umumta’lim muassasalarining 9-11 sinfidan “Hadis saboqlari ”darslarini tashkil qilishni taklif etamiz.Albatta, bu darslarni diniy bilimga ega, madrasa ko‘rgan domla va imomlar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.Hozirda maktablarda dunyoviy ilm sirlari o‘rgatiladi.Lekin mustaqil hayot bo‘sag‘asida turgan yoshlarga hadis saboqlarini uqtirish ularni xudbin, ota-onasini, yaqinlarini, Vatanini tan olmaydigan, axloqiy tuban, giyohvand, faqat boylik orttirishga intiladigan kimsalar bo‘lib qolmasliklarida muhimdir. Farzandlarimiz butun musulmon olami tan olgan:

* “Muhaddislar sultoni”—Imom Buxoriy
- “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” –Imom Moturidiy
- “Din va millatning hujjati” –Burhoniddin Marg‘inoniy
- “Bahouddin Balogardon”—Bahouddin Naqshband
- Abu Iso Muhammad ibn Termiziy
- Abu Lays Samarqandiy
- Abul Mu’in Nasafiy
- Qaffol Shoshiy
- Mahmud Zamaxshariy

kabi buyuk allomalarimiz haqida, ularning asarlari mazmun-mohiyati to‘g‘risida mukammal bilishi yoshlarimizning barkamol shaxslar bo‘lib yetishishida juda katta ma’naviy saboq bo‘ladi.

Hikmatlardan birida yozilishicha, insondagi yovuzlik va ezgulik ham, zararkunandalik va hojatbarorlik ham tarbiyaning mevasidir. Hadis saboqlari –yoshlarga ezgu fazilatlarni singdirishda, ularni barkamol avlod bo‘lib yetishishida, buyuklarga munosib vorislar bo‘lishida juda muhimdir.

Hadislar o‘quvchilarda

- Ilm o‘ganish farzligini
- Ilm-ma’rifatning afzalliklarini
- dunyoni anglashda ilmning o‘rnini

- ota-onalarga mehribonlik – baxt kaliti ekanligini
- kasb-hunar o‘rganish fazilatlarini
- jismoniy sog‘lom bo‘lish qoidalarini
- vatanga muhabbat –yuksak tuyg‘uligini
- insonlarga mehr-muhabbatni yanada kuchaytirishda dunyoviy ilmlar qatorida alohida soatlar ajratilib o‘qitilsa, yoshlar biz orzu qilgan insonlar bo‘lib ulg‘ayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”
2. Imom Ismoil al-Buxoriy.”Al-adab ai-mufrad”
3. Rahimdjonov D. va b.”Ilm –ma’rifatning fazilatlari”

BIOLOGIYANI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI NAZORAT QILISHNI MODERNIZATSIYALASH.

Muratov Mirtoxir Mirxalil o‘g‘li
mirmuratov@9713gmail.com
Rizaqulov Umrbek Jo‘raboy o‘g‘li
rizaqulovumrbek@gmail.com
Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiy fanlar fakulteti
IV bosqich talabalari, Toshkent O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologik ta’limni tashhislashning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish, ular yordamida o‘quvchilarning ilmiy fikrlash doirasini rivojlantirish hamda xalqaro baholash dasturlariga o‘quvchilarni tayyorlab borish borasida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: nazorat qilish, tashhis, didaktik jarayon, innovatsion faoliyat, interfaol metod, o‘quv bilish faoliyati, syujetli-rolli o‘yin, didaktik o‘yinli dars, kontekst, grafik tasvir.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotiga yangicha qaraydigan mustaqil fikrlovchi, ishbilarmon, buyuk kelajak poydevorini quruvchi yoshlarni tarbiyalash respublikamiz pedagoglari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.Ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat ta’lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o‘quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo‘yilayotganligi, ta’lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o‘quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo‘llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng ko‘lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko‘zga tashlanayotgan bir vaqtda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

Ta’limda nazorat va baholash haqida so‘z yuritishdan avval, bu ikki jarayonni o‘z ichiga oluvchi tashhis tushunchasiga ta’rif berib ketmoqlik o‘rinli bo‘ladi. Tashhis - bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak.

Nazorat tushunchasi ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, o‘lchash va baholashni anglatadi. Aniqlash va o‘lchash esa tekshirish deb ham ataladi. Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida teskari aloqani ta’minlash, pedagog tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish haqida ob’ektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashni ta’minlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o‘quvchining bilim darajasi, sifati, shuningdek, uning o‘quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat. Nazorat maktabdagi o‘qitish jarayoniga xos bo‘lgan:ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantirishdek asosiy vazifalarni bajaradi. [1]

Bugungi kunda pedagoglar oldida turgan vazifa faqatgina o‘quvchilarda ilmiy bilimlarni tarkib toptirish emas, shuningdek, bu bilimlarni hayotda qo‘llay olish va ilmiy fikrlashni shakllantrish hamadir. O‘quvchilar asosan nazorat o‘tkaziladigan vaqtda o‘zlashtirgan bilimlarini qo‘laydilar. Manashu munosabat bilan o‘qituvchi zimmasiga nazoratni turli metodlar bilan boyitishi vazifasi qo‘yiladi. Bunda biologiya o‘qituvchisining innovatsion fa’oliyati yaxshi takomillashgan bo‘lishi kerak.

XXI-asr biologiya o‘qituvchisi axborat yetkazish, raxbarlik, interfaollik, tashkilotchilik, o‘quvchilarga tegishli maslahat berish, nazorat, tarbiyaviy, tadqiqot, innovatsion va loyihalash funksiyalarini egallagan bo‘lishi lozim. [2]

Pedagog o‘quvchilarning ilmiy fikr yuritish ko‘nikmasini shakklantirishi zamirida nazoratni innovatsion shaklada amalga oshirishi yotadi. Boshqacha qilib aytganda, an’anaviy shakllardan chetga chiqqan holda joriy hamda bosqichli nazoratlarga yanglik kiritishi va hamda zamonaviy interfaol metodlarni qo‘llab o‘quvchilarda o‘quv bilish faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat uyg‘otish bugunki kunning dalzarb masalaridan biridur.

Darslarni innovatsion texnologiyalarga asoslanib tashkil etish orqali ham uning samaradorligini oshirish mumkin. Didaktik o‘yinli darslardan biri bo‘lgan syujetli-ro‘lli o‘yin ko‘rinishdagi dars bunga yorqin misol bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni,

tabiat ob'ektlari va tabiiy hodisalar o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritadilar. Muhim jihati didaktik o'yinli dars orqali o'qtuvchi o'quvchilar bilimlarini nazorat va tahlil qilishga erishadi. Syujetli-rolli o'yin darsi nazorat qilishni innovatsion ko'rinishda tashkil etishga ko'maklashibgina qolmasdan, o'quvchilarni PISA xalqaro baholash dasturining kompetensiyalarini o'zlashtirishga dastlabki qadam bo'ladi. Chunki, syujetli-rolli o'yinlarda o'quvchilar ijodiy fikrlashi, o'zlarida mujassamlashgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin. Yana bir jihati shuki, o'yin syujeti jamiyat va tabiatdan olinadi. Bu PISA darsturining kontekslariga bir muncha yaqin.

Zamonaviy ta'limda turli xil grafiklarni tushunish, ular yordamidi ba'zi jarayonlarni talqin etilib kelinmoqda. Grafiklardan foydalangan holda nazoratni amalga oshirish o'quvchilarga grafiklardan informatsiya olish, keyinchalik esa o'zlari mustaqil ma'lumotlarni grafik bilan ifodalash ko'nikmalarini shaklantirishga erishish mukin. Quyida misol keltirilgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, asalari oilalari nobud bo'lishining bir nechta sabablari bor. Ulardan biri imidakloprid insektitsidi bo'lib, asalarilar uning ta'sirida o'z uyalaridan tashqarida yo'nalishni aniqlash qobiliyatini yo'qotadi.Tadqiqotchilar asalari oilalari nobud bo'lishiga imidakloprid ta'sirini tekshirib ko'rishdi. Ular uch hafta mobaynida ayrim asalari oilalarining ozuqasiga mazkur insektitsiddan bir kilogramm ozuqaga mikrogramm miqdorda (mg/kg) qo'shishdi. Ba'zi asalari oilalariga insektitsid umuman ta'sir ettirilmadi.Insektitsid ta'sir ettirilgan asalari oilalarining hech qaysisi darhol nobud bo'lmadi. Biroq 14-haftaga kelib, ayrim asalari uyalari bo'shab qoldi. Quyidagi grafikda kuzatish natijalari keltirilgan. [3]

Xulosa qilib aytganda, nazorat o'tkazishni modernizatsiyalash masalasi o'zida bir qancha muhim masalalarni jamlaydi. Nazorat o'tkazishga turli innovatsiyalar kiritish o'qituvchining innovatsiyon faoliyatiga bog'liq bo'lib, bu orqali o'quvchining ilmiy fikrlashini o'stirish, bilish faoliyatini ijobiy xarakter kasb etishiga erishish va xalqaro tadqiqotlarga o'quvchilarni tayorlashda dastabki ko'nikmalarni hosil qilishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 . Ibragimov X, Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. Darslik. b231.

2 . Tolipova J.O Biologiya o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik. Toshkent-2014. B 14

3 . Ismailov A.A va boshqalar, Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash. Metodik qo'llanma. T 2019. B30.

HARFLARNING SHAKLINI TO‘G‘RI YO‘ZISHGA O‘RGATISH

Mustafoyeva Dilnoza Hakimovna
Vobkent tuman 34-umumiy o‘rta ta’lim maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: 91 449 29 28

Annotatsiya: Bu maqola o‘quvchilarni harflarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish ko‘nikmasini shakllantiribgina qolmay bilim, ko‘nikma, malakasini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: Husnixat, husnixat shakllari, yozish malakasi, nusxa ko‘chirish, o‘yin faoliyati.

Boshlang‘ich ta’limda husnixat darslarini o‘ziga xos yangicha qurilish bilan tashkil qilish to‘g‘risidagi uslubiy tavsiyalarning kamligi murabbiylarimizni bir oz ranjitadi. Chunki darsda o‘quvchilar bilan bir xil qolipda ishlash, ularni doimiy qo‘llaniladigan namunaga qarab yozdirish yoki ko‘chirtirish, nusxa ko‘chirish usulidan foydalanish faqat o‘quvchini emas, balki o‘qituvchilarimizni ham zeriktiradi.

Yozuv va husnixat darslari uchun ta’limiy o‘yinlarni izlab topish o‘qituvchidan kasbiy mahoratni talab qiladi. Ta’limiy o‘yinlarni dars jarayonida tajribadan o‘tkazish mobaynida uning bir qator afzalliklarini bilish mumkin. O‘yinlar xilma-xil bo‘lib, ularni o‘quvchilarning yosh xususiyati hamda yozuv ko‘nikmalarini egallash darajasiga ko‘ra o‘tkazish muhimdir.

Har bir harfning shaklini ongli ravishda egallash, ayniqsa 1-2 sinflarda juda muhimdir.Bu davrda o‘quvshilarda harflarni ko‘rib, eslab qolish va chiroyli yozish qobiliyatlari tarkib topadi.

Har bir harf uchun xarakterli bo‘lgan asosiy va yordamchi ulash elementlarini

bir -biridan farqlash;harflarning bir - biriga nisbatini to‘g‘ri aniqlash ;

har bir harfning yozilish qoidalariga(qayerdan boshlash, qayerda burish, tugunchaklarni bog‘lash va x.)amal qilish; to‘ri va no‘tog‘’ri yozilgan harflarning farqini ajratish. va ulardagi xatolarni tuzatish.

O‘qituvchi doskada shunday elementlar ishtirok etgan kichik i, sh, n harflarini yozib ko‘rsatadi. O‘quvchilar esa daftarlarida har bir harfni bir qatordan yozib mashq qiladilar. O‘qituvchi sinfni aylanib chiqib o‘quvchilarning yozuvlarini kuzatib boradi va o‘quvchilarning yozuvlarini qanday xatolarga yo‘l qo‘yganlarini hisobga oladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi bir necha o‘quvchi yo‘l qo‘ygan tipik xatolarni doskada yozib ko‘rsatadi va bolalardan uning asosiy kamchiligi nimada ekanligini so‘raydi..

O‘quvchilar o‘z xato va kamchiliklarini faqat doskada emas o‘z daftarlarida yozishlari muhimdir. Ba’zi bir o‘quvchilar o‘z xatolarini sezmaydilar, shuning uchun o‘quvchilarga o‘zaro bir -birlarini daftarlarini tekshirtirish ham yaxshi natija beradi.

Ayrim o‘quvchilarga esa o‘qituvchining o‘zi daftarga yozib ko‘rsatishi lozim. Bunday o‘quvchilar o‘qituvchining qo‘l harakatiga qarab turib o‘z xatolarini tuzatishlari mumkin. Ba’zi hollarda o‘qituvchi harflarning shakli haqidagi tasavvurni kengaytirish uchun ruchkani havoda mashq qildirib ko‘rsatishi ham mumkin. O‘qituvchilar chap qo‘llarini parta ustiga qo‘yib, o‘ng qo‘llari bilan ruchkani yuqoriga ko‘targan holda, o‘qituvchining doskadagi harakatini havoda bajaradilar. Bunday bo‘rni ushlash qulay bo‘lib, yozishga osonlik tug‘diradi. Qo‘lni toza tutish maqsadida bo‘rning yarmigacha qooz o‘raladi.

Bo‘rni bosh, o‘rta hamda ko‘rsatkich barmoq bilan ushlanadi va yozish vaqtida ko‘rsatkich barmoq bilan bosib turiladi. Doskada harf va uning elementlarini yozib ko‘rsatishdan oldin bo‘rning uchini tekislab, yozishga moslab olish zarur.

Husnixat mashg‘ulotlarida kichik va yumaloq shakldagi bo‘rlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi, chunki u tegishli chiziqlarni bermaydi va har xil qalinlikda yozadi.

Bo‘rni to‘g‘ri ushlash qoidalariga amal qilishga o‘rgatib borish lozim. Ayrim o‘quvchilar bo‘rni besh barmoq bilan ushlab noto‘g‘ri yozadilar. Bunday o‘quvchilarning qo‘lidan ushlab, mashq qildirish zarur.

O‘quvchilar yozuvchining sifati ko‘p jihatdan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan omillarga boliqdir.

Xulosa qilib aytganda, yozish malakasi o‘qishga qaraganda ancha murakkabdir. O‘qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari, asosan, og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratiladi. Ammo butun bir soatlik dars davomida og‘zaki nutq bilan shug‘ullanish bolalarni zeriktirib qo‘yishi mumkin. Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Matchonov S,G‘ulomova X Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tshkil etish.Toshkent “Yangi yo‘l”nashriyoti 2008

2. G‘afforova T,Nurullayeva Sh.Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qishdan didaktik materiallar.Toshkent.”Ilm ziyo”nashriyoti 2004

3. Boshlang‘ich ta’lim jurnali 11- son 2019- yil

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIGA DARS BERISH JARAYONI AKTNING O‘RNI.

Muxamatova Nulufar Murodullayevna,
Qiziltepa tumani 41-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Telefon:+998(90) 7311720
uktam.bozorov.1987@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich ta’lim jarayonida AKT ning qo‘llanilishi haqida bo‘lib, uning qay darajada ahamiyatli ekanligini yoritib beradi. AKTning ta’limda tutgan o‘rni, nimalardan foydalanish zarurligi haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: AKT, axborot texnologiyalari, boshlang‘ich maktab o‘quvchisi.

XXI asr - yuqori kompyuter texnologiyalarining asri. Zamonaviy bola elektron madaniyat dunyosida yashaydi. Axborot madaniyatida o‘qituvchining o‘rni ham o‘zgarib bormoqda - u axborot oqimining muvofiqlashtiruvchisi bo‘lishi kerak. Shu sababli, o‘qituvchi bola bilan bir xil tilda gaplashishi uchun zamonaviy texnika va yangi ta’lim texnologiyalariga ega bo‘lishi kerak. Ushbu masalaga alohida e’tibor mutaxassislarni ushbu yangi axborot muhitida ishlash uchun tayyorlashga qaratilishi kerak.

Axborot bugungi kunda jamiyat rivojining strategik manbaiga aylanib, bilimlar nisbiy va ishonchsiz narsaga aylanganda, u tezda eskiradi va axborot jamiyatida doimiy yangilanishni talab qiladi, zamonaviy ta’lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) majburiy jalb qilinishi bilan uzluksiz jarayon ekanligi ayon bo‘ldi. .

Zamonaviy sharoitda yangi “kompyuter” an’anaviy “o‘qituvchi - talaba - darslik” sxemasiga kiritilmoqda va kompyuter ta’limi maktab ongiga singdirilmoqda.

Ta’limni axborotlashtirishning tarkibiy qismlaridan biri bu o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Boshlang‘ich maktab uchun bu ta’lim maqsadlarini belgilashda ustuvorliklarning o‘zgarishini anglatadi: boshlang‘ich maktabda o‘qitish va ta’limning natijalaridan biri bolalarning zamonaviy kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirishga tayyorligi va keyinchalik o‘z-o‘zini o‘qitish uchun olingan ma’lumotlarni yangilash imkoniyati bo‘lishi kerak. Ushbu maqsadlarga erishish uchun boshlang‘ich maktab o‘quvchilari uchun turli xil o‘qitish strategiyalarini, birinchi navbatda, o‘quv jarayonida AKTdan foydalanishni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ishlarida qo‘llash zarur.

Boshlang‘ich maktab darslarida AKTdan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- O‘quvchilarning dunyoning axborot oqimlari bo‘yicha navigatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- axborot bilan ishlashning amaliy usullarini o‘zlashtirish;
- Zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda ma’lumot almashish imkonini beradigan ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda darslar ularni yanada qiziqarli, o‘ychan, harakatchan qilishi mumkin. Deyarli har qanday materialdan foydalaniladi, darsga ko‘plab ensiklopediyalar, reproduktsiyalar, audio hamrohliklarni tayyorlashning hojati yo‘q - bularning barchasi oldindan tayyor va kichik elektron vositada joylashgan. AKTdan foydalanish darslari ayniqsa boshlang‘ich maktabda juda muhimdir.

1-4-sinf o‘quvchilari vizual-majoziy tafakkurga ega, shuning uchun yangi narsalarni idrok etish jarayonida nafaqat ko‘rish, balki eshitish, hissiyot, xayolotni ham qamrab olgan iloji boricha yuqori sifatli tasviriy materialdan foydalangan holda ularning tayyorgarligini shakllantirish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анисимов В. В., Грохольская О. Г., Муранов А. А. Организационно-педагогические условия информатизации образования в начальной школе. М.: Изд-во Ин-та общ. образования, 2011. 74 с.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IMLONI O‘RGATISH METODIKASI

Muzapparova Zarafshon Sagiydullayevna
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qoraozak rayoni
8- maktab o‘qituvchisi +998 937186810
Zarafshon.muzapparova@gmail.com

Annotatsiya: usbu maqolada boshlang‘ich sinflarda imloni o‘rgatishning mohiyatini, imlo qoidalarining grammatii nazariyaga bog‘liqligi va darslik bo‘yicha qoidani o‘rganish mashqlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, imlo, grammatika, ta’lim, jarayon, metodika.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning orfografik savodxonligini shakllantirish uchun grammatik nazariyaga bog‘liq tarzda imlo qoidalari o‘rgatib boriladi. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, imloda maxsus bir so‘zni emas, balki umumiy jihati mavjud bo‘lgan so‘zlar guruhining yozilishi tartibga solimadi. Qoidani yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi lug‘atdagi har bir so‘zni yodda saqlab, xotiraga oish qiyinchiliklaridan xalos bo‘ladi. Belgilangam qoidaga amal qilib, xususiyati bir xil so‘zlarni osonlikcha to‘g‘ri yoza oladi.

Imloviy qoidalarni o‘zlashtirish qiyin. Sababi, grammatik, fonetik va so‘z yasalishiga doir nazariy bilimlarni ma’lum darajada o‘rganmay turib, ya’ni nazariya imlo qoidalari mohiyati kalitidir. Shu bois, boshlang‘ich ta’limda imlo qoidalari o‘ziga xos bo‘ladigan grammatik nazariyaga bog‘liq holda tushuntiriladi. Misol uchun, uchinchi sinfda talaffuzda tushib qoladigan undoshlarga doir mashq bajarilgandan keyin shunday qoida keltiriladi: ayrim so‘zlar oxirida kelgan “ d “ va “ t “ undoshlari talaffuz qilinmaydi, lekin yoziladi. Masalan, go‘sht, do‘st kabi. Imlo qoidalari ustida ishlash bevosita grammatik nazariya elementlaridan keyin o‘rgatiladi. To‘rtinchi sinfda ot kelishiklari birma- bir o‘zlashtirilishi jarayonida kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqida ko‘nikma shakllantiriladi. Masalan, o‘rin- payt kelishigi qo‘shimchasini olgan ot *kimda? Nimada? Qayerda? Qachon?* Kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi. Ko‘pincha, fe’lga bog‘lanadi va gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi, degan ta’rif o‘quvchilarga tushuntirilgach, mashq bajariladi va quyidagi imlo qoidalari tushuntiriladi:

- O‘rin- payt kelishigining qo‘shimchasi unlilardan va *y, m, n, p, ng, l* kabi jufti yo‘q jarangli undoshlardan keyij – *da* tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *jalada, cho‘lda, poygada, Andijonda;*
- O‘rin- payt kelishigining qo‘shimchasi jarangsiz undoshlardan keyin va ba’zi bir so‘zlar oxirida kelgan jarangli undoshlardan so‘ng – *ta* tarzida aytilsa ham har doim – *da* shaklida yoziladi: *Oltin o‘tda* (aytilishi o‘tta), *odam mehnatda* (aytilishi mehnatta) *bilinar.* (Maqol).

Shundan so‘ng, o‘quvchilar mavzuni mustahkamlash ushun, bir qancha mashqlar ishlashadi. Buning natijasida, ular orfografik savodxonlikni ongli ravishda o‘zlashtirishga erishishadi. O‘qituvchi imlo qoidalari ustida ishlash murakkabligini, qoidaning mohiyatu uni yozuvda tatbiq eta olishga bog‘liq ekanligini o‘quvchilarga qulay usullar yordamida tushuntirish maqsadga muvofiq. U nazariy fikrni oydinlashtirishda yetakchi belgilarga alohida e’tibor qaratadi, darslik mashqlaridan foydalanib, sinfda mustaqil ishlash usulini joriy qiladi. Mavzulardagi mashqlar o‘quvchi ongida u haqda aniq tasavvurning mavjudligiga erishtiradi. Shuning uchun, qoidlar orqali so‘zlarni to‘g‘ri yozish o‘rgatiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, imlo qoidalarini muntazam o‘rganish o‘quvchilarda kuzatuvchanlikni oshiradi, nutq madaniyatini takomlillashtiradi,, mantiqoy fikrlash qobiliyatini oshiradi, o‘quvchi lug‘atini boyitib, savodxonlikka eltadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. T.,1985.

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA STREOMETRIYAGA DOIR MASALALARNI YECHISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Nabijanova Feruza
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
43-DIUM o‘qituvchisi
Toshmirzayev Baxtiyor
Namangna viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
26-maktab o‘qiituvchisi
FeruzaNabijanova111@gmail.com
Baxtiyoraka7504@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda o‘rta maktab o‘quvchilari uchun streometrik masalalarini yechish ko‘nikmasini shakllantirishga doir masalalarni o‘rgatish metodikalari haqida so‘z yuritamiz. Tezisda turli yillarda DTM tomonidan qo‘llanilgan turli ko‘rinishdagi testlarni ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Kub, prizma, parallelepiped, simmetrik tekislik…

Streometriya bo‘limi maktab geometriya kursiga kirib kelganiga ikki yil bo‘ldi. Oldinlari bu mavzular kasb xunar kollejlari va akademik litseylarda o‘tilardi. O‘quvchilarga bu mavzular maktab geometriya kursida o‘tilsada ayrim murakkablikdagi masalalar ulardan nostandart fkrlash, qo‘shimcha mashg‘ulotlarni talab qiladi. Quyida biz soddadan murakkabga qarab shu turdagi masalalarni yechish metodikalari va usullarini keltirib o‘tamiz.

Masala: to‘g‘ri burcakli parallelepipedning to‘la sirti 1818 ga teng. Qirralari uzunliklarining nisbati 3:7:8 kabi nisbatda. Uning eng kichik qirrasi uzunligini toping.

Yechish:



Shaklga etibor beradigan bo‘lsak to‘la sirtini yuzi haqida tasavvur qilish mumkun. Bu yerda 3 ta to‘g‘ri to‘rtburchaklar juftligi mavjud. To‘la sirtni hisoblash formulasiga ko‘ra tenglikga ega bo‘lamiz. Har ikki tomonni 202 ga bo‘lib yuborsak ekanligigi kelib chiqdi. Eng kichik tomoni esa ga teng bo‘ladi. **Masala:**to‘rtburchakli muntazam prizmaning asosining yuzi Q ga teng. Uning yoqlarini diagonallari 1:3 ga teng. Shu prizmaning hajmini toping.

Yechish:



asosining yuzi ma’lum. Biz bu yuzadan asos tomonini topamiz. Pifagor teoremasini qo‘llab balandlikni ham topib olish mumkun. Umumiy natijalardan prizma hajmini topamiz.

ekanligi ma’lum. bizdan so‘ralgan hajm kelib chiqdi.

Masala: Teng tomonli silindrning va konusning balandligi o‘zaro teng. Ularning to‘la sirtlari isbatini toping.

Yechish:



Silindr va konusning balandliklari teng bo‘lganligi uchun uning ikkalasini to‘la sirtini balandligi orqali ifodalab olamiz. Silindrning radiusi o‘q kesimi kvadrat bo‘lgani uchun balandligini yarmiga teng Konusning o‘q kesini muntazam uchburchak bo‘lgani uchun asosining radiusi yasovchini yarmiga teng bo‘ladi. Bundan silindr va konusning to‘l sirtlarini balandlik orqlai ifodalab uning nisbatini aniqlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gemoteriya 7-11-snflar. Pogorelev
2. MAvzulashtirilgan testlar to‘plami 1996-2007
3. Matematika II-qism 11-sinflar uchun

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Namozova Shoista Norberdiyevna
Samarqand viloyati Jomboy tumani
40-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab direktori
Tel:+998-93-330-82-40

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni har tomonlama siyosiy faolligini oshirish, siyosiy kuchlar va manfaatlariga emas mamlakatimizning ravnaqi va tinchligiga, xalqlararo hamjihatlilikka, yoshlarni doimiy ravishda xushyor bo'lishini ta'minlash va ogohlikka chaqirish masalalari xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, ta'lim-tarbiya, yoshlar, kitobxonlik, ibrat

"Talim-tarbiya –har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masalasidir"

Sh.Mirziyoyev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Hozirgi globallashuv jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgani hech kimga sir emas. Bunday shiddat bilan kirib kelishining bir qancha omillari bor albatta .Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora ortib, inson qalbi va ongini egallash, avvalambor, yoshlarning ma'naviy olamini izdan chiqarish, ularni o'z qarishdoshlariga qarama-qarshi quyishga qaratilgan tahdid va hurujlar kuchayib borayotgan bir paytda bugungi kun avlodining siyosiy faolligini oshirish eng dolzarb masala bo'lib qolaveradi. Zero, mamlakatimiz aholisining 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Bu esa aholining 32 foiziga to'g'ri keladi.

"Globallashuv-bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir"-degan edilar Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov. Darhaqiqat, uning shiddatli, o'tkir va keng qamrovli ta'siri deyarli barcha sohalarda ko'rinmoqda. Xususan, birgina"o'rgimchak to'ri"deya atalmish internet tarmog'i xalqimizga yot bo'lgan tushunchalarni, axborotlarni tarqatish orqali yoshlarimizning siyosiy faolligiga rahna solishga bo'lgan urinishlari jamiyatimiz siyosiy xolatiga ta'sir etmay qolmaydi. Mana shunday tahlikali bir paytda davlatimiz har galdagidek, bugungi kun yoshlarining o'ylashni kanda qilmadi."Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deya bildirgan fikrlari davlatimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida o'z tasdig'ini topmoqda. Yoshlarni har tomonlama siyosiy faolligini oshirsak siyosiy kuchlar va manfaatlariga emas mamlakatimizning ravnaqi va tinchligiga, xalqlararo hamjihatlilikka xizmat qiladi. Bu jarayonda quyidagi jihatlarga e'tibor berishni lozim deb topdik:

- -Yoshlarni doimiy ravishda xushyor bo'lishini ta'minlash va ogohlikka chaqirish;
- -Qurolli kuchlar salohiyatini har tomonlama oshirib borish;
- -Yoshlarimizda javobgarlik va daxldorlik hissini oshirish hamda yangi qabul qilinayotgan qarorlar, qonunlar, farmoyishlar, davlatimiz siyosatida muhim o'rin tutayotgan barcha ijrolarni o'rganish va tahlil qilish xususiyatini kuchaytirish;
- -Yoshlarning hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga tinchlik va havfsizlikni saqlashga sodiqlik hissini mustahkamlash;
- -Mustaqillikka tahdid soladigan yovuz kuchlarga nisbatan doim tayyor turish va keskin zarba berish xususiyatini shakllantirish;
- -Shaxs,jamiyat va davlat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash;
- -Yoshlarga mamlakatimiz siyosiy hayoti va jahon sivilizasiyasi tarixidagi o'rnini chuqur o'rgatish vazifasini sifatli hal etish;
- -Yoshlar qatlamining o'rtasida kitobxonlikni oshirish orqali siyosiy faolligini oshirish.

Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, siyosiy faolligini oshirishning eng samarali uslublaridan biri bu-"ibrat"dir. Jamiyatdagi har bir bo'g'inning alohida taraqqiyotiga qiziqish, o'rganish va o'sishiga o'z ulushini qo'shib borish orqali keyingi avlodni bu sohaga qiziqishini

oshirib borish, daxldorlik tuyg‘usini chuqur his qilishiga imkoniyat yaratgan bo‘lamiz. Jamiyat a’zolari voqealarga loqayd, befarqlik asosida yondoshishsa, nafaqat ma’lum bir muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Bugungi kun yoshlarini har tomomlama “…mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallaydigan, mustaqil hayotiy pozisiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash”-masalasi davlatimiz oldida turgan eng dolzarb masaladir.Shu sababli, yoshlar har soniya bilim olishdan, olgan bilimlaridan kelib chiqib tajribasini oshirishdan to‘xtamasligi lozim. Zero, ilg‘or xalqoro amaliyotga suyangan holda mamlakatimizni taraqqiyot sari yetaklash oliy maqsaddir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarni siyosiy faolligini oshirishda galdagi vazifa, har bir yoshlarni jamiyatimiz ravnaqi, uning yangilanishiga va an’anaviy xayotimizni yo‘lga qo‘yishda o‘z hissasini qo‘shadigan shaxs bo‘lishini, ularda daxldorlik tuyg‘usini yanada oshirishni ta’minlashimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev.”Erkin va farovon,demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”-T.-O‘zbekiston,2017.13-14-bet

2. Sh.Mirziyoyev.”Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga kuramiz”-T.O‘zbekiston,2017.189-bet

3. SH.Zufarov”Pedagogik innovatira”-T.2012.

ODOB – MILLAT KO‘RKI

Narimova Matluba Komilovna
Xorazm v Qo‘shko‘pir t 39-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon:+998 99 058 87 83
Elektron pochta manzil:Narimovamatluba@gmail.com

Annotasiya: Bu maqolada ilmli odobli inson hamisha o‘zgalarga o‘rnak bo‘lishi ko‘rsatilgan.O‘zgalarni ham o‘zidek hurmat qilmoq inson odobining asoslari hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Axloq, iffat, hayo, majmua, kamolot.

Inson odobining eng muhim ko‘rinishlaridan biri bu ilmni hurmat qilishidir, ilmni hurmat qilgan kishi esa, albatta, ustozini hurmat qiladi. Chiroyli odob, kishi xulqi insonga berilgan eng katta ne’matlardan biridir. Chiroyli odobga ega bo‘lgan odam odamlar bilan yaxshi muomala qilishi, ochiq ko‘ngil, mehribon o‘z navbatida, aqlli, uddaburon bo‘lishi va boshqa sifatlarni ko‘rsata bilishi komillik, yetuklik belgisi hisoblanadi.

,,Sizlar odamlarni mol-dunyolaringiz bilan mamnun qila olmaysizlar, balki ochiq yuz va yaxshi xulqlaringiz bilan minnatdor qilishlaringiz mumkin’’, deyiladi hadisda. Zero, ilmni va ilm ahlini hurmat qilish odobli kishilarning fazilatlaridandir. Shu bilan birga bir-biriga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lmoq, har qanday holatda ham o‘zini tuta bilmoq, o‘zgalarni ham o‘zidek hurmat qilmoq inson odobining asoslari hisoblanadi.

Rizoiddin ibn Faxriddin,,Ahli ayol’’ kitobida yozadi:,,Odam bolasining bahosi, qadri hurmati axloqiga qarab bilinur. Go‘zal axloqli kimsalar eng mo‘tabar bo‘lib, axloqsizlar esa xalq qoshida qadrsiz bo‘lurlar.Odam bolasining yosh chog‘ida o‘rgangan odobi qabriga qadar birga yo‘ldosh bo‘lib boradir. Shuning uchun go‘zal axloqni yosh vaqtida o‘rgatish kerak. Axloqsiz qizlar xalq orasida yaxshi ism olmaslar, e’tiborlari ham bo‘lmas. Go‘zal xulqlarning onasi hayo ila iffatdir. Bir qizda agar hayo ila iffat bo‘lsa, unda barcha yaxshi xulqlar jam bo‘ladi”.

Abdulloh ibn Umar raziyalohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasulullоh s.a.v ansorlar oldidan o‘tayotgan edilar, bir ansoriy birodariga uyalishdan qaytarib nasihat qilib turgan edi.(Ya’ni juda qattiq hayoli bo‘lma! O‘zingga qiyin bo‘ladi, deb). Rasulullоh s.a.v,,Buni o‘z holiga qo‘ygin. Chunki hayo iymondandir”, dedilar.(Imom Buxoriy Muslim rivoyatlar,,,Riyozus solihin”).

Ibn Sino inson hayo to‘g‘risida shunday degan:,,Insonda doim turadurg‘on husn ila latofat hayo ila ibodur. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidir”.Abu Nasr Farobiy esa inson o‘zining yaxshi odobi baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi. Abdulla Avloniy tarbiyaning bola kamolotida tutgan o‘rni to‘g‘risida shunday deydi.

Temirchining bolasi tarbiya topsa bo‘lar olim,
Buzilsa xulqi, Luqmon o‘g‘li bo‘lsa ham, bo‘lg‘usi zolim!

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, odob – millatimiz ko‘rki, hayotimizning mag‘zidir, degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.,,Odob axloq qoidalar” O.Hasanboyeva, M.Inoyatova, A.Ne’matova.
2.,,Odobnoma” darsligi M.Xoliqova, SH.Ergasheva.

BOLALARNI BOBO VA BUVILAR BILAN TARBIYALASHNING SAMARALI JIHATLARI

Narimova Mavluda Komilovna
51-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998 99 504 18 05
Elektron pochta manzil:Norimovamavluda@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola tarbiyasida bobo va buvilarning o‘rni juda muhimligi xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Emotsional muammo, injiq, tadqiqotlar.

Bobo va buvilarimiz, shunchaki bepul enagalar emas. Bu yerda hamma narsa ancha murakkab. Ko‘pincha ular nevaralari uchun bog‘lanish va muhabbat his etishadi, lekin ular bolalarni injiq va yumshoq qilmaydi. Bu sevgi tufayli ular kuchli va o‘ziga ishonch bilan o‘sadi. Bu yerda, bobo va buvisi bilan yaqin aloqada bo‘lishning 5 ta sababi bor.

1. Bolalar ajoyib qo‘llab-quvvatlashga ega bo‘lishadi. Oksford universitetida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bobo va buvilarga yaqin bo‘lgan nevaralarda emotsional xulq-atvorli muammolar kamroq bo‘lgan, ular hayot qiyinchiliklardan yaxshi o‘tishadi.

Masalan, ota-onaning ajrashishi yoki maktabdagi muammolar kabi. Bolalarni bobo va buvilar bilan birga tarbiyalash juda yaxshi!

2. Bolalarning mustahkamligi oshadi. Boshqa izlanishlarga ko‘ra, avlodlar o‘rtasidagi aloqaning mavjudligi, ajdodlar tarixining bilimi bolalarni hayotga moslashtiradi, ayniqsa, oila a’zolari tashqarisida barqarorlik o‘rnatilganda, ularning hayotini nazorat qilishda yordam beradi.

3. Bolalarni,qariyalarni hurmat qilishga o‘rgatadi . Qariganda bolalar va nabiralar tomonidan masxarabozlik va hurmatsizlik bilan kim duch kelishni istaydi?

Buning oldini olish uchun keksa avlod nevaralari bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirishi kerak. 7 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan 1151 nafar bola jalb qilingan bir tadqiqodga ko‘ra, bobo-buvilariga yaqin bo‘lgan bolalar qariyalarga hurmat va ehtirom ko‘rsatishgan.Keksa avlod bilan aloqasi bo‘lmagan bolalar qariyalarga salbiy munosabatda bo‘lishdi.

4. Bolalarni depressiyadan himoya qiladi. 2014-yil Bo‘ston kollejida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, bolalar va buvilar o‘rtasidagi bu hissiy aloqalar dastlabki va ikkinchisida depressiya xavfini kamaytirar ekan. Katta yoshdagi nevaralar bilan muloqotda yangi narsa ochadi, kashf qilinmagan, yoshlar keksa odamlardan hayot tajribasi va dunyoviy donolikka ega bo‘lgan narsalarni topadi. Bolalarni bobo va buvilar bilan birga tarbiyalash juda yaxshi!

5. Ushbu muloqot tufayli, bobo-buvilar ko‘proq yashaydi.Nabiralar bilan muloqot salomatlikni oshiradi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nevaralarni tarbiyalashda faol ishtirok etadigan, o‘rtacha qo‘shimcha 5 yil hayotga ega bo‘lishadi.Shuning uchun avlodlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlash kerak.Bularning barchasi foyda keltiradi! Bobo-buvilar nevaralari va nabiralari uchun hamma narsaga tayyor. Buning uchun ulardan minnatdor bo‘lishimiz kerak!

Siz, keksalarni o‘z nevaralarini tarbiyalashga imkon berasizmi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalar ensiklopediyasi.

MASOFAVIY O‘QITISHNING AFZALLIK TOMONLARI

Narziyeva Inobat Zoirovna
BuxDU Xorijiy tillar fakulteti
Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili kafedrasi o‘qituvchisi
Vafiyeva Dilbar Halimjonovna
Shofirkon tumanidagi 41- umumta’lim maktab direktori
Tel:+998973021210
Inobat862@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada masofaviy ta’lim texnologiyalari haqida umumiy ma’lumot,o‘qituvchi va o‘quvchining munosabati va usullari keltirilib o‘tilgan. Bundan tashqari masofaviy o‘qitishning hozirgi holati va afzalliklari hamda ta’lim tizimida o‘quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir.

Kalit so‘zlar: texnologiya, internet,ta’lim, tizim, telekommunikatsiya, bilim, axborot, computer, interaktiv, vosita

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o‘zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o‘zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo‘lmoqda. Har bir kunimiz kuchli informatsiya oqimi ostida kechmoqda. İnternetning keng ommalashishi, ayniqsa WWW (World Wide Web-Butun dunyo o‘rgimchaklari to‘ri) tizimining joriy etilishi talim tizimiga yangi «masofaviy talim» yo‘nalishini olib kirdi. Internet global kompyuter tarmog‘ini rivojlanishi butun dunyo ta’lim tizimini takomillashtirishning yangi yo‘nalishlarini ochilishiga sabab bo‘ldi.

Bolalar uchun masofaviy o‘qitish usullari va usullarini amaliy ravishda qo‘llashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tajribadan maktab o‘qituvchilari amaliy ishlarda foydalanib kelishypti. Masofaviy ta’lim texnologiyasi - bu zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan holda masofadan turib o‘quv jarayonini olib borishni ta’minlaydigan o‘qitish usullari va vositalarining kombinatsiyasi.Masofaviy ta’lim texnologiyalari deganda biz asosan axborotlashtirish va telekommunikatsiya yordamida amalga oshiriladigan texnologiyalarni tushunamiz.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda yangi o‘qitish shakli - masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi. Zamonaviy axborot texnologiyasi - shaxsiy kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi axborot texnologiyasidir. Jamiyatni axborotlashtirish – fuqarolarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini va ularning huquqlarini amalga oshirishni qanoatlantirishdagi maqbul shartlarni, davlat va hokimiyat, mahalliy va o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, axborot resurslaridan foydalanish va ularni shakllantirish asosida jamoat birlashmalarini tashkil etishni yaratishning tashkillashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonidir. Ta’lim jarayonini axborotlashtirish - jamiyatni axborotlashtirishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirish quyidagi qulayliklarga ega: - jamiyatning har bir a’zosi haqidagi ma’lumot va bilimlarni olishga yo‘l ochib berish bilan birga, shaxsning intellektual va ijodiy qulayliklarini rivojlantiradi. Bunda jamiyatning har bir a’zosi faollik bilan malakasini oshirib, faoliyat fazasini tezkor o‘zgartiradi,masofaviy o‘qitish yordamida ta’lim samarasini oshirishni ta’minlaydi. Masofadan o‘qitish bu mustaqil o‘qishdir. Mustaqil o‘qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Multimedia vositalari ta’lim berishning samarali va istiqbolli quroli (instrumentlari) bo‘lib, u o‘qituvchiga an’anaviy ma’lumotlar manbaidan ko‘ra keng ko‘lamdagi ma’lumotlar massivini taqdim etish, ko‘rgazmali va uyg‘unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animasiyalar, video va boshqalardan foydalanish, axborot turlarini ta’lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o‘rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi. Masofaviy o‘qitish - o‘zaro ma’lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o‘quv jarayonlari komponentlari - maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o‘qitish usullariga asoslangan ta’lim oluvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat. Oliy ta’limda masofadan o‘qitishning yana bir afzalligi shundaki,

unda o‘quvchi o‘ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o‘qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Masofadan o‘qitishning afzallik tomoni unda o‘qish muddatini o‘quvchi o‘zi belgilaydi, ya’ni talaba ixtiyoriy paytda o‘qishni boshlaydi, materiallarni o‘qituvchi nazoratida o‘zlashtiradi. O‘zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O‘quvchi berilgan programmani qanchalik tez o‘zlashtirsa, shunchalik tez o‘qishni tugatadi va yuqori natijalarga erishadi. Bu tizimning yana bir afzalligi masofaviy o‘qitish asosida o‘quvchi talabalarning o‘zlari kompyuter axborotlar bankidan kerak bo‘lgan ma’lumotlarni qidirib topadi va o‘zlarining tajribalarini boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo‘lishini ta’minlaydi hamda o‘z o‘rnida mehnat ta’limi olishini rag‘batlantiradi.

Masofadan o‘qitish texnologiyasi – jamiyatni axborotlashtirishning umumiy oqimi va yo‘llari bilan jipslashgan bo‘lib, masofaviy o‘qitishning texnik vositalarini axborotlashtirish tizimlari va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini avtomatlashtirish tizimlarini zamonaviy axborotlashtirish texnologiyasi asosida birgalikni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, online darslar o‘quvchilarga uydan turib bo‘lsa-da, o‘qituvchidan uzoqlashmagan holda zamonaviy bilimlarni egallsh imkonini beradi. Bundan tashqari u o‘quvchi, talabalarni o‘zaro hamkorlikka, mavzular va ularni o‘zlashtirishda muhokama va munozaralarga chorlovchi manbaa sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http//:llen.Wikpedia.org/wiki Distance Learning
2. http:www.distance learning-college-guide.com/index.html

TABIATSHUNOSLIKNING TA'LIMIY, TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRUVCHI VAZIFALARI

Nezomiddinova Donoxon Jamoldinovna
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani
13-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Tel: +998943043418

Annotatsiya: Bu maqolada tabiatshunoslik fanining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: tabiatshunoslik, ta'lim, tarbiya, o'zaro bog'liqlik, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, tabiiy boyliklar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda «Atrofimizdagi olam» (1-2- sinflarda) va «Tabiatshunoslik» (3 -4 - sinflarda) fanlari o'qitiladi. «Tabiatshunoslik» fani «Atrofimizdagi olam» fanining davomi bo'lib, o'zining mazmuni va metodlari bilan o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash imkoniyatlariga ega.

«Tabiatshunoslik» fani yosh avlodni tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi: unga nisbatan muhabbatni tarbiyalaydi, tabiat chiroyini idrok etish uni qo'riqlash, asrash, in'omlaridan oqilona foydalanish, ana shu boyliklarni o'z qo'llari bilan yaratish va ko'paytirishga chorlaydi.

Bolalarning atrofimizdagi olamni muntazam o'rganib borishlariga asoslanib, kichik yoshli o'quvchilarda tabiat to'g'risida, o'z joyi va barcha mamlakatlarning tabiiy boyliklari to'g'risida bir butun tasavvurni shakllantirish kerak. O'quvchilar

vatanimizning tabiiy boyliklaridan odamlar o'zlarining mehnat faoliyatlarida qanday foydalanayotganliklari bilan tanishishlari lozim. Bunda bolalarga odamlar mehnati tabiat atrof bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatish g'oyat muhimdir. Shu talablarga ko'ra kichik yoshdagi o'quvchilarga:

— o'zaro bog'liqligi ochib berilgan jonli va jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish;

— odam organizmi va uning salomatligini saqlash to'g'risida ma'lumotlar berish;

— ularni tabiatda kuzatishlar o'tkazish uquvi va ko'nikmalari bilan qurollantirish;

— tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko'paytirishga qaratilgan insonning mehnat faoliyati bilan tanishtirish;

— jonajon tabiatga muhabbat, uni muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash kerak.

Umumta'lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlariga muvofiq tabiatshunoslik dasturiga kiritilgan o'zgarishlar, ko'rsatilgan vazifalar, tabiatshunoslik kursida o'quvchilarning ekologiya, mehnat va gigiyena tarbiyasiga e'tiborni yanada kuchaytirishni, har bir o'quvchining gigiyena va meditsina

sohalarida minimum bilimni egallash, yoshligidan o'z organizmini bilishi, uni tartibli saqlay olishi uchun sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida dunyoni ilmiy tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga muruvvatli munosabatni, vatanparvarlikni va go'zallikni tushunishni tarbiyalash kerak.

Zamonaviy pedagogika ta'lim va tarbiyaga, tarbiyalovchi ta'lim deb atalmish yagona jarayonning ikki tomoni deb qaraydi. Ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri uning mazmuni bilan belgilanadi. Shuning uchun ham tabiatshunoslikni o'qitish o'qituvchiga o'quvchilar tafakkurini, ularning ijodiy va bilish faolligini rivojlantirish uchun boy material beradi. Tabiatshunoslik bo'yicha barcha mavzular kompleks tarbiya masalalarini aks ettiradi. O'quvchilarga bilimni bayon qilish metodlari ham tarbiyaviy ahamiyatga ega, o'quvchilarning barcha faoliyatlari bilimlarni o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan tabiatshunoslikni o'qitish o'qituvchi uchun tarbiyaviy ishlarda katta imkoniyatlar beradi. Tabiatshunoslikni o'qitishda og'zaki, ko'rgazmali, amaliy va boshqa metodlardan foydalaniladi. Bolalarning ijodiy faolligi, individual qobiliyatlarini ochishga qaratilgan metodlar tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Belskaya Y.M., Grigoryans A.G. Tabiatshunoslikni o'qitish.
2. M. I. Nuriddinova Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi
3. www.ziyonet.uz

GEOGRAFIYADA MEDIATA'LIM – O'QUVCHI BILIM IMKONIYATLARINI OSHIRADI

Nishonova Muqaddam Abdujabborovna
Namangan viloyati Chortoq tumani
29-sonli maktab geografiya fani o'qituvchisi
Tel: +998 97 374 03 74

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya darslarini o'qitishda o'quvchi tasavvurini kengaytirish, bilim imkoniyatlarini oshirishda mediata'limning o'rni va ahamiyati yoritildi.

Kalit so'zlar: AKT, multimedia, o'yinli texnologiyalar, didaktik, kompyuter, videoproyektor.

Har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o'y-fikri, ma'naviy qiyofasiga qarab o'sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. Masalaga shu jihatdan yondashsak, bugun mamlakatimizda har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilayotgan yuksak e'tibor, unib o'sib kelayotgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yo'lida qilinayotgan amaliy ishlar zamirida bitta maqsad – u ham bo'lsa, ertaga Vatanimizning tayanchi va suyanchi bo'lishga qodir avlodni voyaga etkazish ko'zlangan.

Bugungi kun bolasi uchun an'anaviy kompyuter, noutbuk, planshet yoki murakkab xotira tizimiga ega telefonlarni boshqarish muammosi mavjud emas. Shunday ekan, bugungi kun pedagogidan ham darslarda ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalarni o'z ichiga olgan didaktik materiallardan, media mahsulotlardan foydalangan holda dars o'tish talab etiladi. Chunki, hozirgi zamon o'quvchilarini an'anaviy ta'lim orqali darsga qiziqishini orttirish mushkul.

Ma'lumki, an'anaviy ta'lim asosan ma'ruza va savol-javobga asoslangan edi. Bunda tabiiyki, suhbat asosini axborot tashkil qilgan. Ammo axborot uzatishning asosiy manbayi o'qituvchining nazariy bilimi va ma'ruzasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik qiladi, ya'ni darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzda o'quvchilarga yetkazib berishga intiladi. O'quvchilarda faqatgina tinglash orqali dars mashg'ulotlarida o'tirish o'z navbatida darsda zerikishga, dars jarayonlariga bo'lgan qiziqishning susayishiga olib keladi. Bir xillikda dars berish o'quvchi vaqtini o'g'irlashga barobar.

Keng tarqalgan ta'lim texnologiyalaridan biri bu, multimediali ta'lim texnologiyasidir. Multimedia tushunchasiga bir necha ta'riflar mavjud.

Multimedia – turli ma'lumotlarni zamonaviy usulda ishlab chiqish, ishga tushirish, qayta ishlash vositalarini qo'llash tartiblariga xos texnologiyadir. Shuningdek, multimedia – kompyuter apparat ta'minotining eng zamonaviy turi bo'lib, bu bir necha ma'lumot taqdim etish vositalarining bir tizimga birlashishidir. Odatda multimedia deganda, matn, ovoz, grafika, multiplikatsiya, videotasvir kabi ma'lumot taqdim etish vositalarining kompyuter tizimida birlashishi tushuniladi.

Geografiya fanini o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, o'z ustida ishlash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish kabi xislatlarning ham shakllanishiga zamin yaratishi lozim.

Geografiya darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, media mahsulotlardan foydalanish orqali o'qituvchi nazariy ma'lumotlarni, o'quv materiallarini zamonaviy usullar vositasida o'quvchilar ongiga qiziqarli holda yetkazishga erishadi. Ko'rgazmali qurollar yetishmasligidan aziyat chekmaydi. O'quvchi esa ta'lim materialini virtual kuzatadi, bu orqali tasvvurlari jonlanib, tushunchalari mustahkamlanadi. O'z uylaridagi kompyuterdan faqat o'yin maqsadida emas, darslarni tayyorlash, mavzuga doir qiziqarli ma'lumotlarni izlab topish maqsadida foydalanish mumkin degan to'g'ri qarash shakllanadi.

Dunyoning turli mamlakatlariga oid qiziqarli geografik ma'lumotlar, g'aroyib tabiat hodisalari doim kishilarning diqqat e'tiborida bo'gan. Geografiya eng qiziq va ommabop fanlardan biri ekanining sababi ham shunda. Ammo bu qiziqarli ma'lumotlarni o'quvchi faqat ma'ruza orqali tasavvur etishi qiyin. Xalqimizda ko'p marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yahshi degan naql bor. Shunday ekan geografiya darslarida ham har bir o'rganilayotgan geografik obyektlar, materiklar, okeanlar, davlatlar to'g;risida berib borilayotgan ma'lumotlarni media mahsulotlari orqali ko'rsatib o'tilsa bola ongiga mustahkam o'rnashadi. Chunki, bola ma'lumotlarni eshitishdan ko'ra, ko'rish orqali ko'proq oladi.

Darslarda media mahsulotlaridan foydalanishda jarayonni to‘liq tasavvur etish uchun, avvalo, darsning texnologik xaritasini tuzib olish o‘qituvchiga vaqtdan unumli foydalanish, o‘quvchilar bilan oson muloqotga kirishishga ko‘mak beradi.

“Mediata’lim” tushunchasining hayotimizga kirib kelishi o‘qituvchilarga darsni samarali tashkil etish imkonini berdi. Ayniqsa, rang-baranglikni xush ko‘radigan o‘quvchilarga mavzularni tushuntirayotganda mediamanbalarga murojaat etish ularning diqqatini o‘rganilayotgan mavzuga qaratadi. O‘quvchining ko‘rish, eshitish, tasavvur imkoniyatlarini bir vaqtning o‘zida faol ishlatishi esa bilim samaradorligini oshiradi. Shunday ekan, bugungi kun o‘qituvchisi AKT dan foydalangan holda dars o‘tishi uchun, avvalo, mediasavodxonligi yuqori bo‘lishi lozim. Chunki, pedagog axborot tanlash madaniyatiga amal qilishi zarur. Mavzuga oid materiallarni tanlash jarayonida milliyligimizga zid, tarbiyaviy va g‘oyaviy jihatdan salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ma’lumotlardan zinhor foydalanmaslik kerak. Aksincha, mavzuga ijodiy yondashib, darslikdan tashqari qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etish o‘quvchi qiziqishini yanada oshiradi va e’tibori chalg‘ishini oldini oladi.

Zamonaviy pedagog 45 daqiqa mobaynida ham elektron manbalardan, ham didaktik ko‘rgazmali qurollardan foydalangan holda dars tashkillashtirishi zarur. Ya’ni dars jarayonida faqatgina slayd materiallaridan foydalanish ham o‘quvchilarni zerikishga olib kelishi, ularni ma’lum ma’noda fikrlashdan, mushohada yuritishdan cheklab qo‘yishi ham mumkin. Shuning uchun dars oraliqlarida mavzuga chambarchas bog‘liq elektron manbalarni namoyish etgan holda, o‘qituvchi o‘zi ham doskada ishlab, ham interfaol metodlar yordamida o‘quvchilar faolligini oshirib borishi kerak. Ayniqsa, darsning mustahkamlash qismida mavzuni nechog‘lik o‘zlashtirilganini aniqlash maqsadida o‘quvchilarni fikrlashga chorlaydigan, mushohada yuritishga undaydigan ta’limiy metodlarni qo‘llashlari zarur. Bunda o‘qituvchilarga ko‘proq ilg‘or pedagogik texnologiyalarning “Suhbat” (savol-javob), “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Insert”, “Klaster”, “B.B.B.”, “T chizma”, “Baliq skleti”, “Blits so‘rov”, “Ven diagramma” kabi metod va usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa o‘quvchilarni o‘z ustilarida ishlashlarida, xaritalar va ko‘rgazmali qo‘llanmalar bilan ishlashni yo‘lga qo‘yishlarida eslab qolish, ayta olish, ko‘rsata olish ko‘nikma va malakalriga ega bo‘lishlarida qo‘l keladi.

Ta’lim jarayonini multimedia, interfaol metodlar yordamida tashkil etish pedagogni muloqotga erkin kirishuvi, o‘quvchilar bilan tez til topisha olishi, izlanishi, faoliyatiga ijobiy yondashishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Geografiya. *O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.* P. G‘ulomov, R. Abdullayev, R. Qurbonniyozov. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent 2016.
2. Umumta’lim fanlari metodikasi jurnali.
3. www.Ziyonet.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUCHILARINI MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA ARIFMETIK AMALLARNI HISOBLASHLARGA O‘RGATISH METODLARI.

Niyozmetova Sanobar Berdiyevna
Xiva tumanidagi 6-son maktab
Meyliyeva Muborak Tangriberganovna
Xiva tumanidagi 32-son maktabning
Boshlangich sinf o‘qituvchilar

Annatotsiya: Hozirgi paytda maktablarda boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi.

Kalit so‘z: Predmet, matematika, ko‘nikma, malaka, son, arifmetik

Bunda ularda matematika bo‘yicha bilimlar berish bilan birga ularga o‘rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo‘lishini ta’minlash, ularni qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida arifmetik amallarning chuqur o‘rganilishi ularni hisoblash malakalarini egallashlariga hamda ularni kelgusida o‘quv faoliyatida muvaaffaqiyatli qo‘llashlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hisoblash malakalarini shakllantirishda boshlang‘ich davrda dastlab o‘quvchilarga son haqidagi ma’lumotlarni o‘rgatish sonli ifodalarni tarkibi ular ustida arifmetik amallarni bajarish tartiblari haqidagi dastlabki tushunchalar 1 sinfdan boshlab o‘rganiladi.

Predmetlarni sanash, ularni turlarga ajratish (ranglar bo‘yicha) orqali sonli ifodalar haqidagi dastlabki tushunchalar berib boriladi. 2 sonini o‘rgatishda qanday qilib uni hosil qilinishini 1 + 1 = 2 ko‘rinishda yozilishi orqali tushuntiriladi. 3 sonini hosil qilish, uning tarkibi va yozilishi haqidagi ma’lumotlar misollar orqali tushuntiriladi. Shundan keyin 4 soni, 5 soni, 6 soni, 7 soni, 8 soni va 9 sonlari hosil bo‘lishi, yozilishi, o‘qilish haqidagi tushunchalar beriladi. 0 soni haqidagi tushuncha 9 sonini hosil qilinganidan keyin o‘rganiladi. To‘qqiz soniga 1 sonini qo‘shish orqali 10 soni hosil qilinadi va u 9 + 1 = 10. Ya’ni 1 soni va 0 soni yordamida hosil qilinishi tushuntiriladi. Ya’ni 10 sonini quyidagi ko‘rinishlarda ifodalanishi mumkinligi ko‘rsatilib o‘tiladi.



Ya’ni:

10	1	2	3	4	5	6	7	8	9

Bo‘lgan barcha hollarni ko‘rsatib o‘tish lozimligi aytiladi.

O‘quvchilarga birinchi o‘nlik sonini hosil qilish texnologiyasi to‘liq tushuntirilganidan keyin ular «>», «<», va «=» belgilari yordamida sonlarni taqqoslashlarni o‘rganadilar. Bu tushunchalar o‘rganilganidan keyin ular qo‘shish va ayirishning komponentlari bilan tanishadilar. 1) a + b = c a - qo‘shiluvchi, b – qo‘shuvchi, c - yig‘indi. 2) a – b = c a – kamayuvchi, b – ayriluvchi, c – ayirma.

Ular haqida aniq bilimlar beriladi. O‘quvchilar birinchi «o‘nlik» sonini hosil qilishni o‘rganganidan keyin ular birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlarni turish tartibini o‘rganadilar ya’ni, natural sonlar qatoridagi o‘rnini biladilar. Masalan: quyidagi bo‘sh kataklarga mos sonlarni qo‘yib birinchi o‘nlikni hosil qil.

Bu topshiriqni bajarishda ular dastlab 2 dan katta va 4 dan kichik bo‘lgan son 3 ni topadilar, 4 dan katta va 6 dan kichik bo‘lgan son 5, 6 dan katta va 8 dan kichik bo‘lgan son 7 ni topadilar. Bu topshiriqqa quyidagicha savollar berish mumkin.

1. 2 dan katta va 4 dan kichik sonni ayt?
2. 4 dan katta va 6 dan kichik sonni ayt?
3. 6 dan katta va 8 dan kichik bo‘lgan son necha?

O‘quvchilar bu savollarga tez va aniq javob berishlari ma’lum chunki ular 1 – 10 bo‘lgan sonlar tarkibini o‘rgangan edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev E.E. Boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi T.: Turon – Iqbol, 2012 yil
2. Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M. Matematika 1-sinf Turon–iqbol T.: 2019 yil

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATSION YONDASHUV

Normatova Malika O‘ktamovna
Uchqo‘rg‘on tumani 10-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf ona tili ta’limini o‘qitish bilan birga o‘quvchilarga nutq faoliyatining asosiy turlarini o‘stirish, yozuvga tayyorlash va xatolarni o‘rgatish kabi muhim masalalar integratsion tarzda ham hal etish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar:Matn, bayon, fonetik, grammatik, estetik, nafosat, assimlatsiya, dissemlatsiya,nutq,tovush almashishi.

“Ona tili” fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarimizning ijodiy- mustaqil, o‘z fikrini erkin va ta’sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviyatimizga, milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.Boshlang‘ich ta’lim bosqichida yangi tahrirdagi DTSlari asosida o‘quvchilarni ona tili ta’limi sohasi bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yilgan talablar standart me’zon orqali aks ettiriladi.O‘qish texnikasi,o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash va fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.O‘quvchilar shu parametrlar asosida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi kerak.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda 1-4- sinf ona tili fanini o‘qitishning oldiga bir qator vazifalar qo‘yiladi:

1. O‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish;
2. O‘z fikrini o‘zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda og‘zaki va yozma ifodalay olish;
3. Bir ma’noni turli shakllarda bera olish ko‘nikmalarini shakllantirish, so‘zlardan o‘rinli foydalanish;
4. Dunyoni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Shuningdek boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi o‘quvchilarga nutq faoliyatining asosiy turlarini o‘stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni ham hal etishni ko‘zda tutadi.

- Bolalarda ahloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;
- Bolalarga atrof- muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish;
- Nafosat hissini tarbiyalash;
- Mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatish;
- O‘quv mashg‘ulotlariga, bilim manbai bo‘lgan kitobga qiziqish uyg‘otish.

Ona tili o‘qitishning mazmuni va metodlari o‘quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilishga ko‘maklashish lozim.Mazkur maqsad va vazifalarni to‘laqonli bajarish uchun o‘qituvchi faqat dars bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Darsdan tashqari paytlarda ham muntazam ish olib borishi yaxshi natija beradi. Tilni o‘rganishga doir kechalar, to‘garaklar, maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan qo‘shimcha darslar, sinfdagi iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash kabilardan foydalanish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, eng avvalo o‘quvchilarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatishda ya’ni so‘z aytilganda tovushlarni aralashtirmay, tovush tushirib yoki orttirib talaffuz etmaslik kerak. Masalan: kitob o‘rniga kitop, ruchka o‘rniga yuchka, maktab o‘rniga matab deyishga yo‘l qo‘ymaslik.Har bir darsda ko‘pchilik uchun bir xil uchraydigan tipik xatolar doskada ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva K- Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni yozuvga tayyorlash. (Metodik tavsiya).Namangan -2018
2. Y.Mamatxolova-Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni yozuvga tayyorlash va xatolarni o‘rgatish.T.:2020

SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA NOAN’ANAVIY O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Normayeva Habiba Ostovonva,
Navoiy viloyat Navbahor tuman 14-umumta’lim maktab,
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida savodxonlik va nazariy bilimlar bilan amaliyotning bog‘liqligi, savodxonlikka erishishning metod va usullari xalq ta’limi tizimini rivojlantirish omillaridan biri ekanligi xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *savodxonlik,yozma nutq, Unli, undosh tovushlar, grammatik o‘yinlar,imloviy savodxonlik, imlo lug‘at.*

Savod o‘rgatish juda muhim mas’uliyatli va ayni vaqtda o‘quvchining esida bir umr saqlanib qoladigan sharafli davr hisoblanadi. Keyingi sinflarda beriladigan bilimlar o‘quvchi tomonidan muvaffaqiyatli o‘zlashtirilib olinishi ham bevosita yozma va og‘zaki nutqiy ko‘nikmalarning qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Shuning uchun ham yoshlarni o‘qitish va ularni hayotga tayorlashda savod o‘rgatish mashg‘ulotlariga alohida e’tibor beriladi. Har bir tovush – harfning talaffuz qilinishi va yozilishini mukammal o‘zlashtirib olishlari uchun xilmaxil mashg‘ulotlarni dars jarayoniga singdirish o‘quvchida mustaqil fikrlash va ijodiy ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga bog‘liq. Savod o‘rgatish davrida qo‘llaniladigan grammatik o‘yinlar o‘quvchi imkoniyatlarini to‘la ishga solish, har bir tovush va harfning eng nozik tomonlariga alohida diqqat bilan qarashga undaydi. Bu davrda qo‘llaniladigan grammatik o‘yinlar ham xilma-xil bo‘lib, o‘quvchiga bilim berish, uni toliqishdan saqlash, o‘zi bajargan ishdan zavqlanish imkoniyatini yaratadi. 1-sinf bolalariga bilim berish o‘yin asosiga qurilsa samarali natijalarga erishish mumkin. Bu yoshdagi bolalarni toliqtirmaslik, o‘qish va yozuv darslarini qiziqarli tashkil etish, sidirg‘ali o‘qish, husnixat malakalarini hakllatirish va mustahkamlash uchun yozuv mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil qilsh, o‘yin shaklida uyushtirish zarur. O‘quvchilar bilan grammatik o‘yinlar uyushtirilar ekan, ularga barcha o‘quvchilarni to‘g‘ri va chiroyli yozuvda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yadigan o‘quvchilarni ko‘proq jalb qilish kerak. Savod o‘rgatish davrida qo‘llaniladigan grammatik o‘yin turini tanlashda sinf o‘quvchilarning hususiyatlari, qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olish lozim. Respublikamiz maktablarida mehnat qilayotgan ilg‘or boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari birinchi sinf o‘quvchilarini savodga o‘rgatish jarayonida foydalanish uchun ko‘plab didaktik o‘yinlarni ijod qildilar. Ulardan dars jarayonida foydalanib yaxshi natijalarga erishmoqdalar.10 Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fonetikadan bir qator bilimlarni egallaydilar. Unli, undosh tovushlarni talaffuz qilish va taqqoslash asosida farqlaydilar. Undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz talaffuz etilishi, jufti bor va jufti yo‘q jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida amaliy bilim oladilar. Bu borada boshlang‘ich sinflarda qo‘llaniladigan tekshirish metodi tovushlarning jarangli yoki jarangsiz ekanligini anglab olish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida to‘g‘ri yozishda qo‘l keladi. Shuningdek bu sinflarda bo‘g‘in va uning turlari, urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar, tovushlarning bir-biriga ta’siri haqida amaliy bilim oladi. Bularning barchasini o‘zlashtirib olish bir qator murakkabliklar tug‘diradi. Shu tufayli boshlang‘ich sinflarda fonetikaga oid didaktik o‘yinlardan foydalanish qo‘l keladi.

“**So‘z tuzish”** o‘yini. O‘yin savod o‘rgatish davrida o‘tkaziladi. Bu o‘yinlarni bajarish o‘quvchilarga tovushning so‘z hosil qilishidagi ahamiyatini to‘laroq tushunib olish imkonini beradi. O‘quvchilar ushbu o‘yinda ishtirok etar ekan, so‘zlarning turli-tuman usullar bilan hosil bo‘lishi katta qiziqish uyg‘otadi. O‘zlari hosil qilgan yangi so‘zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo‘ladi. So‘z tuzish o‘yini savod o‘rgatishning tarkib – tahrir (analitik – sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish, qurish,birlashtirish singari ma’nolarni bildiradi. So‘z tuzish o‘yini ham aynan so‘zga hilma-hil tovushlarni, bo‘g‘inlarni qo‘shish orqali hosil bo‘ladi. Bu o‘yinni bajarishda so‘zga turli hil usullar bilan tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qiladi.

«So‘zning boshiga bir tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qilsh» o‘yini.

Bu o‘yinning talabiga asosan o‘quvchi ma’lum bir olingan so‘zning boshidan bir tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qiladi. Ba’zi undosh bilan boshlangan so‘zdan avval unli tovushni qo‘shish yoki unli bilan boshlangan so‘zdan oldin undosh tovush qo‘shish orqali yangi so‘z

hosil qilinadi.

Son - o +son o'lka- yo'lka ola - lola ota -bota - nota ayiq- qayiq or– bor - tor o'roq – so'roq osh - qosh– mosh .

Ushbu o'yinda ayrim so'zlarga tovush qo'shish orqali bitta so'z hosil qilish mumkin bo'lsa (son - oson), ba'zi so'zlardan bir qator so'zlar tuzish mumkin. O'yinni butun sinf bilan ham, o'quvchilar guruhlari tuzib musobaqa tarzida ham o'tqazish mumkin.

«Bo'g'inlarning o'rnini almashtirib yangi so'z tuzish» o'yini. Ushbu o'yin o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi. Bolalar o'yinni juda berilib bajarishadi. O'quvchilar bo'g 'inlarini almashtirib yangi so'z hosil qilish o'yini orqali so'zning leksik – semantik ma'nosi ustida kuzatish olib boradi. O'yin ko'proq ikki va undan ortiq bo'g'inli so'zlardagi bo'g'inlarning o'rnini almashtirish orqali olib boriladi. Bunday so'zlar ko'proq qo'shma otlar mavzusi bilan bog'liq bo'ladi. Ba'zan qo'shma ot tarkibidagi har bir bo'g'in bir so'zga ma'no jihatidan teng bo'lib, ularning o'rnini almashtirib qo'llash o'zbek tilidagi yangi qo'shma otlarni hosil qiladi. Bu o'yindan boshlang'ich sinflarning savod o'rgatish davridan boshlab, o'rta maktablarning yuqori sinflarida ham foydalanish mumkin. O'yinni boshlashdan oldin o'qituvchi quyidagi namunani xattaxtaga yozib tushuntiradi.

Gulnor - Norgul, Urchuq - Chuqur. O'quvchilar bilim darajasiga qarab quyidagi so'zlarni topishi mumkin.

Alisher –Sherali,	*Gulchehra - Chehragul .*
Xoldona –Donaxol Mehrnoz - Nozmehr .	
To'raboy –Boyto'ra Oyshahar – Shaharoy kabi.	*Guldasta – Dastagul* *Toshto'xta - to'xtatosh.*

Xulosa qilib aytganda, savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullardan, qiziqarli o'yinlardan foydalanganimizda o'quvchilarning, avvalo, darsga bo'lgan qiziqishlari ijobiy tomonga o'zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayeva Q. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. O'qituvchi.2015.
2. G'afforova T., Nurullaeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. –Toshkent: Ilm ziyo, 2014.
3. Abdullayeva Q. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. O'qituvchi. 2013.
4. Gapparova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. «Alifbe»; «Savod»; «Ona tili». – T:O'qituvchi, 2010.

ONA TILIM- DAVLAT TILIM.

Termiz shahar 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona-tili fani o‘qituvchisi
Norqulova Sohiba Norto‘rayevna
tel: +998915773102

Annotatsiya: Milliy qadriyatlarimizning asosiy ustunlaridan biri bo‘lgan ona tiliga yuksak e’tibor tufayli 1989 - yilning 21 oktyabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, O‘zbekistlon Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonunni qabul qilindi.

Kalit so‘zlar: til, millat, so‘z, san’at, davlat.

Har yili 21-oktabr kuni mamlakatimizda til bayrami sifatida keng nishonlanishi an’anaga aylanib qolgan. Chunki, mamlakatimizda ona tilimizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, uning milliy ruhini oshirish, madaniyat va san’atni yuksak pog‘onalarga ko‘tarish, shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish sohasida qabul qilingan Davlat dasturi ijrosini ta’minlashdek, ustuvor yo‘nalishdagi vazifalarni bajarish tom ma’noda kundalik hayotimizga tobora singib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 621-II son Qonuni asosida mazkur qonunning ijro muddati 2005-yil 1-sentabrdan 2010-yil 1-sentabrgacha uzaytirilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, huquqiy davlatchilikka asos solindi. Huquqiy davlatchilikning asosini fuqarolik jamiyati tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati esa, huquqiy munosabatlardan tashkil topadi. O‘z haq-huquqini bilgan, uni qonuniy yo‘l bilan talab etadigan, himoya qiladigan huquqiy ma’rifati yuqori bo‘lgan xalqning istiqboli porloq, hayoti farovondir. Shu bois ham istiqlolning dastlabki yillaridayoq, davlatimiz rahbari Islom Karimov: «…aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini jonlantirmoq, aholining o‘z haq-huquqlarini bilishi, tanishi va amaliyotda qo‘llash uchun huquqiy targ‘ibot ishlarini keng yo‘lga qo‘ymoq ayni muddaodir» — deb ta’kidlagan edi.

E’tirof qilinganidek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarning pirovard maqsadi — inson huquqlari va manfaatlari to‘la-to‘kis ta’minlanadigan fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat barpo etishdan iboratdir. Jamiyatimizda, eng avvalo, inson manfaatlarini ifodalovchi, ta’minlovchi va himoya qiluvchi huquqiy davlat qurish jarayoni amalga oshirilmoqda.

Insoniyat tarixida tilga doimo katta e’tibor berib kelingan. XX asr oxirida tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarash g‘oyasi keng yoyildi. Bu bejiz emas. Chunki jahondagi ko‘pgina mamlakatlar o‘z mustaqilligiga erishib, milliy tillar davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega bo‘ldi.

1989-yil 21-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasining muhokamasidan so‘ng o‘zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi va bu tarixiy hodisa mustaqillikdan ikki yil oldin ro‘y berdi. Bu ulug‘ maqsadga erishish va tarixiy voqelikning ro‘yobga chiqarilishida muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov bevosita rahbarlik qilganlar.

1992-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yildi. Yurtboshimiz aytganlaridek, «Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi».

Prezidentimiz Islom Karimovning ushbu asarida: «…o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga til orqali, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatning ruhidir» — deya ta’kidlab o‘tilgan. Nafaqat mamlakatimizda, hattoki xorijiy mamlakatlarda adabiyot va san’at yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan taniqli tilshunos olimlar, turkiy tillarning boyligi va xususiyatlari, jumladan, o‘zbek tilining jahon tillari orasida eng go‘zal va nafis til ekanligi, tarixiyligi bilan ajralib turishi haqida ko‘p yozganlar. Turli anjumanlarda ona tilimizning boy til ekanligi haqida odilona-xolisona fikrlar bildirganlar.

Mirzo Ulug‘bekning «Tarixi arba’ ulus» (To‘rt ulus tarixi») kitobida quyidagilar bayon etilgan, ya’ni: Sulton Muhammad O‘zbekxon o‘zining el ulusi bilan ilohiy saodat va fazilatga

yetishgach, hazrati Sayid Otaning g‘ayb ishorati va ollohning inoyati bilan ularning barchasini Movarounnahr diyori sari olib keldi. Hazrati Sayd Otaga quloq solishdan bo‘yin tovlaganlar bu saodatdan bebahra holda u yerda (Dashti Qipchoqda) qoldilar va «qalmoq» degan nomga mansub bo‘ldilarki, buning ma’nosi «qolgan» demakdir. Hazrati Sayd hamda Sulton Muhammad O‘zbekxon bilan hamrohlikda Movarounnahrga kelgan kishilardan: «Bu kelgan kishilar kim?» deb so‘rardilar. Ularning sardori va podshohi O‘zbekxon bo‘lgani uchun ularni «o‘zbek» deb atadilar. Shu sababli o‘sha zamondan boshlab Movarounnahrga kelgan kishilar «o‘zbek» deb atala boshlandi.

XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi qavmlarning Movarounnahrga kirib kelishi bilan mahalliy aholi tarkibida «o‘zbek»larning nufuzi yanada ortgan va asta-sekin bu nom turkiy aholining umumiy nomiga aylangan. Bu esa turkiy tilning tobora kengayishi va nufuzi oshib borishiga keng imkoniyat yaratib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyo.uz kutubxonasi
2. http://hozir.org/reja-adabiyot-soz-sanati

MATEMATIKA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA REFLEKSIYANING O‘RNI

Norqulova Rushana Bobojonovna
Toshkent shahar, Olmazor tumani,
278-maktab matematika fani o‘qituvchisi
Axmedov Ibragim Razzoqovich
Xorazm viloyati, Shovot tumani,
1-IMI oliy toifali matematika fani o‘qituvchisi.
Email: Maqsad.ahmedov@mail.ru
Telefon: +99891 781 2974

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning matematika darslarida o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilishlari orqali ularning ijodiy,mustaqil fikrlashga, o‘z maqsadlariga oson erishishlari uchun refleksiyadan foydalanish muhimligi yoritilgan.Shuningdek, dars faoliyatida o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi baholashlari uchun refleksiyaning bir ko‘rinishi metodik tavsiya sifatida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Baholash, o‘z-o‘zini baholash,zamonaviy pedagogika,refleksiya, refleksiya vazifalari, refleksiya turlari;

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida jahon ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta’limning yangi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish milliy tadbirlar rejasiga kiritilgan. Maktab ta’lim sifatini yaxshilashning asosiy yo‘naltiruvchi nuqtasi sifatida maktab o‘quvchilari funksional savodxonligini rivojlantirish ularning jamiyatda faol ishlash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini takomillashtirish hamda o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarish qobiliyatlarini talab qiladi.Yosh avlodni tarbiyalash,ularni voyaga yetkazish,zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarlarni puxta egallashlari uchun bugungi kun ta’lim jarayoniga oid innovatsiyalarni joriy qilish kompetensiyalariga ega bo‘lishlari zarur hisoblanadi. Matematika fanini o‘qitish jarayonida baholash tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallari o‘zlashtirilganligini, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lganligini tekshirish va baholash ta’lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

Baholash-ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Bilimlarni tekshirish va baholashning ta’limiy ahamiyati shuki, bunda o‘quvchilar o‘quv materialining o‘zlashtirilganligi haqida ta’lim beruvchi, ham ta’lim oluvchi ham muayyan ma’lumotga ega bo‘ladi.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ta’lim oluvchilarning o‘qishga, o‘z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi,qiyinchiliklarini yengish istagi tug‘iladi. Ba’zan baholash jarayonida ta’lim oluvchi qo‘shimcha bilim, ko‘nikma va malakalarga ham erishadi.Ta’lim jarayonida o‘zlashtirilmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta’lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin. Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirish orqali maktab jamoasining ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, o‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta‘lim standartlarida davlat tomonidan qo‘yilgan talablar qanchalik darajada bajarilayotganligi aniqlanadi.

Zamonaviy pedagogikada inson o‘z faoliyati, hatti-harakati va ularning natijalarini tahlil qilishga (o‘zini-o‘zi baholashga) refleksiya deb ataladi. Refleksiya o‘quvchilarga o‘z o‘quv faoliyatlari va ularning natijalarini baholashlariga yordam beradi.Refleksiya vazifalariga quyidagilar kiradi.

1. Diagnostik baholash vazifalar
2. Tashkiliy vazifalar
3. Motivavatsiya vazifasi
4. Uzatish vazifasi

Shuningdek, keying o‘quv faoliyati maqsadini belgilashga va ularga tuzatishlar kiritishga zamin yaratadi. Shu jihatdan undan aynan dars natijalarini baholashda foydalanish mumkin bo‘ladi.O‘qituvchilarga dars o‘tish mobaynida refleksiyaning bir necha ko‘rinishlaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq.Refleksiyani o‘tkazishning turli usullari mavjud.Uning bir qancha usullaridan foydalanish mumkin.Har bir ijodkor o‘qituvchi uning turlarini ijodiy shakllantirishi mumkin.Quyida men dars faoliyatimizda o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi baholashlari uchun tavsiyamni keltirib o‘tmoqchiman. Ushbu refleksiyadan har kun foydalanishimiz mumkin, hafta oxirida yoki chorak oxirida foydalanishimiz mumkin.Bu yerda o‘quvchining darsga tayyorgarligi, uyga vazifa bajarganligi, matematik ijodkorligi, darsdagi faolligi xulqi ham o‘zlari tomonidan baholanadi va olgan ballari o‘rta arifmetigi olinadi.

1. Darsga tayyorgarligi: O‘quvchilarning formada kelishi, o‘quv qurollarining bo‘lishi,kitob va daftarlarining ozoda tutilganligi nazarda tutiladi.

2. Uyga vazifa bajarganligi: O‘quvchilarning uyga vazifalarini muntazam bajarib borishlari va to‘g‘riligi e’tiborga olinadi.

3. Matematik ijodkorligi:O‘quvchilarning o‘tilgan mavzular bo‘yicha she‘r yozishi, shakl yasab kelishi, savollar yoki krossvordlar tuzib kelishlari mumkin.

4. Darsdagi faolligi:O‘quvchilarning dars davomida faol qatnashganligi,savollarga javob berganligi, misol va masalalarni qay darajada yecha olganliklari e’tiborga olinadi.

5. Xulqi:O‘quvchilarning dars davomida o‘zining xulqiga ogohlantirish olganligi bilan hamda, o‘z navbatida tarbiyali bo‘lishi nazarda tutiladi.

Bunda o‘quvchilar vijdonlilikka, mas’uliyatli bo‘lishga, rostgo‘ylikka, halollikka o‘rganadi. Bunda ham tayanch kompetensiyalar ham fanga oid kompetensiyalarni shakllanishini ko‘rishimiz mumkin.O‘quvchilar mustaqil hayotda ham o‘zlarini nazorat qilishga undaydi,ijodiy fikrlashga o‘rgatadi.O‘z navbatida bu esa, o‘qituvchiga ham katta mas’uliyat yuklaydi.Sergak, nazorat qilishda bardavom bo‘lishga undaydi.Keyingi betida test jadvali ham keltirilgan.Ushbu testlar dars boshida berilishi, oxirida berilishi ham mumkin.Ya’ni olgan bilimlarni test orqali sinovdan o‘tkazish mumkin.Ranglari ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, o‘tilgan darslarni takrorlash maqsadida o‘qituvchi tomonidan “Ha yoki Yo‘q” o‘yini uchun savollar tuzib kelinadi.Ko‘k rang –“yo‘q”(bulut ramzi), sariq rang-“ha”(quyosh ramzi),javobni bildiradi.O‘qituvchi savollar va jumlalarni o‘qiydi,o‘quvchilar esa baholash varaqalaridagi ranglarni ko‘rsatish orqali o‘z javoblarini bildiradilar. Bu ranglarni qizil va yashil ham qilishingiz mumkin.Bu bilan o ‘quvchilar jim bo‘lib ham javob berishga o‘rganadilar. Tinglash qobiliyatini ham rivojlantirishga yordam beradi. O‘z faoliyatlarini baholash va nazorat qilishni o‘rgangan o‘quvchi kelajakda mustaqil fikrlashga, o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga osongina erishishlari mumkin bo‘ladi.. Eng asosiysi mas’uliyatli bo‘lishga intiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1 Yunusova D. Matematikani o‘qitishning zamonaviy Texnologiyalari.Darslik-T.Fan va texnologiya.2011

2. Ishmuxamedov R.J,Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T-“Nihol” nashriyoti 2013,2016-279 b.

3.Ta’lim muammolari// Jurnal.2009-2017y.

4. Сергеев . И. С. Основы педагогической деятельности; “Учебное пособие”2004

SHARQ XALQLARI MADANIY MEROSIDA EKOLOGIK TARBIYA TALQINI

Nurjonova Sanobar Dushamovna
Xorazm viloyati Shovot tumani
1-IMI biologiya fani o‘qituvchisi
Tel:91-572-59-77
e-mail:dushamova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada ekologiya muammosi va madaniyati haqida tushunchalar berilgan bo‘lib, Sharq xalqlari allomalarining tabiat haqidagi qarashlari ham keltirilgan

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalqi, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, tabiatni asrash

O‘rta osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi qadimdan ekologik tarbiya masalalariga oid madaniy merosga ega. Ota-bobolarimiz tabiatga mehr-muhabbat ila mehnat qilganlar va uni asrab-avaylashgan, undan to‘g‘ri va unumli foydalanishgan, isrofgarchilikga yo‘l qo‘yilmagan. Shu asosida ular o‘z fikrlarini bildirganlar. Ularning dono naqllari biz yoshlarga tabiatga mehr uyg‘otishga katta yordam beradi. Masalan:,,Bir tup tut eksang, Ming yil qadr topasan”,”Birni kessang, o‘nni ekkin’’ kabi maqollar yoshlarni ekologik madaniyatga ahamiyat berishga undaydi. Ekologik talim- tarbiyada hadis ilmining ham ta’siri katta. Hadis ilmi bilan shug‘ullangan mashhur allomalar Abu Abdulloh Muhammad ibn Islom Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso At-Termiziy, Samarqandiylar hadis ilmini asrdan asrga saqlanib borishiga munosib hissa qo‘shgan buyuk tarixiy shaxslardir.

Hadislar o‘quvchilarda ekologik talim-tarbiyani shakllantiradi. Tabiatga bo‘lgan munosabatni madaniyatli tarzda amalga oshirishni o‘rgatadi. Tabiatga bo‘lgan g‘amxo‘rlik undan oqilona foydalanishga o‘rgatadi.Masalan, “Qo‘y boq, zero u ayni barakadir. Bu tilsiz hayvonlar to‘g‘risida Ollohdan qo‘rqinglar. Dehqonchilik bilan shug‘ullaninglar zero u muborak kasbdir”. “Ko‘chat ekish niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda, bexosdan qiyomat-qoyim bo‘lishi aniq bo‘lganda ham ulgursangiz uni ekib qo‘yavering”. “Otning peshonasiga qiyomatgacha yaxshilik yozilgandir. Uni boqqan yaxshilik oladi”. “ Kishilarga soya beruvchi daraxni kesgan kishi boshi bilan do‘zzaxga tashlanadi”. Ona tabiatga munosabat qadimiy yodgorliklarda ham o‘z ifodasini topgan. Qadimiy yodgorliklardan bo‘lmish,,Avesto‘’ ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni ulug‘lagan kitobdir. U odamlarni barcha yomon so‘zu ishlardan, yomon amallardan, niyatlardan yuz o‘girishga, savob ishlarni hamisha va har doim qilib turishiga da’vat etadi.,,Avesto‘’ talimotiga ko‘ra tabiat bilan jamiyat, tabiat va insoniyat olami o‘zaro aloqador.,,Avesto‘’da hayvonlarni ovlamaslikka, ularni vaxshiylarcha o‘ldirmaslikka, yerdan esa unumli foydalanib asrab-avaylashga chaqiriladi. Tabiat bilan isoniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik to‘g‘risida buyuk allomalarimiz xam o‘z fikirlarini bildirganlar. 847-yilda Muhammad Al-Xorazmiy,,Kitob surat al-araz’’ degan asarini yozdi. Unda daryo, dengiz okeanlar, quruqlikdagi qit’alar, qutblar, ekvatorlar, tog‘lar, cho‘llar, ko‘llar, o‘rmonlar va ulardagi o‘simlik, hayvonlar dunyosi o‘rganilgan. Bu risolada yerning asosiy boyliklari haqida ma’lumotlar mavjud. U o‘z asarida dunyo tabiiy geografiyasining o‘zgarishi, suv sathining ko‘tarilib pasayishi, hayvon va o‘simlik dunyosida bo‘ladigan o‘zgarishlarni yozgan. U insonlarni tabiatga estetik munosabatda bo‘lishlari uchun o‘simliklar dunyosini ko‘proq ta’riflab bergan. Abu Nasir Foroboy (870-910) tabiat haqida ham o‘zining mukammal qarashlarini ilgari surgan. Farobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug‘ullangan bo‘lib,,,Kitob al-hajm va miqdor’’,,Kitob al-mabodi al-insonia’’(Insoniyatning boshlanishi haqida kitob) nomli asarlari bunga dalil bo‘la oladi. Tabiatshunoslikka oid,,Odam a’zolarining vazifalari haqida’’,,, Hayvon azolarining tuzulishi va vazifalari haqida’’ kabi asarlarida odam va hayvonnong tana tuzilish xususiyatlari va vazifalari haqida to‘xtalib o‘tadi. Farobiy tabiiy va inson qo‘li bilan yaratilgan -sun’iy narsalarning xususiyatlariga to‘xtaladi. U risolalaridan birida shunday deb yozgan edi: ”Inson borki tabiat ham bor, agar inson tabiatga yaxshi munosabatda bo‘lsa, tabiat ham o‘z chiroyini, go‘zaligini ko‘rsatadi”.

Abu Rayxon Beruniy o‘z qarashlarini koinotdagi hodisalarni, taraqqiyot qonunlari bilan narsa va hodisalarning o‘zaro ta’siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba’zi narsalarni hodisalarni quyoshning ta’siri bilan izohlaydi. Beruniy aytadiki, yerdagi o‘simlik va hayvonning yashash uchun zarur imkoniyatlari cheklidir. Beruniy tabiatshunos sifatida tabiat haqida quydagicha fikr yuritadi: ”Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to‘lib boradi. Garchi dunyo cheklangan bo‘lsa-

da kunlar o‘tishi bilan bu ikki o‘sish natijasida ko‘payish cheklanadi”. Jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan shoir, olim va davlat arbobi bo‘lib tanilgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)tabiatshunos ham bo‘lgan. U o‘zining,,Boburnoma’’ asarida ko‘rgan kechirganlari, yurgan joylarining tabiati, urf-odatlari, hayvonat va o‘simlik dunyosini tasvirlagan. Bobur o‘z asarida har bir hududni ma’lum bir tartibda tasvirlaydi. Avvalo, joyning geografik o‘rni, so‘ngra qaysi iqlimga mansubligi, har xil shifobaxsh o‘simliklari, qazilmalari, hayvonlari va aholisini tasvirlab beradi. Bobur shoir bo‘lgani uchun u o‘lkalarning go‘zalligidan ta’sirlanib har bir shahar yoki joyga bag‘ishlab she’rlar g‘azallar yozadi.

Inson tabiatga mehnatini jo qilib, bog‘-rog‘ yaratib undan estetik zavq oladi va uning mehnati samara beradi. Dono xalqimiz, “Mehnat-insonni ulug‘laydi”, -deb bejizga aytmaydi. Kasbi, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqichidan qat’iy nazar inson tabiat bilan hamnafas yashaydi. Shunday ekan yosh avlodda bog‘cha, maktab yoshidan tabiatni sevish, unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi «Nasaf», 2000-yil
2. Rozikov O., Og‘aev S., Maxmudov A, Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. –Toshkent «O‘qituvchi» 1999-yil
3. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. – «Xalq ta’limi», 1999-yil

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARGA HIKOYA O‘QITISH METODIKASI

Nurmatova Mashhura Tojimahamadovna
Namangan shahar 41-son maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998993940520

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga hikoya o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, portret tasvir, mulohazalar, nutq o‘stirish, asar sujeti.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishilar hayotida ma’lum bir voqea hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. “Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroqdir”. Hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So‘roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o‘qish darsida o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z va iboralar ma’nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. Hikoyani o‘qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziy o‘rin egallaydi. Hikoya o‘qib bo‘lingach o‘quvchilar o‘ylashi, o‘z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O‘qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta’sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya sujeti voqeaning yo‘nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g‘oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalanildi.

Badiiy asarni tahlil qilishda sujetni to‘liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o‘ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyligi bilan o‘ziga xos. Hikoyada voqea tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog‘liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O‘quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf “o‘qish kitobi”dagi “Ilmli ming yashar” (Nurmat Maqsudiy), “Xazonchinak” (O‘.Hoshimov), “Qo‘shterak” (A.Irisov) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan.

Ular mavzu jihatidan xilma-xil bo‘lib, qahramonlarning xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Hikoya biror bir davr bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar qahramonlarning ma’naviyatlariga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong‘u tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo‘la boshlaydilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
2. U. Masharipova O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.
3. Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklari.
4. www.ziyonet.uz

BIOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Nurmatova Zulxumor Maxmudjonovna
Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani
29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bilogiya fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogic texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: biologik jarayonlar, animatsiyalar, multimediyali texnologiya, ensiklopediya, o'simlik va hayvonlar, botanika va zoologiya.

Bugungi zamon glaballashuv davrida ta'lim jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari bu dars davomida maxsus uslublar, dasturiy va texnik (kino, audio, video, kompyuter, tele dasturlar) vositalar yordamida o'quvchilarga ma'lumotlar berishga asoslangan pedagogik texnologiyadir. Biologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish predmetni o'qitish sifatini oshirishga yordam beradi, turli ob'yektlarning hayotiy xususiyatlarini ochib beradi, ko'rgazmalilikni keng yoritadi, tabiat hodisalari va o'rganilayotgan ob'yektlarni eng muhim xususiyatlarini) o'quvchilar ko'z oldiga yaqqol keltiradi, hamda asosiy belgi va xususiyatlarini idrok etish qulay sharoitini yaratadi.

Ko'plab biologik jarayonlar murakkabligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. O'quvchilar narsa va hodisalar, jarayonlarni borishini rasm va tasvirlarsiz tasavvur qilishga qiynalishadi.

O'quvchilarning abstrakt tafakkurlarini oshirishda, biologik jarayonlarni bir butunligini tasavvur qilishlarida, mustaqil «shakllar» yaratishda, o'zining xatolarini to'g'rilashda multimediyali animatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida multimediyali texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning ilmiy faoliyatga va komyuter bilan ishlashga qiziqishlarini oshiradi. Darslarda kompterlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda muxim ahamiyat kasb etadigan usul sifatida shakllanadi. Natijada darsni qiziqarli va ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydi. Taqdimot (prezentatsiya) — bu o'quv materialini slaydlar, tablitsa, sxema, chizmalar, audio va video materiallari orqali berishdir.

Internet o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etishda juda katta (elektron pochta, qidiruv tizimi, elektron konferensiya) ma'lumot manbai sifatida zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Darsda Internet ma'lumotlaridan foydalanish yangi mavzuni qiziqarli ma'lumotlar bilan to'ldiradi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishlarini oshiradi. Internetdan barcha maktab predmetlari bo'yicha to'liq yechimi bilan berilgan masala va mashqlarni, testlar, referatlar, turli tajribalarni modellari berilgan tematik saytlarni topish mumkin. Hech kimga sir emaski aksariyat zamonaviy maktab o'quvchilari zarur ma'lumotlarni adabiyotlardan emas balki Internetdan olishmoqda.

Internet ma'lumotlaridan foydalanishning eng muhim tomoni o'quvchilarning vaqti tejaladi va ko'proq axborotlar olish imkoniga ega bo'ladilar. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar tomonidan olin- gan ma'lumotlar ustida to'g'ri ishlashga yo'naltirish, urg'uni to'g'ri qo'yish yo'llarini, eng asosiy ma'lumotlarni ajratib olishga yo'llashdir. Misol uchun, «Yerda o'simliklar dunyosini rivojlanishi» mavzusini o'rganishdan oldin o'quvchilar oldindan Internetdan ma'lumotlar olish to'g'risida topshiriq olishadi. Topshiriq individual va guruhli xarakterga ega bo'lishi mumkin. Agar vaqt yetarli bo'lsa o'quvchilar internetdan olgan ma'lumotlari haqida ma'ruza qilishlari mumkin. Bunday jarayonlar o'quvchilarning internetdan olgan ma'lumotlari ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirib boradi.

Elektron ensiklopediya — bunga misol qilib «Katta ensiklopediya»ni olish mumkin. Bu elektron ensiklopediyadan dars uchun zarur bo'lgan jadvallar, sxemalar, o'simlik va hayvonlar sistematikasi, multimediyali panorama ("Hayot evolyusiyasi", «Yer ekosistemalari») videolavhalar («Yovvoyi hayvonlar hayoti») audio yozuvlar ("Hayvonlarning tovushlari") fotoalbomlar («yirtqich hayvonlar») kabi juda ko'p ma'lumotlarni topish mumkin.

Video materiallardan foydalanib o'tiladigan darslar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini

kuchaytiradi. Ayniqsa, 6-7 sinf botanika va zoologiya darslarida o‘simlik va hayvonlarning xilma-xilligini o‘rganishda bulardan foydalanish biologiya darslarini yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Bu filmlarda baliqlar, suvda ham, quruqda ham yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar hayoti haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quvchining balki o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda, dunyoqarashini kengaytirishda, fan yutuqlari bilan doimo tanishib borishda, biologik bilimlarni o‘zlashtirishda, darslik, qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlashda muhim manba vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi - T., 1997.
2. Arslonov M.T va boshqalar. O‘simliklarni biologik himoya qilish. T., «Ilm Ziyo», 2003.
3. Biologiyadan Davlat ta’lim standarti (7-sinf). Toshkent-2008.

O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA TIBBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA FANINING O‘RNI

O‘razova Salomat Ramazonovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani 19-maktab
jismoniy tarbiya fani o‘qituvchi
telefon: 99894 225 31 30
Axtamov Suhrob Shavkatovich
Navoiy viloyati Navbahor tumani 22-maktab
jismoniy tarbiya fani o‘qituvchi
telefon:99.6850718

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy madaniyatni o‘quvchilar orasida va aholining barcha qatlamlariga chuqur yetkazib berish, aholining salomatligini yanada mustahkamlash, tibbiy islohotlar haqida fikr yuritiladi. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasining tibbiy nazorati maktabda ishlayotgan pediatrlar zimmasiga yuklatilganligi, jismoniy tarbiya ishini tashkil qilishda maktab vrachining roli tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish, ularning salomatligi va jismoniy rivojlanish darajasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tibbiy madaniyat, salomatlikni asrash, shaxsiy gigiena qoidalari, maktab vrachi, tibbiy markazlar, qarindoshlik o‘rtasidagi nikoh, yuqumli kasalliklar, sport jarohatlari, ko‘ngilsiz hodisalar.

O‘zbekiston hukumati yosh avlodning jismoniy rivojlanishi, salomatligi va ma’naviy barkamolligi haqida doimo g‘amxo‘rlik qilib kelmoqda. Vazirlar Mahkamasining,,Sog‘lom avlod’’ dasturi ham bunga yorqin dalildir.

Bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun ular orasida sog‘lomlashtirish, ta’lim va tarbiya ishlarini o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Mustaqillik yillarida barcha sohada keng ko‘lamli ishlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Inson salomatligini asrash, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, tibbiy madaniyatni axolining barcha qatlamlariga chuqur yetkazib berish, axolining salomatligini yanada mustahkamlash tibbiy islohotlar asosini tashkil etmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda jismoniy tarbiya va sport tizimi tobora rivojlanmoqda. Texnik imkoniyatlarimiz kengayib, ko‘pchilik aholi qatlami kam harakat ish faoliyati bilan band. Farzandlarimiz bilan birgalikda sport musobaqalarini qishloq va mahallalarda tashkil qilib, mahalla birinchiliklarini o‘tkazib kelinmoqda. Sport turlarini qishloq maktablarida rivojlantiribgina qolmay, ota-onalar o‘rtasida ham targ‘ib qilinmoqda.

Mutaxasislarning muloxhazalariga ko‘ra, aksariyat bolalar xastaliklari shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilmaslik oqibatida kelib chiqadi. Aniqroq aytganda kasalliklarni mikroblar chaqiradi. Mikroblardan xalos bo‘lish uchun esa har doim toza-ozoda yurishga harakat qilish zarur. Bolalarni kichkinaligidan ozodalikka o‘rgatish orqali ularni sog‘lom turmush kechirishini kafolatlagan bo‘lasiz. Bolalarni ertalabki badantarbiya mashqlarni kanda qilmaslikka odatlantirish zarur. Qolaversa,bolalarning har birining tish cho‘tkasi alohida bo‘lishini ta’minlash, birovning sochig‘iga artinmaslikni tushuntirish ham ota-ona zimmasidagi mas’uliyatga kiradi. Birinchi galda oilaning har bir a’zosi,bolalar hojatxonadan chiqqach, qo‘llarni sovunlab yuvishga odatlanishi shart. Ota-onalar farzandlariga shaxsiy gigiena qoidalarini tez-tez tushuntirib, ularga amal qilinishi ni muntazam nazorat qilib borsalar, ozodalik-orastalik bolalar uchun hayot tarziga aylanadi. Bu esa ko‘plab yuqumli kasalliklarning oldini oladi. Maktabda shifokorlar tomonidan qizlarni erta ona bo‘lishi, ayollarning bilim olishi va mehnat qilishini cheklashi, moddiy jihatdan ta’minlanmagan oilada, albatta, muammaolar va nizolarning kelib chiqishi, yosh onaning asabiylashishi esa bola salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi, qarindoshlik o‘rtasidagi nikoh ona va bola hayotini xavf ostiga qo‘yishi, giyohvandlik-umr kushandasi, atrof-muhitni muhofaza qilish ham inson salomatligining bosh omili ekanligi muhokama qilinadi.

Jismoniy tarbiya ishini tashkil qilishda maktab vrachining roli beqiyosdir. Vrach birlamchi qaytaruv va qo‘shimcha tibbiy ko‘riklarni o‘tkazadi, bolalarni tibbiy guruhga bo‘ladi, ularning salomatligi va jismoniy rivojlanish darajasini aniqlaydi, tahlil qiladi,shu asosda pedagogik jarayonga o‘zgartirishlar kiritiladi. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasining tibbiy nazorati maktabda

ishlayotgan pediatrlar zimmasiga yuklatilgan.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish jarayonida maktab o‘quvchilari orasida juda ham kerakli bo‘ladigan irodasini tarbiyalovchi sifatlar, ya’ni maqsadga erishish, qo‘rmaslik, tashabbuskorlik kabilar katta ahamiyatga ega.

O‘quv dasturuningg bajarilishi va o‘quvchilarning kerakli bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishiga jismoniy tarbiya o‘qituvchisi javob beradi. O‘qituvchi sanitariya-gigiyena talablarining bajarilishini, sport jarohatlari, ko‘ngilsiz hodisalarning oldini olishni bir yilda 2-3 marta bolalarning muntazam jismoniy tayyorgarligini tekshirib, tibbiy tekshiruv natijalarini e’tiborga olgan holda nazorat qilib boradi.

Maktabda jismoniy tarbiya va sportning samarasi vrachning o‘z mas’uliyati va vazifasining qay darajada bajarilishiga, bolalar organizmi anatomic-fiziologik holatini mukammal bilgan holda ularga jismoniy mashqlar metodikasini to‘g‘ri tadbiq qila bilishiga, mutaxassis sifatida vrach-pedagog nazoratini olib bora olishiga hamda o‘qituvchilar, o‘quvchi va ota-onalar orasida sanitar- targ‘ibot ishlarini faol olib borishiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F. Xo‘jayev, B. Safarov, Z. Raximov. Jismoniy tarbiya o‘qitish metodikasi(metodik tavsiya).2013-yil

2. T. S. Usmonxo‘jayev, S.T.Islomova. Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya. Toshkent-2006. Ilm Ziyo nashriyoti.

3. Sh. G‘. Xo‘jayev. “Umuta’lim maktablarida maxsus tibbiy guruhga kiritilgan o‘quvchilarga jismoniy tarbiya”dan o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent. 2001. Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.

ONLINE TA'LIMDA O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Obidova Baxtigul Ro'zmatjon qizi
Farg'ona viloyati Toshloq tumani 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi telefon:+998904050691
pochta: baxtigulobidova@gmail.com

Anotatsiya: ushbu maqolada online maktab loyihasida o'quvchilarni darslarga qiziziqishini oshirish, mavzularni tushunishini qulaylashtirish, raqamli o'rganish muhitida samarador usullardan to'g'ri foydalanish haqida tavfsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, online maktab, kopertaiv ta'lim, differensial o'qitish, o'quv strategiyasi, mustaqil ta'lim, o'rganish vositalari, o'zaro aloqa, jonli muhit, ijobiy raqobat, fikr alamashish.

Online ta'lim bilan o'qitish sinfdagi darslarga o'xshamaydi. Ta'limni kuchaytirish uchun boshqacha yondashuv va maxsus onlayn o'qitish usullari talab etiladi. Raqamli o'rganish muhitida o'qituvchilar dars samaradorligiga ishonch hosil qilish uchun ko'pincha cheklangan vaqtga ega ekanligi darsning mazmuniga ta'sir qiladi. Lekin vaqt va tinglovchilaringizdan qat'i nazar, o'qituvchi yaxshi, sifatli, tushunarli dars tashkillab berishi kerak.

Ushbu beshta onlayn o'qitish usullari o'qituvchilar uchun o'quvchilarni darslarga qizizqishi va oson tushunishiga yordam beradi.

-*Koperativ ta'lim:* Ba'zan kichik guruhli ta'lim deb ataladi, bu kichik guruh o'quvchilari umumiy vazifada birgalikda ishlaydigan o'quv usulidir. Bu usulda murakkab tushunchalar, ko'p bosqichli matematik masalalarni birgalikda yechishda, yoki yangi mavzuni mustaxkamlashda o'qituvchi guruhlardan foydalanishi mumkin. Online va masofaviy o'qitishning kamchiliklaridan biri shundaki, o'quvchilar o'zaro ishlash va hamkorlik qilish uchun kamroq imkoniyatlarga ega. Bu usul shu muammoni yechishga qaratilgan.

-*Differensial o'qitish:* uzoq vaqtdan beri sinflarda o'qitishning asosiy sharti bo'lib kelgan. Ya'ni farqlash yo'li bo'yicha turli xil o'quv strategiyalaridan foydalangan holda barcha o'quvchilarga bitta materialni o'qitish degani. Bundan tashqari, o'qituvchidan har bir o'quvchining qobiliyatidan kelib chiqqan holda turli darajadagi darslarni o'tkazish talab qilinishi mumkin. Har bir o'quvchining o'rganish uslubi va tushunish yo'li turlicha. Va har kimning shaxsiy imtiyozlari va tug'ma qobiliyatlari bor. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilarning imkoniyatlari bilan ishlab, ularga turli xildagi darslarni tashkil qiladi.

-O'z-o'zidani o'rganish:

O'quvchilar darsning tezligini boshqarishiga imkon berib, har xil o'qish darajasi va ehtiyojlariga mos o'qitilishini ta'minlab beradi. Masalan, har bir o'quvchi turlicha o'qiydi. Kimdir tez o'qib tushunsa, kimdir qayta-qayta o'qiganidan so'ng tushunadi. O'rganish odatlaridan va imtiyozlardan tashqari, ko'pincha hayotiy holatlar mavjud bo'lib, natijada o'quvchilar haftasiga bir necha soat internetda o'qishadi, boshqalari kuniga bir necha soat. O'z-o'zidan o'rganish - bu har ikkala turdagi vaziyatlarni hal qilishning eng yaxshi usuli. Ya'ni bu usulda o'quvchini vazifa bajarib, darslarda qatnashish tartibi ma'lim vaqt oralig'ida cheklab qo'yilmaydi. Sharoitiga ko'ra qo'shimcha vaqt beriladi. Shunda ular online o'qitishning foydali tomoni bo'lgan mustaqil o'z amaliyotlarida qo'llaydilar.

-*Bir nechta o'rganish vositalari:* O'rganish uslullari ilmiy jihatdan asosli ekanligi to'g'risida munozaralar mavjud. Ammo ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, o'quvchilar ko'rish, eshitish, o'qish, yozish yoki ma'lumotni namoyish qilishda yaxshiroq o'rganishadi. Zamonaviy texnologiyalar-o'quvchilar bu sezgilarini barchasidan foydalangan xolda darsni tushunishlariga imkoniyat yaratiib bera oladigan juda yaxshi imkoniyatdir. Biror narsani bir marta eshitish yaxshi boshlanishdir. Ammo uni eshitish, o'qish, ko'rish va u haqida gaplashish ancha yaxshi. O'qitish usullarining ushbu aralashmasi o'z-o'zidan o'qitish(2-usul) bilan birgalikda samarali o'qishga hissa qo'shadigan interfaol metodlarni takrorlashga imkon beradi. Va jonli oqim kabi zamonaviy vositalar sizga o'quvchilar bilan har xil usullarda muloqot qilish imkoniyatini beradi. Siz endi video, audio va matn bilan cheklanmaysiz. Shuningdek, siz jonli munozaralarni o'tkazishingiz, bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilar bilan ishlashingiz yoki ularning dars haqidagi takliflari

bilan ishlab hamkorlik qilishingiz mumkin. Zoom dasturi bo‘yicha dars haqida jonli munozaralar o‘tkazish, jonli muhit yaratishda eng yaxshi usuldir.

-O‘qituvchi va o‘qituvchining o‘zaro aloqasi: Raqamli o‘qitish bilan bog‘liq eng katta diqqatli tomonlardan biri shundaki, yuzma-yuz o‘zaro ta’sirning yo‘qligi, o‘quvchilar uchun zararli bo‘lishi mumkin. Mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari maktab yoshidagi bolalar uchun juda muhimdir. Katta yoshdagi o‘quvchilarga ta’sirini o‘rganishga oz vaqt sarflandi. Ammo ijtimoiy aloqalar va o‘zaro munosabatlar umuman insonlar uchun muhimdir. Shunday qilib, ushbu o‘zaro aloqalar o‘rganishga yordam beradigan va dunyoqarashini oshiradigan ko‘prigidir. Internetda dars berayotganingiz o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hech qanday aloqa yo‘q degani emas. Ammo bu aloqa yaxshi va sifatli amalga oshirish uchun siz astoyidil bo‘lishingiz kerak.

Bu yo‘lda muvaffaqiyatli yo‘l- to‘g‘ri o‘qitish usullarini tanlash bilan bog‘liq. Masalan, jonli efir, o‘quvchilarga mavzu yoki savol-javoblar paytida savollar berishiga imkon berish kerak. Bu esa o‘qituvchining videolarini tomosha qilishdan ko‘ra ko‘proq samara beradi.

Ko‘pgina onlayn dasturlar yuzma-yuz muloqotni o‘z ichiga oladi. Masalan, korporativ o‘qitish(1-usul) bir guruh o‘quvchilar bilan yuqoridagi barcha usullardan foydalanish imkonini beradi. Masofaviy ta’limda o‘qituvchi odatdagidan ko‘ra ko‘proq ishlashi, o‘quvchilarni darslarga chin dili bilan qiziqtirib bog‘lab olishni ta’minlashi kerak bo‘ladi. Yuqoridagi usullar yordamida o‘qituvchilar, o‘quvchilar bilan ishlaganda ularning barcha tomonalarini hisobga olagn xolda mazmuli va tushunarli dars tayyorlashlari mumkin. Online maktab loyihasida o‘qiyotgan o‘quvchilar uchun ham fikr almashishlari, ijobiy raqobat olib borishlari va bir-birlarini tushunganlarini to‘ldirishlariga imkon beradi. Natijada o‘quvchilar darsga qiziqishadi, birga ishlashni va sherigini tinglash ko‘nikmalariga xuudi maktabdagidek ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bespalko V.P. Slagaeme pedagogicheskoy texnologi. –Moskva: Pedagogika, 1989
2. Lesson Planning,Lesson Plan Formats and Lesson Plan Ideas.. www ADPRIMA. com

RIVOJLANISH MARKAZLARI HAQIDA MA'LUMOT. TIL VA NUQT MARKAZI.MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

Oblaqulova Mashhura Farxodovna
Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
+998997068131
Mashhuraoblaqulova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola 5ta rivojlanish markazlaridan biri ya'ni Til va nutq markazi haqida bo'lib,unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini o'stirishda foydaliniladigan mashg'ulotlar haqida ma'lumot berib o'tilgan.Bu maqola orqali MTT larda yosh guruhlarida qanday mashg'ulotlar o'tkazilishi haqida ham ma'lumotga ega bo'lishigiz mumkin.

Kalit so'zlar: Rivojlanish markazlari,til va nutq markazi,maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim tizimining eng asosiy va zarur bo'lgan ajralmas bir bo'lagi ekanligi tushunib yetildi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bola har tomonlama maktab ta'limiga tayyorlandi.Ular orasida bola nutqining rivojlanishi eng asosiylaridan hisoblanadi.Ularning so'z boyligi oshishi ravon gapirishi va o'z fikrini to'liq ifoda etib bera olishi juda muhim.SHu sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tiladigan mashg'ulotlar orasida nutq o'stirish mashg'uloti eng asosiy mashg'ulotlardan sanaladi. Bu mashg'ulotda har bir yosh guruh bolalarining yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda davlat talablari qo'yiladi.

Ikkinchi kichik guruhda – bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

- Tevarak atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish lug'atini boyitish;
- Nutqning grammatik tomonini shakllantirish;
- Nutqning tovush ma'daniyatini tarbiyalash;
- So'zlashuv nutqini shakllantirish;
- Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Kichik guruhda – bolalar tarbiyachisining hikoyasini eshitib,uning savollariga javob bera olishi,mavzulardagi rasm yuzasidan suhbatlarda ishtirok etishi bilan birga,avval eshitgan ertak va hikoyani xotirasida tiklab,uning mazmunini buzmasdan aytib bera olishi lozim. **O'rta va katta guruhlarda –** bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

- Badiiy adabiyot bilan tanishtirish;
- Mustaqil hikoya qilish jarayonini shakillantirish.

Qolaversa bolalarning nutqini o'stirishda quydagi usullar ham juda samarali hisoblanadi:viz ual,og'zaki,amaliy usullar.

Vizual usul – bolalar bog'chasida ko'proq qo'llaniladi.Bu o'yinchoqlar,rasmlardan mustahkamlash,so'z boyligi,so'zning umumlashtiruvchi funksiyasini rivojlantirish,izchil nutqni rivojlantirish uchun zarur hisoblanadi.

Og'zaki usul – o'qish,hikoya qilish,takrorlash,suhbatni umumlashtirish,eslab qolish orqali olib boriladi.Bu usul bolalarga ko'pchilikning oldida o'z fikrini ayta olishiga juda katta yordam beradi va keng qo'llaniladigan usullardan biri hisoblanadi.

Amaliy usul – nutq ko'nikmalarini qo'llash va ularni takomillashtirishga qaratilgan.Amaliy usullarga turli didaktik o'yinlar,mashqlar,plastik tadqiqotlar,dumaloq raqs o'yilar kiradi.ULar barcha nutq muammolarini hal qilish uchun ishlatiladi.

Bolalar nutqini qanday o'stirish kerak? 3 oddiy qadam. Kichkintoyni qanday qilib suhbatga tortish va uning nutqini rivojlantirish mumkin?Buning bir necha oddiy usullarini e'tiboringizga havola qilaman.

1. Bolalar bilan kattalardek gaplashing – sizning nutqingiz oson va to'g'ri bo'lsin.Bi-bi ni o'rniga ''mashina'','' nyam-nyam'' o'rniga ''ovqatlanish''va hokazo.SHunda bola birdan to'liq so'zlarni ayta boshlaydi va keyin uni kattalar tiliga qaytadan o'rgatishga to'g'ri kelmaydi. **2.Gapirishni o'rganishga kitoblar,qo'shiqlar va she'rlarni jalb qiling-** bola uchun oddiy

ertaklar tanlang.Sizning o‘qiganlaringizni eshitish mobaynida bola nutq tuzilishini qabul qila boshlaydi,yangi so‘zlarni va ayniqsa ularni talaffuz qilish qoidalarini o‘rganadi. Go‘dak yura boshlagandan keyin,o‘stirishga bolalar qo‘shiqlarini ham qo‘shish mumkin.Ularni bolalarga qo‘yib bering va u bilan birga raqsga tushing. Bunday ovunchoqlar vesibulyar apparatning rivojlanishiga yordam berishdan tashqari bolalarning nutqini ham kuchaytiradi.

3. Bolaning o‘yinchoqlari o‘rtasida ko‘rinishlar ijro eting – agar bolaning o‘yichog‘i sizning qo‘lingizda jonlansa va buning ustiga gapirsa,go‘dak quvonchining cheki bo‘lmaydi. Ikki personaj qatnashadigan eng oson suhbatlar va ko‘rivishlardan boshlang.Asta-sekinlik bilan personajlar sonini oshirib va mavzuni murakkablashtirib boring. SHunday soda o‘yinlar yordamida bola odamlar orasidagi suhbat qanday shakllanishini bilib oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maktabgacha ta’lim muassasasining namunaviy ustavi.Maktabgacha ta’lim 2008. 1-son 9-15 b

2. R.M Qodirova F.R Qodirova ‘’Bola nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi’’T. Istiqlol 2006.

USING VIDEO ACTIVITIES TO DEVELOP YOUNG LEARNERS' SPEAKING SKILLS

Mukaddaskhon Ogay,
Head of Media Department,
Innovation Centre,
Uzbek State University of World Languages
Phone: +998901853804
ogaymukaddas@gmail.com
Valentina Normuratova,
Candidate of pedagogical sciences,
Assistant professor,
Uzbek State University of World Languages
Phone: +998974348148

Abstract: This article discusses how to use multimedia resources, in this case video, in teaching English to young learners and developing their speaking skills.

The use of video in English classes has a huge advantage over reading texts, writing activities and listening exercises, because it instantly attracts the attention of young learners. Whether the video is authentic or was created as educational material for use in an English lesson in accordance with the language level of the certain age, the video should be developed in order to attract the learners' attention.

Key words: teaching, English, young learners, speaking, video, multimedia, application, "Kids' English".

"The purpose of foreign language teaching at all levels of education of the Republic of Uzbekistan is the formation of foreign language communicative competence of learners for functioning in a multicultural world in the domestic, scientific and professional fields. Foreign language communicative competence is the ability and real readiness to carry out foreign language communication." [1]

According to the requirements of State standards, teaching a foreign language at school is aimed at developing learners' foreign communicative competence - a certain level of language knowledge, sociocultural knowledge, speaking skills and abilities.

Taking into account the peculiarities of teaching young learners, it is necessary to find such ways that will arouse children's interest in learning English and help to avoid boring and ineffective lessons. The use of video in classes can help attract young learners' interest. As you know, this is a key part of a successful lesson. As soon as the young learners are interested in the content, they will be ready for the educational process and receptive to the planned actions.

The research conducted among learning groups of different ages in educational institutions in France, Spain and Hungary, there was revealed a pattern of decline in motivation to learn a foreign language after 10-11 years of age. Young learners show the greatest interest and are most motivated to learn the language. [2]

One of the biggest advantages of using video activities in the classroom is its ability to motivate young learners. The perception that they understand a person who speaks English is an important motivator almost for all young learners. Moreover, with the video support it is possible to show grammar structures, instructions, standard phrases for creating dialogs, a sample of pair or group work, that is, those elements that young learners will practice in action.

The possibility of using visual material as an illustration is one of the advantages of using multimedia in the educational process. "The use of visualization in teaching is a very important and one of the basic didactic principles... In didactics, the concept of visualization includes visual perception. The visual information from the point of view of psychophysiology is stored in memory." [3] The video also demonstrates that English is not just a school subject; it is a skill that finds applying in the real world. And that can spark the learners' imagination and memory. The theory of R. Mayer and R. Moreno is based on the idea that the content, presented in an animated form and combining text with images, helps to activate the learner's psychological imagination, in order to facilitate the reconstruction of answers to questions in memory, which

leads to the development of long-term memory. [4]

After watching the video, it is necessary to note the success of the young learners in understanding the video content, to involve them in the discussion of what they have just seen. Unlike reading texts and listening, video provides clear visual cues. They help young learners understand what happens even when not all the words in the conversation are understood.

Figure 1. "We can help you" cartoon in Kids' English-4 multimedia application.



Sometimes you can first play the video without sound, and discuss with learners what is happening in this episode. This method works similarly to reading prognostication and helps prepare learners for viewing with sound.

Figure 2. "About London" video in Kids' English-4 multimedia application.

Videos can be used for introduction of different languages and cultures to young learners. Nowadays, video lessons in English, or educational materials uploaded on educational Internet sites, filmed by teachers from different parts of the world, offer unlimited opportunities to hear various accents and dialects of the English language. Using such videos in the classroom will help the young learners realize that there is more than one version of the English language, and will help them get used to the fact that English is spoken differently. Moreover, there are far more people around the world who speak English as a second language than native speakers. In this regard, a video where people of different nationalities speak English will help learners understand different English languages. And, more importantly, the use of such videos in the classroom helps to increase the interest of young learners in learning English, since the realization that non-native speakers can also speak English fluently will increase their self-motivation and the desire to start speaking English.

Young learners, as a rule, react to cartoons with stories or funny characters. While creating multimedia resources this feature should be taken into account.

Figure 3. "Acquaintance with the traditions of different countries" animation.

The video materials can help the teacher organize various activities in the classroom: 1. TPR activities; 2. Art games; 3. Fun Drama presentations; 4. Flash card games; 5. Singing songs; 6. Warm up activities; 7. Project work, etc.

Figure 4. "Walking cars" TPR activity in Kids' English-4 multimedia application.

And in conclusion, it's necessary to emphasize that use of video in classes is an auxiliary tool for teacher's support. Any lesson can be successful and useful for young learners if the teacher clearly outlines for himself the objectives of the lesson, uses different types of activities, knows the specifics of teaching children at this age, and if he/she is not afraid to use creative ways to teaching English.

References:

1. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On approval of the state educational standard on foreign languages of the continuous education system" (Collection of legislation of the Republic of Uzbekistan, 2013, No. 20, Article 251)

2. Hovhannisyan, I. (2014).) Learners' attitudes and motivation to learn English: English as a foreign or as an international language? PhD dissertation. Department of Theoretical and Applied Linguistics, School of English, Aristotle University of Thessaloniki. 336 pages

3. Aksenova E.G. (2019). Psychological and pedagogical aspects of the use of multimedia technologies in the process of training in educational organizations of the system of the MIA of Russia. Problems of modern teacher education, (63-1), 13-16.

4. Mayer, R. E., & Moreno, R. (2003). Nine ways to reduce cognitive load in multimedia learning. In R. Bruning, C. A. Horn, & L. M. Pytlik Zillig (Eds.), Greenwich, CT: Information Age Publishing. pp. 23-44.

5. The multimedia application for Kids' English textbook for the 4th grade of secondary schools in Uzbekistan. (2016). Tashkent.

GENETIKA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI DAFTARINING O‘RNI

Olimov Xurshid Avazbekovich
TFI akademik litseyi biologiya fani o‘qituvchisi
Telefon: +998(94)624-11-84

Anotatsiya. Genetikadan daftar har bir darsning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini aniq belgilab, o‘quv topshiriqlari ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Reproduktiv, izlanish va tadqiqot xarakterdagi mustaqil ishlar, mustaqil ish daftari, genetika,

Mavzuning dolzarbligi shundaki, genetika fanini o‘qitishda o‘quvchilarni mustaqil ishlarini tashkil etish, ularda mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb muammo sanaladi. O‘quvchilar mustaqil ishlash mobaynida uchraydigan kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik, ularning tub mohiyatini anglab yetishi zarur. Shundagina o‘quvchilarning genetika fanidan olgan bilimlari yaxlit va mustahkam bo‘ladi

Akademik litseyi o‘quvchilarida genetika fanini o‘qitishda mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalrini shakllantirishda qo‘llaniladigan ishchi daftarning o‘quv samaradorligini oshirishni tashkil etish.

Akademik litseyi o‘quvchilarida “Genetika va seleksiya” bobini o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil bilim olish samarasini oshiradigan, mantiqiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan, o‘z-o‘zini baholash orqali ular faoliyatini nazorat qilib borish imkonini beradigan dasturlashgan vositalar sifatida genetika fanidan “O‘quvchining mustaqil o‘quv - ish daftari”dan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Nazariy sohada tadqiqot mavzusi yuzasidan mavjud bo‘lgan pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni o‘rganib chiqish va tahlil qilish, “genetika va seleksiya asoslari” o‘quv dasturlari va darsliklarni o‘rganib chiqish, o‘qitish jarayonlarini kuzatib borish, jumladan, o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazish, o‘quvchilar o‘rtasida anketa, og‘zaki so‘rovlar va yozma nazorat ishlari olib borish;

- eksperimental sohada pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish;
- statistik sohada pedagogik eksperimentlardan olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish.

Mustaqil ishlarni o‘qitish vositasi mustaqillik darajasi, didaktik maqsadi hamda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish shakliga binoan klassifikatsiya qilish mumkin. Mustaqillik darajasiga ko‘ra mustaqil ishlar quyidagi xillarga ajratiladi.

1. Reproduktiv darajadagi mustaqil ishlar. Darsda o‘rganilgan o‘quv materiallarini mustahkamlash, obyektlarni aniqlashtirish va tasdiqlash maqsadida tashkil etiladi.
2. Izlanish xarakteridagi mustaqil ishlar. O‘rganiladigan bilimlar asosida izlanish yo‘li bilan yangi o‘quv materiallarini o‘zlashtirishdan iborat.
3. Tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganib, bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

“O‘quvchining mustaqil o‘quv-ish daftari“ yordamida o‘quvchilarida biologiya faniga qiziqishini orttirish orqali ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, abstrakt tafakkurni rivojlantirish, mantiqiy mushohadani o‘stirish, eng muhimi egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilish ko‘nokmalarini hosil qilish mumkin.

Biologiya fanidan tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida “O‘quvchilarninig mustaqil ish daftari”ni yuritishni yo‘lga quyishning muhim ahamiyati va afzallik tomonlari mavjud:

- o‘quvchilarning biologiyadan o‘zlashtirgan nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash orqali mustahkamligi;
- mustaqil ish daftarida beriladigan test topshiriqlari, jadval va masalalar o‘quvchilarda mantiqiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- darslikda berilgan o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi, natijada o‘quvchilarning genetikani o‘zlashtirishga yordam beradi, fanga bo‘lgan qiziqishini ortadi, ilmiy dunyoqarishi kengayadi;
- daftar beriladigan uyda bajariladigan mustaqil ishlar dars jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlashga, ularni yanada kengaytrib, yangi bilimlar bilan boyitishga yordam beradi;

- o‘z-o‘zini baholash orqali bilimni nazorat qilish esa o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshiradi, bilim olishga rag‘batlantiradi.
- dars o‘tish davomida o‘qituvchining, dars tayyorlash davomida o‘quvchining vaqti tejaladi;
- o‘quvchilarning bilish faoliyati faollashdi, ta’lim samaradorligi ortadi.

Biologiya darslarida berib boriladigan ma’lumotlarning o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllanishi, ularni estetik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda kasbga yonaltirishdagi ahamiyati biologiyani o‘qitishning zamonaviy talablarga mos keladigan samarador pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘quv jarayoniga tatbiq yetishni taqozo yetadi. Bu jihatdan o‘quvchilarning faol mustaqil bilim olishi, o‘z bilimini o‘zi nazorat qilishga mo‘ljallangan ish daftarini yuritish texnologiyasi katta imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonun. “Barkamol avlod”, “O‘zbekiston kelajagining poydevori”, Toshkent “Sharq” nashriyoti 1997 y
2. “O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, Toshkent “Sharq” nashriyoti 1997 yil.
3. J. O. Tolipova “Biologiyani o‘kitishda axborot texnalogiyalaridan foydalanish” “Pedagogik ta’lim” jurnali 2006 yil 2-son.
4. A. T. G‘ofurov “Biologiyani o‘kitishda tabiiy fanlar bilan fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish” “Xalq ta’limi” jurnali 2007 yil 2-son 67-68 betlar.
5. A.Zikiryayev, A.To‘raqulov, I.Azimov, N.Sonin. “Biologiya”(sitologiya va genetika asoslari). –Toshkent:Zar qalam, 2006-yil.

USING CARD MATERIALS IN TEACHING THE ENGLISH IN THE 1ST GRADES

Olimova Saida Arolmirza qizi,
Namangan viloyati Chortoq tumani
50-umumta'lim maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotation: Uzbekistan is one of the developing countries in the world. Particularly, our government is paying much attention to the education of our young generation .That's why, many laws and changes are being reformed in education system.Especially,the English language is being taught from the 1st classes in all schools of our government.In this following article I'm going to illuminate some effective ways of teaching young kids,clearly,teaching them with the help of picture cards and some interesting visuals.

Key words: Intelligent teachers,young generation,visual cards,effective ways of teaching young kids.

Using card materials in teaching the English in the 1st grades is very suitable for pupils But without cards nothing can be conveyed. Therefore the use of cards is at the center while learning a new language. English being a second language or foreign language, one needs to learn methods in the systematic way. Professionals, who speak several languages, are highly demanded nowadays. That's why every second person sign up for language teaching centers or apply for the universities with bilingual education. Some learners suppose that knowing grammar equals to mastering the language, since that is what they are taught to from the very first day. And they are right… in some cases, but it's undoubtable, the method has *bigger* significance than grammar does. Grammar includes the structure of words, phrases, clauses and sentences, i.e. this is the system of a language. By mastering grammar perfectly you can be sure you know the structure of the language; however it doesn't mean you've possessed the language. There are also forms of cards of the material, more or less arbitrarily formed from the "inside." First, we can assume the existence of an associative organization in which we group together elements from any common features: of the same grammatical category (nouns with nouns, verbs with verbs, etc.) or with similar functions (for eg., clothing, food, musical instruments, etc.). cards and word trees are used in this type of educations . They are extremely useful frameworks for storage of lexis, and they can be used to highlight the relationships between items.

Necessary modern cards involve building a grid in which essential word-stock is listed on one axis of the grid and major features, characteristics, or important ideas are listed on the other axis. Students fill in the grid, indicating the extent to which the key words possess the stated features or are related to important ideas. Once the grid is completed, students are led to discover both the shared and unique characteristics of the methods.

Card is one of the most traditional methods when it comes to language learning. It goes without saying, that it has a lot of advantages, but in order to achieve our goals faster and more effective, I think, we should adapt to the way in which our brain works. There are a lot of innovative ways of teaching a language.

Of course, each teacher chooses the method, he is comfortable with. But there is something that unites us. We are responsible to educate worthy progeny. Younger generation has to be able to distinguish the line between "memorizing" and "understanding", as well as the differences between "learning" and "thinking". It will help them not only in their study, but also in creating better world.

Using cards in English lessons in the 1stgrades have several reasons for which the teaching component needs to be carefully planned. Firstly, it is important to ensure that learners master the high frequency words of the L2 before moving on to the less frequent words. Therefore, the level of the education as well as the methods of teaching it should suit the learners. Explain that want is best defined as what they need to know or learn. Ask alternate questions in order to prompt student responses. Questions may include: what the students want to learn about the topic. Refer back to the content section of the chart. The teacher asks students what the students want learn about the topic. 2. Students should check the answers to the questions in the content and then they can fill column. Third: After Reading: The students fill out the L column of their charts. In addition they answer the questions, the teacher increases students‟ motivation to write

in the interesting ideas they come up with, and they can put a check mark to the information that answers questions from the Dictate the items in L1, ask students to say the English equivalents (in chorus); or vice versa. Ask individual students to say one word or expression they've recently learnt or come across. They/you explain meanings where necessary. Teach a new extra item ('word of the day') at the beginning of every lesson (could be an idiom or a proverb).Brainstorm all the words you know that have to do with (a topic).

Use homework for vocabulary study: If you can, send parents the lists of items you've taught so that they - or siblings, or grandparents - can help students at home (use the school website).

Students find a word or expression (in the textbook, literature, newspaper, Internet or any other source) that they didn't know before, find out what it means, come to class and tell the others.

Students spend 10 minutes (by the clock!) reviewing all the items they've been taught over the last two weeks.

Students look up six words they have already learnt in the dictionary and find out either a) added manings or b) phrases that include them that they didn't know before.

Cards fluency exercises in the four skills with a focus on vocabulary.

KIMYO FANINIDAN METALMASLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA “BLITS-SO‘ROV” USULIDAN FOYDALANISH

Ollaberganova Dinora O‘ktamovna
Raximova Zubayda Allayorovna .
Bog‘ot tumani 10 son maktabning
kimyo fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Blits-so‘rov usul orqali o‘quvchilarga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirilishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zi: Interfaol, innovasion,metalmas, kislorod,vadorod, azot, xlor.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovasion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi.

- O‘qituvchi o‘quvchilarga ushbu mashg‘ulot bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichga moljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, o‘quvchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi .
- Keyin hammaga alohida-alohida tarqatma material beradi va ushbu materialni sinchiklab o‘rganishlarini so‘raydi;
- o‘qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi va **“o‘quvchining ismi va familiyasi”** va **“sinfi”** bo‘limlarini to‘ldirishni aytadi.
- tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta’kidlaydi;
- har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikri asosida tarqatma materialdagi **“o‘quvchi javobi”** bo‘limiga berilgan savollardan 3xil variantli javobdan bittasini yozadi, javoblar raqamlar yoki harflar bilan ko‘rsatilishi mumkin. - berilgan vaqt ichida yakka tartibdagi ishlar tugagach tarqatma materiallar o‘zaro almashinadi.(almashtirishni turlicha tashkil qilish mumkin, masalan yonidagi o‘quvchi bilan, kichik guruhlarda yoki orqadagi o‘quvch bilan) - tarqatma materiallar almashingach, oqituvchi to‘g‘ri javoblarni o‘qiy boshlaydi, oquvchilar bir-birini ishini tekshira boshlaydi va **“to‘g‘ri javob”** bo‘limiga “1” balldan, agar noto‘g‘ri bo‘lsa “0” ball qo‘yib chiqishadi.
- o‘qituvchi baholash mezonini tushuntirib beradi va tarqatma materiallar qaytadan o‘z egalariga almashtirilishi so‘raydi,o‘z xatolarini ko‘rib olishlariga imkon beradi. - o‘qituvchi tarqatma materiallarni yig‘shtirib olib baholaydi va e’lon qiladi.

№	Savol	A	B	C	O‘quvchi javobi	To‘g‘ri javob
1	Kislorodning Ar-?	16	22	11		
2	Vadorodning kimyoviy belgisi	Au	H	Ar		
3	Metalmaslarni atomlarida elektronlar biriktirib olish xususiyatining kam ayib borishi	Cl, O, N, S	S, O, Cl, N	O, Cl, N, S		
4	natriy xloridni ko‘rsating	NaC l	CaC l	KC l		
5	Metallm aslar… bilan uchuvchan birikmalar hosil qiladi	O	H	N		

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Asqarov I.R, To‘xtaboev N.X, G‘opirov K “Kimyo» 8-sinf uchun darslik – T, “Yangi yo‘l poligraf servis” 2006 yil 208 bet.
2.Abdullayeva N., Kimyo fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni turli shakl va usullari. Urganch. 2011 yil

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH JARAYONI

Ollamova Dildora Shonazar qizi
Xorazm viloyati Urganch tumani
6-son umumta’lim maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998932820260

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda bolalarga savod o‘rgatish jarayoni to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: analitik-sintetik (tahlil- tarkib) tovush metodi, o‘quv ko‘nikmasi, yozuv ko‘nikmasi, alifbo davri.

Analitik-sintetik (tahlil- tarkib) tovush metodida savod o‘rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo‘linadi:

a) alifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta);

b) alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o‘quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o‘quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o‘stirishga oid mashqlar o‘tkazib, fonematik eshitishni o‘stirishdan iboratdir.

Alifbogacha tayyorgarlik davri, o‘z navbatida, quyidagi 2 bosqichga bo‘linadi: 1.Harf o‘rganilmaydigan bosqich (1hafta).

2.Unli tovush va harf o‘rganiladigan bosqich (1 hafta).

1-bosqichda o‘quvchilarga og‘zaki va yozma nutq haqida, gap, so‘z, bo‘g‘in va tovushlar haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so‘zlardan tuzilishi, so‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi, bo‘g‘inlarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma’lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o‘rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga “Alifbe” da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o‘zlari bilan she’r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo‘shiqlar, latifalardan ayttiriladi.

Tayanch so‘zlar asosida gap tuzdirish, “Alifbe” sahifalaridagi so‘zlarning talaffuzi, o‘qilishi va ma’nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi (Bu tarzdagi ishlar har bir darsda mavzularga bog‘liq ravishda izchil davom ettirib boriladi).

Bu bosqichdagi yozuv darslarida o‘quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirib, harf elementlarini yozishga o‘rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarni aniqlash – o‘z-o‘zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish, chamalab yozish kabi ko‘nikmalar hosil qilinadi.

2-bosqichda unli tovush-harflar o‘rgatiladi. Bunda ularning quyidagi uch xususiyatini o‘quvchilar amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim: a) talaffuzda (og‘zida) to‘siqqa uchramasligi; b) cho‘zib aytilishi; d) faqat ovozdan tashkil topishi. Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o‘rgatish ko‘zda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf o‘rtasidagi chegaraga qat’iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi ma’lumotlar kitob ochtirilmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko‘rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid o‘ziga xos xususiyatlar (tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz; harflarni yozamiz, ko‘ramiz, o‘qiymiz) ham izchil ravishda o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini hisobga olgan holda sekin-asta tushuntirila boriladi.

Alifbo davri. Bu davr 31-dekabrgacha davom etib, unda o‘quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh-harflar bilan tanishtiriladi. Undoshlar osondan qiyinga tamoyili asosida joylashtiriladi. Oldin sonor tovushlar (n, m, l kabi), keyin esa sirg‘aluvchi va boshqa undoshlar (ng, sh, ch), tovush bildirmaydigan tutuq belgisi (‘) bilan tanishtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
2. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o‘qish darslari
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Orolova Nigora Aqrobjonovna
Namangan viloyati Norin tumani
33-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya:Maqolada boshlang‘ich sinfda ta’lim tarbiya samaradorligiga, ta’lim jarayonida multimediadan foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Boshlang‘ich ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan multimediali darslar haqida qisqacha yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: ta’lim jarayoni, axborot texnologiyalari, multimedia.

Bugungi kunda ta’lim jarayonining mazmuni va sifati axborotlashgan jamiyatning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlari biri sifatida ko‘rilmoqda. Ta’lim jarayonini rivojlantirish, va uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish, o‘quvchilarni zamonaviy kompyuter texnologiyalarini foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirish masalasi ommalashmoqda. Axborot texnologiyalarini qo‘llash- har bir o‘qituvchi hamda o‘quvchilar ko‘zda tutilgandek darajada o‘zlashiradi.

Mohir pedagok K.D.Ushenskiy “ Nola tarbiyasi go‘zallikni talab etadi”. Ayniqsa 1-4-sinf o‘quvchilari – obrazli tasavvurga muhtoj bo‘ladi. Shuning uchun ta’lim berishda imkon boricha to‘liq sifatli illyustrativ materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularga yangi bilim berish jarayonida nafaqat ko‘z orqali ko‘rish mumkin bo‘lgan, balki eshitish, hissiyot tasavvur qilishga yordam beradigan vositalardan keng foydalnish lozim.

Multimedia atamasi ingliz manbalaridan deyarli tuli xil transkripsiyalarda turli tillarga kirib brogan. Lotin so‘zlari birikmasidan kelib chiqadi “multum” (Ko‘p), “media” o‘rta (focus, usul). Demak multimedia so‘zi ko‘p muhitlar degan ma’noni anglatadi.

“Multimedia” tushunchasi inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llaniladi. Kompyuter sohasida bu saytlarning rivojlanishi, gipermatnli tizimlar, kompyuter grafikasi, kompyuteranimatsiyasi va boshqalar; ommaviy axborot vositalarida- jurnalistika, shu jumladan internet jurnalistika, nutq va ijtimoiy aloqalar va boshqalar: sa’nat sohasida, tarmoq sa’nati, kompyuter animatsiyasi, kompyuterdagi videolarni tahrirlash, ovoz yozish, film va boshqalar.

Multimediali darslar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- Fan bo‘yicha asosiy bilimlarni o‘zlashtirish.
- O‘zlashtirilgan bilimlarni izchilligini ta’minlash.
- O‘z-o‘zini nazorat ko‘nikmasini shakllantirish.
- Bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirish.

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga tadbiq etishdan asosiy maqsad-aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo‘lgan o‘quv faoliyatlari yangi turlari paydo bo‘lishidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, darslarimizni yanada chuqur tashkil etish uchun multimediya ilovalaridan foydalanilgan holda tashkil qilish o‘qituvchini dars o‘tish mahoratiga bog‘liq deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi 2015.
2. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash Toshkent2014.
3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta’lim-tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar-Toshkent 2013
4. Ta’lim texnologiyalari.Ilmiy-uslubiy jurnal 2015-2016 sonlari
5. Ijtimoiy tarmoqlardan.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TABIIY FANLAR VA ULARNING O'QITILISHIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Kamola Soyibjonovna O'rinboyeva
Asaka tuman 46-umumiy o'rta talim maktabning
Biologiya fani o'qituvchisi
Tel raqam: +998901495773

Annotatsiya: Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida tabiiy fanlar va ularning o'qitilishida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish haqida bahs yuritilish.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, pedagogik texnologiya, hamkorlikda o'qitish, didaktika, interfaol metodlar, modulli ta'lim

Respublikamizning umumta'lim maktablarida biologiya ta'limini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, uzluksiz ta'lim tizimining fan va ishlab shiqarish bilan integrastiyalashuvi, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda metodik tayyorgarligini orttirish jamiyat talablarining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktab ta'lim va tarbiya maskani ekanligini unutmasligimiz lozim. Barcha fanlarni chuqur ozlashtirish uchun darslarda o'quvchilar faolligini oshiruvchi didaktik o'yinlardan keng foydalaniladi. Hozirgi vaqtda biologiya o'quv kursining turli tarmoqlaridan: botanika, zoologiya, anatomiya, fiziologiya, molekulyar biologiya, paleontologiya, ekologiya, seleksiya, genetik injeneriya, biotexno-logiya bo'limlaridan o'qituvchi masalalar tuza olishi va o'quvchilarga ularning yechish usullarining eng qulay variyantlarini taqdim etishi va masalaning mazmun mohiyatini yoritib bera olishi uning kasbiy kompetentligiga bog'liq. Masala qanchalik yuqori darajali bo'lsa, shunchalik ko'proq fikrlashni va murakkab mantiqiy operatsiyalarni bajarishni talab etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya fani o'qituvchilari biologik masala va mashqlar yechishi va o'zining kasbiy kompetentligini takomillashtirishi uchun quyidagilarni bilishi muhim hisoblanadi:

- biologiyani o'rganish metodlari va tirik organizmlarning xilma-xilligi, prokariot va eukariot organizmlarning o'ziga xos tomonlari va ularni taqqoslashga, ko'payish tezligi, ko'payish tezligiga ta'sir ko'rsatadiga omillar to'g'risidagi; hujayrani kashf etilish tarixi, o'rganish usullari, hujayra organoidlari, kimyoviy tarkibi, organoidlar funksiyasi mexanizmlarini; hujayra tarkibiga kiruvchi organik moddalar - oqsillar, uglevodlar, lipidlar, nuklein kislotalar, va boshqalarning tuzilishi, kelib chiqishi, tarkibidagi monomerlar izchilligini, molekulyar massasini o'rganishga imkon beradigan; hujayrada boradigan plastik va energetik almashinuv, ATF, fotosintez mohiyatini chuqur bilishi; irsiyat qonunlari, modifikatsion, mutatsion o'zgaruvchanlikni o'rgaishga oid bilimlarni; seleksiya asoslari ya'ni o'simlik, hayvon, mikroorganizmlar seleksiyasi haqidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari lozim.

Darslarni yanada qiziqarli va zamon talablariga mos ravishda o'tish uchun biz albatta AKTdan foydalanishimiz kerak bo'ladi. Bu orqali biz informatika fanini fanimizga innovatsion, integratsion ko'rinishda bog'laymiz. Bu darsni yanada samarador bo'lishiga yordam beradi. Aniq va tabiiy fanlar fizika, kimyo, biologiya, astronomiya fanlari matematika fani bilan chuqur va keng bog'liklari bilan qayt etib boriladi. Integrativ manbada hamma fanlar rivojlanayotgan ijod mahsuli sifatida hal qilinishi texnologik integratsiya asosga umum ta'lim jarayonida kompyuterlashtirishga o'tish, dars jarayonlarini aktiv bo'lgan usulda o'qitish nazarda tutilgan. Bunda pedagogik jamoada ijodiy o'sishning o'quvchilarga foydali, o'quvchilar ongiga singdirishning qulay usullarini qo'llash jarayoni tushuniladi. Aniq va tabiiy fanlarda integratsion yondashuvda didaktik vazifalrni samarali amalga oshirish maqsadga muofiq bo'ladi. Tabiiy aniq fanlarni bog'lash iqtidorli va intiluvchan o'quvchilarni matematikaga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Innovatsion usullarni dars jarayonida qo'llash o'quvchining bilganlarini tartibga solishni, bilmaganini so'rab olishni, faolligini oshirish, qiziqishlarini oshirish, mustaqil ishlashni, qo'shimcha manbalardan axborot izlashni va o'zaro axborot almashinishini ta'minlaydi. Botanika va zoologiya o'quv fanlaridan beriladigan yozgi topshiriqlar muayyan tizimga ega bo'lishi lozim, chunki uning natijalaridan kelgusida ko'rgazma materiallari shaklida foydalanish ko'zda tutiladi. O'quvchilarning biologik kompetentsiyalarni shakllantirishda darsdan tashqari ishlar muhim rol o'ynaydi, o'qituvchi uy vazifasi va darsdan tashqari ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. Uy vazifalari darslik

bilan ishlash, qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qish, mavzuga oid rasmlarni chizish, tabiiy ob’ektlar ustida kuzatish o‘tkazish va oddiy tajribalar qo‘yish bilan ifodalanadi. O‘quvchilarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo‘shimcha bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o‘quvchilar guruhining o‘zaro hamkorlikda avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini ijodiy qo‘llanish va izlanish orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o‘yinlarni ijodiy o‘yinlar deb atash lozim. Ijodiy o‘yinli darslardan «Organik olam evolyutsiyasining asosiy yunalishlari», «Organik olam evolyutsiyasining dalillari»ni o‘rganishda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchilar guruhlarga teng bo‘linib, ularning har biriga shartli ravishda «Botaniklar», «Zoologlar», «Evolyutsionistlar» degan nom beriladi. Har bir «mutaxassislar» guruhi ijodiy izlanib, go‘yoki fanda yangiliklar kashf etadilar. O‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni ko‘rgazmali qurollarga tayangan holda bajarib, o‘z javoblarini asoslaydilar. Biologiyaga fizikaviy optik asboblarning kirib kelishi kichik jonzotlarni o‘rganish imkonini berdi. Lupa jismni 3-5 martagacha, dastlabki mikroskoplar 10-40 martagacha, hozirgi yorug‘lik mikroskoplari 2000-3000 marta, elektron mikroskoplar esa 200000 martagacha kattalashtirib ko‘rsatadi. Keyiingi yillarda tirik organizmlardagi organlar ham fizik qonuniyatlarga bo‘ysungan holda ishlashi aniqlangan. Masalan, qonning tomirlar bo‘ylab harakati gemodinamika qonuni asosida tushuntiriladi. Nerv impluslarining o‘tkazilishi, biotoklarning hosil bo‘lishi, organizmlarning tayanch harakatlanish sistemasi fizika qonunlariga bo‘ysungan holda amalga oshiriladi. Ko‘zning tuzilishi optika sohasining ob’yekti hisoblanadi. Ko‘z qorachig‘i yorug‘lik ta’sirida kengayib torayish hususiyatiga ega. Yorug‘lik nurlari ko‘p bo‘lganda qorachiq torayadi va nurlarning o‘tishini kamaytirib, retseptorni kuchli qo‘zg‘alishdan asraydi. Qorong‘ida esa aksincha, nurlarni ko‘proq o‘tkazish uchun kengayadi va aniq tasvir hosil qilinadi. Ko‘z gavharining ishlash prinsipi optik jismlarniki kabi boradi. U yorug‘lik nurini sindirib, o‘tkazish xususiyatiga ega. Ko‘z gavhari uzoqdagi buyumlarga qaraganda cho‘zilib uzunlashadi, yaqindagi buyumlarga qaraganda qalinlashib yassilashadi va normal ko‘rishni ta’minlaydi. Bu holat akkomadatsiya deb nomlanadi. Tirik organizmda boradigan turli metobolitik jarayonlar kimyoviy moddalarning faoliyati bilan bo‘liq. Oqsil, DNK, RNK va ATF organizmda eng muhim vazifalarni bajaradi. Irsiyat va o‘zgaruvchanlik shu moddalar orqali ta’minlanadi. Ularning tuzilishi, boshqarish mexanizmlarini bilish yangi zot va yangi navlar yaratishda irsiy kasalliklarni davolashda qo‘llanilishi mumkin. Plastik almanishinuv reaksiyalari hisoblangan fotosintez, oqsillar biosintezi, energetik almashinuv- ATF sintezi ham kimyoviy jarayonlar mahsuli hisoblanadi. Ma’lumki, fotosintez yashil o‘simliklarda xlorofill pigmenti hisobiga sodir bo‘ladi. Bu jarayon ikki bosqichda boradi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy g‘oyasi o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini birgalikda, hamkorlikda bajarib, o‘quv-tarbiya maqsadiga erishishdir. Mazkur texnologiya o‘quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o‘z fikrini bayon etish, asoslash va isbotlash, mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish, o‘quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish, ongli intizomni vujudga keltirishga zamin yaratadi. Hamkorlikdagi darslarda texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilarga qulayliklar yaratadi. Pedagogik texnologiya asosida yaratilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushushi kerak. O‘qituvchi hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining nazariy asoslarini, metodlaridan foydalanish yo‘llarini, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini, o‘quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo‘llarini egallagan bo‘lishi lozim. Shuni qayd etish kerakki, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining bir qancha(komandada o‘qitish, kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish, “zigzag” yoki “arra”, “Birgalikda o‘qiymiz”, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish) metodlari mavjud. Mazkur metodlardan biologiya darslarida muvaffaqiyatli foydalanish uchun o‘quvchilarda darslik ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalari, sinf jamoasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J.O.Tolipova, A. G‘ofurov Biologiya o‘qitish metodikasi. Nizomiy nomidagi TDPU 2012
2. J.O.Tolipova Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Nizomiy nomidagi TDPU 2014
3. J.O.Tolipova Biologiya ta’limi texnologiyalari. Toshkent, 2002
4. N.S.Saidahmedova Yangi pedagogik texnologiyalar T.Moliya, 2003

THE MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Oripova Nodira Akhtam kyzy,
English teacher of the secondary school №7
Navai region, Uchkuduk district

Annotation: *The article deals with the necessity and the importance of applying innovative technologies to foreign language lessons. They have a number of advantages compared with other information technology training, as they allow: to improve the process of organic combination of traditional forms and methods of education with innovation; implement training, information, games, modeling, design and analysis functions; general didactic perform such principles as the visibility, accessibility, difficulty feasible, system, transition from education to self-education, positive emotional background of training, between theory and practice.*

Keywords: *multimedia learning tools, learning paradigm communicative activity of students' independent work intensification.*

Nowadays knowledge of foreign languages is required in different spheres of human activity. It is not enough only to learn all words from the dictionary and grammar rules of the foreign language. Very important point in teaching students any foreign language is teaching speaking and listening.

One of the most popular methods among English teachers is the Communicative Approach. Communication has many functions which we accomplish through language. The most important communicative functions that English teacher should through language are:

- Greeting, inviting, accepting, complimenting, congratulating,
- suggesting, advising, reporting, commenting
- commanding, ordering
- questioning
- apologizing, making excuses

Talk is an essential part of communicating, thinking and learning. It allows students to express themselves, to give definitions to their thoughts and to learn about language, themselves and their world. The speech of the students is improved when teachers allow for all kinds of talk in auditorium activities, by engaging students in conversation and by planning many opportunities for students to extend their language. One of the basic assumptions of this method is that students will be more motivated to study since they fell they are learning useful with language they study. Teachers give students an opportunity to express their individuality by having them share their opinions and ideas on a regular basis. It helps students to integrate English with their personality. Also good teaching strategies and techniques include the planning and stating of carefully balances varied learning sequences with clear achievable objectives, so that students know what is expected from them. They also include Project work involving the students in deciding together what they want to do themselves, cooperation.

Role –play, group work, pair work, dialogues, all these will help to develop students' ability to work more effectively. Students train in fluency, quick reaction, acting skills and grammatical correctness in dialogues. Another great point is Motivation. It is widely agreed that motivation has a great effect on a student's capacity to loam. Motivation can be broken down into extrinsic and intrinsic forms. Intrinsic motivation comes from within the learner, who wants to learn for the sake of learning. It is much more likely that our students will be extrinsically motivated, meaning that motivation comes from external sources such as wanting to pass an exam. Nowadays pair work and work in small groups is very much in fashion. The communicative approach encourages teachers to use a lot of pair work and therefore increase 'student talking time'.

Pronunciation plays a special role in the content of language material. Pronunciation is the most essential skill of spoken English. Teaching pronunciation is frequently classified as the most neglected aspect of language while educating ESL students. It is challenging for many teachers to focus on pronunciation for a number of reasons. There are few appropriate tools and defined standards of what pronunciation practice should include and every technique, exercise or drill should

be used which may further the learners in their immediate purpose and bring them nearer to

their ultimate goal. Many educational institutions still struggle to incorporate different varieties of English into textbooks, together with their lexical, grammatical and cultural backgrounds. Learning foreign languages cannot be imagined without the use of multimedia teaching aids. The ability to illustrate the actual process of communication in English, the need to approach the educational environment to the real conditions of the functioning of the target language and culture are certainly urgent tasks methods of teaching foreign languages. The use of computer technology in teaching in our time is of great importance due to the new opportunities. The introduction of new information and communication technologies is expanding access to education, open education system generates, change the representation of qualified characteristics, which must have a modern graduate.

To conclude, the key strategies for teaching English classes are probably developing a positive and collaborative working atmosphere and providing a variety of work suitable for different levels.

Literature:

1. Cambridge: Cambridge University Press. Feuerstein, R., Klein, P. S. &Tannenbaum, A. J. (1991).

2. Mediated learning experience: Theoretical, psychological and learning implications. London: Freund Freire, Paolo. (1982).

3. Pedagogy of the oppressed Trans. M. B. Ramos. Harmondsworth: Penguin. Harmer, J. (2001).

4. The practice of English language teaching. London: Longman, 3rd edition. Kumaravadivelu, B. (2006).

5. Beyond methods: Macro strategies for language teaching. New Delhi: Orient Longman. Little wood, W. (1981).

6. Communicative language teaching: An introduction. Cambridge: Cambridge University Press. Nunan, D (1996).

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Oripova Ra’noxon Alidjanovna
Rishton tumani 26-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
tel: 90-633-38-09
e-mail:alidjanovna@mail.ru

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinflar uchun tashkil etiladigan dars mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni xususida fikrlar berilgan

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, dars mashg‘uloti, didaktik vosita

Yurtimizda ta’lim mazmuniga alohida e’tibor qaratilib, DTS o‘quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o‘tkazilmoqda, pedogogik texnologiyalar asosida o‘quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot komminikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O‘qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko‘pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog‘chadan so‘ng maktabning dastlabki davrlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich ta‘lim davri ta‘lim jarayonidagi eng mas’uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta’lim jarayonini qiziqarli, ta’sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o‘yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya’ni o‘quv faoliyatiga o‘tganligi bilan xarakterlanadi. Bolaning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda turli o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘yin orqali o‘z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o‘zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta’im jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlaming roli beqiyosdir. Didaktik o‘yinlar ta’im jarayoni samaradorligini oshiradi, ta’im jarayonida o‘quvchilar faolligini, o‘qish motivlarini rivojlantiradi. O‘qish motivlari ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o‘rin tutadi. Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinflarda ta‘limning samarali borishiga o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya’ni didaktik o‘yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o‘yinlar nafaqat boshlang‘ich sinflarda, balki ta‘limning keyingi bosqichlarida ham o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo‘lishi mumkin. Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta‘limni tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiyada ta‘lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo‘lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o‘qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e‘tibor qaratishlari zarur. Har bir o‘qituvchi, avvalo, o‘zi o‘qitadigan o‘quv predmeti va har bir o‘tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak. Shuni ta‘kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o‘tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi. Didaktik jarayonning samarali o‘tishida motivlar muhim o‘rin tutadi. Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg‘otadi. O‘qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o‘quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli bo‘lmaydi. Boshlan‘ich sinf o‘qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o‘yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo‘lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola maktabdan, o‘qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o‘qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o‘z- o‘zidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: “Sharq” nashriyot matbaa konserni, 1997.

2. Ahmedov M. N.Abduraxmonova Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. – Toshkent “Turon-Iqbol” 2013-yil. -160 bet. Metodik qo‘llanma.

3. Ahmedov M. N.Abduraxmonova Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo‘llanma. –Toshkent “Turon-Iqbol” 2008-yil.

ZAMONAVIY BILIM OLISHNING YANGICHA USULLARI

Ortiqnazarova Muhayyo Otaqulovna
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
11-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Informatika fani o‘qituvchisi.
Mahkamova Sayyora
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
11-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi.
Telefon:+998(97)5578683 Elektron manzil:
bahromjontajimetov@email.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarini kitobga qiziqtirish, hamda o‘quvchilarni darsga jalb qilish usullari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Elektron kutubxona, qiziqarli videorolik,taqdimot va hikoya.

Mashhur fransuz faylasufi Frank Bekon “Kitoblar tafakkur durdonalarini avloddan avlodga eltuvchi aql kemalaridir” deb bejiz aytmagan. Zero kitob o‘qish insonni aqlni rivojlantiradi va uni ilhomlantiradigan buyuk mo‘zijadir. Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va ma’suliyatli vazifa yuklaydi. Buning uchun ota-onalarning o‘zi ham ham yuksak didga ega ma’rifatli va bilimli bo‘lishlari kerak.

Bugungi hayotimizda zamonaviy bilimga ega bo‘lish asosiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Taraqqiyotimiz rivojlanishi yuksak cho‘qqilarni zabt etishimiz uchun biz zamonaviy axborot texnalogiyalarini mukammal o‘rganishimiz kerak. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham 2020-yilni “Ilm – ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili ” deb nomlab, mamlakatimizda ilm – fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarni yuksak manaviyat va chuqur bilimga ega etib tarbiyalashni kuchaytirishni maqsad etib qo‘ydilar.

Bugungi kunda o‘quvchilar uchun maktablarda imkoniyatlar juda yaxshi, ammo qishloqlarda internetning ishlash tezligi past bo‘lganligi sababli bu o‘quvchilarga internetda ishlash uchun biroz muammo tug‘diradi. Bizning maktabda barcha kompyuterlarga o‘quvchilar uchun kerakli bo‘lgan va ularni qiziqtiradigan adabiyotlar elektron shaklda kompyuter hotirasiga joylashtirilgan. Elektron kutubxonada asosan badiiy kitoblar va oliy ta’limga kirish uchun tayyorlanayotgan o‘quvchilar uchun qo‘llanmalar mavjud. O‘quvchilar darsdan so‘ng informatika xonasiga kirib o‘ziga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni topadilar shu bilan birgalikda kompyuter bilan ishlash texnikasini ham o‘rganadilar. Elektron kutubxonamizdan fan o‘qituvchilari ham muntazam foydalanishadi. Ular o‘z sohalariga oid darslik va kitoblardan foydalanib o‘quvchilarga ko‘gazmali qurollar va tarqatmali materiallar tayyorlashadi.

Biz bu usulimiz yaxshi natija berishiga ishonamiz. Axir qishloqlarimizdagi yetuk tafakkurli, bilimga chanqoq o‘quvchilarimiz qanchalik zamonamiz talabiga javob bera olsa ertamiz shunchalik ishonchli qo‘llarda bo‘ladi.

Zamonaviy bilim olish bu zamon talabiga mos holatda talim berishdir. Aynan dars boshlanishi bilan dars uchun ajratilgan vaqtning ikki yoki uch minuti o‘quvchilarni tinchlantirishga sarflanadi. Bazida bu jarayon besh yoki sakkiz minutga ham cho‘zilishi mumkin. Biz buning bir usulini o‘ylab topdik.Buning uchun dars boshlanishi bilan o‘quvchilarga bir yoki ikki minutlik qisqa va tushunarli videorolik qo‘yish bilan boshlash mumkin. Bu videorolik mavzuga oid bo‘lishi ham yoki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi ham mumkin.

Bu usul bilan o‘quvchilarning dars jarayonida diqqatini tortishga hamda buning natijasida o‘quvchilar dars mavzusini ham boshqa mavzularga nisbatan yaxshiroq o‘zlashtirganiga guvoh bo‘ldik. Dars jarayoni faqat o‘g‘zaki gap yoki har safar taqdimotlardan foydalanish o‘quvchilarni zerikishiga hamda mavzuni o‘zlashtira olmasligiga sababchi bo‘ladi. Dars qiziqarli va o‘quvchilar uchun yoqimli bo‘lish uchun dars o‘tish usullarimizni tez-tez o‘zgartirib turishimiz kerak. Masalan bazan o‘quvchilar diqqatini tortish uchun insoniylikka chorlovchi sherlar o‘qish ham

zarar qilmaydi. Bu dars qaysi fan bo‘lishidan qat’iy nazar chiroyli ikki misra sher yoki uch-besh minutlik videorolik yoki ajoyib mazmundagi rivoyat va hikoyalar ham zarar qilmaydi aksincha bu ma’lumotlar o‘quvchilarning avvalo diqqatini o‘qituvchiga qaratishiga hamda ularni bu o‘qituvchiga nisbatan mehr qo‘yishlariga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. http: pedagog zn.uz
2. ZiyoNet electron kutubxonasi
3. Sultonova G. «Pedagogik mahorat». O‘quv-metodik qo‘llanma. T., 2005

BOLALARNING SAVOD O‘RGATISHGA TAYYORGARLIGINI O‘RGANISH

Otaboyeva Malohat Masharipovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
6-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998941157272

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang‘ich sinflarda bolalarni savod o‘rgatishga tayyorgarligini o‘rganish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv ko‘nikmasi, yozuv ko‘nikmasi, differensial.

Savod o‘rgatishni to‘g‘ri tashkil etish uchun bolalarning unga nutqiy tayyorgarligini maxsus o‘rganish talab etiladi. Oldin bolalarni maxsus o‘rganish avgust oyida, hatto undan oldin-bahordan boshlangan. Bunda 1-sinfga keladigan o‘quvchining oilasiga yoki bolalar bog‘chasiga borilgan, suhbat o‘tkazilgan, bolalarning umumiy bilim saviyasi aniqlangan.

Hozir 1-sinfga qabul qilinadigan bolalar savod o‘rgatishga maxsus tayyorlanyaptilar. Ular uchun bir-ikki, ba’zi joylarda uch-to‘rt oylik tayyorlov sinflari tashkil etilgan. Tayyorlov mashg‘ulotlarida bolalar tovush-harf bilan tanishtirilyapti, elementar tarzda yozuvga ham o‘rgatilyapti. Metodistlar tayyorlov sinflar uchun aniq talablar, metodik tavsiyalar ishlab chiqishmoqda. Tayyorlov sinflarning ta’lim mazmuni va tashkil etish muddati bir xil bo‘lmasada, lekin bu davrda bolalarning nutqiy tayyorgarligini o‘rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi;

1. O‘qish ko‘nikmasini aniqlash. a) so‘zni sidirg‘a o‘qiydi; b) bo‘g‘inlab o‘qiydi; d) harflab o‘qiydi (noto‘g‘ri o‘qish); e) anchagina harflarni biladi, lekin o‘qishni bilmaydi; f) ayrim harflarni taniydi.
2. Yozuv ko‘nikmasi. a) hamma harfni yozishni biladi, so‘z yozadi (bosma yoki yozma); b) ayrim harflarnigina yozishni biladi (bosma yoki yozma); d) yozishni umuman bilmaydi.
3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi. a) so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘ladi; b) so‘z yoki bo‘g‘indagi tovushni ajratadi; d) hamma tovushni to‘g‘ri talaffuz qiladi; e) ayrim tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladi (qaysi tovushlar ekani hisobga olinadi); f) nutqining baland yoki pastligi, diksiyasiga e’tibor qaratiladi.
4. Og‘zaki bog‘lanishli nutqi. She’rni yoddan o‘qish. a) 3 ta yoki undan ortiq she’rni biladi, uni zavqlanib aytadi; b) 1-2 ta she’rni biladi, aytishga uyaladi; d) birorta she’rni yoddan o‘qishni bilmaydi.
5. Og‘zaki bog‘lanishli nutqi. Ertak aytish. a) bir yoki bir nechta ertakni biladi va aytib bera oladi; b) ertakni biladi va uni aytishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi; d) ertak aytishni bilmaydi, o‘rganishga ham harakat qilmaydi.
6. Og‘zaki bog‘lanishli nutqi. Fikr bayon qilish (“Rasmda nimalar ko‘rayotganingni aytib ber”). a) 20 so‘zdan ortiq bog‘lanishli hikoya, bir necha gap tuza oladi; b) 10 tadan 20 tagacha so‘z, bir necha gap tuza oladi; d)10 tagacha so‘z bilan bog‘lanishli nutq tarzida javob qaytara oladi; e) 3-4 so‘z bilan qisqa javob bera oladi.

Shunindek, bu jarayonda bola nutqining sintaktik qurilishi ham, foydalanadigan so‘zlar doirasi ham o‘rganiladi, to‘plangan materiallar ikki variantda yoziladi:

a) har bir o‘quvchi haqida ma’lumot (bu bolaga yakka yoki differensial yondashish uchun kerak bo‘ladi);

b) sinf o‘quvchilari uchun umumiy ma’lumot (bu ma’lumotdan darsda sinf o‘quvchilari uchun umumiy ishlar metodikasini tanlashda foydalaniladi).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o‘qish darslari.
2. K. Qosimova va boshqalar Ona tili o‘qitish metodikasi.
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish.

UMUMTA'LIM MAKTABLARDA KIMYO FANINI O'QITISH METODIKASI

Otajonova Mukaddas Satimovna,
Xorazm viloyati Urganch shahri,
18-sonli maktabning kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kimyo ta'limi pedagogik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadlariga muvofiq o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so'z: Pedagogik, reaktiv, kimyo, laboratoriya, texnologiya, interfaol.

O'quvchilarda kimyo faniga bo'lgan qiziqish va mehr, shu predmetga mas'uliyatli munosabat uyg'otish, kimyo fanuining hozirgi davrdagi roli va o'rni haqida to'g'ri tasavvur shakllantirishni aynan o'qituvchi bajaradi. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarish uchun o'qituvchining o'zi yangi pedagogik texnologiya va uning vazifalariga bo'lgan talablarini egallashi kerak. Kimyo fanining pedagogik funksiyasi uning insonni umumiy ta'lim olishdagi asosiy vazifalarini aniqlashdagi xususiyatlari bilan aniqlanadi. Bular:

1. Ilmiy dunyoqarash asosini tashkil qilish. 2. Maktab o'quvchisi fikrini rivojlantirish. 3. Maktab o'quvchilarini amaliy faoliyatga, mehnatga nisbatan bo'lgan ta'limini davom ettirishga tayyorlash.

Maktab kimyo kurslari mazmunini tanlashga ma'lum qarama-qarshilikda turgan asosiy ikki guruh omillari ta'sir ko'rsatadi: ilmiylik va qulaylik, yengillik

va umumta'limga xoslik. Bir tomondan kimyoning maktab kursi zamonaviy, hayotning hamma qiyin talablariga javob bera oladigan, boshqa tomondan oddiy bo'lishi kerak. Bu ikki talabni birlashtirish oson vazifa emas. O'qituvchilar, talaba va o'quvchilar jamoasida hamkorlik va ijodiy muhitni yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rni beqiyos.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar- ta'lim jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo'yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi uzviy bog'langan komponentlar yig'indisidir.

Ushbu qoidadan kelib chiqqan holda har bir o'qitiladigan mavzuga keng qamrovli loyiha ishlab chiqish bilan bir qatorda, o'quv-metodik majmua tayyorlash uning tarkibiga loyihaga qo'shimcha mavzuga daxldor bo'lgan barcha axborotlar, tarqatma materiallar, ma'lumotnomalar, manbalar, ulardan foydalanish metodikasi kiritilishi kerak.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida ta'lim- tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to'plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator xulosalar asosida amaldagi ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi taraqqiyot va kelgusidagi talablar darajasiga ko'tarishga, uni takomillashtirishga jiddiy e'tibor berish zarurligi ta'lim- tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashdan kelib chiqib, «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida muhokama qilindi va tasdiqlandi. Shu munosabat bilan barcha o'quv predmetlari qatori kimyo ta'limi oldiga ham aniq vazifalar qo'yildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi konsepsiyasini qayta ishlab chiqish;
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, uning standartini ishlab chiqish taqozo qilinadi.

Kimyo ta'limi standarti kimyo o'quv predmetining majburiy mazmunini belgilab beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi standarti, kimyo ta'limi tizimidagi barcha komponentlarni: ta'limning mazmuni, maqsadi, ta'limning uzluksizligi, tashkiliy shakllari, usullari, vositalari va boshqalarni qayta ko'rib chiqish mezoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."Kimyo o'qitish nazariyasi va metodikasi" ma'ruzalar matni,M.S.Hotamova,Navoiy 2005.
2. "Kimyo o'qitishda zamonaviy tehnologiyalar"G.A.Ixtiyorova,Toshkent 2020.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI APPLIKATSIYA YASASHGA O‘RGATISH.

Parpiyeva Mastura Nematullayevna
Namangan viloyati Uychi tumani
23-sonli maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998945090774

Annotatsiya: Ushbu ishda o‘quvchilarga applikatsiyaning turlarini farqlashga, ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanish hamda havfsizlik qoidalariga amal qilish haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, applikatsiya, shakl, rang, predmetli applikatsiya, syujetli - mavzuli applikatsiya, dekorativ applikatsiya.

Texnologiya darslarida predmet, buyum va turli narsalarni applikatsiya texnologiyasida tasvirlash o‘quvchilarning aqliy rivojlantirishga xizmat qiladigan ko‘p qirrali dars turlaridan biri bo‘lib, ular shakl va ranglarni ajrata olishga o‘rgatadi, o‘quvchilarning badiiy-estetik hissiyotlarini va qo‘l mayda motorikasini rivojlantiradi. Applikatsiya darslari o‘quvchilarda tozalik, diqqatni jamlash kabi sifatlarni ham tarkib toptiradi.

Applikatsiya turlar bo‘yicha uch xilga bo‘linadi:

- predmetli applikatsiya;
- syujetli - mavzuli applikatsiya;
- dekorativ applikatsiya.

Predmetli applikatsiya - o‘quvchilar qog‘ozdan qirqish va fonga alohida predmet tasvirlarini yopishtirish mahoratini o‘zlashtiradilar.

Faoliyat xususiyatiga ko‘ra atrofdagi predmetlarni ancha umumlashgan shartli tasviriy predmetlar, halq amaliy san’ati namunalarida ifodalash mumkin bo‘ladi.

Boshlang‘ich bosqichda o‘qituvchi-pedagog tayyorlagan qismlardan predmetni yelimlaydi: - turli rangdagi ikkita koptok, yarimta bo‘laklar, qo‘ziqorin-qalpokcha va oyoqcha; aravacha - to‘rtburchak asos va dumaloq g‘ildiraklar. O‘quvchilar shakli, tuzilishi, ranglar birikmalari, hajmi, farqlangan predmetlarni tasvirlashlari mumkin.

Dekorativ applikatsiya - turli bezaklar hosil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat turi. Dekorativ applikatsiyada o‘quvchilar qirqish mahoratini ritm, simmetriya bo‘yicha turli rang birikmalarini turli bezak elementlarini birlashtirish, qirqish mahoratini o‘zlashtiradilar. Bu darslarda o‘quvchilar predmetlarni dekorativ stillashtirish, ularni tuzilishiga ahamiyat berish, namunalarni yangi sifatlar bilan boyitishni o‘rganadilar. Bu darslarda o‘quvchilar yana qo‘yidagilarni o‘rganadi: predmetlarni o‘zgartirish, ularning tuzilishini umumlashtirish, namunalarni yangi sifatlar bilan taqqoslash.

Syujetli applikatsiya — o‘z oldiga qiyin masalalarni qo‘yadi va ba’zi bir qoidalarni bajarilishini talab qiladi: rang, shakl bo‘yicha bir-birlariga to‘g‘ri keladigan tabiiy materiallarni yig‘ish kerak. Masalan, barglar va chig‘anoqlar va mayda toshlar, somon, taxta qipiqlari, qurigan shoxchalar, danaklar va hakazolar. Asosiy e’tiborni fon va materiallar rangi mosligiga qaratish lozim.

Syujetdagi tasvirlarga asosiy qahramonlarni yorqin rang bilan kompozitsion yechim qilib olish, ya’ni alohida e’tibor qaratish kerak.

Applikatsiya syujetlari o‘quvchi yoshiga qarab turlicha talqin qilinishi mumkin. «Kuz» mavzusini o‘quvchilar o‘ziga xos tarzda tasvirlaydilar. 1-2-sinf o‘quvchilari «Kuzgi gullar», «Meva va sabzavotlar», «Meva sabzavotlardan natyurmort»ni qirqib yopishtirishadi, 3-4-sinflarda bu mavzu ancha aniq yechimga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, «Kuzgi natyurmort», «Qushlar» shular jumlasidandir.

O‘qituvchining maqsadi - bu faollikni qo‘llash, so‘nishiga yo‘l qo‘ymaslik, unga ijodiy xarakter berishdir. O‘quvchining faolligi va mustaqilligi rivojlanishi uchun kerakli tasvirlar berib borish lozim. Tasviriy faoliyatda turli materiallar va tasvirlashning texnik usullarini turlicha ko‘rinishda bajara olish yo‘llarini o‘quvchilarga o‘rgatish lozim. SHundagina o‘quvchilar applikatsiyaning turli usullarini qo‘llagan holda obrazlarni tasvirlashda ular o‘z kuchiga ishongan holda shug‘ullanadilar.

Applikatsiyani bajarish jarayoni ikki bosqichdan iborat:

- Shakllarni qirqish;
- Shakllarni fonga yopishtirish.

Applikatsiya darslarida o‘quvchilar ko‘pincha geometrik shakllar bilan munosabatda bo‘ladilar, natijada ular tevarak atrofdagi predmetlarda geometrik shakllarni abstrakt ko‘rinishini ko‘ra olishga o‘rganadilar. Murakkab tuzilgan shakllarni tuzilishini yaxshiroq tushunishiga, ularni to‘g‘ri tahlil va sintez qilishga o‘rganadilar. O‘quvchilar geometrik shakllar bilan tanishishlari jarayonida hali o‘zlariga tanish bo‘lmagan shakllarning nomini to‘g‘ri aniqlashga o‘rganadilar. Masalan, o‘quvchilar shaklning burchaklarini sanab, uning 3 ta yoki 4 taligini natijada uchburchak va to‘rtburchak, keyinchalik ularni o‘zlari mustaqil ko‘pburchak kabi shakllarining nomini bilib boradilar. Applikatsiya darslari o‘quvchilarda kattalik va fazoni mo‘ljallash bo‘yicha olgan tasavvurlari va qog‘oz betini to‘g‘ri mo‘ljallay olish kabi ko‘nikmalari rivojlanadi. O‘quvchilar shaklni yopishtirishni yelimsiz aloqa qilishlari natijasida bu shaklini mantiqiy va ritmik holida joylashtirishga o‘rganishlari, asosan o‘rtasida, o‘ngda, chapda, yuqorida, pastda, orqada, qarama-qarshi tamonda, atrofida kabi so‘zlar bilan tanishib oladilar. O‘quvchilarni qog‘oz betida nuqta mo‘ljal olishga o‘rgatish o‘quvchilarni maktabda muvaffaqiyatli o‘qishlarini asosiy shartlaridan biridir.

O‘quvchilar applikatsiya darslarida qimmatli mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallaydilar. Ular ozoda, batartib yopishtirishga, o‘z ish joylarini toza saqlashga o‘rganadilar va murakkab asbob hisoblangan qaychi bilan ishlashga o‘rganadilar. Bularning barchasi o‘quvchilarning maktabdagi qo‘l mehnati darsiga tayyorlaydi. O‘quvchilar yengil va mayda qog‘oz shakllari bilan ishlashlari natijasida, o‘z harakatlarini tezligini to‘xtatib turishga o‘rganadilar. Dars jarayonida ular oz bo‘lsada qiyinchilikni yengadilar, bu esa o‘quvchilarda harakterining irodaviy xususiyatini chidam, sabr kabilarni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. – T.: TDPU, (O‘quv qo‘llanma) 2007.

2. Diane Larsen-Freeman. Techniques and Principles in Lahguage Teaching. Oxford university press. Great Britian. 2013.

O‘QISH MALAKALARINING SIFATLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Parpiyeva Ma’sumaxon Axmadjanovna
Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani
22-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Zokirova Yulduz Maxmudjanovna
Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani
5-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998996325245; +998973744959

Annotatsiya: Maqolada o‘qish malakalarining sifatlari, o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolar va ularni tuzatish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish malakasi, to‘g‘ri o‘qish, xato o‘qish, tez o‘qish, sekin o‘qish.

O‘qish darslarida dastur talablarini to‘liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda o‘qish ko‘nikmalarini to‘g‘ri va puxta egallash, takomillashtirib borish zarur. O‘qish ko‘nikmalari savod o‘rgatish jarayonida shakllanadi, o‘qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi. O‘qish malakalarining sifatlariga badiiy asar matnini to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish kiradi. O‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi. O‘qish malakasining sifatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning asosiysi ongli o‘qish hisoblanadi: o‘quvchi matnni tez va to‘g‘ri o‘qisa-yu, anglab o‘qimasa yoki uning tez o‘qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to‘g‘ri o‘qisa-yu, o‘ta sekin o‘qisa, nutq birliklari orasida pauzalarga e’tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to‘g‘ri o‘qish ongli o‘qishga xizmat qiladi; to‘g‘ri, tez va ongli o‘qish esa ifodali o‘qishning asosi hisoblanadi.

O‘qish malakalarini egallash maktabda o‘qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O‘qish faoliyatning asosiy turi bo‘lib, o‘quvchilarni g‘oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o‘qish malakalarini o‘stirish va takomillashtirish ustida sistematik va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

O‘qish malakasini egallash ancha murakkab bo‘lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. O‘qish so‘z ma’nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O‘qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish, o‘qish malakalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lsin.

To‘g‘ri o‘qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o‘qish tushuniladi, ya’ni to‘g‘ri o‘qish so‘zning tovush-harf tarkibini, grammatik formalarni buzmasdan, so‘zdagi tovush yoki bo‘g‘inni tushirib qoldirmay, oshiqchasini qo‘shmay, harflar o‘rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so‘zga urg‘uni to‘g‘ri qo‘yib o‘qish hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o‘rtasida puxta sintez yo‘q bo‘lgani uchun ular o‘qishda xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. To‘g‘ri o‘qish so‘zning uzun-qisqaligiga, o‘quvchining so‘z boyligiga, ya’ni so‘zning leksik ma’nosini qanchalik bilishiga hamda so‘zning bo‘g‘in va morfemik tarkibiga bog‘liq. O‘quvchilar ko‘pincha quyidagi sabablarga ko‘ra xatoga yo‘l qo‘yadilar:

1.So‘zni talaffuz qilish bilan uning ma’nosini tushunish o‘rtasida puxta sintez bo‘lmagani uchun, ya’ni bola so‘zning oldin tovush tomonini ko‘radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So‘zning ma’nosini esa e’tibordan chetda qoldiradi.

2. So‘zning bo‘g‘in tuzilishi murakkabligi tufayli. So‘z ko‘p bo‘g‘inli bo‘lsa, bola uni oldin eshitmagan bo‘lsa xatoga yo‘l qo‘yadi.

3. So‘zning ma’nosini bitlmaslik tufayli xatoga yo‘l qo‘yadi.

4. Tez o‘qiyman deb xatoga yo‘l qo‘yadi.

5. To‘g‘ri o‘qish yorug‘likka va yorug‘likning tushishiga ham bog‘liq.

6. Undosh tovush so‘zning o‘rtasida va oxirida kelgan yopiq bo‘g‘inli so‘zlarni o‘qishda qiynaladilar.

Xato o‘qishning oldini olish uchun quyidagilar e’tiborga olinadi:

Matnni o‘qitishdan oldin undagi o‘qilishi qiyin so‘z, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qilishini mashq

qildirish; matnni o‘qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini tushuntirish. So‘z ma’nosini izohlash usullarini aniqlash; vazifalarni aniq

va tushunarli qilib berish; matnni diqqat-e’tibor bilan o‘qishlari uchun sharoit yaratish; oldin ichda o‘qitish, so‘ng ovoz chiqarib o‘qitish; o‘qitishda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ya’ni matnni oson, o‘rtacha qiyinlikda va qiyin o‘qiladigan o‘rinlarini belgilab olib unga kuchi yetadigan o‘quvchilarga oldindan taqsimlab olish; o‘quvchilarning o‘qishini muntazam tekshirib turish; xatoning xarakteriga qarab, uni metodik tomondan to‘g‘ri tuzatish yo‘lini aniqlash; o‘quvchilarni xato qilish mumkin bo‘lgan o‘rindan ogohlantirib turish; xat cho‘pdan foydalanish; xato o‘qish o‘quvchining shaxsiy ko‘ruv sezgisiga ham bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchi tuzilishi murakkab so‘zlarni oldindan doskaga yoki kartonga bo‘g‘inlarga bo‘lib yozib qo‘yib, o‘quvchilarga xo‘r bo‘lib o‘qitilishi yaxshi natija beradi. O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xato ikki xil yo‘l bilan tuzatiladi: 1) O‘quvchi so‘z oxiridagi qo‘shimchani noto‘g‘ri o‘qisa, o‘quvchini o‘qishdan to‘xtatmasdan xatoni to‘g‘rilash mumkin; 2) xato o‘qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o‘qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o‘quvchiga o‘qigan matni yuzasidan savol berilsa, o‘quvchi e’tiborli bo‘lib qayta o‘qiydi.

Tez o‘qish. Tez o‘qish normal tezlikda bo‘lib, o‘qish sur’ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O‘qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o‘sishi kerak. O‘qilayotgan asar mazmunini o‘zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta’minlaydigan o‘qish tez o‘qish deyiladi. O‘qish sifatlarini yaxshi o‘zlashtirgan holda o‘quvchilarning o‘qish sur’ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og‘zaki nutq tempiga to‘g‘ri keladigan o‘qish sur’ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o‘ta tez ham, o‘ta sekin o‘qish ham matn mazmunini o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gaffarova T. va boshqalar. 1-sinfda o‘qish darslari.
2. Abdullaeva K. va boshqalar. 2- sinfda o‘qish darslari.
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o‘rgatish.
4. Abduqodirov R, Tolipov R, Xudoyberganov N, Tolipov M. Samarali dars.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA «BLENDED LEARNING» TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANGAN HOLDA MATEMATIKA DARSLARIDA QO‘LLASHNING ZAMONAVIY METODIKASI

Polvonova Yulduzxon Saparboyevna
Ogahiy nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o‘qitishga hamda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati oliy toifali matematika fani o‘qituvchisi
Telefon: +998(91)919 8600
madaminjonkhiva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda zamon talabi bo‘lgan internet bilan darsni bog‘lash, o‘quvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlagan holda o‘z bilimlarini oshira olish imkoniyatini «blended learning» texnologiyasi orqali yanada rivojlantirishda matematika fanida qo‘llash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: «blended learning» texnologiyasi, kompyuter, internet, online ta’lim, Distance learning, masofaviy ta’lim, Fake-tu-Fake learning, Online learning.

Bugungi kunda «blended learning» texnologiyasi kunduzgi an’anaviy ta’lim va masofaviy ta’limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda an’anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi. Bu tizimda o‘qituvchi ta’lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. «Blended learning» texnologiyasini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) Masofaviy ta’lim (Distance learning);
2) Sinf xonada ta’lim (Fake-tu-Fake learning);
3) Internet orqali ta’lim (Online learning);

«Blended learning» texnologiyasi (Aralash ta’lim) tushunchasi – bu ta’limda Internet ta’lim texnologiyalari an’anaviy ta’limga ko‘makchi, unga qo‘llab-quvvatlovchi sifatida bo‘lib hizmat ko‘rsatuvchi hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘zining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko‘p mos keladigan o‘quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi kerak.

Dars o‘qitishni tashkil etishning o‘zgarmas shakli emas, o‘quv amaliyoti doimo uni takomillashtirish yo‘llarini izlaydi.

«Blended learning» texnologiyasining sinf xonadagi ta’lim (Fake-tu-Fake learning) turini o‘rta maktab o‘quvchilariga mo‘ljallab har bir fan o‘qituvchisi dars mavzusi va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga qarab rejalashtirishlari mumkin. Buning uchun bizga kompyuter xonasida dars o‘tish yoki har bir o‘quvchida notebook bo‘lishi lozim bo‘ladi. Aralash ta’limning dars jaryonida qo‘llashning oddiy maktab sinflari uchun informatika xonasida ham tashkillashtirish mumkin. Biz sinfda 30 ta o‘quvchi bor deb darsni tashkillashtirishga harakat qilamiz.

1-bosqich: Sinf o‘quvchilari bilimlarining qabul qilish darajasiga qarab 2 guruhga ajratiladi. Yaxshi va tez o‘zlashtiruvchi 15 ta o‘quvchi kompyuter oldiga, qolgan 15 tasi partaga o‘tirib yangi dars taqdimotini kuzatishadi (10-15 daqiqa).

2-bosqich: Kompyuter oldidagi o‘quvchilar mavzuga oid oldindan kiritilgan testlarga javob berishadi va har bir o‘quvchiga taxminan 10 daqiqa mobaynida elektron tarzda mashqlarni bajarib o‘zlarining o‘zlashtirish baholarini biladilar. Bu paytda partadagi o‘quvchilar kitobdagi mashqlarni daftarlariga bajaradilar va o‘qituvchi ularni kuzatib, qo‘shimcha o‘rgatib borishi mumkin.

3-bosqich: Darsning 25-30 –daqiqalarida o‘quvchilar orinlarini almashtiradilar va elektron testni ikkinchi guruh o‘quvchilari bajaradilar. Kompyuterda test bajarganlari esa endi kitobdagi mashqlarni bajaradilar. Bu oraliq vaqtlarda o‘zlahstirishga qiynalayorgan o‘quvchilarga ham alohida vaqt ajratish mumkin bo‘ladi. Har bir o‘quvchi shu darsning o‘zida baho olishi, agar tushunmagan masalalari bo‘lsa ularni boshqatdan daftarlariga bajarib yaxshiroq o‘rganish imkoniyati bo‘ladi.

4-bosqich: Darsning taxminan 40-daqiqalarida dars mustahkamlanib, uyga vazifa qisqacha tushuntiriladi. Dars oxirida barcha o‘quvchilar elektron tarzda baholangan bo‘ladilar va ular bundan xabardor bo‘lishadi. Uyga vazifa ham o‘qituvchi tomonidan elektron tarzda beriladi.

Darsdan keyin o‘quvchi bo‘sh vaqtiga qarab kompyuter xonasida yoki shaxsiy kompyuterida vazifani onlayn bajarib bahosini ko‘rish imkoniyati bo‘ladi.

Aralash ta’limning matematika fani misolida yuqoridagi mulohazalar oddiy, har bir maktabda, har bir fan o‘qituvchisi qila olishi mumkin bo‘lgan bir holatni ko‘rib chiqdik. O‘qituvchi o‘zining fikri, qobiliyati doirasida darsga ozgartirish kiritishi, sinfni 3-4 qismga bo‘lib qiziqarli mavzularga oid 5 daqiqalik o‘yinlar kiritishi mumkin.

«Blended learning» texnologiyasining asosiy qulayligi o‘quvchilarning bir xillikdan zerikmasligi, mustaqil ishlashni o‘rganishi va har bir darsda barcha o‘quvchilarning baholana olishlaridir.

Yuqoridagi keltirigan ma’lumotlar «blended learning» texnologiyasining o‘ta moslashuvchan tizimligi, darsdagi ma’lumotlarning asosiy qismi elektron tarzdaligi o‘quvchilarning yakka tartibda mustaqil yoki guruh bo‘lib ishlash imkonini beradi. O‘qituvchi tomonidan dars uchun va uyga vazifa uchun mashqlar elektron tarzda kompyuterga joylashtirib borilishi biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin, lekin o‘quvchilarning onlayn tarzda haqqoniy baholanishlari ularda o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashni va ishonchni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. https:\\mower.uz\watch\ybqs7qWm\
2. Сагибуллаева Х.Ш. «Применение ИКТ на уроках математике».
3. Технологии обучения- «Blended learning» texnologiyasi texnologiyasi.

« UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI BOSHLANG‘ICH SINF DARS JARAYONLARIDA PISA TOPSHIRIQLARINI O‘RNI.

Mavluda Qahharova Sattorboyevna.
Namangan viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi
To‘raqo‘rg‘on tuman XTB ga qarashli
22- sonli maktab Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dars mashg‘ulotlarining tashkil qilishning samarali usullari va bu mashg‘ulotlarni o‘quvchilarni darslarga qiziqishlari uchun katta turtki bo‘lishi, ularning mustaqil fikrlashlari, yangilikka, yaratuvchanlikka yo‘naltirishi, kelajakda o‘zining g‘oyalari bilan katta yangiliklar yarata oladigan yoshlarni yetishib chiqishi uchun imkon berishi haqida tavsiyalar berilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dars mashg‘ulotlarini Tashkil etishning samarali usullari.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni DTS talablari asosida bilim egallashlarida “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amaliyotga tadbiq etish eng muhim talablardan biridir.

Hozirgi kunda O‘zbekiston kelajagi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama chuqur va mukammal bilim egallashlariga juda katta e’tibor qaratilmoqda.Shuning uchun biz o‘qituvchilar o‘quvchilarni darslarga qiziqtirish, ularninig bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur xollarda o‘qish va matematika fani ekspremental fan hisoblanadi. O‘qish va matematika fanlarini kuzatish va bilim salohiyotini oshirish ta’savvurlarini kengaytirish teran fikrlashga undaydi. Dars mashg‘ulotlarida olingan bilimlarni o‘quvchilar amaliyotga tadbiq eta olishlari uchun,ularda o‘zlashtirgan bilimlar bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish,kundalik hayotda qo‘llashga o‘rgatishda.O‘qish savodxonligi bir qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi,jumladan,alohida olingan so‘zning ma’nosini tushunishdan tortib,matnning gramatikasi,qurilishini va matn ma’nosini o‘zining olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirishni o‘z ichiga oladi.Pisa ko‘p sonli o‘quvchilarni baholaydi.Darslarda rag‘batlantirilgan o‘quvchilarning ko‘pligi dars samaraorligini oshishiga sabab bo‘ladi.

Shuning uchun ham lars mashg‘ulotlarida pisa testlsridan o‘rinli foydalanish lozim .Hozirgi kunda dars mashg‘ulotlari “Iqtidorlio‘quvchilar” va sinf o‘quvchilari” bilan olib borilmoqda. Pisa test mashg‘uloti mening fikrimcha, bilim va malakasi yetarli bo‘lgan o‘qituvchilar talab darajasida olib borayotganliklarini “Fan olimpiadasi”, Bilimlar bellashuvi” va oliygohlarga kirib talabalik sharafiga ega bo‘layotgan o‘quvchilarda ko‘rishimiz mumkin.

Lekin, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida barcha o‘quvchilarning qiziqishi turlicha taqsimlangan. . Har bir o‘quvchilarga turlicha yondashishga moyil Maktablarda o‘z yoshiga mos holda mavjud jihozlar asosida harakatli modellar,avtomashinalar modellari, yangi loyihalarni o‘ylab topa oladigan o‘quvchilar juda ko‘p. Ular oliygohlarga kirishga imkoniyati bo‘lmasa, ham yangi ixtirolar yaratishga qiziqadilar va imkon qadar harakat qiladilar. Aytish mumkin, tuman va viloyat markazlarida “Barkamol avlod” markazlari mavjud, shu markazlarga o‘quvchilarni jalb etish kerak . Lekin,qishloq o‘quvchilarining shu holatlarga ham imkoniyati mavjud emas.

Shuning uchun men o‘ylaymanki, maktablarda kuzatishga, ular bilan birga kichik ixtirolar qilishga qiziqtira olsak, albatta,bu o‘quvchilar kelajakda yangi g‘oyalar asosida ixtirolar yarata oladi, o‘zi sevgan kasbiga bo‘lgan qiziqishini shakllantiradi.Shu sababli o‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishlari ham ijobiy tomonga o‘zgaradi .Yuqoridagi fikrlar menga 23-yillik tajribamdan qilingan xulosalar natijasidir .Maktabning 1-4-sinfning darslarda past o‘zlashtiruvchi,tortinchoq o‘quvchilarini turli xil jihozlar yasashga, rasm chizishga qiziqib o‘z qiziqishlarini ko‘rsata olganlar. Ularning darslarga ishtiroki ijobiy tomonga o‘zgarishini dars jarayonlarda kuzatishga erishildi. Shuning uchun:

- Dars jarayonlarida pisa testlaridan foydalanish rejaga kiritilsa
- To‘garak mashg‘uloti uchun maxsus o‘quv reja bo‘lishi
- Dars o‘quv rejasi o‘quvchilarni qiziqishini hamda turmush tarzini hisobga olgan holda tuzilishi lozim
- O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga, do‘stona munosabatlarni yaxshilash,hamkorlikda ishlashga pisa topshiriqlari asosida o‘rgatish

- O‘quvchilar tomonidan bildirilgan g‘oya va takliflarni qo‘llab quvvatlash
- O‘quv mashg‘ulotlaridan olgan bilimlarni amaliyotga qo‘llashga o‘rgatish
- Bir o‘quvchi ortidan boshqa o‘quvchilarni ergashtira olish
- Ota- onalarni ham o‘quv mashg‘ulotlarga jalb etish va o‘quvchilar ijodiga o‘z fikr-molohazalarini o‘rganis

Yuqoridagilarga amal qilgan holda o‘quv soatlarda,mustahkamlash bo‘limlarida olib boriladigan to‘garak mashg‘ulotlari tashkil etsak,albatta hisa testlari ijodkorlika yaxshi natija beradi.

Maktab ta’limiga oid o‘quv jarayonlarida pisa topshiriqlari o‘rnini oshirishga katta ahamiyat berib ota bobolarimiz merosidan foydalanishimiz, darsliklarimiz va o‘quv rejalarimizga xalqaro tadqiqotlarni o‘rganishga qaratishimiz darkor. Ular quyidagilardan iborat:

- **didaktiga oid** – o‘rganishga bo‘lgan qiziqish hamda ma’naviy, xissiy istaklarni rag‘batlantirish, o‘quv bilimini orttirish, faollashtirish mahoratida namoyon bo‘ladi;

- **pertseptiv** – tarbiyalanuvchilarning ma’naviy dunyosiga singib, ularning emotsional holatini baholash, ruhiy xususiyatlarini aniqlash mahoratida namoyon bo‘ladi;

- **suggestiv** – o‘quvchilarga emotsional ta’sir ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi;

- **tadqiqiy** - pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni o‘rganish va obektiv baholash mahoratida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchi qalbida qiziqish uyg‘otish, ularni o‘zi bilan yetaklash faqat yuksak irodali insonning qo‘lidan keladi. SHuni hamisha esda tutish kerakki,

Muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning birinchi sharti - bu topshiriqlarni to‘g‘ri yo‘naltirish. Dastlab talabni u o‘ziga qo‘yishi kerak, chunki o‘zingda bo‘lmaganni o‘zgadan talab qila olmaysan. Talabchanligi bilan birga o‘quvchilar bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi lozim.

Pisa topshiriqlari o‘quvchiga chuqur nazariy bilim berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashida kata ahamiyatga ega. SHu bilan birga u o‘quvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatni o‘z vaqtida payqab, individual munosabatda bo‘lishi, unda mavjud bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlarni avaylab o‘stirishi darkor.Uning bilmagan ishi uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo‘lmaydi. Shubxasiz bugungi va ertangi kunning kelajagi biz pedagoglarga bog‘liqdir.

Ta’lim-tarbiya sohasida biz o‘quvchilarda ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlanuvchi va kompetensiyaviy yondashuvlarni amaliyotda qo‘llab,2021 yildan “Oquvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi” boyicha ham tayyorgarlik jarayonidamiz. Yuqoridagi ishlarni amalga oshira olsak, o‘quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari o‘sib, dars mashg‘ulotlarining samaradorligi yanada ortadi.

Masalan:o‘qish savodxonligi o‘quvchilarda turli korinishdaligi o‘quvchilar ortasida tabaqalanishni keltirib chiqarsa yaxshi o‘qiy olmaydiganlari ko‘rgani asosida yaxshi fikr bildirishini inobatga olish kerakligini anglash lozim Har qanday inson har tomonlama teng rivojlanmasligini bilgan holda rag‘batlantirilishi lozim shunday ekan yaxshi o‘qiy olmaydigan o‘quvchini rag‘batlantirishda bizga pisa testlari yordamga keladi.Yuqoridagilarga asosan,umumiy o‘rta maktablarining past o‘zlashtiruvchi va tortinchoq o‘quvchilariga pisa tohshiriqlari berishni ta’minlash imkonini ko‘paytira olsak,maktabda umuman past o‘zlashtiruvchi, davomati past hamda tortinchoq o‘quvchilar umuman bo‘lmaydi, deb hisoblayman .Hozirgi zamon o‘quvchilari eshitganimdan ko‘ra ko‘rganimni tezroq anglab olaman degan qarashlarini hurmat qilishda pisa topshiriqlari qo‘l keladi .Shuning uchun dars jarayonlarida pisa topshirialaridan ko‘proq foydalanish tarafdoriman.

MAKING UP SOLUTIONS WHEN TEACHERS HAVE PROBLEMS IN TEACHING YOUNG LEARNERS

Qalandarova Zebiniso G'afforovna.
Bukhara region,Vobkent district school number 12,
English teacher .
Telefon:+998997773862
E.mail:zebi.qalandarova@bk.ru

Annotation: This article contains the specifications of teaching English for young learners; the concept of English as Foreign Language (EFL) and English as Second Language (ESL) in language classroom, some facts about differences between adults and children, characteristic of children's learning styles: learning theories,learning style in infancy, period and how to optimize them, learning style in infancy, toddlerhood, preschool period and how to optimize them, creating learning environment for children language: maximize their listening, speaking, reading and writing, teaching grammar and vocabulary,teaching trough stories, games and songs and planning language teaching. It is designed for use by teacher trainee who are preparing teaching English for young learners, or who are considering doing so.

Key words: EYL-English young learners. EFL-English as a foreign language. ESL -English as a second language.

The teachers who understands the cognitive and social processes of second- language acquisition for English for Young Learners (EYL) is better equipped to help learners navigate the processes of classroom learning activities while also creating a fun, positive environment. In many cases, Teaching English for Young Learners (TEYL)teachers in English as a Foreign Language (EFL) settings have a limited amount of time to accomplish their teaching goals and meet local requirements regarding the use of specific texts, tests, or other materials. Alow-resource environment can also pose challenges. In this course,students have the opportunity to explore solutions for such challenges through an article and best practices (always contextdependent) for TEYL, plus experimentation with a wide array of freely available online and local resources. Teaching grammar and vocabulary.Some students of young learners find grammar very appealing, some find it intrinsically boring, and some find it useful but really hard work. In order to make grammar more interesting for young learners, It's recommend a more inductive approach, i.e. Students should be allowed to work out the meaning and the rules of the grammar for themselves.The distinction between EFL and ESL comes from the native language of the country in which instruction is being given. An EFL classroom is one which English is not the native language, while an ESL classroom is one which English is the primary national language.Some facts about differences between adults and children In terms of learning, Young Learners need to be given a wide variety of activities which relate to the different senses. Activities in a Young Learner classroom should be short. With adults it is possible to spend more time on learning tasks so it is possible to engage more deeply with the learning materials.Characteristic of children's learning styles: Learning Theories Most activities for children should consist of movement and involve their senses. The teacher needs many objects,visuals and pictures to work with, and to create a possibility to use all of the school's surroundings. It is also important for the teacher to let the children play with the language,talk to themselves as much as it is possible, use songs,rhymes and tell stories.Learning style in infancy, toddlerhood, preschool period and how to optimize them.The concept of learning is influenced by the psychological study of the learning process and is widely interpreted in the popular use. The psychological concept extends quite far and includes all parts of children's development, from language acquisition to social roles and changes in their personality. Language teaching can be widely interpreted as all activities intended to facilitate and cause language learning. At the beginning of learning the new language, the learner's knowledge has none or hardly any associations with the language; it is as an infant learning its first language.Learning style in Kindergarten, First to Sixth Grade and how to maximize them.Children's learning is based on imitation and having fun rather than on their awareness of learning. Imitation is the easiest way of introducing new vocabulary and its aim is to lead to correct articulation and intonation of sounds and their memorization. This is

because of children's flexible larynx which allows for nearly ideal imitation of sounds and the most efficient brain which all together create a great

• opportunity for language acquisition.

Creating learning environment for children language:

Maximize their listening, speaking, reading, and writing. The first step in creating an appropriate environment for infants, toddlers, and preschool children is to examine how young children learn and develop. Each stage of development has unique characteristics that influence how a child will experience his or her environment. The early environment where young children live will help determine the direction of their brain development. Children who have severely limited opportunities for appropriate experiences will be delayed; this may permanently affect their learning. But, children who have the opportunity to develop in an organized and appropriate environment are challenged to think and use materials in new ways.

Used literature:

1. Teachers book of Grade 7. Tashkent.2018

2. TEACHING ENGLISH FOR YOUNG LEARNERS October 2017 Authors : Ikhfi Imaniah, M.Pd Nargis, M.Hum

3. Jl. Perintis Kemerdekaan 1/ 33, Cikokol-Kota Tangerang https://www.researchgate.net/publication/326086031

4. Mastering Teaching English For Young LearnersArticle · June 2017

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O‘QITISH

Qambarova Marxabat,
To‘raqo‘rg‘on tuman
3-maktab matematika o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta talim maktablarida matematika fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: umumiy o‘rta talim maktab, matematika, maqsad

Annotation: This article discusses the goals and objectives of teaching mathematics in general secondary schools.

Key words: Secondary school, math, goals

Аннотация: В данной статье рассматриваются цели и задачи преподавания математики в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: общеобразовательная школа, математика, цель

Matematika so‘zi qadimgi grekcha - mathema so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosi “fanlarni bilish” demakdir. Matematika fanining o‘rganadigan ob’ekti materiyadagi mavjud narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iborat.

O‘rta maktablarda matematika o‘qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi.
2. Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi: a) o‘quvchilarga ma’lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to‘g‘risida yetarli darajada ma’lumot berish, ulami matematika faninng yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlashi kerak. Bundan, tashqari dastur asosida o‘quvchilar o‘qish jarayonida olgan bilimlarining ish ishonchli ekanligini tekshira bilidiga o‘rganishlari, ya’ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak. b) o‘quvchilarning og‘zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida xatosiz so‘zlash, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so‘z o‘quvchilarning har bir matematik qoidani o‘z ona tillarida to‘g‘ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to‘g‘ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir; v) o‘quvchilami matematik qonmiiyatlar asosida real haqiqat-lami bilishga o‘rgatish. Bu yerda o‘quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosa-batlami tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko‘zda tutiladi.

Bunday bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi. Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi o‘z oldiga quyidagilarni qo‘yadi:

1. o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu g‘oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi.
2. o‘quvchilarda matematikani o‘rganistiga bo‘lgan qiziqish- larni tarbiyalash.

Bizga ma’lumki, matematika darslarida o‘quvchilar o‘qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o‘rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so‘ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi. Matematika o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir. v) o‘quvchilarda matematik tafakkumi va matematik madani-yatni shakllantirish. Matematika darslarida o‘rganiladigan har bir matematik xulosa qafiylikni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida juda ko‘p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. o‘quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o‘rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, mate-matik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. o‘quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilraoqchi boigan fikrlarni simvolik tilda to‘g‘ri ifodalay olislilari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o‘z

ona tillarida ifoda qila olishlariga o‘rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi. 3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalami qo‘yadi: 1) Matematika darsida olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tadbiq qila olishga o‘rgatish. Bunda asosan o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga bog‘lay olish imkoniyatlarinitarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatiladi. 2) Matematikani o‘qitishda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda o‘quvchilar matematika darslarida texnika vositalaridan, matematik ko‘rigazmali qurollar, jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi.

Hulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o‘rgatishda o‘qituvchilar o‘quv darsliklardan va ilmiy-ommaviy matematik kitoblardan mustaqil o‘qib o‘rganish malakalarini shakllantirish bilan bir qatorda matematika fani to‘g‘risida yetarli darajada ma’lumot berish, ularni matematika faninng yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.: Sharq, 1997

2. Ahmedov M., Ibragimov P., Abdurahmonova N., Jumayev M. E. “Matematika” darsligi – T.: ”Sharq”, 160-bet.

3. https://eduportal.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI YUZAGA KELTIRISH YO‘LLARI

Qambarova Minura Toxirjonovna
Andijon tumani 36-umumta’limiy maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel:+998901439278
Elektron pochta:rasulovisomiddin7777@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobilyatini rivojlantirish malakalarini, mustaqil ravishda muammolarni hal qila bilish ko‘nikmasini shakllantirish, ularda mantiqiy fikrlash qobilyatlarini rivojlantirish yo‘llari hozirgi kunda yechim topilishi kerak bo‘lgan eng katta muammolar yechimining tashkiliy pedagogik shartlari xususida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Faol ijod, ko‘nikma, fikrlash qobiliyati, mantiqiy fikrlash, tafakkur, aqliy bilim, ma’naviyat, ruhiy intelektual, axloqiy xislatlar, harakter, urf-odatlar, ma’lumot, tashqi muhit, insonning aqli, fikri ruhiy yuksalish, yetuklik.*

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtirish, ularda ko‘nikma hosil qilishlariga yordam berishda o‘qituvchi o‘quv materialni bayon qilish emas, balki o‘quvchilarni qiziqishidan kelib chiqib, faol ijodiy yondashmog‘i kerak. Sinfda shunday ijodiylik ruhi bo‘lishi kerakki, har kim xohlagan fikrini bemalol ayta olishga sharoit yarata olish kerak. O‘qitishning bunday turi o‘quvchini nafaqat fikrlashga, balki tanqid qila olishga ham undaydi. Bunday sharoitda o‘quvchilardan shunday fikrlar eshitishimiz mumkinki, ularda kelajakda buyuk olimlarni tarbiyalash g‘ururi o‘zingizni quvontirishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobilyatini rivojlantirish malakalarini, mustaqil ravishda muammolarni hal qila bilish ko‘nikmasini shakllantirish, ularda mantiqiy fikrlash qobilyatlarini rivojlantirish yo‘llari hozirgi kunda yechim topilishi kerak bo‘lgan eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Insonning fikrlash qobilyati asta- sekin rivojlanadi. Mavjud nazariy bilimlar va oldingi amaliy harakatlar asosida paydo bo‘ladi. Aslida fikrlash bolaning atrof-muhit bilan tanishish, turli xil o‘yinchoqlar ichidan aynan o‘shanisini tanlab olish, ranglarga ajratish, hayvonlarni taniy boshlashi, ovozini o‘xshatib berishi va shunga o‘xshash turli xil jarayonlarni o‘rganish natijasida shakllanib boradi. Asta-sekin multfilmlarni ko‘rishi, ertaklar eshitishi, o‘yinlar o‘ynash jarayonida hayotiy voqealarga tanqidiy munosabat bildirishi ham bolaning mantiqiy fikrlashini rivojlantirib boraveradi. Farobiyning fikricha “Insonning tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishida mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhi, intelektual va axloqiy xislatlari, harakteri, urfodatlari, ma’lumoti, tashqi muhit, boshqalar bilan muloqotda vujudga keladi. Insonning aqli, fikri ruhiy yuksalishning eng yetuk maxsuli bo‘ladi.” Ulug‘ olim mashxur chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida shunday deydi: “Avvalo tashqi sezgilar vositasi bilan narsalarning o‘zlari bilib olinadi, chunki narsalar bevosita sezgilarga ta’sir etadi. So‘ngra, o‘z navbatida, ichki sezgilar harakatga kelib tashqi sezgilar yordamida bilib olingan narsalarning in’ikosini o‘zida aks ettiradi, mujassamlashtiradi va xotira yordamida shunikdek, qo‘l harakatlari va nutq yordamida ifodalaydi. Shundan so‘ng aql ishga kirishadi va batafsil fikr yuritib, hamma buyumlarning o‘zaro munosabatlarini puxta o‘rganish uchun ularning barchasini o‘lchab taqqoslab ko‘radi. Bu esa narsalarni va ular haqidagi fikrlarni to‘g‘ri tushunib olishga imkon beradi. Nihoyat bularning barchasida iroda o‘zining qonuniy kuchini ko‘rsatishi lozim. Chunki iroda insonning barcha harakatlarini birlashtiradi va boshqaradi”. Fikr insonning sharofatli, g‘ayratli bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun Avloniy bolaning fikrlash qobilyatini o‘stirishda muallimning roli katta ahamiyatga ega deydi. Uning ta’kidlashicha bolaning fikrini biron narsaga yo‘llash va uning diqqatini aniq narsalarga yo‘naltirish uning oldiga aniq bir masala qo‘yish va unga javob topish uchun unda ehtiyoj paydo qilish kerak. Bunda bola fikrini muayyan tomonga yo‘naltiruvchi aniq vazifalar belgilab berishda muallim katta rol o‘ynaydi. Bu-tarbiya, deb yozadi Avloniy. O‘qitish jarayoning ikki tomoni bor. O‘qituvchi o‘qitadi, o‘quvchi o‘qiydi, o‘qitishning muvaffaqiyati o‘qituvchining muvaffaqiyatidir. O‘quvchilarning fikrlash qobilyatini rivojlantirishda o‘qituvchining ilmiy va metodik bilimdonligi muhim sanaladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning fikrini jamlash, mantiqiy fikrlashga yo‘naltirish, tafakkurini shakllantirish kabi oldimizga maqsadlar qo‘yamiz.

Lekin bu maqsadlarimiz (ushbu jumlalar) biz uchun notanish so‘zlar emas deb aytishga biroz o‘ylanib javob beramiz. Darhaqiqat, bu kabi xislatlarni bolada shakllantirishimiz uchun avvalo, so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini tushunib yetishimiz talab etiladi. Fikrlash - bu atrofdagi haqiqatni bilishning eng yuqori jarayoni, ob’yektiv haqiqatning sub’yektiv hissi. Uning o‘ziga xosligi tashqi axborotni anglash va uning ongda o‘zgarishi yotadi. Fikrlash odamga yangi bilim, tajriba, yaratilgan fikrlarni yaratishga, bu vazifalarni hal etish uchun mavjud sharoitlarni o‘zgartirishga, bilim chegaralarini kengaytirishga yordam beradi.

Mantiq - yunon tilidan olingan bo‘lib “to‘g‘ri fikrlash” degan ma’noni anglatadi. Mantiqiy fikr - bu aniq tushunchalar bilan ishlaydigan aqliy faoliyatning operatsion jarayoni. Ushbu turdagi aqliy vazifalar qaror qabul qilish, xulosalar chiqarish, oldindan olingan tajribani yoki bilimlarni qo‘llash va oldindan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish zarur bo‘lgan hollarda zarurdir. Tafakkur – narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi. Taqqoslash – narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni topishdir. K.Ushinskiy shunday degan edi: “Taqqoslash har qanday tushunishning va har qanday tafakkurning asosidir. Olamdagi narsalarning hammasini taqqoslab ko‘rish yo‘li bilan bilolmasak, boshqa yo‘l bilan bilolmaymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin bo‘lmagan biron yangi narsaga duch kelganimizda edi, u holda biz shu narsa to‘g‘risida hech qanday fikr hosil qila olmagan bo‘lur edik va uning to‘g‘risida biror so‘z ayta olmagan bo‘lur edik”. Fikrlash jarayoni har doim asosiy bilimlarga asoslanadi. Mantiqiy fikrlash qobilyati har bir inson uchun foydalidir. Mantiqiy fikrlashlarsiz ilm-fan sohasida kashfiyotlar qilish, kompaniyalarni boshqarish, yangi-yangi ixtirolarni yaratish imkoni bo‘lmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatishda barcha fanlarda amalga oshirish mumkin. Masalan, matematika darslarida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash qobilyatini shakllantirishning ilk bosqichlari qanday kechishini ko‘rishimiz mumkin. Darhaqiqat, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk marotaba matematika fani bilan tanishib borar ekan ularning avvalo matematika fani bo‘yicha og‘zaki nutqi rivojlantirilib boriladi. Asta-sekin ularni mustaqil fikrlash qobilyatlari ham shakllantirilib boriladi. Masalan, 1-sinf matematika darsligini ko‘rib tahlil qiladigan bo‘lsak “Narsalar va ularning xossalari”, “O‘xshashlik va farqlanish”, “Narsalarni o‘lchamlari bo‘yicha taqqoslash”, “Narsalarning o‘zaro joylashuvi”, “Narsalarni xossalari bo‘yicha to‘plamlarga ajratish”, “To‘plamlarni tashkil qilgan narsalar soni bo‘yicha taqqoslash” kabi mavzular bo‘yicha ilk darslarimizda tanishtiramiz. Ko‘rinib turibdiki ushbu mavzular o‘quvchini nutqini oshirishga, so‘z boyligini kengaytirishga, mantiqiy fikrlashga o‘rgatishga xizmat qiladi. Mavzular mazmunan bir-biriga bog‘liq. O‘quvchi predmetni turiga ajratadi, kattakichikligini farqlashga, bir-biriga qanday o‘xshashlik belgilari borligini aniqlashga, joylashishida, sonida farqli tomonlarini taqqoslashga harakat qiladilar. O‘quvchini taqqoslashga o‘rgatish jarayonida ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatib boriladi. Masalan, Yassi geometrik shakllarni turlarga ajrating va taqqoslang? Ushbu topshiriq orqali o‘quvchini mantiqiy fikrlashga yo‘naltirsak bo‘ladi. Natijaga ko‘ra ko‘p o‘quvchilar geometrik shakllarni turlarga ajrata olishadi, ularning shakliga qarab taqqoslab berishadi. Lekin topshiriq shartida “taqqoslang” so‘zi o‘tilgan mavzularni qamrab olgan xolda umumiy, barcha taqqoslashning xossalariga amal qilishlari kerak edi. Ularning shakliga, rangiga, soniga qarab taqqoslash kerak bo‘ladi. Shu o‘rinda bizning vazifamiz o‘quvchini to‘g‘ri yo‘naltira olishimiz, bir topshiriqning yana qanday yechimlari borligi to‘g‘risida fikrlay olishga o‘rgatib borishimiz kerak. Kerak bo‘lsa o‘quvchilar bilan fikr almashishga, do‘stlarcha muloqotga kirisha olishimizga sharoit yarata olishimiz lozim. Boshlang‘ich maktabda matematika ta’limi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobilyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga o‘z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini hayotga tadbiq qilish hamda ta’limning ikkinchi bosqichida o‘qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika faniga qiziqtirishda matematik o‘yinlardan, qiziqarli mantiqiy masalalardan dars jarayonida foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Qiziqarli matematik masalalar, matematik didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning fikrlash qobilyatini o‘stirishga, mantiqiy tafakkurini oshirishga yordam beradi. Masala yechishda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ko‘pincha qiyinchiliklarga uchrashadi. Chunki ular shoshqaloqlik qilishib masala savoliga e’tibor beravermaydilar. Savol qo‘yilgach to uning javobi topilguncha savolni yodda tutib turish juda muhim ahamiyatga egadir. Ko‘pincha o‘quvchilarning masalani yecha olmasliklariga ularning savolni “yo‘qotib” qo‘yishlari, ya’ni natijada nimaga erishish kerakligini unutib yuborishlarigina sabab bo‘ladi. Tajribali

o‘qituvchilar buni bilishadi va masalani yechishda o‘quvchilarning e’tiborini vaqti-vaqti bilan qo‘yilgan savolga yo‘naltirib borishadi. Bunday ish tutish masala yechishda o‘quvchidan ko‘pgina amallarni bajarish talab qilgan sharoitda ayniqsa foydalidir. Masalani yechish yo‘li usuli avvalo tahminiy fikrlar asosida belgilab olinadi. Tahminlar jamlanmasi amalda ko‘rsatiladi. Birinchi urinish to‘g‘ri chiqmasligi ham mumkin. Masala savoli yana takror va takror o‘qib chiqiladi. Yanada chuqurroq fikr yuritishga, mantiqiy mazmuniga ham e’tibor berishga undaladi. Ketma-ket urinish yaxshi natijaga erishishga olib keladi. Ba’zi o‘quvchi masalani bir urinishdayoq tasodifan javobiga to‘g‘ri chiqarib qo‘yishadi. Lekin o‘quvchi masalaning shartiga ham, mazmuniga ham e’tiborini qaratmagan bo‘ladi, buni qanday aniqlash mumkin. Albatta shunga o‘xshash masalalarni ishlatib ko‘rish orqali. O‘quvchi masala yechishda nega oqsaydi? Chunki aynan o‘sha o‘quvchingiz masala savoliga e’tibor bermaslik natijasida tushuncha hosil bo‘lishi qiyinroq kechadi. Tushuncha - bu fikrlashga yo‘l. Tushundingizmi, demak, siz fikrlay olasiz, tasavvur qila olasiz, masalani yechimini har qaysi usulda topishga harakat qilasiz. Ba’zi bir muammoli masalalarni tafakkur qilish orqali yechimini topamiz. Tafakkur orqali biz tasavvur qilamiz va ongimizda aks ettiramiz. Tafakkurning yana bir xususiyati - bu voqealikning umumlashtirilgan holda aks ettirilishidir. Ya’ni berilgan masalani o‘qib uni idrok qilamiz, tasavvur hosil qilamiz, voqealikni ko‘z oldimizga keltira boshlaymiz va mantiqan fikr yuritishga kirishamiz. Xulosa qilib aytganda o‘quvchini masala yechish jarayonida uning savoliga to‘liq tushunishiga, tafakkur qilish yordamida tasavvur qila olishiga, masala shatrlarini bajarishda ketma-ketlikka ahamiyat berishiga o‘rgatib borishimiz kerak. Birgina savolning yechimini topish o‘quvchining mantiqan fikr yuritishga bog‘liq ekanligini tushunib yetishlari lozim. O‘quvchilarni aktiv fikrlashga undash uchun ularni qanchalik tushunchaga ega ekanliklari muhim deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”T. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993-y.224-b.
2. M.Ochilov “Muallim- qalb me’mori” Saylanma-T. “O‘qituvchi”nashriyoti 2001-y.290-b.
3. M.B.Gamezo “Psixologiya kursi” “O‘qituvchi”nash .Toshkent. 1972-Y.161-b.
4. M.E.Jumayev, Z.G‘.Tadjiyeva “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent 2005 y. 5. M.Ahmedov, N.Abdurahmonova, M.Jumayev. ”Matematika” 1-sinf uchun darslik. “Turon iqbol”.T. 2018 y.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Qasimova Dilfuza Bog'bekovna
Hazorasp tumani 34-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (93) 285 11 91
dilfuzabonu_1111@mail.ru
Yaqubova Maqsuda Saparboyevna
Xiva tumani 15-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 073 22 80
maqsuda.yaqubova_22@inbox.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada* modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish usullari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Modul, blok, mantiqiy tugallangan qism, modul dasturi, talabalarning o'quv faoliyati, o'quv faoliyati elementlari, modul dasturlarining turlari, modul dasturini yakunlash.

Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so'zdan olingan bo'lib, qism (blok) degan ma'noni bildiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda mashg'ulotda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Shu o'quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o'tkaziladi va xulosa chiqariladi.

Mazkur mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati modullarni ketma-ket o'zlashtirishlarini nazarda tutgan holda tashkil etiladi. Har bir modulni o'zlashtirish jarayoni o'quvchilarning yaxlit bilish faoliyatining elementi sanaladi, ya'ni bir mashg'ulotda yaxlit tashkil etilishi ko'zda tutilgan o'quvchilarning o'quv faoliyati mavzu ajratilgan modullarga muvofiq holda o'quv faoliyati elementlaridan tashkil topadi. Agar mashg'ulotda o'rganiladigan mavzu mazmuni 4 ta moduldan iborat bo'lsa, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati mos holda 4 ta o'quv faoliyati elementidan tashkil topadi. Shuni qayd etish kerakki, mashg'ulot yakunida o'quvchilarning o'z faoliyatlarini tahlil qilishi va o'z-o'zini baholashini amalga oshirish maqsadida modul dasturini yakunlash bosqichi bo'ladi. Shu sababli fikr yuritilayotgan ushbu mashg'ulotda foydalaniladigan modul dasturida 5 ta o'quv faoliyati elementi bo'ladi. O'qituvchi shu asosda modul dasturini tuzadi.

Ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazish, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustaqil o'qishni o'rgatish orqali bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va qiziqishlarini orttirishdan iborat.

Ushbu vazifalarni an'anaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanilgan holda hal etib bo'lmaydi, shu sababli ta'lim-tarbiya jarayoniga modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash zarurati vujudga keldi.

Modulli ta'limning asosiy mohiyati, o'quvchilar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashiga asoslangan o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilarning mashg'ulot davomida bajaradigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o'zida mujassamlashtiradi.

Modulli ta'lim texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati modul dasturlari asosida tashkil etiladi. O'quvchilar o'quv materialini modul dasturidan o'rin olgan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarish orqali mustaqil o'zlashtiradilar va o'z o'quv faoliyatining sub'ektiga aylanadilar. Shu tariqa yagona ta'lim-tarbiya jarayonining ikkita sub'ekti o'qituvchi va o'quvchi o'quv jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishadi.

O'qituvchi o'quv materiallarini modullarga ajratadi va modul dasturini yaratadi. Har bir modulning xususiy didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlarini aniqlaydi. Mashg'ulot yuzasidan nazorat test topshiriqlari va mustaqil ish topshiriqlarini tuzadi. O'quvchilarning mustaqil o'quv bilish faoliyatini tashkil etadi. Modul dasturining didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlari bilan

tanishtiradi. O‘quvchilarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi, tegishli hollarda yordam uyushtiradi.

Modul dasturidan o‘rin olgan har bir modul yakunida o‘quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o‘tkazadi. Modul dasturini yakunlaydi.

Ma’ruzada modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyadan foydalanish uchun o‘qituvchi quyidagi tayyorgarlik ishlarini olib borgan bo‘lishi shart:

1. O‘rganiladigan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida o‘quvchilarga qo‘yiladigan o‘quv maqsadlarini belgilash;
2. O‘rganiladigan mavzuni mantiqiy tugallangan fikrli modullarga ajratish, har bir modulning xususiy maqsadlarini aniqlash va ularning iyerxargik darajasini tuzish;
3. O‘quvchilarning har bir modulning xususiy maqsadlariga erishish yo‘llarini nazarda tutgan holda o‘quv topshiriqlarini tuzish va unga ajratilgan vaqt me’yorlarini belgilash;
4. Modullarning ketma-ketligi asosida modullarning xususiy maqsadlari, o‘quv topshiriqlarni yaxlit tarzda o‘zida mujassamlashtirgan modul dasturini loyihalash;
5. Ma’ruza matni va modul dasturini mashg‘ulotdan bir hafta avval o‘quvchilarga tarqatish;
6. Modul dasturining uch xil turi bo‘lishini nazarda tutgan holda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shaklini aniqlash;

Izoh:

- Agar o‘rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallardan iborat bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida qiyinchilik yuzaga kelmasa, u holda modul dasturining individual ishlash modul dasturidan foydalaniladi;
- Agar o‘rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallar bilan bir qatorda ilmiy-nazariy masalalardan iborat bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga keltirgan holda modul dasturining ikki o‘quvchi hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturidan foydalaniladi;
- Agar o‘rganiladigan mavzu mazmuni ilmiy-nazariy masalalar, tushuncha va atamalarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lsa, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga kelishi tabiiy bo‘lgan holda modul dasturining o‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturidan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006.
2. Adam, R. Tne Process of Educational Innovation I R. - Lnd, 1991.
3. Bassett G. Innovation in Primary Education. - Lnd: 1992.
4. Beverly D. Inquiry Based Teacher Education - Lnd: 1996.
5. D. Beverly, D. Shaklee, K. Cushner II. Pedagogicheskoye obrazovaniye dlya XXI veka. - M.: 1994.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM –TARBIYA JARAYONI

Qirg‘izova Muyassar To‘lqinovna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
29-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998972175520

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida ta’lim va tarbiya jarayonini mukammal shakllantirish, buning uchun qaysi mezonlarga e’tibor berish kerakligi xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, ta’lim, pedagogik mahorat, dars jarayoni, mehnatsevarlik, ilm olish, hulq-atvor, do‘stlik, o‘rtoqlik, vatanparvarlik.

Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama o‘stirish uning ongi va hulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiyaning umumiy maqsadi o‘zida ma‘naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni uyg‘un tarkib toptirgan insonlarga xos bo‘lgan barcha xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Tarbiya jarayonida o‘quvchilarning onginigina emas, balki, uning xistuyg‘ularini ham o‘stirib borish unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan ta‘limiy va axloqiy talablariga muvofiq keladigan hulqiy malaka va ko‘nikmalarini tarkib toptirish lozim. Tarbiya to‘xtovsiz va sistemali ravishda olib borilishi zarur bo‘lgan ko‘p qirrali va murakkab jarayondir. Tarbiya berish qanchalik erta boshlansa u shuncha samarali bo‘ladi. Shu o‘rinda ushbu rivoyat juda ham qo‘l keladi. Ibn Sino bobomizning oldiga bir chaqaloqni olib keladilar va ―Biz bolamizga qachondan tarbiya berishni boshlasak bo‘ladi‖- deb so‘raydilar. Shunda yosh kelin-kuyovdan Ibn Sino chaqaloqni tug‘ilganiga qancha bo‘ldi - deb so‘raydilar. Ular olti oy deb javob beradilar. Ibn Sino chaqaloqning ota-onasiga ―Sizlar tarbiya berishga olti oy kechikibsizlar,– deydi.

Bu rivoyatdan ko‘rinib turibdiki, tarbiyani hatto bolaning chaqaloqlik davridanoq boshlash, bolani kelajakda ilmli, tarbiyali, mehnatsevarligi va insonlar bilan bo‘ladigan muloqoti bilan barcha insonlarning e‘tiborini qozonadi. Shuning uchun Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlaganda bu masalaga jiddiy e‘tibor beriladi.

Ta‘lim olish uchun maktabga kelgan har bir bola to‘la tarbiya olib kelmaydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘limiy tushunchalarni berishdan oldin ularda tarbiyaviy masalalar yuzasidan ko‘plab tushuntirish ishlarini olib borish lozim.

Boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi bolalar ongini, dunyoqarashini qaysi tomonga bursa, ularning fikrlarini nimalar bilan boyitsa bu narsalar o‘quvchilarning xotirasida saqlanib qoladi. Zero, yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir, - deb bejiz aytilmagan. Shu jihatdan boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari muhim o‘rin tutadi. Odob-axloq, hulq-atvor, do‘stlik, o‘rtoqlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy tuyg‘ular asosan o‘qish darslarida singdirib boriladi.

Maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berish jarayoni tarbiyaning jamiyatimiz talab qiladigan maqsad hamda vazifalarni bajaruvchi, mavjud bilimga ega bo‘lgan muallimlarning muayyan maqsadga qaratilgan ongli faoliyati natijasida vujudga keladi. Maktabda o‘quvchilarning ta‘lim jarayonini takomillashuvi ta‘lim-tarbiya nazariyasidagi barcha masalalarni maktabda ta‘limning mazmuni, ta‘lim printsiplari, o‘qitishning shakl va usul, vositalari, ta‘limni tashkil etish shakllari va bir qator vazifalarini mas‘uliyat bilan bajarishni o‘qituvchilardan talab qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya ishlarini doimiy va uzviy bog‘liq holda olib borish kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qish darslari orqali ta‘lim va tarbiyaviy bilimlar berib boriladi. Darslar davomida o‘quvchilarga xulq insonning xatti-harakatida, insonlarga bo‘lgan munosabatida, jamoat joylarida o‘zini tutishda, odobida namoyon bo‘ladigan iinsoniy tuyg‘u ekanligi haqida tushunchalar berib borish zarur. Insonning xulqi uning har bir harakatida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Inson hulqi tufayli jamiyat orasida Shuhrat qozonadi, biror mavqega ega bo‘ladi yoki badnom bo‘lib, yoqimsiz bir shaxsga aylanib qolishi mumkinligini darslikda berilgan ta‘lim-tarbiyaga oid asarlar orqali ularni tasavvur va tushunchalarini kengaytirib borish lozim.

Boshlang‘ich isnflarda o‘qitiladigan har bir umumlashtiruvchi o‘qish darslari ta‘limiy, tarbiyaviy xarakterda bo‘lishi kerak. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘qish darsini o‘tishda dastlab ta‘lim va tarbiyaga oid bilimlar berib borilishi, kelajak avlodni barkamol o‘sib ulg‘ayishiga mustahkam zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1998.
2. Gafforova T. Gulomova X. Eshturdiyeva G. 1- sinfda savod o‘rgatish. T.: Sharq, 1996-yil
3. Kosimova K. Fuzailov S. Ne’matova A. Ona tili., 2- sinf uchun T.: ―Cho‘lpon‖, 2005-yil
4. Matchonov S. va boshqalar 4- sinfga o‘qish darlari, T., 2007-yil

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IQTIDORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH USULLARI

Qirg‘izboyeva Shaxnoza Alijonovna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
7-sonli maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Anatatsiya: Men bu maqolamda iqtidorli o‘quvchilarning aniqlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, ahamiyati haqida o‘z fikrlarimni bayon etganman.

Kalit so‘zlar: Pedagogik, iqtidorli, ahamiyat, sharoit, o‘quvchilar, aniqlash, ilmiy-tadqiqot.

Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs manaviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo etadi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘satkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarini tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali ketishi bir qator ob’ektiv va sub’ektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda, maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, Ayni vaqtda samarli bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob’ektiv va sub’ektiv omiullarni aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O‘zbekiston Respublikasi pedagogik yonalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqea va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivojlanishi uning psixologik, intelektual jihatdan takomillashtirib borishini ta’minlashi, qarama-qarsiliklarning shaxs kamolatini ta’minlashdagi o‘rni va roli, shuningdek, dialektika kategoryasining ahamiyatini e’tirof etadi.

Pedagogik kuzatish metodi:

Uni qo‘llash jarayonida, ta’lim muassasalarining o‘quv tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadbiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avval va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, metodning ahamiyatini yanada oshiradi.

Test metodi:

Test metodini qo‘llashda aniqlanishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va makakalarni turkum asosida e’tibor berish maqsadga muvofioqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo‘yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Movlona. R, Vohidova. N. Raxmonqulova. Pedagogik nazariyasi va tarixi.
2. Ijtimoiy tarmoqlardan.

MASOFAVIY O‘QITISH TIZIMINING BOSHLANG‘ICH SINFLAR HAMDA OLIY TA’LIM TIZIMDA TASHKIL ETISH.

Qobilova Barno
Nizomiy nomidagi TDPU
Termiz filiali talabasi
Telefon. +998912357014
qobilovabarno97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy o‘qitish usullarini boshlang‘ich sinflarda keng yo‘lga qo‘yish hamda oliy ta’limlarda kengaytirish shuningdek bu tizimning foydali va kamchiliklari to‘g‘risida mulohaza yuritilgan. Asosiy e’tibor esa masofaviy o‘qitish bugungi kundagi ijtimoiy ahamiyatdagi masalalarni yechishga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Masofaviy o‘qitish, ta’limdagi yangiliklar, ta’lim tizimi, ta’limdagi muammolar, 5 kunlik ta’lim tizimi,pedagogik texnologiyalar.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining,,Talim to‘g‘risida’’gi qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish,davlat va nodavlat ta’lim muassasasi hamda kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv ishlab chiqarish majmui sifatida rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish vazifasini yuklaydi. Ayni vaqtda joriy etilgan masofaviy o‘qitish tizimi– yangi va ancha qulay bo‘lgan o‘qitish shakllardan biri bo‘lib, bunda o‘quvchi talabalar o‘ziga qulay vaqtda, joyda va sharoitda o‘qitish imkonini beradi ammo bu usulda mutaxassis o‘qituvchilarning oldiga ham yangidan-yangi dolzarb masalalarni qo‘yadi. Shu bilan birga yangiliklar bilan o‘z malakasini oshirib borishi mumkin bo‘ladi. Masafoviy o‘qitish geografik jihatdan turlicha joylashgan ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan bo‘lsada zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim tarbiya jarayonini uzoq masofadan turib amalga oshirishga yo‘l ochib beradi.Shu bilan birga ma’sofaviy o‘qitishning foydali hamda kamchiliklari mavjud bo‘lib, o‘quvchilar o‘z ustida ishlashga yordam berishi bilan birga o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida bevosita jonli muloqat chegaralanadi.Shu sababli bu ta’lim tizimini yanada isloh qilish va izlanishlar olib borib rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidan andoza olib yuqori malakali kadrlarni voyaga yetkazish talab qilinadi[1]. Masofaviy ta’lim tizimini nafaqat O‘zbekiston balki O‘rta Osiyoning barcha hududlarida bu o‘qitish sohasi ilg‘or loyihalardan biridir.Bu sohada qator ilmiy izlanishlar ko‘zda tutilgan,ammo bizning ta’lim tizimimizda to‘liq foydalanmaganligimiz sababli bu yilgi onlayn ta’lim tizimimizda qator muammolarga duch keldik desak mubolog‘a bo‘lmaydi. Buni amalda ko‘proq joriy qilsak o‘quvchi va talabalarda ko‘nikma va malaka shakllangan hamda bu tizimdan unumli foydalangan bo‘lardik. Masofaviy o‘qitish asosida ta’lim berish boshlang‘ich o‘rta, oliy va malaka oshirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda axbarot –texnologiyalaridan unumli foydalangan holda masofaviy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘ysak bo‘ladi.E’tibor bersak tarbiyalanayotgan yosh avlod bu davrda juda intiluvchan,zukko va aqliy qobilyati endi rivojlanayotgan davr hisoblanadi.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga oid fikrida ham bu tasdig‘ini topadi”Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala- bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish- turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryabdi.Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim-yoshlardir” deydi.Shunday ekan hozirgi kunda internet kirib kelmagan xonadonni o‘zi yo‘q,shunday ekan ularning ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun bu tizimni yo‘lga qo‘yish chora tadbirlarini izlab topish yanada ta’lim tizimimizni isloh qilish biz va sizning vazifamizdir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p marta takrorlanib, ularni o‘quv muassalariga olib kirish zaruriyati uqtirilgan ammo bu amaliyotda kam qo‘llaganimiz sababli bu yil ayrim sabablarga ko‘ra birdan masofaviy ta’lim tizimiga o‘tishimiz qator muammolarga olib keldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi[2]. Nafaqat boshlang‘ich ta’lim balki oliy ta’lim tizimida ham yetarli darajada talabga javob bermadi.Boshqa davlatlarning ta’lim tizimiga nazar solsak ko‘proq asosan boshlang‘ich ta’lim tizimiga ko‘proq e’tibor bergan. Masalan, Xitoyda Yaponiya, Koreya, Singapur davlatlarida boshlang‘ich ta’lim tizimi 6 yil davom etadi.Rossiya davlatida boshlang‘ich ta’lim tizimi esa bizning ta’lim tizimimizga o‘xshab 1-4 sinf boshlang‘ich 5-9 asosiy,10-11 sinflar to‘liq o‘rta ta’lim dasturi asosida ta’lim oladilar. Bizning ta’lim tizimimizda ham ko‘p o‘zgarishlar

sodir bo‘ldi. Oldin 9 yillk majburiy ta’lim tizimidan foydalangan bo‘lsak hozirgi kunda esa 11 yillik ta’lim tizimiga o‘tdik. Ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9 fevraldagi 11-sonli yig‘ilishida o‘zgarish joriy etilib boshlang‘ich ta’lim tizimimizda 5 kunlik o‘qish jarayoniga o‘tish bilan ota-onalar va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ibot ishlari amalga oshirilganidan xabarimiz bor. Shu bois boshlang‘ich ta’lim tizimiga yangilik kiritgan holda ularning vaqtidan unumli foydalangan holda haftaning 6-kunini masofaviy o‘qishni yo‘lga qo‘ysak ularni vaqtidan unumli foydalangan bo‘lardik hamda kelajakda oliy ta’limlarda yaxshi natijalarga erishishimiz va o‘quvchilarning tinglash eslab qolish qobilyati rivojlanib 5 kunlik dars tizimida to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘qishda o‘tilmagan darslarni yetkazib bergan bo‘lardik. Shunday bo‘lsada 5 kunlik o‘qishda o‘quvchilarga bosim juda yuqori bo‘lganligidan tez charchab zerikib qolishini inobatga olgan holda darsni qiziqarli tashkil qilish bilan bir qatorda televizion darslar orqali ham hafta davomida o‘qitilayotgan darslarni mustahkamlab borsak bo‘ladi.Boshlang‘ich ta’lim tizimida bu yilgi 1-sinflar bu tizimga to‘liq moslashaolmaganligi sababidan keyingi sinfga o‘tishida biroz qiynalishlari mumkin. Bu hozirgi kunimizdagi eng dolzarb muommolardan biri boshlang‘ich ta’limidagi muommolardir.Bizdan esa bu muammoga yechim topish talab qilinib ta’lim va tarbiyani davr talabiga qarab moslashtirish vazifasi yuklatiladi.Ma’lumki yoshlarni shaxs sifatida har tomonlama shaxs sifatida rivojlanishida o‘quv- biluv jarayoni alohida o‘rin tutadi.Ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab bosqichiga tayyorlash, dars jarayonining bir xillik andozasidan qutulish bir yo‘nalishda ayrim fan va predmetlarni chuqurlashtirib o‘rgatishga e’tibor qaratishimiz va imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash kerak bo‘ladi.Bunda nafaqat o‘qituvchi muhim ro‘l o‘ynaydi shuningdek oila ham yetakchi o‘rinni egallaydi [3]. Hozirda kunda informatika faniga ehtiyoj katta bo‘lganligidan ham bu yildan boshlab 5-sinfdan bu fan takomillashtirilishi masofaviy ta’limimiz bilan bog‘liq masalalarga ham yechim bo‘lishi bilan birga XI asr texnologiya davrida ta’lim tizimimizda yangiliklar yaratib o‘zlashtirish jarayoniga bog‘liq masalalarga yechim topishimizga imkon beradi. Oldinlari 10 millionlab talabalar masofaviy ta’lim tizimida o‘qib kelgan, o‘z ustida ishlab kelgan ammo bu yil o‘rta maxsus ta’lim tizimida ham bu ta’lim yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada samarali natija bermaganini ko‘rishimiz mumkin.Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz mumkin masofaviy o‘qitish uslubining sifatli qo‘llanilishi o‘qish sifati va mehnat unumdorligini oshiribgina qolmay biz kelajak sari yana bir pog‘onaga qadam qo‘yishga imkoniyat yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.A.Mavlonova, B.S.Abdullayeva, M.K.Shirinov, M.M.Rustamova. Boshlang‘ich ta’lim metodologiyasi.2016y. 70-73betlar.
2. N.Abdusamatova,O‘.Asqarova,Z.Qoraboyeva. Maktabgacha ta’lim qiyosiy pedagogikasi.2018y.30-35b.
3. H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. Pedagogik aksiologiya va undan boshlang‘ich ta’lim tizimida foydalanish texnologiyasi.2014y.72b

BUYUK QOMUSIY OLIM AL-XORAZMIYNING DIDAKTIK QARASHLARI

Qochqorov Abdulla Madaminovich
Xorazm viloyati Shovot tumani
1-IMI matematika fani oqituvchisi
Tel:91-427-17-92
e-mail: madaminovich@inbox.uz

Annotatsiya: maqolada qomusiy olim Al-Xorazmiyning dunyo tamadduniga qo‘shgan hissasi, ta’lim va tarbiyaga oid qarashlari, hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar to‘g‘risida fikrlar berilgan

Kalit so‘zlar: buyuk olim, ilm-ma’rifat, matematika fani, ta’lim-tarbiya

Jahon ilm-ma’rifatining buyuk namoyondasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783- yilda Xorazmiyda dunyoga kelib, 847-850- yillar oralig‘ida Bog‘dodda vafot etgan. Xorazmiy tug‘ilib voyaga yetayotgan davrda Mavarounnahr yirik madaniy va savdo markazlaridan biri edi. Olimning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Al-Majusiydir. Ilmiy adabiyotlarida yozilishiga ko‘ra Xorazmiy boshlang‘ich ma’lumotni o‘z uyida olgan, chunki uning otasi diniy hamda dunyoviy bilimlardan xabardor bo‘lgan. Shu tufayli al-Xorazmiy bolaligidanoq bu ilmiy manbalardan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Muhammad Xorazmiy matematika bilan juda berilib shug‘ullangan, bu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan o‘rgangan, arab, fors, hind, yunon tillarini ham o‘rganib, bu tilda yaratilgan, asarlarni ham o‘qiy oladigan bo‘ladi. Lekin Xorazmiyning vatanidan chetda yashaganligini turlicha sharhlashadi. Chunonchi,otasi majusiy kohinlardan bo‘lib, islomni so‘ng qabul qilganligi uchun xam arab mutassablari uni ta’qib qilganligi sababli u Xorazmiy tashlab ketishga majbur bo‘lgan degan fikrlar ham mavjud. Xorazmiyshunos olim A. Ahmedov xalifa Xorun ar-Rashidning o‘g‘li Ma’mun-ar Rashid Marvda xalifa noibi bo‘lib turganida saroyida juda ko‘p olimlarni to‘plagan, so‘ng xalifa bo‘lib ko‘tarilgach ularni ham Bog‘dodda olib ketganini ta’kidlaydi. Biz A. Ahmedovning fikriga qo‘shilgan holda, yana quyidagilarni ham bayon etmoqchimiz. Buning sabablari -birinchilardan, o‘sha davrda barcha ilmga intilgan olimlar ma’lum fanlarni egallab olgandan so‘ng ilm-fan markazlariga safar qilganlar va u yerda yetuk olimlar bilan muloqotda bo‘lib, turli fanlar bo‘yicha bahs-munozara yuritganlar, maxsus tayyorgarlikdan va sinovlardan o‘tganlar, o‘zlarini fan olamida sinab ko‘rganlar. Ikkinchidan, xalifalikda ilm markazi sanalgan Damashq va Bog‘dodda ilm-fanning taraqqiy etganligi va shaxsan xaliflarning ilm-fan taraqqiyotiga homiylik qilganligi ham olimlarni jalb etgan. “Baytul Hikma” da matematika, geodeziya, geografiya falakiyot va boshqa sohalar bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi va al-Xorazmiy maktabi yaratiladi. Olimning ayniqsa, matematikaga oid ilmiy merosi jahon ahamiyatiga ega bo‘ldi. Xalifa al-Ma’mun hatto Muhammad al-Xorazmiy boshchiligida Hindiston va Rum (Vizantiya) Xazariya (Volganing kuyi okimida)gi ulkan mamlakatlarga bir necha marta ilmiy safarlar uyushtiradi. Olim insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarda ilm-fanning muhimligi g‘oyasini ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida ham munosib hissa qo‘shgan. Xorazmiy matematika, geografiya, geodeziya, falakiyot sohalarida yirik tadqiqotlar olib borgan. Lekin u matematika sohasida ulkan yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyatchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy ilmiy merosi bilan jahon fani taraqqiyotiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi. “Al-kitob al muxtasarfi hisob aljabr va muqobala “ asarida (“Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”) sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar ularni yechish yo‘llarni bayon etadi. Risola uch qismdan iborat bo‘lib, birinchisi-algebraik qism uning oxirida savdo muomlasiga oid kichik bir bo‘lim keltiriladi. Ikkinchi - geometrik qism algebraik usul qo‘llab o‘lchashlar haqida, uchinchi qism vasiyatlar haqida bo‘lib, muallif uni “Vasiyatlar kitobi” deb ataydi. Al-Xorazmiy matematika fanida abstraksiya (mavhumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo‘li bilan umumiy yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo‘li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi. “Al-Jabr val muqobala” asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib o‘zidan avvalgi bilimlarni o‘rgandi va ularni sintezlashtirish hamda amalda qo‘llash usullarini bayon etdi. Shu asar tufayli “Al-Xorazmiy” nomli lotincha transkripsiyada “Algoritm” shaklini oldi, keyinchalik hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi algoritm algorifmga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo‘l-

larini ham ochib berdi, meros taqsim qilishda, vasiyatnomalarni tuzishda, mol taqsim etishda odamlarga kerak bo‘ladigan amaliy ishlarda zarur bo‘lgan hisoblarni taqdim etdi. Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi “Hind arifmetikasi haqida kitob” (”Hisob al-hind)dir. Asar o‘nlik tizimi raqamlariga bag‘ishlangan. Xorazmiy hindlarning falakiyot va matematikaga oid ”Sindihind” nomli qo‘llanmasini o‘qib, uning yanglish va qiyin tomonlarini qayta ishlab yangi boblar qo‘shdi va uni ”Qisqargan sindihind” (”Algoritm hind hisobi haqida”) deb atadi. Asar fakat Sharqdagina emas, Yevropada ham qo‘llanma sifatida shuhrat taratdi. O‘nlik tizimining kashf etilishi sanoq tizimida inqilobiy o‘zgarish yasadi, deb ta’rif beradilar. Yevropaga o‘nlik tizim raqamlaridan foydalanib eng katta sonlarni yozish va joylarni aniq ko‘rsatish X-XI asrlarda arablardan kirib kelgan. Xorazmiy arifmetikaning asosiy belgilari bo‘lgan qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish qoidalarini yaratgan. Turli “jins”dagi sonlarni ko‘paytirishga ham e’tibor bergan. Masalan, minut, sekundlarni bir-biriga ko‘paytirish uchun, avvalo, bir xil shaklga keltirish, ya’ni sekund yoki minutga aylantirishni ko‘rsatgan. Bundan tashqari, “Kitob suratil ard” (“Yerning surati kitobi”) geografiyaga oid dastlabki kitob sanaladi. Bu asar A.Ahmedovning tahminiga ko‘ra xaritani tavsiflagan asardir. U Xorazimiyning ko‘p yillar olib borgan tekshirish--kuzatishlari natijasi bo‘ldi. Unda olim Sharq mamlkatlari ustida kuzatishlar olib borib mamlakat va shaharlarning harakatlarini tuzadi, nomlar ro‘parasida uzunlik va kenglik darajalarini ko‘rsatadi. U geografiyaga oid risolasida yerni yetti iqlimga bo‘ladi, yer xaritasini tuzadi. Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, olamning to‘rt xaritasi - Azov dengizi, Nil daryosi Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari xaritasi saqlanib qolgan. Uning yuqoridagi asari ham Sharq va G‘arbda katta ahamiyatga egadir. Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, al-Xorazmiy ilmiy qarashlari, pedagogik va didaktik g‘oyalari, ta’lim usullari, ilm -fanga qo‘shgan ulkan hissasi bilan insoniyat aqliy kamolotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk bobomiz qomusiy olim sifatida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ravnaqida asarlari va qarashlari bilan o‘z o‘rniga ega zotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev.Pedagogik texnologiyalar asoslari.-T.: 2003
2. Yo‘ldoshev, Yo‘ldosheva.Ta’limda marketing-T.: 2003
3. swww.pedagog.uz
4.www.Ziyonet.Uz

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(10-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000